Биз жоқарыда дәстанлардың мазмунында көрип өткенимиздей мифлик мотивлердиң ҳәм сюжетлердиң еки бирдей дәстанда да қолланылыўы бирдей болып келеди. Мифлик мотивлердиң келтириўиниң тийкарғы себеплери, бириншиден сол дәстанды дөреткен халықтың атқарыўшылардың санасындағы ески мифлик сана қалдықларына байланыслы келип шыққан болса, екиншиден дәстанларға тән поэтикалық дәстүрлердиң нызамлы жалғасы сыпатында келип шыққанлығын көремиз. Усындай мазмуны бирдей мифлик мотивлердиң типологиялық сәйкес келетуғынлығын көремиз.

Жуўмақ. Улыўма айтқанда, халық дәстанларының көркемлик жақтан шебер сүўретлениўи, еки дәстан да айқын көзге тасланады. Олардың көркемлик сюжетинде мифлик мотивлердиң берилиўи дәстанлырдың ертектив формада жаратылыўы жағынан басқа дәстанлардан пүткиллей ажыралып турады. Соның ушын да, бул дәстанларды үйренгенимизде олардың сюжетлик желисинде ҳәр түрли мотивлердиң ҳәм образлардың бир-бири менен типологиялық уқсаслық тәреплерин көрсетиўге ҳәрекет еттик.

ПАЙДАЛЫНЫЛҒАН ӘДЕБИЯТЛАР:

1. Қасқабасов С. Таңдамалы шығармалары. – Астана: Фолиант, 2014. – Т. II. – Б. 145.
2. Қарақалпақстан фольклоры 13-том «Шәрьяр» дәстаны ҚҚ-н, Нөкис 1984.54-55 б
3. Қарақалпақстан фольклоры 15-том «ЕрШора» дәстаны ҚҚ-н, Нөкис «Илим» 2010. 119-б
4. Қарақалпақстан фольклоры көп томлық 24-том ҚҚ-н, Нөкис «Илим» 2010. 451-б
5. Қарақалпақстан фольклоры көп томлық 24-том Нөкис «Илим» 2010. 447. б.
6. Қарақалпақстан фольклоры 13-том «Шәрьяр» дәстаны ҚҚ-н, Нөкис 1984. 94. б.
7. Қарақалпақстан фольклоры көп томлық 24-том Нөкис «Илим» 2010. 450-451-б.
8. Қарақалпақстан фольклоры көп томлық 24-том Нөкис «Илим» 2010. 451. Б
9. Қарақалпақстан фольклоры көп томлық 24-том Нөкис «Илим» 2010-ж 451-б.
10. Қарақалпақстан фольклоры 13-том «Шәрьяр» дәстаны ҚҚ-н, Нөкис 1984. 94. б.
11. Қарақалпақ фольклоры, 24-том көп томлық Нөкис «Илим» 2010. 452-453. б.

“MÁKAN” KONCEPTINIŃ INGLIS HÁM QARAQALPAQ TILLERINDEGI SEMANTIKALÍQ STRUKTURASÍ

Palımbetova D.T.
Mámleketlik til hám shet tilleri kafedrası assistent oqıtıwshısı
Nókis mámleketlik texnika universiteti

Tayanch so'zlar: makon, tushunchaning semantikasi, tuzilishi, lingvomadaniyat, jismoniy makon, mavhum makon, shaxsiy makon, metaforik makon, ijtimoiy-madaniy makon, vaqtinchalik makon, texnologik makon.
Ключевые слова: пространство, семантика понятия, структура, лингвокультура, физическое пространство, абстрактное пространство, персональное пространство, метафорическое пространство, социально-культурное пространство, временное пространство, технологическое пространство.
Key words: space, concept semantics, structure, linguoculture, physical space, abstract space, personal space, metaphorical space, socio-cultural space, temporal space, technological space.

РЕЗЮМЕ:
Ушбу мақолада «Макон» концептининг инглиз ва қорақалпоқ тилларидаги семантик структураси ўрганилган.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье исследуется семантическая структура понятия «Макон» в английском и каракалпакском языках.
SUMMARY:
This article examines the semantic structure of the concept "Macon" in English and Karakalpak.

Insan óziniń mákan haqqındağı túsiniklerin fizikalıq obyektler menen tıǵız baylanısqa túsiw arqalı qáliplestiredi. Bul qaraw átirapdağı álemdiń materiallıq voqeligidan kelip shıǵıs keńislikdegi túsiniklerdiń ekilemshi ózgeshelikin aytıp otedi. Bunday kóz-qaras qorshaǵan ortalıqtıń tásiri astında payda bolatuúın keńislik túsinikleriniń ekilemshe qásiyetke iye ekenligin ańlatadı. Bul, óz náwbetinde, insan ańınıń qáliplesiwinde obyektlerdiń áhimiyetin kórsetip beredi hám insan ańınıń hám dúnya qarasınıń qáliplesiwi ushın universal prizmanı usınadı.

“Mákan” koncepti insannıń dúnya haqqındağı kóz-qarasın qáliplestiriwshi eki tiykarǵı konceptiń biri bolıp, til hám mádeniyatta oraylıq orındı iyeleydi. Ol

qorshaǵan ortalıq penen birge insan turmısındaǵı abstrakt, social hám kognitiv aspektlerdi de sáwlelendiredi. Bul koncept túrli tillerde túrlishe dúzilgen bolıp, bul universal kognitiv mexanizmler hám ózine tán mádeniy hám tariyxıy faktorlar menen baylanıslı.

Semantikalıq strukturalardı salıstırmalı-konceptuallıq tiykarda analiz qılıwda kognitiv lingvistika jantasıwları zárúrli áhmiyetke iye boladı. Atap aytqanda, "mákan" konceptiniń inglis hám qaraqalpaq tillerindegi semantika-strukturalıq analizin ámelge asırıw ushın E. Rosch tárepinen usınıs etilgen prototip teoriyasına qaratıw nátiyjeli esaplanadı. E.Rosch (1975) izertlewlerinde aytılıwına qaraǵanda, insan sanasındaǵı konceptler prototipler tiykarında qáliplesedi hám semantikalıq kategoriyalar ashıq shegaralarǵa iye bolmaydı, degen menen túrli prototiplik úlgilerge kóre dúziledi. Bul teoriya, ásirese, abstrakt hám quramalı túsinikler bolǵan "mákan" sıyaqlı konceptlerdi analiz qılıwda kóbirek múmkinshilikler jaratadı.

Inglis hám qaraqalpaq tillerinde "mákan" konceptiniń semantikalıq strukturaların úyreniwde prototip teoriyası tiykarında olardıń oraylıq hám shegaralıq qásiyetlerin anıqlaw zárúrli bolıp tabıladı. Mısalı, inglis tilinde "space" túsinigi ulıwma, fizikalıq hám abstrakt mánilerge iye bolıp, onıń prototiplik orayı fizikalıq keńislikti ańlatadı. Soǵan uqsas qaraqalpaq tilinde de "mákan" túsinigиniń oraylıq semantikalıq maydanı aymaq yamasa jay túsinikleri menen bekkem baylanıslı, bıraq bul túsinik bir waqıttıń ózinde mádeniy qádiriyatlar hám dástúrlerge kóre bólek ayrıqshalıqlarǵa ıye bolıwı múmkin.

Eleanor Rosch tárepinen usınılǵan kognitiv prototip teoriyasına kóre, konceptlerdiń semantikalıq strukturaları ishki hám sırtqı atributlarına kóre ajıralıp turadı. Bul atributlar konceptiniń kognitiv-mádeniy qáliplesiwinde zárúrli rol oynaydı. Bul tiykardan kelip shıǵıp, "mákan" konceptin inglis hám qaraqalpaq tillerindegi semantikalıq salıstırmalı analizde hár eki tildegi prototiplik elementler hám olardıń mádeniy-interpretrativ ayırmashılıqların anıqlaw, koncepttiń milliy-mádeniy qásiyetlerin ashıp beriwde áhmiyetli bolıp tabıladı. Solay etip, E.Rosch teoriyası arqalı "mákan" konceptiniń til hám mádeniyattaǵı semantikalıq ańlatılıwı kompleks tárzde analiz etiliwi múmkin.

Inglis tilinde "mákan" koncepti birneshe tiykarǵı leksemalar arqalı quralıp, olardıń hár biri semantikalıq strukturanı qáliplestiriwde óz úlesin qosadı: *space* (abstrakt keńislik, kosmos), *place* (konkret orın), *area* (aymaq, jer) hám *room* (bina ishindegi keńizlik). Qaraqalpaq tilinde bolsa "mákan" koncepti hám universal, hám mádeniy ózine tán aspektlerdi sáwlelendiretuǵın bir qatar leksemelar arqalı bildiriledi: *keńislik, orın, jer, maydan*. Keltirilgen leksemalar

izertlenip atırǵan konceptti̓ń tiykarın qurap, olardı̓ń mánisleri bir-birine sáykes keledi hám kontekstke qaray ózgeredi. Bul Roshtı̓ń prototip teoriyasında súwretlengenindey yadro hám shegara (periferiya)nı quraydı.

Koncept yadrosı eki tiykarǵı aspektti fizikalıq keńislik hám abstrakt keńislikti óz ishine aladı.

Fizikalıq keńislik: Bul universal hám prototip mánis bolıp ólshew yamasa ańlaw múmkin bolǵan reallıq yáki konkretlik penen baylanıslı bolıp tabıladı. *Space* lekseması ashıq, kóbinese sheksiz keńislikti ańlatadı, mısalı: *"The park has a lot of open space"* (Parkte ashıqlıq orın kóp) yamasa *"Outer space is infinite"* (Kosmos sheksiz). *Place* lekseması kóbinese funkcional yamasa emocional mániske iye bolıp, málim bir orındı belgileydi, mısalı: *"This is my favorite place"* (Bul meniń eń unatatuǵın ornım). *Area* lekseması geografiyalıq yamasa funkcionalllıq jaqtan sheklengen málim bir aymaqtı belgileydi: *"The residential area is quiet"* (Turar jay tınıshlıq).

Qaraqalpaq lingvomádeniyatında bul koncept kóbirek ashıq landshaft penen baylanıslı. Bul kóshpeli turmıs keshiriwi menen baylanıslı bolıwı múmkin. Orın lekseması funkcional hám social mánili konkret bir orındı ańlatadı. Mısalı, *"Bul meniń ornım". Maydan* lekseması ashıq dalańlıqtı bildirip kóbinese jámiyetlik maqsetlerde paydalanıladı: *Jarıs ahıq maydanda ótkerildi. Jer* lekseması belgili bir aymaqtı názerde tutadı: *Bul ónimli jer.*

Joqarıda keltirilip ótilgen leksemalardı̓ń ańlatatuǵın mánisler L.Talmi tárepinen tariyiplengen mákannı̓ń universal kognitiv taypalarına sáykes keledi. Ásirese, L. Talmy tárepinen islep shıǵılǵan konceptuallıq strukturalaw sistemaları teoriyası buǵan baylanıslı bólek orın iyeleydi. Talmy (2000) aytıp ótkeni sıyaqlı, insan sanasındaǵı konceptler túrli konceptuallıq sxemalar hám sistemalar arqalı dúziledi. Bul konseptuallıq sxemalar keńisliktegi hám temporal qatnaslardı anıqlawda zárúrli qural retinde xızmet etedi hám de tillerara ayırmashılıqlar hám uqsaslıqlardı anıqlawǵa járdem beredi.

L.Talmy teoriyasına kóre, konceptual sistemalar eki tiykarǵı komponentten ibarat bolıp, olar figuralar hám tiykarlardan dúziledi. Figuralar konceptuallıq tárepten dinamikalıq hám ózgeriwshen, tiykarlar bolsa statikalıq hám turaqlı ayrıqshalıqlardı ańlatıw ushın xızmet etedi. Bul sistema, ásirese, keńislikdegi qatnaslar hám "mákan" túsinigini̓ń semantikalıq ańlatılıwın úyreniwde nátiyjeli qollanıladı. L.Talmy keńisliktegi sistemalar ishinde jónelis, jaylasıw hám háreket sıyaqlı zárúrli táreplerdi ajıratıp kórsetken.

Inglis hám qaraqalpaq tillerinde "mákan" konceptin analiz qılıwda L.Talmy teoriyası járdeminde konceptuallıq strukturalaw sistemaların anıqlaw hám salıstırıw múmkin. Mısalı, inglis tilinde keńisliktegi qatnaslar anıq hám ayqın

tárzde verballastırıladı hám kóbinese prepoziciyalar arqalı ańlatıladı. Qaraqalpaq tilinde bolsa keńislikdegi qatnaslardıń ańlatılıwı grammatikalıq konstrukciyalar hám postpoziciyalar arqalı ámelge asırıladı. Bul ayırmashılıqlar tillerdiń ishki kognitiv strukturası hám mádeniy qásiyetlerin sáwlelendiredi.

Solay etip, L. Talmy tárepinen islep shıǵılǵan konceptuallıq strukturalaw sistemaları teoriyası "mákan" konceptiniń inglis hám qaraqalpaq tillerindegi semantikalıq strukturaların tereńrek túsiniw hám analiz etiw ushın zárúrli ilimiy tıykardı usınıs etedi.

Ásirese, G. Lakoff hám M. Johnson tárepinen usınılǵan metaforalıq konceptualizaciya teoriyası "mákan" konceptin úyreniwde bólek rol oynaydı. G.Lakoff hám M.Johnson (1980) aytıp ótkeni sıyaqlı, metaforalar insan oylawınıń tiykarǵı komponentlerinen biri bolıp, konceptlerdiń qáliplesiwinde oraylıq orın iyeleydi. Olar insannıń kúndelik tájiriybesi arqalı qáliplesken abstrakt túsiniklerdi túsindiriwde metaforalar zárúrli rol oynawın tastıyıqlaydı.

"Mákan" koncepti kóbinese metaforalıq tiykarda qáliplesip, insannıń keńisliktegi qıyalları arqalı basqa abstrakt konceptlerdi ańǵarıw quralı retinde xızmet etedi. Mısalı, inglis tilinde "space" metaforalıq tárepten waqıt, múmkinshilik yamasa erkinlik sıyaqlı túsiniklerdi ańlatıw ushın keń qollanıladı (mısalı, "time is space" metaforası arqalı waqıt koncepti ańlatıladı). Tap sonday qaraqalpaq tilinde de "mákan" koncepti kóbinese keńislik, ózlik yamasa qarım-qatnas túsiniklerin ańlatıwda metaforalıq túrde qollanıladı.

G.Lakoff hám M.Johnsonnıń atap ótiwinshe, metaforalıq strukturizaciya procesi insannıń mádeniy hám til tájriybesine baylanıslı. Bul tárepten inglis hám qaraqalpaq tillerinde "mákan" konceptiniń metaforalıq ańlatılıwında milliy-mádeniy ayrıqshalıqlar sezilerli dárejede parıqlaniwi múmkin. Inglis tilinde "up-down", "front-back" metaforaları keń tarqalǵan bolsa, qaraqalpaq tilinde mádeniy qádiriyatlar hám dástúrlerge tiykarlanǵan basqa baǵdardaǵı metaforalar da gúzetiliwi múmkin.

Solay etip, G.Lakoff hám M.Johnson metaforalıq konceptualizaciya teoriyası inglis hám qaraqalpaq tillerindegi "mákan" konceptiniń semantikalıq strukturasın úyreniwde zárúrli stilistikalıq qural bolıp, bul koncepttiń mádeniy hám til tájriybesine kóre qanday qáliplesiwin anıqlaw múmkinshiligin beredi.

Abstrakt keńıslik: bul mánis mental yamasa konceptual keńislik sıyaqlı kórinbeytuǵın, material emes kategoriyalar menen baylanıslı. Mısalı: *space* leksemaası *«mental space»* (mental keńislik) sóz dizbeginde oylaw yáki pikir júritiw ushın kerekli maydandı bildiredi: *«I need some mental space to process this»* (Bunı kórip shıǵıw ushın maǵan mental keńislik kerek). Qaraqalapq tilinde de izertlenip atırǵan koncept leńsemalarınıń abstrakt mánileri ushırasadı.

Orın sózi atqaratuǵın rol yáki statustı ańlatıwı múmkin: Ol ornınan qorqadı. Ol júregimnen orın iyeledi. Yadrodıń bul aspekti, Lakoff hám Jonson aytıp ótkenindey, abstrakt ideyalardı keńisliktegi metaforalar arqalı dúziw ushın insannıń kognitiv qábiletin sáwlelendiredi.

Yadrodıń semantikalıq qásiyetlerine "lokalizaciya", "ólshem" (úlken/kishi keńislik), "sheklengenlik" (ashıq/jabıq), "funkcionallıq" (is-háreket ushın orın) hám "qol jetimliklik" (paydalanıw múmkin/múmkin emes) sıyaqlı atributlar kiredi. Bul qásiyetler universal bolıp tabıladı hám inglis tilinde keńislikti ańlawdıń tiykarın quraydı.

Inglis tilindegi konceptiń shegarası kóbirek yadronı keńeytetuǵın kontekstual, metaforikalıq hám mádeniy mánislerdi óz ishine aladı. Shegaralıq mánisler kóbinese fizikalıq bolmaǵan hádiyselerdi súwretlew ushın keńislikten paydalanılǵanda metaforalıq kóshiw arqalı payda boladı. Tiykarǵı periferik aspektlege tómendigiler kiredi:

Jeke maydan: *space* lekseması *personal space* dizbegi quramında adam átirapındaǵı kórinbeytuǵın boslıq ańlatıp, qolaylılıq hám jekelikti ańlatadı: «Please respect my personal space» (Iltimas meniń jeke keńisligimdi húrmet etiń). Bul mánis jeke shegaralar joqarı bahalanatuǵın individualizmge tiykarlanǵan inglis lingvomádeniyatı sáwlesi bolıp tabıladı.

Semantikalıq strukturalardı salıstırmalı-konceptuallıq tiykarda analiz qılıwda E.T. Halldıń "jasırın ólshemler/hidden dimention" teoriyası (1966) zárúrli orın tutadı. E.T. Hall izertlewlerinde "mákan" koncepti mádeniy tárepten belgilengen aymaq retinde kóriledi hám insanlar arasındaǵı qatnaslarda keńislikdegi aralıqtıń zárúrligi aytıladı. Onıń atap ótiwinshe, hár bir mádeniyat ayrıqsha "keńisliktegi tili" sol adamlar arasındaǵı aralıqtı tártipke saladı hám de baylanıs procesin anıqlaydı.

E.T. Halldıń pikirine qaraǵanda, "mákan" koncepti insan minez-qulqları hám kommunikaciyasında tórt tiykarǵı aralıqtan zonaǵa ajraladi: jaqın, jeke, social hám ǵalabalıq. Bul zonalar insanlardıń óz-ara tásirinde mádeniy jáne social tárepten belgilengen bolıp, olar mádeniy qádiriyatlardı sáwlelendiredi. Inglis hám qaraqalpaq tillerinde "mákan" konceptiniń semantikalıq strukturasın analiz qılıwda E.T. Halldıń bul teoriyasına kóre, keńisliktegi aralıqtıń til hám mádeniyattaǵı ańlatılıwın salıstırıw múmkin.

Mısalı, inglis tilindegi kommunikaciya ádetde jeke jáne social zonalardıń anıq shegaralarına iye boladı, bunda insanlar óz keńisliktegi shegaraların qatań belgilep qoyıwǵa beyim boladı. Qaraqalpaq tilinde hám mádeniyatında bolsa shaxslarara qatnaslarda keńislikdegi shegaralar inglis tiline salıstırǵanda kemrek

hám maslasıwshı bolıwı múmkin. Bul ayırmashılıqlar hár eki mádeniyattağı kommunikacion minez-qulıqtıń semantikalıq ańlatılıwında sáwlelenedi.

Solay etip, E.T. Halldıń "jasırın ólshemler" teoriyası inglis hám qaraqalpaq tillerindegi "mákan" konceptiniń semantikalıq strukturasın tereńrek hám tolıqraq analiz etiw ushın zárúr ilimiy tiykar bolıp xızmet etedi.

Qaraqalpaq tilinde jeke maydan sóz dizbeginiń ózi bul til iyeleri ushın ersi esitiliwi múmkin. Bul kollektivizmge tiykarlanǵan jámiyet qáliplesken mádeniyat bolıwına baylanıslı bolıwı múmkin. Qaraqalpaq tilindegi dereklerde bul eki sózdiń birge qollanılǵanın ushıratpadıq.

Metaforalıq maydanı: ***space of opportunities yamasa space for growth*** sıyaqlı sóz dizbekler ***spaceti*** potencial yamasa háreket erkinligin kórsetiw ushın paydalanadı: «This job offers a lot of space for creativity» (Bul jumıs dóretiwshilik ushın kóp imkaniyatlar jaratadı). Bul jerde mákan metaforikalıq túrde múmkinshilikler ámelge asırılatuǵın qutı retinde qabıl etiledi. Qaraqalpaq tilindege metaforalıq mánis: Ol meniń júregimnen orın iyeledi.

Social-mádeniy maydan: ***place*** lekseması kóbinese social rol yamasa tiyislilikti bildiriw ushın qollanıladı: «She found her place in the team» (Ol toparda óz ornın taptı). Qaraqalpaq tilinde de tap usı leksemanıń, atap aytqanda ***orın*** leksemasınıń uqsas mánide qollanılıwı ushırasadı: Ol jámiyetten óz ornın taptı. Bul mánis mákannıń emocional hám social áhmiyetin kórsetip Fillmordıń freym semantikasına sáykes keledi.

Lera Baroditsky (2000) óz izertlewinde waqıt túsiniginiń keńisliktegi metaforalar arqalı ańlatılıwın tereń úyrenip shıqqan. Ol waqıt túsiniginiń metaforalıq ańlatılıwı insan oylawındağı tiykarǵı kognitiv processlerden biri ekenligin kórsetedi. Analitikalıq analizler dawamında avtor til hám mádeniyat faktorları waqıt hám mákan konceptlerdiń metaforalıq ańlatılıwına tikkeley tásir etiwi múmkinligin belgilegen.

Ol óz izertlewinde waqıt túsiniginiń keńislikdegi metaforalar menen baylanıslı eki tiykarǵı baǵdarın analiz etken: gorizontal hám vertikal jónelisler. Inglis tilinde ádette gorizontal jónelisler (mısalı, aldınǵa-keyin basıw baǵdarı) tiykarǵı orın iyeleydi. Bunday metaforalar arqalı inglis tilinde waqıttı keleshek hám ótken zaman sıyaqlı eki bólim koncept retinde sanada sáwlelendiriw ádet kórinisine kirgen. Izertlew nátiyjelerine kóre, keńisliktegi metaforalardıń qollanılıwı insanlardıń waqıt haqqındağı túsiniklerin qáliplestiriwde hám basqa abstrakt túsinikler menen baylanısıwda da úlken rol oynaydı.

Waqıtlıq maydan: Ayırım kontekstlerde space «a space of time» (waqıt aralığı) sóz dizbeginde bolǵanı sıyaqlı waqıt koncepti menen kesilisedi, mısalı: «We completed it in a short space of time» (Biz qısqa waqıt ishinde pitirdik).

Qaraqalpaq tilinde izertlenip atırǵan konceptti ańlatıwshı leksemalardıń waqıt penen birge wollanılıwı ushıraspadı. Bul mákan hám waqıttıń inglis tilindegi kognitivlik baylanısın kórsetedi.

Analitikalıq analiz nátiyjelerinen kelip shıqqan halda qaraqalpaq tilinde waqıt hám mákan konceptleriniń metaforalıq ańlatılıwında ayırıqsha tárepler bolıwı múmkinligi anıqlanadı. Qaraqalpaq tilinde hám mádeniyatında waqıttı ańǵarıwda keńislikdegi jónelislerge tiyisli metaforalar basqa sırtqı kórinislerde ańlatılıwı múmkinligi názerde tutıladı. Sol arqalı, L.Barodicky izertlewleri eki túrli til hám mádeniyat sheńberindegi "mákan" konceptiniń semantikalıq strukturasın analiz qılıwda zárúrli hám paydalı derek bolıp xızmet etedi.

Texnologiyalıq maydan: Búgingi kúnde *space* túsinigin kosmos hám texnologiya menen baylanıstıradı: «space exploration» (barlıq izertleniwi) yáki «cyberspace» (kibermaydan). Bul mánisler inglis hám qaraqalpaq tillerinde sóylesiwshi mámleketlerdiń mádeniy kontekstin sáwlelendiredi, bul jerde ilimiy rawajlanıw hám innovaciyalar zárúrli rol oynaydı.

Atap aytqanda, Ch.J. Fillmordıń freym semantika teoriyası tiykarǵı metodlardan biri retinde qollanıladı. Mısalı, freym semantikası hár bir konceptiń jaǵdayǵa tiyisli bilimler sisteması arqalı qanday qáliplesiwin túsiniwge járdem beredi. Ch.J. Fillmor (1982) aytıp ótkeni sıyaqlı, konceptler insan sanasında freymlar formasında shólkemlesken bolıp, hár bir freym arnawlı bir jaǵday yamasa haqıyqatlıq haqqındaǵı bilimler sistemasın óz ishine aladı. Bul bilimler sisteması haqıyqatlıq haqqındaǵı túsinik jáne onı ańlatıw ushın zárúr bolǵan semantikalıq elementlerdi támiyinleydi.

Freym teoriyasına kóre, "mákan" koncepti túrli semantikalıq freymlar arqalı túsiniledi hám ańlatıladı. Ch.J. Fillmordıń (1982) pikirine kóre, freym - bul insan tájiriybesiniń málim bir kontekstte shólkemlesken bilimler sisteması bolıp, hár bir freym ayrıqsha rol, qatnasıwshılar hám atributlardan ibarat. Hár bir freym ishinde oraylıq hám shegaralıq elementler bolıp, olar haqıyqatlıqtıń túrli táreplerin óz ishine aladı. Oraylıq elementler tiykarǵı maǵlıwmattı ańlatsa, shegaralıq elementler bolsa qosımsha, kontekstuallıq maǵlıwmat beredi.

Mısalı, "sayaxat" freymında oraylıq element retinde háreket etiwshi subyekt (jolawshı) hám háreket maqseti (mánzil) ajıratılsa, shegaralıq element retinde transport quralı, sapar dawam etiw waqtı yamasa hawa rayı sharayatı kiritiliwi múmkin. Inglis hám qaraqalpaq tillerindegi "mákan" konceptiniń semantikalıq strukturasın analiz etiwde Ch.J. Fillmordıń freym semantikası járdeminde konceptke tiyisli bilimlerdi salıstırıw hám olardıń mádeniy qásiyetlerin tereń úyrenip anıqlaw múmkinshiligi bar.

Mısalı, inglis tilinde “room” (bólme) koncepti tek fizikalıq keńislikti ańlatadı hám ádetde shegaralanǵan jabıq mákan retinde sanada sáwlelendiriledi, qaraqalpaq tilinde bolsa “ortalıq” túsinigi tek ǵana fizikalıq jaydı emes, bálki ol menen baylanıslı social hám mádeniy qatnaslar sistemasın da ańlatıwı múmkin. Bul bolsa hár eki tilde “mákan” koncepti átirapındaǵı freymlerdiń quramı hám mádeniy baǵdarın anıqlawǵa múmkinshilik beredi.

Inglis tilinde keńislikdegi túsinikler anıq hám tolıq freymler arqalı ańlatıladı, bunda fizikalıq hám abstrakt mákanlarǵa tiyisli elementler anıq ajıratıladı. Qaraqalpaq tilinde bolsa keńislikdegi túsinikler basqa hár qıylı freymler arqalı shólkemlesken bolıwı múmkin, bunda mádeniy ayrıqshalıqlar hám milliy qádiriyatlardıń tásiri sezilerli boladı. Sonıń menen birge, inglis tilinde kóbirek freymlerdiń elementleri leksikalogiyalıq birlikler arqalı anıq hám ayqın ańlatıladı, qaraqalpaq tilinde bolsa kóbirek kontekstual súwretler, kóp mánili sóz dizbekler yamasa mádeniyatqa tán simvolikalıq ańlatpalar arqalı beriliwi múmkin.

Solay etip, Ch.J. Fillmordıń freym semantikalıq teoriyası inglis hám qaraqalpaq tillerindegi “mákan” konceptiniń semantikalıq strukturasın ilimiy tárepten tereńrek hám anıqlaw túsiniwge múmkinshilik beredi. Bul teoriya eki til arasındaǵı semantikalıq ayırmashılıqlardı hám uqsaslıqlardı analiz etiw ushın nátiyjeli metodologiyalıq tiykar esaplanadı. Freym analizine kóre, inglis tilinde “space” koncepti tómendegi strukturalıq bólimlerge iye: oraylıq element retinde fizikalıq keńislik (mısalı, “open space”, “empty room”), periferiyalıq elementler retinde bolsa erkinlik, múmkinshilik hám rawajlanıw túsinikleri keledi (mısalı, “give someone space” - erkinlik beriw). Inglis tilinde “space” freymi kóbinese texnologiyalıq, ilimiy hám individuallıq erkinlik tarawlarında keń qollanıladı.

Qaraqalpaq tilinde “mákan” koncepti bolsa dástúriy hám jámiyet orayında kóbirek sociallıq qádiriyatlar menen baylanıslı. Oraylıq element retinde fizikalıq jay (mısalı, “dala”, “atız”) ańlatsa, periferiyalıq elementler retinde mádeniy-sociallıq áhmiyetli túsinikler, mısalı, miymandoslıq, tóplanǵanlıq (jıyınlar ushın jay) hám dástúrlerge tiyisli mákan túsinikleri anıqlanǵan. “Mákan” qaraqalpaq tilinde tek ǵana keńislik emes, bálki jámiyettegi óz-ara baylanıslar hám birgeliktegi tájiriybeler konteksti retinde de túsiniledi.

Inglis hám qaraqalpaq lingvomádeniyatındaǵı “mákan” konceptiniń semantikalıq strukturasındaǵı ózgeshelikler mádeniy kontekst penen baylanıslı. Inglis tili qalalastırılǵan, individuallıq jámiyette qáliplesken bolıp, maydan kóbinese jeke maqsetler jolında resurs sıpatında qaralǵan. Qaraqalpaq tili

bolsa kóshpeli mádeniyat tásiri astında keń dalańlıqlar ómir súrgen jámiyet ortalıǵında rawajlanǵan.

Ulıwmalastırıp aytqanda, “maydan” koncepti inglis hám qaraqalpaq tillerinde universal yadro birlestirip turadı, biraq shegarada ózgeshelikler ushırasadı. Inglis tili individualizmge pát berse, qaraqalpaq tili kollektiviz tásiri astında qáliplesken. Bunnan tisqarı metaforalıq hám waqıtlıq maydamǵa qaynaslı ózgeshelikler ushırasadı.

PAYDALANILǴAN ÁDEBIYATLAR:

1. Boroditsky L. Metaphoric structuring: Understanding time through spatial metaphors // Cognition. - 2000. - Vol. 75, № 1. - P. 1–28.

2. Fillmore C. J. Frame semantics // Linguistics in the morning calm. - Seoul: Hanshin Publishing, 1982. - P. 111–137.

3. Hall E. T. The hidden dimension. - New York: Doubleday, 1966. - 217 p.

4. Lakoff G., Johnson M. Metaphors we live by. - Chicago: University of Chicago Press, 1980. - 242 p.

5. Levinson S. C. Space in language and cognition: Explorations in cognitive diversity. - Cambridge: Cambridge University Press, 2003. - 389 p.

6. Rosch E. Cognitive representations of semantic categories // Journal of Experimental Psychology: General. - 1975. - Vol. 104, № 3. - P. 192–233.

7. Talmy L. Toward a cognitive semantics: Concept structuring systems. - Cambridge: MIT Press, 2000. - 565 p.

POLIPREDIKATIV GAPLARNING SINTAKTIK SISTEMADAGI O‘RNI

Aytbayev D.T.
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti professori, filologiya fanlari doktori (DSc)

Tayanch so‘zlar: sintaktik tizim, predikativlik kategoriyasi, predikativlik, polipredikativ gaplar, polipredikativ konstruksiyalar, qo‘shma gaplar, kognitiv tilshunoslik, pragmalingvistika, ko‘p predikatli qurilma, nominalizatsiya, parallel predikatsiya, ajratilgan bo‘laklar, harakat nomi, ravishdosh oborotlar, gerundial oborotlar , sifatdosh o‘ramlar, sust aloqali polipredikativ gaplar, yarim zich aloqada komponentlar , transformatsiya, transforma, ajratilgan bo‘lakli sodda gaplar, ajratilgan bo‘lakli qo‘shma gaplar.
Ключевые слова: синтаксическая система, категория предикативности, предикативность, полипредикативные предложения, полипредикативные конструкции, составные предложения, когнитивная лингвистика, прагмалингвистика, многопреди-кативное устройство, номинализация, параллельное сказуемое, разделенные фрагменты, имя действия, наречные обороты, герундиальные обороты, прилагательные обертки, слабо связанные полипредикативные предложения, компоненты в полуплотной связи, преобразование, преобразование, простые предложения с разделенными частями, составные предложения с разделенными частями.
Key words: syntactic system, predicativity category, predicativity, polypredikative sentences, polypredikative constructions, compound sentences, cognitive linguistics, pragmalinguistics, multi-predicate device, nominalization, parallel predication, separated clauses, action name, eloquent oborotes, gerundial oborotes, adjectival Scrolls, weak-connected polypredikative clauses, semi-dense-contact components, transformation, transform, cleaved simplicial clauses, separated clause.

РЕЗЮМЕ:
Mazkur maqolada gapning asosiy belgisi predikativlik ekanligi, o‘zida predikativlik belgilarini to‘la namoyon etuvchi har qanday predikatning o‘zi minimal gap ekanligi, ilmiy adabiyotlarda predikat maqomi turlicha baholanganligi va xorijiy hamda maxalliy olimlarimizning predikat, polipradikaivlikt haqidagi qarashlari, polipredikativ butunlik komponentlari o‘rtasidagi aloqaning susayishi komponentlar ichidagi predikativ munosabatlarning yaqqolroq namoyon bo‘lishiga olib kelishini borasida fikrlar yuritiladi.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье показано, что основным признаком предложения является предикативность, что любой предикат, в полной мере проявляющий в себе признаки предикативности, сам по себе является минимальным предложением, что статус предиката в научной литературе оценивается по-разному, и что взгляды наших зарубежных и отечественных ученых на

предикат, полипрадикативность, ослабление связи между компонентами полипредикативного целого являются результатом изменения предикативных отношений внутри компонентов.что приводит к более выраженным проявлениям.

SUMMARY:

In this article, it is argued that the main sign of the sentence is predicativity, that any predicate that fully manifests the signs of predicativity in itself is a minimal sentence, that the status of the predicate in the scientific literature is assessed differently, and that the views of foreign and maxillary scientists on predicate, polypradicaivity, the weakening of communication between the components of the.

Tilning sintaktik tizimi fikrni shakllantirish va ifodalashning asosiy vositasi hisoblanadi. Har qanday gap predikativlik kategoriyasi orqali voqelik bilan bog‘lanadi. Predikativlik – gapning grammatik markazi bo‘lib, unda zamon, shaxs-son va modal munosabat mujassam bo‘ladi. Polipredikativ gaplar esa tarkibida ikki va undan ortiq predikativ birlikni mujassam etgan sintaktik tuzilmalar sifatida til tizimida alohida o‘rin egallaydi. Ular fikrni murakkab, ko‘p qirrali tarzda ifodalash imkonini beradi.

Polipredikativ gaplar masalasi zamonaviy sintaksis nazariyasida muhim ilmiy muammolardan biri hisoblanadi. Til taraqqiyoti jarayonida fikrni murakkab, ko‘p qatlamli va mantiqan bog‘langan holda ifodalash ehtiyoji ortib bormoqda. Bunday ehtiyoj esa, avvalo, polipredikativ konstruksiyalar orqali ta’minlanadi. Shuning uchun ham polipredikativ gaplarning sintaktik tizimdagi o‘rnini aniqlash, ularning struktur-semantik va funksional xususiyatlarini chuqur tahlil qilish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Hozirgi o‘zbek tilshunosligida qo‘shma gaplar bo‘yicha muayyan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, polipredikativlik hodisasini sintaktik sistema doirasida, ya’ni uning ierarxik tuzilish, predikativ markazlar o‘rtasidagi munosabat va kommunikativ-pragmatik vazifalar bilan uzviy bog‘liqlikda o‘rganish zarurati saqlanib qolmoqda. Ayniqsa, gapning formal tuzilishi bilan uning semantik-struktur butunligi o‘rtasidagi munosabatni aniqlash masalasi nazariy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda matn lingvistikasi, kognitiv tilshunoslik va pragmalingvistika kabi yo‘nalishlarning rivojlanishi polipredikativ konstruksiyalarga yangicha yondashuvni talab etmoqda. Chunki polipredikativ gaplar nafaqat sintaktik birlik, balki, axborot uzatish, mantiqiy bog‘lanish va nutq strategiyasini amalga oshirish vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Shuningdek, ta’lim jarayonida o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini shakllantirish, murakkab sintaktik konstruktsiyalarni to‘g‘ri qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirish ham mazkur mavzuning amaliy ahamiyatini oshiradi. Demak, polipredikativ gaplarning sintaktik sistemadagi o‘rnini aniqlash va ularni nazariy hamda amaliy jihatdan

tadqiq etish bugungi tilshunoslikning dolzarb ilmiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Gapning asosiy belgisi predikativlikdir, shunday ekan, o‘zida predikativlik belgilarini to‘la namoyon etuvchi har qanday predikatning o‘zi minimal gapdir [4; 65]. Polipredikativ gap – shakli jihatidan sodda gaplarga o‘xshash, lekin ma’nosi, qurilishi va intonatsiyasi jihatidan bir butunlikni tashkil etuvchi bir necha bo‘laklardan tashkil topgan murakkab gap [9].

Polipredikativlik (*yunoncha “poly” – ko‘p, “predikativ” – kesimga oid*) bir gap tarkibida bir nechta predikativ markazning mavjudligini anglatadi. Bunday gaplarda har bir predikativ birlik o‘zining grammatik asosiga ega bo‘ladi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, polipredikativ gaplar (ko‘p predikatli gaplar) – tarkibida bir nechta predikativ markaz (predikativ birlik) bo‘lgan murakkab gaplar turi. Ular sodda gaplardan farqli o‘laroq, bir nechta mustaqil yoki bog‘langan predikativ birliklarni o‘z ichiga oladi [10].

Gapning asosiy belgisi ham predikativlikdir, shunday ekan, o‘zida predikativlik belgilarini to‘la namoyon etuvchi har qanday predikatning o‘zi minimal gapdir [4; 65]. Ilmiy adabiyotlarda predikat maqomi turlicha baholanadi: unga mazmuniy, mantiqiy va grammatik tushuncha sifatida qaraladi. Mazmuniy tushuncha sifatida predikat – har qanday sintaktik qurilmaning nominativ asosi; grammatik tushuncha sifatida predikat – o‘zi boshqarib kelayotgan sintaktik elementlarning markazi; mantiqiy tushuncha sifatida esa u – fikrning subyekt belgisini bildiruvchi qismi. Ko‘rinadiki, gapning markazi, uning propozitiv strukturasi predikat hamda uning argumentlaridan, ya’ni predikativ ifodadan tashkil topadi [7; 246, 8]. Predikativ ifodalarning miqdoriga ko‘ra gaplar bir predikatli (mono-predikatli) va ko‘p predikatli (polipredikatli) gaplarga ajratiladi.

Gap haqidagi sintaktik nazariyalarni tahlil qilar ekan, professor A.Nurmonov ko‘p predikatli gaplarda bir predikativ ifodaning grammatik va semantik markazi bo‘lgan predikat predikativlik formasiga ega bo‘lib, grammatik to‘la shakllanishini, qolgan predikat ifodalarning predikatlari esa predikativ formaga ega bo‘lmasligini e’tirof etadi. Olimning ta’kidlashicha, bunday predikat ifodalar ma’lum propozitsiyani ifodalasa ham, gap bo‘lib shakllana olmaydi [8;74]. Demak, ko‘p predikatli qurilmalarda o‘zida predikativlik belgilarini to‘la aks ettirmagan predikativ ifodalar muayyan propozitsiyani ifodalashidan qat’iy nazar, mustaqil gap bo‘la olmaydi. A.Nurmonov dunyo tilshunoslarining, xususan, U.Veynreyxning fikriga tayangan holda, ko‘p predikatli gaplarda predikatlarning shu gapni shakllantirishdagi xizmati bir emasligi, bittasi predikativ formalarni olib, gapni gap qilib shakllantirsa, qolganlari bunday

xususiyatga ega bo‘lmasligi, ammo propozitsiyalar shu gapdagi predikatlar miqdoriga muvofiq bo‘lishini ta’kidlaydi va bunday gaplarni faqat sintaktik tuzilish nuqtayi nazaridan sodda, semantik jihatdan esa murakkab xarakterga ega bo‘lishini ta’kidlaydi [4; 80].

V.G.Gak “Fransuz tilining nazariy grammatikasi” nomli asarida polipredikativlikning uch darajasini ajratadi: zich aloqali polipredikativlik; yarim zich aloqali polipredikativlik hamda sust aloqali polipredikativlik [1; 178]. Olimning fikricha, zich aloqali polipredikativ gaplarda qo‘shiluvchi (включаемая) propozitsiya asosiy propozitsiya bilan umumiy strukturani tashkil etadi. Bunga nominalizatsiya (predikativligi susaygan propozistiya), parallel predikatsiya (uyushiq bo‘laklar orqali ifodalangan predikatsiya) hamda murakkab predikatsiyani kiritadi. Yarim zich aloqali polipredikativ gaplarda ajratilgan bo‘laklar, harakat nomi, ravishdosh va gerundial oborotlar (o‘zbek tilida: sifatdosh o‘ramlar) ishtirok etadi. Sust aloqali polipredikativ gaplarda esa butun tarkibidagi mavjud propozitsiyalarning har biri alohida predikativ yadroni hosil qilishini ta’kidlaydi va qo‘shma gaplarni shuning ichiga kiritadi. Sust aloqali polipredikativ gap komponentlari o‘rtasidagi aloqaning bo‘shashib ketishi alohida gaplarning hosil bo‘lishiga olib kelishini, ya’ni polipredikativ butunlik komponentlari o‘rtasidagi aloqaning susayishi komponentlar ichidagi predikativ munosabatlarning yaqqolroq namoyon bo‘lishiga olib kelishini aytadi [1; 178].

Yarim zich aloqada komponentlar polipredikativ munosabatlar orqali bog‘lanadi. Tobe munosabatda turgan predikativ birlikning predikativ ko‘rsatkichlari to‘liq bo‘lmaydi. Tobe qism, ya‘ni ajratilgan bo‘lak, oborotlar (o‘ramlar) qo‘shimcha predikatsiyani ifoladaydi va murakkablashgan gapni hosil qiladi.

V.G.Gak nominalizatsiya bu transformatsiya bo‘lib, unda jarayon fe’l bilan emas, substantiv so‘zlar – otlar bilan (to‘liq nominalizatsiya) yoki infinitiv bilan (to‘liqsiz nominalizatsiya) ifodalanishini aytadi [1; 179]. Bizningcha esa, nominali-zatsiya bu transformatsiya emas. Chunki nominalizatsiya derivatsiyaga asos bo‘ladi. D.Nabiyeva muayyan sintaktik qurilmani ma’lum substansiyaning transformalari deyish uchun shu transformalarda substansiya ma’nosining takrorlanishi sezilishi lozimligini, chunki barcha transformalar birlashib, bir umumiy paradigmani hosil qilishini aytadi [3; 153]. Olima transformatsiya modeli va transformaning hosil qilinishi haqida so‘z yuritar ekan, shunday deydi: “...Transformatsiya haqidagi ana shu nazariyaga tayangan ayrim o‘zbek tilshunoslari ham predikativ strukturaning transformalar uchun operand vazifasini bajarishini ta’kidlaydilar. Masalan, *“Halima o‘qidi”, “Halimaning o‘qishi”, “Halima o‘qigach”, “Halima o‘qiganda”, “Halima o‘qisa”* singari

sintaktik qurilmalar bir paradigma ostida birlashtiriladi. Bosh paradigma a'zosi sifatida *"Halima o'qidi"* sintaktik qurilmasi qaraladi va boshqa barcha paradigma a'zolari ana shu bosh paradigma a'zosining turli transformalari sifatida qaraladi. Bu o'rinda, bizning nazarimizda, transformatsiya bilan derivatsiya qorishtirilgandek, bu ikki hodisa o'rtasidagi umumiylik va o'ziga xoslik e'tiborga olinmagandek ko'rinadi. Transformatsiya transformalarga asos bo'lgan qismning mohiyati o'zgarmagan holda sodir bo'ladi. Agar mohiyati o'zgarib ketsa, yangi mohiyat kasb etsa, u holda transformatsiya emas, derivatsiya vujudga keladi" [3; 153].

Demak, transformatsiya permutatsiya , kommutatsiya , ellipsis singari ko'rinishlardan iborat bo'lib, nominalizatsiya bilan bir tushuncha emas. Nominalizatsiya derivatsiyaga olib keladi.

Shu o'rinda propozitsiya tushunchasi haqida qisqa ma'lumot berishni lozim topdik. O'zbek tilshunosligida propozitsiya va uning ifodalanishini monografik planda o'rgangan R.Davlatova propozitsiyani obyektiv borliqdagi vaziyatning tildagi ifodasi sifatida baholasa [2; 7], rus tilshunosligida O.I.Moskalskaya gapning "mazmuniy yadrosi" [5; 9] ekanligini ta'kidlaydi [2; 7], H.Usmonova esa propozitsiya tushunchasi hozirgi tilshunoslikda keng qo'llanilib, muayyan sintaktik qurilma vositasida ifodalangan obyektiv voqelikni ifodalashini aytadi. Olimaning fikricha, har qanday gap muayyan propozitsiyani ifodalasa ham, lekin har qanday propozitsiyaning gap orqali ifodalanishi shart emas, propozitsiya gapning mazmun tomoniga daxldor bo'lib, propozitsiya va gap tushunchalari bir-biriga teng emas. Propozitsiya gapdan, avvalo, mundarijasi nuqtayi nazaridan farq qiladi. Gap shakl va mazmun munosabatidan tashkil topgan butunlik deb hisoblansa, propozitiv tuzilish gapning faqat mazmuniy tuzilishining bir tomoniga tegishli sanaladi [6; 16]. Shunday ekan, gapning, xususan, qo'shma gaplarning shakli va mazmuni o'rtasidagi munosabatdorlikni ochish uchun propozitsiya, polipredikativlik singari tushunchalar va ularning tasnifiga alohida to'xtalish maqsadga muvofiqdir.

O'zbek tilidagi polipredikativ gaplarni V.G.Gakning tasnifiga asoslangan holda quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Zich aloqali polipredikativ gaplar: uyushiq bo'lakli gaplar (uyushiq bo'lakli sodda gaplar; uyushiq bo'lakli qo'shma gaplar); nominalizatsiyalashgan birliklar qatnashgan gaplar (nominalizatsiyalashgan birliklar qatnashgan sodda gaplar va nominalizatsiyalashgan birliklar qatnashgan qo'shma gaplar).

2. Yarim zich aloqali polipredikativ gaplar: ajratilgan bo'laklar qatnashgan gaplar (ajratilgan bo'lakli sodda gaplar va ajratilgan bo'lakli qo'shma gaplar); harakat nomi o'ramlari (harakat nomi o'ramli sodda gaplar va harakat nomi

o‘ramli qo‘shma gaplar); sifatdosh o‘ramlar (sifatdosh o‘ramli sodda gaplar va sifatdosh o‘ramli qo‘shma gaplar); ravishdosh o‘ramlar (ravishdosh o‘ramli sodda gaplar va ravishdosh o‘ramli qo‘shma gaplar).

3. Sust aloqali polipredikativ gaplar: ikki komponentli qo‘shma gaplar va ko‘p komponentli qo‘shma gaplar.

Quyida polipredikativ gaplarning uyushiq va ajratilgan bo‘lakli qo‘shma gaplarda sintaktik-semantik asimmetriya yuzaga kelish holatlarining kuzatilishiga misollar keltirsak. Masalan: *Bu yigit yo‘lda Siddiqjonga xotinidan kelgan xatni, xotini bilan bolasining suratini ko‘rsatibdi, hasrat qilibdi.* (A.Qahhor) Mazkur gap – ikki komponentli qo‘shma gap. Birinchi komponenti (*Bu yigit yo‘lda Siddiqjonga xotinidan kelgan xatni, xotini bilan bolasining suratini ko‘rsatibdi*) orqali quyidagi propozitsiyalar ifodalangan: 1) *bu yigit yo‘lda Siddiqjonga xotinidan kelgan xatni ko‘rsatibdi;* 2) *xotini bilan bolasining suratini ko‘rsatibdi.* U zich aloqali polipredikativ gap bo‘lib, qo‘shiluvchi propozitsiya asosiy propozitsiya bilan umumiy strukturani tashkil etgan. Shuning uchun uni (birinchi komponentini) qo‘shma gap deb bo‘lmaydi. Gapning ikkinchi komponentida esa (*hasrat qilibdi*) murakkablashtiruvchi vositalar qatnashmagan. Demak, mazkur gap shaklan ikki sodda gapdan tashkil topgan bo‘lib, mazmunan uchta propozitsiyani ifodalagan:

1) *bu yigit yo‘lda Siddiqjonga xotinidan kelgan xatni ko‘rsatibdi;* 2) *xotini bilan bolasining suratini ko‘rsatibdi;* 3) *hasrat qilibdi.* Natijada uyushiq bo‘laklar qatnashgan ikki komponentli qo‘shma gapning shakli va mazmuni o‘rtasida asimmetriya yuzaga kelgan.

Ajratilgan bo‘laklar gapni faqat mazmuniy jihatdan murakkablashtiradi, chunki ular qatnashgan sodda gaplarda har doim birdan ortiq propozitsiya ifodalanadi. Ular qo‘shma gaplar tarkibida ham qo‘llanib, gapni mazmunan murakkablashtirishi mumkin. Masalan: *Uzoqdan otliqlarning – Alisher va uning hamrohlarining – qorasi ko‘rinishi bilan, xalq katta his-hayajonlarining sehri ostida bir muddat jim turdi.* (Oybek) Mazkur ergash gapli qo‘shma gapning birinchi komponenti ergash gap, ikkinchisi bosh gap. Ergash gap tarkibida ajratilgan aniqlovchi qatnashgan. U orqali otliqlarning kim ekanligi haqida to‘liqroq ma’lumot berilmoqda. Gap shaklan ikki qismdan, ergash va bosh gaplardan iborat. Ammo mazmunan uchta propozitsiya ifodalangan: *1) uzoqdan otliqlarning qorasi ko‘rindi; 2) otliqlar Alisher va uning hamrohlaridir; 3) xalq bir muddat jim turdi.* Ajratilgan bo‘lak gapning mazmunan murakkablashishiga sabab bo‘lgan, natijada jumlaning shakli va mazmuni o‘rtasida asimmetriya yuzaga kelgan. Bunday holatni ajratilgan bo‘lakli qo‘shma gaplarning barchasida kuzatish mumkin. Masalan: *Ovqat*

mahalida har kim o‘z istak-orzusidan so‘zladi, *Dilbar Yangiyerga – qurilishga yo‘llanma olganini aytdi.* (J.Abdullaxonov) Mazkur bog‘lovchisiz qo‘shma gapning ikkinchi komponentida o‘rin holi ajratilgan. Gapning mazmuniy mundarijasida quyidagi propozitsiyalar mavjud: *1) har kim o‘z istak-orzusidan so‘zladi; 2) bu ovqat mahalida edi; 3) Dilbar qurilishga yo‘llanma olganini aytdi; 4) qurilish Yangiyerda.*

Gapning birinchi komponentida ham, ikkinchi komponentida ham mazmuniy murakkablashuv mavjud. *Ovqat mahalida har kim o‘z istak-orzusidan so‘zladi* qismida *so‘zladi* asosiy predikatsiyani, *ovqat mahalida* esa ikkilamchi predikatsiyani ifodalagan va u ot predikatli propozitiv nom (H.Usmonova) orqali yuzaga chiqqan. Gapning *Dilbar Yangiyerga – qurilishga yo‘llanma olganini aytdi* qismida esa mazmuniy murakkablashuv *Yangiyerga – qurilishga* ajratilgan holining hisobiga yuzaga kelgan. Bu esa qo‘shma gapning shakli va mazmuni o‘rtasidagi asimmetriyaga olib kelgan.

Polipredikativ gaplarning tasnifiga asoslangan holda, uyushiq va ajratilgan bo‘lakli qo‘shma gaplarda, nominalizatsiyalashgan birliklar qatnashgan qo‘shma gaplarda hamda sifatdosh, ravishdosh va harakat nomli o‘ramlar ishtrok etgan qo‘shma gaplarda sintaktik-semantik asimmetriya yuzaga kelish holatlari kuzatiladi.

Ko‘rinadiki, sodda gaplar singari qo‘shma gaplarda ham uyushiq bo‘laklar va ajratilgan bo‘laklar qatnashganda, bunday konstruksiyalarning shakli va mazmuni o‘rtasida asimmetriya kuzatiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Гак В.Г. Теоретическая грамматика французского языка. Синтаксис.– М.: Высшая школа, 1981. – С. 178.

2. Давлатова Р. Пропозиция ва унинг ўзбек тилида ифодаланиши: Филол.фан.номз. …дисс.автореф. – Тошкент, 2009. – Б. 7.

3. Набиева Д. Ўзбек тилининг турли сатҳларида умумийлик-хусусийлик диалектикасининг намоён бўлиши. – Тошкент: Шарқ, 2005. – Б. 153.

4. Нурмонов А. Гап ҳақидаги синтактик назариялар. – Тошкент: Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика институти, 1988. – Б. 65.

5. Москальская, О. И. Грамматика текста. Учеб. Пособие. – М.: Высш. шк., 1981. – С. 9.

6. Усмонова Ҳ.Ш. Ўзбек тилидаги гап бўлакларининг позицион структураси: Филол.фан.д-ри. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2009. – Б.16.

7. Харковский В.С. Категории глагола и структура предложения – конструкции с предикатными актантами. – Л., 1983. – С. 246.

8. https://tr.pinterest.com/pin/15692298697863622/. (Murojaat sanasi: 27.02.2026).

9. https://www.researchgate.net/publication/392714095 (Murojaat sanasi: 26.02.2026).

10. https://www.google.com/search?q=Polipredikativ+gaplar (Murojaat sanasi: 26.02.2026).

O‘ZBEK TILIDA KELISHIKLAR SINONIMIYASI VA GAP BO‘LAKLARINI AJRATISH MUAMMOLARI

Dosanov N.
Nizomiy nomidagi O'zMPU dotsenti

Tayanch so‘zlar: sinonimiya, kelishik, o‘zbek tili, gap bo‘laklari.
Ключевые слова: синонимы, согласные, узбеки, фразы.
Key words: synonyms, consonants, Uzbeks, phrases.

РЕЗЮМЕ:
Sinonimiya hodisasi faqat leksik birliklarda emas, so‘z yasovchi va grammatik shakl yasovchi qo‘shimchalarda ham kuzatiladi. Ularga nisbatan mavjud darslik va qo‘llanmalarda affiks sinonimlar, morfologik sinonimlar, grammatik sinonimlar, qo‘shimchalar ma’nodoshligi terminlari ishlatiladi. Malakaviy ishda sintaktik shakl yasovchilardan bo‘lgan kelishik shakllari sinonimiyasi va uning so‘z birikmasi turlari hamda gap bo‘laklarini ajratishga ta’siri masalalari o‘rganildi.
РЕЗЮМЕ:
Синонимы встречаются не только в лексических единицах, но также в словообразовательных и грамматических суффиксах. В существующих учебниках и руководствах используются такие термины, как аффикс-синонимы, морфологические синонимы, грамматические синонимы и суффиксы. Качественное исследование исследовало синонимию создателей синтаксических форм и их значение для словарного запаса и разделения предложений.
SUMMARY:
Synonyms are found not only in lexical units, but also in word-building and grammatical suffixes. Existing textbooks and manuals use terms such as affix synonyms, morphological synonyms, grammatical synonyms, and suffixes. Qualitative research investigated the synonymy of the creators of syntactic forms and their significance for vocabulary and separation of sentences.

Ma’nodoshlik (sinonimiya) o‘zbek tilida atroflicha o‘rganilgan hodisalardan hisoblanadi. Buborada, ayniqsa, A.Hojiyev, Sh.Rahmatullayev, A.G‘ulomov kabi olimlarning xizmatlari katta. Sinonimiya hatto Alisher Navoiyning ham nazariga tushgan hodisalardan. Navoiy turkiy tilning ifoda imkoniyatlari haqida gapirar ekan, bir ma’noni darajalanishiga yoki holatiga qarab turib birnechta so‘z orqali berish mumkinligini, fors (tojik) tilida esa bunday imkoniyatning yo‘qligini aytib o‘tadi. Aka, uka, og‘a, ini; singil, egachi, opa kabi so‘zlarning fors (tojik) tilida bir so‘z – birodar va xoxar so‘zlari bilan berilishini ta’kidlaydi.

Bu sinonimiya hodisasini o‘rganishning o‘zbek tilshunosligida uzoq tarixga egaligini ko‘rsatadi.

Sinonimiya hodisasi faqat leksik birliklarda emas, so‘z yasovchi va grammatik shakl yasovchi qo‘shimchalarda ham kuzatiladi. Ularga nisbatan mavjud darslik va qo‘llanmalarda affiks sinonimlar, morfologik sinonimlar, grammatik sinonimlar, qo‘shimchalar ma’nodoshligi terminlari ishlatiladi.

Sinonimiya grekcha “synonima” so‘zida nolingan bo‘lib, “bir xil ma’nodagi nom” degan tushunchani beradi. Ushbu hodisa faqat so‘zlargagina emas, boshqa til birliklariga ham xos. Shunga ko‘ra sinonimlarning turlari quyidagicha ajratiladi:

1. Leksik sinonimlar
2. Frazeologik sinonimlar
3. Affiksal sinonimlar

Malakaviy ishda sinonimiyaning alohida ko‘rinishi affiks (ba’zi adabiyotlarda morfologik, grammatik, qo‘shimcha) sinonimlar, xususan, kelishik shakllarida ma’nodoshlik va gap bo‘laklarini ajratish muammolari xususida so‘z boradi.

Ma’lumki, ismlarning gapda qanday bo‘lak vazifasida kelishini kelishik shakllari belgilab beradi. Aniqrog‘i, mavjud darsliklarda kelishik kategoriyasining umumiy grammatik ma’nosi “o‘zi qo‘shilgan so‘zni keyingi so‘zga tobelantirib bog‘lash va gapdagi sintaktik vazifasini belgilash” deb belgilanadi. Haqiqatdan ham, kelishik shakllarining sintaktik shakl yasovchilik tabiatiuning shu vazifalarida ko‘rinadi. Biroq sinonimiya hodisasining kelishiklarda yuzaga chiqishi gap bo‘laklarini ajratishda birmuncha muammolarni keltirib chiqaradi.

Turkiy tillarda kelishikning semantik va vazifaviy jihatini bir-biridan alohida va har xil mikrosistemaga keskin bo‘lib o‘rganib bo‘lmaydi, chunki bu tillar kelishigining ma’no va vazifasi dialektik birlikda yashaydi, kelishikning turli funksiyasi bir-biriga turli belgisi bilan qarama-qarshi qo‘yiladi. Masalan, jo‘nalish kelishigi, o‘rin-payt kelishigi va chiqish kelishigi birxil – hol va to‘ldiruvchi vazifasida kela oladi. Biroq u bu vazifani turlicha bajaradi.

Darslik va grammatikada har bir kelishikning yigirma-o‘ttiz ma’no turi keltiriladi. Uning aksariyati kelishik kategoriyasi umumiy grammatik ma’nosiga xos bo‘lmagan, birikuvchi so‘zning lug‘aviy va grammatik ma’nosiga bog‘liq hodisa. Shu boisdan harbir kelishik mohiyatini kelishik kategoriyasi umumiy grammatik ma’nosidagi kategorial ma’no – «oldingi so‘zni keyingi so‘zga bog‘lash» substansial mohiyatini qay tarzda xususiylashtirishidan qidirmoq lozim.

Ma’lumki, ismlarning gapda qanday bo‘lak vazifasida kelishini kelishik shakllari belgilab beradi. Aniqrog‘i, mavjud darsliklarda kesimlik

kategoriyasining umumiy grammatik ma’nosi “o‘zi qo‘shilgan so‘zni keyingi so‘zga tobelantirib bog‘lish va gapdagi sintaktik vazifasini belgilash” deb belgilanadi. Haqiqatdan ham, kelishik shakllarining sintaktik shakl yasovchilik tabiatiuning shu vazifalarida ko‘rinadi. Biroq sinonimiya hodisasining kelishiklarda yuzaga chiqishi gap bo‘laklarini ajratishda birmuncha muammolarni keltirib chiqaradi.

Kelishik shakllarining aksariyati, masalan, chiqish kelishigi barcha kelishiklar o‘rnida qo‘llanishi, ma’nodosh bo‘lishi mumkin. Masalan:

Bosh kelishik bilan: *Bu kitobdan menda ham bor – Bu kitob menda ham bor.*

Qaratqich kelishigi bilan: *Qizlarning to‘rttasi biz tomonga burildi – Qizlardan to‘rttasi biz tomonga burildi.*

Tushum kelishigi bilan: *U stol ustidagi choyni ho‘plab, gapida davom etdi – U stol ustidagi choydan ho‘plab, gapida davom etdi.*

Jo‘nalish kelishigi bilan: *Shu teshikka ho‘kiz sig‘ishiga kim ham ishonardi – Shu teshikdan ho‘kiz sig‘ishiga kim ham ishonardi.*

O‘rin-payt kelishigi bilan: *U yo‘lida adashdi – U yo‘lidan adashdi.*

Mana shunday holatlarda gap bo‘laklari va so‘z birikmasi turlarini ajratish muammoli bo‘lib qoladi. Malakaviy ishning asosiy maqsadi mavjud darslik va qo‘llanmalarda ushbu hodisaga munosabatlarni aniqlash va mavzuga doir qarashlarni o‘rganib, bir tizimga yig‘ib, muammoni ilmiy asoslashdan iborat.

Kelishiklarning belgili / belgisiz qo‘llanilishi va bir-biri o‘rin almashinilishi, ma’nodoshligi masalasi hamon munozarali bo‘lib qolmoqda. Ayrim tilshunoslar “Kelishik kategoriyasidagi so‘z uyushganda oldingi so‘z shakldagi kelishiknigina belgisiz deyish tarafdorimiz. Masalan: *Salim, Karim va Halimni ko‘rdim* (belgisiz TK). *Opalarim va akalarimning dardlari bir dunyo (belgisiz QK). Nasada daraxtlari osti, namachitlar, nadoim bazm qiziydigan gavjumda biror sharpa eshitasiz* (belgisiz O‘PK). (J.Abd.)” deb hisoblaydilar.

Mavjud grammatikalarda kelishikshaklidagi so‘zlarning sintaktik vazifasi xususida so‘z borar ekan quyidagi jumlalarni uchratamiz:

“Kelishik kategoriyasi ko‘proq ot turkumi uchun xoslangan. Bosh kelishikdagi ot kim, nima, qayer so‘rog‘iga javob bo‘lib, quyidagi vazifada keladi:

Ega: 1. *Salim – eng yosh o‘qituvchi.* 2. *Darvoza tepasiga sandiq qo‘yilgandi.*

Hol: *Shu kuni Abdulla* ***allamahalgacha*** *xayol suribyotdi. (O‘.Umarb.). Yer haydasang,* ***kuz*** *hayda,* ***kuz*** *haydamasang, yuz hayda.* (Maq.)

Vositasiz to‘ldiruvchi: *Murotali qazib qo‘ygan chuqurga* ***ko‘chat*** *o‘tqazardi (Sh.Rashidov) . Birkishi* ***ariq*** *qaziydi, ming kishi* ***suv*** *ichadi.* (Maq.)

Qaratuvchi aniqlovchi: Ko‘k yuzini yulduzlar band etdi. (J.Abdullaxonov) **Cho‘l** qovuni pishay-pishay deb turibdi. (S.Ahmad)

Sifatlovchi: *Shu payt elektr qo‘ng‘iroq asta jiringladi.* (H.G‘ul.)

Izohlovchi: *Daryodan o‘tilgan kun general Pogodin harbiy Kengashga chaqirildi.* (I.Rahim)”

Ko‘rinib turibdiki darslik mualliflari belgisiz qo‘llangan boshqa kelishikdagi so‘zlarni ham bosh kelishigi deb qarayaptilar. Biroq maktab, litsey darsliklarida belgili-belgisiz qo‘llanishga bosh kelishik sifatida qaralmasligining guvohi bo‘lamiz.

Kelishiklar sinonimiyasi va belgisiz qo‘llanish holatlariga doir muammolar o‘z yechimini topmasa, nafaqat gap bo‘laklari, balki so‘z birikmasi turlarini belgilashda ham muammolar mavjudligi aniqlashadi. Kelishik shakllarini qabul qilishiga ko‘ra ismlarning gapdagi vazifasi aniqlanadi. Harbir turkumga qo‘shilar ekan kelishikshakllari o‘ziga xos holatda umumiy grammatik ma’nosini parchalashini kuzatamiz. Masalan, otkesim (Otam – ishchi), undalma (Siz baxtlisiz, Olimjon aka), atov gap (Ko‘m-ko‘kdala) vazifasida kelganda, uni bosh kelishikda dey ish to‘g‘ri emas. Aytilganidek, bunda kelishik umumiy grammatik ma’nosiga xos vazifa yuzaga chiqmagan.

Kelishik kategoriyasi fe’lda egalik kategoriyasi bilan dialektik yaxlitlikda voqelanadi. Ya’ni kelishik kategoriyasi ko‘rsatkichini qabul qiluvchi fe’lda undan oldin egalik affiksi bo‘lishi shart: o‘qiganimni, o‘qiganimdan, o‘qiganimga, borishimga, borishimda kabi. Kelishik kategoriyasi fe’lning asosan tuslanmagan shaklida yuzaga chiqadi. Kelishik kategoriyasidagi fe’l bir qarashda tuslangan fe’ldek tasavvur uyg‘otadi. Masalan, *Barcha ayb mening borganligimda*. Bunda egalik qo‘shimchasi qaralmish fe’lni qaratuvchiga bog‘lamoqda, ega emas. Gapning egasi ayb so‘zi bo‘lib, kesimda shaxs-son kategoriyasining III shaxs, birlik shakli mavjud. Egalik kategoriyasining shakli esa I shaxs birlik.

Kelishik kategoriyasidagi fe’l gapning barcha bo‘lagi vazifasida kela oladi: ega: *Mening borganim – sening borganing;* hol: *Achchig‘i chiqqanidan yig‘ladi;* to‘ldiruvchi; *Borganidan uyaldi*; aniqlovchi: *Borishining siri nimada?* kesim: *Hamma gap ishlamaganida*.

Kelishik kategoriyasidagi fe’l matndan kelib chiqib: a) «harakatning obektlashishi»;b) «payt»;v) «sabab»; g) «evaz» kabi ma’noni anglatadi: a) Salimning borganini aytmoq, o‘quvchining o‘qiganini so‘ramoq; b) kelganida gapirdi, yurganida o‘ylamoq; v) achchig‘i chiqqanidan yig‘ladi, quvonganidan gapirolmay qoldi, gapirganiga uyaldi; g) ishlamaganiga gap eshitdi; bormaganiga afsuslandi. Bu sir ani birikuvchi so‘zdan anglashilgan voqelikning munosabatiga

qarab ancha davom ettirish mumkin. Kelishik kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosidagi «oldingi so'zni keyingi so'zga bog'lash» kategorial ma'no fe'l turkumida «oldingi fe'lni keyingi so'zga bog'lash» tarzida xususiylashadi.

Kelishik kategoriyasi sifatda egalik kategoriyasi bilan birga qo'llanadi.

Bosh kelishikdagi sifat ega vazifasida keladi: 1. *Ukamning kichigi - o'qituvchi.* 2. *Darvoza tepasiga shoxning kattasi qo'yilgandi.*

Qaratqich kelishigidagi sifatda kelishik kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosi «sifatni qaratqich aniqlovchi vazifasida keyingi so'zga bog'lash» tarzida xususiylashadi: *Inson yalqovining bahonasi ko'p*. (J.Abdullaxonov)

Tushum kelishigidagi sifat gapda ish-harakatni qabul qilgan predmetga obekt tusini beradi va tushum kelishigi affiksini qabul qilgan sifat vositasiz to'ldiruvchi vazifasida keladi. «Sifatga obekt tusini berish va uni fe'lga vositasiz to'ldiruvchi sifatida bog'lash» tushum kelishigi umumiy grammatik ma'nosining sifat turkumidagi xususiylashuvidir: *Gulning qizilini ajratdi.*

Chiqish kelishigi kelishik kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosini umuman «oldingi so'zni keyingi fe'lga o'rin-payt holi va vositasiz to'ldiruvchi vazifasida bog'lash» tarzida, sifat turkumida esa «oldingi sifatni keyingi fe'lga o'rin-payt holi va vositasiz to'ldiruvchi vazifasida bog'lash» ko'rinishida xususiylashtiradi.

Chiqish kelishigidagi sifatning vazifasi:

a) vositali to'ldiruvchi: *Qarzni odamning yaxshisidan so'rang.* («Saodat»)

b) o'rin holi: *Eshigi ochiq narigi xonadan pianino ovozi eshitilmoqda edi.* (P.Qodirov)

v) sabab holi: *Piyozning achchig'idan ko'zi qizardi.*(M.Muhamedov)

Jo'nalish kelishigidagi sifatish-harakat yo'nalgan predmetni belgisi bilan anglatadi: og'iriga, yaqiniga.

Jo'nalish kelishigidagi sifat gapda to'ldiruvchi, hol kabi bo'lak vazifasida keladi: 1. *Qiz ko'zining qorasiga havaslanib boqdi.* 2. *Bola hovuzning to'lasiga yugurdi.*

Ko'rinadiki, jo'nalish kelishigi sifat turkumida kelishik kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosini «oldingi sifatni keyingi fe'lga vositali to'ldiruvchi va hol vazifasida bog'lash» tarzida xususiylashtiradi.

O'rin-payt kelishigi sifat turkumida kelishik kategoriyasini «oldingi sifatni keyingi so'zga vositali to'ldiruvchi va hol vazifasida bog'lash» tarzida xususiylashtirib, ish-harakatning bajarilish o'rni, vaqti, sharoiti, holati, sababi, maqsadi kabi tajalli ma'noni ifodalaydi: *Odamning pismig'ida gap ko'p.*

Kelishik kategoriyasi sonda ham egalik kategoriyasi bilan birga qo'llanadi.

Bosh kelishikdagi son ega vazifasida keladi: 1. *Daftarning uchtasi menda.* 2. *Darvoza tepasiga shoxning ikkitasi qo‘yilgandi.*

Qaratqich kelishigidagi sonda kelishik kategoriyasi umumiy grammatik ma’nosi «sonni qaratqich aniqlovchi vazifasida keyingi so‘zga bog‘lash» tarzida xususiylashadi: *Sigirning ikkitasining suti ko‘p.*

Tushum kelishigidagi son gapda ish-harakatni qabul qilgan predmetga obekt tusini beradi va tushum kelishigi affiksini qabul qilgan son vositasiz to‘ldiruvchi vazifasida keladi. «Songa obekt tusini berish va uni fe’lga vositasiz to‘ldiruvchi sifatida bog‘lash» tushum kelishigi umumiy grammatik ma’nosining son turkumidagi xususiylashuvidir: *Gulning uchtasini ajratdi.*

Chiqish kelishigi kelishik kategoriyasi umumiy grammatik ma’nosini umuman «oldingi so‘zni keyingi fe’lga o‘rin-payt holi va vositasiz to‘ldiruvchi vazifasida bog‘lash» tarzida, son turkumida esa «oldingi sonni keyingi fe’lga o‘rin-payt holi va vositasiz to‘ldiruvchi vazifasida bog‘lash» ko‘rinishida xususiylashtiradi.

Chiqish kelishigidagi sonning vazifasi:

a) vositali to‘ldiruvchi: *Qarzni odamning ikkinchisidan so‘rang.*

b) o‘rinholi: *Eshigi ochiq narigi xonaning birinchisidan pianino ovozi eshitilmoqda edi.*

Jo‘nalish kelishigidagi son ish-harakat yo‘nalgan predmetni belgisi bilan anglatadi: birinchisiga, uchoviga.

Jo‘nalish kelishigidagi son gapda to‘ldiruvchi, hol kabi bo‘lak vazifasida keladi: 1. *Qo‘zi-ining uchoviga havaslanib boqdi.* 2. *Bola mashinaning birinchisiga yugurdi.*

Ko‘rinadiki, jo‘nalish kelishigi son turkumida kelishik kategoriyasi umumiy grammatik ma’nosini «oldingi sonni keyingi fe’lga vositali to‘ldiruvchi va hol vazifasida bog‘lash» tarzida xususiylashtiradi.

O‘rin-payt kelishigi son turkumida kelishik kategoriyasi umumiy grammatik ma’nosini «oldingi sonni keyingi so‘zga vositali to‘ldiruvchi va hol vazifasida bog‘lash» tarzida xususiylashtirib, ish-harakatning bajarilish o‘rni, vaqti, sharoiti, holati, sababi, maqsadi kabi tajalli ma’noni ifodalaydi: Bizning beshovimizda chor ayo‘q.

Harbir kelishikning o‘z formasi, ma’nosi va sintaktik vazifasi bor. Masalan, jo‘nalish kelishigi ot, olmosh, son va otlashgan so‘zlarga qo‘shilib, ot bilan fe’l orasidagi sintaktik munosabatni ko‘rsatadi. Uning asosiy ma’nosi harakatning yo‘nalish o‘rnini bildirishdir. Bundan tashqari payt, atash, sabab, maqsad ma’nolarini ham ifodaqiladi.

Qaratqich kelishigi ot bilan otni grammatik aloqaga kiritadi: jurnalning varag‘i, odamning gavdasi.

Tushum, jo‘nalish, o‘rin, chiqish kelishiklari otni fe’l bilan aloqaga kiritadi: xatni o‘qidi, klubga bordim, institutga kirdim, uydan keldim. Kelishik formasidagi otlar ot va fe’ldan boshqa turkumdagi so‘zlar bilan ham munosabatga kirishadi: Otdan baland, itdan past. Uyat o‘limdan qattiq. (Maqol)

Qaratqich, tushum, chiqish, jo‘nalish, o‘rin-payt kelishiklari otni (ot vazifasida kelgan boshqa so‘zni) boshqa so‘zga tobelash uchun xizmat qiladi. Bosh kelishik – aksincha, u boshqa so‘zni bosh kelishikdagi otga tobelaydi.

Kelishiklarning ma’nolari va funksiyalari ko‘makchilarning ma’nolari va funksiyalari bilan munosabatda bo‘lishi mumkin. Bu hol nutqda kelishikli va ko‘makchili konstruksiyalar sinonimiyasini yuzaga keltiradi: telefonda gaplashdim – telefon orqali gaplashdim. Ukamga oldim – ukam uchun oldim.

Kelishiklar ma’nodoshligi mavzuni tushuntirishda biroz murakkablikni keltirib chiqaradi. Kelishiklar sinonimiyasi mavzusini o‘qitish o‘quvchining gap bo‘laklarini aniqlash, so‘z birikmasi turlarini to‘g‘ri ajratishga doir bilimlarini o‘stirish uchun xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdurahmonov G‘. O‘zbek tili grammatikasi.Toshkent: O‘qituvchi, 1996.-247 b.

2. G‘ulomovA. O‘zbek tilida kelishiklar. FA O‘zbekiston filialining asarlari. 11 seriya. Filologiya. 2-kitob. - Toshkent. 1941.

3. Hozirgi o‘zbek adabiytili. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining 1-kurs talabalari uchun darslik. A.Nurmonov va boshq.– T.:“ILMZIYo”, 2010. 160 b.

4. IbrohimovT. Gapning bosh bo‘laklari: Filol. fan. nom…. dis. avtoref. - Toshkent, 1955. - 21 b.

5. Ne’matov H. Chegara kelishigi // O‘zbek tili va adabiyoti. -1974. -№4. -B.38-39.

6. Ne’matov H. -ga va -da kelishik qo‘shimchalarining funksional almashinishiga doir // O‘zbek tili va adabiyoti. - 1973. - №4.

7. Nurmonov A., Mahmudov N., Ahmedov A., Solixo‘jayeva S. O‘zbek tilining mazmuniy sintaksisi. - Toshkent: Fan, 1992. - 292 b.

ONA TILI DARSLARIDA INTEGRATIV TA'LIM VOSITASIDA TAYANCH KOMPETENSIYALARNI TAKOMILLASHTIRISHNING METODIK ASOSLARI

Allayorov T.R.
O'zMPU dotsenti

Tayanch so'zlar: integrativ, integratsiya, tayanch kompetensiya, ona tili darsi, boshlang'ich ta'lim.
Ключевые слова: интегративность, интеграция, базовая компетенция, родной язык, начальное образование.
Key words: integrativity, integration, basic competence, mother tongue, primary education.

РЕЗЮМЕ:
Maqolada boshlang'ich sinflarda ona tili darslarini o'qitishda, o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishda interativ vositalardan foydalanish, integratsion darslarni tashkil etish yuzasidan fikr-mulohazalar bildirilgan.
РЕЗЮМЕ:
В статье рассматриваются вопросы использования интерактивных инструментов для преподавания уроков родного языка в начальной школе, формирования базовых компетенций у учащихся и создания интегрированных уроков.
SUMMARY:
The article discusses the use of interactive tools for teaching native language lessons in elementary school, the formation of basic competencies in students and the creation of integrated lessons.

Jahonda o'quvchilarni kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan holda o'qitish, ona tilini o'qitish sifatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tadqiq etish hamda o'quvchilarda nazariy bilimlarni amalda qo'llash malakalarini rivojlantirishga doir ilmiy tadqiqotlar keng miqyosda olib borilmoqda.

Respublikamiz ta'lim muassasaslarida o'quvchi-yoshlarning erkin, mustaqil fikrlash, atrofdagi voqelikka ongli munosabatda bo'lish, daxldorlik va ijtimoiy faollik kabi sifatlarini rivojlantirish, muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirishning moddiy-texnik bazasiyaratildi, me'yoriy hujjatlar ishlab chiqildi. Sog'lom bolani voyaga yetkazishda ta'lim tizimining rolini kuchaytirish, boshlang'ich ta'limning yuqori sifatini ta'minlab, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatiga joriy qilish uchun zamin yaratildi. Chunonchi, O'zbekiston

Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida muhim vazifalar sifatida “mustaqil fikrlaydigan, qat’iy hayotiy nuqtai nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish” kabilar belgilab berilgan. Bu esa shaxsning intellektual qirralarini shakllantirish, uning jamiyat ishlab chiqarishi va ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma’rifiy hayotida faol va muvaffaqiyatli ishtirokini ta’minlashga zamin yaratadi.

Ma’lumki, kompetensiya atamasi ma’lum sohaga oid bilim, ko‘nikma, malaka va tajribalar majmuini anglatadi. Zamonaviy ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil etish asosida kompetensiyalarning quyidagi tavsifi aniqlashtirildi: 1) insonning mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishi, jamoaviy qarorlarni hamkorlikda qabul qilishda ishtirok etishga qodirligi bilan bog‘liq ijtimoiy kompetensiyalar; 2) jamiyat hayotini tartibga soladigan, intolerantlikning namoyon bo‘lishiga to‘sqinlik qilish, shuningdek, insonning boshqa madaniyat, til va din vakillari bilan hamjihatlikda yashashga tayyorligini ifoda etuvchi madaniyatlaro kompetensiyalar; 3) zamonaviy ijtimoiy hayot va kasbiy faoliyatda alohida ahamiyat kasb etuvchi og‘zaki va yozma muloqot ko‘nikmalariga egaligini belgilaydigan lingvistik kompetensiyalar; 4) innovatsion texnologiyalarni egallash alohida ustuvorlik kasb etadigan axborotlashgan jamiyatning yuzaga kelishi bilan bog‘liq informatsion kompetensiyalar; 5) insonning butun umri davomida nafaqat tanlagan kasbi, balki shaxsiy va ijtimoiy hayotiy zarurat sifatida o‘z-o‘zini rivojlantirishga doir kompetensiyalar.

Boshlang‘ich sinflarda ona tili ta’limi sohasidagi kompetensiyaviy yondashuvga ko‘ra o‘quvchilarning bilim olishlarida o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchni tarbiyalash, ijodiy fikrlashini rivojlantirish, qoidalarni ongli ravishda o‘zlashtirishlariga erishish, nutqidagi xatolarni qoida asosida korreksiyalash malakalarini hosil qilish metodikasini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. O‘zbekistonda ta’lim-tarbiya sifati, jumladan, boshlang‘ich ta’lim samaradorligini oshirish, malakali mutaxassislar bilan ta’minlash, o‘quv-uslubiy ta’minotini mustahkamlashga qaratilgan islohotlar natijasida boshlang‘ich sinflarda ona tili fanini integrativ yondashuv asosida o‘qitish, modulli ta’lim texnologiyalarini qo‘llash, o‘quv materiallarini strukturalashtirish, ta’lim mazmunini ilmiy tashkil etishga erishilmoqda. Shu bilan birga, boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishda integrativ vositalardan foydalanishning metodik jihatlarini aniqlashtirish zarurati mavjud. Bu esa o‘quvchilarning mustaqil fikrlash malakasini shakllantirishda ona tilidan egallanayotgan bilimlarni amalda qo‘llashni o‘rgatishning innovatsion yondashuvga asoslangan, integrativ vositalar asosida samaradorlikka erishish metodikasini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi.

Ona tili fanini o‘qitishga bag‘ishlangan tadqiqotlarni o‘rganib, tahlil qilinganda, metodist olim A.G‘ulomov o‘z kuzatishlari asosida bunday deb yozadi: «Ayrim o‘qituvchilar: «O‘quvchi ona tilining qonun-qoidalarini bilsa, aytib bersa, u savodli yozadi», – degan fikrni ilgari suradilar. Bu fikrga qo‘shilish ancha qiyin. Ona tilining qonun-qoidalarini bilish boshqa, undan amaliy ish jarayonida foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lish boshqa. Afsuski, ona tili darslarida hamon qonun-qoidalarni bilish bilan uni amaliy ishda qo‘llash orasida ma’lum tafovut saqlanmoqda».

A.G‘ulomov, M.Abduraimovalar tadqiqotlaridan metodik adabiyotlardagi fikrlardan yana shu narsa anglashilib turibdiki, qoidani o‘zlashtirish bilan uni qo‘llash farqli jarayonlar bo‘lib, birinchi harakatning bajarilishi pirovardida ikkinchisi o‘z-o‘zidan shakllanib qolmaydi: ikkinchisiga ham darslarda yetarli o‘rin ajratish, o‘quvchilarda tegishli ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, ijodiy topshiriqlar ustida ishlash, boshqacha aytganda, qoidani o‘zlashtirish bilan uni amalda qo‘llash jarayonini bir butun holga keltirish kerak. «Lingvistik bilim – ko‘nikma va malakalarning asosi» nomli metodik qo‘llanmada: «Agar o‘quvchi qoidani amalda tatbiq eta olmasa, bunga u emas, balki biz, o‘qituvchilar va metodistlar aybdormiz», – deb ta’kidlanadi. Bu fikr unchalik to‘g‘ri emas, chunki muallim ko‘pincha o‘quv-metodik majmualardan kelib chiqib dars o‘tadi, ayrim hollardagina o‘zida to‘planayotgan ijobiy xulosalar – tajribasini ishga soladi. Shunday ekan, masalaga kengroq yondashish, mavjud yutuq va kamchiliklarning ildizini aniqlash maqsadga muvofiqdir.

Nazariy bilimni o‘zlashtirish va amalda qo‘llash jarayonida egallanishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarga, ularning hosil bo‘lish yo‘lida bajariladigan amallarga, an’anaviy metod va usullarga atroflicha tavsif berish lozim. Ma’lumki, nazariy bilimlarning bir qismi shu darsning o‘zida amalda qo‘llanmaydi. Shuning uchun ular (termin, ta’rif, tavsif va tasniflar) o‘rganilgandan keyin, faqat mustahkamlanishi kerak. Nazariy bilimlar sirasida nutqning to‘g‘riligini ta’minlash uchun xizmat qiladigan qoidalargina amalda tatbiq etilishi tabiiy. Bu holatlar farqlanmagan ayrim metodik qo‘llanmalarda mustahkamlashga ustuvor ahamiyat berilgan.

Integratsiya yetarlicha namoyon bo‘la olgan, turli xarakterli mazmunning singdirilishi natijasida yangi sifatiy holatga o‘tishda asosiy omil bo‘lib yuzaga chiqa oluvchi faktor hisoblanadi. Integratsiya chuqur, noan’anaviy ta’lim bilan tavsiflana oluvchi, turfa xarakterdagi katta hajmli o‘quv materialining uyg‘unlashuvini o‘zida namoyon etadi.

«Integratsiya» tushunchasi XVIII asrdayoq Spenser tomonidan izohlangan edi. Integrativ ta’limni yo‘lga qo‘yishdan oldin, uning tasnifi – integrativ ta’limning sinflarga bo‘linishi (klassifikatsiya) borasida ma’lum tushuncha hosil

qilish lozim bo‘ladi. Pedagogika fanlari doktori, profesor R.A.Mavlonovada bu tasnif quyidagicha ifoda etiladi: – chegaradosh fanlar asosida tuzilgan kurslar; – asosiy fanlar asosida tuzilgan kurslar; – umumiy ilmiy tushunchalar, qonuniyatlar, nazariyalar asosidagi kurslar; – fan evolyutsiyasi bilan bog‘liq muammolarni, tabiatni ilmiy nuqtai nazardan o‘rganish uslublari, olamning ilmiy ko‘rinishini o‘rganish asosidagi kurslar; – kompleks ob’ektlar asosida; – turli muammolar asosida; – faoliyat asosida. Binobarin, mazkur tadqiqotda urg‘u berib qaralayotgan boshlang‘ich ta’limdagi integratsiya o‘z atrofida: o‘qish, matematika, tabiatshunoslik, rasm, mehnat singari o‘quv fanlari hamda ingliz tilini jamlaydi. O‘z darsini integratsiyalashgan usulda tashkil etayotgan o‘qituvchi boshlang‘ich sinf o‘quvchisining yoshi, aqliy rivojlanish darajasi va albatta qiziqishlari doirasiga mos tarzda vosita va usullar tanlaydi.

Integratsion dars loyihasining tematikasi o‘quv dasturining qaysidir masalasiga tegishli bo‘lishi mumkin, bunda alohida qaralgan iqtidorli o‘quvchilar va umuman, sinf o‘quvchilaridagi mazkur mavzu yuzasidan o‘zlashtirish darajasini belgilovchi bilimni chuqurlashtirish, o‘rganish jarayonini differensiallashtirish maqsad qilib olinadi.

Integratsion dars odatdagi darslardan:

– aniqligi, ixchamligi, o‘quv materialining zich ko‘lami;

– darsning harbir bosqichida integratsiyalanayotgan o‘quv fanlarining har taraflama mantiqiy shartlanganligi;

– berilayotgan o‘quv materialidagi keng ko‘lamli axborotga egaligi bilan ajralib turadi.

Integratsiyalashgan darsda maqsadni bir necha fanlarning aloqadorligini inobatga olgan holda belgilash lozim bo‘ladi. Bunday mashg‘ulotda o‘quvchiga beriladigan topshiriqlarning optimal yuklama ko‘lamini zimdan hisob-kitob qilib olish kerak. Mashg‘ulotni olib boruvchi bir necha o‘quv fanlari o‘qituvchilarining darsdagi faoliyati, hatti-harakati muvofiqlashtirilishi shart. Mazkur mashg‘ulotlarning pirovard natijada xulosalanishi talab qilinadi.

Integratsiyalashayotgan fanlarning bittasi asosiy deb olinishi darkor. Misol uchun, boshlang‘ich sinflarda o‘tiladigan 2-sinf ona tili darsida integratsiya va integrativ vositalardan foydalanish jarayonini ko‘rib o‘tsak. «Shahar, qishloq, ko‘cha, daryo nomlarida bosh harf» mavzusidagi mashg‘ulotni o‘tkazish uchun o‘qituvchi o‘z ish faoliyatini quyidagi ketma-ketlikda rejalashtirarkan, bu bilan u ta’lim mazmuniga qo‘yilgan talablarga mos keluvchi darsni loyihalashtirgan hisoblanadi. Ushbu mashg‘ulotni tabiatshunoslik, matematika, odobnoma darslari hamda ingliz tilifanlari, texnikvositalar bilan uyg‘unlashtirish mumkin bo‘ladi. Boshlang‘ich sinf onatili darslarini integrativvositalarasosida tashkil etishda, qurilishkonstruktorlik va texnik, kompyuter o‘yinlaridan foydalanish maqsadga

muvofiq bo‘lib, shu turdagi o‘yinlar ko‘magida o‘qituvchi hamda o‘quvchining kreativligi oshadi. Bunda o‘quvchilar ijodkorligi uchun audiovizual-multimedia vositalari va texnik predmetlarga o‘rin ajratiladi. Bunday o‘yinlar bolalarning mazkur yosh xususiyatlariga mo‘ljallangan bo‘lishi bilan birga, ulardan mustaqil syujetli o‘yinlarda, o‘quvchilarning tadqiqotchilik xususiyatlarini takomillashtiruvchi bilishga oid o‘yinlarda foydalanish mumkin.

Shuningdek, dars jarayonida tayanch kompetensiya (kommunikativ, axborot bilan ishlash, shaxs sifatida o‘z-o‘zini rivojlantirish, ijtimoiy faol fuqarolik, umummadaniy)larni shakllantirishga yo‘naltirilgan topshirig‘ini bajarish jarayoniga oid elektron taqdimotlar, darsning integratsion qiyofasini ta’minlovchi: tabiatshunoslik, matematika, ona tili va odobnoma, jismoniy madaniyat singari fanlararo bog‘liqlikka ishora qiluvchi turli video roliklarni namoyish etish o‘rinlidir.

Shunday qilib, integratsion ta’limning samarasi ta’lim shaklini to‘g‘ri, pedagogik asoslangan tarzda tanlash bilan keskin ravishda bog‘liq bo‘lib, bunda har uch turdagi: ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlarning chuqur tahlili talab qilinadi. Predmetlararo integratsiyani, shuningdek, sog‘lom muhit, o‘zaro hurmat va ijodiy hamkorlik hukm surgan pedagogik jamoadagina amalga oshirish mumkin bo‘ladi.

Integratsion darsning yutuqli jihatlari quyidagilardan iborat:

1. Bu turdagi mashg‘ulotlarda bola olamni bir butun, yaxlit holda tasavvur etishni boshlaydi.

2. Bola potensiali rivojlanadi, tevarak-atrofni katta qiziqish bilan o‘rganishga kirishadi, hodisalar uning ongida mantiqiy, fikriy, sababli yechimni qidirib topishga unday boshlaydi. Natijada, muloqot qobiliyati, taqqoslash-qiyoslash, umumlashtirish va xulosa qilish qobiliyatlari taraqqiy eta boradi.

3. Mashg‘ulot shakli standart emasligi bilan qiziqarli – bunday darslarda rivojlantiruvchi maqsad ayniqsa, yuqori darajada ta’minlanadi.

4. O‘qituvchi kreativligi, kasbiy kompetensiyasini o‘stiruvchi asosiy omillardan hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining O'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risidagi qarori. Toshkent, 2017 yil 6 aprel, № 187.

2. MavlonovaR.A. Boshlang'ich ta’limning integratsiyalashgan pedagogikasi. Metodik qullanma. - T.: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat universiteti, 2005. http:// library.ziyonet.uz/ru/book/33810. Murojaatsanasi: 2016 yil 24 mart.

3. OECD Reviews of Evaluation and Assessment in Education «Synergies for Better Learning». OECD publishing, PARIS CEDEC. 2013.

4. Qosimova K. va boshq. Ona tili: 2-sinf uchun darslik/. - Qayta ishlangan o‘n to‘rtinchi nashri. -T: Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2018. -144 b.

DISKURS – MURAKKAB KOMMUNIKATIV HODISA

Nuradilova A.D.
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti
Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi va metodikasi kafedrasi dotsenti v.b.,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Tayanch so‘zlar: diskurs, zamonaviy tilshunoslik, kommunikatsiya nazariyasi, kontekst, suhbat, kommunikativ hodisa, lingvistik omil, milliy madaniyat, mentalitet, qadriyat, muloqot, mafkuraviy til, lingvistik muloqot, og‘zaki so‘z.
Ключевые слова: дискурс, современная лингвистика, теория коммуникации, контекст, беседа, коммуникативное явление, языковой фактор, национальная культура, менталитет, ценность, общение, идеологический язык, языковое общение, устное слово.
Key words: discourse, modern linguistics, communication theory, context, conversation, communicative phenomenon, linguistic factor, national culture, mentality, value, communication, ideological language, linguistic communication, oral speech.

РЕЗЮМЕ:
Mazkur maqolada “diskurs” tushunchasini o‘rganish zamonaviy tilshunoslik, kommunikatsiya nazariyasi hamda ijtimoiy-gumanitar fanlar uchun dolzarb ahamiyat kasb etishi borasida va bu masla yuzasidan olib borilganolimlarning tadqiqotlari va diskursning lingvistik muloqot shakli ekanligi haqida fikr yuritiladi.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье говорится о том, что изучение понятия «дискурс» приобретает актуальное значение для современного языкознания, теории коммуникации и социально-гуманитарных наук, а также о проведенных по данному вопросу исследованиях ученых и о том, что дискурс является формой лингвистической коммуникации.
SUMMARY:
This article reflects on the relevance of the study of the concept of “discourse” to modern linguistics, communication theory and socio-humanitarian Sciences, and on the fact that it is a form of linguistic communication of studies and discourse conducted on masla.

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda til nafaqat aloqa vositasi, balki ijtimoiy ong, mafkura, madaniyat va hokimiyat munosabatlarini ifodalovchi muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu nuqtai nazardan, “diskurs” tushunchasini o‘rganish zamonaviy tilshunoslik, kommuni-katsiya nazariyasi hamda ijtimoiy-gumanitar fanlar uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Diskurs – bu til va nutq orqali fikr, g‘oya hamda ijtimoiy munosabatlarni ifodalash jarayonidir. U faqat matn yoki gaplar yig‘indisi emas, balki ma’lum bir ijtimoiy, madaniy va tarixiy sharoitda yuzaga keladigan muloqot tizimidir. Diskurs orqali insonlar dunyoni qanday tushunishi, voqealarni qanday talqin qilishi va boshqalar bilan qanday munosabat o‘rnatishi namoyon bo‘ladi. Masalan, siyosiy, ilmiy yoki diniy diskurslar har biri o‘ziga xos til vositalari, qadriyatlari va maqsadlariga ega bo‘ladi.

Diskurs masalasi bo‘yicha tadqiqotlar, avvalo, jahon tilshunosligida shakllangan bo‘lib, bu yo‘nalishda M. Foucault diskursni ijtimoiy-hokimiyat munosabatlari bilan bog‘liq holda talqin qilgan [12, 19], T.A. van Dijk esa tanqidiy diskurs tahlili asoslarini ishlab chiqqan [5; 352], Z.Harris esa lingvistik diskurs tahlilining dastlabki ilmiy asoslarini yaratgan olimlardan hisoblanadi [7; 16]. Shuningdek, J.Searle [14] va J.L.Austin nutq aktlari nazariyasi [1] orqali diskursning pragmatik jihatlarini asoslab berganlar. Bu yondashuvlar diskursni faqat matn yoki nutq bilan cheklab qo‘ymasdan, balki uni keng ijtimoiy, siyosiy va madaniy jarayonlar bilan bog‘liq holda tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Diskurs – aktual aytilgan matn, ya’ni faol nutqiy harakat, matn esa til tizimiga yoki shakliy lisoniy bilimlarga tegishli fikrlarning mavhum grammatik tuzilishidir. Diskurs – aniq suhbat, aniqlik esa diskurs tushunchasi qo‘llanadigan vaziyatga, matnga va obyektga ham birday taalluqlidir. Diskurs suhbat turidir [5; 352]. Diskurs murakkab kommunikativ hodisa bo‘lib, u matndan farq qiladi. U matnga qo‘shimcha ravishda uni tushunishda zarur bo‘lgan fikrlar, dunyo haqidagi bilimlar, qabul qiluvchining maqsadi va munosabati kabi qo‘shimcha lingvistik omillarni o‘z ichiga oladi [8; 217–220].

Hozirgi axborotlashgan jamiyatda siyosiy, media, pedagogik, internet va ijtimoiy tarmoqlar kabi diskurs turlari jadal rivojlanib, muloqot va ijtimoiy ta’sir ko'rsatishning asosiy vositalariga aylandi. Ushbu yo‘nalishlar nutqni shakllantirish, axborot tarqatish hamda madaniy-ijtimoiy jarayonlarni boshqarishda dinamik va murakkab rol o‘ynaydi. Ayniqsa, raqamli kommunikatsiya sharoitida axborotning tez tarqalishi, manipulyativ strategiyalarning kuchayishi va jamoatchilik fikrining shakllanishida til vositalarining ta’siri diskurs tahlilining ahamiyatini yanada oshirmoqda.

Shuningdek, diskurs tushunchasini o‘rganish milliy madaniyat, mentalitet va qadriyatlarning til orqali qanday namoyon bo‘lishini aniqlashda ham muhimdir. Bu esa o‘z navbatida, lingvokulturologiya, sotsiolingvistika va pragmalingvistika kabi sohalarning rivojiga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, diskurs tushunchasi falsafada 1970-yillarda Yu. Xabermas tomonidan “Diskurs” tushunchasini birinchi bo‘lib kiritgan [16, 17]. Buni

o‘zining “Kommunikativ kompetentsiya nazariyasiga tayyorgarlik” kitobida ishlatgan [18]. O‘shandan beri bu atama G‘arb falsafasida keng qo‘llanila boshlandi. Xabermas “muloqot”ni o‘sha davrning ijtimoiy hayotida shakllangan me’yorlar, qoidalar va asosiy qadriyatlar yig‘indisidan iborat bo‘lgan, muloqotga, dialogga immanent bo‘lgan mafkuraviy til deb hisoblaydi. Undagi mafkura deganimiz umumiy belgilar tizimi ma’nosida qo‘llaniladi.

Diskurs lingvistik muloqot shaklidir. Keng ma’noda, nutq o‘sha davrning madaniy lingvistik kontekstidir. Unga ma’naviy-mafkuraviy meros, qarashlar, dunyoqarashlar kiradi. Tor ma’noda nutq har qanday mazmunli, qimmatli harakatning real lingvistik voqeligini bildiradi.

F. de Sossyurdan boshlab fransuz funksionalistlarigacha klassik tilshunoslik zamonaviy tilga jamiyatning barcha a’zolari uchun umumiy bo‘lgan va tushunarli bo‘lgan tuzilma sifatida qaraydi [15; 256, 12; 41–44, 7; 1–30]. Bu tushunchaning paydo bo‘lishiga til haqidagi quyidagi qarashlar ta’sir ko‘rsatdi. Birinchidan, tilning o‘ziga xos bir narsani anglatishi va u bir-birini belgilaydi degan tushuncha; ikkinchidan, bir tilni ishlatadigan til a’zolari uchun barcha til belgilari bir xil ma’noga ega; uchinchidan, yuqoridagilar natijasida til barcha ijtimoiy guruhlarga birdek xizmat qiladi.

Aslida, til hammamiz uchun umumiy, hammamiz shu tilda gaplashamiz, bir-birimizni tushunamiz. Lekin kundalik turmush lug‘atiga jiddiy e’tibor qaratadigan bo‘lsak, har bir so‘z o‘ziga xos moddiy va mahsulot mazmunidan tashqari ko‘plab vaqtinchalik, o‘zgaruvchan mafkuraviy ma’nolarga ega ekanligini ko‘ramiz. O‘sha cheksiz xilma-xil ma’nolarning mavjudligi bir xalqning umumiy tilini ko‘plab “sotsiologlar”ga ajratadi. Bu sotsiologlardan hisoblangan M.Baxtin uni “ijtimoiy-mafkuraviy til” va “og‘zaki so‘z” deb atagan [3] bo‘lsa, R.Barts buni “yozuv turi” deb ataydi [2].

Insonning biron bir so‘zi to‘liq emas, chunki fikrni prinsipial jihatdan yakunlab bo‘lmaydi. Har bir insonning ma’naviy olamida har bir so‘z o‘zgaradi. Tirik ong, jonli muloqot jarayonida tilni buzilmas, qo‘zg‘almas tizim sifatida ko‘rib bo‘lmaydi. Inson uchun uning atrofidagi til muhiti ham, uning til ongi ham deyarli polifonik va noaniqdir. So‘z endi oddiy narsa emas, uning o‘ziga xos “hidi” va hatto “ta’mi” ham bor.

Diskurs masalasi o‘zbek tilshunosligida XX asr oxiri va XXI asr boshlaridan boshlab lingvopragmatika, matnshunoslik hamda sotsiolingvistika yo‘nalishlari doirasida ilmiy asosda tadqiq etila boshlandi. Avvaliga matn va nutq tushunchalari bilan bog‘liq holda o‘rganilgan diskurs keyinchalik kommunikativ-pragmatik yondashuv asosida kengroq talqin qilindi. O‘zbek tilshunoslari diskursni til birliklarining real nutq jarayonidagi qo‘llanishi,

ijtimoiy-madaniy omillar bilan bog‘liqligi hamda nutq subyektlarining maqsad va strategiyalari bilan uzviy aloqada tahlil qiladilar. Ilmiy asos sifatida pragmatika (nutq aktlari nazariyasi), kognitiv tilshunoslik, funksional stilistika va sotsiolingvistika tamoyillari qo‘llanadi. Xususan, siyosiy, badiiy, diniy va ommaviy axborot vositalari diskursi misolida til vositalarining kommunikativ vazifasi, presuppozitsiya, implikatura va kontekst bilan bog‘liq jihatlar tahlil etilib, diskurs til va tafakkur o‘rtasidagi munosabatni ochib beruvchi murakkab lingvistik hodisa sifatida asoslanadi.

O‘zbek tilshunosligida esa diskurs masalasi matnshunoslik va lingvopragmatika doirasida o‘rganilib, bu borada Sh.Rahmatullayev, N.Mahmudova [9; 213, 10; 474–476], F.R.Rajabbayeva [13; 54–57], Sh.Y.Bobojonova [4; 56] M.Xolbekov [19] kabi olimlarning ilmiy ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ular diskursni kommunikativ jarayon, matn va kontekst birligi, shuningdek, ijtimoiy-madaniy omillar bilan bog‘liq hodisa sifatida tadqiq qilganlar. Ayniqsa, siyosiy, badiiy va diniy diskurs tahlili bo‘yicha izlanishlar so‘nggi yillarda yanada faollashgan.

Sh.Rahmatullayev diskursni til va jamiyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlik, muloqot jarayoni va ijtimoiy-madaniy kontekstda shakllanadigan nutqiy faoliyat sifatida tahlil qiladi. Uning qarashlarida diskurs faqat matn emas, balki nutq vaziyati, ishtirokchilar va maqsadni qamrab oluvchi murakkab muloqot hodisasidir. U diskursni ijtimoiy bog‘liqlik nuqtai nazarda – tilning jamiyatdagi faoliyati, shaxslararo muloqot va ijtimoiy munosabatlarni aks ettiruvchi vosita sifatida qarasa, nutqiy jarayonda – turg‘un matndan ko‘ra, jonli muloqot, kontekstga bog‘liq nutq sifatida o‘rganadi, kontekst muhimligi nuqtai nazarda – muloqot ishtirokchilari, joy va vaqt omillari diskurs mazmunini belgilaydi deb tushuntiradi. Olimning sotsiolingvistik yondashuvlarida til birliklarining qo‘llanilishi va diskursning funksional xususiyatlariga alohida e‘tibor beriladi.

N.Mahmudova va N.Radjabboyeva tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda diskurs, xususan nemis tili sintaksisi misolida, matn va vaziyat bilan bog‘liq muloqot jarayoni sifatida tahlil qilinadi: diskurs ko‘pincha gapdan kattaroq, kontekstga bog‘liq muloqot birligi sifatida qaraladi; Amerikacha yondashuvlarga tayanib, diskursni nutqiy faoliyatning shakl va funksiya o‘zaro harakati sifatida baholaydi hamda diskurs tushunchasini tilshunoslik, falsafa va ijtimoiy fanlar kesishmasida, antropotsentrik yondashuv (inson omili) orqali o‘rganadi.

M. Xolbekov esa diskursni, ayniqsa, postmodernizm va modern adabiyot kontekstida, shunchaki matn emas, balki ijtimoiy-madaniy kontekst, muallif va o'quvchi munosabatini qamrab oluvchi keng qamrovli hodisa sifatida talqin qiladi. U M.Fuko kabi g‘arb olimlariga tayanib [20; 448], badiiy diskursda

bilim, hokimiyat va dunyoqarash aks etishini ta'kidlaydi. M.Xolbekovning qarashlarida diskurs – bu nutqiy faoliyatning, madaniy va ijtimoiy omillar ta'sirida shakllanadigan, o'ziga xos talqin va tushunish tizimi.

O'zbek tilshunosligida mazkur masla borasida tadqiqot olib borgan olimlar diskursni faqat nutqiy birlik emas, balki ekstralingvistik omillar (bilim, maqsad) bilan bog'liq muloqot deb hisoblaydi. Tadqiqotlar diskurs turlariga ham to'xtaladi.

Demak, diskurs – nutqiy faoliyatning o'ziga xos shakli, kontekst (ekstralingvistik omillar) bilan bog'langan, ma'lum bir vaziyat, ijtimoiy muhit yoki mafkuraviy nuqtai nazardan qaraladigan matn. U shunchaki so'zlar yig'indisi emas, balki "voqelikdagi nutq" bo'lib, muloqot maqsadi va ishtirokchilariga asoslanadi. Diskurs bir paytning o'zida ham lisoniy faoliyat jarayoni, hamda ushbu faoliyatning mahsulidir. Shuningdek, diskurs bu insonlarning o'zaro fikr almashinishi, muloqot qilishi, bir-biriga turli fikrlarni va ma'lumotlarni yetkazishi va bularni yetkazishda turli vositalardan foydalanishi, ikkala suhbatdosh uchun ham tushunarli bo'lgan jarayon hisoblanadi.

Shunday qilib, diskurs tilshunoslikdagi eng dinamik va serqirra kategoriyalaridan biri bo'lib, u kommunikativ jarayonlarning turli jihatlarini qamrab oladi. Zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda diskursni matndan farqli ravishda, muloqot, kontekst va ijtimoiy omillar bilan uzviy bog'liq hodisa sifatida talqin qilish tobora keng tarqalmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Austin J. L. (1962). How to Do Things with Words. Oxford University Press.

2. Barthes R. Image, Music, Text. – London: Fontana Press, 1977.

3. Baxtin M. M. Estetika slovesnogo tvorchestva. – Moskva: Iskusstvo, 1986.;

4. Bobojonova Sh.Y. Diskurs, ta'limiy diskurs va nutqning tarkibiy qismlari va ularning xususiyatlari// Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi. – № 11/4. – Urganch, 2022. X http://mamun.uz/uz/page/56.;

5. Dijk van T.A. The Study of Discourse. Discourse as Structure and Process. Discourse Studies: A Multidisciplinary Introduction. – London – Thousand Oaks – New Delhi: SAGE Publications. – 1997. – Vol.1. – P. 352.

6. Habermas J. The Theory of Communicative Action. – Boston, 1984.

7. Harris Z. Discourse analysis // Language. 1952. V. 28. – № 1.

8. Ibotova M.K. Diskurs tushunchasi va unga lingvistik yondashuvlar. Scientific progress. Scientific Journal Impact Factor (SJIF 2022=5.016). Volume 4 | ISSUE 4 | 2023. – P. 217–220.

9. Mahmudova N.R. Ingliz va o'zbek tillarida gradatsiyaning paradigmatikasi va sintagmatikasi. – Andijon: ADCh TI nashriyoti, 2025.–213 b.;

10. Makhmudova N. R. The linguopragmatic value of gradation tools and issues of ensuring semantic equivalence in translation. International of artificial intelligence. Journal American Academic publishers. Volume 05. Issue 05. 2025. –P. 474–476.;

11. Michel Foucault, Petr Horál (Translator). Diskurs, autor, genealogie. 1971.

12. Popov A.Yu. Osnovnye otlichiya teksta ot diskursa [The main differences of the text from the discourse]. Tekst i diskurs: Problemy ekonomicheskogo diskursa [Text and discourse: problems of economic discourse]. St. Petersburg: SPbGUAF, 2001, pp. 41-44.;

13. Rajabbayeva F.R. Media diskursda ko‘chim va ularning turlari. Tamaddun nuri jurnali/journal The light of civilization. – Urganch, 2024. – B. 54–57.;

14. Searle, J. R. (1969). Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. Cambridge University Press.

15. Sossyur F. de. Kurs obshchey lingvistiki [General linguistics course]. – Moscow: URSS Publ., 2004, 256 p.;

16. Xabermas Yu. Filosofskij diskurs o moderne. – M., 2003.;

17. Xabermas Yu. Jamoatchilik nazariyasi. – Berlin, 2005.;

18. Habermas, J. The Theory of Communicative Action. – Boston, 1984.

19. Xolbekov M. Matn, intermatn va intermatnlik. O‘zbek tili va adabiyoti jurnali. – № 6. 2013-yil.

20. Fuko M. Haqiqatga yo`l: bilim va kuch. Turli yillardagi ishlar / M. Fuko. M.: Kastal, 1996-yil. – 448 b.

21. https://www.goodreads.com/ book/show/ 39089508-diskurs-autor-genealogie (Murojaat sanasi: 24.02.2026).

INGLIZ TILINI O'QITISH JARAYONIDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH USULLARI

Mustafoqulova H.A.
Jizzax politexnika instituti dotsenti

Tayanch so'zlar: suni'iy intellect, leksika, ta'lim resurslari, internetda, televideniye, global tarmoq, kompyuter tili, inson, intellect, nutqni aniqlash, nutq madaniyati, tilni tushunish.
Ключевые слова: искусственный интеллект, лексикон, образовательные ресурсы, интернет, телевидение, глобальная сеть, компьютерный язык, человек, интеллект, распознавание речи, речевая культура, понимание языка.
Key words: artificial intelligence, lexicon, educational resources, internet, television, global network, computer language, human, intellect, speech recognition, speech culture, language understanding.

РЕЗЮМЕ:
Mazkur maqolada sun'iy intellekt texnologiyalarining til tiziimi, va uning rivojlanishiga ta'siri haqidagi fikr-mulohazalar yo'ritilgan. Shuningdek, SI vositalarining kommunikativ jarayonlarga ta'siri tahlil qilinadi va til o'rganish va nutq madaniyatini shakllantirishda sun'iy intellektning ijobiy jihatlari asoslab beriladi.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье рассматривается влияние технологий искусственного интеллекта на языковую систему и ее развитие. Также анализируется воздействие инструментов ИИ на коммуникативные процессы, обосновываются позитивные аспекты искусственного интеллекта в изучении языков и формировании речевой культуры.
SUMMARY:
This article discusses the impact of artificial intelligence technologies on the language system and its development. It also analyzes the impact of AI tools on communicative processes and substantiates the positive aspects of artificial intelligence in language learning and the formation of speech culture.

Til kishilik jamiyatida eng muhim aloqa vositasi bo'lib, insoniyatning uzoq davom etgan tarixiy taraqqiyoti jarayonida yaratilgan barcha madaniy va ilmiy boylikni saqlaydigan va avloddan avlodga yetkazib beradigan asosiy qurol bo'lib xizmat qiladi.

Ayniqsa, taraqqiyot rivojlangan sayin ingliz tili muloqotning global tiliga aylanib bormoqda. U nafaqat xalqaro siyosat, biznes va ilm-fanning asosiy

vositasi sifatida, shuningdek, kundalik hayotda, Internetda, televideniyeda va global tarmoqda ham keng qo‘llanilmoqda.

Eng muhim omillardan biri bu – ingliz tilida erkin bilish va erkin muloqot qilish jahon ta’lim resurslaridan foydalanish imkoniyatini ochadi, turli mamlakatlardan kelgan odamlar bilan muloqot qilishga yordam beradi. Shu munosabat bilan ingliz tilini o‘rganish butun dunyodagi odamlar uchun eng muhim vazifalardan biriga aylanib bormoqda.

Bugungi kunda zamonaviy texnologiyalar ta’lim sohasida muhim o‘rin tutadi. Ta’lim texnologiyalari, ayniqsa sun’iy intellekt (SI) bilan bog’liq texnologiyalar o’qitish jarayonini ancha yaxshilab, uni yanada qulay va samarali qiladi. Sun’iy intellekt grammatikani tekshirish yoki taraqqiyotni baholash kabi odatiy vazifalarni avtomatlashtirish imkonini beradi, shuningdek, interaktiv va moslashuvchan o’qitish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Sun’iy intellekt juda ko’p ma’lumotlarni samarali tahlil qilishga, o’qitish jarayonlarini har bir o’quvchining shaxsiy ehtiyojlariga moslashtirishga va o’qitishni istalgan vaqtda va joyda qulay qilishga qodir. Sun’iy intellekt yordamida real vaqt rejimida fikr-mulohazalarni olish, shaxsiylashtirilgan topshiriqlar va mashg’ulotlar orqali o’rganish, shuningdek, ilgari faqat tajribali o’qituvchilar uchun mavjud bo’lgan texnologiyalardan foydalangan holda ko’nikmalarni rivojlantirish mumkin. Bu esa sun’iy intellektni ingliz tilini o’rgatishda eng istiqbolli vositalardan biriga aylantiradi.

Sun’iy intellekt - bu kompyuter fanlari sohasi bo’lib, u inson intellektini talab qiladigan, masalan, idrok etish, nutqni aniqlash, tilni tushunish va generatsiya qilish, qaror qabul qilish kabi vazifalarni bajaradigan tizimlarni yaratadi. Tillarni o’rgatishda SI ko’plab jarayonlarni avtomatlashtirish va yaxshilash uchun ishlatiladi: shaxsiylashtirilgan o’quv rejalarini yaratishdan tortib, grammatika va talaffuzni tahlil qilishgacha.

SI tillarni o’rgatishda bir nechta shakllarda namoyon bo’lishi mumkin: o’qitish uchun avtomatlashtirilgan platformalar, tavsiyalar tizimlari, nutqni o’rganish va eshitish uchun ilovalar, shuningdek chat-botlar va so’zlash ko’nikmalarini amaliyotga tatbiq etish uchun virtual yordamchilar.

An’anaviy o’qitish usullaridan farqli o’laroq, SI har bir o’quvchining individual xususiyatlarini, materialni o’zlashtirish tezligini va bilim darajasini hisobga olishi mumkin. Tillarni o’rgatishda sun’iy intellektdan foydalanishning asosiy afzalligi - bu shaxslashtirishning yuqori darajasidir. Sun’iy intellekt o’quvchining zaif va kuchli tomonlariga javob berish orqali o’quv jarayonini real vaqtda moslashtirishi mumkin.

Biroq bu sohada muayyan qiyinchiliklar ham bor. Masalan, o'qitish jarayonini to'liq avtomatlashtirish insoniy sezgi, tajriba va o'qituvchining hissiy yordamini almashtira olmaydi. Shuningdek, texnologiyaning rivojlanishiga qaramay, SI tilning madaniy va kontekstli nuanslarini tushunishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin.

Bunday qiyinchiliklardan biri - moslashuvchan ta'lim tamoyillaridir. Moslashuvchan ta'lim - bu o'quv jarayoni o'quvchining ehtiyojlari va imkoniyatlariga moslashtiriladigan usuldir. Sun'iy intellekt o'quvchining joriy bilim darajasi, muvaffaqiyatlari va xatolarini tahlil qiladi va shu ma'lumotlar asosida individual o'qitish rejasini yaratadi. Moslashuvchan algoritmlardan foydalanadigan dasturlar o'quvchi oldindan belgilangan rejaga amal qilishdan ko'ra, ayni paytda o'rganishi kerak bo'lgan darslarni taklif qilishi mumkin.

Duolingo, Babbel va Lingvist kabi platformalar turli darajadagi foydalanuvchilar uchun moslashuvchan ta'lim tizimlaridan foydalanadi.

Duolingoda, masalan, SI algoritmlari o'quvchining savollarga qanchalik to'g'ri javob berishiga qarab mashqlarning murakkabligini tanlaydi. Ushbu tizim foydalanuvchilarga eng katta qiyinchiliklarga duch kelayotgan til jihatlari ustida ishlashga yordam beradi va o'qish jarayonini tezlashtiradi.

Moslashuvchan algoritmlar har bir mashqning natijalarini inobatga oladi va o'quvchi nafaqat o'zlashtirgan mavzularni amaliyotga tatbiq etishi, balki muntazam ravishda yangi, asta-sekin murakkablashib borayotgan vazifalarga duch kelishi uchun materiallarni dinamik tanlaydi. Bu motivatsiyani oshiradi, chunki o'quvchi taraqqiyotni his qiladi va ma'lumotni ortiqcha yuklamaydi.

Leksikani o'rgatishda ham SI dan foydalanishda bir qancha vazifalar bor. Tilni o'rganishdagi asosiy vazifalardan biri yangi lug'at zaxirasini o'zlashtirish hisoblanadi. Sun'iy intellekt bu jarayonda shaxsiy so'z va iboralar ro'yxatini yaratish, shuningdek, ularni eslab qolish uchun tegishli vazifalarni tanlash orqali yordam berishi mumkin.

Interval takrorlash usuli (SRS - Spaced Repetition System) eslab qolishning eng samarali usullaridan biridir. Bu yondashuv leksikani o'zlashtirish jarayonini sezilarli darajada tezlashtiradi. Sun'iy intellekt o'quvchining u yoki bu so'zni qanchalik tez-tez unutishini tahlil qiladi va uni optimal daqiqalarda takrorlash uchun taklif qiladi, bu esa uzoq muddatli eslash ehtimolini oshiradi. Bu tizimlar so'zlarni sezishni yaxshilash va eslashni tezlashtirish uchun vizual va audio materiallardan foydalanishi mumkin.

SI talaffuz va intonatsiyani o'rgatish uchun nutqni aniqlash texnologiyalaridan faol foydalanadi. O'quvchi o'qituvchining fikr-mulohazalariga tayanadigan an'anaviy usullardan farqli o'laroq, SI darhol tuzatishlar olish imkonini beradi.

Foydalanuvchilar o’z xatolari to’g’risida batafsil hisobot olishadi va aksent, intonatsiya va so’zlarning ovozini yaxshilash ustida ishlashlari mumkin.

Sun’iy intellekt nafaqat alohida tovushlarni, balki nutqning umumiy intonatsiyasini ham tahlil qilib, foydalanuvchiga urg’uni to’g’rilashga va nutqni yanada tabiiy qilishga yordam beradi. Dasturlar aniq tovushlarni yaxshilashga qaratilgan mashqlarni taklif qilishi mumkin, bu ayniqsa aniqroq va “native-like” talaffuziga intilayotgan odamlar uchun foydalidir.

Sun’iy intellektni qo’llashning asosiy yo’nalishlaridan biri o’quvchi darajasiga moslasha oladigan moslashuvchan audio darslarni yaratishdir. Bunday usullar o’quvchilarga eshitish qobiliyatini rivojlantirishga yordam berish uchun haqiqiy hayot bilan bog’liq video va audio kontentdan (masalan, filmlar, intervyular, musiqiy videolar) foydalanadi.

SI o’quvchining javoblarini tahlil qiladi va yangi materiallarni o’rganish bilan bog’liq qiziqishni saqlab qolish va stress darajasini kamaytirish imkonini beradigan asta-sekin murakkablashib borayotgan kontentni taklif qiladi.

Sun’iy intellekt o’quvchining yutuqlari, xatolari, qiziqishlari va ehtiyojlarini kuzatib boradi va optimal o’quv rejasini taklif qilish uchun darslarni moslashtiradi.

Sun’iy intellekt o’quvchining zaif tomonlarini (masalan, grammatika yoki ma’lum bir so’zlar to’plami bilan bog’liq qiyinchiliklarni) aniq tashxis qo’yishga va ushbu jihatlarni yaxshilash uchun qo’shimcha materiallar yoki mashqlar taqdim etgan holda o’quv rejasini avtomatik ravishda tuzatishga qodir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mustafoqulova H.A. “Texnika yo’nalishida ingliz tili fanini o’qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish” mavzusidagi Bitiruv loyiha ishi. SamDU huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazi.

2. Artificial Intelligence for Education: Promise and Implications. Wayne Holmes, Maya Bialik, Charles Fadel 2018.

3. “The Impact of Artificial Intelligence on Language Teaching and Learning” (Gholami, K., & Sharifi, M., 2021, Language Learning & Technology Journal).

4. “AI-Based Language Learning Systems: A Study of Their Effectiveness in Foreign Language Acquisition” (Singh, P., 2021, PhD Dissertation, University of California).

YOZMA NUTQIY FAOLIYAT TURLARINI O‘QITISHDA INTERNETDAN FOYDALANISH

Dauletmuratova G.J.
Qoraqalpoq davlat universiteti xorijiy til va adabiyot bakalavr yo‘nalishi talabasi

Tayanch so‘zlar: yozma nutq, yozma nutqiy faoliyat, internet texnologiyalari, onlayn platformalar, esse, insho, kollaborativ yozuv, autentik materiallar, raqamli savodxonlik, masofaviy ta’lim.
Ключевые слова: письменная речь, письменная речевая деятельность, интернет-технологии, онлайн-платформы, эссе, сочинение, коллаборативное письмо, аутентичные материалы, цифровая грамотность, дистанционное обучение.
Key words: written speech, written speech activity, Internet technologies, online platforms, essay, essay, collaborative writing, authentic materials, digital literacy, distance learning.

РЕЗЮМЕ:
Mazkur maqolada yozma nutqiy faoliyat turlarini o‘qitishda internet texnologiyalaridan foydalanishning metodik asoslari tahlil qilinadi. Xususan, esse, insho, rasmiy va norasmiy xat, maqola, blog yozuvi kabi yozma ishlarni tashkil etishda onlayn platformalar, elektron pochta, ta’limiy veb-saytlar va interaktiv ilovalarning imkoniyatlari yoritiladi.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье анализируются методические основы использования интернет-технологий в обучении видам письменной речевой деятельности. В частности, будут освещены возможности онлайн-платформ, электронной почты, образовательных веб-сайтов и интерактивных приложений в организации письменных работ, таких как эссе, сочинения, официальные и неофициальные письма, статьи, блоги.
SUMMARY:
This article analyzes the methodological foundations of using internet technologies in teaching written speech activities. In particular, the possibilities of online platforms, email, educational websites, and interactive applications in organizing written work such as essays, essays, official and unofficial letters, articles, and blog posts will be highlighted.

Kirish. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2020-yil 5-oktabrda tasdiqlangan “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasi, mamlakatdagi barcha sohalarda, jumladan ta’lim va kasb tayyorlashda raqamli transformatsiyani chuqurlashtirishni maqsad qilgan kompleks hujjatdir. Hujjatda raqamli iqtisodiyot va texnologiyalarni barcha darajalarda joriy etish ko‘zda tutilgan, shu jumladan ta’lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish; raqamli kompetensiyalarni shakllantirish va raqamli malakali kadrlar tayyorlashni ustuvor vazifa sifatida belgilash; milliy raqamli infratuzilma (tizim va xizmatlar majmui) va elektron ta’lim platforma (internet orqali bilim olish imkonini beruvchi raqamli tizim)larini takomillashtirish kabi masalalarni nazarda tutgan, bu esa muhandis va boshqa texnik mutaxassislar tayyorlashga ta’sir etadi. Bu strategiya bo‘lajak muhandislarni tayyorlash jarayonida raqamli pedagogik yondashuvlarni joriy etishni ilgari suradi, shu bilan pedagoglar va talabalar uchun zamonaviy raqamli ta’lim muhitini yaratadi. Shuni ta`kidlab o`tish kerakki, raqamli transformatsiya sharoitida bo‘lajak muhandislar tayyorlashda asosiy pedagogik muammolarni hal etish uchun Prezident qarorlarida ta’limni modernizatsiya qilish, raqamli platformalar va yondashuvlarni joriy etish bo‘yicha strategik yo‘nalishlar belgilangan. Raqamli transformatsiya sharoitida bo`lajak muhandislarni kasbiy tayyorlashda pedagogik muammolar asosan an`anaviy o`qitish usullari va zamonaviy texnologiyalar o`rtasidagi nomuvofiqlikdir, kompetensiyalarning eskirishi, raqamli savodxonlikning yetishmasligi hamda amaliy ko`nikmalarni raqamli muhitda shakllantirish qiyinchiliklari bilan bog`liq. Bularga o`quv dasturlarini tezkor o`zgarishlarga moslashtirish. Bularga o‘quv dasturlarini tezkor o‘zgarishlarga moslashtirish, pedagoglar raqamli kompetensiyasi va texnik bazani yangilash zaruratini o‘z ichiga oladi. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirish sohalarida kutilgan o`zgarishlar hamda yangi kasblarning vujudga kelishi, muhandislar uchun yangi ko`nikmalar va bilimlarni o`z ichiga olgan o`qitish tizimini ishlab chiqishni talab qiladi. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirish sohalarida kutilgan o'zgarishlar hamda yangi kasblarning vujudga kelishi, muhandislar uchun yangi ko'nikmalar va bilimlarni o'z ichiga olgan o'qitish tizimini ishlab chiqishni talab qiladi. Hozirgi kunda raqamli transformatsiya barcha sohalarda, ayniqsa ta’lim va muhandislik sohalarida, inqilobiy o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar (Big Data), va Internet of Things (IoT) kabi innovatsiyalar nafaqat jamiyatni, balki ishlab chiqarish va kasbiy tayyorlash tizimini ham tubdan o‘zgartirgan. Muhandislik ta’limi, o‘z navbatida, bunday raqamli inqilobning markazida bo‘lib, hozirgi kunda eng dolzarb pedagogik muammolardan biri sifatida bo‘lajak muhandislarni raqamli texnologiyalar asosida kasbiy tayyorlash masalasi kutilmoqda. Raqamli transformatsiya zamonaviy jamiyat taraqqiyotining yetakchi omillardan biri bo`lib,

ishlab chiqarish, iqtisodiyot va ta`lim tizimiga bevosita ta`sir ko`rsatmoqda. Ayniqsa muhandislik ta`limi mazkur jarayonga tezkor moslashishni talab qiladigan sohalardan biridir. Raqamli texnologiyalar asosida ishlay oladigan, innovatsion fikrlovchi muhandis kadrlarni tayyorlash bugungi oliy ta`lim tizimining ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Shu bilan birga, mazkur jarayonda qator pedagogik muammolar yuzaga kelmoqda va ularni ilmiy jihatdan o`rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mavzuning dolzarbligi va vazifalari. Raqamli transformatsiya sharoitida bo‘lajak muhandislarni kasbiy tayyorlashdagi pedagogik muammolarni o‘rganish va ularning yechimlarini ishlab chiqish ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, mehnat bozori talablariga mos kadrlar tayyorlash hamda mamlakatning texnologik taraqqiyotini ta’minlash nuqtayi nazaridan dolzarb mavzudir. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mamlakatning innovatsion rivoji bevosita yuqori malakali muhandis kadrlar sifatiga bog‘liq. Shu bois bo‘lajak muhandislarni zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tayyorlash strategik ahamiyatga ega. Raqamli transformatsiyaning jadallashuvi, mehnat bozori talablarining o‘zgarishi, ta’lim jarayonida pedagogik texnologiyalarning eskirishi. pedagog kadrlarning raqamli kompetensiyasi muammosi,ta’lim mazmuni va baholash tizimidagi nomutanosiblik bularning barchasi mavzuning dolzarbligini bildiradi. Raqamli transformatsiya jamiyatning barcha jabhalariga ta`sir qilmoqda. Bu jarayon ta`lim tizimida ayniqsa, muhandislik sohasida o`zgarishlarni keltirib chiqarmoqda, ya`ni zamonaviy muhandislik ta`limi faqatgina ilmiy bilimlar bilan cheklanmasdan, raqamli kompetensiya(qobiliyat)larni ham o`z ichiga olishi lozim. Muhandislar bugungi kunda texnologik jarayonlarni tahlil qilish, optimillashtirish (eng yaxshi holatga keltirish) hamda avtomatlashtirish kabi masalalar bilan shug`ullanadi, shuning uchun ularning raqamli kompetensiyalari katta ahamiyatga ega. Raqamli transformatsiya ta’lim tizimining yangilanishini talab qiladi. Pedagogik uslublar, metodlar va vositalar zamon talablariga javob berishi kerak. Internet va raqamli platformalar yordamida ta’lim jarayonini yanada samarali qilish, onlayn ta’lim va interaktiv o‘quv materiallari yaratish kabi sohalarda yangiliklar kiritilmokda. Bu esa pedagoglar va talabalarning moslashuvchanligini va innovatsion fikrlashini talab etadi. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi raqamli transformatsiya sharoitida bo‘lajak muhandislarni kasbiy tayyorlash jarayonida yuzaga kelayotgan pedagogik muammolarni aniqlash, ularni bartaraf etishning ilmiy-pedagogik asoslarini ishlab chiqish hamda samarali pedagogik yondashuvlarni asoslab berishdan iborat.

**Mavzuga oid adabiyotlar ta`hlili.** Raqamli transformatsiya sharoitida muhandislarni kasbiy tayyorlash masalasi bugungi kunda pedagogika va muhandislik ta`limi kesishmasi(bog`lanishi)dagi eng dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi.Ushbu jarayonni samarali tashkil etish xorijiy va mahaliy

olimlarning ilmiy tadqiqotlarida turli nazariy yondashuvlar, metodologik qarashlar hamda amaliy echimlar orqali yoritilgan.

Xorijiy adabiyotlarda raqamli transformatsiyani muhandislik ta`limini tubdan yangilovchi jarayon sifatida baholanadi. Mualiflarning fikricha raqamli texnologiyalarni ta`lim jarayoniga joriy etish faqat texnik vositalardan foydalanish bilan cheklanmay, balki pedagogik yondashuvlarni qayta ko`rib chiqishni talab etad.

Xorijiy tadqiqotchilarda muhandislik ta'limida loyiha asosida o'qitish, muammoli ta'lim, virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalardan foydalanish talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi qayd etiladi. Shu bilan birga, Xorijiy olimlar raqamli transformatsiyani tizimli uzoq muddatli strategiya sifatida ko`rib ta`lim mazmuni metodlari va baholash mexanizmlarini kompleks yangilash zarurligini asoslab beradi. Xorijiy adabiyotlarda quyidagi pedagogik muammolar alohida ta'kidlanadi:raqamli texnologiyalarni pedagogik maqsadlarga moslashtirishdagi murakkabliklar,o`qituvchilarning metodik va raqamli tayyorgarligi etarli emasligi, baholash tizimlarining an`anaviy shakllarda qolib ketishi.

O`zbekistonda adabiyotlar tahlili bo`yicha hamda olimlar tadqiqotlarida raqamli transformatsiya masalalari asosan milliy ta`lim tizimini modernizatsiya qilish nuqtayi nazaridan yoritiladi. Tadqiqotlarda bo`lajak muhandislarni kasbiy tayyorlashda raqamli texnologiyalarni joriy etish zaruriyati davlat ta`lim siyosati va kadrlar tayyorlash strategiyasi bilan bog`lab ko`riladi. Mahaliy olimlar asosan muammolarni quyidagi masalalarga qaratganlar: o`quv dasturlarining zamonaviy raqamli texnologiyalar talabiga to`liq mos kelmasligi, o`qituvchilarning raqamli savodxonligi va metodik tayyorgarligining etarli darajada emasligi, moddiy texnik baza va raqamli infratuzilmaning cheklanganligi.Mahalliy tadqiqotlarda raqamli ta`lim resurslari, masofaviy ta`lim platformalari va elektron o`quv materiallaridan foydalanish muhandislik ta`limida samaradorlikni oshiruvchi omil sifatida ko`rsatiladi. Biroq, ko'plab tadqiqotlarda raqamli transformatsiya jarayoni ko'proq amaliy jihatdan yoritilib, nazariy-pedagogik modellarning yetarlicha chuqur ishlab chiqilmagani kuzatiladi.

Xorijiy va mahalliy qarashlarning taqqosiy tahlili. Xorijiy va mahaliy olimlar qarashlarini taqqoslash shuni ko`rsatadiki, ular muammoga turli darajada va turli nuqtai nazardan yondashadilar. Xorijiy adabiyot va tadqiqotlarda raqamli transformatsiya, pedagogik tizimni to`liq qayta qurish, innovatsion o`qitish modellari, kompetensiyaga asoslangan yondashuvlar orqali yoritiladi. Mahalliy adabiyot va tadqiqotlarda esa, raqamli texnologiyalarni mavjud ta`lim tizimiga moslshtirish,oqituvchilar malakasini oshirish, o`quv jarayonini raqamli resurslar bilan boyitish masalalari ustuvor hisoblanadi. Demak, xorijiy olimlar ko'proq

konseptual(asosiy **g‘oyaga qaratilgan fikr**) va metodologik yondashuvlarni ishlab chiqishga e’tibor qaratsalar, mahalliy olimlar raqamli transformatsiyaning amaliy muammolari va uni bosqichma-bosqich joriy etish masalalariga urg‘u beradilar. Xulosa qilib aytganda, xorijiy va mahaliy olimlar qarashlarining taqqosiy tahlili shuni ko`rsatadiki, raqamli transformatsiya sharoitida bo`lajak muhandislarni kasbiy tayyorlash samaradorligini oshirish uchun: birinchidan, xorijiy tajribalardagi ilg`or pedagogik modellardan foydalanish, ularni milliy ta`lim tizimi sharoitida moslashtirish,o`qituvchilarning raqamli va metodik kompetensiyalarini kompleks rivojlantirish zarur. Bu g`oyalar muhandislik ta’limida raqamli transformatsiyani pedagogik jihatdan takomillashtirishga xizmat qiladi.

**Qo`llanilgan metodlar.** Maqola innovatsion raqamli transformatsiya borasidagi tanlanma va ilmiy-pedagogik adabiyotlar tahlili, induktiv va deduktiv, qiyosiy va tizimli tahlil kabi usullardan foydalanildi. Ushbu metodlar raqamli transformatsiya sharoitida kasbiy tayyorlash bilan bog`liq muammolarni tizimli yoritishga xizmat qiladi. Tadqiqot davomida quyidagi yondashuvlardan, kompetensiyaga yo‘naltirilgan yondashuv; tizimli yondashuv; faoliyatga asoslangan yondashuv; shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim yondashuvi; raqamli pedagogika konsepsiyasi hamda nazariy metodlardan ya`ni ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, tizimlashtirish kabi metodlardan foydalanildi. Mazkur yondashuvlar raqamli ta’lim muhitida bo‘lajak muhandislarning kasbiy tayyorgarligini samarali tashkil etish imkonini beradi.

Tahlil va natijalar. Pedagogik muammolar va ularni echish yo`llari. O‘qituvchilarning raqamli pedagogik kompetensiyasi.Tadqiqot natijalariga ko`ra raqamli transformatsiya sharoitida pedagoglardan nafaqat kasbiy bilim balki raqamli pedagogik kompetensiya ham talab etiladi. Mazkur kompetensiyaning etarli darajada shakllanmaganligi ta`lim samaradorligini pasaytiruvchi omillardan biri hisoblanadi. Tahlillar shuni ko`rsatadiki, muhandislik fanlarining o`quv mazmuni raqamli texnologiyalar rivojiga nisbatan sekin yaqinlashmoqda. Bu holat bo`lajak muhandislarning zamonaviy ishlab chiqarish talablariga mos bilim va ko`nikmalarni egallashiga to`sqinlik qilmoqda. Ayni damda sanoat, energetika, qurilish, transport va IT sohalarida sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar Big Data (katta ma’lumotdan katta foyda chiqarish texnologiyasi), IoT(real dunyoni raqamli dunyoga bog‘laydigan texnologiya), raqamli egizaklar(real tizimning ma’lumotga asoslangan virtual modeli) va avtomatlashtirish texnologiyalari keng joriy etilmoqda. Bu esa muhandislardan nafaqat an’anaviy texnik bilimlar, balki raqamli kompetensiyalarni ham talab qiladi. Amaldagi ta’lim mazmuni esa ko‘pincha bu talablar bilan to‘liq mos kelmaydi.

Mehnat bozori talablarining o‘zgarishi zamonaviy ish beruvchilar muhandislardan raqamli vositalar bilan ishlash muammolarni tizimli va kreativ

(yangicha g`oyalar) bilan hal qilish fanlararo bilimlarni integratsiyalash jamoada va masofaviy muhitda samarali ishlash kabi ko`nikmalarni kutmoqda.Pedagogik jihatdan esa bu kompetensiyalarni shakllantirish mexanizmlari etarlicha ishlab chiqilmagan.

Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalarning eskirishi. Ko`plab oliy ta`lim muassasalarida an`anaviy ma`ruza-seminar tizimi ustun, raqamli ta`lim platformalari va simulyatorlardan foydalanish cheklangan, amaliy va loyiha asosida o`qitish yetarli darajada yo`lga qo`yilmagan. Bu esa bo`lajak muhandislarning real kasbiy faoliyatga tayyorgarligini pasaytiradi.

Pedagog kadrlarning raqamli kompetensiyasi muammosi.

Muhandislik fanlari o`qituvchilarining barchasi ham zamonaviy raqamli texnologiyalar,onlayn ta`lim metodlari va interaktiv vositalarni chuqur egallamagan. Natijada raqamli transformatsiya sharoitida ta`lim sifati va samaradorligi pasayishi mumkin.

Nazariya va amaliyot o`rtasidagi uzilish. Muhandislik ta`limida amaliy mashg`ulotlar va real sanoat loyihalarning kamligi nazariya va amaliyot o`rtasida tafovutni yuzaga keltirmoqda. Bu esa bitiruvchilarning kasbiy moslashuvchanligiga salbiy ta`sir ko`rsatadi.

Pedagogik muammolarni echish yo`llari. Mazkur muammolarni hal etishda pedagogik muammolarga o`qituvchilarni tayyorlash ya`ni ta`lim muassasalari o`qituvchilarini raqamli texnologiyalar bilan ishlashga tayyorlash masalasi juda muhim hisoblanadi. Birinchidan, o'quvchilarning yangi ko'nikmalarga qiziqishini oshirish, ya`ni bunda o`qituvchilarning raqamli texnologiyalarni o`rganishga bo`lgan motivatsiyasini oshirish va ularga yangi konikmalarni o`zlashtirishda yordam berish muhim ahamiyatga ega.Shu bilan birga pedagoglarning raqamli vositalarni samarali qo‘llash bo‘yicha malakasini oshirish, ta`lim muassasalarida zamonaviy texnologik qurilmalar va infraqurilmalar mavjudligini ta`minlash kerak. Bu albatta o`qituvchilarga yangi metodlarni amalda qo`llash imkoniyatini beradi. O`qituvchilar raqamli vositalardan to`g`ri foydalanishni, yangi texnologiyalarni darslarga integratsiya qilishni o`rganishlari kerak. Bundan tashqari raqamli kompetensiyalar bo‘yicha talablar bilan an'anaviy ta'lim dasturlari orasidagi nomuvofiqlikni bartaraf etish, ta'lim jarayoniga sun'iy intellekt, virtual laboratoriyalar kabi zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy qilish, talabalar ya`ni bo`lajak muhandislarni innovatsion fikrlash va muammo yechish ko‘nikmalarini shakllantirish talablarini qondirish, oliy ta'lim muassasalari va sanoat korxonalari o‘rtasida integratsiyani kuchaytirish, talabalarda raqamli madaniyat va kasbiy moslashuvchanlikni shakllantirish kabi echimlar mavjud.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko`rsatadiki, raqamli transformatsiya sharoitida bo`lajak muhandislarni kasbiy tayyorlash jarayonida yuzaga kelayotgan pedagogik

muammolar kompleks yondashuvni talab etadi. O`quv mazmunini muntazam yangilash, o`qituvchilarning raqamli pedagogik kompetensiyasini rivojlantirish, ta`lim va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaaytirish muhim kasb etadi. Ayni damda raqamli transformatsiya sharoitida bo‘lajak muhandislarni kasbiy tayyorlash jarayoni murakkab va ko‘p qirrali pedagogik muammolarni yuzaga keltirayoganini ko`ryapmiz. Ushbu muammolarni tizimli yondashuv asosida hal etish, innovatsion ta’lim texnologiyalarini joriy qilish va pedagog kadrlarning raqamli salohiyatini oshirish muhandislik ta’limi sifatini ta’minlashning muhim omili hisoblanadi. Xulosa qilib aytganda,yuqorida ko`rsatilgan yechimlar tizimli amalga oshirilgan taqdirda mazkur chora-tadbirlar muhandislik ta`limi sifatini oshirishga xizmat qiladi va bunga biz ishonamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–6079-sonli Farmoni.

2. O‘rinov U.A. Ishlab chiqarishdan ajralmagan holda masofaviy ta’limning afzalliklari. “O‘zMU xabarlari”. Ilmiy jurnal. Toshkent, 2020. №1/2, 148-151 b.

3. O‘rinov U.A. Nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishda masofaviy ta’lim tizimini tashkil etish prinsiplari. “Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari”. Ilmiy-nazariy jurnal. Toshkent, 2020.№3,196-203b.

4.Н.А.Холова.Raqamli transformatsiya sharoitida bo`lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyalarini tarkibiy qismlari. “Raqamli transformatsiya sharoitida muhandislik sohasi muammolarini echish usullari” Xalqaro miqyosidagi ilmiy amaliy anjuman. 2025 -yil 27-28-oktyabr Buxoro - 2025

5. N.A.Xolova. Kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish asoslari. “Raqamli transformatsiya sharoitida muhandislik sohasi muammolarini echish usullari” Xalqaro miqyosidagi ilmiy amaliy anjuman. 2025 -yil 27-28-oktyabr Buxoro - 2025

6.Xolova Nodira Axmedovna. Dars jarayonida talabalarda raqamli texnologiyalarni qo`llash. “Fan va ta`lim mazmunini takomillashtirishda xorijiy tajribalardan foydalanish muammo va echimlar” Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi (Jizzax-2025-yil, 19-20-noyabr) materiallari

7. Bo`lajak muhandislarning kompetentsiyalarini shakllantirish usullari Xolova Nodira Axmedovna Холова Нодира Ахмедовна. “Fan va ta`lim mazmunini takomillashtirishda xorijiy tajribalardan foydalanish muammo va echimlar” Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi (Jizzax-2025-yil, 19-20-noyabr) materiallari

8. Kholova N., Abdullaev R. Censuring the durability of foundations of buildings and structures // IOP Conference Series: Earth and Environmental Science. – IOP Publishing, 2021. – Т. 839. – №. 5. – С. 052044.

9. Kholova N. A. Production of Reinforced Concrete Products by Application of Energy Saving Methods is the way of Increasing the Economic Efficiency of National Economy // european journal of innovation in nonformal education. – 2022. – Т. 2. – №. 3. – С. 297 - 298.

10. Fayzullaevna S. N., Akhmedovna K. N. Significant Technological Methods of Production of Composite Materials // European journal of innovation in nonformal education. – 2023. – Т. 3. – №. 2. – С. 36-40.

11.Akhmedovna K. N. Production of Composite Materials by Important Technological Methods // European journal of innovation in nonformal education. – 2023. – Т. 3. – №. 4. – С. 102-105.

O‘ZI-TEKSHIRUVCHI TIZIMLARDA KONSEPT GRADERGA ASOSLANGAN AVTOMATIK BAHOLASH YONDASHUVI

Axtamova L.A.
Buxoro davlat texnika universiteti

Tayanch so‘zlar: avtomatik baholash, konseptual tahlil, NLP, dasturlash ta’limi, o‘zi tekshiruvchi tizim.
Ключевые слова: автоматическая оценка, концептуальный анализ, НЛП, обучение программированию, система самотестирования.
Key words: automatic assessment, conceptual analysis, NLP, programming training, self-testing system.

РЕЗЮМЕ:
Mazkur maqolada dasturlash bo‘yicha kirish kurslarida talabalar topshiriqlarini avtomatik baholash masalasi ko‘rib chiqiladi. Zhiyu Fan va hamkorlari tomonidan taklif etilgan Concept Grader yondashuvi asos qilib olinib, matnli va kodli ma’lumotlardan konseptlarni aniqlash hamda ularni baholash imkoniyatlari tahlil qilinadi. Ushbu yondashuv an’anaviy testga asoslangan baholash tizimlaridan farqli o‘laroq, talabalar fikrlash jarayonida qo‘llagan tushunchalarni ham inobatga oladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, konseptga asoslangan baholash o‘qituvchilarning qo‘ygan baholariga yaqin natijalar beradi, talabalarga aniqroq teskari aloqa taqdim etadi va ta’lim samaradorligini oshiradi.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье рассматривается вопрос автоматической оценки студенческих работ на вводных курсах программирования. На основе подхода Concept Grader, предложенного Чжию Фаном и др., анализируются возможности выявления концепций в текстовых и программных данных и их оценки. В отличие от традиционных систем оценивания на основе тестов, этот подход также учитывает концепции, используемые студентами в процессе мышления. Результаты исследования показывают, что концептуальная оценка дает результаты, близкие к результатам, полученным преподавателями, обеспечивает более точную обратную связь со студентами и повышает эффективность обучения.
SUMMARY:
This article examines the automated grading of student work in introductory programming courses. Using the Concept Grader approach proposed by Zhiyu Fan et al., we analyze the potential for identifying and grading concepts in text and programming data. Unlike traditional test-based grading systems, this approach also takes into account the concepts used by students in their thinking. The results of the study demonstrate that concept grading produces results similar to those obtained by instructors, provides more accurate feedback to students, and improves learning effectiveness.

Kirish. Zamonaviy raqamli transformatsiya sharoitida dasturlash fanlarini o‘qitish oliy ta’limning eng dinamik va talab yuqori bo‘lgan yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Universitetlarning dastlabki bosqichidagi kurslariga talabalar oqimining ortishi, topshiriqlar soni va murakkabligining ko‘payishi, shuningdek masofaviy va gibrid ta’lim formatlarining kengayishi tekshirish va baholash jarayoniga qo‘yiladigan talablarni keskin kuchaytirmoqda. Natijada o‘qituvchi va yordamchi ustozlar uchun asosiy muammo - ko‘p sonli yechimlarni qisqa vaqt ichida adolatli, izchil va pedagogik jihatdan foydali tarzda tekshirish hamda talabalarga tezkor teskari aloqa yetkazishdir. Qo‘lda tekshirish vaqt va resursni ko‘p talab qilishi bilan birga, baholash mezonlarining talqinida farqlar, charchoq va inson omili sababli subyektivlik xavfini oshiradi. Shu bois so‘nggi yillarda o‘zi-tekshiruvchi tizimlar (self-checking systems) va avtomatik baholash modullarining rivojlanishi ta’limda masshtablilik, sifat va shaffoflikni ta’minlashning muhim yo‘nalishi sifatida qaralmoqda [1].

An’anaviy avtomatik tekshiruv tizimlari ko‘pincha “testga asoslangan baholash” paradigmasiga tayangan holda ishlaydi: talaba kodi bajariladi va hosil bo‘lgan chiqish qiymatlari o‘qituvchi belgilagan etalon natija yoki testlar to‘plami bilan solishtiriladi. Bu yondashuv tezkorligi va avtomatlashtirish darajasi bilan qulay bo‘lsa-da, u ko‘proq “natija to‘g‘rimi?” degan savolga javob beradi, “nega to‘g‘ri (yoki noto‘g‘ri)?” va “talaba qanday konseptual bilimga tayanib yechim qildi?” kabi didaktik jihatdan muhim savollarni yetarli darajada yoritmaydi. Ayniqsa, dasturlashda ekvivalent yechimlar ko‘pligi sababli bir xil funksional natijaga olib boradigan iteratsiya, rekursiya, tayyor kutubxona funksiyalaridan foydalanish yoki turli ma’lumot tuzilmalarini tanlash kabi turli algoritmik va strukturaviy yo‘llar mavjud. Faqat chiqish natijasi bo‘yicha baholash bunday farqlarni aks ettirmasligi, natijada talabaning konseptual rivojlanish trayektoriyasini aniqlash va individual teskari aloqa berishni cheklashi mumkin [2]. Bu holat, o‘z navbatida, baholashni faqat summativ natija sifatida emas, balki formativ mexanizm sifatida qo‘llash imkonini toraytiradi.

Mazkur muammoni yumshatish uchun avtomatik baholashda “konseptga asoslangan baholash” g‘oyasi tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Ushbu yondashuvda kodning faqat ishlash natijasi emas, balki undagi asosiy dasturlash konseptlari masalan, shart operatorlari, sikllar, rekursiya, massiv/ro‘yxat bilan ishlash, qidirish/saralash strategiyalari, funksiya/klass abstraksiyasi va h.k.lar aniqlanadi hamda baholash jarayoniga kiritiladi. Natijada baholash “produkt” ya’ni chiqish bilan bir qatorda yechimning mantiqiy tuzilishi va fikrlash yo‘lini ham qamrab oladi. Bu esa mezonlarning izchilligi, akademik halollik nazorati,

o‘qituvchi rubrikalariga mos tahlil va talabaning xatolarini diagnostika qilish kabi vazifalarni yaxshiroq qo‘llab-quvvatlaydi.

Xorijlik olimlardan Zhiyu Fan va hamkorlari aynan shu yo‘nalishda Concept Grader deb nomlangan yondashuvni taklif etib, avtomatik baholashda konseptual tarkibni ajratib ko‘rsatish masalasiga e’tibor qaratgan [1]. Concept Graderning asosiy g‘oyasi shundan iboratki, tizim talaba yechimining funksional to‘g‘riligini tekshirish bilan cheklanmay, kod ichidagi asosiy konseptlarni ya’ni, yechimning “semantik izi”ni aniqlaydi va ularni o‘qituvchi tomonidan kutilgan yechim konseptlari bilan taqqoslaydi. Shunday qilib, baholash jarayoniga talabaning “fikrlash yo‘li” - qaysi konstruksiyalar orqali masalani yechayotgani, qanday strategiyani tanlagani ham qo‘shilib, natija yanada mazmunli va pedagogik nuqtai nazardan interpretatsiya qilinadigan ko‘rinishga keladi. Bu yondashuv o‘zi tekshiruvchi tizimlarda teskari aloqani boyitish, talabaning konseptual bo‘shliqlarini aniqlash va adaptiv tavsiyalar berish uchun metodik asos vazifasini bajarishi mumkin.

Materiallar va metodlar. Tahlil uchun CS1/CS2 darajasidagi dasturlash fanlariga oid amaliy topshiriqlar majmuasi shakllantirildi. Topshiriqlar quyidagi konseptual toifalarni qamrab oldi:

- ► shart operatorlari (if/else, switch);
- ► sikllar (for/while/do-while);
- ► rekursiya;
- ► massiv/ro‘yxat bilan ishlash;
- ► satr (string) amallari;
- ► funksiyalar va parametr uzatish;
- ► qidirish/saralash strategiyalari;
- ► obyektga yo‘naltirilgan elementlar (klass, metod, inkapsulyatsiya) – (CS2 uchun);

Har bir topshiriq uchun a) funksional testlar to‘plami, b) kutilgan konseptlar profili, c) o‘qituvchi rubrikasi asosida etiketlangan baho tayyorlandi.

Tizim sinovi universitetning kirish bosqichidagi kurslarida o‘qiyotgan talabalar yechimlari asosida o‘tkazildi. Namunaga talabalarning turli yechim uslublarini aks ettiruvchi kodlar kiritildi. Baholashning “haqiqiy” qiymatini olish uchun o‘qituvchi/ekspertlar tomonidan rubrika asosida baholangan ballar referens sifatida qabul qilindi.

Taklif etilgan baholash moduli o‘zi tekshiruvchi tizimning 1-rasmda keltirilgan bosqichlari orqali ishlaydi.

Ma’lumotlarni yig‘ish - avvalo, talabalar tomonidan topshirilgan kodlar tizimga qabul qilinadi va log fayllarda saqlanadi. Har bir topshiriq unikal



1-rasm. Konseptga asoslangan baholash tizimining operatsion jarayondagi bosqishlari

identifikator Case_ID bilan belgilanishi orqali individual kuzatuv va tahlil qilish imkoniyati yaratiladi. Bu yondashuv talabaning barcha faoliyatini izchil nazorat qilish va keyinchalik uning o‘quv jarayonini tahlil qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Shuningdek, tizim nafaqat yakuniy topshiriqni, balki kod yozish jarayonidagi oraliq versiyalarni ham qayd etishi mumkin. Bu esa talabalar qanday mantiqiy yo‘l bilan yakuniy yechimga kelganini tahlil qilish imkonini beradi. Masalan, dastur yozishda talaba dastlab oddiy sikl ishlatishi, keyin uni rekursiv funksiya bilan almashtirishi mumkin. Bunday o‘zgarishlar talabaning fikrlash jarayonini ochib beradi.

Ma’lumotlarni yig‘ishda quyidagi qo‘shimcha parametrlar qayd etiladi:

-Topshiriq topshirilgan vaqt, bu talabaning vaqtni boshqarish ko‘nikmalarini baholashda yordam beradi.

-Kodni ishga tushirish urinishlari soni, bu talabaning tajriba qilganlik darajasini ko‘rsatadi.

-Xatoliklar jurnali, bu kod yozish jarayonida qanday sintaksis yoki konseptual xatolarga yo‘l qo‘yilganini aniqlash imkonini beradi.

Qo‘llanilgan funksiyalar va metodlar soni, bu talabaning mavzuga oid bilimlaridan qanday foydalanganini ko‘rsatadi. Shunday qilib, ma’lumotlarni yig‘ish jarayoni nafaqat kod natijasini, balki talabaning butun o‘quv faoliyati izlarini o‘z ichiga oladi. Bu yondashuv tizimga yanada chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi va talabaning bilim darajasi hamda o‘quv jarayonidagi yondashuvlarini to‘liqroq baholashga xizmat qiladi.

Oldindan qayta ishlash. kodlar dastlab sintaktik darajada tekshiriladi, so‘ngra ular konseptual graf shakliga keltiriladi. Bu bosqichda dasturda qo‘llanilgan asosiy konseptlar masalan, massivni saralash, sikllar, shartli operatorlar, rekursiya aniqlanadi. NLP usullariga o‘xshash jarayonlar-tokenizatsiya, stemming va lemmatizatsiya kabi texnikalar qo‘llanadi [3].

Konseptual grafiklarni taqqoslash. Talaba kodi asosida yaratilgan konseptual graf o‘qituvchi yechimi asosida qurilgan graf bilan solishtiriladi. Bu jarayon faqat natija to‘g‘riligini emas, balki kod tuzilmasining konseptual to‘liqligini ham o‘lchaydi. Masalan, talaba yechimida sikl noto‘g‘ri qo‘llangan bo‘lsa, tizim buni aniqlaydi va fikr-mulohazada ko‘rsatadi.

Tasniflash va baholashda kodlarning konseptual grafigi mashinaviy o‘qitish algoritmlari yordamida tahlil qilinadi. Naive Bayes, SVM va BERT modellari asosida turli darajadagi aniqlik natijalari olinadi. Zhiyu Fan va boshqalar [1] o‘z tadqiqotida BERT modelining semantik ma’nolarni chuqurroq tahlil qilish qobiliyatiga ega ekanini va shu sababli yuqori samaradorlik ko‘rsatganini ta’kidlashadi.

Teskari aloqa yaratishda tzim nafaqat baho qo‘yadi, balki talaba qilgan xatolarni ko‘rsatib, qanday tuzatish mumkinligi haqida ham tavsiya beradi. Shu tarzda, tizim “o‘qituvchi yordamchisi” sifatida ishlaydi va talabaga o‘z xatolarini anglab olishga yordam beradi.

Natijalar. Tadqiqot doirasida CS1/CS2 darajasidagi 154 ta talaba topshirig‘i bo‘yicha tajriba sinovlari o‘tkazildi. Maqsad - konseptga asoslangan avtomatik baholash (Concept Grader yondashuvi) natijalarini an’anaviy testga asoslangan baholash hamda bir qator mashinani o‘qitish modellariga tayangan konseptual klassifikatsiya yondashuvlari bilan qiyosiy baholashdan iborat bo‘ldi. Taqqoslashda a) o‘qituvchi qo‘ygan bahoga moslik, b) klassifikatsion aniqlik ko‘rsatkichlari, c) teskari aloqaning diagnostik qiymati va d) baholash tezligi kabi mezonlar inobatga olindi.

A) O‘qituvchi bahosi bilan moslik. Konseptga asoslangan baholash moduli o‘qituvchi baholari bilan 90% dan yuqori moslikni namoyish etdi. Bu natija tizimning faqat yakuniy chiqish natijasini emas, balki yechimdagi asosiy dasturlash konseptlarini aniqlashi orqali baholashning rubrikaga yaqin interpretatsiyasini amalga oshirganini ko‘rsatadi. Amaliy jihatdan, bu moslik yuqori bo‘lganda baholash jarayonidagi subyektivlik kamayadi va baholash mezonlari “reproduktiv” (takrorlanadigan) holatga keladi.

B) Testga asoslangan baseline’ning cheklovi. An’anaviy testga asoslangan baholash yondashuvi 70–75% diapazonda aniqlik ko‘rsatdi (1-jadvalda 75%). Ushbu farqning metodik sababi shundan iboratki, testga asoslangan yondashuvlar

yechimni, asosan, funksional to‘g‘rilik nuqtai nazaridan baholaydi; konseptual xilma-xillik (masalan, rekursiya vs iteratsiya, turli ma’lumot tuzilmalari) esa ko‘pincha baholash signali sifatida ishlatilmaydi. Natijada ayrim holatlarda:

- testlardan o‘tgan, ammo rubrika bo‘yicha “notavsiya” yondashuvni tanlagan yechimlar (konsept mismatch) yetarlicha penalizatsiya qilinmaydi;

- aksincha, konseptual jihatdan to‘g‘ri strategiyaga ega, lekin chegaraviy holat (edge case) yoki kichik implementatsion xato sabab testdan yiqilgan yechimlar “keskin” past baholanadi.

Bu holatlar testga asoslangan baholashning formativ qiymatini pasaytiradi.

C) ML modellarining qiyosiy natijalari. Konseptual baholashni ML yordamida amalga oshirishda modellar kesimida farqlar kuzatildi:

Naive Bayes modeli nisbatan pastroq natija qayd etdi (82%, F1 = 0.79). Bu modelning “mustaqillik farazi” (feature independence) konseptlar o‘rtasidagi bog‘liqlik kuchli bo‘lgan dasturlash konstruksiyalarida (masalan, sikl + shart + indekslash kombinatsiyasi) cheklov bo‘lishi mumkinligini anglatadi.

SVM modeli yuqoriroq natijaga erishdi (88%, F1 = 0.85). Bu SVM’ning chegaralarni yaxshi ajrata olishi va o‘rta o‘lchamdagi xususiyatlar fazosida barqaror ishlashi bilan izohlanadi.

Eng yuqori natija BERT modeli tomonidan qayd etildi (93%, F1 = 0.91). BERT’ning ustunligi shundaki, u kod/tekst representatsiyasida kontekstual bog‘liqliklarni chuqurroq ushlashi mumkin, natijada konseptlarni farqlashda sezgirlik ortadi. Shu bilan birga, BERT modelida hisoblash resurslari talabi yuqoriroq bo‘lgani sababli baholash tezligi “nisbatan pastroq” bo‘lib qayd etildi (1-jadval).

D) Teskari aloqa (feedback) sifatining oshishi. Konseptga asoslangan yondashuvlarning muhim natijalaridan biri - feedbackning diagnostik xarakteri kuchayganidir. An’anaviy tizimlarda teskari aloqa ko‘pincha “Wrong answer” yoki “Test failed” kabi umumiy ko‘rinishda bo‘ladi. Taklif etilgan yondashuvda esa tizim:

► “sikl noto‘g‘ri qo‘llangan”,

► “shart operatori to‘liq emas”,

► “rekursiya bazaviy holati kiritilmagan”

kabi konseptual izohlarni qayd etib, talabaning xatosini kognitiv darajada qaysi konseptda muammo borligini ko‘rsatadi. Bu esa talabaning o‘z-o‘zini tuzatishi va keyingi urinishda to‘g‘ri strategiyani tanlash ehtimolini oshiradi.

E) Tezlik (efficiency) va amaliy yutuq. Tajriba natijalariga ko‘ra, baholash jarayoni qo‘lda tekshirishga nisbatan taxminan 10 barobar tezlashdi. Bu natija katta guruhlarda o‘qituvchining yuklamasini sezilarli kamaytiradi, feedbackni

esa “kechiktirmasdan” yetkazish imkonini beradi. Shu bilan birga, yuqori aniqlik + tezkorlik kombinatsiyasi o‘zi tekshiruvchi tizimlarning real o‘quv jarayoniga integratsiyasini amaliy jihatdan oqlaydi.

1-jadval.

Baholash yondashuvlari taqqoslanishi

Yondashuv	Aniqlik (%)	F1-score	Teskari aloqa sifati	Baholash tezligi
Testga asoslangan baholash	75	0.70	Past	Yuqori
Naive Bayes (konseptual)	82	0.79	O‘rtacha	O‘rtacha
SVM (konseptual)	22	0.85	Yuqori	O‘rtacha
BERT (konseptual)	93	0.91	Juda yuqori	Nisbatan pastroq

Natijalar konseptual baholash yondashuvlari testga asoslangan baseline’dan barqaror ustun ekanini ko‘rsatdi. Ayniqsa, BERT yuqori aniqlik va F1-score hisobiga eng yaxshi diagnostik imkoniyatni beradi, biroq hisoblash xarajati yuqoriroq bo‘lgani sababli tezlikda nisbiy pasayish kuzatiladi. SVM esa “aniqlik–tezlik” balansida amaliy kompromiss yechim bo‘lishi mumkin.

Muhokama. Ushbu tadqiqot natijalari konseptga asoslangan avtomatik baholash yondashuvi an’anaviy testga asoslangan autograderlarga nisbatan metodik va amaliy ustunlik berishini ko‘rsatdi. Xususan, test-baseline ko‘proq funksional to‘g‘rilikka “qattiq” tayanib, yechimning ichki tuzilishi va tanlangan strategiyani baholash signali sifatida yetarli darajada ishlatmaydi. Natijada, bir xil chiqishga olib keladigan turli “fikrlash yo‘llari”ni rubrika nuqtai nazaridan ajratish qiyinlashadi va baholashning formativ qiymati pasayadi [4]. Konseptual yondashuv esa funksional natijani saqlagan holda, koddagi konseptlar profilini hisobga olgani sababli baholashni diagnostik darajaga ko‘taradi: “natija xato” kabi umumiy signal o‘rniga “qaysi konsept noto‘g‘ri/etishmayapti” degan pedagogik jihatdan mazmunli tahlil taqdim etiladi. Bu esa talabani keyingi urinishda maqsadli tuzatishlar qilishga undaydi va o‘qituvchining teskari aloqa berish yukini kamaytiradi.

BERT kabi transformerlarga tayangan yondashuvlarning ustunligi, asosan, murakkab kontekstual bog‘liqliklarni yaxshi ushlashi Zhiyu Fan tadqiqotlarida batafsil izohlanadi. Bizning natijalar ham ushbu fikrga mos: BERT eng yuqori aniqlik va F1-score bilan konseptlarni farqlashda yetakchi bo‘ldi. Biroq amaliy joriy etishda “eng yaxshi aniqlik” doimo “eng yaxshi tanlov” degani emas. Real o‘quv jarayonida baholash tizimi uchun muhim omillar - kechikish, hisoblash resurslari, masshtablilik va xizmat ko‘rsatish xarajatlaridir. Shu nuqtai nazardan,

resurslar cheklangan ya'ni CPU-only, kichik server, ko'p foydalanuvchi muhitlarda SVM kabi modellar "aniqlik–tezlik" balansida amaliy kompromiss yechim bo'lishi mumkin. Naive Bayes esa tez va soddaligi sababli prototiplash yoki boshlang'ich bosqichda mos keladi, biroq konseptlar o'rtasidagi bog'liqlik kuchli bo'lgan topshiriqlarda aniqlik cheklanishi tabiiy [5].

Muhokama qilinishi lozim bo'lgan yana bir muhim jihat - konseptual yondashuvning kuchi faqat klassifikatsiya metrikalarida emas, balki izohlanadigan baholash imkoniyatidadir. Konseptga asoslangan modul rubrika bilan birga ishlatilganda, qaysi konseptlar topildi, qaysilari kutilgan profilga mos kelmadi, penalizatsiya qaysi qoida asosida berildi kabi baholash jarayoni shaffoflashadi.. Bu holat apellyatsiya mexanizmlarini ham osonlashtiradi va baholashning adolatliligiga bo'lgan ishonchni oshiradi.

Kelgusida yanada yuqori natijalarga erishish uchun konseptual va testga asoslangan baholashni gibrid ko'rinishda birlashtirish maqsadga muvofiq. Amaliy model sifatida yakuniy ballni funksional komponent va konseptual komponentning vaznli kombinatsiyasi orqali hisoblash, shuningdek vaznlarni topshiriq turiga mos adaptiv kalibrlash tavsiya etiladi [6]. Bundan tashqari, "xatolik tahlili" asosida qaysi konseptlar ko'proq adashayotgani aniqlanib, feature engineering yoki domain-adaptation orqali yaxshilash kiritilishi mumkin.

Mahalliy ta'lim tizimlari kontekstida yana bir strategik yo'nalish - o'zbek tilidagi NLP vositalarini rivojlantirishdir [7]. Bu, avvalo, kodning o'zi emas, balki ta'limiy jarayonning quyidagicha "inson bilan muloqot" qismiga taalluqlidir:

feedbackni o'zbek tilida aniq, didaktik va individual shaklda generatsiya qilish;

topshiriq shartlarini, rubrikani va tavsiyalarni o'zbek tilida standartlashtirish;

hamda o'qituvchi-talaba kommunikatsiyasini avtomatlashtirilgan tizimda sifatli qo'llab-quvvatlash.

Natijada o'zimizning o'quv dasturlariga moslashtirilgan, mahalliy kontekstni hisobga oladigan o'zi-tekshiruvchi tizimlarni yaratish imkoniyati kengayadi.

Shu bilan birga, tadqiqotning tashqi ishonchliligi nuqtai nazaridan ayrim cheklovlar mavjud bo'lishi mumkin: namuna hajmi va topshiriqlar spektri, rubrika etalonining subyektiv komponenti, hamda modellarni boshqa kurslar/tillar/mavzular kesimida generalizatsiya qilish masalalari. Shuning uchun keyingi bosqichda ko'proq topshiriqlar, turli fan bloklari va bir nechta o'quv guruhlarida sinov o'tkazish, shuningdek metrikalarni kengaytirish tavsiya etiladi.

Xulosa. Aytish mumkin-ki, maqolada o'zi tekshiruvchi tizimlarda Concept Grader g'oyasiga tayangan konseptual avtomatik baholash yondashuvi ishlab chiqildi va u an'anaviy testga asoslangan baholash hamda mashina o'qitish modellariga tayangan konseptual klassifikatsiya usullari bilan qiyosiy tahlil

qilindi. 154 ta talaba topshirig‘i asosida o‘tkazilgan tajribalar natijalari konseptga asoslangan baholashning nafaqat funksional natijani, balki yechimning ichki mantiqiy tuzilishi va qo‘llangan dasturlash konseptlarini ham qamrab olishi hisobiga baholash jarayonining izchilligi va pedagogik talqin qilinishini kuchaytirishini ko‘rsatdi.

Natijalarga ko‘ra, konseptual yondashuv o‘qituvchi baholari bilan 90% dan yuqori moslikni namoyon etdi, bu esa baholashning rubrikaga yaqin va takrorlanadigan ko‘rinishda bajarilishini tasdiqlaydi. An’anaviy testga asoslangan baholash esa 70–75% aniqlik bilan cheklanib, yechim strategiyalarining xilma-xilligini hamda konseptual kamchiliklarni yetarli darajada aks ettira olmasligi aniqlangan. Mashina o‘qitish modellaridan foydalanilganda Naive Bayes va SVM amaliy jihatdan maqbul natijalar ko‘rsatgan bo‘lsa, eng yuqori ko‘rsatkich BERT modeli orqali qayd etildi. Biroq bu holat hisoblash resurslari va baholash tezligi bo‘yicha qo‘shimcha talablar mavjudligini anglatadi.

Konseptga asoslangan baholashning muhim amaliy natijasi - teskari aloqaning diagnostik qiymati oshganidadir. Umuman olganda, tadqiqot natijalari konseptual avtomatik baholash yondashuvi o‘zi tekshiruvchi tizimlar uchun adolatli, izohlanadigan va ta’limiy jihatdan samarali baholash mexanizmini ta’minlashini ko‘rsatadi. Kelgusida funksional testga asoslangan tekshiruv va konseptual tahlilni gibrid tarzda birlashtirish, vazn koeffitsientlarini topshiriq turiga mos adaptiv kalibrlash, hamda feedbackni mahalliy ta’lim kontekstiga moslashtirish orqali tizimning aniqligi va amaliy qiymatini yanada oshirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Fan, Z., Tan, S. H., & Roychoudhury, A. (2023). Concept-Based Automated Grading of CS-1 Programming Assignments. ISSTA’23, Seattle, USA.

2. Van Der Aalst, W. (2016). Process mining: Data science in action. Springer.

3. Rozinat, A., & van der Aalst, W. (2008). Conformance checking of processes based on monitoring real behavior. Information Systems, 33(1), 64–95.

4. Nafasov M.M., Axtamova L.A. Dasturlashga oid amaliy topshiriqlarni avtomatik tekshirish usullari // Zamonaviy jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun fan va texnologiyalar. Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari. 2023 y. 26-27 aprel. Buxoro: 2023. 533-535 b.

5. Khudoyberganov M.O., Nafasov M.M., Akhtamova L.A. Application of nlp methods in systems for assessing practical assignments // Scientific journal of higher education and creative innovations ajou sci, -Toshkent, 2025 , №1

6. Xudoyberganov M.O‘, Axtamova L.A. Dasturiy kodni avtomatik tekshirish tizimlarining algoritmik yechimlari // Fan va texnologiyalar taraqqiyoti ilmiy-texnikaviy jurnal- ISSN 2181-8193, №3 /2025, Buxoro:2025, 195-202 b.

7. Akhmedova Z.I., Nafasov M.M., Akhtamova L.A. Algorithms and models of self-analyzing systems for practical tasks of students // AIP Conf. Proc. 24 February 2025: 3268 (1). P. 060009-1 - 060009-6.

RAQAMLI TA'LIMDA EMOTSIONAL HOLATNI KUZATISH VA PEDAGOGIK YONDASHUVLAR

Nafasov M.M.
Buxoro davlat texnika universiteti

Tayanch so'zlar: raqamli ta'lim, emotsional holat, learning analytics, affective computing, engagement, feedback, privacy-by-design.
Ключевые слова: цифровое обучение, эмоциональное состояние, аналитика обучения, аффективные вычисления, вовлеченность, обратная связь, конфиденциальность по умолчанию.
Key words: digital learning, emotional state, learning analytics, affective computing, engagement, feedback, privacy by default.

РЕЗЮМЕ:
Raqamli ta'lim muhitida talabalarning emotsional holati - motivatsiya, davomat, qiziqish va akademik natijalarga bevosita ta'sir qiluvchi omillardan biri. Shu sababli so'nggi yillarda "affective computing" va learning analytics kesishmasida emotsiyani avtomatik aniqlash hamda real vaqt monitoringi yondashuvlari tez rivojlandi. Ushbu maqolada emotsional holatni kuzatishning pedagogik qiymati nazariy va amaliy asoslarda tahlil qilinib, minimal-invaziv, privacy-by-design tamoyillariga tayangan konseptual model taklif etiladi. Metodik bo'limda aralash yondashuv asosida tadqiqot protokoli beriladi. Natijalarda esa metodik protokolni namoyish etuvchi namunaviy ko'rsatkichlar asosida pedagogik ta'sirlar keltiriladi. Yakunda raqamli ta'limda emotsional monitoringni "baho qo'yish" emas, balki erta ogohlantirish va didaktik qo'llab-quvvatlash mexanizmi sifatida joriy etish bo'yicha takliflar beriladi.
РЕЗЮМЕ:
В цифровой образовательной среде эмоциональное состояние студентов является одним из факторов, напрямую влияющих на мотивацию, посещаемость, интерес и успеваемость. Поэтому в последние годы на стыке «аффективных вычислений» и аналитики обучения быстро развиваются подходы к автоматическому распознаванию эмоций и мониторингу в реальном времени. В данной статье анализируется педагогическая ценность мониторинга эмоционального состояния на теоретическом и практическом уровнях и предлагается концептуальная модель, основанная на принципах минимального вмешательства и обеспечения конфиденциальности на этапе проектирования. В методологической части представлен протокол исследования, основанный на смешанном подходе. Результаты содержат педагогические выводы, основанные на показательных индикаторах, демонстрирующих методологический протокол. Наконец, предлагаются способы внедрения мониторинга эмоций в цифровое обучение не как «оценки», а как механизма раннего предупреждения и дидактической поддержки.
SUMMARY:

In digital educational environments, students' emotional state is a factor directly affecting motivation, attendance, interest, and academic performance. Therefore, in recent years, approaches to automatic emotion recognition and real-time monitoring at the intersection of "affective computing" and learning analytics have rapidly developed. This article analyzes the pedagogical value of emotional state monitoring at the theoretical and practical levels and proposes a conceptual model based on the principles of minimal intervention and ensuring privacy at the design stage. The methodological section presents a research protocol based on a mixed-method approach. The results contain pedagogical conclusions based on representative indicators demonstrating the methodological protocol. Finally, ways to implement emotion monitoring in digital learning are proposed, not as an "assessment," but as an early warning mechanism and didactic support.

Kirish. Raqamli ta’lim kengaygani sari o‘qituvchi o‘quv jarayonini nafaqat bilim, balki emotsional jarayonlar nuqtai nazaridan ham boshqarishi kerak bo‘lgan vaziyatga keldi. Control-Value Theory (CVT) doirasida akademik emotsiyalar jumladan, qiziqish, zavq, asabiylashish, xavotir, zerikish va boshqalar o‘quvchining nazorat va qiymat baholashlari orqali shakllanishi hamda keyingi motivatsiya, strategiyalar va natijalarga ta’sir qilishi asoslanadi. Shunday ekan, raqamli muhitda emotsional “signal”larni erta ko‘rish - pedagogik aralashuvni vaqtida berish imkonini yaratadi.

Xorijiy tadqiqotlarda raqamli o‘qishda emotsiyalar va natijalar orasidagi bog‘liqlik tizimli tarzda ko‘rib chiqilgan. Ijobiy emotsiyalar ko‘pincha motivatsiya, jalb etilish va natijani yaxshilashi, salbiy emotsiyalar esa ayrim sharoitlarda zararli bo‘lishi, biroq “faollashtiruvchi” salbiy emotsiyalar ba’zan foydali sa’y-harakatni qo‘zg‘atishi mumkinligi qayd etiladi. Bu murakkablik “emotsiyani kuzatish”ni sodda “yaxshi/yomon” tasnifidan ko‘ra, pedagogik kontekst bilan birga talqin qilish zarurligini ko‘rsatadi. Affektiv hisoblash asosida emotsiyani avtomatik aniqlash (EAA) bo‘yicha yirik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab ishlar texnik aniqlikka urg‘u beradi, ammo EAA natijalarini real o‘quv jarayoniga didaktik jihatdan bog‘lash yetarli darajada yoritilmagan. Shu bo‘shliq, ayniqsa, raqamli ta’lim amaliyotida “dashboard bor, lekin o‘qituvchi nimani qanday qilishini bilmaydi” degan muammoga olib kelishi mumkin.

Emotsional holatning qaysi turlari pedagogik jihatdan kritik? Klassik empirik natijalar, xususan, zerikishning uzoq davom etishi kabi nomaqbul xatti-harakatlar bilan bog‘liqligini, shuningdek chalkashlik va maqsadli aralashuv bo‘lsa, o‘rganish uchun imkoniyatga aylanishini ko‘rsatadi. Demak, monitoringning vazifasi - “emotsiyani o‘lchash” emas, balki zerikishni uzish, “foydali chalkashlik”ni qo‘llab-quvvatlash va “barqaror chalkashlik”ni kamaytirishdir.

Yurtimiz sharoitida esa masofaviy va gibrid ta’limning kengayishi bilan birga ikki masalaning dolzarbligi oshadi. Birinchidan o‘qituvchining real vaqtda “ko‘rish maydoni” qisqarishi, ikkinchidan ma’lumot maxfiyligi va madaniy moslik muammosi yuzaga chiqadi. Shu nuqtai nazardan emotsional monitoring

1-rasm. Aralash ta’lim komponentlari

faqat texnik modul emas, u pedagogik protokol + axloqiy boshqaruv bilan birga kelgandagina ta’limiy qiymat beradi.

Materiallar va metodlar. Emotsional holatni kuzatish fenomeni subyektiv kechinma, xulq-atvor, kontekst kabi ko‘p qatlamli bo‘lgani sababli aralash metod tanlandi. Emotsiyalarni faqat kvantitativ signal orqali o‘lchash interpretatsiya xatolariga olib kelishi, faqat sifat orqali yoritish esa real vaqt dinamika va masshtablilikni cheklashi mumkin. Aralash metod yondashuvi bu ikki kuchli tomonlarni birlashtiradi.

Raqamli ta’lim muhitida o‘quvchilarning emotsional holatini kuzatish va uni pedagogik aralashuvlar bilan bog‘lash uchun aralash metodologiya qo‘llanildi. Dizayn sifatida convergent parallel yondashuv tanlanib, kvantitativ va kvalitativ ma’lumotlar bir vaqtning o‘zida yig‘ildi va keyinchalik integratsiya qilindi. Kvantitativ oqimda self-report mikro-so‘rovlar qiziqish, zerikish, chalkashlik, xavotir va nazorat hissi bo‘yicha 1-5 gacha Likert shkalasi hamda learning analytics loglari faol sessiya davomiyligi, “time-on-task”, pauza/rewind chastotasi, topshiriqni topshirish kechikishi, urinishlar soni, xatolar takrorlanishi, forum/chat faolligi asosiy o‘lchov vositalari sifatida ishlatildi. Ushbu kombinatsiya emotsiyani bevosita va bilvosita indikatorlar orqali triangulyatsiya qilish, raqamli muhitda “ko‘rinmas” jarayonlarni erta aniqlash hamda aralashuvni o‘z vaqtida rejalashtirish imkonini beradi. Resurs va maxfiylik talablari inobatga olinib, multimodal EAA faqat ixtiyoriy va minimal-invaziv tamoyil asosida yordamchi kanal sifatida ko‘rib chiqildi.

Kvantitativ o‘lchovlarning barqarorligini oshirish maqsadida mikro-so‘rovlar har bir o‘quv topshirig‘i topshirilgandan so‘ng 20–30 soniyalik “check-in”

shaklida o‘tkazildi. Bu usul respondent charchashini kamaytirish bilan birga, emotsional holatning vaqt bo‘yicha o‘zgaruvchanligini qayd etishga xizmat qiladi. Log ma’lumotlar esa bir xil vaqt oralig‘ida masalan, haftalik kesimda agregatsiya qilinib, progress, kechikish, qayta urinish intensivligi hamda xato takrorlanish indeksi kabi integral ko‘rsatkichlar hosil qilindi. Shuningdek, emotsional holatni pedagogik jihatdan talqin qilishni yengillashtirish uchun self-report natijalari asosida “qiziqish–zerikish” hamda “nazorat-xavotir” o‘qlari bo‘yicha soddalashtirilgan emotsional profil tuzilib, log metrikalari bilan mosligi tekshirildi. Multimodal EAA kanali qo‘llanilgan holatlarda, xom biometrik ma’lumotlarni saqlamaslik, faqat agregatsiyalangan indekslarni qayd etish va qisqa muddatli saqlash siyosati amalga oshirildi.

Kvalitativ oqimda o‘quvchilar bilan yarim strukturali intervyu va qisqa reflektiv yozuvlar orqali emotsional holatning kontekstual sabablari hamda o‘qituvchi aralashuvlarining qabul qilinishi o‘rganildi. Intervyu savollari emotsiya triggerlari - qaysi vazifalarda zerikish ortadi, qaysi bosqichda chalkashlik barqarorlashadi, platforma omillari, baholash shaffofligi va feedbackga ehtiyoj kabi yo‘nalishlarni qamrab oldi. Sifat ma’lumotlar tematik tahlil yordamida kodlanib, asosiy toifalar zerikish omillari, “foydali chalkashlik” va barqaror chalkashlik, baholash xavotiri, feedback ehtiyoji hamda o‘zini boshqarish strategiyalariga ajratildi. Kodlashning izchilligini ta’minlash uchun kodlar lug‘ati shakllantirilib, takroriy kodlash orqali toifalarning barqarorligi tekshirildi.

Integratsiya bosqichida triangulyatsiya va joint display usuli qo‘llanib, self-report ko‘rsatkichlari, log metrikalari va sifat xulosalari bitta analitik jadvalda birlashtirildi. Bunda mos keluvchi holatlar “konvergensiya”, masalan, zerikish ↑ va faollik ↓ sifatida, mos kelmaydigan holatlar esa “nomoslik” sifatida ajratildi. Nomoslik holatlarida, masalan, qiziqish yuqori, ammo progress past bo‘lganda bu holat “qiziqish mavjud, biroq murakkablik yuqori” ya’ni produktiv chalkashlik bo‘lishi ehtimoli sifat ma’lumotlar va topshiriq murakkabligi bilan birga talqin qilindi. Shuningdek, monitoring natijalarini pedagogik qarorga ulash uchun “signal → aralashuv” xaritasi ishlab chiqildi. Zerikish yuqori bo‘lsa - mikro-vazifa va interaktiv elementlar, barqaror chalkashlik bo‘lsa - scaffold savollar va maslahat, xavotir yuqori bo‘lsa - shaffof mezonlar va bosqichma-bosqich topshiriqlar kabi aralashuvlar tavsiya etildi. Natijalarni qayta ishlashda deskriptiv statistika, guruhlararo taqqoslash hamda vaqt bo‘yicha dinamikani baholovchi yondashuvlardan foydalanish nazarda tutildi. Sifat natijalar esa kvant ko‘rsatkichlarni izohlash va pedagogik mexanizmlarni asoslash uchun keltirildi. Barcha jarayonlarda “privacy-by-design” tamoyillariga qat’iy amal

qilinib, xabardorlik, ma'lumotlarni minimallashtirish, maqsad cheklovi, anonimlashtirish/psevdonimlashtirish va saqlash muddatini belgilash kabi talablar tadqiqot protokolining ajralmas qismi sifatida ko'rib chiqildi.

Natijalar. Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarning emotsional holatini kuzatish bo'yicha aralash metodologiya asosida yig'ilgan ma'lumotlar tahlili natijalari asosida convergent parallel dizayn doirasida self-report mikro-so'rovlar orqali olingan emotsional ko'rsatkichlar, learning analytics loglaridan hosil qilingan xulq-atvor metrikalari hamda yarim strukturali intervyu va reflektiv yozuvlardan ajratilgan tematik toifalar o'zaro triangulyatsiya qilindi. Shuningdek, integratsiya bosqichida joint display yondashuvi asosida kvant va sifat natijalari yagona analitik ramkaga birlashtirilib, mos keluvchi holatlar konvergensiya, nomoslik holatlari esa alohida pedagogik talqin qilindi.

Jadval 1.

Emotsional monitoring kanallari taqqoslanishi

Kanal	O'lchov manbasi	Pedagogik foyda	Infratuzilma talabi	Privacy xatari
Self-report micro check-in	Mini-so'rov	Talqin aniq, refleksiya	Past	Past
LMS loglari	Clickstream, deadline, xato takrori	Erta ogohlantirish	Past–o'rtacha	Past
Matn (chat/ forum) sentiment	NLP	Emotsional fonni ko'rish	O'rtacha	O'rtacha
Yuz ifodasi / video	AER (webcam)	Real vaqt signal	Yuqori	Yuqori
Multimodal	(log+matn+video)	Eng boy diagnostika	Yuqori	Yuqori

Natijalar talabalarning emotsional holati dinamikasining raqamli o'quv faoliyati bilan qanday bog'liqligini, ayniqsa zerikish va barqaror chalkashlik kabi holatlar paydo bo'lganda xulq-atvor metrikalarida kuzatiladigan o'zgarishlarni ya'ni, faollik pasayishi, kechikishning ortishi, xatolar takrorlanishini aniqlash imkonini berdi. Bundan tashqari, monitoring natijalari "signal → aralashuv → ta'sir" zanjiri asosida ko'rib chiqilib, pedagogik aralashuvlar qo'llanilgan holatlarda jalb etilish, topshiriqlarni o'z vaqtida bajarish va o'zini boshqarish strategiyalarida ijobiy siljishlar qayd etildi.

Ushbu kichik bo'limda emotsional holat monitoringi va u asosida amalga oshirilgan pedagogik aralashuvlarning ta'limiy samarasi guruhlar kesimida tahlil qilinadi. Bunda ishtirokchilar shartli ravishda nazorat guruhi (odatdagi

raqamli ta’lim jarayoni, standart feedback) va intervensiya guruhi (self-report mikro-so‘rovlar, learning analytics ko‘rsatkichlari hamda “signal → aralashuv” protokoli asosida differensial qo‘llab-quvvatlash)ga ajratilib, natijalar qiyosiy baholandi. Ta’sir indikatorlari sifatida jalb etilish, o‘quv faoliyati barqarorligi, akademik natijalar hamda risk indikatorlari (dropout ehtimoli, barqaror chalkashlik epizodlari) tanlandi.

4 haftalik modulda N=120 (60/60) bo‘lgan shartli dizaynda, intervensiya guruhida monitoring + protokol bo‘yicha aralashuvlar berildi.

Jadval 2.

Intervensiya ta’siri

Ko‘rsatkich	Nazorat (n=60)	Intervensiya (n=60)	Statistik xulosa
Jalb etilish (1–5)	3.0 ± 0.7	3.6 ± 0.6	$t \approx 5.04$, $p < 0.001$, $d \approx 0.92$
Yakuniy ball (0–100)	71.4 ± 10.2	78.9 ± 9.5	$t \approx 4.17$, $p < 0.001$, $d \approx 0.76$
Kursni tashlab ketish (dropout)	15/60 (25%)	4/60 (6.7%)	$\chi^2 \approx 6.25$, $p \approx 0.012$

Bu natijalar “emotsional signal → pedagogik aralashuv” zanjiri jalb etilish va natijani yaxshilashi mumkinligini ko‘rsatadi; bu umumiy tendensiya online o‘qishda emotsiyalar natijaga sezilarli ta’sir qilishini qayd etgan sistematik xulosalar bilan mos. Guruhlararo farqlarni aniqlashda deskriptiv statistika bilan bir qatorda mos statistik mezonlar qo‘llanib, natijalar nafaqat “farq bor-yo‘qligi”, balki uning pedagogik mazmuni qaysi aralashuv qaysi emotsional holatlarda samaraliroq ishlagani nuqtai nazaridan ham talqin qilindi. Shuningdek, kvant natijalar sifatdan olingan izohlar bilan boyitilib, intervensiyaning qaysi komponentlari masalan, zerikishda mikro-vazifa, barqaror chalkashlikda scaffold savollar, xavotirda shaffof mezon va qo‘llab-quvvatlovchi feedback ta’sirga ko‘proq hissa qo‘shgani aniqlashtirildi.

2-rasm emotsional balans indeksi (EBI) dinamikasini ko‘rsatlgan. Unda EBI - “qiziqish/enjoyment” va “zerikish/boredom” farqidan hosil qilingan normallashtirilgan indeks. Agar u 0 dan yuqori bo‘lsa ijobiy balans hisoblanadi.

Natijalar umumlashtirilganda, raqamli ta’lim muhitida emotsional holat indikatorlari va xulq-atvor metrikalari o‘rtasida mazmunli uyg‘unlik mavjudligi, shuningdek “signal → pedagogik aralashuv” zanjiri orqali jalb etilish va o‘quv faoliyatining barqarorligini yaxshilash imkoniyati kuzatiladi. Triangulyatsiya hamda joint display integratsiyasi emotsional o‘zgarishlar nafaqat statistik farqlar sifatida, balki ularning kontekstual sabablari bilan birga talqin qilinishi zarurligini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, ayrim nomoslik holatlari emotsiyalarni



2-rasm. Raqamli ta'limda emotsional ballans dinamikasi

"yaxshi/yomon" orqali emas, balki didaktik vaziyat va topshiriq murakkabligi bilan bog'lab baholash lozimligini anglatadi.

Demak, keltirilgan natijalar emotsional monitoringni o'quvchilarni "nazorat qilish" vositasi sifatida emas, balki pedagogik qarorlarni dalillarga tayangan holda qabul qilishga xizmat qiluvchi erta ogohlantirish va formatif qo'llab-quvvatlash mexanizmi sifatida ko'rish mumkinligini asoslaydi.

Muhokama. Olingan namunaviy natijalar uchta muhim pedagogik xulosani qo'llab-quvvatlaydi. Birinchidan, emotsional holatni kuzatish o'qituvchiga "ko'rinmas" jarayonni ko'rinadigan qiladi va raqamli ta'limda kamera o'chirilgan, passiv tinglovchi yoki "silent struggle" holatidagi o'quvchini oddiy test natijasi orqali erta aniqlash qiyin. Bu holatda self-report mikro-so'rovlar hamda learning analytics loglari o'qituvchi uchun "erta ogohlantirish signali" vazifasini bajaradi. Ayniqsa, zerikishning ortishi, faollikning pasayishi va kechikishning ko'payishi kabi indikatorlar kombinatsiyasi o'qituvchiga didaktik qarorni tezroq qabul qilish imkonini beradi. Bu yondashuv akademik emotsiyalarni nazorat va qiymat baholari orqali izohlovchi "Control–Value Theory" doirasida ham mantiqan asoslanadi.

Shu nuqtada EAA va "dashboard" yondashuvlari real vaqtda vizualizatsiya orqali bo'shliqni qisman to'ldirishi mumkin. Biroq bizning fikrimizga ko'ra dashboard - maqsad emas, vosita. Ya'ni ko'rsatkichlarni yig'ishning o'zi yetarli bo'lmaydi; ular albatta pedagogik harakatga ulanmasa, monitoring "statistik kuzatuv" darajasida qolib ketadi. EAA bo'yicha yirik sistematik ko'rib chiqishlar ham aynan shuni ta'kidlaydi.

METODIK JIHATLAR	
Indikatorlarning kombinatsion talqini	**Nomoslik holatlar talqini**
Emotsional holatni bitta ko‘rsatkich bilan “hukm” qilish noto‘g‘ri bo‘lishi mumkin. U log signallar va kontekst bilan birga qaralgandagina ishonchli “pedagogik signal”ga aylanadi.	Qiziqish yuqori, ammo progress past bo‘lsa, bu “qiziqaman, lekin qiyin” tipidagi produktiv chalkashlik bo‘lishi mumkin. Bunday vaziyatda jazolovchi yoki keskin soddalashtiruvchi aralashuv emas, balki yo‘naltiruvchi yordam samaraliroq bo‘ladi.

3-rasm. Natijalarning pedagogik jarayon nuqtai nazaridan metodik jihatlari

Ikkinchidan, emotsional monitoringning qiymati texnik “aniqlik”da emas, didaktik bog‘lanishda: muallif yondashuvi “model + protokol”ni birga beradi. Amaliy jihatdan bu “signal → talqin → aralashuv” zanjirini anglatadi. Masalan, zerikish ko‘tarilganda interaktiv elementlar yoki qisqa, tez natija beruvchi mikro-vazifalar; chalkashlik paydo bo‘lganda esa “foydali chalkashlik”ni qo‘llab-quvvatlaydigan scaffold savollar va yo‘naltiruvchi feedback berilishi lozim. Bu yondashuv “chalkashlik doimo salbiy emas” degan empirik tezis bilan mos va ayrim sharoitlarda chalkashlik o‘rganishni chuqurlashtirishi mumkin, ammo progress tiklanmasa resursli aralashuv talab etiladi.

Uchinchidan, monitoringning risklari o‘ta muhim va emotsiya ma’lumotlari sezgir bo‘lib, noto‘g‘ri talqin yoki “nazorat” sifatida qabul qilinishi o‘quvchi ishonchini pasaytirishi, hatto o‘quvchi xatti-harakatini sun’iy ravishda o‘zgartirib, ma’lumot sifatini pasaytirishi mumkin. Shu sababli emotsional monitoringni joriy etishda privacy-by-design xabardorlik, maqsad cheklovi, minimallashtirish, saqlash muddatining cheklanishi va audit kabi tamoyillari metodik “qo‘shimcha” emas, tizimning markaziy sharti bo‘lishi zarur. Learning analytics bo‘yicha etik-privacy tamoyillarini tizimli bayon qilgan klassik ishlar ham aynan shu yo‘nalishni tavsiya etadi.

Mazkur xulosalarga qo‘shimcha ravishda, natijalarni pedagogik jarayon nuqtai nazaridan talqin qilganda, ikki metodik jihat alohida ajralib chiqadi.

Demak, monitoring natijalarini “yaxshi/yomon” dichotomiyasi bilan emas, didaktik vazifa, murakkablik va o‘quvchining nazorat/qiymat baholari bilan bog‘lab tahlil qilish zarur.

Shu bilan birga, taqdim etilgan natijalar umumlashtirilganda, ularni real muhitga ko‘chirishda bir qator cheklovlar mavjud. Birinchidan, emotsional holat kuchli individual va madaniy farqlarga ega. Shuning uchun indikatorlar kurs, yosh va kontekst bo‘yicha kalibrlanishi lozim. Ikkinchidan, EAA ishlatilgan taqdirda, model xatolari pedagogik qarorni noto‘g‘ri yo‘naltirishi mumkin. Shu sababli EAA natijalari yordamchi signal sifatida, self-report va loglar bilan birga triangulyatsiyada qo‘llanishi maqsadga muvofiq. Uchinchidan, aralashuvning samarasi “signal”ning o‘zidan ko‘ra, o‘qituvchining didaktik mahorati va aralashuv sifati bilan belgilanadi; demak, monitoring tizimi bilan birga o‘qituvchilar uchun pedagogik ssenariylar to‘plamini ishlab chiqish talab etiladi.

Xulosa. Muhokama qilingan dalillar shuni ko‘rsatadiki, raqamli ta’limda emotsional holat o‘quv jarayonining “yashirin” qatlamini tashkil etib, jalb etilish, o‘zini boshqarish va natijaviylikni izohlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. An’anaviy auditoriya sharoitida o‘qituvchi noverbal signallar (mimika, tana tili, savol berish faolligi) orqali o‘quvchining holatini sezishi mumkin bo‘lsa, raqamli muhitda bu imkoniyat keskin kamayadi. Shu sababli emotsional monitoring o‘qituvchining didaktik qarorlarini dalillarga tayangan holda qabul qilishiga yordam beruvchi, ko‘pincha bevosita ko‘rinmaydigan jarayonlarni “ko‘rinadigan” qiluvchi mexanizm sifatida talqin qilinadi. Bunda emotsiyalar nafaqat ta’lim jarayonining fon holati, balki o‘quvchining vazifani qabul qilishi, murakkablikni baholashi va o‘qish strategiyasini tanlashiga ta’sir etuvchi operatsion omil ekanligi e’tiborga olinishi lozim.

Shu nuqtai nazardan, emotsiyalarni kuzatishni “nazorat” emas, balki erta ogohlantirish va formativ qo‘llab-quvvatlash mexanizmi sifatida joriy etish konsepsiyasiga tayanish lozim. Bu yondashuv emotsional ma’lumotlarning sezgirligi va etik risklarini ham hisobga oladi. O‘quvchi monitoringni nazorat yoki jazolash vositasi deb qabul qilsa, ishonch pasayadi va o‘quv faoliyati sun’iy ravishda “ko‘rsatkich uchun” moslashtirilishi ehtimoli ortadi. Demak, monitoringning pedagogik maqsadi ochiq bayon qilinishi, rozilik va maxfiylik tamoyillari bilan himoyalanishi hamda natijalar o‘quvchini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qilishi lozim. Natijada emotsional monitoring ta’limni “raqamlar bilan boshqarish” emas, balki o‘quvchining ehtiyojiga mos, moslashuvchan va insonparvar (learner-centered) pedagogik yondashuvni kuchaytiruvchi vositaga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Baker R. S. J. d., D'Mello S. K., Rodrigo M. M. T., & Graesser, A. C. (2010). Better to be frustrated than bored: The incidence, persistence, and impact of learners' cognitive–affective states during interactions with three different computer-based learning environments. International Journal of Human-Computer Studies, 68(4), 223–241. https://doi.org/10. 1016/j.ijhcs.2009.12.003

2. Akhmedova Z.I., Nafasov M.M., Akhtamova L.A. Algorithms and models of self-analyzing systems for practical tasks of students // AIP Conf. Proc. 24 February 2025: 3268 (1). P. 060009-1 - 060009-6.

3. Nafasov M. M. The effectiveness of the use of mobile technologies in the educational process // EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR) – 2020. – C. 142-166.

4. Gutiérrez, R., Villegas-Ch, W., & Luján-Mora, S. (2025). Implementing federated learning for privacy-preserving emotion detection in educational environments. Frontiers in Artificial Intelligence, 8, 1644844. https://doi.org/10.3389/frai.2025.1644844

5. Pardo, A., & Siemens, G. (2014). Ethical and privacy principles for learning analytics. British Journal of Educational Technology, 45(3), 438–450. https://doi.org/10.1111/bjet.12152

6. Hasnine, M. N., Nguyen, H. T., Tran, T. T. T., Bui, H. T. T., Akçapınar, G., & Ueda, H. (2023). A real-time learning analytics dashboard for automatic detection of online learners' affective states. Sensors, 23(9), 4243. https://doi.org/10.3390/s23094243

7. Wu, R., et al. (2022). Exploring the effects of achievement emotions on online learning outcomes: A systematic review. Frontiers in Psychology, 13, 977931. https://doi.org/10.3389/fpsyg.2022.977931

8. Yu, S., Androsov, A., Yan, H., & Chen, Y. (2024). Bridging computer and education sciences: A systematic review of automated emotion recognition in online learning environments. Computers & Education, 220, 105111. https://doi.org/10.1016/j.compedu.2024.105111

INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA PEDAGOGLARINING MUSTAQIL KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

G‘affarov F.H.
Toshkent shahridagi Puchon universiteti prorektori,
pedagogika fanlari doktori (DSs), dotsent
Abduqodirov Sh.Sh.
Toshkent shahridagi Puchon universiteti magistratura talabasi

Tayanch so‘zlar: innovatsion yondashuv, mustaqil kasbiy kompetensiya, pedagog shaxsi, kompetensiyaviy yondashuv, kasbiy rivojlanish, motivatsion-qadriyatli strategiya, pedagogik ta’lim sifati, raqamli texnologiyalar, refleksiv faoliyat, ta’lim menejmenti.
Ключевые слова: инновационный подход, самостоятельная профессиональная компетентность, личность педагога, компетентностный подход, профессиональное развитие, мотивационно-ценностная стратегия, качество педагогического образования, цифровые технологии, рефлексивная деятельность, менеджмент образования.
Key words: innovative approach, independent professional competence, teacher personality, competency-based approach, professional development, motivational-value strategy, quality of pedagogical education, digital technologies, reflective activity, education management.

РЕЗЮМЕ:
Mazkur maqolada innovatsion yondashuvlar asosida pedagoglarning mustaqil kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi. Pedagog shaxsini kasbiy-pedagogik jarayonning faol subyekti sifatida shakllantirish, uning motivatsion-qadriyatli yo‘nalganligini mustahkamlash hamda kompetensiyaviy yondashuv asosida kasbiy rivojlanishini ta’minlashning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan.
РЕЗЮМЕ:
В статье рассматриваются вопросы развития самостоятельной профессиональной компетентности педагогов на основе инновационных подходов. Раскрываются теоретические и практические аспекты формирования личности педагога как активного субъекта профессионально-педагогического процесса, усиления его мотивационно-ценностной направленности и обеспечения профессионального развития на основе компетентностного подхода.
SUMMARY:
This article examines the development of teachers’ independent professional competence based on innovative approaches. It highlights the theoretical and practical aspects of shaping the teacher’s personality as an active subject of the professional pedagogical process, strengthening motivational and value orientations, and ensuring professional growth within the framework of the competency-based approach.

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish sharoitida pedagog shaxsini rivojlantirish, uning mustaqil kasbiy faoliyatga tayyorligini ta’minlash hamda kasbiy-pedagogik ta’lim sifatini oshirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. V.A. Slastenin ta’kidlaganidek, pedagog – bu pedagogik jarayonning yaratuvchisi, umumiy va kasbiy madaniyat tashuvchisi, shuningdek o‘z kasbida hayot tarzini amalga oshiruvchi subyektdir. Shu nuqtai nazardan, pedagoglarning mustaqil kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etilishi zarur.

Pedagogik ta’limni yangilash strategiyalari va kompetensiyaviy yondashuv. Pedagogik ta’lim tizimini yangilash jarayonida bir qator yetakchi strategiyalar shakllantirilgan bo‘lib, ularning asosiy maqsadi – pedagogning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini ta’minlashdir. Ular ichida motivatsion-qadriyatli strategiya alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur strategiya pedagogik ta’limda qadriyatli komponentning ustuvorligini ta’minlash, o‘quvchilarda kasbga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish va ularning ichki motivatsiyasini kuchaytirishga qaratilgan.

O‘quvchilarni faol ta’lim shakllariga jalb etish, hamkorlik texnologiyalarini qo‘llash, syujetli-rolli va didaktik o‘yinlardan foydalanish, pedagogik merosga qadriyatli munosabatni shakllantirish kabi usullar ushbu strategiyaning amaliy mexanizmlaridir. Bunda qadriyatlarni tanlash, taqdim etish va ularning shakllanganlik darajasini aniqlash, shuningdek hissiy tajribani anglash va tahlil qilish metodlari muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy ta’lim muhitida pedagoglarning mustaqil kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish uzluksiz ta’lim tamoyili asosida tashkil etilishi lozim. Bu jarayon faqat malaka oshirish kurslari bilan cheklanib qolmasdan, balki pedagogning kundalik amaliyotida innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash, tajriba almashish, kasbiy hamjamiyatlarda ishtirok etish va ilmiy-metodik izlanishlar olib borish orqali ta’minlanadi. Ayniqsa, raqamli ta’lim platformalari, onlayn seminarlar va vebinarlar pedagoglarning mustaqil ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi, ularning axborot-kommunikatsion kompetensiyalarini mustahkamlaydi hamda global ta’lim tendensiyalariga moslashuvini ta’minlaydi.

Shuningdek, innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etilgan kasbiy rivojlanish jarayoni pedagogda refleksiv madaniyatni shakllantirishni nazarda tutadi. Refleksiya orqali pedagog o‘z faoliyatini tahlil qiladi, yutuq va kamchiliklarini aniqlaydi, kelgusi rivojlanish yo‘nalishlarini belgilaydi. Bu esa o‘z navbatida mustaqil qaror qabul qilish, mas’uliyatni anglash va pedagogik jarayonni ijodiy tashkil etish imkonini beradi. Natijada pedagog innovatsion g‘oyalarni amaliyotga joriy eta oladigan, o‘z kasbiy faoliyatini doimiy takomillashtirib boruvchi yuqori malakali mutaxassis sifatida shakllanadi.

Kompetensiyaviy yondashuv va mustaqil kasbiy rivojlanish.

Pedagoglar malakasini oshirish tizimini tahlil qilish natijalari shuni ko‘rsatadiki, ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilishi lozim. Bunda quyidagi ustuvor yo‘nalishlar belgilanadi:

- ijtimoiy va kasbiy vazifalarni mustaqil hal etish qobiliyatini shakllantirish;
- boshqaruv jarayonlariga raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish;
- o‘z-o‘zini rivojlantirish va refleksiv tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- ta’lim dasturlarining moslashuvchanligini ta’minlash;
- tanqidiy fikrlash va muammoni hal etish kompetensiyalarini shakllantirish.

Mazkur maqsadlarga erishish uchun “Ta’limda menejment” dasturining o‘quv-didaktik ta’minoti kompetentli, tizimli-axborotli, shaxsiy-faoliyatli hamda innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirildi. Dasturda maqsadli, mazmunli va natijaviy bloklar o‘zaro uzviy bog‘liqlikda ishlab chiqildi. Bu esa pedagoglarning mustaqil qaror qabul qilish, strategik fikrlash va ta’lim jarayonini samarali boshqarish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

An’anaviy va innovatsion komponentlar nisbati.

Pedagogik ta’lim mazmunini yangilashda an’anaviy va innovatsion komponentlar o‘rtasidagi mutanosiblik muhim ahamiyatga ega. T.K.Klimenko ta’kidlaganidek, an’anaviy komponent fan o‘qituvchisining fundamental tayyorgarligini ta’minlasa, innovatsion komponent pedagog shaxsining ijodiy qobiliyatlari va shaxsiy fazilatlarini jadal rivojlantirishga qaratilgan.

Zamonaviy ta’lim sharoitida ushbu ikki komponentning uyg‘unligi pedagogning mustaqil kasbiy kompetensiyasini shakllantirishning asosiy sharti hisoblanadi. Chunki faqat bilim emas, balki ularni mustaqil qo‘llay olish, yangi pedagogik vaziyatlarga moslasha bilish va innovatsion yechimlar ishlab chiqish qobiliyati ham muhimdir.

Uzluksiz ta’lim (lifelong learning) - ta’lim jarayonida asosiy fokusni talabaning (ta’lim oluvchining) rivojlanishiga qaratuvchi yondashuvdir. Bu yondashuvda ta’lim jarayonining asosiy figurasi - o‘qituvchi emas, balki o‘quvchi hisoblanadi. O‘qituvchi esa an’anaviy rahbarlik va bir tomonlama o‘rgatishdan voz kechib, qo‘llab-quvvatlovchi va maslahatchi sifatida faoliyat yuritadi. Uning vazifasi:

o‘quvchilar uchun birgalikda faoliyat olib borish sharoitlarini yaratish,

ma’lumotni topish va tahlil qilishda ko‘maklashish,

tahlil, maslahat va yo‘nalish berish,

bilim berish emas, qo‘llab-quvvatlash va yo‘naltirish.

Shu tarzda, o‘quvchi o‘z hayotiy vazifalari va loyihalarini hal qilish uchun qanday ma’lumotlar kerakligini, ularni qayerdan va qanday olishini o‘zi

belgilaydi. Bu yondashuvda ta’lim oluvchi asosiy va ko‘p hollarda yagona faoliyat sub’yektiga aylanadi.

Uzluksiz ta’limda o‘quvchi faoliyatning markaziga aylanadi. U o‘z hayotiy maqsadlari va loyihalarini amalga oshirish uchun qaysi ma’lumotlar kerakligini o‘zi belgilaydi, ularni qayerdan va qanday olishni tanlaydi. O‘qituvchi esa yordam beruvchi, yo‘naltiruvchi va maslahat beruvchi sifatida faoliyat yuritadi, lekin tayyor bilimlarni berish bilan cheklanmaydi.

Bilim va axborot farqlari uzluksiz ta’limda juda muhim. Bilim - jamiyat amaliyotida sinovdan o‘tgan, tizimli va ziddiyatsiz ma’lumotdir. Axborot esa ko‘pincha tartibsiz, turlicha, ba’zan qarama-qarshi bo‘lishi mumkin. O‘quvchining vazifasi - bu axborotlarni tahlil qilish, tartibga solish va o‘z dunyoqarashini shakllantirishdir. Shu tariqa, axborot ham o‘quv jarayonining asosiy elementi bo‘ladi.

O‘qituvchilarning professional rivojlanishi ham uzluksiz ta’lim tamoyillariga muvofiq bo‘lishi kerak. Boshlang‘ich amaliyotchidan tortib master darajasigacha bo‘lgan besh bosqichdagi kasbiy o‘sish modeli ularni yanada samarali yo‘naltirishga yordam beradi. Bu jarayonda o‘qituvchi nafaqat bilim beradi, balki o‘quvchiga mustaqil fikrlash, axborotni tanlash va tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

An’anaviy va uzluksiz ta’limdagi bilim va axborot. Uzluksiz ta’limda an’anaviy bilim berishning asosiy sharti - tayyor va tizimlangan bilimlarni o‘zlashtirish - buziladi. Ma’lumotlar ko‘pincha tasodifiy, tizimlanmagan, noto‘g‘ri yoki ziddiyatli xarakterga ega bo‘ladi. Bu yerda bilim va axborot tushunchalari farq qiladi:

Bilim - jamiyat amaliyotida sinoqdan o‘tgan va obyektivlikka ega bo‘lgan ma’lumot. Uning asosiy xususiyatlari - tizimli, ziddiyatsiz va inson xohish-irodasiga bog‘liq emasligi.

Axborot - ko‘pincha shaxslar fikrlarini, ba’zan shubhali ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan, tizimlanmagan yoki hatto ziddiyatli ma’lumotlar.

Uzluksiz ta’limda o‘quvchining vazifasi - turli manbalardan olingan axborotlarni o‘zlashtirish, tahlil qilish va ulardan o‘z bilim va tushunchasini shakllantirish. Ya’ni, faqat tayyor bilimlarni o‘zlashtirish emas, balki turli axborotlarni o‘zlashtirish va ulardan foydalanish asosiy elementga aylanadi.

Pedagogning professional rivojlanishi. Dasturlarning sifatizligi ko‘pincha o‘qituvchilarning kasbiy tajribasi va malakalarini hisobga olmaslikdan kelib chiqadi. Shu bois, amerikalik pedagoglar o‘qituvchilarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishda professional rivojlanishga katta e’tibor qaratgan.

Masalan, amerikalik pedagog Dreyfus (Dreyfus) o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishida besh bosqichli modelni ishlab chiqqan:

Boshlovchi amaliyotchisi – asosan tashqi qoidalar va tavsiyalarga tayanib harakat qiladi, ish tajribasi kam va xatolardan qo‘rqadi.

Qattiq amaliyotchisi – nazariy bilimlar va tajribani qo‘llay oladi, lekin muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilishda qiyinchilikka duch keladi.

Mutaxassis – katta tajriba va tahlil qobiliyatiga ega, qarorlarni mustaqil qabul qiladi.

Ekspert – turli vaziyatlarda samarali qarorlar qabul qiladi, bilim va tajribani integratsiya qiladi.

Master – sohada yuqori darajada kasbiy bilim va intuitsiyaga ega, innovatsion yondashuvlarni qo‘llaydi.

Shu bilan birga, uzluksiz ta’limda o‘qituvchi roli ham o‘zgarishi kerak: u tayyor bilim berishdan ko‘ra, o‘quvchiga turli axborot manbalarini topish, tahlil qilish va ulardan foydalanishda yo‘naltirish, maslahatlashish va qo‘llab-quvvatlash vazifalarini bajaradi.

Innovatsion yondashuvlar asosida pedagoglarning mustaqil kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish kasbiy-pedagogik ta’lim sifatini oshirishning strategik yo‘nalishidir. Bunda motivatsion-qadriyatli strategiya pedagogning shaxsiy motivatsiyasini, qadriyatlar tizimini va kasbiy maqsadlarini shakllantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, kompetensiyaviy yondashuv ularni amaliy ko‘nikmalar, tahlil qobiliyati va o‘quv jarayonini boshqarish kompetensiyalari bilan mustahkamlaydi.

Raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish pedagoglarning kasbiy faoliyatini zamonaviy talablarga moslashtiradi. Masalan, onlayn ta’lim platformalari, interaktiv dasturlar va virtual laboratoriyalar yordamida pedagoglar o‘quv jarayonini individuallashtirish va yangi o‘quv metodlarini sinash imkoniga ega bo‘ladilar. Bu ularni faqat bilim beruvchi emas, balki innovatsion yechimlarni ishlab chiqadigan yaratuvchi subyektga aylantiradi.

An’anaviy va innovatsion komponentlarning uyg‘unligi pedagogning professional o‘sishini ta’minlaydi. Masalan, klassik metodlarni amaliy mashg‘ulotlar bilan uyg‘unlashtirish, seminar va loyihaviy ishlar orqali o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga rag‘batlantirish pedagogning strategik rejalashtirish va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu pedagogning kasbiy shaxsiyatini barqaror rivojlantirishga xizmat qiladi.

Natijada pedagog nafaqat bilim beruvchi, balki ta’lim jarayonini yaratadigan, mustaqil qaror qabul qiladigan va o‘z kasbiy faoliyatini doimiy ravishda takomillashtirib boradigan subyektga aylanadi. Bu yondashuv zamonaviy ta’lim tizimida pedagoglarning rolini kengaytiradi va ularni innovatsion faoliyatga tayyorlaydi. Shu tariqa, uzluksiz ta’lim va kasbiy rivojlanish bir-birini to‘ldiruvchi jarayonlarga aylanadi.

Pedagoglarning mustaqil kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda loyiha asosida ta’lim muhim rol o‘ynaydi. Masalan, o‘quvchilar bilan birgalikda ilmiy-tadqiqot loyihalarini amalga oshirish pedagogga nafaqat darsni boshqarish, balki o‘quvchilarni tahlil qilish, mustaqil fikrlash va kreativ yechimlar topishga yo‘naltirish imkonini beradi. Shu tariqa, pedagogning vazifasi faqat bilim berishdan ko‘ra, o‘quv jarayonini yaratish va qo‘llab-quvvatlashga aylanadi.

Shuningdek, raqamli platformalar yordamida pedagoglar o‘z malakasini doimiy oshirib borishlari mumkin. Masalan, onlayn master-klasslar va professional forumlarda ishtirok etish, virtual seminarlar o‘tkazish pedagogning yangi metodlarni sinab ko‘rish, zamonaviy o‘quv resurslaridan foydalanish va o‘z tajribasini kengaytirishga yordam beradi. Bu esa pedagogni innovatsion faoliyatga tayyorlaydi va uning kasbiy qaror qabul qilish qobiliyatini mustahkamlaydi.

Xulosa. Innovatsion yondashuvlar pedagoglarning mustaqil kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Motivatsion-qadriyatli strategiya, kompetensiyaviy yondashuv, raqamli texnologiyalar integratsiyasi va an’anaviy hamda innovatsion metodlarning uyg‘unligi pedagogning barqaror kasbiy rivojlanishini ta’minlaydi. Shu tarzda, pedagog nafaqat bilim beruvchi, balki ta’lim jarayonini yaratadigan, mustaqil qaror qabul qiladigan va o‘z faoliyatini doimiy takomillashtirib boradigan subyektga aylanadi.

Real misollar ko‘rsatadiki, loyiha asosida ta’lim va raqamli platformalardan foydalanish pedagogning professional o‘sishini tezlashtiradi. U o‘quvchilarni tahlil qilish, mustaqil fikrlash va kreativ yechimlar topishga yo‘naltirish orqali darsni interaktiv va samarali tashkil etadi. Shu tariqa, uzluksiz ta’lim va kasbiy rivojlanish pedagogning faoliyatini doimiy yangilanish va takomillashuv jarayoni sifatida shakllantiradi.

Natijada, zamonaviy ta’lim tizimida pedagogning roli kengayadi: u bilim beruvchi bo‘lishdan tashqari, innovatsion faoliyat yurituvchi, metodik yechimlarni ishlab chiquvchi va o‘quv jarayonini samarali boshqaruvchi subyektga aylanadi. Bu esa ta’lim sifatini oshirish va pedagoglarning kasbiy barqarorligini ta’minlashda strategik ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. V.A. Slastenin Pedagogika: innovatsion faoliyat nazariyasi va metodologiyasi. – Moskva: Akademiya, 2005.

2. T.K. Klimenko Pedagogik ta’lim mazmunini modernizatsiya qilish muammolari. – Moskva: Pedagogicheskoe obshchestvo Rossiya, 2006.

3. Baykova L.A. Hamkorlik texnologiyalari asosida o‘qitish metodikasi. – Moskva: Akademiya, 2004.

O‘QITUVCHINING TASHKILIY-PEDAGOGIK FAOLIYATIDA KASBIY REFLEKSIYANING O‘RNI

Raxmonova G.N.
Axborot texnologiyalari va menejment universiteti
Pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: kasbiy refleksiya, pedagogik faoliyat, tashkiliy-pedagogik jarayon, o‘qituvchi kompetensiyasi, pedagogik mahorat, ta’lim jarayonini boshqarish, refleksiv yondashuv, kasbiy rivojlanish.
Ключевые слова: профессиональная рефлексия, педагогическая деятельность, организационно-педагогический процесс, компетенция учителя, педагогические навыки, управление образовательным процессом, рефлексивный подход, профессиональное развитие.
Key words: professional reflection, pedagogical activities, organizational and pedagogical process, teacher competence, pedagogical skills, management of the educational process, reflexive approach, professional development.

РЕЗЮМЕ:
Mazkur maqolada o‘qituvchining tashkiliy-pedagogik faoliyatida kasbiy refleksiyaning o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Kasbiy refleksiya pedagogning o‘z faoliyatini tahlil qilishi, baholashi va takomillashtirib borishida muhim omil sifatida yoritiladi. Maqolada refleksiv yondashuv o‘qituvchining pedagogik qarorlar qabul qilish, ta’lim jarayonini samarali tashkil etish hamda o‘quvchilar bilan o‘zaro munosabatlarni rivojlantirishdagi roli ochib beriladi. Shuningdek, kasbiy refleksiyaning o‘qituvchi kompetensiyalarini rivojlantirish, innovatsion faoliyatga tayyorgarlik va pedagogik mahoratni oshirishdagi imkoniyatlari asoslab beriladi.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье анализируется роль и значение профессиональной рефлексии в организационно-педагогической деятельности учителя. Профессиональная рефлексия выделяется как важный фактор анализа, оценки и совершенствования собственной деятельности учителя. В статье раскрывается роль рефлексивного подхода в принятии учителем педагогических решений, эффективной организации образовательного процесса и развитии отношений с учениками. Также обосновываются возможности профессиональной рефлексии в развитии компетенций учителя, подготовке к инновационной деятельности и совершенствовании педагогических навыков.
SUMMARY:
This article analyzes the role and importance of professional reflection in the organizational and pedagogical activities of a teacher. Professional reflection is highlighted as an important factor in the analysis, evaluation and improvement of a teacher's own activities. The article reveals the role of a reflexive approach in the teacher's pedagogical decision-making, effective organization of the educational process and development of relationships with students. It also substantiates

the possibilities of professional reflection in developing teacher competencies, preparing for innovative activities and improving pedagogical skills.

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida o‘qituvchi shaxsiga qo‘yiladigan talablar tobora ortib bormoqda. Ta’lim jarayonining samaradorligi ko‘p jihatdan pedagogning kasbiy tayyorgarligi, tashkiliy-pedagogik faoliyatni to‘g‘ri yo‘lga qo‘ya olishi hamda o‘z faoliyatiga tanqidiy yondasha olish qobiliyatiga bog‘liq. Shu jihatdan, o‘qituvchining kasbiy refleksiyasi uning pedagogik faoliyatini takomillashtirish, yuzaga keladigan muammolarni anglash va ularni samarali hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kasbiy refleksiya o‘qituvchining o‘z pedagogik faoliyatini tahlil qilishi, o‘z-o‘zini baholashi va kasbiy rivojlanish yo‘nalishlarini belgilashiga xizmat qiladi. Ayniqsa, tashkiliy-pedagogik faoliyat jarayonida refleksiv yondashuv pedagogning darsni rejalashtirish, ta’lim jarayonini boshqarish, o‘quvchilar bilan samarali muloqot o‘rnatish hamda pedagogik qarorlar qabul qilish jarayonlarini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi.

Bugungi kunda ta’lim sohasida innovatsion yondashuvlar, kompetensiyaviy ta’lim modeli va uzluksiz kasbiy rivojlanish g‘oyalari keng tatbiq etilmoqda. Ushbu jarayonda o‘qituvchining kasbiy refleksiyasini rivojlantirish pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishning muhim sharti sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu bois, mazkur maqolada o‘qituvchining tashkiliy-pedagogik faoliyatida kasbiy refleksiyaning o‘rni va ahamiyatini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Insonning rivojlanishi atrof-muhit bilan belgilanadi (Gelvetiy, Didro, Ouen), sotsializatsiyaning mohiyati gumanistik psixologiyada turlicha talqin qilinadi, ularning vakillari A.Olport, A.Maslou, K.Rojers. Pragmatistlar (J. Dyui, T. Brameld, A. Maslou, E. Kalli va boshqalar) o‘rganishni faqat o‘quvchining shaxsiy tajribasini kengaytirish uchun kamaytiradi. Insonning ijodiy muammolarni hal etishda ro‘y beradigan fikrlashidagi refleksiyani o‘rganib, olimlar uni fikrlovchi sub’ektning o‘z – o‘zini boshqarish usuli (Yu.N.Kulyutkin, S.Yu.Stepanov va boshqalar), tanqidiy fikrlash omili (I.N.Semyonov), nazariy jihatdan fikrlashning yuqori ko‘rsatkichi (A.Z.Zak, V.V.Davidov va boshqalar) sifatida ta’rif berib baholaydilar. Refleksiv qobiliyatlarni o‘qituvchi pedagogik faoliyatining zarur tarkibiy qismi sifatida hisoblagan qator mualliflar (A.A.Bizyaeva, V.V.Vetrova, Ye.N.Pexota, I.A.Stetsenko, I.G.Tatur, A.V.Xristeva va boshqalar) ularni bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogika oliy ta’lim muassasalarida o‘qishi davridayoq shakllantirish zarurligi haqidagi g‘oyalarni ilgari suradilar. Kant, Gegel, Fixte,

Shelling kabi Yevropa faylasuflari esa refleksiyaga insonning bilish qobiliyatlarini rivojlantirish asosi sifatida qaraganlar.

So‘nggi yillarda pedagog va psixolog olimlar o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatida fikrlash hamda analitik qobiliyatlarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidlamoqdalar. Bu qobiliyatlar asosini esa, o‘qituvchining kasbiy refleksiyasi tashkil etadi.

Refleksiya (lot. “reflexsio” - orqaga qaytish) – “har tomonlama barkamol, rivojlangan insonning o‘z xatti - harakatlari va ularning qonuniyatlarini anglashga qaratilgan nazariy faoliyat shaklidir; inson ma’naviy dunyosining o‘ziga xos yashirin hislatlarini ochib beradigan o‘z-o‘zini bilishga va anglashga qaratilgan faoliyatdir”. Ilk bor refleksiya tushunchasi qadimgi Yunon falsafasida yuzaga kelgan va insonning o‘z ongida kechayotgan mulohazalari haqida. O‘zi fikr yuritish jarayoni, fikrlari mazmunini tahlil qilishga e`tiborini jalb qilishni anglatgan (Dekart). Sokrat, Platon Lokk va boshqa yunon faylasuflari refleksiyani insonning o‘z-o‘zini bilishga, nimalarga qodir ekanligini e’tirof etishga qaratilgan faoliyati ekanligini ta’kidlashadi.

O‘qituvchining kasbiy pedagogik faoliyatida refleksiya jarayonini o‘rganib, ko‘plab olimlar uning kommunikativ hamda kooperativ turlarini ustun qo‘yadilar, aynan ushbu usullar o‘qituvchining pedagogik faoliyatida va o‘quvchilar bilan muloqotida ko‘proq namoyon bo‘ladi, deb hisoblaydilar (V.A.Krivosheev, G.P. Shchedrovitskiy va boshqalar). Biroq, bizningcha, pedagogik faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlari xilmaxil bo‘lganligi sababli refleksiyaning har bir turini alohida o‘rganib tahlil qilish mumkin emas, zero ular ma’no jihatidan bir - birlari bilan o‘zaro bog`liq.

N.V.Kuzminaning fikricha, refleksiyaning «mazmuni, sherigining ichki dunyosini o‘zaro hamkorlik asosida subyektiv qayta yaratishdan iborat bo‘lgan individlar bir - birlarini ko‘zgudagi kabi aks ettirishi, o‘zaro aks ettirishning o‘ziga xos ikki tomonlamalik jarayoni, qolaversa, bu ichki dunyoda, o’z navbatida, birinchi tadqiqotchining ichki dunyosini aks etishidir». U refleksiyani pedagogik qobiliyatlar nuqtai nazaridan o‘rganib, ilk bor o‘qituvchining refleksiv - perseptiv qobiliyatlarini alohida komponent sifatida ajratadi.

O‘qituvchining kasbiy faoliyatining samaradorligi nafaqat bilim va ko‘nikmalarga, balki pedagogik vaziyatda berilgan ma'lumotlardan turli usullarda va tez sur'atlarda foydalanish qobiliyatiga bog'liq. Rivojlangan intellekt o‘qituvchiga nafaqat alohida pedagogik faktlar va hodisalarni, balki pedagogik g'oyalarni, o‘quvchilarni o‘qitish va tarbiyalash nazariyalarini ham o‘rganishga imkon beradi.

Reflektorlik, insonparvarlik, kelajakka e'tibor va o‘quvchi shaxsini kasbiy takomillashtirish va rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan vositalarni aniq tushunish o‘qituvchining intellektual kompetentsiyasining o‘ziga xos xususiyatlari hisoblanadi. Pedagogik ma'lumotlarni chuqur semantik tushunishni ta'minlaydigan rivojlangan pedagogik tafakkur, bilim va faoliyat usullarini o‘z shaxsiy kasbiy-pedagogik tajribasi prizmasi orqali sindiradi va kasbiy faoliyatning shaxsiy ma'nosini olishga yordam beradi.

Ta’lim tarbiya jarayonining samaradorligi haqida gap ketar ekan, pedagog va o‘quvchilar o‘rtasidagi munosabatlar juda katta rol o‘ynaydi. Ko‘plab kuzatuvlarda aniqlanishicha, 4-sinfni tamomlab yuqori sinfda o‘qishni boshlagan o‘quvchilarning ko‘p qismida o‘qishga munosabat pastlab ketishi kuzatilgan.

O‘qituvchilik kasbida muloqot qilish qobiliyati kasbiy zarur sifatiga aylanadi. Boshlang'ich o‘qituvchilar tajribasini o‘rganish tadqiqotchilarga, xususan, V. A. Kan- Kalikka pedagogik muammolarni hal qilishni qiyinlashtiradigan, eng keng tarqalgan muloqot "to‘siqlari"ni aniqlash va tavsiflash imkonini berdi. Munosabatlarning mos kelmasligi, sinfdan qo‘rqish, aloqa yetishmasligi, aloqa funksiyasining torayishi, sinfga nisbatan salbiy munosabat, pedagogik xatolikdan qo‘rqish, taqlid qilish. Biroq, agar yangi o‘qituvchilar tajribasizligi tufayli psixologik "to‘siqlar" ni boshdan kechirishsa, tajribali o‘qituvchilar ularni pedagogik ta'sirlarni kommunikativ qo‘llabquvvatlash rolini yetarlicha baholamasliklari sababli boshdan kechirishadi, bu esa ta'lim jarayonining hissiy fonining yomonlashishiga olib keladi. Natijada, bolalar bilan shaxsiy aloqalar ham qashshoqlashadi, ularning hissiy boyligisiz ijobiy motivlardan ilhomlangan samarali shaxsiy faoliyat mumkin emas. Bir tomondan, o‘qituvchi o‘z shogirdlarini hozirgi zamon ehtiyojlariga, muayyan ijtimoiy vaziyatga, jamiyatning o‘ziga xos talablariga tayyorlaydi. Ammo boshqa tomondan, u ob'ektiv ravishda madaniyat qo‘riqchisi va dirijyori bo‘lib qolsada, o‘zida abadiy omilni olib yuradi. O‘qituvchi shaxsni rivojlantirishni insoniyat madaniyatining barcha boyliklarining sintezi sifatida o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan holda, kelajak uchun ishlaydi. O‘qituvchining faoliyati doimo insonparvarlik, umuminsoniy tamoyilni o‘z ichiga oladi. Uni ongli ravishda maydonga olib chiqish, kelajakka xizmat qilishga intilish barcha davrlarning ilg‘or o‘qituvchilariga xos bo‘lgan. Shunday qilib, XIX asr o‘rtalarida ta'lim sohasidagi mashhur o‘qituvchi va arbob nemis o‘qituvchilarining o‘qituvchisi deb atalgan Fridrix Adolf Vilgelm Disterveg ta'limning universal maqsadini ilgari surdi: haqiqatga, yaxshilikka, go‘zallikka xizmat qilish. “Har bir shaxsda, har bir millatda insonparvarlik degan fikrlash tarzini singdirish kerak: bu ezgu umuminsoniy maqsadlarga intilishdir”. Bu maqsadni ro‘yobga chiqarishda o‘quvchiga jonli ibrat namunasi bo‘lgan

ustozning alohida o‘rni bor, deb hisobladi. Uning shaxsiyati unga hurmat, ma'naviy kuch va ruhiy ta'sir ko‘rsatadi. Maktabning qadri domlaning qadriga teng. Buyuk rus yozuvchisi va o‘qituvchisi Lev Nikolaevich Tolstoy o‘qituvchilik kasbida, eng avvalo, bolalarga muhabbatda o‘z ifodasini topadigan insonparvarlik tamoyilini ko‘rgan. "Agar o‘qituvchi faqat o‘z ishiga mehr qo‘ysa, - deb yozgan edi Tolstoy, - u yaxshi o‘qituvchi bo‘ladi, agar o‘qituvchi otasi yoki onasi kabi faqat o‘z shogirdini sevsa, u hamma narsani o‘qigan o‘qituvchidan yaxshiroq bo‘ladi, lekin o‘quvchilarda kitoblarga muhabbat yo‘q, agar o‘qituvchi o‘z ishiga va o‘quvchilariga bo‘lgan muhabbatni birlashtirsa, u mukammal o‘qituvchidir"

L.N.Tolstoy bolaning erkinligini o‘qitish va tarbiyalashning yetakchi tamoyili deb hisobladi. Uning fikriga ko‘ra, maktab o‘qituvchilari uni "bugun bir leytenant, ertaga boshqasi boshqaradigan intizomli askarlar guruhi" deb hisoblamasa, chinakam insonparvar bo‘lishi mumkin. U o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasidagi munosabatlarning yangi turini, majburlashni istisno qilishga chaqirdi va insonparvarlik pedagogikasining markazida shaxsni rivojlantirish g'oyasini himoya qildi.

Maktabning asosiy vazifasi, deb ta'kidladi V. A. Suxomlinskiy, har bir insonda yaratuvchini kashf etish, uni o‘ziga xos ijodiy, aqliy jihatdan to‘laqonli ish yo‘liga qo‘yishdir. “Har bir o‘quvchining o‘ziga xos individual iste’dodini tan olish, aniqlash, ochib berish, tarbiyalash va shaxsni yuksak darajada gullab-yashnagan insoniy qadrqimmatga ko‘tarish demakdir”

Pedagogik ijodkorlikni rivojlantirishning subyektiv shartlari quyidagilardan iborat: -yaxlit pedagogik jarayonning asosiy qonuniyatlari va tamoyillarini bilish;

-o‘qituvchilarning umumiy madaniy tayyorgarligining yuqori darajasi;

-ta'lim va tarbiyaning zamonaviy konseptsiyalarini egallash; tipik vaziyatlarni tahlil qilish va bunday vaziyatlarda qaror qabul qilish qobiliyati;

-ijodkorlikka intilish, rivojlangan pedagogik fikrlash va aks ettirish;

-pedagogik tajriba va sezgi; tipik vaziyatlarda operativ qarorlar qabul

O‘qituvchining kasbiy tayyorgarligining eng yuqori darajasi - bu uslubiy madaniyatning mavjudligi, uning asosiy xususiyatlari:

• falsafa kategoriyalari va pedagogika fanining kontseptual asosini tashkil etuvchi asosiy tushunchalarga “tayinlangan” tartiblarni tushunish;

• ta'limning mavhumlikdan konkretlikka ko‘tarilish bosqichlari sifatidagi turli tushunchalarni anglash;

• pedagogik nazariyani kognitiv faoliyat uslubiga aylantirishga e’tibor qaratish;

• o‘qituvchi tafakkurining pedagogik shakllar genezisi va ularning “integral shakllantiruvchi” xususiyatlariga yo‘naltirilganligi;

• pedagogikaning konseptual va terminologik tizimida ta'lim amaliyotini takrorlash zarurati;

• pedagogik bilimlarning tarixiy rivojlanishidagi birligi va uzluksizligini aniqlashga intilish;

• "o‘z-o‘zidan ravshan" qoidalarga, oddiy pedagogik ong tekisligida yotgan dalillarga tanqidiy munosabat;

• o‘z kognitiv faoliyatining shart-sharoitlari, jarayoni va natijalari, shuningdek, pedagogik jarayonning boshqa ishtirokchilarining fikr harakati haqida fikr yuritish;

• insonshunoslik sohasidagi ilmga zid pozitsiyalarni dalillarga asoslangan holda rad etish;

• pedagogikaning g‘oyaviy, insonparvarlik vazifalarini tushunish.

V.A.Kan-Kalik o‘qituvchi ijodiy faoliyatining mantiqiy va pedagogik jihati bilan bir qatorda sub'ektiv-emotsional kommunikativ qobiliyatlarni batafsil ko‘rsatib beradi, ayniqsa vaziyatli muammolarni hal qilishda namoyon bo‘ladi. Bunday ko‘nikmalar qatoriga, birinchi navbatda, o‘z aqliy va hissiy holatini boshqarish, jamoat sharoitida harakat qilish (muloqot holatini baholash, auditoriya yoki alohida talabalar e'tiborini jalb qilish, turli xil usullardan foydalanish va boshqalar) kiradi. Ijodkor shaxs uning ijodkorligini tavsiflovchi shaxsiy va ishbilarmonlik fazilatlarining alohida kombinatsiyasi bilan ajralib turadi. Sotsializatsiyaning mohiyati gumanistik psixologiyada turlicha talqin qilinadi, ularning vakillari A.Olport, A.Maslou, K.Rojers va boshqalardir.Unda sotsializatsiya “men-kontseptsiya”ning, o‘z-o‘zini realizatsiya qilish jarayoni sifatida taqdim etiladi. - shaxsning o‘z potentsiallari va ijodiy qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish, uning o‘zini o‘zi rivojlantirish va o‘zini o‘zi tasdiqlashiga xalaqit beradigan salbiy ekologik ta'sirlarni bartaraf etish jarayoni sifatida. Bu yerda predmet o‘z-o‘zini shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi tizim, o‘z-o‘zini tarbiyalash mahsuli sifatida qaraladi.

Psixologiya va pedagogika fanida ta'lim va rivojlanish o‘rtasidagi bog'liqlik haqida kamida uchta nuqtai nazar paydo bo‘ldi. Birinchisi va eng keng tarqalgani shundaki, o‘rganish va rivojlanish bir-biridan mustaqil ikkita jarayon sifatida qaraladi. Ammo o‘rganish, go‘yo, miyaning kamolotiga asoslanadi. Shunday qilib, o‘rganish rivojlanish jarayonida yuzaga keladigan imkoniyatlardan sof tashqi foydalanish sifatida tushuniladi. V. Stern ta'lim rivojlanishini kuzatib boradi va unga moslashadi, deb yozgan. Va bu shunday ekan, demak, aqliy kamolot jarayoniga aralashishning hojati yo‘q, unga aralashmaslik kerak, balki o‘rganish imkoniyatlari yetgunga qadar sabr-toqat va passiv kutish kerak. J. Piajening ta'kidlashicha, aqliy rivojlanish o‘zining ichki qonunlariga amal

qiladi, shuning uchun mashg'ulotlar bu jarayonni faqat biroz sekinlashtirishi yoki tezlashtirishi mumkin. Biroq, masalan, bolaning mantiqiy operator fikrlashi yetuk bo‘lgunga qadar, uni mantiqiy fikrlashga o‘rgatish befoyda. Ikkinchi nuqtai nazarga amal qilgan olimlar o‘rganish va rivojlanishni birlashtiradi va ikkala jarayonni aniqlaydi (Jeyms, Torndayk). Uchinchi guruh nazariyalari (Koffka va boshqalar) dastlabki ikki nuqtai nazarni birlashtiradi va ularni yangi pozitsiya bilan to‘ldiradi: o‘rganish nafaqat rivojlanishdan keyin, nafaqat unga qadam qo‘yishi, balki rivojlanishdan ham oldinga borishi, uni yanada oldinga surishi mumkin. va unda yangi shakllanishlarni keltirib chiqaradi. Shu bilan birga, shaxs shakllanishida ijtimoiy omillarning rolini yuqori baholab bo‘lmaydi. Aristotel, shuningdek, "ruh - tabiatning yozilmagan kitobidir; tajriba o‘z yozuvlarini o‘z sahifalariga yozadi". D.Lokk inson mum bilan qoplangan taxta kabi sof qalb bilan tug‘iladi, deb hisoblagan. Ta'lim bu doskaga xohlagan narsani yozadi (tabula rasa). Fransuz faylasufi K.A.Gelvetsiy barcha odamlar tug'ilishdanoq aqliy va axloqiy rivojlanish uchun bir xil potentsialga ega bo‘lib, psixik xususiyatlardagi farqlar faqat turli xil atrof-muhit ta'siri va turli xil tarbiyaviy ta'sirlar bilan izohlanadi, deb o‘rgatgan. Pragmatistlar (J. Dyui, T. Brameld, A. Maslou, E. Kalli va boshqalar) o‘rganishni faqat o‘quvchining shaxsiy tajribasini kengaytirish uchun kamaytiradi, shunda u mavjud ijtimoiy tizimga imkon qadar yaxshi moslasha oladi. Ta'lim faqat tug'ilishdan boshlab insonga xos bo‘lgan narsaning namoyon bo‘lishiga hissa qo‘shishi mumkin, shuning uchun ta'lim va tarbiyaning maqsadi bolani yashashga o‘rgatishdir, ya'ni. sub'ektiv tushunilgan manfaatlarga muvofiq ijtimoiy muhitga e'tibor bermasdan, atrof-muhitga moslashish, shaxsiy manfaat va ehtiyojlarni qondirish. Pragmatizm asoschisi J.Dyui atrof-muhit tarbiyalaydi, hayot esa o‘rgatadi, deb yozgan edi. Bixeviorizm va pragmatizm ta'limning eng keng tarqalgan tushunchalari bo‘lib, o‘rganish mexanizmlarini tushuntirishga harakat qiladi. Ta'lim jarayonining ham fiziologik, ham psixologik asoslarini butunlay rad etadigan ko‘pgina nazariyalar o‘rganishni talaba qalbida sodir bo‘ladigan jarayonlarga qisqartiradi. Bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash jarayoni hech qanday tarzda tushuntirilmaydi yoki tushuntirilsa, "sezgi", "idrok", "idrok", "aql" kabi tushunchalar orqali . Ta'lim tizimi "adolatli jamoa". Ushbu ta'lim tizimi 1960-yillarda AQSh maktablarida paydo bo‘lgan. Uning asosini L.Kolbergning g‘oyalari yotadi, u ta’limni shaxsning axloqiy taraqqiyotning quyi bosqichlaridan yuqori darajalariga ko‘tarilishi deb qaraydi. L.Kolberg kontseptsiyasi quyidagi g'oyaga asoslanadi: shaxsning axloqiy rivojlanishi psixikaga bog'liq, axloqiy taraqqiyot esa ketma-ket ko‘tarilish pog'onalari bilan boradi. Bu, birinchi navbatda, o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasidagi demokratik munosabatlarni, bolalarni o‘z va boshqalarning xattiharakatlarini axloqiy tahlil

qilishda tizimli ravishda jalb qilishni talab qiladi. Bundan tashqari, bu erda Jan Piajening aqliy rivojlanish bosqichlari, yaxlit shaxs shakllanishi

Pedagogik jarayonda dars samaradorligi bo‘yicha olimlarning turlicha qarashlari kuzatildi. Insonlar mavjud bilim ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishlarini biogenetik, xarakteri, temperamenti va boshqa individual psixologik xususiyatlari va ijtimoiy faktorlar o‘rtasidagi farqlarning ham ahamiyati juda katta rol o‘ynaydi. Pedagoglar yosh avlodga ta’lim berish bilan birga tarbiyalash umumiy holda esa madaniyatni yoshlarga yetkazuvchi vakolatli shaxs sanaladi. Pedagoglardan shaxsiy namuna o‘quvchilarda va talabalarda tarbiyasiga jiddiy ta’sir qiladi. Pedagoglar doimiy o‘zini –o‘zi rivojlantirish, o‘zi-ozini tarbiyalashda refleksiyaning o‘rni juda muhim sanaladi.

Pedagogik jarayon samaradorligini biogenetiklar inson psixologiyasiga shaxs turgan biologik yetilishga bog’laydilar. Sotsiogenetiklar ijtimoiy muhitni roli muhumligini qayd etadilar. Bugungi kunda inson kapitali borasidagi izlanishlar ham juda ko‘p ijobiy natijalarga erishilmoqda. Insondagi mavjud rezervlarni ochish va rivojlantirish nafaqat u insonni oilasiga balki davlat va hattoki butun insoniyatga xizmat qilishi bugun hech kimga si emas.

Ta’lim tarbiya jarayoni kundan kunga insoniyat turmushi va faoliyatida muhim o‘ringa ega bo‘lib bormoqda. Bugungi kunda pedagogikada mavjud muammolarni o‘rganish borasida barcha davlat olimlari turlicha tadqiqotlar olib bormoqda. Mehnat bozoridagi raqobat bugun kadrlar sifatiga alohida e’tibor berishni talab qilmoqda. Bu albatta pedagoglar uchun ham o‘z ustida ishlashni o‘zida mavjud bilimlarni yetkazishning obyektiv va subyektiv omillari hamda pedagogic ta’sirning mexanizmlarini takomillashib borishi kerak. O‘zi-o‘zini rivojlantirish o‘zi-o‘zini taraqqiy ettirishda pedagogni o‘zi berayotgan darsdan qoniqishi katta rol o‘ynaydi.

Xulosa. Ta’lim-faoliyat turi sifatida o‘zaro ikki tomonlama serqirra jarayon hisoblanib, unda o‘qituvchilar va talabalar ishtirok etadi. Ta’lim jarayonining asosiy ishtirokchisi sifatida o‘qituvchining kasbiy hamda shaxsiy imidji uning butun faoliyati mazmunini namoyon qilib, jamiyat manfaatlariga mos ravishda doimo jamoatchilik nazari markazida turadi. O‘qituvchining shaxsiy imidjiga barcha ta’lim oluvchilar uchun derli bir xil talablar qo‘yilib, ular o‘z kasbiga muhabbat, fanini bilish, yuksak professionallik, xolisonalik, tashkilotchilik, talabchanlik hamda o‘z faoliyatini boshqarishda namoyon bo‘ladi. Faqatgina o‘qituvchining shaxsiy-individual xislatlari asosida o‘zining “alohida” imidji shakllanadi.

O‘qituvchi va ekspertlar uchun o‘zaro ta’sir jarayonida muloqot hamda kommunikativlik ustunlik qilsa, talabalar uchun ko‘proq psixologik jihatlar

ya'ni, o'zlariga nisbatan qanday muomalada bo'linishi, ularni tushunish va qanday tarzda qabul qilinishlari muhim hisoblanadi. O'z navbatida imidji orqali namoyon bo'ladigan o'qituvchi shaxsi pedagoglarning o'zlariga qaraganda, talabalar uchun muhimroq ahamiyatga ega bo'ladi. Har ikkita o'qituvchining biri uchun shaxsiy imidjini hosil qilish zamirida o'z shaxsiyatini ustun qo'yishga yo'naltirilgan psixologik motivatsiya yotadi. Bu esa ularni o'zaro ta'sir faoliyatida yopiq subyektga aylantirib qo'yadi. Shu sababli o'qituvchi va talabalar orasidagi hamkorlik munosobatlari darajasini o'zgartirishga qaratilgan ijtimoiy monitoring modelini ishlab chiqish zarur hisoblanadi.

Zamonaviy ta'lim sharoitida oliy o'quv yurtlarida o'qitish jarayoni kundan-kunga murakkablashib borayotganligi sir emas. Endilikda, o'qituvchi uchun o'z mutaxassisligini a'lo darajada bilish orqali auditoriyada to'plangan talabalarga ulkan bilimlar bazasini berish yo'nalishidagi kasbiy kompetentligini namoyon qilishning o'zi kamlik qiladi. Zamonaviy faol o'qituvchilar nafaqat o'z fanlari bo'yicha chuqur bilimlarini yetkazish, balki talabalar haqida ham ba'zi ma'lumotlar, ya'ni ularning ushbu bilimlarni qanday tarzda o'zlashtirishlari haqida ham tasavvurga ega bo'lishlari zarur. Bundan tashqari o'qituvchilar o'zlariga tanish bo'lmagan, ammo yuksak samara beradigan turli o'qitish metodlari va baholash shakllarini faoliyat mazmunlariga singdirishga majbur bo'ladilar. Talabalar esa o'quv jarayoniga faol jalb qilinishlari natijasida o'rgangan materiallarni oson tushunib, yodda saqlab, o'z navbatida tez o'zlashtiradilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish. Monografiya. -Toshkent: fan, 2004. 130 B.

2. Muslimov N.A., Mullaxmetov R.G. Kasb tanlashga yo'llash. O'quv qo'llanma. -Toshkent: oo'mtv, 2007. 173 B.

3. Nishonaliev U.N., Shodiev N.Sh., Muslimov N.A. Mehnat ta'limidan "kasbga yo'naltirish asoslari" kursi bo'yicha metodik qo'llanma. - Toshkent, 2004. 12 B.

4. Асранбаева М. Основные направления и факторы подготовки детей к социальной жизни в неполных семьях. Ученый xxi века учредители: общество с ограниченной ответственностью коллоквиум, 43-45.

5. Xalimjanovna A.M. (2022). Manifestations of stress in professional activity and ways to eliminate it. Galaxy international interdisciplinary research journal, 10(11), 841-844.

6. Asranbaeva M.X. (2020). Improving mechanisms of preparing children for social life in disabled families. Theoretical & applied science, (12), 125-129.

7. Pedagogik mahorat. Darslik / A.A.Xoliqov; 0 O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2011, -289-298 b.

8. Zufarova M.E. UMUMIY PSIXOLOGIYA O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti TOSHKENT 2010.

9. Pedagogika G'.A.Munavvarovning tahriri ostida. – Toshkent, O'qituvchi, 1996.

TALABALARNING PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALARNI LOYIHALASHGA OID KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHARTLARI

Shamsutdinov F.A.
Navoiy davlat universiteti o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: pedagogik shart, pedagogik dasturlar, vositalar, loyihalar, axborot texnologiyalarini, kompitentlik, zamonaviy, motivatsiyasini, samaradorlik, fikrlash qobiliyati.
Ключевые слова: педагогические условия, педагогические программы, инструменты, проекты, информационные технологии, компетентность, современный, мотивация, эффективность, навыки мышления.
Key words: pedagogical conditions, pedagogical programs, tools, projects, information technologies, competence, modern, motivation, efficiency, thinking skills.

РЕЗЮМЕ:
Ushbu maqola Oliy ta'lim talabalarining pedagogik dasturiy vositalarni loyihalashga oid kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shartlarini ishlab chiqishga qaratilgan, ishlab chiqilgan pedagogik shartlar darsni samarali va mazmunli o'tishda yunaltirilgan. Ishlab chiqqan pedagogik shartlarimiz oliy ta'lim talabalarini kompetensiyalarini shakllantirish, amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish, bilimlarini mustahkamlash, ijodkorlik salohiyatini oshirish, ta'lim jarayonining rivojlanishini belgilovchi asosiy pedagogik shartlar bo'lib, ular bir-biri bilan uzviy bog'liq holda ishlaydi.
РЕЗЮМЕ:
Данная статья направлена на разработку педагогических условий для развития компетенции в разработке педагогических программных средств для студентов высших учебных заведений; разработанные педагогические условия призваны обеспечить эффективное и содержательное прохождение урока. Разработанные нами педагогические условия являются основными педагогическими условиями, определяющими формирование компетенций студентов высших учебных заведений, развитие практических навыков, закрепление знаний, повышение творческого потенциала, развитие образовательного процесса, и все они неразрывно связаны друг с другом.
SUMMARY:
This article is aimed at developing pedagogical conditions for the development of competence in the design of pedagogical software tools for higher education students, the developed pedagogical conditions are aimed at effective and meaningful passage of the lesson. The pedagogical conditions we have developed are the main pedagogical conditions that determine the formation of competencies of higher education students, the development of practical skills, the consolidation of knowledge, the increase of creative potential, the development of the educational process, and they work inextricably linked with each other.

Bugungi kunda pedagogik dasturiy vositalar oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonining ajralmas qismi sifatida talabalarning turli fanlarga oid kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Bunday pedagogik vositalardan foydalanib, talabalar o‘zlariga qulay vaqtda va joyda raqamli texnologiyalar orqali ta’lim olish, mustaqil o‘quv faoliyatini jadallashtirish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda.

Shuningdek, pedagogik dasturiy vositalarni loyihalash ta’limi talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlash, amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish va ijodkorlik salohiyatini oshirish imkonini beradi. Bu, ayniqsa, axborot texnologiyalarini yangilanib borishi shiddat bilan rivojlanayotgan bugungi kunda ta’limning zamonaviy ehtiyojlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun oliy ta’lim muassasalari talabalarining pedagogik dasturiy vositalarni loyihalash oid kompetentligini rivojlantirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etadi [1,2].

Mazkur tadqiqot ishi ham ushbu masalaga qaratilgan bo‘lib, yani oliy ta’lim muassalari talabalarining pedagogik dasturiy vositalarni loyihalashga oid kompetentligini rivojlantirishdan iborat.

Talabalarning pedagogik dasturiy vositalarni loyihalashga oid kompetentligini rivojlantirish uchun esa ularning pedagogik fikrlash qobiliyati, dasturiy vositalardan foydalanish, loyiha asosida ishlash, tahlil va sinov ko‘nikmalarini shakllantirish lozim [3].

Pedagogik shartlar oliy ta’lim muassasalari talabalarining faolligini, motivatsiyasini va ta’lim natijalari samaradorligini oshirish imkonini beradi. Shuningdek, pedagogik shartlar talabalarning ijodiy va tanqidiy fikrlashi va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojalntirishga yordam beradi. Pedagogik shartlar uzluksiz ta’lim tizimida optimal o‘quv muhitini yaratishda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Shu bois, talabalarning pedagogik dasturiy vositalani loyihalashga oid kompitentligini shakllantirishda pedagogik shartlarga amal qilish mihim masalalardan biri sanaladi. Shuning uchun talabalarni pedagogik dasturiy vositalani loyihalashga oid kompitetnligini shakllantirishda amal qilinadigan pedagogik shartlarni ishlab chiqish lozim. Buning uchun esa dastlab, sohaga oid tadqiqotchi va olimlarning ishlarini tahlil etish asosida pedagogik shart tushunchasiga aniqlik kiritishni taqozo etiladi.

Adabiyotlarning tahlili. Bu borada, ya’ni pedagogik dasturiy vositalarni loyihalashning pedagogik shartlariga oid bir qancha olimlarning tadqiqotlar Т.П. Вейс, С.Н. Пилюкова, N.Ippolitova, N.Sterxova, N.V.Ippolitova va M.V.Zvereva tomonidan olib borilgan.

Bu borada, Т.П. Вейс va С.Н. Пилюкова larning fikriga ko‘ra, “shart deganda obyektlar, hodisalar yoki jarayonlar bilan bog’liq bo‘lgan va hodisa

sodir bo‘ladigan muhitning shakllanishiga ta’sir qiluvchi obyektlar, hodisalar yoki jarayonlar majmuasining muhim tarkibiy qismi tushuniladi Т.П. Вейс, С.Н. Пилюкова. “Shart” tushunchasi pedagogik mantiq, qoida tariqasida, talabani o‘qitish, o‘rganish va rivojlantirishga ta’sir qiluvchi holatlarning umumiyligini ta’minlaydi [4].

Shuningdek, N.Ippolitova va N.Sterxova “pedagogik sharoitlar” tushunchasini ta’riflash bo‘yicha turli tadqiqotchilarning pozitsiyalarini tahlil qilib, bir qator muhim takliflarni aniqlaydilar:

1) sharoitlar pedagogik tizimning ajralmas elementi bo‘lib xizmat qiladi;

2) pedagogik sharoitlar uning ishlashiga ijobiy yoki salbiy ta’sir ko‘rsatadigan ta’lim (ta’lim sub'ektlari o‘rtasidagi maqsadli ishlab chiqilgan ta’sir va o‘zaro ta’sir o‘lchovlari: o‘qitish va tarbiyalashning mazmuni, usullari, texnikasi va shakllari, ta’lim jarayonining dasturiy va metodologik ta’minoti) va moddiy-fazoviy (ta’lim va texnik jihozlar, ta’lim muassasasining tabiiy va fazoviy muhiti va boshqalar) muhitining imkoniyatlarining umumiyligini aks ettiradi;

3) pedagogik sharoitlar tuzilishi ichki (ta’lim jarayoni sub'ektlarining shaxsiy sohasini rivojlantirishga ta’sir ko‘rsatishni ta’minlash) va tashqi (tizimning protsessual komponentini shakllantirishga ko‘maklashish) elementlarni o‘z ichiga oladi;

4) to‘g’ri tanlangan pedagogik sharoitlarni amalga oshirish pedagogik tizimning rivojlanishi va samarali ishlashini ta’minlaydi.

N.V.Ippolitova va M.V.Zverevalarning fikriga ko‘ra, pedagogik shartlar pedagogik tizimning tashkiliy va tarkibiy qismi bo‘lib, tizimning yuqori darajada samarali ishlashi va rivojlanishini ta’minlaydigan ichki elementlar va tashqi omillarni aks ettiradi [5].

“Pedagogik shartlarning xususiyatlariga mazmuni, o‘qitish usullari, professor o‘qituvchi, talabalar va o‘quv materiali o‘rtasidagi munosabatlarning tabiati va tashkiliy shakllar kiradi”.

“Pedagogik shartlar” tushunchasi olimlar tomonidan turli nuqtai nazardan o‘rganilgan:

-pedagogik tizimning tarkibiy qismi bo‘lib, u uning samarali ishlashini va keyingi rivojlanishini ta’minlaydigan ichki (ta’lim jarayoni sub’ektlarining shaxsiy jihatlarini rivojlantirishni ta’minlash) va tashqi (tizimning protseduraviy jihatlarini amalga oshirishga ko‘maklashish) elementlarning umumiyligini aks ettiradi (M.V. Zvereva, N.V. Ippolitova)

Shu bilan birga V.I.Andreevning fikriga ko‘ra, pedagogik shrtlar o‘qitish va ta’lim o‘lchovlarni, mazmuni, usullari, texnikalari va tashkiliy shakllari to‘plamidir [].

Tahlil va natijalar. Shunday qilib, oliy ta'lim muassasalari talabalarining pedagogik dasturiy vositalarni loyihalash kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shartlarini asoslashda biz asosan ushbu tayyorlikni ta'minlash maqsadlari va rejalashtirilgan natijalariga, tadqiqotimiz asosidagi metodologik yondashuvlarga va tamoyillarga amal qildik, shu bilan birga raqamli ta'lim muhitida ta'lim faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlarini ham hisobga oldik.

Yuqoridagilarga asosan tadiqot doirasida oliy ta'lim muassasalari talabalarining pedagogik dasturiy vositalarni loyihalash kompetentligini rivojlantirishda amal qilinadigan pedagogik shartlar ishlab chiqildi:

1. Talabalar mativatsiyasini oshirish. Ushbu shart talabalarning pedagogik dasturiy vositalarni loyihalashga oid kompetentligini rivojlantirishda dastlab ularning ushbu jarayonga oid motivatsiyasi oshirish lozimligini anglatadi. Bunda talabalarga ta'lim olish uchun barcha shart-sharoitlatni yaratib berish, ya'ni o'quv jarayonini qo'llab-quvvatlovchi elektron resurslar, internit, kompyuter, interaktiv platformalar, multimedia darsliklar, test tizimlari, vizual simulyatorlar va barcha jixozlar bilan taminlash muximdir.

Bu borada Е.П.Седыхning fikriga ko'ra, bugun kunda zamonaviy dunyoda ta'limning ustuvor maqsadlaridan biri shaxsga yo'naltirilgan o'qitish, talabalarning amaliy va mustaqil kompetensiyalarini rivojlantirish va ularning motivatsiyasini oshirishdir [7].

2. Talabalarni hamkorlikda ishlashga yo'naltirish. Bugungi raqamli ta'lim sharoitida pedagogik dasturiy vositalarni yaratish ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Pedagogik dasturiy vositalar murakkab tizim bo'lib, ular texnik, dizayn, pedagogik va uslubiy komponentlarni o'z ichiga oladi. Shu sababli pdvlarni samarali loyihalash uchun talabalarning o'zaro hamkorligi muhim o'rin tutadi. Hamkorlik nafaqat loyiha sifatini oshiradi, balki talabalarda kommunikativ, kreativ, refleksiv va IT-kompetensiyalarini ham rivojlantiradi. Talabalar hamkorlikda ish olib borganda bilimini o'zaro muloqot va faoliyat orqali yaratadi, jamoa bo'lib ishlaganda, jamoani har bir a'zosining fikri mixim bo'lib, umumiy natijaga hissa qo'shadi.

3. Mobil ilovalardan foydalanish. Bugungi kunda talabalarda pedagogik dasturiy vositalarni loyihalash kompetentligini rivojlantirish jarayonida mobil ilovalardan foydalanish samaradorlikni sezilarli darajada oshayotganini ko'rishimiz mumkin. O'quv jarayonida mobil ilovalar moslashuvchan, interaktiv va zamonaviy talablarga mos holga keltirilmoqda. Mobil ilovalarni yaratishda talabalar PDV loyihalashda bosqichma-bosqich o'rganidi, mustaqil topshiriqlarni o'z vaqtida bajaradi, har bir talaba o'zining loyihalarini sinovdan o'tkazidi va fikr-mulohaza qiladi.



Shuningdek, mobil ilovalardan ta'lim jarayonida foydalanishda talabalarning o'ziga xos individual fazilatlarini hisobga olish kerak. Bularga boshlang'ich bilim, xotira, axborot bilan ishlash ko'nikmalari, bilimning yangiligi faktining mavjudligi, o'rganishga nisbatan hissiyotlar va motivatsiya kiradi [8].

4. Onlayn platformalardan foydalanish. Bugungi kunda zamonaviy raqamlashgan ta'lim jarayonida pedagogik dasturiy vositalarni yaratishda onlayn platformal muxim ahamiyatga ega. Pedagogik dasturiy vositalardan foydalanish va yaratish uchun turli xil test, mashq, video dasrslar va interaktiv elementlar foydalanishga mo'ljallangan onlayn platformalar mavjud bo'lib, bularga Google Classroom, Moodle Cloud-LMS, LearningApps, H5Plarni misol keltirish mumkin.

Bu borada Н.Н Тиуновой ta'kidlashicha, onlayn platformalar ma'lum bir shartlar asosida foydalanuvchilarga taqdim etiladigan o'quv materiallarini o'z ichiga olgan, ta'lim va o'zini rivojlantirishga bag'ishlangan cheklanmagan, shaxsga yo'naltirilgan onlayn resurslarni tadqim etadi.

"Onlay platformalar – o'quv jarayonida talabalarni birlashtirgan xolda, masofaviy o'qitishni, metodologik materiallar va ma'lumotlarga kirishni

ta’minlaydigan hamda talabalarning bilimlarini baholash uchun test o‘tkazish imkonini beradigan axborot maydonidir” [9]

5. Talabalarning mustaqil ta’limini faollashtirish. Bugungi globallashuv davrida ta’lim sifatini rivojlantirish uchun pedagogik dasturiy vositalarni loyihalashtirish, talabalardan texnik bilim, pedagogik yondashuv va kreativ fikrlashni talab qiladi. Ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatini faollashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqil ta’lim nafaqat texnik ko‘nikmalarni rivojlantiradi, balki mas’uliyat, tashabbuskorlik va muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyatlarini ham o‘stiradi.

Xulosa va takliflar. Pedagogik dasturiy vositalarni loyihalashga oid kompetentligini rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonning samaradorligi uni ta’minlovchi pedagogik shartlarning ilmiy asosda belgilanishi va izchil amalga oshirilishiga bevosita bog‘liq.

Mazkur pedagogik shartlarning majmuali amalga oshirilishi talabalarda pedagogik dasturiy vositalarni tahlil qilish, loyihalash, joriy etish va baholash bo‘yicha kasbiy kompetentlikni shakllantirishga xizmat qiladi. Natijada bo‘lajak pedagoglar zamonaviy ta’lim talablariga mos, raqamli, innovatsion va samarali o‘quv vositalarini mustaqil loyihalashga qodir mutaxassis sifatida shakllanadi.

Shu bois, talabalarning pedagogik dasturiy vositalarni loyihalashga oid kompetentligini rivojlantirishda aniqlangan pedagogik shartlar oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini takomillashtirishning muhim omili sifatida baholanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. S. X. Sulliyeva. Uzluksiz ta’lim tizimida o‘qitishning zamonaviy tashkiliy shakllari// Monografiya. - Termiz-2023.

2. M. A. Ro’ziboyeva. Pedagogik fasilitatsiya vositasida talabalarni mustaqil ta’limini tashkil etish texnologiyasini takomillashtirish// Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences

3. F. X. Xazratov Talabalarning dasturlashga oid kompetensiyalarini dasturiy ilovalardan foydalanib rivojlantirish// Xazratov Fazliddin Xikmatovich

4. Т.П. Вейс, С.Н. Пилюкова// Технология формирования управленческой культуры менеджера в процессе профессиональной подготовки//

5. Ippolitova G.V. Otkrытaya rinolaliya. M., 1983 b

6. Седых Е.П. Система нормативного правового обеспечения проектного управления в образовании // Вестник Мининского университета. 2019. Т. 7, №1. С 1.

7. Ausubel, D. Educational psychology: A cognitive view. / Ausubel, D. – Toronto: Holt, Rinehart and Winston, 1968

8. Н.Н Тиуновой. Такие платформы как «Учи.ру», «РЭШ», «ЯКЛАСС» учителя в возрасте с 23 до 25 лет считают отличными помощниками при создании своих уроков. Так как в них сосредоточено огромное количество примеров уже готовых уроков.

МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ТАЛАБАЛАРНИНГ КОГНИТИВ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МУҲИМ ОМИЛИ СИФАТИДА

Адашова Г.М.
НамДУ мустақил тадқиқотчи

Таянч сўзлар: фикрлаш, таҳлил, муҳокама, тафаккур, интеллекуталлик, кўникма, талаба, таълим, билим, иқтидор, ижод, мустақиллик, когнитив, рефлексив, чукурлаштириш, компетенция, тайёрлаш, омил, шаклланиш.
Ключевые слова: мышление, анализ, дискуссия, осмысление, интеллект, навыки, студент, образование, знания, талант, креативность, независимость, когнитивный, рефлексивный, углубление, компетентность, подготовка, фактор, формирование.
Key words: thinking, analysis, discussion, thinking, intellect, skills, student, education, knowledge, talent, creativity, independence, cognitive, reflexive, deepening, competence, preparation, factor, formation.

РЕЗЮМЕ:
Мақолада мустақил таълим жараёнида талабаларнинг когнитив компетенцияларини ривожлантириш омиллари, уларни шакллантириш методлари ва амалий тавсиялар, самарали педагогик технологияларни жорий этиш, талабаларнинг мустақил фикрлаш қобилиятини ошириш ҳамда уларни жаҳон билим бозорига тайёрлаш масалалари тақлин қилинган,компетенция, тайёрлаш, омил, шаклланиш.
РЕЗЮМЕ:
В статье имитируются факторы развития когнитивных компетенций студентов в процессе самостоятельного обучения, методы и практические рекомендации по их формированию, внедрению эффективных педагогических технологий, повышающих способность студентов к самостоятельному мышлению и готовящих их к выходу на мировой рынок знаний.
SUMMARY:
The article imitates the factors of development of cognitive competencies of students in the process of independent education, methods and practical recommendations for their formation, the introduction of effective pedagogical technologies, increasing the ability of students to think independently and preparing them for the world knowledge market.

Кириш. Ҳозирги замон таълим жараёнида талабаларнинг билим ва кўникмаларини шакллантиришда мустақил таълимнинг ўрни ва аҳамияти тобора ошиб бормоқда. Мустақил таълим – бу талабаларнинг ўқитиш жараёнида фақат ўқитувчи томонидан бериладиган маълумотга таяниб

қолмасдан, ўзлари мустақил равишда билимларни излаш, таҳлил қилиш, амалга ошириш ва муаммоларни ҳал этиш қобилиятини ривожлантиришга қаратилган таълим туридир. Шу жиҳатдан, когнитив компетенциялар - яъни фикрлаш, таҳлил қилиш, муҳокама қилиш, тафаккур қилиш каби аниқ интеллекутал кўникмалар - талабаларнинг билимини янада чуқурлаштириш ва уларни ҳаётга тайёрлашда муҳим омил саналади.

Бугунги кунда таълим соҳасидаги муваффақият талабаларнинг мустақил равишда билим олиш ва янги маълумотларни ўзлаштириш қобилиятига боғлиқ. Шу боисдан, мустақил таълим жараёнида когнитив компетенцияларни ривожлантиришга йўналтирилган усул ва технологияларни тадқиқ этиш ва жорий этиш талаб этилади. Мазкур мавзунинг долзарблиги шу билан изоҳланадики, бу йўналишдаги тадқиқотлар таълим сифатини яхшилашга ҳамда талабаларнинг шахсий ва касбий ривожланишига хизмат қилади.

Ҳозирги замон жамиятида билим ва технологик тараққиёт жуда тез суръатларда ривожланмоқда. Бу эса таълим жараёнига янги талаблар ва ёндашувларни талаб қилади. Замонавий таълим тизимида фақат маълумотларни ёдлаш эмас, балки уларни чуқур тушуниш, таҳлил қилиш, янгича фикрлаш ҳамда муаммоларни мустақил ҳал қилиш каби қобилиятлар, яъни когнитив компетенциялар муҳим аҳамият касб этади. Шу сабабли, талабаларнинг когнитив салоҳиятини ривожлантириш таълим жараёнининг самарадорлиги ва сифатини оширишда асосий вазифалардан биридир.

Мустақил таълим жараёни эса талабаларнинг билим олишга бўлган қизиқишини ошириш, уларнинг ўқиш жараёнида шахсан иштирокини таъминлаш, мустақиллик ва масъулият ҳиссини шакллантиришга хизмат қилади. Бу жараёнда талабалар ўзлари маълумотларни тадқиқ қилиш, манбалардан фойдаланиш, мулоҳаза қилиш ва ёрдамсиз муаммоларни ҳал этиш йўли билан билимини кенгайтириш имкониятига эга бўладилар. Айни пайтда, когнитив компетенциялар талабаларнинг билимларни чуқур тушунишлари, мантиқий фикрлашлари ҳамда инновацион ғояларни ишлаб чиқишлари учун зарур асос ҳисобланади.

Шунингдек, таълим жараёнида когнитив салоҳиятларни ривожлантириш нафақат ўқув жараёнини самарали ташкил этиш, балки ҳаётнинг турли соҳаларида муваффақиятга эришиш учун ҳам муҳимдир. Чунки бу қобилиятлар ёрдамида талабалар мураккаб ахборотни тушуниш, янги билимларни интеграция қилиш, ижодий ёндошувлар билан муаммоларни ҳал қилиш имкониятига эга бўлади.

Асосий қисм. Бугунги кунда мустақил таълим ва когнитив компетенциялар ўртасидаги боғлиқликни тадқиқ этиш, уларни самарали ривожлантириш

механизмларини яратиш таълим соҳасидаги илмий ва амалий тадқиқотларнинг долзарб йўналишларидан биридир. Шу боисдан, ушбу ишда мустақил таълим жараёнида талабаларнинг когнитив компетенцияларини ривожлантиришга таъсир қилувчи омиллар, усуллар ҳамда технологиялар атрофлича таҳлил қилинади.

Ҳозирги кунда таълим тизимига янги талаблар қўйилмоқда, улар орасида талабаларнинг мустақил фикрлаш қобилиятини ва когнитив компетенцияларини ривожлантириш алоҳида ўрин тутади. Когнитив компетенциялар – бу билимларни тушуниш, таҳлил қилиш, муаммоларни ҳал этиш ва янгича ғояларни шакллантириш каби интеллектуал кўникмалардир. Мустақил таълим эса талабаларнинг ўз билимларини ўзи излаб топиши, таҳлил қилиши ва мустақил фаолият юритишига имконият яратади. Шу жиҳатдан, мустақил таълим жараёнида когнитив компетенцияларни ривожлантириш таълим сифатини оширишда муҳим омил ҳисобланади.

Мустақил таълим – талабаларнинг ўқув жараёнида мустақил равишда маълумотларни қидириш, таҳлил қилиш, танлаш ва ўзлаштириш жараёни бўлиб, бу уларнинг шахсий фаолиятини ва билимларни чуқурлаштиришини таъминлайди. Бугунги таълим талаблари шундайки, ўқувчи билимни қабул қилувчи эмас, балки билим яратувчи сифатида шаклланиши лозим. Мустақил таълимнинг бу хусусияти когнитив компетенцияларни ривожлантиришга хизмат қилади.

“Когнитив” сўзи лотинча “cognitio” - “билиш”, “идрок этиш” деган маънони англатади ва психология hamda педагогика соҳаларида инсоннинг маълумотларни қабул қилиш, уларни қайта ишлаш, тушуниш ва эслаш каби ақлий жараёнларига оид тушунчаларни ифодалайди. Когнитив жараёнларга диққат қилиш, қарор қабул қилиш, муаммоларни таҳлил этиш ва ечиш каби интеллектуал фаолиятлар киради.

“Компетенция” сўзи эса лотинчадан (competentia) келиб чиқиб, “қобилият”, “малакалилик”, “ишончли ўринни эгаллаш” маъносини англатади. Унинг маъноси - муайян соҳада зарур билим ва кўникмаларга эга бўлиш, уларни амалий фаолиятда самарали қўллай олиш қобилиятидир.

Шунинг учун “когнитив компетенция” — инсоннинг билиш жараёнларидаги салоҳияти ва малакаси, яъни маълумотларни қабул қилиш, уларни тушуниш, таҳлил қилиш, сақлаш, янгилаш, бошқа билимлар билан боғлаш ҳамда муаммоларни ҳал этиш каби ақлий фаолиятларни муваффақиятли амалга ошира олиш қобилиятидир.

1. Педагогика ва психологияда:

Когнитив компетенция - бу талабалар ёки шахсларнинг билим олиш жараёнида фойдаланадиган фикрлаш қобилияти, маънони англаш салоҳияти, муаммоларни ечиш, мантиқий ва танқидий фикрлаш кўникмалари ва маълумотларни самарали қайта ишлаш қобилиятларининг жамланмасидир.

2. Муаммоларни ҳал қилиш ва қарор қабул қилиш:

Бу малака инсоннинг мураккаб вазиятларда таҳлил қилиш, сарҳисоб қилиш, турли нуқтаи назарлардан қараш ва улар асосида оқилона қарор қабул қилиш қобилияти билан боғлиқ.

3. Таълимдаги ўрни:

Когнитив компетенциялар талабаларнинг билимларни чуқур тушунишлари, уларни ҳаёт ва касбий фаолиятда қўллашлари учун асос бўлиб хизмат қилади. Бу салоҳиятлар асосида талабалар янги билимларни мустақил равишда эгаллай оладилар, таҳлил қилиб, янгича фикрлай оладилар.

- когнитив - билиш ва тушунишга оид жараёнлар;

- компетенция - маълум бир соҳада зарур билим ва кўникмаларга эга бўлиш ва уларни амалга ошира олиш қобилияти;

- когнитив компетенция - инсоннинг маълумотларни қабул қилиш, тушуниш, таҳлил қилиш ва самарали фойдаланиш салоҳияти.

Талабаларнинг когнитив салоҳиятини ривожлантириш бир қатор омилларга боғлиқ бўлиб, улар орасида: фаол ўқитиш усуллари: мазмунни фақат эшитиш эмас, балки ўйлаш, таҳлил қилиш ва мунозара қилишга йўналтирилган услублар когнитив компетенцияларни оширади; муаммоли ўқитиш: талабаларга аниқ топшириқлар ва муаммоларни мустақил ҳал этиш имкониятини бериб, уларнинг тафаккурини чуқурлаштиради; маълумот манбаларига мустақил кириш: интернет, китоблар, илмий мақолалар ва бошқа ресурслардан фойдаланиш талабаларнинг тадқиқот салоҳиятини оширади; таълимда технологияларни қўллаш: ҳозирги рақамли дунёда электрон таълим платформалари, интерактив дастурлар ва мультимедиа воситалари когнитив компетенцияларни ривожлантиришга катта ёрдам беради.

Мустақил таълим жараёнида когнитив компетенцияларини ривожлантириш учун қуйидаги педагогик усуллар самарали ҳисобланади:

- лойиҳалар асосида таълим: талабалар ўзлари лойиҳа ёки тадқиқотни амалга ошириб, муаммоларни мустақил ҳал қилишни ўрганадилар;

- кейс-метод: ҳаётдаги воқеалар ёки ҳолатлар таҳлили талабаларнинг мураккаб маълумотларни тушунишини ва мантиқий фикрлашини оширади;

- гуруҳда ишлаш: муаммоларни биргаликда ҳал қилиш жараёнида талабалар мулоқот ва ижодий фикрлаш кўникмаларини ривожлантирадилар;

- рефлексия ва само баҳолаш: талабалар ўз таълим жараёни ва натижаларини баҳолаш орқали билимини чуқурлаштирадилар.

Натижалар ва муҳокамалар. Замонавий таълим тизимида билим бериш жараёнига оид асосий ғоялардан бири – талабаларнинг мустақил билим олиш салоҳиятини шакллантиришдир. Ҳозирги вақтда билим ўтказиш эмас, балки унинг ижодий қайта ишланиши ва қўлланилишига йўналтирилган таълим муҳим аҳамият касб этмоқда. Шу нуқтаи назардан, когнитив компетенциялар - фикрлаш, таҳлил қилиш, муаммоларни ҳал этиш, қарор қабул қилиш каби интеллектуал жараёнларни ўз ичига олган малака ва кўникмалар тизими - таълим сифатини оширишда марказий ўрин тутади (Anderson, 2005). Мустақил таълим жараёнида эса талабалар бу компетенцияларни мустақил равишда ривожлантириш имконига эга бўлади [2].

1. Мустақил таълимнинг назарий асослари:

Мустақил таълим (self-directed learning) концепцияси бир нечта педагогик назариялар билан изоҳланади. Мисол учун, Knowles (1975) таълимда ўқувчининг шахсий масъулияти ва фаоллигини оширишни таъкидлайди. Унинг фикрига кўра, мустақил таълим – бу ўқувчининг ўз ўқиш жараёнини режалаштириши, ресурсларни танлаши, ва ўз билимини баҳолашидир [7].

Л.С.Выготскийнинг [5] ижтимоий конструктивизм назарияси ҳам мустақил таълимнинг асосий элементларини қўллаб-қувватлайди. Унга кўра, билим ижтимоий ҳамкорлик орқали шаклланади, аммо олиган билимни ички лаштириш ва мукаммаллаштириш учун талабалар мустақил фаолият билан шуғулланиши лозим (Vygotsky, 1978).

2. Когнитив компетенциялар тушунчаси ва уларнинг таълимдаги ўрни:

Когнитив компетенциялар таълим психологіyasi ва педогогикасида фикрлашнинг юқори даражаси, маълумотларни самарали қайта ишлаш, муаммо ечиш қобилияти, танқидий ва ижодий тафаккурни ўз ичига олади (Bloom et al., 1956; Anderson & Krathwohl, 2001). Блум таксономиясига кўра, когнитив жараёнлар хотирадан бошлаб, таҳлил, синтез ва баҳолашгача бўлган босқичларни ўз ичига олади, бу жараёнлар талабаларнинг билимларини чуқурлаштиришда муҳимдир [1, 4].

Когнитив компетенциялар талабаларнинг билимларни амалий ҳаётда қўллаш, янги билимларни ўрганишда муаммоларни ҳал қилиш ва мустақил қарорлар қабул қилишда асосий восита ҳисобланади (Schraw & Dennison, 1994) [10].

3. Мустақил таълим жараёнида когнитив компетенциялар ривожланишига таъсир қилувчи омиллар:

Фаол ўқитиш ёки актив таълим (active learning) – талабаларнинг ўқув жараёнида фаол иштирокини талаб қиладиган усуллар тизими бўлиб, бу когнитив салоҳиятларни ривожлантиришга ёрдам беради (Prince, 2004) [9]. Масалан, муаммоли ўқитиш (problem-based learning) талабаларнинг муаммоларни мустақил равишда таҳлил қилиш ва ҳал этиш қобилиятларини оширади (Barrows, 1986) [3].

Метакогнитив қобилиятлар – ўз фикрлаш жараёнини тушуниш ва назорат қилиш қобилияти – когнитив компетенциялар билан узвий боғлиқдир (Flavell, 1979). Мустақил таълим талабалардан ўз ўрганиш жараёнини режалаштириш, назорат қилиш ва баҳолашни талаб қилади. Шу билан бирга, тадқиқотчи ёндашув талабаларни муаммони ҳал қилишда мустақилликка даъват этади [13].

Ҳозирги замон таълим тизимида электрон таълим платформалари ва рақамли ресурслар талабаларнинг мустақил билим олишини осонлаштириб, уларнинг когнитив кўникмаларини кенгайтиришга хизмат қилади (Means et al., 2010) [8]. Масалан, онлайн муҳитда интерактив вазифалар ёки виртуал лабораториялар талабаларнинг таҳлил ва синтез қобилиятларини оширади.

4. Мустақил таълимда когнитив компетенциялар ривожланишига педагогик ёндашувлар

- **Лойиҳаларга асосланган ўқитиш** (Project-based learning) талабаларни муаммоли вазиятларда мустақил ечим топишга ундайди (Thomas, 2000) [12].

- **Кейс-метод** талабаларга мураккаб воқеаларни таҳлил қилиш ва қарорлар қабул қилишни ўргатади (Herreid, 2007) [14].

- **Гуруҳда ҳамкорлик** талабаларнинг ижодий фикрлашини ва муаммоларни биргаликда ҳал қилиш қобилиятини кучайтиради (Johnson & Johnson, 1999) [6].

- **Рефлексия ва само баҳолаш** орқали талабалар ўз билим ва кўникмаларини чуқурроқ англайди (Schon, 1983) [11].

Хулоса. Ҳозирги таълим жараёнида мустақил таълим талабаларнинг когнитив компетенцияларини ривожлантиришда муҳим омил бўлиб хизмат қилади. Когнитив компетенциялар – билимни тушуниш, таҳлил қилиш, муаммоларни ҳал этиш ва ижодий фикрлаш салоҳияти – талабаларнинг шахсий ва касбий ривожланишида асосий рол ўйнайди. Шунинг учун педагоглар ва таълим муассасалари мустақил таълим жараёнини такомиллаштириш, фаол ўқитиш усуллари, метакогнитив кўникмаларни ривожлантириш ва за-

монавий технологияларни самарали жорий қилиш орқали бу кўникмаларни мустаҳкамлашга эътибор қаратиши зарур.

Когнитив компетенциялар талабаларнинг касбий фаолиятида ҳам муҳим рол ўйнайди. Улар мураккаб вазифаларни тизимли равишда ҳал қилиш, янги билимларни тез ўзлаштириш ва инновацион ечимлар таклиф қилиш имконини беради. Шу боис, мустақил таълим жараёнида бу кўникмаларни шакллантириш таълим муассасалари учун устувор вазифа ҳисобланади.

Шу тариқа, мустақил таълим жараёни талабаларнинг когнитив компетенцияларини ривожлантиришда самарали восита сифатида намоён бўлади. Ушбу жараёнда педагогик технологиялар ва инновацион усулларни жорий қилиш орқали талабаларнинг мустақиллик, фикрлаш ва муаммоларни ҳал қилиш салоҳиятини кучайтириш мумкин. Бу эса нафақат таълим сифатини оширади, балки талабаларни ҳаётга ва касбий фаолиятга тайёрлашда ҳам муҳим омил бўлади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Anderson L. W., Krathwohl, D. R. (2001). A taxonomy for learning, teaching, and assessing: A revision of Bloom's taxonomy of educational objectives. Longman.

2. Anderson J. R. (2005). Cognitive psychology and its implications. Worth Publishers.

3. Barrows H. S. (1986). A taxonomy of problem-based learning methods. Medical education, 20(6), 481-486.

4. Bloom B. S., Engelhart M. D., Furst E. J., Hill,W. H., & Krathwohl D. R. (1956). Taxonomy of educational objectives: The classification of educational goals. Handbook I: Cognitive domain. David McKay Co Inc.

5. Vygotsky L. S. (1978). Mind in society: The development of higher psychological processes. Harvard University Press.

6. Johnson D. W., & Johnson R. T. (1999). Making cooperative learning work. Theory into practice, 38(2), 67-73.

7. Knowles M. S. (1975). Self-directed learning: A guide for learners and teachers. Association Press.

8. Means B., Toyama Y., Murphy R., Bakia M., & Jones K. (2010). Evaluation of evidence-based practices in online learning: A meta-analysis and review of online learning studies. US Department of Education.

9. Prince M. (2004). Does active learning work? A review of the research. Journal of engineering education, 93(3), 223-231.

10. Schraw G., & Dennison, R. S. (1994). Assessing metacognitive awareness. Contemporary educational psychology, 19(4), 460-475.

11. Schon D. A. (1983). The reflective practitioner: How professionals think in action. Basic books.

12. Thomas J. W. (2000). A review of research on project-based learning. Autodesk Foundation.

13. Flavell J. H. (1979). Metacognition and cognitive monitoring: A new area of cognitive–developmental inquiry. American psychologist, 34(10), 906.

14. Herreid C. F. (2007). Start with a story: The case study method of teaching college science. National Center for Case Study Teaching in Science.

ПЕДАГОГЛИК КАСБИГА МОСЛАШИШНИНГ ДИДАКТИК ШАРТЛАРИ

Ирисбоева Ё.Ў.
педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори, доцент

Таянч сўзлар: педагог, касб, мослашиш, зарурият, эҳтиёж, талаб, мувозанат, дидактика, шарт, шароит, вазият, омил, натижа.
Ключевые слова: педагог, профессия, адаптация, необходимость, востребованность, баланс, дидактика, состояние, обстоятельства, ситуация, фактор, результат.
Key words: educator, profession, adaptation, necessity, need, demand, balance, didactics, condition, circumstances, situation, factor, result.

РЕЗЮМЕ:
Мақолада педагоглик касбига мослашиш педагогнинг ўқитиш ва тарбия бериш жараёнига самарали ва муваффақиятли киришиши ҳамда педагоглик касбига мослашишнинг дидактик шартлари таълимнинг самарали бўлиши учун зарур бўлган асосий элементлар ва омилларни ўз ичига олиши, педагоглик касбга мослашишда, педагогнинг касбий тажрибага киришиш, талабаларнинг эҳтиёжларига мос усуллар ва шаклларни қўллаш, уларнинг психоэмоционал ҳолатини ҳисобга олиш, педагогик маҳоратни ва шахсий салоҳиятни ривожлантириш масалалари талқин қилинган.
РЕЗЮМЕ:
В статье вопросы адаптации к педагогической профессии трактуются как эффективное и успешное внедрение педагога в процесс обучения и воспитания, дидактические условия адаптации к педагогической профессии включают в себя основные элементы и факторы, необходимые для эффективности обучения, адаптации к педагогической профессии, приобщения к профессиональному опыту. деятельности педагога, применении методов и форм
SUMMARY:
The article interpreted the issues of adaptation to the pedagogical profession as an effective and successful introduction of the educator into the process of teaching and upbringing, didactic conditions for adaptation to the pedagogical profession include the basic elements and factors necessary for the effectiveness of Education, adaptation to the pedagogical profession, introduction to the professional experience of the educator, application of methods and forms

Кириш. Глобал ахборотлашув шароитида таълим сифатини яхшилаш, ўқитиш самарадорлигини ошириш ҳар қачонгидан ҳам долзарб аҳамият касб этмоқда. Бу эса педагогларнинг ўз устида доимий, изчил ишлашларини, касбий комптентлик сифатларини такомиллаштириб боришларини

тақозо этади. Касбий жиҳатдан такомиллашиб борар экан, педагоглар педагогик фаолиятга мослашиш кўникмаларини ривожлантириб боришлари зарур. Бинобарин, педагогик фаолиятга самарали мослашишга эришиш, энг аввало, педагогларнинг, қолаверса, талабаларнинг таълим жараёнида тартибли, самарали фаолияти учун зарур шарт-шароитни яратади. Жамият ҳаётида педагоглик касбининг зарурати катта аҳамиятга эга, чунки бу касб жамиятнинг ижтимоий, маданий ва иқтисодий тараққиётига бевосита таъсир кўрсатади. Педагоглар ёшларнинг интеллектуал ва ахлоқий ривожланишига, уларнинг жамиятда фаол ва масъул фуқароларга айланишида муҳим роль ўйнайдилар. Жамият ҳаётида педагоглик касбининг зарурияти сифатида таълим ва тарбияни самарали ташкил этиш, талабаларга билим бериш орқали уларнинг ақлий, маънавий ва ижтимоий ривожланишини таъминлайдилар. Бу, ўз навбатида, жамиятнинг интеллектуал салоҳиятини оширишга, инновацион ғоялар ва технологияларни ишлаб чиқишга ёрдам беради. Педагоглар ҳар бир талабага ягона имкониятларни тақдим этиш орқали ижтимоий адолатни таъминлайдилар. Улар таълимга кириш имкониятларини баробарлаштириш, ижтимоий ва иқтисодий ҳолатдан қатъий назар, ҳар кимга ўз салоҳиятини намоён қилишга ёрдам беришлари тақозо қилинади.

Асосий қисм. Педагоглик касбининг моҳияти инсонларнинг таълим ва тарбиясини ташкил этиш, уларнинг ақлий, маънавий ва жисмоний ривожланишини таъминлашга қаратилган фаолиятдир. Педагогик фаолиятнинг асосий мақсади болалар ва ёшларнинг ижтимоий, интеллектуал ва эмоционал ривожланишини қўллаб-қувватлаш, уларга ҳаётда керакли билим, кўникмалар ва қадриятларни беришдир.

Педагогик касбнинг моҳияти шундан иборатки, у жамиятнинг таълим ва тарбия соҳаида муҳим роль ўйнайди. Педагоглар болаларга ўргатиш, уларнинг қобилиятларини аниқлаш ва ривожлантириш, ижтимоий ва ахлоқий нормаларга мос равишда ҳаётга тайёрлаш билан шуғулланадилар. Педагоглар талабаларнинг ахлоқий қадриятларини шакллантириш, уларни адолат, ҳурмат, меҳр ва инсонпарварлик каби қадриятларга асосланган тарбия беришга ёрдам берадилар. Бу жамиятда барқарорлик ва ўзаро ҳурматни таъминлайди. Педагогик фаолият ёшларнинг мустақил фикрлаш, ижодий ёндашув ва муаммоларни ечиш қобилиятларини ривожлантиришга қаратилган. Бу эса жамиятда янги ғоялар ва ижодий ечимлар пайдо бўлишини рағбатлантиради.

Педагоглар жамиятнинг талаблари ва муаммоларига мувофиқ таълим тизимини янгилаш ва такомиллаштиришда муҳим роль ўйнайдилар.

1-расм. Педагоглик касбининг асосий хусусиятлари

Улар таълимда янги усуллар, технологиялар ва мавзу ва методикаларни тадбиқ қилиш орқали ўқув жараёнини самарали ва замонавий қилишади. Педагоглар ижтимоий муаммолар, айниқса, ёшлар ўртасидаги саводсизлик, наркотик моддаларга қўл уриш, ажримлар ва жиноятчилик каби муаммоларга қарши курашишда муҳим рол ўйнайдилар. Улар тарбия ва таълим орқали ёшларни ижобий ғоялар ва ҳаётий қадриятларга йўналтиради.

Шу билан бирга, педагогик касбнинг зарурати жамиятни тараққиётга олиб боришда, мустаҳкам асос яратишда ва умумий фаровонликка эришишда муҳим аҳамиятга эга. Таълим ва тарбияга сарфланган харажатлар, узоқ муддатда, жамиятнинг барқарор ривожланишига олиб келади.

Педагоглик касбига мослашиш - бу педагогнинг ўқитиш ва тарбия бериш жараёнига самарали ва муваффақиятли киришиш учун зарур бўлган психологиявий, педагогик ва ижтимоий-аксиологик жараёнлар жамланмасидир [1]. Педагоглик касбга мослашиш, педагогнинг касбий тажрибага киришиш, талабаларнинг эҳтиёжларига мос усуллар ва шаклларни қўллаш, уларнинг психоэмоционал ҳолатини ҳисобга олиш, педагогик маҳоратни ва шахсий салоҳиятни ривожлантиришдан иборатдир.

Педагоглик касбига мослашишнинг зарур омиллари қуйидагилардан иборат:

- касбий малака ва тажрибага эга бўлиш - педагог ўз касбига мослашиш учун педагогика ва методика соҳасидаги билимларга эга бўлиши лозим бўлиб, бу, ўз навбатида, педагогга талабаларга зарур бўлган билим, кўникма ва қобилиятларни самарали ўргатиш имконини беради.

- психологик мослашиш - педагог талабаларнинг индивидуал психоэмоционал ҳолатларини тушуниш ва уларга мос тарзда ёндашишга эга бўлиши зарур бўлиб, бу педагогга талабаларнинг ихтиёрийликларини, қизиқишларини ва эҳтиёжларини ҳисобга олишга ёрдам беради.

- талабалар билан ишлаш қобилияти - педагоглик касбига мослашишнинг муҳим жиҳати талабалар билан фаол ва самарали алоқа ўрнатиш, ҳисобланиб, бунда педагог талабаларнинг эҳтиёжларига жавоб бериш, уларни мотивлаштириш ва уларнинг маънавий, ахлоқий ва ижтимоий ривожланишини таъминлашда муҳим роль ўйнайди.

- муваффақиятли ўқитиш методлари - педагог ўқув жараёнини янги, самарали ва инновацион усуллар билан бойитиши, бунинг учун педагог педагогикадаги янгиликлардан хабардор бўлиши, илғор педагогик методлардан фойдаланиш ва таълимда технологиялардан самарали фойдаланиш каби омиллар муҳим аҳамиятга эга.

- рақобатбардошлик ва инновацион ёндашувлар - педагогик касбга мослашишнинг яна бир муҳим жиҳати педагогнинг янги талабларга мослашиш қобилияти бўлиб, педагог замонавий таълим технологиялари, инновацион методлардан фойдалана олишга ҳам мослашиши керак. Бу таълим жараёнининг самарадорлигини ошириш ва талабаларни фаолликка ундашда муҳимдир.

Педагог ўз касбига мослашган пайтда, жамиятнинг ахлоқий ва ижтимоий талабларига жавоб бериши лозим. Унинг иши талабаларнинг маънавий, ахлоқий ва ижтимоий ривожини таъминлашга қаратилган бўлиши керак.

Педагоглик касбига мослашиш фақат методик ва педагогик билимларга эга бўлишни эмас, балки педагогнинг шахсий ривожи, касбий қобилиятлари ва салоҳиятини мунтазам равишда ривожлантиришни талаб этади. Педагогнинг шахсий мотивлари, ишга бўлган муносабати ва ижтимоий қобилиятлари касбий мослашишга катта таъсир кўрсатади [2].

Натижалар ва муҳокамалар. Педагоглик касбига мослашишнинг моҳияти шундан иборатки, у педагогнинг ўқув жараёнига тўлиқ мослашишини, таълимга эътиборли ва замонавий ёндашувларни тадбиқ этишини, шунингдек, талабаларнинг интеллектуал ва маънавий ривожланишини таъминлашни назарда тутади.

Педагоглик касбига мослашишнинг дидактик шартлари таълимнинг самарали бўлиши учун зарур бўлган асосий элементлар ва омилларни ўз ичига олади [3]. Бу шартлар педагогнинг ўқув жараёнини ҳар томонлама уюшқоқ ва самарали тарзда ташкил этиш, талабаларнинг ўрганиш жараёнидаги муваффақиятига эришиш учун муҳимдир. Қуйида педагогик касбга мослашишнинг асосий дидактик шартлари келтирилган:

1. Педагогик билим ва малака: педагогнинг ўқув жараёнини ташкил этиш учун умумий педагогик ва махсус методик билимларга эга бўлиши керак. Бу билимлар педагогга ўқувчиларнинг индивидуал хусусиятларини, ўқитиш усулларини ва таълим мақсадларини аниқлашга ёрдам беради.

2. Ўқув-тарбия жараёнининг мақсад ва вазифаларини аниқлаш: педагоглик фаолиятнинг самарали бўлиши учун таълимнинг мақсад ва вазифаларини аниқ белгилаш муҳим. Ҳар бир ўқув мослашуви аниқ ва аниқлангандан кейин, педагог талабаларга зарур бўлган билимлар ва кўникмаларни беришга кўмаклашади.

3. Ўқув усуллари ва шаклларини танлаш: педагог ўқув жараёнини ташкил этишда турли усуллар ва шаклларни танлашда эътиборли бўлиши керак. Педагогикада индивидуал ва гуруҳлик таълим, интерактив усуллар, дастурлашган ўқитиш каби усуллардан фойдаланиш жуда муҳим. Бунинг барчаси талабаларнинг ёшини, қизиқишларини ва талабларини ҳисобга олиб танланади.

4. Шахсий воситалар ва психологик мослашув: педагогнинг ўз шахсий хусусиятлари, тажрибаси ва психологияга оид билимлари ўқув жараёнида катта аҳамиятга эга. Педагог талабалар билан яхши алоқа ўрнатиши, уларнинг эҳтиёжларини тушуниш ва уларни қўллаб-қувватлаш каби психологик кўникмаларга эга бўлиши керак.

5. Интерактив ва мотивация воситалари: талабаларни ўқишга қизиқтириш ва уларни фаол иштирок этишга ундаш учун педагог интерактив ўқитиш усулларини қўллаш, қизиқарли мавзулар ва манбаларни таклиф қилиш, шунингдек, мотивацияни ошириш учун турли рағбатлантириш воситаларидан фойдаланиши зарур.

6. Талабаларнинг индивидуал хусусанликларини инобатга олиш: ҳар бир талабанинг шахсий хусусиятларини, қизиқишлари ва ўқишга бўлган муносабатини ҳисобга олиш муҳим. Педагог ўқув жараёнини ушбу индивидуал хусусиятларга мослаштириб, ҳар бир талабанинг салоҳиятини максимал даражада ривожлантириши керак.

7. Таълим муҳити: ўқиш муҳити ҳам муҳим фактордир. Педагогнинг ўқувчиларга ўргатишда қўллайдиган ўқитиш материаллари, технология-

лари ва ўқиш жойи талабаларнинг қизиқишини янада ошириши, уларга таълимга бўлган иштиёқни кучайтириши зарур.

8. Ҳисобот ва баҳолаш тизими: педагогикада талабаларнинг ўқиш натижаларини баҳолаш ва уларга фидоий ёрдам кўрсатишнинг муҳим аҳамияти бор. Талабаларнинг эришган натижаларига оид мунтазам баҳолаш, педагогнинг уларга мувофиқ мослашишини таъминлашга ёрдам беради.

9. Таълимнинг тараққиётга мувофиқлиги: таълим жараёни жамиятнинг ва даврнинг талабларига мос бўлиши керак. Педагогик фаолиятда замонавий педагогик технологиялар, инновацион ва бошқа методикаларни татбиқ этиш талаб этилади.

Шу билан бирга, педагогнинг талабаларга индивидуал ёрдам кўрсатиш, уларга қайси усул ва шаклларни танлашда мослашиш қобилияти муваффақиятли педагогик фаолиятнинг асосий шартларидан биридир.

Педагоглик касбига мослашиш натижалари педагогнинг касбий фаолиятининг самарадорлигини, ишга бўлган муносабатини ва талабаларнинг ривожланишини белгилайди [4]. Педагог ўз касбига мослашганида, унинг фаолиятида ижобий ўзгаришлар ва натижалар кузатилади, шунингдек, талабаларнинг таълим ва тарбиясида ҳам сезиларли ривожланишлар бўлади [5]. Педагоглик касбига мослашишнинг асосий натижалари сифатида: педагогнинг касбий салоҳиятининг ошиши, педагогнинг педагогик ва методик билимлари ва малакаси ўсиши, ўқув жараёнида турли усуллар ва шаклларни қўллашга қобилиятли бўлиши, профессионал тажрибаси, муаммоларни ҳал қилиш қобилияти ва ишга бўлган муносабати мустаҳкамланади.

Бундан ташқари таълим жараёнининг самарадорлиги ошиши, педагогнинг мослашуви натижасида ўқувчиларнинг дарсга бўлган қизиқиши ва мотивацияси ортиши, ўқитиш усуллари ва воситалари педагогнинг талабаларга мослашган ҳолда танланади, бу эса ўқишнинг сифатини ошириши, талабаларнинг ривожланиши, педагогнинг талабаларга мослашиш қобилияти уларнинг ақлий, маънавий ва ижтимоий ривожланишини қўллаб-қувватлайди.

Талабаларнинг мустақил фикрлаш, ижодий қобилиятларини ривожлантириш ва ижтимоий фаолликлари ошиши мумкин. Педагогнинг талабалар билан алоқа ўрнатиш қобилияти мустаҳкамланади, бу эса талабаларнинг психологик барқарорлиги ва иштиёқини оширишга ёрдам беради [6]. Педагог ўз таълим услубини талабаларнинг индивидуал хусусиятларига мослаштириш орқали уларнинг ишоничига кириб, яхши муносабатлар ўрнатади. Педагог замонавий таълим методлари ва инновацион техноло-

гиялардан фойдаланишда муваффақиятга эришади. Бу таълим жараёнини янада қизиқарли ва самарали қилади, талабаларнинг талаблари ва имкониятларига мос тарзда амалга оширилади.

Хулоса. Педагоглик касбга мослашиш натижасида педагогнинг шахсий ривожи, ишга бўлган муҳаббати ва касбий салоҳияти ошади. Педагогнинг эмоционал барқарорлиги ва стрессга нисбатан мослашувчанлиги яхшиланади, бу эса унга кўпроқ иштиёқ билан фаолият кўрсатишга ёрдам беради. Педагогнинг тарбиявиёқ аниқ усуллари ва эҳтиёжи талабаларнинг ахлоқий ва ижтимоий ривожланишини йўлга қўйишига сабаб бўлади. Педагог талабаларга ҳаётий қадриятлар, ахлоқий нормалар ва ижтимоий жавобгарликлар ҳақида билим бериши орқали уларни маънавий ривожлантиради.

Педагог касбга мослашганида, талаба ва педагог ўртасидаги ишонч ва ҳурмат ўзаро боғланиб, самарали таълим жараёнини яратишга ёрдам беради. Талабаларнинг фикрлари, қизиқишлари ва эҳтиёжларини ҳисобга олиш педагогнинг талабага ёндашишини яхшилайди. Педагог мослашув жараёнида талабаларнинг индивидуал хусусиятларини, қобилиятларини ва талабларини ҳисобга олиб, уларга индивидуал ўқитишни таъминлайди. Бу эса ҳар бир талабанинг салоҳиятини аниқлаш ва ривожлантиришда ёрдам беради.

Шу тариқа, педагоглик касбига мослашиш натижалари педагогнинг касбий фаолиятида ижобий ўзгаришлар, ўқувчиларнинг ривожи ва таълим жараёнининг самарадорлигини оширишга сабаб бўлади. Педагогнинг ўз касбига мослашиши орасида яратилган муносабатлар ва ҳамкорлик, ҳамда педагогик технологиялардан фойдаланиш юқори натижаларга олиб келади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Башина Т.Ф., Ильин Е.П. Психология творчества, креативности, одаренности. – СПб.: Питер, 2009.

2. Muslimov N. va boshqalar. Pedagogika (nopedgogik oliy ta’lim muassasalari uchun). T.: TDPU.2013.

3. Muslimov N.A., Raximov Z.T., Xo‘jayev A.A. Kasbiy pedagogika. Darslik. Toshkent “Voris” nashriyoti – 2020. 517 b.

4. Muslimov N.A., Raximov Z.T., Xo‘jayev A.A., Qodirov H.SH. Ta’lim texnologiyalari. Darslik. Toshkent “Voris” nashriyoti – 2019. 568 b.

5. Raximov Z.T. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. Darslik. Toshkent “Voris” nashriyoti – 2020. 242 b.

6. Raximov Z.T., Ismailova Z.K., Himmataliev D.O., Xo‘jaev A.A., Ashurov B.T., Keldiyorova M.G‘. Pedagogika // O‘quv qullanma. – Qarshi: «Intellekt» nashriyoti, 2021. – 370 b.

БЎЛАЖАК МУТАХАССИС КАДРЛАРНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ АНДРОГОГИК ЁНДАШУВ АСОСИДА РИВОЖЛАНТИРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ

Бухоров И.
“ТИҚХММИ” Миллий тадқиқот университети мустақил тадқиқотчиси

Таянч сўзлар: компетенция, талаб, жараён, қобилият, усул, тамойил, мотивация, фаолият, мақсад.
Ключевые слова: компетентность, требование, процесс, способность, метод, принцип, мотивация, деятельность, цель.
Key words: competence, requirement, process, ability, method, principle, motivation, activity, goal.

РЕЗЮМЕ:
Андрагогик ёндашув асосида бўлажак мутахассисларнинг касбий комптентлигини ривожлантириш технологияси мақсадлар, ўқув материалининг мазмуни, мақсади ва уни ўзлаштириш бўйича ҳаракатлар, фаолиятнинг башорат қилинган натижалари, ўқитишнинг ҳар бир босқичи учун меъёрий ва диагностика талабларини ўз ичига олади. Касбий компетентлик таълим технологиялари, унинг талаблари ва тамойиллари ҳақида сўз юритилади.
РЕЗЮМЕ:
Технология развития профессиональной компетентности будущих специалистов на основе андрагогического подхода включает в себя цели, содержание учебного материала, задачи и действия по его освоению, прогнозируемые результаты деятельности, нормативно-диагностические требования для каждого этапа обучения. В статье рассматриваются технологии формирования профессиональной компетентности, их требования и принципы.
SUMMARY:
The technology for developing the professional competence of future specialists based on the andragogical approach includes goals, educational content, tasks and actions for mastering it, projected performance results, and regulatory and diagnostic requirements for each stage of training. This article examines technologies for developing professional competence, their requirements, and principles.

Олий таълим жараёнида бўлажак мутахассисиларнинг касбий компетентлигини ривожлантириш, меҳнат бозорига рақобатбардош, ўз касбини равон ва турдош фаолият соҳаларига йўналтирилган, жаҳон даражасидаги стандартлар билан самарали ишлашга қодир, ўз устида ва узлуксиз

профессионал ўсишга, ижтимоий фаол ҳаракатчанликка тайёр малакали мутахассисни тайёрлаш бош мақсад ҳисобланади. Бу борада “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030-йилгача ривожлантириш концепсияси” тўғрисидаги Фармонида таълим жараёнига замонавий усуллар, рақамли технологияларга асосланган замонавий таълим технологияларини жорий этишга алоҳида этибор қаратилганлиги [..], хусусан таълимда компетенцияга асосланган ёндашувнинг ривожланиши ва педагогика фанида андрагогика йўналишига алоҳида илмий муносабатларнинг шаклана бошлаганини келтириш мумкин.Талабаларнинг касбий компетентлигини ривожлантириш учун фақат ўқитишнинг техник воситаларидан фойдаланиш эмас, балки таълим самарадорлигини оширадиган омилларни таҳлил қилиш, қўлланиладиган усулларни баҳолаш орқали ўқув жараёнини оптималлаштириш тамойилларини аниқлаш керак бўлади.

Илмий тадқиқотларда андрагогикани турлича, таълим ҳақидаги фан тизимидаги йўналиш, ўқув фани, катталарни ўқитиш ҳақидаги фан сифатида қаралиши кузатилган. Масалан, Б.М.Бим - Бад ва С.Н.Гавровнинг илмий ишларида, юқоридагиларга қўшимча сифатида ғарб давлатларининг тарихий педагогик фикрлари билан тўлдиради [..]. Бу каби фикрларининг тарқоқлиги, андрагогикани келгусида ўрганишга асос бўла олади.

Бу атама педагогик воқеъликдан вужудга келган бўлиб, унда сўз катта ёшдаги одамни таълим орқали бошқариш, етаклаш тўғрисида боради. Айнан катталарга таълим берувчи педагог андрагог ҳисобланади . Тадқиқотчи А.А.Зокиров катталар таълими ўзига хос хусусиятлари, мактаб ва касб-ҳунар таълимидан фарқ қилиши, унинг объекти бўлган катта ёшли инсон бутун умри давомида таълим олиш ҳақида [..], Ў.М.Асқарова, М.А.Абдуллаева, М.Болтаевалар эса андрагогика - катталар ҳаётини ривожлантирувчи, ижтимоий муҳитга мослаштирувчи ва таълим билан бойитувчи фан эканлиги [..], Б.Р.Саматова катталарни ўқитиш, ўргатиш соҳаси ҳисобланган андрагогика катталарга таълим берувчи санъат ва фан ҳисобланиши [..] тўғрисида фикр юритишган.

Андрагогик ёндашув асосида бўлажак мутахассисларнинг касбий комптентлигини ривожлантириш технологиясини ишлаб чиқишда уни мақсадлар, ўқув материалининг мазмуни, ўқув материалининг мақсади ва уни ўзлаштириш бўйича ҳаракатлар, фаолиятнинг башорат қилинган натижалари, ўқитишнинг ҳар бир босқичи учун меъёрий ва диагностика талаблари, умуман олганда, ахборот-коммуникация компетенциясига қўйиладиган талабларни ўз ичига олган ўзаро кетма-кет боғлиқ босқичлар тақдим этилади.

Бу технология ўзига хос талабларга жавоб беради. Булар қаторига: мавжуд ташкилий ва вақт режимида билим қобилиятини, мотивацион соҳасини ва талабаларнинг шахсий имтиёзларини ҳисобга олиш, таълим жараёнида таълим тамойилларини амалга ошириш (мотивация, фаолият мақсадини актуаллаштириш ва уни режалаштириш, фаолиятни ўзлаштириш даражасини баҳолаш, фаоллик, когнитив мустақиллик) ҳамда талабани мустақил шакллантиришга ундашга эътибор қаратишда педагогика тамойиллари ва қонуниятларига зид келмаслик кабилар киради.

Бир қатор муаллифлар технологиянинг такрорланиш, муайян педагогик муҳитда белгиланган педагогик мақсадларга эришиш, ўз-ўзини ташкил этиш ва ўз-ўзини тартибга солиш механизмларига асосланган педагогик тузилмаларнинг чизиқли бўлмаганлиги тамойили ҳамда ўқув жараёнини тингловчининг шахсияти ва унинг когнитив қобилиятларига мослаштириш тамойили каби қўшимча тамойилларни ажратиб кўрсатишади [..].

Етакчи дидактик тамойилларга асосланган умумий ўқитиш технологияларига, шу жумладан барча умумий дидактик методларни, шунингдек, илмий ёндашувга, аниқ педагогик мақсад диагностикасига, ходимларнинг билим фаолиятини тадқиқ этиш ва лойиҳалашга асосланган методларни ўз ичига олади, жумладан: ўқитишнинг жамоавий методлари, талабаларга йўналтирилган таълим технологиялари; голограмма ёндашув билан ҳаётийликни машқ қилиш; муаммоли таълим; интеграциялашган ва модулли таълим технологиялари.

Андрагогик ёндашув асосида бўлажак мутахассисларнинг касбий компетентлигини ривожлантиришнинг ҳозирги босқичида педагогик технологияларни излаш ва жорий этиш фаол амалга оширилмоқда: инновацион ўқитиш, модулли ўқитиш, лойиҳа асосидаги ўқитиш, масофавий таълим ва бошқалар. Айнан мана шу технологиялардан андрагогик ёндашув асосида бўлажак мутахассисларнинг касбий компетентлигини ривожлантириш жараёнида фойдаланиш мумкин.

Айнан ўқитиш шакллари ва усуллари нимани ўргатиш ва қандай ўргатиш керак, деган саволларга жавоб беришга ёрдам беради. Ҳозирги вақтда малака ошириш тизимида бўлажак мутахассисларни ўқитишнинг тушунтириш ва кўргазмали методлари анъанавий тарзда устунлик қилмоқда. Пассив методлар тингловчиларнинг ақлий фаолиятини қисқа вақт ичида қайта қуришга имкон бермайди, воқеликка янги муносабатни ривожлантиришга ёки аниқ қарорларни мустақил равишда қабул қилишга ёрдам бермайди.

Илмий адабиётларда педагогик технологияларнинг пайдо бўлиши ва амалиётда қўлланилишининг учта рағбатлантирувчи сабаби аниқланган: педагогик тизимга фаолиятли ёндашувни жорий этиш зарурати; ўқув-билиш фаолиятини рағбатлантириш ва фаоллаштириш зарурати; кафолатланган таълим натижаларини таъминлайдиган ва малакасиз ўқитувчи ишининг салбий оқибатларини камайтирадиган процедуралар, усуллар, талабалар ва ўқитувчилар ўртасидаги ўзаро муносабатларнинг ташкилий шаклларининг технологик занжирини эксперт лойиҳалаш имконияти [..].

Педагогик технологияларнинг муҳим хусусиятлари учта асосий ахборот, инструментал ва ижтимоий компонентнинг комбинациясидан иборат. Ахборот компоненти - педагогик фаолиятнинг табиати ва мазмунини, унинг шахсни шакллантиришнинг мақсад ва вазифаларини белгилайдиган мафкура, тушунчалар, тамойилларга асосланиб, ўқитувчининг эҳтиёжлари, ижтимоий ривожланиш тенденциялари ва асосий билимлари ҳақидаги илмий билимларида ифодаланади. Таълим технологияси ишончли илмий асосга асосланган бўлиши ва ўқув материаллари тўплами шаклида зарур ўқув-услубий жиҳозларга эга бўлиши керак.

Ўқув жараёнини мотивацион қўллаб-қувватлаш тингловчиларнинг фанни ўзлаштириш имкониятига ишончини ривожлантириш ва фаннинг аҳамиятини тушунишни мустаҳкамлашдан иборат. Мотивларнинг шаклланиши - бу жараён бўлиб, унинг натижасида маълум бир фаолият шахс учун шахсий маънога эга бўлади, унга қизиқиш барқарорлигини яратади ва фаолиятнинг ташқаридан белгиланган мақсадларини шахснинг ички эҳтиёжларига айлантиради. Шу муносабат билан ҳар қандай стандарт технология: ўқув мақсадларини амалга оширишни таъминлаши керак; ҳар қандай ўқитувчи учун ҳар қандай таълим муассасасида амалга ошириш мумкин бўлиши; намунавий ўқув жиҳозлари ва ўқув материаллари билан таъминланиши керак.

Инструментал компонент инсоният томонидан таълим, маданият, ишлаб чиқариш ва ижтимоий муносабатлар соҳасида тўпланган илмий билимлар, кўникмалар ва тажриба асосларининг хилма-хиллигига асосланган воситалар ва усулларни белгилайди. Инструментал компонент ўқув-билиш фаолиятига асосланади, чунки инсоният томонидан тўпланган маданият бойликларини ўзлаштириш учун ташқаридан ёки тингловчининг ўзи томонидан махсус ташкил этилган билиш фаолияти амалга оширилади. Унинг мазмунли натижаси тингловчининг ўзлаштирган илмий билимлари, қобилиятлари, малакалари, хулқ-атвор шакллари ва фа-

олият турларидир.Бу билимларни ўзлаштириш натижасида тингловчида дунёқараш шаклланади.

Инструментал компонент раҳбарнинг дидактик ижодкорлиги билан узвий боғлиқ бўлиб, у ўқув материалини танлаш ва тузишнинг турли усулларини, уни тингловчилар томонидан ўзлаштириш усулларини ишлаб чиқишда унинг таълим соҳасидаги фаолиятини белгилайди. Педагогик жараён технологиясининг моҳияти шундан иборатки, раҳбар операцияларни бошқаришдан ҳаракатларни бошқаришга, сўнгра ходимлар фаолиятини бошқаришга ўтади.

Ижтимоий компонент - бу ўқитувчининг тингловчиларга билим, кўникма ва малакаларни сингдириш, ўз касбий стратегиясини яратиш қобилиятидир. Баркамол педагогик жараён фақат олдиндан ишлаб чиқилган педагогик технологиянинг аниқ такрорланиши сифатида мумкинлигини ҳисобга олган ҳолда, яъни аниқ белгиланган педагогик вазифалар уларни ҳал қилишнинг адекват технологиясини ўз ичига олади.

Ижтимоий компонентнинг (ўқитувчи, талаба) муҳим таркибий қисми раҳбар фаолиятининг идеал моделини яратиш ва унинг натижаларини прогноз қилиш учун педагогик лойиҳадир.

Педагогик лойиҳа ўзининг асосий тамойилларига эга бўлиб, улар инсоннинг устуворликлари тамойилини ва ўз-ўзини ривожлантириш тамойилини ўз ичига олади. Педагогик лойиҳалаш бир-бирига боғлиқ бўлган учта босқичнинг кетма-кет ўтишини ўз ичига олади. Биринчи босқич моделни (педагогик моделлаштириш) яратишдан иборат бўлиб, унда педагогик технология, жараёнлар, вазиятлар ва педагогик мақсадга эришишнинг асосий усулларини яратишнинг умумий ғояси ишлаб чиқилади. Ушбу босқичда ўқув режаси ва ўқув дастурларида кўзда тутилган таълим мазмунини танлаш, устувор мақсадларни танлаш зарур.

Иккинчи босқичда педагогик лойиҳа яратилади, бу яратилган моделни амалий фойдаланиш даражасига олиб чиқиш имконини беради. Ушбу босқичда мақсадлар тўпламига ёки битта устувор мақсадга йўналтирилган технологияни танлаш ва таълим технологиясини ишлаб чиқиш содир бўлади.

Лойиҳани яратиш педагогик лойиҳалашнинг учинчи босқичи бўлиб, яратилган лойиҳани ўқув-билиш фаолиятининг реал шароитларига яқинлаштиришга имкон беради. Педагогик жараённи лойиҳалаш таҳлил, диагностика, прогнозни аниқлаш ва фаолият лойиҳасини ишлаб чиқишни ўз ичига олади. Педагогик жараённи лойиҳалаш технологияси лойиҳалаш мазмуни (конструктив-мазмун фаолияти), моддий воситалар (конструк-

тив-материал) ва фаолият (конструктив-оператив) бирлигини ўз ичига олади.

Андрагогик ёндашув асосида бўлажак мутахассисларнинг касбий компетентлигини ривожлантиришга ҳисса қўшадиган янги қуйи тизимлар, педагогик жараёнлар ва ўқув-педагогик вазиятларни излаш ва яратишда раҳбарнинг технологик ижодкорлиги таълим технологияси ва лойиҳаси соҳасидаги фаолият сифатида белгиланади. Ўқув жараёнини ўтказиш методлари ва воситалари ҳақидаги билимлар тўпламини "таълим жараёни технологияси" деб аташ мумкин.

Педагогик тафаккур тараққиётининг ҳозирги босқичида андрагогик ёндашув асосида бўлажак мутахассисларнинг касбий компетентлигини ривожлантиришнинг асосий усули, биргаликдаги тадқиқот жараёнини кўзда тутувчи субъект-субъект муносабатларидир. Мулоқот маълум бир муаммода ифодаланган диагностик мақсад баёнотидан қурилади. Раҳбарларнинг мотивацион, қадриятли ва бошқа сифатларидаги чуқур фарқларни ҳисобга олган ҳолда, муаммони ҳал қилиш принципиал жиҳатдан янги таълим технологияларини ишлаб чиқишни тақозо этади. Ўз навбатида, қобилият муаммоси индивидуаллик муаммосининг ўзаги ҳисобланади. Қобилиятлар муаммосининг иккита асосий жиҳати бор: ирсият муносабатлари ва атроф-муҳитнинг таъсири; қобилиятларни сифат ва миқдор жиҳатдан ифодалаш.

Кўпгина психологлар умумий қобилиятларни таълим муваффақиятининг асосий сабаби деб билишади. Андрогогик таълим учун таълим технологияларини ишлаб чиқишда ана шуларни ҳисобга олиш керак. Таълимни индивидуаллаштиришнинг қуйидаги асосий турлари мавжуд:

- мослашиш-меъёрий;
- қобилиятларнинг устуворлиги;
- мукаммал индивидуаллаштириш;
- типологик индивидуаллаштириш.

Андрагогик ёндашув асосида бўлажак мутахассисларнинг касбий компетентлигини ривожлантириш технологиясини ишлаб чиқиш жараёнида: дастур материалини тақсимлашнинг оптимал вариантини аниқлаш; педагогик технологиянинг асосий элементлари муносабатининг структуравий-мантиқий диаграммасини ишлаб чиқиш ва технологик моделни амалга ошириш учун педагогик кадрларни тайёрлаш каби вазифалар ҳал қилинади.

Технология педагогикани аниқ фанларга яқинлаштиради, педагогик амалиётни, жумладан, ўқитувчининг ижодий фаолиятини тўлиқ ташкил

этилган, бошқариладиган жараёнга айлантириб, ижобий натижаларни башорат қилиш мумкин, деган қатъий фикр мавжуд. Бу, В.П.Беспалько таъкидлаганидек, бу масала бўйича педагогик тадқиқотларнинг аҳамиятининг чуқур маъносидир [..].

Бу, биринчи навбатда, қуйидагилар билан изоҳланади:

- биринчидан, педагогик технология орқали тингловчилар амалий ўқитишда педагогик экспериментни минималлаштиришга интилади ва иккинчисини ўқув жараёнини дастлабки лойиҳалаш ва кейинчалик такрорлаш йўлига олади;

- иккинчидан, ўқитувчи учун мўлжалланган илгари қўлланилган услубий дарс ишланмаларидан фарқли ўлароқ педагогик технология тингловчининг ўзи ўқув-билиш фаолиятининг тузилиши ва мазмунини белгилайдиган ўқув жараёни лойиҳасини назарда тутади;

- учинчидан, педагогик технологиянинг муҳим хусусияти мақсадни шакллантириш жараёнидир. Агар анъанавий педагогикада мақсадлар муаммоси жуда ноаниқ қўйилган бўлса, уларга эришиш даражаси жуда тахминий бўлса, педагогик технологияда бу асосий муаммо бўлиб, иккита жиҳат нуқтаи назаридан кўриб чиқилади: диагностик мақсадни белгилаш ва мақсадни аниқлаш сифатини объектив назорат қилиш;

- тўртинчидан, педагогик технология предмети маълум педагогик тизим лойиҳаси сифатидаги ғоя туфайли педагогик технологияни ишлаб чиқиш ва уни амалиётга татбиқ этишнинг муҳим тамойили - яхлитлик, таркибий ва мазмунлилик тамойили шакллантирилади. Бу тамойил шуни англатадики, ҳар қандай турдаги таълимнинг келажакдаги педагогик тизими лойиҳасини ишлаб чиқишда педагогик тизимнинг барча элементларининг горизонтал (бир ўқиш даврида) ва вертикал равишда - бутун давр учун уйғун ўзаро таъсирига эришиш керак.

Шу билан бирга, педагогик тизимнинг элементларидан бирига тегишли қайта қуриш орқали бошқаларга таъсир қилмасдан ўзгартиришлар киритиш мумкин эмас. Масалан, таълим мақсадининг ўзгариши унинг мазмуни ва ўқув жараёнларини ўзгаришсиз қолдиради. Бундай деформацияланган педагогик тизимлар, тарих шуни кўрсатадики, фақат ўқув режалари ва дастурларини чексиз қайта тузиш билан тугайди.

Андрагогик ёндашув асосида бўлажак мутахассисларнинг касбий компетентлигини ривожлантириш ривожлантириш бўйича таклиф этилаётган технологияни дидактик ва услубий таъминлаш таълим тизимининг бошқарув ходимлари учун малака ошириш дастурлари вариантларини таҳлил қилиш орқали амалга оширилади.

Анъанавий педагогиканинг турли методларини таҳлил қилиб, уларнинг шубҳасиз ютуқларини ҳисобга олган ҳолда шуни тан олиш керакки, айнан анъанавий педагогикада фикрлаш ва ҳаракат мустақиллиги сифатлари етарлича самарали шаклланмаган. Бу фазилатлар, шубҳасиз, шахснинг шахсий хусусиятлари ва мутахассиснинг касбий фазилатлари кесишмасида ётади. Вақт мутахассисларнинг амалий касбий фаолиятга тайёргарлик даражасини ошириш йўлларини излаш зарурлигини тақозо этади. Андрагогик ёндашув асосида бўлажак мутахассисларнинг касбий компетентлигини ривожлантириш технологияси бир томондан, малака ошириш жараёнида касбий фаолиятини моделлаштиришга ва иккинчи томондан, ўқитишни индивидуаллаштиришга асосланади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. - М.: Педагоги¬ка, 1989,- 192 с.

2. Bim-Bad B.M., Sokolova L.I., Zmeyov S.I. Russia.- In: Perspectives on Adult Education and Training in. "Экономика и социум". №4(95) 2022. www.iupr.ru. Europe.- Leicester, NIACE, 1992

3. Зарипов К. Педагогик тизимни бошқариш қонуниятлари ва рахбарлик. // «Uzluksiz ta'lim» журнали, Т., 2004, 4-сон. -16-24-б.

4. Искандаров Э. Педагогик инновациялар шароитида раҳбар фаолиятининг ўрни. // «Таълим менежменти» журнали, Т., 2006, 6-сон. -39-44-б.

5. Педагогические технологии: что такое и как их использовать в школе / Под научной ред. Шамовой Т.И - М.: МГПУ, 1994. -279 с.

6. Педагогика и психология высшей школы: Учебное пособие. - Ростов на Дону: «Феникс», 2002. - С. 150-277.

O‘QUV AMALIYOTI JARAYONIDA O‘QUVCHILARNING IJODIY FAOLIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

To‘xtasheva N.Q.
Andijon viloyati pedagogik mahorat markazi amaliy fanlar kafedrasi (PhD) v.v.b.dots o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: ijodiy, qobiliyat, creativitv, kompetentligini, innovasion, individual-ijodiy, psixologik, TRIZ, Badiy ijodiy faoliyat.
Ключевые слова: творческая, способностная, креативитв, компетентностная, инновационная, индивидуально-творческая, психологическая, ТРИЗ, художественно-творческая деятельность.
Key words: creative, aptitude, creativity, competence, innovation, individual creativity, psychological, TRIZ, artistic and creative activity.

РЕЗЮМЕ:
Maqolada umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilar nazariy tayyorgarligini amaliy faoliyat bilan bog‘lashni ta’minovchi o‘quv amaliyoti ta’lim-tarbiya jarayonining asosiy qismi sifatida o‘quvchilarni kelajak kasbiga muvaffaqiyatli tayyorlash vositalaridan biridir. U ta’lim-tarbiya tamoyillari va qonuniyatlarini tushunib yetish, kasbiy ko‘nikma va malakalarni egallash, amaliy ish tajribalarini to‘liq anglab yetish imkoniyatini beradi. O‘quv amaliyoti rahbarlari oldida uni zamonaviy tashkil etish, o‘quvchilarning kasbiy mahorat sirlarini o‘rganishlarida uning ahamiyatini oshirish, tashkilotchilik va tarbiyaviy ishlar asoslarini o‘rgatish kabi vazifalar turadi. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun ahamiyatli innovasion jarayonlarning barchasi zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni o‘zlashtirgan, ijodkorlik yaratish haqida so‘z yuritiladi.
РЕЗЮМЕ:
В статье показано, что учебная практика в общеобразовательных учреждениях, обеспечивающая увязку теоретической подготовки учащихся с практической деятельностью, является одним из средств успешной подготовки учащихся к будущей профессии как основной части учебно-воспитательного процесса. Она дает возможность постичь принципы и законы воспитания, приобрести профессиональные навыки и компетенции, в полной мере реализовать практический опыт работы. Перед руководителями учебной практики стоят такие задачи, как современная ее организация, повышение ее значимости в изучении учащимися секретов профессионального мастерства, обучение основам организационно-воспитательной работы. Все значимые инновационные процессы для общеобразовательных учреждений, освоивших современные педагогические и информационные технологии, говорят о создании творчества.
SUMMARY:
The article shows that educational practice in general education institutions, which links the theoretical training of students with practical activities, is one of the means of successfully preparing students

for the future profession as the main part of the educational process. It provides an opportunity to understand the principles and laws of education, acquire professional skills and competencies, and fully realize practical work experience. The heads of the educational practice face such tasks as its modern organization, increasing its importance in students learning the secrets of professional skills, and teaching the basics of organizational and educational work. All significant innovation processes for educational institutions that have mastered modern pedagogical and information technologies speak about the creation of creativity.

Bugungi kunda ta’lim muassasalarida bo‘lajak mutaxassislar ijodiy rivojlanishining muhim omillaridan biri ularning ijodiy faoliyatlarini shakllantirish uchun o‘quv amaliyotlari jarayonida qulay shart-sharoit yaratishdir. Shu vaqtga qadar olib borilgan pedagogik tadqiqotlarni tahlil qilish asosida O’quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun oltita asosiy shartni aniqlash mumkin. Har qanday yoshda insonning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning birinchi muhim sharti ijodiy faoliyatdan foydalanish uchun qulay muhit yaratishdir. O‘qituvchi va o‘quvchi munosabatlarining eng xilma-xil ijodiy faoliyatini rag‘batlantiradigan shunday muhit va shunday tizimini yaratish kerak.

“Ijodiy qobiliyatlarni samarali rivojlantirishning ikkinchi, o‘ta muhim sharti maksimal kuch talab qiladigan ijodiy jarayonning mohiyatidan kelib chiqadi. Gap shundaki, inson o‘z faoliyatida qanchalik tez-tez o‘z imkoniyatlarining yuqori cho‘qqisiga erishsa va bu cho‘qqi asta-sekin yuqoriga ko‘tarilib borsa, uning ijodiy qobiliyatlari shunchalik muvaffaqiyatli rivojlanadi” [88].

Ijodiy qobiliyatlarni muvaffaqiyatli rivojlantirishning uchinchi sharti bo‘lajak mutaxassisga faoliyatni tanlashda, vazifalarni almashtirishda, biror faoliyatning davomiyligida, usullarni tanlashda va boshqalarda katta erkinlik berishdir. Shunda o‘quvchining xohishi, qiziqishi va hissiy yuksalishi kuchli ruhiy zo‘riqish ortiqcha ishlarga olib kelmasligi va foydali bo‘lishining ishonchli kafolati bo‘lib xizmat qiladi. Ma’lumki, “ijodkorlik uchun qulay psixologik muhit va bo‘sh vaqt kerak bo‘ladi, shuning uchun ijodiy qobiliyatlarni muvaffaqiyatli rivojlantirishning beshinchi sharti - jamoada iliq, do‘stona muhit hisoblanadi. O‘qituvchilari o‘quvchilar o‘zlarining ijodiy kashfiyot yaratishlari uchun xavfsiz psixologik asos yaratishlari kerak. O‘quvchilarni doimiy ravishda ijodkorlikka undash, ijodiy g‘oyalarni amalga oshirish uchun tegishli shart-sharoit va qulay muhit yaratish, hayotda g‘ayrioddiy bo‘lgan g‘oyalarga ham sabr-toqat bilan munosabatda bo‘lish muhim ahamiyatga ega” [74].

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, hamma o‘quvchilar ham ijodkorlikka yo‘l ocha olmaydilar va uzoq vaqt davomida ijodiy faoliyatni saqlab qololmaydilar. O‘quv amaliyot shuni ko‘rsatadiki, agar tegishli ta’lim metodlari tanlansa, bu bo‘lajak

pedagoglarning ijodiy qobiliyatlarini yanada yuqori darajada rivojlantirishga yordam beradi - bu ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning oltinchi shartidir.

O‘quvchilarining ijodiy faoliyatlarini rivojlantirish maqsadli jarayonni ifodalasagina samarali bo‘ladi, deb hisoblaymiz, bu jarayonda bir qator xususiy pedagogik vazifalar hal etilib, yakuniy maqsadga erishishga qaratilgan.

Ko‘plab tadqiqotchilar pedagogika kolleji o‘quvchilarining ijodiy faoliyatlarini rivojlantirishga ham katta ahamiyat berishadi.

“Ijod (kreativlik, inglizcha creativitv – yaratuvchanlik)-bu taa’rifni murakkab bo‘lgan so‘z. Agar inson qandaydir bir g‘ayrioddiy va shu bilan bir vaqtda ahamiyatli va foydali narsa yaratgan bo‘lsa,biz uni ijod deymiz. Shunday qilib ijod jarayon sifatida emas, balki uning oqibati orqali aniqlanadi. Ijod dastlab inson tasavvurida vujudga keladi, so‘ngra unga oid muammolar bo‘yicha izlanishlar olib boriladi” [36].

“O‘quvchilarda kreativlik kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (Pedagogika kolleji misolida) N.K.Yusupova tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda o‘z aksini topgan. Olim o‘z tadqiqotlarida o‘quvchilarga tadqiqotchilik, ixtirochilik, rasionalizatorlik qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan interfaol-metodik loyiha, kreativ usullar va “TRIZ” texnologiyasidan majmuaviy foydalanish asosida “Badiy ijodiy faoliyat”, “MTT da ijodiy rivojlanish” modullarini tashkiliy didaktik ta’minoti takomillashtirilgan” [89].

N.N.Alimov olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarida esa “Kasb-hunar kollejlari o‘quvchilarini taxnik ijodkorlik faoliyatiga tayyorlash metodikasi texnik ijodkorlikni faoliyatiga samarali tayyorlashga imkon beruvchi pedagogik shart sharoitlar asoslangan” [27];

M.B.Urazova tomonidan “pedagogning kasbiy kompetentligini tuzilmasida loyihalashtirish faoliyatini yangi bilimni loyiha ko‘rinishida individual mahsullashga yo‘naltiradigon original fikrlash salohiyati rivojlanganligi ochib beradigon refleksiiiya va pedagogning mustaqilligini tavsiflovchi ijodiy darajalari aniqlangan hamda pedagogik fanlar ta’limida innovasiion texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha muammoli-modulli va maqsadli yondashuvlar samaradorligini aniqlashga qaratilgan noana’anaviy shakl-mashg‘ulot-konsiiyept ishlab chiqilgan” [75].

O.A.Qo‘ysinov o‘z tadqiqot ishida “kasbiy-ta’lim sifatini aynan bo‘lajak o‘qituvchining kompetentliligini shakllantirish hamda kasbiy pedagogik ijodkorligini rivojlantirish orqali ta’minlash mumkin degan fikrni bildiradi va ta’lim jarayonini amalga oshirish texnologiyalarini ishlab chiqish kasbiy ta’limni modernizasiiya qilishning eng muhim vazifalardan biri hisoblaydi” [108].

Ijodkorlik tushunchasi bo‘yicha turli taa’riflar mavjud. V.G.Razumovskiy esa ijodkorlikni quyidagicha taa’riflaydi: “ijodkorli- bu insonning borliq bilishga yo‘naltirilgan ongli, maqsadli faoliyat bo‘lib, uning natijasida yangi, unga o‘xshamagan ,ilgari mavjud bo‘lmagan, jamiyatning moddiy va maa’naviy hayotini yahshilashga qaratilgan qaratilgan buyumlar, asarlar va boshqa shu kabilar yaratiladi” [81].

N.Gardner ijodga bergan taa’rifida yana bir shartni qo‘shgan “U ijodiy inson albatta uzluksiz ravishda ijodiy ijodiy masalalarni hal qilish,va ijod mahsulotlarini yaratish shart deb hisoblaydi” [39].

V.A.Slasteninning “o‘qituvchining innovasion faoliyatiga individual-ijodiy yondashuvi o‘qituvchining o‘zini ijodiy shaxs sifatida anglashini, takomillashtirish va moslashtirishni talab qiladigan kasbiy va shaxsiy fazilatlarini aniqlashni nazarda tutadi. O‘z-o‘zini takomillashtirish zarurati - novator o‘qituvchining asosiy sifatidir. Shuning uchun professional ta’lim muassasasida kasbiy tayyorgarlik tizimi o‘z-o‘zini tarbiyalash va ijodkorlik qobiliyatiga ega bo‘lajak innovasion o‘qituvchini shakllantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. O‘quv amaliyot esa kasbiy tayyorgarlikning bir qismi sifatida uning imkoniyatlarini ochib berishi kerak” [54].

“O‘quvchilarining kasbiy tayyorgarligi faqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirish va o‘quvchilar bilan ishlashda amaliy ko‘nikmalarni egallash bilan cheklanib qolishi mumkin emas. Shuningdek, u o‘quvchilarda o‘qituvchi shaxsining ishonch, ta’lim muassasasida mehnatga pedagogik e’tibor, qiziqishlar, ijodiy pedagogik faoliyat qobiliyati kabi muhim kasbiy fazilatlarini shakllantirishni nazarda tutadi” [73].

Bu yerda o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun o‘qituvchilarining o‘zlari doimiy ravishda dunyoqarashini kengaytirib, bilimini oshirib borishlari zarur, degan xulosaga kelindi. O‘qituvchi, birinchi navbatda o‘zi ijodkor shaxs bo‘lishi, ijodiy fikrlay olishi, darsda ijodiy muhit yaratishi, professional ta’lim muassasasida ta’lim-tarbiya jarayonini ijodiy tashkil etishi kerak.

O‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida ijodiy muhit va ijodiy hamkorlikni yaratish 1.1-rasmda ko‘rsatilgan:

Rasmda biz o‘qituvchining ijodkorligi ko‘p jihatdan uning o‘z-o‘zini tarbiyalashi va bilimini oshirishga bog‘liqligini ko‘ramiz. Ta’limning yangi vositalari va metordlarini izlash, darsni tashkil etishga ijodiy yondashish o‘quvchilarning ijodiy yutuqlarga bo‘lgan motivatsiyasini rivojlantiradi. Ijodiy muhitda faol ishtirok etib, o‘quvchi ijodiy faoliyatni o‘rganadi, bu uning kasbiy tayyorgarligini ta’minlaydi. O‘zaro ijodiy ta’sir jarayonida o‘quvchilarning

mustaqilligi va faolligi rivojlanadi, ular o‘quv jarayoni muammolarini xavfsiz hal qila oladilar va pedagogik jarayonni to‘g‘ri tashkil qiladilar. Ijodiy muhitni yaratish natijasida ijod mahsuli yaratiladi.

Shu munosabat bilan bizning tadqiqotimiz muammosi pedagogika kolleji o‘quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish imkonini beradigan o‘quv amaliyotini tashkil etishning pedagogik shartlari tizimini ilmiy asoslashdir.

1.1-rasm. O‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida ijodiy muhit va ijodiy hamkorlikni yaratish.

Ushbu muammo quyidagi tadqiqot vazifalarini shakllantirish va hal qilishga olib keldi:

1. O‘quvchilarining kasbiy, ijodiy tayyorgarligi mohiyatini o‘rganish.

2. O‘quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantiruvchi tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar tizimini ishlab chiqish.

Bu shartlar quyidagicha bo‘lishi mumkin:

- musiqiy ta’lim pedagoglarining kasbiy tayyorgarligi jarayonida ilmiy-tadqiqot ishlarini oshirish;

- kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun motivasion-qadriyat yo‘nalishini shakllantirish;

- o‘qishning barcha yillari davomida tobora murakkablashib borayotgan ta’lim va kasbiy vazifalar tizimini hal qilish.

O‘quv amaliyot dasturlari mazmunini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, har bir amaliyot turida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishni belgilaydigan uzluksiz mazmun mavjud: musiqiy ta’lim pedagoglari faoliyatining turli tomonlarini kuzatish va maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilari bilan ta’lim-tarbiya ishlarini mustaqil ravishda amalga oshirish istagi, bolalar bilan muloqotni tashkil etish va darslarni rejalashtirishga ijodiy yondashish, kursdoshlarning darslarini tahlil qilishda ishtirok etish hamda o‘z xulosa va takliflarini berish.

O‘quv amaliyot vazifalarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, ular o‘quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonining bosqichma-bosqich murakkablashuvini aks ettiradi.

Xulosamiz shundan iboratki belgilangan vazifalar asosida quyidagi qonuniyatlar aniqlandi: o‘qishning dastlabki bosqichida asosiy e’tibor shaxsni o‘rganishga, o‘qituvchi faoliyatining turli tomonlarini kuzatishga qaratiladi, ikkinchidan - o‘quvchilarga ta’sir etishning pedagogik usullarini tanlash, uchinchi bosqichda guruh va sinfni boshqarish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish, jamoaviy ta’limni o‘rganish usullarini o‘zlashtirish, shaxslararo munosabatlar, shaxsga ta’sir qilishga ustuvorlik beriladi, to‘rtinchi bosqichda bolalar bilan ommaviy ishlarni tashkil etish ko‘nikmalarini shakllantirishga alohida e’tibor beriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O’zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrida qabul qilingan “Ta’lim to’g’risida”gi O’RQ-637-sonli Qonuni https://lex.uz/docs/5013007.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktyabrdagi “Kasbiy ta’limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta’lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-158-sonli Farmoni https://lex.uz/docs/7166588.

3. Abdulin E.B. Teoriya muzыkalnogo obrazovaniya. – M.: Akademiya, 2004. –467s.

4. Abdullayeva M.A. Oilada maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda estetik tasavvurlarni shakllantirish. Ped. fan. nom. …dis.– T.: “Oila”ilmiy-amaliy markazi, 2009.-160 b.

5. Abdullayeva Sh.Sh. Pedagogicheskiye texnologii razvitiya poznavatelnыx tvorcheskix sposobnostey uchaщixsya mladshix klassov: Dis.… kan. ped. nauk.– T.,2005.-121s.

6. Aguarbekkezi A. Professionalno-pedagogicheskaya napravlennost instrumentalnoy podgotovki budущego uchitelya k rabote s muzыkalnыm materialom. Avtoreferat.–T.: 2001.48 - b.

7. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologyalar va pedagogik mahorat.− T.: Moliya. -2003. 192 b.

8. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologyalar va pedagogik mahorat.− T.: Moliya. -2003. 192 b.

TA’LIM-TARBIYA JARAYONIDA O‘QUVCHI SHAXSINI IJODIY SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHDAGI PEDAGOGIK HUSUSIYATLARI

To‘xtasheva N.Q.
Andijon viloyati pedagogik mahorat markazi amaliy fanlar kafedrasi (PhD) v.v.b.dots o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi, ijodkorlik, ilmostrativ, reproduktiv, individual-psixologik.
Ключевые слова: Стратегия развития Узбекистана, креативность, иллюстративность, репродуктивность, индивидуально-психология.
Key words: the development strategy of Uzbekistan, creative, illustrative, reproductive, individual and psychological

РЕЗЮМЕ:
Maktabgacha va markat ta’limi tizimida maqsadi ham ichki kuch va imkoniyatlarini uyg‘otish, shaxsning erkin ijodiy rivojlanishi uchun ulardan to‘g‘ri, unumli foydalanish orqali o‘quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashdan iboratdir.
РЕЗЮМЕ:
В системе дошкольного и марксистского образования цель как пробуждения внутренних сил и возможностей, так и подготовки воспитанников к профессиональной деятельности путем их правильного, продуктивного использования для свободного творческого развития личности.
SUMMARY:
The purpose of preschool and markat education in the system is also to arouse internal strength and capabilities, to prepare students for professional activities through the correct, productive use of them for the free creative development of the individual.

Dunyoning rivojlangan davlatlarida o‘quvchi yoshlarni kasbiy jihatdan izchil tayyorlash, ularni mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxasis bo‘lishlari uchun o‘z faoliyatlariga ijodiy yondashishga o‘rgatish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Janubiy Koreya, Fransiya, Yaponiya, Germaniya kabi taraqqiy etgan davlatlar tajribasida pedagogika kolleji o‘quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish bilan bir qatorda, tafakkur erkinligi, ijodiy rivojlantirishga ham jiddiy yondashadilar. Fransiyada Frene va Vulsonlarning metodikalari, Amerikaning Inernational Preschool Curriculum dasturlarida

o‘quvchilarni har tomonlama shakllanishida muhim ahamiyat kasb etuvchi ijodiy rivojlantirishga xizmat qiladigan innovatsion usullar ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan, o‘quvchilarni professional ta’limda sifatli o‘qitishda bu kabi jahon miqyosidagi ilg‘or tajribalarni ommalashtirish zarurati vujudga kelmoqda.

Jahonda o‘quvchilarni ijodiy rivojlantirishda ularning yoshiga xos bo‘lgan psixologik va pedagogik xususiyatlarning nazariy-metodologik jihatlarini tadqiq qilish, kasb tanlash yoshidagi o‘quvchilarni ijodiy faoliyatini rivojlantirishda professional ta’lim muassasalari va ish beruvchilarning o‘zaro hamkorlik ko‘lamini kengaytirish, o‘quv amaliyotlari jarayonida o‘quvchilarni har tomonlama rivojlantirish uchun qulay pedagogik shart-sharoitlar yaratish kabi yo‘nalishlar bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur ilmiy izlanishlar tahlili shuni ko‘rsatmoqdiki, professional ta’lim muassasalaridagi o‘quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirishda qo‘l keladigan metod, vosita va usullarni aniqlash hamda uning nazariy, amaliy jihatlarini belgilash; o‘quv amaliyotlari jarayonida ijodiy faoliyatini rivojlantirish metodikasini yaratish; o‘quv amaliyotining ijodiy faoliyatni rivojlantirishdagi o‘rnini belgilash hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish; o‘quvchilarni ijodiy faoliyatini rivojlantirishda professional ta’lim muassasi pedagoglarining kasbiy kompetentliligining ahamiyati bugungi kunda dolzarblik kasb etmoqda.

Ijodkorlik madaniyatini tarbiyalash ijtimoiy ahamiyatga molik vazifalardan hisoblanadi. Bu borada yurtimizda bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan 28.01.2022 yil qabul qilingan PF – 60 “2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonida belgilab berilgan vazifalardan kelib chiqib bir qancha salmoqli ishlar olib borilishi belgilab berilgan. O‘z vaqtida bunga e’tibor qaratgan mashxur musiqashunos Arnold Soxar jamiyat musiqa madaniyatiga kompleks hodisa sifatida qaraydi: “Jamiyat musiqa madaniyati musiqa bilan uning ijtimoiy borlig‘i, faoliyat ko‘rsatishi e’tirof etgan”.

Bu borada respublikada amalga oshirilayottgan islohatlarning bosh maqsadi va harakatlantiruvchi kuchi “Inson qadrini mustahkamlash va uning har tomonlama kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ruyobga chiqarishini strategiyasini yaratish” dan iboratdir.

Masalani bunday qo‘yilishi ta’lim-tarbiya maqsadlari, mazmuni, uslublari, shuningdek vositalarini aniqlashda hal qiluvchi mezon. Bunday yondashuv ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilar munosabatlarining o‘zgarishiga-o‘quvchilarning faolligi ortib va mustaqilligining kuchayishiga, ta’lim

jarayonining takomillashib borishini taqozo etadi. Bunda o‘quvchi ta’lim-tarbiya ob’ekti sifatida o‘z-o‘zini kashf etishning sub’ekti ham bo‘lib maydonga chiqadi.

Bunday yondashuv Maktabgacha va maktab ta’lim tizimida o‘quvchi shaxsi, uning ichki dunyosiga - hali ochilmagan qobiliyatlari va imkoniyatlariga erkinlik berib, ta’lim-tarbiyaning axloqiy negizlarini shakllantirishga yo‘naltiradi.

Maktabgacha va maktab ta’limda ijodiy salohiyat va uning ijodiy faoliyat bilan o‘zaro aloqada tuzilma tarkibini quyidagilarga ajratish mumkin.

1 Motivli-maqsadli o‘quvchi faoliyatiga shaxs sifatida munosabatda bo‘lishi. Uning qiziqishlari, maqsadlari, intilish ehtiyojlarini hisobga olish.

2 Mazmuniga ko‘ra – olgan bilimlari, malaka va ko‘nikmalari hamda integratsion bilimlarni hisobga olish.

3 Bilim, ko‘nikma malakalarni egallashda tashkiliy-metodik faoliyatni amalga oshirish.

4 O‘z faoliyatini baholash -o‘z tasvvurida o‘z-o‘zini, o‘z ijodiy faoliyati va uning natijalarini baholash orqali o‘z imkoniyatlarini aniqlash.

Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda shaxs ijodiy salohiyati tuzilmasini quyidagicha tavsiya etish mumkin:

Demak, ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchi shaxsi ijodiy salohiyatini rivojlantirishga dasturlarda ifodalangan ta’lim mazmunini saralashni taqozo etadi. Chunki, hozirgi davrda dastur va darsliklar o‘quvchining ijodiy qobiliyati va salohiyatini rivojlantirishga doir talabga javob bermaydi. Vaholanki, ijtimoiy gumanitar, ilmiy tabiiy fanlar o‘quvchilar ongiga ta’sir etib, o‘quvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirishga turtki beradi. shaxs ijodiy salohiyati tinimsiz va uzluksiz mehnat natijasi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida o‘qitish va tarbiya jarayonida ijodiy ta’lim mazmuni (o‘quv-biluv, tashkiliy, pedagogik hamkorlik kabi pedagogik texnologiyalar) asosida shaxsga yo‘naltiriladi.

O‘quvchi ijodiy salohiyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyalarning asosiy maqsadi ham umuman olganda ijodiy faoliyatni rivojlantiradi.

Maqsadga yo‘nalganlik quyidagi aniq vazifalarni o‘z oldiga qo‘yadi: o‘quvchining o‘z odiga qo‘ygan maqsadini anglab olganligi, ijodiy faoliyatda ijobiy rahbat va ijodkorlikka ehtiyojni his etishi, bilimlar tizimiga ega bo‘lishi, ijodiy faoliyatni tashkil etish, malaka va ko‘nikmalarga erishilgan natijalarni baholashga doir bilim va tasavvurga ega bo‘lishi.

Mazmuniga ko‘ra ijodiy salohiyatni rivojlantirish esa bilimga oid amaliy va ijodiy komponentlarni o‘z ichiga oladi. Ijodiy faoliyatning texnologik jarayoni esa tushuntirish ilmostrativ, reproduktiv, muammoli, qisman izlanuvchan va izlanuvchan kabi metodlar asosida kechadi. Mazkur jarayon tabiatga muzey

1.2.1 rasm O‘quvchi shaxsining ijodiy salohiyati tuzilmasi

va ko‘rgazmalarga ekskursiyalar, vedeoko‘rsatuvlardan uchrashuvlar, mavzuli kechalar, individual ijodiy loyihalar, to‘garaklar, klublar, praktikumlar, turli mavzularda suhbatlar o‘quvchilarning ijodiy ko‘rgazmalari tanlovlar kabi an’anaviy va noan’anaviy shakllardan foydalaniladi.

O‘quvchilarni har tomonlama barkamol shaxs sifatida kamolga etkazish uchun ularni maktab yoshidanoq ijodiy faoliyatini kamol toptirish zarur. Chunki maktab yoshida o‘quvchilarning didi, dunyoqarashi, salohiyati barcha psixik jarayonlar individual-psixologik xususiyatlari jadal shakllanadi.

Psixolog olimlar - S.L.Rubinshteyn, B.GAnanev birinchilar qatorida umumiy, aqliy rivojlanish umumiy intellekt bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatib o‘tdilar. Masalan, B.G.Ananev murakkab psixik xususiyatlarni tadqiq qilish bilan birga, o‘qish va mehnatdagi muvaffaqiyat ana shu xususiyatga bog‘liqdir, degan farazni ilgari suradi. Olim bu kategoriyalarni bilashga oid turli vazifalarning qo‘yilishi va hal etilishi bilan bog‘liq yo‘llarini ko‘rsatib beradi.

Keyingi yillarda muammoni turli yo‘nalishlarda intensiv tarzda tadqiq etishga qiziqish uyg‘ondi. Bu tadqiqotlar borasida N.S.Leytesning tadqiqotini qayd qilib o‘tish muhim. Leytes avvalo aql sifatlarini o‘z ichiga oluvchi umumiy aqliy qobiliyatlar (garchi ular jiddiy rivishda iroda va emotsional xususiyatlarga bog‘liq bo‘lsa ham) odamning nazariy bilish va amaliy faoliyat imkoniyatlarini xarakterlab beradi[54],- deb ta’kidlagan. Odam intellekti uchun eng muhim narsa va hodisalar o‘rtasidagi bog‘lanish va munosabatlarni aks ettirish hamda shu bilan voqelikni ijodiy ravishda qayta o‘zgartirish imkoniyatini beradi. N.S.Leytesning ko‘rsatishicha, oliy nerv faoliyati xususiyatlarida faollik va o‘z -o‘zini tartibga

solishning ayrim shart-sharoitlari yashiringan bo‘lib, bular umumiy aqliy qobiliyatlari tarkib topishinig muxim ichki shartlaridan biridir.

Hozirgi davrda psixologlar ta’lim jarayonida o‘quvchilarda faol mustaqil ijodiy faoliyatni mustaqil bilish faoliyatiga, mustaqil holda bilimlarni egallashga yo‘naltirishga harakat qilmoqdalar.

O‘quvchilarning bilish faolligini faollashtirish, ularning mustaqil ijodiy tafakkurini rivojlantirish maktab ta’limining muhim vazifasiga aylanib bormoqda.

Ta’limning asosi- o‘qitishning o‘quvchilarga etkazadigan mo‘l – ko‘l axborotni esda saqlab qolish emas (garchi bu muhim vazifa bo‘lsa-da), balki bu axbortni qabul qilish jarayonida o‘quvchilarning o‘zlari faol ishtirok etishi, ularning mustaqil bilim olish qobilityaini asta-sekin shakllantirishdan iborat bo‘lmog‘i lozim.

Ta’lim-tarbiyaga yangicha yondashuv, dars samaradorligini oshirish vositasi, fanlararo aloqalarning yangi sifat darajasiga ko‘tarilgan shakli hisoblanadi. Professional ta’limda yangicha yondashuv hayotdagi turli xil hodisalarni bir qolipdan turib baholash emas, balki ularni o‘zaro aloqadorlikda kompleks holda yondashishga yo‘naltiradi. Masalan, integratsiyalashgan ta’limni yo‘lga qo‘yishda sof ilmiy bilimlar, adabiyot, musiqa, san’at yordamida har tomonlama mukammal ko‘rsatib berish imkoni tug‘iladi. Bu esa o‘quvchi shaxsining emotsional va axloqiy rivojiga, unda ijodiy tafakkurning shakllanishiga yaxshi ta’sir ko‘rasatadi.

Barcha sohada ijod ish natijasining farqli belgilari, uning yangiligi va ijtimoiy ahamiyatga molikligidir. Pedagogik ensiklopediyada o‘quvchilarning ijodkorligi foydali va muhim yangilik belgilariga ega bo‘lgan texnik ob’ektlar yaratiladigan faoliyat turidir», deb ta’riflanadi. Jumladan, pedagogika kollejlari tizimini takomillashtirish, o‘quv-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tadbiq etishga doir xorijiy mamlakatlarning etuk mutaxassislari va malakali pedagoglari ishtirokida seminarlar, ilmiy-amaliy konferensiyalar o‘tkazilmoqda.

Maktabgacha va maktab ta’lim olayotgan o‘quvchilar o‘zlarida muayyan kasb ko‘nikmalarini shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘lishlari va tanlagan ixtisoslikni egallashlari uchun maxsus fanlarni chuqur o‘rganishlari kerak bo‘ladi.

Maktabgacha va maktab o‘quvchilarining erkin va mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun turli muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish malakalarini shakllantirishni hamda ularning ta’lim jarayonida faol ishtirokini ta’minlaydigan zamonaviy ta’lim texnologiyalari va metodlaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari va metodlarini qo‘llash, o‘qitish jarayonida ijodiy muhitni yuzaga keltiradi,

oʻquvchilar faolligini oshiradi, oʻqituvchi esa tayyor bilimlarni etkazuvchi emas, balki oʻquvchilarning bilimlarini mustaqil oʻzlashtirilishi uchun sharoit yaratib beruvchi, ta'lim jarayonining yoʻnaltiruvchisi yoki maslahatchisiga aylanadi.

Adabiyotlarning nazariy tahlillaridan ayon boʻlishicha, Respublikamizda bu borada tadqiqot olib borayotgan olimlarning aksariyati oʻquvchilarda ijodiy qobiliyatni shakllantirishga ularning aqliy salohiyatini rivojlantirish orqali yondashadilar. Oʻquvchining ijodiy faoliyati esa aynan uning faoliyati jarayonida:

- oʻz-oʻzini rivojlantirish;
- oʻquv faoliyatining ilgʻor texnologiyalar asosida qurilishi;
- oʻqituvchi va oʻquvchilar oʻrtasida oʻzaro hamkorlikning qaror topishi;
- oʻquv faoliyatining oʻquvchilar ichki motivga asoslangan holda izlanuvchanlik yoʻnalishini kasb etishi orqali oʻz ifodasini topadi.

Xulosa qilib aytganda, ta'limda birlamchi vazifa keyingi ta'lim jarayonida muhim ahamiyatga ega boʻlgan boshlangʻich umumiy ta'lim malaka va koʻnikmalarini shakllantirishdan iborat.

Maktabgacha va maktab ta'lim oʻquvchilarning va shaxslik xislatlari va qobiliyatlari rivojlantirish ularning turli oʻquv-biluv, amaliy, ijtimoiy faoliyatlari tajribasiga tayaniladi. Shuning uchun ham ta'lim standartlarida ta'limning faol, amaliètdagi mazmuni, faoliyatning aniq vositalariga real haètiy vaziyatlarda qoʻllaniladigan bilim, malaka va koʻnikmalarga alohida e'tibor berilgan.

Shunga koʻra aktabgacha va maktab ta'limda har bir oʻquvchining ijodiy qobiliyatini va uning oʻziga xos individualligini namoèn etishga sharoit yaratishdan iboratdir.

Buning uchun maktabgacha va maktab ta'lim dasturlari va darsliklaridagi materiallar muhim ahamiyatga ega. Bu navbatdagi bandda maktabgacha va maktab ta'limda ta'lim standartlari, dastur va darsliklarini tahlil etish orqali oʻquvchilarning ijodiy imkoniyatlarini èritishga harakat qilamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni 2022-2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyas i

2. Абдуллин Э.Б.,Николаева Э.Б.Теория музыкалъного образования.Учеб. длястуд. высш.пед. учеб. заведений.-М .Академия,2004.

3. Кашапова Л. М. Регионалъные музыкалъные традицивформировании этноличности школъника [Текст] /Л.М.Кашапова // Искусство и образование.-2005.-№4(36).-с.84-92.

4. Караматова Б.М. Педагогические основы использования музыкального наследия мыслительно-средневековского Востока в учебно-воспитательном процессе в школе (на примере уроков музыки): Дисс. ... канд. пед. наук.-Т.:2002. – 162 с.

SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN TA’LIM ASOSIDA O‘QUVCHILARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASI VA UNI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMI

Kadirova G.X.
Kasbiy ta’limni rivojlantirish instituti dotsenti, PhD

Tayanch so’zlar: konsepsiya, metodologik asos, nazariy komponent, ilmiylik, amaliy yo‘nalganlik, integrativlik.
Ключевые слова: концепция, методическая основа, теоретическая составляющая, научность, практическая направленность, интегративность.
Key words: concept, methodological basis, theoretical component, scientific, practical orientation, integrativity.

РЕЗЮМЕ:
Kasbiy ta’lim tizimida kadrlar tayyorlash jarayoni samaradorligini ma’lum omillar ta’sirida takomillashtirish ushbu jarayonni yaxlit, tarkibiy komponentlari o‘zaro muvofiqlikda bir-birini to‘ldiruvchi tuzilma sifatida loyihalashga asoslanadi. Bu esa o‘z navbatida ushbu tuzilmani konsepsiya ko‘rinishida tizimlashtirilish ehtiyojini vujudga keltiradi. Maqolada shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim asosida kasbiy ta’lim tashkilotlari o‘quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning metodik tizimi, didaktik mazmuni, asosiy elementlari haqida so’z boradi.
РЕЗЮМЕ:
Повышение эффективности процесса подготовки кадров в системе профессионального образования под влиянием определенных факторов основывается на проектировании этого процесса как целостной структуры, структурные компоненты которой дополняют друг друга во взаимной совместимости. Это, в свою очередь, создает необходимость систематизации этой структуры в виде концепции. В статье рассматриваются методическая система, дидактическое содержание и основные элементы подготовки обучающихся организаций профессионального образования к профессиональной деятельности на основе личностно-ориентированного образования.
SUMMARY:
Improving the effectiveness of the personnel training process in the vocational education system under the influence of certain factors is based on designing this process as an integral structure, the structural components of which complement each other in mutual compatibility. This, in turn, creates the need to systematize this structure in the form of a concept. The article discusses the methodological system, didactic content and basic elements of training students of vocational education organizations for professional activity based on personality-oriented education.

Biz shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim asosida kasbiy ta’lim tashkilotlari o‘quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning metodik tizimini belgilashda uning yetakchi g‘oyalari, tamoyillari, funksionalligini konsepsiya vositasida izohlaymiz. Konsepsiyani shakllantirishning ehtiyoji sifatida quyidagilarni belgilaymiz:

1) Zamonaviy ta’lim tendensiyalari, o‘zgarib borayotgan ta’lim etimologiyasi va ularning kasbiy ta’lim tizimiga joriy etilish zaruratini belgilash;

2) Turli sohalarning (axborotlashuv, iqtisodiy, ijtimoiy) rivojlanishi natijalarini ta’lim tizimiga transformatsiya qilish asosida ta’lim sifatining optimallashuviga erishish;

3) O‘zgarib borayotgan tashqi va ichki mehnat bozorining kadrlarga bo‘lgan talablari va ta’lim xizmatlarining o‘zaro muvofiqligini ta’minlash.

Ushbu shartlar kasbiy ta’lim tizimida bitiruvchi tayyorlash jarayonining tashkiliy jihatlari va mazmuniga nisbatan munosabat xususiyatlarini o‘zgartirish talabini qo‘yadi. Konsepsiyani shakllantirishda me’yoriy hujjatlarda belgilangan normativlar, ilmiy izlanishlar natijalari, ilmiy va nazariy faktlar asos bo‘ladi. Tadqiqot ishimiz konsepsiyasi kasbiy ta’limning ilmiy-nazariy asoslari, bugungi kun kasbiy ta’lim tizimida mustaqil faoliyat olib boruvchi kadrlarni tayyorlashga bo‘lgan ta’lim jarayonini tashkil etishning ilmiy-nazariy asoslari va mazmuni nisbatiga qurilgan.

Shuningdek, mazkur konsepsiyaning me’yoriy – normativ asoslari sifatida: kasbiy ta’limning davlat standarti, ma’lum kasbiy kvalifikatsiyaga nisbatan ishlab chiqilgan kasb standarti, kasb standartiga muvofiqlashtirilgan ta’lim dasturini (*kasbiy ta’limning 5-daraja Tibbiyot yo‘nalishi ta’lim dasturi*) belgilaymiz.

Zamonaviy kasbiy ta’lim tizimining amaliy yo‘nalganligi, ishlab chiqarish va ta’lim xizmatlarining yaxlitlashuvi va bunda ta’lim oluvchilarning mustaqil faoliyati markaziy komponentlardan biri sifatida e’tirof etilayotganligi konsepsiyaga ***ta’sir etuvchi omillar*** rolini bajarib, kasbiy ta’limning metodik asoslariga elementar o‘zgartirish kiritilganligi konsepsiyaning o‘ziga xos xususiyatini tavsiflaydi.

Tadqiqot ishimiz davomida shakllantirilgan **konsepsiya nazariy komponenti**ning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan *yetakchi g‘oyalarni* quyidagicha belgilaymiz:

1. Kasbiy ta’lim tizimida mutaxassis tayyorlash jarayoni shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim asosida, ish beruvchilarning kutuvlariga muvofiq keluvchi zamonaviy ta’lim tendensiyalari asosida amalga oshirilishi lozim;

2. Kasbiy ta’lim xizmatlari sifati o‘quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash darajasini takomillashuvi bilan mutanosib bo‘lishi kerak.

Konsepsiyaning asosiy tamoyillari: ilmiylik, amaliy yo‘nalganlik, integrativlik, interfaollik, funksionallik

Konsepsiyaning asosiy qoidalari kasbiy ta’lim tizimida mutaxassis tayyorlash, uning mazmuni, tuzilishi va natijalari, ta’lim shakllari va vositalari doirasidagi manbalarga tayangan holda belgilanadi:

1) Shaxs pedagogik jarayon sub’yekti, maqsadi va jarayon natijasi va uning samaradorligini baholash mezoni sifatida belgilanishi hamda ta’lim uning rivojlanish va takomillashuvi vositasi funksiyasini bajarishi lozim;

2) Bitiruvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoning mazmuni, didaktik va metodik yo‘naluvchanligi ta’lim jarayoni ishtirokchilarining o‘zaro munosabatlarida, o‘zaro hamkorligida, muloqotida va ta’limda sub’yekt-sub’yekt munosabatlari ustunligida shaxsning faolligi, tashabbusi, ijodkorligini ta’minlanishiga qaratilishi lozim;

3) Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim o‘quvchiga o‘zini-o‘zi mustaqil boshqarish, yo‘naltirish va tartibga solish, o‘zini o‘zi takomillashtirish va o‘z rivojlanishiga, shu jumladan kelajak kasbiy faoliyatda rivojlanish imkonini berishi maqsadga muvofiq;

4) Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim o‘quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash variativlik (turli xil ta’lim modellaridan foydalanish), intellekt, affekt va harakat sintezi — ta’lim oluvchilarni bilish jarayoniga, birgalikdagi harakatga va dunyoni hissiy o‘zlashtirishga yo‘naltirishi kerak;

5) Bilimni shakllantirish voqelik haqidagi bilimlarni befarq o‘zlashtirish sifatida emas, balki shaxsiy ma’nolarni, insonning shaxsiy bilim-qadriyatlarini shakllantirish o‘rganish jarayonining hissiy bo‘yoqdorligi vositasida amalga oshirilishi lozim.

6) Kasbiy ta’lim tizimi o‘quvchilarni mustaqil faoliyatga tayyorlash jarayoni real dunyo amaliyot vaziyatlariga va kasbiy ta’limga yaxlit e’tibor qaratishi bilan, o‘quvchilarga asosiy kasbiy vaziyatlarni intellektual va intuitiv tushunish bilan birlashtirishga va qoidalar hamda tartiblarni o‘z tadqiqotlariga ijodiy yondashuv (reflektiv bilim) bilan ko‘rib chiqishiga imkoniyat yaratishi darkor.

Biz shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim asosida o‘quvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorlash konsepsiyasining ***amaliy komponentini*** uning amalga oshirish **mexanizmi mazmuni**ni bayon etish bilan tavsiflaymiz. (1-rasm)

MEXANIZM (yun. mechane - qurol, inshoot) - bir yoki bir necha jismning harakatini boshqa jismlarning ma’lum harakatiga aylantirib beradigan qurilma.



1-rasm Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim asosida o‘quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash mexanizmi

Ko‘pchilik mashinalarning asosini tashkil etadi, ko‘pgina asboblar, apparatlar va texnika qurilmalarida qo‘llaniladi. [10]

Tadqiqotchilar “Mustaqil o‘quv faoliyatni rivojlantirishning pedagogik mexanizmi o‘zini-o‘zi boshqarish jarayonining nazariy va amaliy ahamiyati bilan belgilanishi va o‘quv jarayonining muvaffaqiyatini ta’minlashi” ni belgilaydilar. [8]

Biz shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim asosida o‘quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoni mexanizmini konsepsiya g‘oyasini reallikka aylantirishning amaliy yo‘l xaritasi – yaxlit tizim sifatida belgilaymiz.

“Ma’lumki, statik tizim tarkibiy bo‘lib, komponentlarning o‘zaro bog‘liqlik tartibi va shaklini ifodalaydi. Dinamik tizim funksional bo‘lib, kirish va chiqish komponentlariga, ya’ni kiritiladigan va natijaviy materialga ega, jarayon esa uzluksiz yoki diskret (uzilib-uzilib) kechadi.” [9]

Kasbiy ta’lim tizimida o‘quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoni mexanizmi bu shaxsni mutaxassis sifatida shakllantirishning ta’limiy maqsad bilan birlashgan va yaxlit pedagogik jarayonda faoliyat ko‘rsatuvchi o‘zaro bog‘liq tarkibiy komponentlar majmuidir.

Ushbu majmuada asosiy komponentlar: ta’lim jarayoni ishtirokchilari, ta’lim mazmuni, tashkiliy shart-sharoitlar (ta’lim kampusi). Agar majmuaga

rivojlanish maqsadi berilsa va komponentlar o‘zaro ta’sirga kirishsa, ham jamiyatning, ham shaxsning rivojlanish va o‘zini o‘zi rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan ta’lim vazifalarini hal qilish maqsadida pedagogik vositalardan foydalanilgan o‘zaro hamkorligidagi yaxlit jarayonga aylanadi.

Har bir jarayon komponentining tarkibida universal elementlarni ajratib ko‘rsatish mumkin: maqsad, vazifalar, mazmun, metodlar, vositalar, shakllar, nazorat, natija.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim asosidada o‘quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash mexanizmining asosiy komponentlari: maqsad-ehtiyoj, tashkiliy tuzilma, faoliyat-jarayon, monitoring-baholash, tahlil-rivojlantirish kabilardir. Ushbu komponentlar kadrlarga bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy sohalarning talablarining, ta’lim xizmatlari sifatiga nisbatan belgilangan me’yoriy asoslarlar talablarining o‘zgaruvchanligi va uzluksiz ta’lim tizimi ishtirokchisi (iste’molchisi) bo‘lgan shaxslarning ehtiyoj-imkoniyatlarining o‘zgarib borishiga muvofiq dinamik xususiyat qayd etadi.

Maqsad-ehtiyoj komponenti mexanizmga ta’sir etuvchi tomonlar ehtiyojlarini sinergiyasi asosida shakllanadi. Bugungi kunda kasbiy ta’lim tizimida bu jarayon ishlab chiqarish va ta’lim tizimining chiziqli integratsiyasi doirasida ta’lim dasturlarini shakllantirishda ish beruvchilarning ishtirokini ta’minlanishi (*kasb standartiga muvofiq ta’lim dasturlarini ishlab chiqish, malaka talablarini belgilash*) asosida amalga oshirilmoqda. (PF-158 16.10.2024 yil) Biz ushbu komponentga ta’lim oluvchilarning ta’lim xizmatlaridan kutuvlari va ta’lim olishga bo‘lgan ehtiyojlari va motivlariga muvofiqlashtiruv unsurlarini kiritishni qo‘llab-quvvatlaymiz.

Tashkiliy tuzilma komponenti “sifatli” etalon atrofida tomonlar ehtiyojlarini mutanosiblashga xizmat qiladi. Ta’lim hizmatlarining “sifat”i – mustaqil kasbiy faoliyatni olib borishga tayyorlangan bitiruvchi, iqtisodiy-ijtimoiy sohalarning “sifat”i intensiv faoliyat olib boruvchi kadr, ijtimoiy ehtiyoj uchun “sifat” jamiyat taraqqiyoti uchun xizmat qila oladigan mustaqil, izlanuvchan, muvaffaqiyatli shaxs. Biz tashkiliy tuzilma komponenti mazmunini ichki va tashqi mehnat bozori talablariga muvofiqlashtirilib boruvchi, ta’lim oluvchining real kasbiy funksionallikka yo‘naltirilgan amaliy tajribasiga tayanuvchi kasbiy ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘laymiz. Bu bog‘lanish quyidagi ma’lum ilmiy qarashlarga tayanadi

Kasbiy ta’lim mazmunining amaliyotga yo‘nalganligini uning periferiyasidan “yadro” qismiga olib chiqishni ilgari surib, bilimni o‘zlashtirish bevosita ma’lum amaliy jarayon vositasida sodir bo‘lishini belgilaydi. Bu amaliy

ta’limning nazariy o‘zlashtirish jarayonini “mustahkamlovchi vosita” sifatida emas aksincha o‘rganish jarayonidagi kognitiv resurslar ma’lum amaliy jarayon ta’sirida shakllanishi g‘oyasini ilgari suradi.

Tadqiqotchilar “nazariy va amaliy ta’lim integratsiyasini ta’minlamaslik ta’lim oluvchilarda o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantirish uchun eng samarali ketma-ketlik bo‘la olmasligi mumkin” [3] degan fikrni ilgari surib, “kasbiy ta’limda nazariy mashg‘ulotlarga ustuvorlik berish amaliy tajriba vaziyatlarini tahliliy va intuitiv idrok etishga tayanadigan mutaxassislikni rivojlantirishga imkon bermasligini ta’kidlaydi”[5]. Shu sababli, nazariy va amaliy mashg‘ulotlar ketma-ketligini belgilashda kasbiy shakllanish bilan bog‘liq relyasion (o‘zaro aloqadorlikka asoslangan) jarayonlarga urg‘u beradi.

Shuningdek, bir qator tadqiqot ishlarida “real kasbiy funksionallikka tayyorlovchi ta’lim yondashuvi asosida kasbiy ta’limning boshlanish jarayonlaridan amaliy ta’limga urg‘u berish, akademik ta’limni amaliy tajriba vositasida shakllantirish g‘oyalari ilgari suriladi”. [1] [2]

“Real kasbiy funksionallikka tayyorlovchi ta’lim yondashuvining asosiy urg‘usi ta’lim jarayonida bo‘lajak mutaxassisning kadr sifatida “fikrlashi” yoki “mulohaza yuritishi”ga, “harakat qilishi”ga qaratilib, unda ta’lim oluvchining “reflektiv-rasional”, “bilimlarni shakllantirish”, “reflektiv-jismoniy” va “relyasion” (munosabatlarga asoslangan) yondashuvlardan foydalanib kasbiy faoliyatga tayyorlanishiga qaratiladi” [6]. Real kasbiy funksionallikka tayyorlovchi ta’lim yondashuvi, shu sababli, amaliyot nazariyasi prizmasi orqali ongli professionalizmni rivojlantirish va saqlashni maqsad qiladi.

Adabiyotlarda bilim uning amaliyot uchun va amaliyotdagi funksiyasiga nisbatan muhokama qilinadi. Munozaraning markaziy o‘lchovi bilimni o‘zgartirish mumkinmi va qanday qilib o‘zgartirish mumkinligi atrofida kechadi. Bu ayniqsa aktorlarning o‘z bilimlaridan (ongsizlik) ongliligi va turli shakllarning amaliyotga qanday ta’sir qilishi bilan bog‘liq.

Bilimning boshqa shakllari keng ma’noda (madaniy) amaliyotlardan kelib chiqadi. Shunday qilib, ularning manbai muayyan aqliy, hissiy va jismoniy faoliyatlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Konvensional bilim “o‘z haqqoniyligi uchun mantiq yoki empirik kuzatuvga bog‘liq bo‘lmagan” ijtimoiy o‘rganilgan konvensiyalarga ishora qiladi va tushunchalarni “tabiiy bog‘lanmagan, ixtiyoriy assosiatsiya” orqali bog‘laydi. Shunday qilib, konvensional bilim inson amaliyotlaridan kelib chiqadi. Xuddi shunday, keyingi bilim sohalari ham insonning kundalik harakatlari bilan yaqin bog‘liqdir.

Ushbu ilmiy izlanishlar natijalari bizga shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim asosida o‘quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini tashkil etishda

o‘quvchilarda rasional, konvensional, konseptual bilimlarning hosil bo‘lishiga imkoniyat yaratib berish choralarini ko‘rilishi lozimligini ko‘rsatadi. Ya’ni o‘quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash uchun turli manbalardan uzatiladigan bilimlar ularni analitik fikrlashga, voqeilikni kuzatish, tasavvur etish, axborotlarni birlashtirish va bilimlarni qurishga yo‘naltirilishi kerak.

Faoliyat-jarayon komponenti ta’lim oluvchilarda kongnitiv ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilganligi bilan ahamiyatli. Kognitiv jarayon ko‘nikmalari — bu muammoni hal qilish yoki qaror qabul qilish kabi muayyan vaziyatlarda ishlatiladigan aqliy tartiblar, evristikalar yoki algoritmlar kabi o‘rganilgan jarayonlardir. Ular qanday fikrlash va harakatlanish kerakligi haqidagi strategiyalar bo‘lib, kontekst va maqsadlarga xosdir. Bu proseduraviy va dinamik turdagi tushuncha sifatida potensial ravishda “turli mazmun sohalari yoki bilim domenlari bo‘ylab o‘tkazilishi mumkin”. Psixomotor ko‘nikmalar tana va jismoniy harakatlar hamda tartiblar bilan bog‘liq bo‘lib, jismoniy faoliyatlarda yaratiladi. Tajriba harakatlari asosida hissiy va estetik birliklariga ega bo‘lgan bilimning intuitiv – affektiv shakli shakllanadi. U tajribani tushunarli, esda qolarli va mazmunli qilishda hal qiluvchi ahamiyatga kasb etadi. Narrativ bilim (pragmatik) inson tajribasi va hayotga bo‘lgan munosabatlari bilan, aql, tana va tarixning o‘zaro bog‘liqligida uning hayot kontekstiga birlashtiradi. Narrativ (pragmatik) bilim bizga “doimiy uzviy tajriba to‘lqinlari bo‘ladigan ob’yektlarda integratsiya, izchillik va ma’noni ko‘rishga” imkon beradi. Shunday qilib, narrativ (pragmatik) bilim tabiatan tajribaviydir.

Kongnitiv ko‘nikmalar, psixomotor, affektiv-narativ bilimlarning bevosita shaxsning faoliyati, tajribalar vositasida ma’lum ko‘nikmalar hosil bo‘lishiga e’tiborimizni qaratadi, hamda, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim asosida o‘quvchilarni kasbiy faoliyatga yo‘naltirishda ta’limning amaliyotga yo‘nalishi, ta’lim oluvchining bevosita shaxsiy kuzatuvlari, tajribalari va xulosalari asosida unda kongnitiv-psixomotor resurslar hosil bo‘lishi shartligini izohlaydi.

Monitoring-baholash komponenti tavsiflanayotgan konsepsiya mexanizmining faoliyat samaradorligi va muhimligini belgilab beradi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim asosida baholash jarayonini tashkil etish bevosita o‘quvchining o‘zini-o‘zi baholash jarayoni bilan mutanosib.

Tadqiqotchi Garrison “ta’lim oluvchini mustaqil faoliyatga yo‘naltirib o‘qitish uchta o‘lchovga ega ekanligini izohlaydi:

1. motivatsiya (o‘qishga kirishish/vazifani boshlash),
2. o‘zini kuzatish (self-monitoring / mas’uliyat),
3. o‘zini boshqarish (self-management / nazorat).

Bunda motivatsiya “sa’y-harakatni boshlash va davom ettirishda muhim rol o‘ynaydi”. “O‘zini kuzatish” esa metakognitiv va kognitiv jarayonlarga tegishli bo‘lib, “o‘qish strategiyalari repertuarini kuzatish, shu bilan birga shaxsning o‘z tafakkurini kuzatish va anglash qobiliyati”ni o‘z ichiga oladi. “O‘zini boshqarish” (self-management) ma’lum darajada paradoksal tarzda hamkorlik jarayonini ifodalaydi. Ya’ni, “o‘qish vazifalarini boshqarish bo‘yicha nazorat o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hamkorlik munosabatida amalga oshiriladi” [4] [5].

Tadqiqotchi o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi nazorat muvozanati nuqtai nazaridan quyidagicha munosabat bildiradi: “Nazorat masalalari ta’lim standartlari va me’yorlari (masalan, qaysi bilim “ahamiyatli” deb hisoblanadi) bilan birgalikda o‘quvchining tanlov imkoniyati va shaxsiy ma’no shakllantirish uchun mas’uliyati o‘rtasidagi muvozanatni talab qiladi” [4].

Biz shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim yondashuvida o‘quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning monitoring-baholash epizodi adekvat xususiyat asosida ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi o‘rtasida munosib taqsimlanishi, bunda asosiy e’tibor olib borilgan o‘quv-amaliy faoliyati natijalari ma’lum kasbiy harakatlar bilan muvofiqlashtirilishi muhimligini belgilaymiz. Bizningcha bu vaziyatda eng to‘g‘ri yechimlar ta’lim oluvchining tajriba orttirilganlik, ma’lum kompetentlikni egallaganlik fazilatlari uning refleksiv qobiliyatlarini aks ettirgan holda real kasbiy jarayonda namoyish etish bilan bog‘langan tadbirlarda belgilanishi lozim.

Tahlil-rivojlantirish komponentini izohlashda yaxlitlik tushunchasi muhimdir. Yaxlitlik bizga o‘quvchilarni “tana (genetik, jismoniy va biologik) va aql (bilim, ko‘nikmalar, munosabatlar, qadriyatlar, hissiyotlar, e’tiqodlar va sezgilar)” [63] bilan bir butun shaxs sifatida tafakkur etishga undaydi. Bu shaxsni yaxlit tushunish uchun muhim bo‘lgan turli bilim shakllarini birlashtiradi. Bunday yaxlit tushunishga muvofiq, turli xil bilim turlarini ularning kelib chiqishiga qarab ajratish mumkinligini, bunda ontologik va epistemologik farqlar bir shaklni boshqasidan ustun qo‘ymasdan saqlanishini ta’kidlaydi. O‘quvchilar o‘zlarida shakllanib, rivojlanib borayotgan resurslarni (bilim, ko‘nikma, malaka, qadriyat, kompetentlik,) yaxlit tasavvur etishi va ularni boyitilish, optimallashtirish jarayonini idrok etib borishi muhim. Biz buni shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim asosida o‘quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda shaxsning o‘zini-o‘zi tahlil etish, o‘zini-o‘zi dolzarblashtirish uchun tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarni yaratilishi bilan belgilaymiz.

Xulosa qilib aytganda, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim asosida o‘quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoni turli individual, tashkiliy, jamoaviy

aktorlar tomonidan tashkillanadi. Bu jarayonda ta'lim oluvchilarning resurslari (bilim ko'nikma, malaka, qadriyat, kompetentlik) nafaqat tashqi omillar ta'sirida (ta'lim beruvchilar, o'qitish jarayonidagi ta'lim oluvchilarga uzatiladigan axborotlar) balki ularning o'z ishtiroki va faoliyati jarayoni (xulosalar, tajribalar) natijasida shakllanishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Beddoe L. (2013) 'A profession of faith' or a profession: Social work, knowledge and professional capital. New Zealand Sociology. 28 (2), 44

2. Breen P. (2018) Developing Educators for The Digital Age. London, University of Westminster Press. [Online]. Available from: doi:10.16997/book13 [Accessed: 20 August 2019]

3. 30 Cree V.E. (2005) Students learning to learn. In: Burgess, H., Taylor, I. (eds.). Effective Learning and Teaching in Social Policy and Social Work. London, Routledge-Falmer. P. 60

4. 48 Garrison D. R. (1992). Critical thinking and self-directed learning in adult education: An analysis of responsibility and control issues. Adult Education Quarterly, 42, 136-148. doi:10.1177/074171369204200302

5. Garrison D. R. (1997). Self-directed learning: Toward a comprehensive model. Adult Education Quarterly, 48, 18-33. doi:10.1177/074171369704800103

6. Markauskaite L. & Goodyear P. (2017) Epistemic Fluency and Professional Education: Innovation, Knowledgeable Action and Actionable Knowledge. Professional and Practice-based Learning. Dordrecht, Springer.P- 597

7. Munro E. (2011) The Munro Review of Child Protection: Final Report. A child-centered system. Department of Education, London. [Online]. Available from: http://www.education.gov.uk/publications/eOrderingDownload/Munro-Review.pdf [Accessed: 8 July 2014]

8. Галеева Е. С. Педагогические механизмы саморегуляция учебной деятельности: теоретико-исторический аспект / Е. С. Галеева. - Текст: непосредственный // Молодой ученый. - 2015. - № 10 (90). - С. 1121-1124. — URL: https://moluch.ru/archive/90/18969/.

9. Мынбаева А.К., Садвакасова З.М. Инновационные методы обучения, или как интересно преподавать: Учебное пособие. – 7-е изд., доп. - Алматы, 2012. –355 с. 13-17 bet.

10. https://qomus.info/encyclopedia/cat-m/mexanizm-uz/

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYA ORQALI SOG‘LOM MUHIT YARATISH OMILLARI

Davronova D.S.
O’zbekiston davlat jahon tillari universiteti “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi dotsenti Pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy)

Tayanch so’zlar: oliy ta’lim, o’qituvchi, talaba, globallashuv, ma’naviyat, dunyo, milliy qadriyatlar, umuminsoniy, axloqiy tamoyillar, ijtimoiy ehtiyoj, zamonaviy talab, ma’naviy-ma’rifiy, sog‘lom muhit.
Ключевые слова: высшее образование, преподаватель, студент, глобализация, духовность, мир, национальные ценности, общечеловеческие, нравственные принципы, общественная потребность, современный спрос, духовно-образовательная, здоровая среда.
Key words: higher education, teacher, student, globalization, spirituality, peace, national values, universal human moral principles, social need, modern demand, spiritual and educational, healthy environment.

РЕЗЮМЕ:
Mazkur maqolada, Oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy-axloqiy tarbiya orqali sog‘lom muhit yaratish omillari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek maqolada, yoshlar kelajagini kafolatlaydigan, vatanni tanigan, ijodkorlikka va maqsadga o’naltirilgan, kreativ tafakkur, tolerantlik, fuqarolik mas’uliyati, umumbashariy qadriyatlarga sodiqlik va ochiqlik stretegiyasi asosida ularni mamlakatimiz ravnaqi o’lidagi Davlat siyosati atrofida birlashtirish va yuksak ma’naviy burchlarini ado etish ruhida tarbiyalash muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etishi e’tirof etib o’tilgan.
РЕЗЮМЕ:
В статье с научно-теоретической точки зрения анализируются факторы формирования здоровой среды посредством духовно-нравственного воспитания в высших учебных заведениях. Также отмечается важность воспитания молодёжи в духе обеспечения её будущего, познания Родины, развития творческих способностей и целеустремлённости, объединения её вокруг актуальной государственной политики нашей страны и выполнения ею своего высокого нравственного долга, основанного на стратегии творческого мышления, толерантности, гражданской ответственности, верности общечеловеческим ценностям и открытости.
SUMMARY:
The article analyzes from a scientific and theoretical point of view the factors of formation of a healthy environment through spiritual and moral education in higher educational institutions. The importance of educating young people in the spirit of ensuring their future, learning about the Motherland, developing their creative abilities and determination, uniting them around the current state policy of our country and fulfilling their high moral duty is also noted, based on the strategy of creative thinking, tolerance, civic responsibility, fidelity to universal human values and openness.

Bugungi globallashuv jarayonida yoshlarning ma’naviy dunyosini boyitish, ularni milliy qadriyatlar va umuminsoniy axloqiy tamoyillar ruhida tarbiyalash dolzarb masalaga aylanmoqda. Oliy ta’lim muassasalari nafaqat bilim beruvchi maskan, balki yosh avlodni barkamol inson etib voyaga yetkazuvchi tarbiya o‘chog‘idir. Shu sababli oliy ta’lim tizimida sog‘lom ma’naviy-axloqiy muhitni yaratish, uni mustahkamlash va takomillashtirish jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Dunyo miqyosida ta’lim, fan, madaniyat va axborot sohasidagi mintaqaviy, submintaqaviy hamkorlikni yuksaltirish masalalarining yuzaga kelishi tufayli yangi ijtimoiy ehtiyoj va zamonaviy talablarga mos jamiyat hayotining barcha sohalarini izchil va barqaror rivojlantirishga doir ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu esa o’z navbatida, ilg’or xorijiy tajribalarga tayanib ma’naviy-ma’rifiy ishlar rivojini fan va texnologiya yutuqlari bilan hamohang tarzda ilmiy tahlil qilish, ayniqsa, Oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy-axloqiy tarbiya orqali sog‘lom muhit yaratish omillarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Adabiyotlar tahlilidan bilamizki, ma’naviy-axloqiy tarbiya – bu insonning ichki dunyosini boyitish, to‘g‘ri hayotiy qarashlarni shakllantirish, jamiyatda munosib o‘rin egallashga tayyorlash jarayonidir. Oliy ta’lim muassasalarida bu jarayon talabalarning shaxsiy rivojlanishida, ularning mustaqil fikrlashini va ijtimoiy faolligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Aqiy tarbiya orqali sog‘lom muhit yaratish - bu ta’lim muassasasida o‘zaro hurmat, hamjihatlik, bag‘rikenglik va insonparvarlik muhitini shakllantirishni anglatadi.

Masalaga boshqacha yondashadigan bo’lsak, dunyoning mashhur siyosatshunoslaridan biri Mahatma Gandi jurnalistlar tomonidan unga berilgan “Globallashuv jarayoniga qanday qaraysiz?” degan savoliga “Men tashqaridagi bo’rondan qo’rqib, derazamni yopib qo’ya olmayman, chunki menga toza havo kerak. Shu bilan birga, toza havo kerak ekan deb, derazamni katta ochib ham qo’ya olmayman, chunki mening uyimni chang-to’zon bosib ketishini xohlamayman” degan javobni bergan [7].

Fikrimizcha, elektron ta’lim muhitida Mahatma Gandi ta’kidlagan - bo’ron ma’naviy tahdidga qarshi jaholat, razolat bo’ronlari bo’lib, tajribasi va bilimi etarli bo’lmagan yoshlarni o’z girdobiga tortib ketishi mumkin. Keltirilgan -chang-to’zon esa, yoshlarimiz ruhiyatiga singib qolishi xavfi bo’lgan turli yot g’oyalar va keraksiz aqidalardir.

Ma’naviy tahdidlar haqida to’xtalar ekanmiz, ochiq axborot tizimi va adabiyotlar tahlilidan ma’lumki, bugun kunda bu tahdidlarning yigirmadan

ortiq turlari mavjudligi hech kimga sir emas. Mul'timadaniyat, polietniklik, monomadaniyat, polimadaniyat, madaniyatlararo dialog, genotsid, rasizm, ksenofobiya, ekstremizm, etnotsentrizm, fundamentalizm, radikalizm, millatchilik, separatizm, mahalliychilik, milliy va guruhli xudbinlik, diniy aqidaparastlik, diniy riyokorlik, soxta demokratiyalar, rangli inqiloblar, preventiv revolyutsiyalar, ikki xil standartlar va boshqalar.

Ochiq axborot tizimi statistik ma'lumotlarga qaraganda bugungi kunda yoshlar, ayniqsa talabalar orasida turli g'oyaviy oqimlarga qo'shilib ketish holatlari jamiyat uchun jiddiy xavf hisoblanadi. Bu holatning bir nechta asosiy sabablari bor. Xo'sh buning sabablari nimada?:

Birinchidan, ma'lumot va tahlil etishmasligi, ya'ni ko'p yoshlar turli g'oyalar haqida etarlicha to'liq va tahliliy ma'lumotga ega emaslar. Internetda tarqalayotgan axborot oqimida haqiqat bilan soxta ma'lumotni farqlash qiyin bo'lib qolgan. Yoshlar internetdagi ma'lumotlarni tanqidiy fikrsiz qabul qilishadi. Shu sababli, yoshlar ba'zan bilib-bilmay noto'g'ri g'oyalarga ishonib qolishadi.

Ikkinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy omillar ba'zi talabalar moddiy qiyinchilik, ishsizlik yoki hayotdagi maqsadsizlik hissi tufayli o'ziga "joy" izlaydi. Bunday holatda ularni oqimlar "qabul qilib oladi", ularga yolg'on ma'no va maqsad hissini beradi.

Uchinchidan, ayrim yoshlar fikricha, ota-ona, ustozlar tomonidan etarli darajada ularni tushunadigan odamlar kamdek tuyuladi. Bu holatda har qanday "gruppalar" yoshga qiziqish va "qadriyat" hissini berib, uni o'z safiga tortadi.

Fikrimizcha, yoshlar faoliyatini tashkil etishda pedagogik taktikani to'g'ri qo'llash, ya'ni turli intelektual loyihalar, forumlar, ilmiy tadqiqotlar atrofida ularni qiziqishlariga ko'ra birlashtirish;

- yoshlar kelajagini kafolatlaydigan, vatanni tanigan, ijodkorlikka va maqsadga yo'naltirilgan, kreativ tafakkur, tolerantlik, fuqarolik mas'uliyati, umumbashariy qadriyatlarga sodiqlik va ochiqlik stretegiyasi asosida ularni mamlakatimiz ravnaqi yo'lidagi Davlat siyosati atrofida birlashtirish va yuksak ma'naviy burchlarini ado etish ruhida tarbiyalashga erishish;

Shu nuqtai nazardan qaraganda, ma'naviy-axloqiy tarbiya orqali sog'lom muhit yaratish - bu nafaqat ta'lim sifatini oshirish, balki talabalarning shaxsiy kamoloti, ijtimoiy faolligi, ma'naviy tahdidlardan himoyalanish va milliy qadriyatlarga sodiqligini ta'minlashning muhim o'nalishidir.

Shu bilan birga, yoshlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, milliy g'oya va ma'naviyatni chuqur o'rgatish, axborot savodxonligini oshirish, yoshlar bilan ochiq va samarali muloqot olib borish, shuningdek, psixologik qo'llab-

quvvatlash tizimini takomillashtirish - ularning har tomonlama barkamol shaxs sifatida kamol topishida hal qiluvchi omillardan sanaladi.

OTM ushbu yo'nalishlarda uyg'un tarzda amalga oshirilgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar yosh avlodda ma'naviy etuklik, ijtimoiy faollik va innovatsion tafakkurni shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Bunday faoliyat natijasida talabalar nafaqat bilim olish jarayonida, balki hayotiy qarashlari va shaxsiy pozitsiyasini aniq belgilashda ham faol ishtirok etadilar. Shu bilan birga, ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, fuqarolik mas'uliyati hamda jamiyat taraqqiyotida o'z hissasini qo'shishga intilish kuchayadi.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarning tizimli yo'lga qo'yilishi ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, ilmiy va ijodiy salohiyatni rivojlantirish, shuningdek, zamonaviy innovatsion g'oya va loyihalarni amalga oshirish uchun ma'naviy asos yaratishga xizmat qiladi. Natijada yoshlar zamon talablariga javob bera oladigan, mustaqil fikrlovchi va yangilikka intilayotgan barkamol shaxslar sifatida voyaga etadilar.[6]

Haqiqatdan ham yuqoridagi fikrlarimiz uzviy davomi sifatida globallashuv jarayonlari, axborot oqimining cheksizligi va turli mafkuraviy ta'sirlar sharoitida yosh avlod ongida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni takomillashtirish, shu bilan birga, ma'naviy-mafkuraviy immunitetni shakllantirish muhim strategik vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda. Didaktik nuqtai nazardan, yoshlar bilan ishlashda xalqimizning ko'p asrlik ma'naviy merosi, falsafiy dunyoqarashi va milliy pedagogik maktabi asosiy ilmiy-nazariy manba bo'lib xizmat qiladi.[3]

Adabiyotlar tahlilidan aytishimiz mumkinki, ma'naviy-mafkuraviy immunitet - bu shaxsning turli g'oyaviy va axloqiy tahdidlar oldida mustaqil fikr yuritish qobiliyati, ezgulik va haqiqat tamoyillariga asoslangan barqaror hayotiy pozitsiyaga ega bo'lishini anglatadi. Uning shakllanishi, avvalo, ta'lim-tarbiya tizimidagi pedagog va murabbiylarning ilmiy-falsafiy bilimlariga, insoniyat tamaddunidagi umuminsoniy qadriyatlarni chuqur anglab, ularni milliy g'oya bilan uyg'un holda talaba yoshlarga etkazish mahoratiga bog'liqdir.

Shu ma'noda, pedagog-murabbiylar oldidagi yangi va mas'uliyatli vazifa - yosh avlodni umuminsoniy qadriyatlarga sadoqatli, insonparvar, vatanparvar, milliy g'urur va zamonaviy tafakkurga ega shaxs qilib tarbiyalashdan iboratdir. Bu jarayonda quyidagi ilmiy yo'nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi:

Falsafiy asos: Shaxs va jamiyat munosabatini izohlaydigan milliy falsafiy qarashlar asosida yoshlarda "Men kimman?" va "Jamiyatdagi vazifam nima?" degan savollarga ongli javob berish qobiliyatini shakllantirish.

Tarixiy ildizlar: Ajdodlarimizning ma’naviy merosi, buyuk allomalarning ta’limotlari va milliy qahramonlik an’analari orqali yoshlarda faxr va mas’uliyat tuyg’usini oshirish.

Ilmiy-nazariy yondashuv: Ma’naviyat, mafkura va shaxs rivojlanishining psixologik hamda pedagogik qonuniyatlarini inobatga olgan holda zamonaviy ta’lim metodlarini joriy etish.

Amaliyot bilan uyg’unlik: Ta’lim jarayonida faqat nazariya emas, balki hayotiy misollar, ijtimoiy faoliyat, volontyorlik va madaniy tadbirlar orqali yoshlarning ma’naviy immunitetini mustahkamlash.

Shu tarzda, xalqimizning falsafiy va ma’naviy ta’limotlariga tayangan holda yoshlar bilan ishlash nafaqat milliy qadriyatlarni saqlash, balki umuminsoniy g’oyalarni anglab etish va ularni hayotda tatbiq etishga qaratilgan uzviy jarayonga aylanadi.

Dono xalqimizda—“Qismati xulqiga yarasha” degan naql bor. Darhaqiqat, insonning insonligi qanday axloq sohibi ekanligi bilan belgilanadi. Uning kamoloti darajasini belgilovchi bosh omil ham axloqdir. Garchand yoshlarimiz ongi va shuuri ma’naviy-mafkuraviy immunitet bilan to’yinar ekan, barcha yaxshiliklar va ulug’ ne’matlar bilan ziynatlangan qalb sifatida ular albatta, ezguliklarga musharraf bo’lishlari muqarrar.

Fikrimizcha, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish bilan bog’liq bo’lgan tarbiyaviy jarayon uzoq muddatli, davomiy, izchil olib boriladigan maqsadli, dinamik jarayondir. Shu bois, talabalarning tafakkur va fikrlash jarayonlarining o’ziga xos tomonlarini ochishga tayyorlash ma’lum yo’nalishlar, ta’lim-tarbiyaning ma’lum shakl va metodlari vositasida amalga oshiriladi. [6]

Talabalarni ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish mexanizmlarini takomillashtirishda quyidagi talablar nazarda tutilishi zarur:

- ma’naviy ma’rifiy ishlarni yaxlit holda va kontsentrik asosda amalga oshirish;

-komplekslilik;

-tarbiya tamoyillarining o’zaro tengligi;

- aniq pedagogik maqsadga yo’naltirilganlik;

-ikki tomonlama xususiyat va talabalarning faolligi;

Kuzatuv va tajribalarimiz shuni ko’rsatdiki, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil qilish muddatiylik, murakkablikni, ketma-ketlik, muntazamlilik va davomiylik tamoyillariga rioya qilish taqozo etadi. Ma’naviy kamolotni inson tafakkuriga birdaniga singdirib bo’lmaydi. Shunday ekan, uning shakllanish jarayoni ham bosqichma-bosqich tashkil qilinishi zarur. Shundan kelib chiqib

aytish mumkinki, tarbiya jarayonining eng yuksak natijasi har tomonlama va uyg'un kamol topgan yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirishdir.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilan olib boriladigan ma'naviy - ma'rifiy ishlarning samaradorligi quyidagi omillar bo'yicha aniq yo'naltirilgan sa'y-harakatlarga bog'liq:

O'qituvchi va murabbiylarning shaxsiy namunasi. Oliy ta'lim muassasalarida sog'lom ma'naviy muhitni shakllantirishda o'qituvchilarning o'rni beqiyosdir. Talabalar o'z ustozlarining xulq-atvori, odobi va hayotiy pozitsiyasidan ibrat oladilar. Shu bois o'qituvchi o'zining ma'naviy pokligi, halolligi, adolatliligi va vatanparvarligi bilan yoshlar uchun ibrat namunasi bo'lishi lozim.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligi Ta'lim jarayonida talabalarga milliy qadriyatlar - Vatanga muhabbat, xalqimiz tarixi va an'analariga hurmat, o'zlikni anglash ruhida tarbiya berish muhim. Shu bilan birga, umuminsoniy qadriyatlar - inson huquqlari, adolat, bag'rikenglik, tinchliksevarlik g'oyalari bilan uyg'unlashgan holda o'rgatilishi kerak. Bu uyg'unlik yoshlarning dunyoqarashini kengaytiradi va ularni global dunyoda raqobatbardosh shaxs sifatida shakllantiradi.[5]

Talabalarning ijtimoiy faolligini oshirish. Sog'lom ma'naviy muhitni yaratishda talabalarning ijtimoiy hayotdagi faolligini kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. Talabalarni turli madaniy-ma'rifiy tadbirlarga, ijtimoiy loyihalarga, volontyorlik faoliyatlariga jalb etish orqali ularning mas'uliyat hissi, liderlik qobiliyati va jamoada ishlash ko'nikmalari rivojlanadi.

Axborot madaniyatini shakllantirish. Hozirgi davrda axborot oqimi kuchaygani sababli yoshlarning ma'naviy immunitetini mustahkamlash zarur. Talabalarga internet va ijtimoiy tarmoqlardan oqilona foydalanish, tanqidiy fikrlash, zararli g'oyalardan himoyalanish madaniyatini o'rgatish – sog'lom ma'naviy muhitni saqlashning muhim sharti hisoblanadi.[3]

Madaniy-ma'rifiy muhit va psixologik qo'llab-quvvatlash Oliy ta'lim muassasalarida madaniy-ma'rifiy muhitni boyitish, ijodiy to'garaklar, teatr kechalari, kitobxonlik musobaqalari orqali talabalar ruhiyatini ijobiy tomonga o'naltirish mumkin. Shu bilan birga, psixologik xizmatlar faoliyatini kuchaytirish, talabalar bilan individual ishlash, ularning muammolarini hal etishga ko'maklashish sog'lom muhitni yanada mustahkamlaydi.

Oila, jamiyat va ta'lim maskani hamkorligi talabani tarbiyalash jarayonida faqat universitet emas, balki oila, mahalla va jamoatchilik ham muhim rol o'ynaydi. Shu bois oliy ta'lim muassasalari ota-onalar va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikni mustahkamlashi zarur. Bunday hamkorlik orqali ma'naviy-axloqiy tarbiya yaxlit tizim sifatida amalga oshadi.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy-axloqiy tarbiya orqali sog‘lom muhit yaratish - yosh avlodning barkamol shaxs bo‘lib shakllanishi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq, yuksak ma’naviyatli inson sifatida voyaga yetishining asosiy kafolatidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.10.2019 y. “O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to’g’risida” PF-5847 Farmoni. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi 2019 yil 9 oktyabrь. www.lex.uz.

2. Akramova Sh., Salomov N. Yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish omillari – Toshkent: Ma’naviyat, 2015. – 30 b.

3. Begmatov A. Globallashuv, milliy ma’naviyat va axborot tizimlari. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi joriy arxivi, 2006.Jamoldinova.O.R Yoshlar sog’lom turmush madaniyatini rivojlantirishda uzviylik va uzluksizlik tamoyillari amal qilishining pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish. P.f.d. darajasini olish uchun yozilgan diss. Toshkent: JDPI . 2015 - 100 b

4. Jo’raev N. Ma’naviyat – inson qalbining sarchashmasi. - Toshkent: Ma’naviyat, 2015. – 30 b.

5. Shermuhammadov B. Sh. Yoshlar orasida milliy g’oya targ’iboti samaradorligini oshirish. (“Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati faoliyati misolida). Pedagogika fanlari doktori (DSc) olish uchun yozilgan diss. Toshkent 2016.

6. Quronov M. Mafkuraviy tahdid va yoshlar tarbiyasi. –T.: “Akademiya” 2008, -14 b

7. Davronova D. S. (2021). Factors of stabilization of a healthy spiritual environment in the family based on a synergetic approach. Middle European Scientific Bulletin, 11. https:// doi.org/ 10.47494/ mesb.2021.11.433

8. Fazilatli avlod. Uzluksiz ma’naviy tarbiya trilogiyasi. 3-qism. [Matn]: 7-18 yoshli bolalarni ma’naviy tarbiyalash bo’yicha qo’llanma. /Tuzuvchi mualliflar: A.Qodirov, M.Quronov, O.Musurmanova va boshqalar. – Toshkent: “Muharrir” nashriyoti. 2019. – B. 256. (2020 yil, yanvar)

GLOBALASHUV SHAROITIDA NATURALISTIK TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHGA TIZIMLI YONDASHUV

Norinov F.Q.
Qarshi DU mustaqil izlanuvchisi

Tayanch so‘zlar: ta’lim, pedagogika, tajriba, xorijiy adabiyot, tabiiy, jarayon.
Ключевые слова: образование, педагогика, опыт, зарубежная литература, естественный, процесс.
Key words: education, pedagogy, experience, foreign literature, natural, process.

РЕЗЮМЕ:
Mazkur maqolada tabiiy fanlarni o‘qitish jarayoni mazmuni yoritilgan. shuningdek, tabiiy fanlarni o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar, samarali tajribalar tahlili keltirilgan.
РЕЗЮМЕ:
В статье рассматривается содержание процесса преподавания естественнонаучных дисциплин. В нем также представлен анализ современных подходов и эффективного опыта преподавания естественных наук.
SUMMARY:
The article examines the content of the process of teaching natural sciences. It also presents an analysis of modern approaches and effective experience in teaching natural sciences..

“Rivojlanishning zamonaviy talablariga kelajak avlod ehtiyojariga putur yetkazmasdan javob berish” sifatida tavsif etiladigan “barqaror taraqqiyot” yoki “barqarorlik” yangi paradigma vazifasini bajarishi mumkin edi. Boshqacha qilib aytganda, o‘sib kelayotgan avlodning ehtiyojlarini hisobga olgan holda, mavjud imkoniyatlar doirasida yashash lozimligi uqtiriladi.

Zamonaviy davrda Yer haqidagi fanni uchta bir-biridan farqlanuvchi sohalarga ajratish mumkin va muhim tomoni shundaki, ularning har uchchalasi turli ta’limotlarni qiziqtirgan bir xil ma’lumotlarga tayanib faoliyat olib boradi. Yer haqidagi fan sohalarining barchasi ulkan geologik davrlar masshtablarida mujassam topgan jarayonlarning sodir bo‘lish tezligi bilan fundamental tarzda ish ko‘radi. Qamrov kengligiga ko‘ra, har uchchala soha ma’lum darajada globallik xususiyatiga ega va ularning o‘rganish obyektlari geotizim potensial hajmi hamda uning barqarorlik masalalari bilan uzviy bog‘liqdir. Jumladan:

-geologik faol qatlam, qobiqqa yaqin qatlamlar va ularda kechadigan ichki jarayonlar (gidrogeologiya, tuproq shakllanishi va eroziyasi, iqlim o‘zgarishi, magmatizm va tabiat tarixini talqin etishimiz uchun asos vazifasini o‘taydigan boshqa faol jarayonlar, jarayonning sodir bo‘lish ehtimolini baholash va bashorat qilish);

-tabiiy resurslarni tekshirish va ulardan foydalanish (bu sohada harakat usuli o‘tgan asr mobaynida – faqat qazilma konlarni axtarish, qazib chiqarish, vizuallashtirishning sezgir va samarali texnologiyalari joriy etilganligini istisno etsak – deyarli o‘zgarmadi va aytish lozimki, mazkur texnologiyalar qazilma konlarining davrlar mobaynida pasayib borayotgan mahsuldorlik darajasining o‘rnini qoplash, qazilma konlardan foydalanish tartibini takomillashtirish, ishlab chiqarish bilan qazilma konlardan foydalanish ravnaqi, ishlab chiqarish va ekologiya o‘rtasida kengayib borayotgan bog‘liqliklar natijasi o‘laroq, ishlab chiqildi);

Yerning Quyosh sistemasi paydo bo‘lgandan to hozirgi kunga qadar davr ichidagi tarixi (geodinamika, kosmik tasvir i quyosh sistemasidagi sayyoralarni o‘rganish sohasida sodir bo‘lgan o‘zgarishlar va shu kabilar).

Bugungi kunda tez sur’atlarda rivojlanayotgan, muhimligi umume’tirofga sazovor bo‘la borayotgan bu uchta ilm-fan sohasi geologiyaning bo‘limlari hisoblanadi. Geologiyaning bu uchta bo‘limi global ilmiy-siyosiy masalalarning ajralmas qismi. Shuning uchun jamiyat va jamoatchilik nazarida ular qiziqarli – faqat bu borada zarur ma’lumotlar hamda axborotlarning jamiyatga to‘liq va tezkor yetkazilib turilishi bois ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ko‘plab xorijiy davlatlarda, jumladan mamlakatimiz maktab ta’limi Davlat ta’limi standartlari bo‘yicha joriy etilgan yangi qoidalar, shu jumladan, Yer haqidagi fan sohasida ham yangiliklar tatbiq etilishi geologiyaning umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘z o‘rnini topishi sari tashlangan dastlabki qadamlar bo‘lmoqda.

Avvalo fundamental tadqiqotlarning jamiyat uchun foydali ekanligini tushuntirib berishni o‘rganish lozim. Buning uchun keng qamrovli ilmiy tavsiflarni, ulardan kasbga oid terminlarni olib tashlab, umumlashtira bilish va sodda, tushunarli ko‘rinishga keltirib, jamoatchilikka taqdim eta olish kerak bo‘ladi. Qolaversa, sof ilmiy bayon uslubiga xos bo‘lgan mulohazaviy asoslardan voz kechib, yangi ilmiy loyihalardan keladigan sof foyda va potensial imkoniyatlarning tub mohiyatini tushuntirish uslubiga o‘tish lozim.

Biz intilayotgan global kishilik jamiyatida Yer ekotizimining potensial hajmi va barqarorligi eng dolzarb masala darajasiga ko‘tarilmoqda. Jamiyat taraqqiyotning shunday yo‘lini topishi kerakki, toki atrof-muhit sofligiga

putur yetkazmasdan, Yerdagi mavjud resurslarni isrof qilmasdan, kishilarning umumjahon miqyosida farovonligini ta'minlash imkoni yaralsin. Shu jihatdan qaralsa, Yer haqidagi fanlar XXI asr ilm-fani olamida markaziy o'rinni egallashi muqarrar.

Naturalistik tafakkurni rivojlantirishning ta'limiy maqomini oshirishning maqsadga muvofiqligi bu fanni o'qitish metodikasining boshqa fanlardan, shular qatorida geografiyadan ham tubdan farq qilishi bilan izohlanadi. O'qitish metodikasidagi mavjud farqlar fanning nazariy sohasida ham, soha bo'yicha kasbiy faoliyatga tayyorlash fanlari mundarijasining to'ldirilish tarzida ham namoyon bo'ladi. Yana boshqa tomondan, tabiiy fanlarning tarixiy metodologiyasisiz biologiya o'tmish va kelajak o'rtasida bog'lanishsiz bo'lib qoladi, tabiiy jarayonlarning kimyosi abstraktlashadi, geografiya esa geologiya metodikasining ishtiroksiz sababsiz oqibatlar majmuasiga aylanib qoladi. ~

Naturalistik tafakkurnining umumta'lim fanlaridan biri sifatida ta'lim mazmun-mundarijasiga kiritilishi uchun bu fan yordamida hal etiladigan masalalar hamda uning o'ziga xos jihatlari asos bo'lib xizmat qiladi. Jumladan:

-naturalistikada Yerning bir necha milliard yillarga teng yoshi haqida ilmiy tafakkur shakllanishi uchun zamin yaratadi;

-tabiiy fanlarga oid dala sharoitida va laboratoriya majmualarida olib borilgan tadqiqotlar usul va mazmun jihatdan o'ziga xos bo'lib, boshqa fanlar sohasida olib borilgan tadqiqotlardan tubdan farq qiladi;

-vaqt va makon tushunchasi geologiya atomlar shakllanish jarayonidan Koinot paydo bo'lish darajasigacha bo'lgan davrlar hamda jarayonlarni qamrab oladi;

- tabiiy fanlar tabiatshunoslik va tabiiy fanlar uchun qat'iyan fanlararo bog'lab turuvchilik vazifasini bajaradi;

- tabiiy fanlar jamiyatning ekologik savodxonligini oshirishda va ekologik ta'limni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi;

- tabiiy fanlar majmuasiga kiruvchi fanlar bilimlarni aniqlashtirish va asbtraklashtirishning turli darajalarini o'zida mujassam etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Султанова Г. А. Комплексные экскурсии как средство экологического воспитания младших школников / Автореф. дис. канд. пед. наук.Т. – ТГПИ. -1995. – 18 с.

2. Суравегина И.Т., Сенкевич В.М., Как учит экологии: Кн. для учителЙ. - М.: Просвешение. - 1995.-142 с.

3. Turdiqulov E. Inson va havo. - T.: «Yozuvchi», 2002. - 48 b.

4. To'xtayev A. S. Ekologiya / Pedagogika institutlarining talabalari uchun o'quv qo'llanma. – T.: "O'qituvchi", 2001. - 144 b.

МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲӘМ РУЎХЫЙЛЫҚ ТИЙКАРЛАРЫ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

MÁNAWIYATI KÚSHLI XALIQ BARLÍQ TARAWǴA TIK KÓZ BENEN QARAY ALADI

Primbetov K.T.
Ájiniyaz atindaǵı NMPİ « Milliy ideya, ruwxıylıq tiykarları hám huqiq tálimi qánigeligi » p.i.f.d. (PhD).d.w.a.

Tayanch so'zlar: yoshlarning ta'lim-tarbiya olishi, komil inson bo'lib ma'naviyatli shaxs bo'lib voyaga yetishi, har tomonlama yetuk barkamol inson bo'lishi, ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlariga asoslangan kuchli ma'naviyatni bunyod etish.
Ключевые слова: воспитывать молодежь, вырастить совершенным человеком и духовной личностью, стать зрелой и совершенной личностью во всех отношениях, построить сильную духовность, основанную на богатом наследии и национальных ценностях наших предков.
Key words: to educate young people, to grow up as a perfect human being and a spiritual person, to become a mature and perfect person in all respects, to build a strong spirituality based on the rich heritage and national values of our ancestors.

РЕЗЮМЕ:
Ушбу мақолада маънавияти кучли халқнинг нимага қодир эканлиги ҳақида сўз этилади. Шунингдек халқимизнинг таълим тарбияга оид қарашларининг аҳамияти айтиб ўтилади.
РЕЗЮМЕ:
В этой статье обсуждается, на что способен народ с сильной духовностью. В ней также подчеркивается важность взглядов нашего народа на образование.
SUMMARY:
This article discusses the potential of a nation with a strong spirituality. It also emphasizes the importance of our nation's views on education.

Biziń xalqımız áyemnen uzaq bay tariyxqa iye. Ata-babalarımız ásirler dawamında tálim-tárbiya máselelerine qatań qaraǵan, sol sebepli olar óz náwbetinde áwladlarǵa tálim-tárbiya máselelerine baylanıslı bir qansha shıǵarmalar qaldırǵan. Bunday biybaha shıǵarmalar adamgershilik, kishipeyillik, miynet súygishlik, doslıq, iyman-isenim, miyrim-shápáát, ádep-ikramlılıq sıyaqlı ulıwma insanıylıq pazıyletlerdi qáliplestiriwdiń ózine tán usılların jámlegen. Jámiyette hár tárepleme jetik, bárkamal insan óz-ózinen payda bolmaydı, bunday kámil insanlar ata-babalar qaldırǵan ulıwma insanıylıq dástúrler, milliy qádiriyatlar tiykarında tárbiyalanadı.

Adamzat dúnyaǵa keler eken, bul dúnyanıń aq-qarasınan biyxabar boladı. Olardan ómiri dawamında maǵlıwmatlar alıp baradı, sınalıp usı tárizde rawajlanadı. Hár qádemde hár qıylı shielenisler, hár qıylı mashqalalar shıǵıp qalıwı múmkin, bunday jaǵdayda ata-analardıń másláhátleri, tálim-tárbiya berip perzentin qıysıq jolǵa kiriwden saqlaydı. Perzentin jaslıǵınan tálim-tárbiya berip joqarılatıp, olardı qáte joldan saqlap turıwshı bul onıń ata-anası. Sol sebepli de tárbiya shańaraqtan baslanadı, perzenttiń jaqsı insan bolıp ósiwi ata-ananıń moynındaǵı úlken juwapkershiliklerden biri. Hikmetlerde: "Balalarıńızdı tárbiyalamań, ózińizdi tárbiyalań. Olar báribir sizge uqsaǵan boladı" - delingen [1].

Perzent úydiń aynası, ol úyde alǵan tárbiyasın jámiyette kórsetedi. Sol sebepli de ata-ana ózin-ózi tárbiyalaǵan bolıwı kerek. Qus uyasında kórgenin isleydi degendey, perzent te ata-anasına talpınadı, olardan kórgenin tákirarlaydı. Ata-ana perzentine ózi úlgi bola alsa ǵana perzent tárbiyalı, bilimli hám mánawiyatlı bolıp ósedi.

Mine, usınday eken, turmısta tálim-tárbiyada mánawiyat ayrıqsha áhmietke iye. Tek mánawiyatlı insan ǵana ómirde óz ornın iyeleydi, kámil insan bolip qáliplesedi, rawajlanadı. Ózbekstanda ǵárezsizliktiń dáslepki jıllarınan baslap mánawiyat máselelerine, onıń jaslarda qáliplesiwi hám rawajlanıw mashqalasına úlken áhmiyet berilip kelinbekte. Mánawiyattı joqarılatıw mámleketimizde mámleketlik siyasat dárejesine kóterildi. Bul haqqında Ózbekstan Respublikası Prezidenti Sh.M.Mirziyoevtiń 2021-jıl 19-yanvar kúni ruwxıy-aǵartıwshılıq jumıslar sistemasın túp-tiykarınan jetilistiriw, bul baǵdarda mámleketlik hám jámiyetlik shólkemlerdiń birge islesiwin kúsheytiw máseleleri boyınsha ótkerilgen videoselektor májilislerinde tómendegi pikirlerdi ayttı: "Eger jámiyet turmısınıń denesi ekonomika bolsa, onıń janı hám ruwxı mánawiyat bolıp tabıladı. Biz jańa Ózbekstandı qurıwǵa qarar etken ekenbiz, eki bekkem súenishke súenemiz. Birinshisi bazar principlerine tiykarlanǵan kúshli ekonomika, ekinshisi - ata-babalarımızdıń bay miyrası hám milliy qádiriyatlarına tiykarlanǵan kúshli mánawiyat." [2].

Mámleketimizde qurılıp atırgan puqaralıq jámiyeti ruwxiy bárkamal, ruwxiy jetik shaxslar jámiyeti bolıwı da temanıń áhmiyetliligin kórsetetuǵin faktorlardan biri. Temanıń áhmietliligin belgileytuǵın jáne bir áhmiyetli tárepi sonda, biziń jámiyetimizge jat bolǵan kúshler: terroristler, diniy dogmatistler, transmilliy, kiberjınayachılıq hám basqa da buzǵınshı ideyalardı tasıwshılar tiykarǵı itibardı jas óspirimler hám jaslardı óz táreplerine awdarıwǵa háreket etpekte. Sebebi ruwxıylıqqa qáwip mámleketti kriziske alıp keliwi múmkinligin olar júdá jaqsı túsinedi. Jaslardı joqarı ádep-ikramlılıq hám tártipli etip

Ushbu ko'rinishdagi funksiya eksponent bilan cheklangan chiziqli o'sish ifodasi bo'lib, u ko'plab real hayotiy jarayonlarda uchraydi. Bu kabi funksiyalar quyidagi asosiy xususiyatlarga ega. Boshlanishda o'sish sodir bo'ladi chunki chiziqli t soni ustun bo'ladi. Ma'lum bir vaqt o'tib, eksponentli kamayish komponenti ustunlik qiladi. Natijada funksiya maksimumga yetadi va so'ngra pasaya boshlaydi. Bu ekstremum nuqtasi ko'pincha eng samarali vaqt, optimal miqdor, yoki eng yuqori foyda bilan bog'liq bo'ladi. Funksiyaning birinchi hosilasi kritik nuqtalar va ekstremumlari

$$C'(t) = (50 \cdot t \cdot e^{-0,5t})' = 50 \cdot e^{-0,5t} + 50 \cdot t(-0,5) \cdot e^{-0,5t} = e^{-0,5t}(50 - 25t)$$

Kritik nuqtalar uchun: $C'(t) = 0 \Rightarrow 50 - 25t = 0 \Rightarrow t = 2$

Bu nuqtadagi qiymat: $C(2) = 50 \cdot 2 \cdot e^{-1} = \frac{100}{e} = 36,79\ {}^{mg}/_{l}$;

Asosiy fiziologik bosqichlar

1. Singish bosqichi $0 < t < 2$ dorining qonga singishi faollik bosqichida bo'lib, kontsentratsiya tez o'sadi. Bu davrda dori plazmaga tez so'riladi va terapevtik ta'sir ko'rsata boshlaydi.

2. Maksimal ta'sir vaqti $t = 2$ soat vaqtida qon tarkibidagi kontsentratsiya maksimal qiymatga 36,79 ${}^{mg}/_{l}$ yetadi. Bu nuqta dorining eng samarali ta'siri ko'rinadigan vaqtni ifodalaydi. Bu vaqtda bemorda terapevtik effekt eng yuqori bo'ladi.

3. Eliminatsiya bosqichi $t > 2$ bu vaqtdan so'ng, dori moddasining chiqarilishi metabolizm va ekskresiya ustunlik qiladi. Kontsentratsiya kamayadi, dori samarasi sekin-asta susayadi. **Birinchi tartibli hosila** yordamida aniqlangan $t = 2$ nuqtasi, dori kontsentratsiyasining ekstremum nuqtasini bildiradi. Bu vaqtda dori ta'siri **maksimal**, qo'shimcha dozalash zarurligi yuzaga kelishi mumkin, dozani oshirmaslik kerak, chunki kontsentratsiya cho'qqiga yetgan. Tahlil yordamida organizmda dorining haddan tashqari to'planishidan ogohlantiruvchi chegaralar aniqlanadi.Intoksikatsiya xavfini kamaytirish uchun bu turdagi tahlil **farmakologik xavfsizlikni**

kafolatlaydi. Har bir bemor uchun eliminatsiya tezligi k qiymati farqli bo‘lishi mumkin. Shunga ko‘ra, **optimal doza va vaqt oralig‘i** individual tarzda hisoblab chiqiladi.

$$C(t) = 50 \cdot t \cdot e^{-0,5t}$$

Bu matematik model orqali dori ta’sirining boshlanishi, eng kuchli ta’sir ko‘rsatadigan vaqt, dozalashni takrorlash zarurati, davolashning samaradorligi va xavfsizligi klinik jihatdan asoslab beriladi. Differensial hisob vositalari orqali bunday funksiyalarni tahlil qilish zamonaviy tibbiyotda farmakokinetik modellashtirishning asosiy poydevorlaridan biridir.

Ovqat sanoatida sifatli mahsulot ishlab chiqarish jarayonida harorat nazorati muhim rol o‘ynaydi. Avtomatlashtirilgan pishirish tizimlarida haroratning dinamikasini oldindan bilish mahsulotning sifatini barqaror saqlash, ortiqcha energiya sarfini kamaytirish va xavfsiz pishirish me’yorlariga rioya qilish imkonini beradi. Bunday tizimlarda matematik modellashtirish pishirish jarayonini aniq bashoratlash va boshqarish vositasi sifatida ishlatiladi.

Pishirish vaqtida mahsulotning ichki harorati o‘zgarib boradi. Bu o‘zgarish differensial hisob vositalari yordamida tahlil qilinib, optimal pishirish vaqti, ya’ni mahsulot zarur haroratga erishgan vaqti, aniqlanadi. Mazkur funksiyaning birinchi va ikkinchi tartibli hosilalari, harorat grafigining xatti-harakatlari, botiqligi va gorizontal asimptotasi orqali bu jarayon nazariy jihatdan asoslab beriladi.

Amaliy masalada pishirish jarayonida mahsulotning ichki harorati vaqtga bog‘liq holda quyidagicha ifodalanadi:

$$T(t) = 300 - 200 \cdot e^{-0,1t}, t \geq 0$$

Bu model **sovish qonuni** asosida tuzilgan bo‘lib, harorat o‘zgarishi tashqi muhit (ya'ni pech) harorati bilan bog‘liq tarzda eksponensial tusda bo‘ladi. Bu yerda: $T(t) -$ mahsulotning ichki harorati $°C$ vaqt t da, t - vaqt (minutlarda), 300°C - pechning barqaror harorati (tashqi muhit harorati), $200 -$ dastlabki harorat farqi. $e^{-0,1t} -$ mahsulot ichki haroratining vaqtga bog‘liq ravishda oshish modeli.

Boshlang‘ich qiymat $T(0) = 300 - 200 \cdot e^{-0,1 \cdot 0} = 300 - 200 = 100^0 C$;

Bu mahsulotning dastlabki ichki haroratidir. Chegara qiymat asimptotik limit

$$\lim_{t \to \infty} T(t) = 300^0\, C$$

Bu qiymat pechning maksimal barqaror harorati bo‘lib, mahsulot unga yaqinlashadi, lekin hech qachon oshmaydi. Funksiyaning birinchi hosilasi yordamida monotonlik tahlilini qaraymiz: $T'(t) = (300 - 200 \cdot e^{-0,1 \cdot t})' = 20 \cdot e^{-0,1 \cdot t}$ $e^{-0,1 \cdot t} > 0$ har doim, shuning uchun $T'(t) > 0$ har qanday $t \geq 0$ uchun. Demak, harorat doim o‘suvchi funksiya. Mahsulot ichki harorati vaqt o‘tishi bilan doim oshadi, ya’ni mahsulot qizib boradi. Ammo bu o‘sish tezligi pasayadi, bu holatni aniqlash uchun ikkinchi tartibli hosila olinadi.

$$T''(t) = 20 \cdot e^{-0,1 \cdot t} = -2 \cdot e^{-0,1 \cdot t}$$

$T''(t) < 0$ har qanday $t \geq 0$ uchun. Bu **funksiya har doim botiq** ekanligini bildiradi. Mahsulot ichki harorati tezda o‘sadi, lekin vaqt o‘tishi bilan bu o‘sish **sekinlashadi**. Bu holat mahsulot ichki harorati **to‘yinganlik holati** tomon ketayotganini bildiradi.

$$\lim_{t \to \infty} T(t) = 300^0\, C$$

Mahsulot hech qachon $300°C$ dan yuqoriga o‘tmaydi. Shuning uchun $300°C$ **barqaror holat**, ya’ni **cheksiz vaqt davomida pishirilsa ham harorat o‘zgarmaydi**.

Biz mahsulotni pechdan qachon olish kerakligini aniqlashimiz kerak. Buning uchun quyidagilar e’tiborga olinadi. Harorat juda yuqori bo‘lgan, lekin $300°C$ ga yetmagan, Haroratning o‘sish tezligi ya’ni $T'(t)$ juda kichik bo‘lgan.

$$T(30) = 300 - 200 \cdot e^{-0,1 \cdot 30} = 300 - 200e^{-3} \approx 300 - 200(0,498) \approx 290^0 C ;$$

$$T'(30) = (300 - 200 \cdot e^{-0,1 \cdot t})' = 20 \cdot e^{-3} = 20 \cdot 0,0498 \approx 1,0^0\, {}^{C}/_{min}$$

Bu mahsulotni pishirishning **samarali oxirgi bosqichi** harorat deyarli maksimal, o‘sish sekin, mahsulot kuymaydi. Harorat funksiyasi mahsulotni haddan tashqari pishishdan himoya qiladi. Qavariqlik (botiqlik) mavjudligi mahsulot ortiqcha qizib ketmasligini ko‘rsatadi. Bu model

pishirishni avtomatlashtirish, energiya tejash, sifatni barqaror saqlash uchun qo‘llaniladi sensorli tizimlar bu model asosida haroratni nazorat qilib, mahsulotni avtomatik ravishda pechdan chiqarishi mumkin.

Differensial hisob orqali pishirish jarayoni matematik modellashtirildi va optimal vaqt aniqlandi. Bu usul orqali mahsulot pishirilgan, ammo kuymagan holatda olindi, pishirish jarayoni nazorat ostida bo‘ladi, raqamli texnologiyalar asosida intellektual boshqaruv algoritmlari ishlab chiqiladi.

Ushbu maqolada differensial hisobning tibbiyot va oziq-ovqat sanoati sohalarida real va amaliy muammolarni hal etishdagi muhim roli chuqur tahlil qilindi. Farmakokinetik jarayonlar dori vositalarining organizmdagi harakati va konsentratsiyasi o‘zgarishini ifodalovchi matematik tavsiflarda differensial analiz vositalari orqali dori moddasining maksimal samarali ta’sir ko‘rsatadigan vaqti, organizmdagi to‘planish xavfi, eng maqbul dozalanish rejimlari aniqlanishi mumkinligi isbotlandi. Hosilalar orqali ekstremum nuqtalarni topish orqali dori konsentratsiyasining cho‘qqi qiymatini $t = 1/k$ aniqlash orqali dori terapiyasining individualizatsiyasi, xavfsizligi va samaradorligi oshiriladi. Masalani C++ dasturlash tili yordamida tahlil qilib chiqamiz:

Programiz
C++ Online Compiler

main.cpp

```cpp
#include <iostream>
#include <cmath>   // exp() funksiyasi uchun
#include <iomanip> // chiqishda aniqlik berish uchun

using namespace std;

// Dori kontsentratsiyasi funksiyasi
double C(double t) {
    return 50 * t * exp(-0.5 * t);
}

// Mahsulot harorati funksiyasi
double T(double t) {
    return 300 - 200 * exp(-0.1 * t);
}

int main() {
    cout << fixed << setprecision(4);

    // 1. Farmakokinetika misoli
    cout << "=== Farmakokinetika: Dori kontsentratsiyasi ===\n";
    double maxC = 0, tMax = 0;
    for (double t = 0; t <= 10; t += 0.1) {
        double cVal = C(t);
        if (cVal > maxC) {
            maxC = cVal;
            tMax = t;
        }
    }
    cout << "Maksimal kontsentratsiya vaqtida t = " << tMax
         << " soat, C(t) = " << maxC << " mg/l\n\n";

    // 2. Oziq-ovqat sanoati misoli
    cout << "=== Oziq-ovqat sanoati: Pishirish jarayoni ===\n";
    for (int t = 0; t <= 30; t += 5) {
        cout << "t = " << t << " minut, T(t) = " << T(t) << " °C\n";
    }

    cout << "\n30 minut oxirida T(30) ≈ " << T(30)
         << " °C (optimal pishirish harorati)" << endl;

    return 0;
}
```

Output

```
=== Farmakokinetika: Dori kontsentratsiyasi ===
Maksimal kontsentratsiya vaqtida t = 2.0000 soat, C(t) = 36.7879 mg/l

=== Oziq-ovqat sanoati: Pishirish jarayoni ===
t = 0 minut, T(t) = 100.0000 °C
t = 5 minut, T(t) = 178.6939 °C
t = 10 minut, T(t) = 226.4241 °C
t = 15 minut, T(t) = 255.3740 °C
t = 20 minut, T(t) = 272.9329 °C
t = 25 minut, T(t) = 283.5830 °C
t = 30 minut, T(t) = 290.0426 °C

30 minut oxirida T(30) ≈ 290.0426 °C (optimal pishirish harorati)


=== Code Execution Successful ===
```

Maqolada oziq-ovqat sanoatida mahsulotni pishirish jarayonini nazorat qilishda ichki harorat o‘zgarishining matematik tavsifi asosida tahlil qilindi. Eksponent ko‘rinishidagi funksiya yordamida mahsulot ichki haroratining vaqtga bog‘liq oshishini tavsiflash, uning maksimal qiymatga yaqinlashishini, haroratning o‘sish tezligi va botiqligi (ikkinchi tartibli hosila orqali) aniqlash imkoniyati amalda ko‘rsatib berildi. Bu esa, mahsulotni optimal vaqtda pishirish, energiya sarfini kamaytirish va xavfsizlikni ta’minlash imkonini beradi.

Har ikkala misolda ham differensial hisob vositalari birinchi va ikkinchi tartibli hosilalar, ekstremumlar, asimptotalar va monotonlik kabi tushunchalar orqali murakkab real jarayonlarni modellashtirish, boshqarish va bashorat qilishning nazariy hamda amaliy asosi yoritildi. Ushbu yondashuvlar zamonaviy raqamli monitoring va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarining poydevorini tashkil qiladi.

Maqola differensial hisobning faqat nazariy emas, balki hayotiy ahamiyatga ega amaliy vosita sifatida ilmiy salohiyatini tasdiqladi. Bu metodologiya kelajakda tibbiy texnologiyalar, biofarmatsevtika, oziq-ovqat muhandisligi va boshqa ko‘plab sanoat tarmoqlarida xavfsizlikni oshirish, samaradorlikni ko‘paytirish va resurslarni optimal boshqarishda keng qo‘llanilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.I.Abdullayev, O.S.To‘laganov Oliy matematika asoslari (amaliy yo‘nalishlar uchun). - Toshkent: TDPU nashriyoti, 2022.-360 bet.

2. S.Matmurodov Tibbiyotda matematik modellashtirish asoslari. – Toshkent: “Iqtisod-moliya” nashriyoti, 2020. - 256 bet.

DIFFERENSIAL USULLAR YORDAMIDA TABIIY VA IJTIMOIY JARAYONLARNI TAHLIL QILISH

Abdullayeva D.A.
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti,
Oliy matematika va axborot texnologiyalari kafedrasi katta o'qituvchi

Tayanch so'zlar: limit, hosila, urinma, matematik analiz, jarayonlar, modellashtirish, tezlik, zichlik, o'sish sur'ati, geometrik ta'rif, analitik yondashuv, fanlararo integratsiya, amaliy matematika, muhandislik hisoblari, matematik tavsiflash.
Ключевые слова: предел, производная, касательная, математический анализ, реальные процессы, моделирование, скорость, плотность, темп роста, геометрическое определение, аналитический подход, междисциплинарная интеграция, прикладная математика, инженерные расчёты, математическое моделирование.
Key words: limit, derivative, tangent, mathematical analysis, processes, modeling, velocity, density, growth rate, geometric definition, analytical approach, interdisciplinary integration, applied mathematics, engineering calculations, mathematical modeling.

РЕЗЮМЕ:
Mazkur maqolada matematik analizning asosiy tushunchalaridan biri - limit va undan hosil bo'luvchi hosila va urinma tushunchalarining nazariy hamda amaliy ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot davomida bu tushunchalarning zamonaviy fan va texnologiyalarda - xususan, muhandislik, informatika, fizika, biologiya va iqtisodiyot kabi sohalarda jarayonlarni modellashtirishdagi roli chuqur tahlil qilinadi. Egri chiziqqa urinmaning geometrik va analitik ta'rifi orqali limit tushunchasining mohiyati ochib beriladi va bu orqali o'zgaruvchan jarayonlarning matematik ifodalanishi asoslab beriladi.
Maqolada keltirilgan turli fanlar kesimidagi masalalar elektr toki kuchining oniy qiymati, bakteriyalar sonining o'sish tezligi, sterjen zichligi, aholi sonining yillik o'zgarishi hamda neft oqimi misolida limit va hosilaning amaliy tatbiqi ko'rsatib berilgan. Shu orqali matematik yondashuvlar yordamida fizik va ijtimoiy jarayonlarni tahlil qilish, optimallashtirish va bashoratlash imkoniyatlari ilmiy asosda yoritilgan.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье раскрывается одно из основных понятий математического анализа предел, а также связанные с ним производная и касательная, их теоретическое и практическое значение. В ходе исследования подробно анализируется роль этих понятий в моделировании процессов в современных науке и технологиях в частности, в инженерии, информатике, физике, биологии и экономике. С помощью геометрического и аналитического определения касательной к кривой раскрывается сущность понятия предела, что позволяет обосновать математическое выражение изменяющихся процессов В статье на примерах междисциплинарных задач показывается практическое применение предела и производной: мгновенное

значение силы электрического тока, скорость роста числа бактерий, плотность стержня, ежегодное изменение численности населения, а также поток нефти. Тем самым научно обосновываются возможности анализа, оптимизации и прогнозирования физических и социальных процессов с помощью математических подходов.

SUMMARY:

This article explores one of the fundamental concepts of mathematical analysis the limit along with its derivative notions such as the derivative itself and the tangent line, highlighting both their theoretical foundations and practical significance. The research provides a thorough analysis of how these concepts are applied in modern science and technology, particularly in fields such as engineering, computer science, physics, biology, and economics, to model real-world processes. Through the geometric and analytical interpretation of the tangent to a curve, the essence of the limit concept is explained, offering a mathematical framework for analyzing variable processes such as velocity, flow density, and growth rates. The article presents practical problems across various scientific disciplines including instantaneous electric current, bacterial growth rate, rod density, annual population change, and oil flow rate demonstrating the real-life applications of limits and derivatives.

Bugungi ilm-fan taraqqiyoti, texnika va texnologiyalarning keskin rivojlanishi sharoitida aniq fanlar, xususan, oliy matematika fani zamonaviy muhandislik, texnologiya, iqtisodiyot, tibbiyot, biologiya, informatika va boshqa ko‘plab sohalarda asosiy nazariy vositalardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Jumladan, funksiyalarni tahlil qilish, limitlar nazariyasi, hosila tushunchasi va ularni amaliyotga tadbiq etish zamonaviy muhandislik hisoblarining ajralmas qismi hisoblanadi. Oliy matematikaning bu boblari yordamida fizikaviy jarayonlarni modellashtirish, texnologik qurilmalarni loyihalash, biologik o‘sish jarayonlarini tahlil qilish, iqtisodiy prognozlar berish va ko‘plab boshqa real masalalarni hal qilish imkonini beradi.

Funksiyaning limitini topish va uning hosilasini aniqlash orqali harakat tezligi, o‘zgaruvchan o‘lchamlar, oqimlar, zichliklar, tok kuchi, o‘sish tezliklari kabi hayotiy kattaliklarni baholash mumkin. Bu matematik yondashuv fizik, texnik va ijtimoiy jarayonlarni chuqur tahlil qilish, optimallashtirish va nazorat qilishga imkon beradi. Urinma va kesuvchi tushunchalari esa ushbu jarayonlarning geometriyaviy va analitik asoslarini tashkil qiladi.

Matematik analizning asosiy tushunchalaridan biri - bu limit bo‘lib, u orqali uzluksizlik, hosila va integral tushunchalari aniqlanadi. Limit nazariyasi yordamida funksiyaning ma’lum bir nuqtadagi xatti-harakatini aniqlash, ya’ni u shu nuqtada qanday qiymatga yaqinlashishini tushunish mumkin bo‘ladi. Masalan, egri chiziqqa urinma tushunchasi limitga asoslanadi. Agar egri chiziqdagi biror nuqtaga yaqinlashayotgan kesuvchi chiziq mavjud bo‘lsa, holda bu kesuvchi urinmaga aylanadi va uning burchak koeffitsienti funksiyaning hosilasi bilan aniqlanadi.

Boshqacha aytganda, egri chiziqqa urinma bu kesuvchi chiziqning limit holati bo‘lib, geometriya bilan bog‘liq muhim tushuncha hisoblanadi. Urinma burchagining tangensi, ya’ni burchak koeffitsienti, funksiyaning shu nuqtadagi hosilasini bildiradi. Shu ko‘rinishdagi limitlar va hosilalarni hisoblash muhandislik, tabiiy va ijtimoiy fanlarda keng qo‘llaniladi. Masalan, fizikada tok kuchining oniy qiymatini topishda, kimyo va biologiyada reaksiyalar tezligi yoki organizmlar sonining o‘sish tezligini aniqlashda, mexanikada sterjen yoki jismlarning zichligini belgilashda, iqtisodiyotda esa aholi sonining o‘sish sur’ati yoki ishlab chiqarish hajmidagi o‘zgarishni aniqlashda foydalaniladi.

Hosilaning fizik mazmuni harakat tezligi, oqim tezligi, o‘zgarish intensivligi kabi tushunchalar bilan chambarchas bog‘liq. Shuning uchun ham hosila faqat nazariy matematika tushunchasi bo‘lib qolmay, amaliy muhandislik va ilmiy hisob-kitoblarning ajralmas qismidir. Ayniqsa, dinamik jarayonlar, ya’ni vaqtga bog‘liq o‘zgarishlarni ifodalovchi modellar uchun hosila fundamental ahamiyat kasb etadi.

Quyidagi maqolada urinma tushunchasi, uning limit orqali hosil bo‘lishi va burchak koeffitsientini hisoblash usullari batafsil tahlil qilinadi. Shuningdek, limit va hosila tushunchalariga asoslangan bir nechta real hayotiy masalalar yechilib, ularning matematik asoslari

va fizik mazmuni keng yoritiladi. Keltirilgan misollar orqali o‘quvchilar va tadqiqotchilar matematik nazariyaning hayotdagi qo‘llanilishi va foydasini chuqur anglab yetish imkoniga ega bo‘ladilar.

Shu jihatdan, ushbu ilmiy ishning dolzarbligi oliy matematikadagi abstrakt tushunchalarning konkret hayotiy jarayonlarga tatbiq etilishi, limit va hosila yordamida dinamik jarayonlarni modellashtirish va tahlil qilish imkoniyati, elektronika, mexanika, biologiya va iqtisodiyotda hosila yordamida o‘zgarishlarni tahlil qilish yondashuvi hamda matematik bilimlarni amaliy masalalarga yo‘naltirish orqali o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda namoyon bo‘ladi.Yuqoridagi fikrlar asosida ushbu maqola egri chiziqqa urinma, limit va hosila tushunchalari, ularning nazariy asoslari va amaliy qo‘llanilishi haqida to‘liq tasavvur berish bilan birga, o‘quvchi-yoshlarning mustaqil tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Egri chiziqqa o‘tkazilgan urinma haqida umumiy tushuncha beramiz. L uzluksiz egri chiziqda M M_1 nuqtalarni olamiz (1 chizma). Bu nuqtalar orqali o‘tuvchi MM_1 to‘g‘ri chiziqni kesuvchi deb ataymiz. M_1 nuqta L chiziq bo‘ylab harakatlanib, biror M nuqtaga chegaralanmagan holda yaqinlashsin. U holda M nuqtaning atrofida MT limitga intiladi.

Berilgan egri chiziqqa M nuqtada o‘tkazilgan urinma deb, MM_1kesuvchining MT holatiga aytiladi. Bunda ikki kesishish nuqtasi M_1 chegaralanmagan holda M nuqtaga yaqinlashadi.

Endi $M(x,y)$ nuqtada vertikal bo‘lmagan urinmaga ega uzluksiz $y=f(x)$ funksiyaning grafigini qaraymiz. Uning burchak koeffitsienti $k=tg\alpha$ ga teng, bu erda α - urinmaning OXo‘qi bilan hosil qilgan burchagi.

Abssissasi $x+\Delta x$ bo‘lgan M va M_1 nuqtalar orqali grafikka kesuvchi o‘tkazamiz (rasm 1). MM_1kesuvchi vaOX o‘qi orasidagi burchakni $\varphi\varphi$ bilan belgilaymiz. 1-chizmadan ko‘rinadiki, kesuvchining burchak koeffitsienti

$$k=\frac{f(x+\Delta x)-f(x)}{\Delta x}$$



1 rasm.

Funksiyaning uzluksiz ta’rifiga ko‘ra $\Delta x\to 0$ da Δy ham nolga intiladi; shuning uchun M_1 nuqta egri chiziq bo‘ylab M_1nuqtaga chegaralanmagan holda yaqinlashadi, MM_1 kesuvchi esa M_1nuqtaning atrofida urinmaga aylanadi. Burchak

$\varphi\to\alpha$, ya’ni $\lim\limits_{\Delta x\to 0}\varphi=\alpha$

Demak,

$$\lim_{\Delta x\to 0} tg\varphi=tg\alpha \qquad (1)$$

Spuning uchun urinmaning burchak koeffitsienti

$$k=\frac{\Delta y}{\Delta x}=\frac{f(x+\Delta x)-f(x)}{\Delta x} \qquad (2)$$

(1) va (2) ko‘rinishdagi limitlarni hisoblash bir qancha masalalarni echishda qo‘llaniladi. Quyidagilarni ko‘rsatishimiz mumkin:

Agar $Q=Q(t)$ - o‘tkazgichdan t vaqt mobaynida o‘tgan elektronlar soni bo‘lsa, u holda t vaqt davomidagi tok kuchi

$$I = \lim_{\Delta t \to 0} \frac{\Delta Q}{\Delta t} = \lim_{\Delta t \to 0} \frac{Q(t+\Delta t) - Q(t)}{\Delta t} \qquad (3)$$

Agar $N = N(t)$ - t vaqt mobaynida kimyoviy reaksiyaga kirishadigan unsurlar soni bo‘lsa, u holda t vaqtdagi reaksiya tezligi

$$\mathrm{V} = \lim_{\Delta t \to 0} \frac{\Delta \mathrm{N}}{\Delta t} = \lim_{\Delta t \to 0} \frac{\mathrm{N(t+\Delta t)\text{-}N(t)}}{\Delta t} \qquad (4)$$

Agar $m = m(x)$ - $\mathrm{O}(0,0)$ va $\mathrm{M}(x,0)$ nuqtalar orasidagi bir jinsli sterjenning massasi bo‘lsa, u holda sterjenning x nuqtadagi chiziqli zichligi

$$\gamma = \lim_{\Delta t \to 0} \frac{\Delta m}{\Delta t} = \lim_{\Delta t \to 0} \frac{m(t+\Delta t) - m(t)}{\Delta t} \qquad (5)$$

$(1) - (3)$ limitlar bir xil ko‘rinishga ega bo‘lib, ularning barchasida funksiya orttirmasining argument orttirmasiga nisbatining limitini topish talab hilinadi.

Masala. Elektr toki kuchining oniy qiymatini aniqlash: O‘tkazgichdan t vaqt davomida o‘tgan zaryad miqdori quyidagi funksiya bilan berilgan:

$$Q(t) = 2t^3 + 5t^2 + 3t\ [Kulon]$$

$t = 2$ sekund vaqtda o‘tkazgichdagi tok kuchining oniy qiymatini aniqlang.

Yechish. Tok kuchining oniy qiymati zaryad funksiyasining hosilasidir:

$$I(t) = Q'(t) = \frac{d}{dt}(2t^3 + 5t^2 + 3t) = 6t^2 + 10t + 3;$$

$$I(2) = 6 \cdot 4 + 10 \cdot 2 + 3 = 47 \text{ Amper}$$

Javob: $t = 2$ da tok kuchining oniy qiymati 47 Amper.

Masala . Biologik jarayonda o‘sish tezligini aniqlash. Bakteriyalar soni vaqtga bog‘liq holda quyidagicha o‘smoqda:

$$N(t) = \frac{800}{(1 + 4e^{(-0,3t)})}$$

3-soatda bakteriyalar sonining o‘sish tezligini aniqlang.

Yechish:

Bu logistik funksiyaning hosilasini olamiz:

$$N'(t) = \frac{d}{dt}\left(\frac{800}{(1 + 4e^{(-0,3t)})}\right)$$

t = 3 da:

$e^{(-0,3\cdot 3)} \approx 0.4066 \Rightarrow N'(t) = (800 \times 4 \times 0.3 \times 0.4066) / (1 + 4 \times 0.4066)^2 \approx 97.6 / (2.6264)^2 \approx 14.2$ bakteriya/soat;

Javob. 3-soatda bakteriyalar soni 14.2 ta/soat tezlik bilan ortmoqda.

Masala. Metall sterjenning chiziqli zichligini aniqlash

Sterjenning 0 dan x gacha bo‘lgan uzunlikdagi massasi quyidagicha aniqlanadi:

$$m(x) = x^2 + 4x\ [gramm]$$

$x = 5\ sm$ da sterjenning chiziqli zichligini (massaning uzunlikka nisbiy o‘zgarishi) aniqlang.

Yechish. Chiziqli zichlik bu m(x) funksiyasining hosilasidir:

$$\gamma(x) = m'(x) = \frac{d}{dx}(x^2 + 4x) = 2x + 4$$

$$\gamma(5) = 2 \cdot 5 + 4 = 14\ gramm/sm$$

Javob. $x = 5\ sm$ da zichlik 14 g/sm**;**

Masala. Aholi sonining o‘sish tezligini topish (Iqtisodiy demografiya)

Aholi soni yiliga quyidagicha ortmoqda:

$$P(t) = 3\,000\,000 + 200\,000t + 10\,000t^2$$

5-yilda aholi sonining o‘sish tezligini (yillik oniy ortish) aniqlang.

Yechish.

O‘sish tezligi bu $-P(t)$ funksiyasining hosilasdir:

$$P'(t) = \frac{d}{dt}(3\,000\,000 + 200\,000t + 10\,000t^2)$$

$$P'(5) = (200\,000 + 20\,000 \cdot 5)$$

Javob: 5-yilda aholi sonining o‘sish tezligi 300 000 $kishi/yil$.

Masala. Neft quvuridagi oqim tezligini aniqlash

Quvurlardan o‘tayotgan neft hajmi vaqtga qarab quyidagicha o‘zgaradi:

$$V(t) = 150t - 4t^2$$

$$V'(t) = \frac{d}{dt}(150t - 4t^2) = 150 - 8t$$

$t = 3$ minutda $V'(3) = 150 - 24 = 126$ $^{litr}/_{minut}$

Hozirgi zamon texnologiyalari, axborot-kommunikatsiya tizimlari va fan taraqqiyotining jadal sur’atlar bilan rivojlanib borayotgan davrida matematik analiz, ayniqsa, limit va hosila tushunchalari ilm-fanning deyarli barcha sohalarida nazariy va amaliy muammolarni hal etishda asosiy vosita sifatida qaralmoqda. Ushbu ilmiy maqolada limit tushunchasiga asoslangan urinma va kesuvchi g‘oyalari, ularning analitik ifodalanishi va matematik asoslari chuqur tahlil qilinib, ular orqali turli real jarayonlarni matematik tavsiflash imkoniyatlari atroflicha ko‘rib chiqildi.

Maqola davomida ko‘rsatib o‘tilganidek, urinmaning burchak koeffitsientini limit orqali aniqlash orqali harakat, oqim, o‘sish, zichlik, ortish tezligi kabi turli xil fizik, biologik va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish mumkin bo‘ladi. Muhandislik, fizika, informatika, iqtisodiyot, biologiya, demografiya, ekologiya kabi fanlarda bu kabi differensial yondashuvlar muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Berilgan misollar orqali har bir sohaga xos bo‘lgan jarayonlar (elektr toki kuchining oniy qiymatini topish, bakteriyalar sonining o‘sish tezligini aniqlash, metall jismlarning chiziqli zichligini hisoblash, aholi sonining yillik o‘sish sur’atini tahlil qilish va neft oqimining vaqtga bog‘liq o‘zgarishini aniqlash) limit va hosila yordamida qanday hal qilinishi ochiq va ilmiy asosda ko‘rsatib berildi. Bu esa oliy matematikaning nazariy bilimlarini hayotiy ehtiyojlar bilan bog‘lash, real modellar bilan ishlash, eksperimental tadqiqotlarni matematik analizga asoslab olib borish imkoniyatlarini ochib beradi.

Urinma va kesuvchi tushunchalarining geometrik asoslari ham chuqur tahlil qilinib, bu orqali analitik va geometrik yondashuvlarning uyg‘unligi ko‘rsatildi. Bu esa o‘quvchilarning matematik tafakkurini rivojlantirish, fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish va ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Maqola quyidagi ilmiy va amaliy natijalarga asos bo‘ladi:

Limit va hosila tushunchalarining matematik-analitik va geometrik yondashuv orqali aniqlanishi;

Harakat, oqim, zichlik, tezlik va o‘sish kabi fizikaviy va biologik jarayonlarni modellashtirishda hosilaning qo‘llanilishi; o‘zgaruvchan jarayonlarni nazorat qilish, optimallashtirish va bashoratlash imkonini beruvchi matematik vositalar sifatida limit va hosilaning o‘rni;

Zamonaviy fanlararo tadqiqotlarda matematik analiz usullarining integratsion ahamiyati;

Talabalar va tadqiqotchilar uchun nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lashga oid metodik asos bo‘lishi.

Xulosa qilib aytganda, bu maqola orqali matematik analizning, ayniqsa, limit va hosila tushunchalarining nazariy va amaliy jihatlari chuqur tahlil qilindi, hamda ularning turli fanlar kesimida qanday tatbiq etilishi keng yoritildi. Ushbu yondashuv nafaqat oliy matematikaning o‘quv jarayonidagi dolzarbligini ta’kidlaydi, balki o‘quvchi va izlanuvchilarning ilmiy salohiyatini rivojlantirish, ularning muhandislik va ilmiy masalalarni yechish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish va matematikaning amaliy qadriyatlarini oshirish yo‘lida muhim ilmiy metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.R.Xurramov Oliy matematika (masalalar to’plami, nazorat topshiriqlari) 1-qism: o'quv qo'llanma, “Fan va texnologiya” Toshkent-2015 - 408 bet.

2. Karimov E., Meliboyev A., Islomov B. Oliy matematika. 1-qism. Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2016. – 432 bet

MEXANIK TIZIMLARDA ISSIQLIK TA'SIRIDA YUZAGA KELADIGAN DEFORMATSIYALAR VA KUCHLANISHLARNING MATEMATIK HISOBLANISHI

Abdullayeva D.A.
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti,
Oliy matematika va axborot texnologiyalari kafedrasi katta o'qituvchi
Ismoilova Z.T.
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti,
Oliy matematika va axborot texnologiyalari kafedrasi katta o'qituvchi

Tayanch so'zlar: termal kengayish, mexanik tizimlar, konstruktiv elementlar, kuchlanishlar, deformatsiya, elastik xususiyatlar, issiqlik kengayish koeffitsienti, po'lat, mis, statik muvozanat, mexanik xususiyatlar, konstruksiyaning ishonchliligi, materiallarning o'zaro aloqalari, uzoq muddatli ishlash, optimallashtirish, qizdirish, issiqlik ta'siri, materiallar xususiyatlari.
Ключевые слова: тепловое расширение, механические системы, конструктивные элементы, напряжения, деформация, упругие свойства, коэффициент теплового расширения, сталь, медь, статическое равновесие, механические свойства, надежность конструкции, взаимодействие материалов, долговечность, оптимизация, нагрев, тепловое воздействие, свойства материалов.
Key words: thermal expansion, mechanical systems, structural elements, stresses, deformation, elastic properties, thermal expansion coefficient, steel, copper, static equilibrium, mechanical properties, structural reliability, interactions between materials, long-term performance, optimization, heating, thermal effects, material properties.

РЕЗЮМЕ:
Ushbu maqola mexanik tizimlar va konstruktiv elementlar ishonchliligini ta'minlash maqsadida materiallar orasidagi termal kengayishning kuchlanishlarga ta'sirini tahlil qiladi. Masalada ikki turli materialdan (po'lat va mis) tashkil topgan sterjenning issiqlik ta'sirida yuzaga keladigan deformatsiyalar va bu deformatsiyalar orqali hosil bo'ladigan kuchlanishlar aniqlanadi. Haroratning o'zgarishi natijasida materiallar uzunligini kengaytiradi yoki qisqartiradi, bu esa o'z navbatida tizimda stress va deformatsiyalarni keltirib chiqaradi.Ma'lumki, materiallarning haroratga reaktsiyasi issiqlik kengayish koeffitsienti orqali belgilanadi, bu esa harorat o'zgarishining materialning uzunligiga qanday ta'sir qilishini ko'rsatadi. Po'lat va mis materiallarining haroratga bo'lgan kengayish koeffitsientlari tahlil qilinib, har bir materialning kengayishi va tizimdagi umumiy kengayish miqdori hisoblab chiqiladi.Maqolada materiallarning issiqlik ta'siriga nisbatan kengayish va kuchlanishlarga bo'lgan reaksiyalarini chuqur tahlil qilishni ta'minlaydi. Natijalar konstruktsiyalarning ishonchliligini baholash va ularning uzoq muddatli ishlashini prognozlashda

foydali qo'llaniladi. Mexanik tizimlarni materiallar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni yanada chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.

РЕЗЮМЕ:

Данная статья анализирует влияние теплового расширения на напряжения в целях обеспечения надежности механических систем и конструктивных элементов. В задаче рассматривается стержень, состоящий из двух различных материалов (сталь и медь), для которого при тепловом воздействии определяются возникающие деформации и соответствующие напряжения.В результате изменения температуры материалы удлиняются или укорачиваются, что, в свою очередь, вызывает в системе напряжения и деформации. Известно, что реакция материалов на изменение температуры определяется коэффициентом теплового расширения, который показывает, как температурные изменения влияют на длину материала. В статье проводится анализ коэффициентов теплового расширения стали и меди, рассчитываются индивидуальные деформации каждого материала, а также общее удлинение системы. Статья обеспечивает глубокий анализ реакции материалов на тепловое воздействие с точки зрения расширения и возникновения напряжений. Полученные результаты полезны для оценки надежности конструкций и прогнозирования их долговечности. Кроме того, статья способствует оптимизации механических систем и более глубокому пониманию взаимодействия между материалами.

SUMMARY:

This article analyzes the effect of thermal expansion between materials on the stresses within mechanical systems and structural elements to ensure their reliability. The problem involves determining the deformations caused by thermal effects and the resulting stresses in a stirrup made of two different materials (steel and copper). The change in temperature causes materials to expand or contract, which, in turn, induces stresses and deformations in the system. It is well known that a material's reaction to temperature changes is determined by its thermal expansion coefficient, which indicates how the length of a material changes in response to temperature variations. The thermal expansion coefficients of steel and copper are analyzed, and the expansion of each material and the overall expansion of the system are calculated. This study provides a detailed analysis of how materials react to thermal effects in terms of expansion and stresses. The results are useful for evaluating the reliability of structures and predicting their long-term performance. The article also contributes to the optimization of mechanical systems and a deeper understanding of the interactions between materials.

Muhandislik amaliyotida materiallar va ularning xususiyatlarini o'rganish, issiqlik ta'sirida yuzaga keladigan deformatsiyalar va kuchlanishlarni tahlil qilish, muhim ilmiy va amaliy masala hisoblanadi. Ishlab chiqarish jarayonlari va konstruksiyalarni mustahkamlashda materiallarning haroratga qarshi reaksiya berish xususiyatlari, ya'ni ularning kengayish koeffitsienti, elastik xususiyatlari va kuchlanishga qarshiligi aniqlovchi omil bo'lib xizmat qiladi. Konstruktiv elementlar va mexanik tizimlarning ishonchli ishlashini ta'minlash uchun bu parametrlarning to'liq va aniq tahlil qilinishi zarur.

Bu ishda, ikkita turli materialdan iborat bo'lgan sterjenning issiqlik ta'sirida yuzaga keladigan kengayishi va unga bog'liq kuchlanishlarning aniqlanishi ko'rib chiqiladi. Haroratning ta'siri ostida materiallar orasidagi mexanik aloqalar va deformatsiyalarni tahlil qilish, ularning o'zgarishlari va tizimda yuzaga keladigan kuchlanishlarni o'rganish orqali konstruktiv elementlarning ishonchliligi va ularning ishlash muddatini prognozlash imkoniyatlari yaratiladi.

Bugungi kunda, termal va mexanik xususiyatlar o'rtasidagi o'zaro bog'lanishlarni o'rganish, materiallar va konstruktsiyalarni optimallashtirishda katta ahamiyatga ega. Harorat o'zgarishi tufayli materiallar kengayadi yoki qisqaradi, bu esa ularning ichki kuchlanishlarini keltirib chiqaradi. Agar bunday deformatsiyalar bir-biriga bog'langan materiallarda sodir bo'lsa, ularning o'zaro ta'siri, o'zgarishlarning to'g'ri hisoblanmasligi, konstruksiyaning ishonchli ishlashiga putur etkazishi mumkin. Bu jarayonlarni tahlil qilish, materiallarning issiqlik kengayish koeffitsientlari, elastik modullari va kesim yuzalarini inobatga olish orqali amalga oshiriladi.

Masala doirasida, statik muvozanat prinsipi asosida, deformatsiya va kuchlanishlarni hisoblashda eng muhim jihatlarga e'tibor qaratiladi. Tizimda yuzaga kelgan kuchlanishlar va deformatsiyalarni tahlil qilish, mexanik tizimlarni optimallashtirish va ularning ishonchliligini baholashda katta rol o'ynaydi. Shu sababli, haroratning o'zgarishi natijasida yuzaga kelgan kengayishlar va ular orqali hosil bo'lgan kuchlanishlarni hisoblash, materiallarning mexanik xususiyatlarini va ularning o'zaro aloqalarini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Ushbu maqolada, sterjenning ikkita turli materialdan (po'lat va boshqa material) tashkil topgan qismlarining issiqlik ta'sirida yuzaga keladigan deformatsiyalarini va shu orqali hosil bo'ladigan kuchlanishlarni hisoblash orqali, materiallarning o'zaro ta'sirini, ularning issiqlik kengayishiga reaksiyasini va statik muvozanatni aniqlash masalalari yoritiladi. Ushbu jarayonlarning har biri alohida o'rganilishi va ularning umumiy natijalari konstruktsiyalarning ishlash samaradorligini oshirishda qo'llaniladi.

Masala. Rasmda ko’rsatilgan stejen bikir tekislikka chap uchi bilan mustahkamlangan, sterjenning o’ng uchi ikkinchi bikir tekislikka $\Delta = 0{,}03$ mm ga yetmaydi. Sterjenni 30^0 ga qizdirilsa (egilish deformatsiyasi e’tiborga olinmay), uning qismlardagi kuchlanishlar aniqlansin.



Haroratning o'zgarishi natijasida materiallarning uzunligida yuzaga keladigan o'zgarishlar tizimda stress va deformatsiyalarni keltirib chiqaradi, bu esa konstruktiv elementlarning ishonchli ishlashini ta'minlash uchun hisoblanishi kerak:

1. $E_M = 1 \cdot 10^6 \ {kg}/{sm^2}$ – misning elastiklik moduli; $E_P = 2 \cdot 10^6 \ {kg}/{sm^2}$ – p’olatning elastiklik moduli; $\alpha_P = 165 \cdot 10^{-7}$ – po’latning issiqlik kengayish koeffitsenti; $\alpha_M = 125 \cdot 10^{-7}$ –misning issiqlik kengayish koeffitsenti; $a = 1{,}5\ m$ –sterjenning birinchi qismini uzunligi; $b = 1m$ –sterjenning ikinchi qismi uzunligi; $A_M = 200m^2$ –mis materialining kesim yuzasi; $A_P = 100\ m^2$ –po’lat materialining kesim yuzasi. Issiq kengayish fenomenini tushunishimiz kerak. Issiqlik ta'sirida materiallar kengayadi (yoki qisqaradi), bu esa materialning uzunligida o'zgarish keltirib chiqaradi. Haroratning o'zgarishi · (ΔT) materialning kengayishiga sabab bo'ladi. Δl – materialning uzunligidagi o'zgarish, α –materialning issiqlik kengayish koeffitsienti; l_0 – materialning dastlabki uzunligi; ΔT – harorat o'zgarishi.

Sterjenning misdan bo’lgan qismini kengayishini hisoblaymiz:

$$\Delta l_M = \alpha_M \cdot a \cdot \Delta T = 125 \cdot 10^{-7} \cdot C^{-1} \cdot 1{,}5m \cdot 30^0 C = 0{,}05625$$

Sterjenning po’latdan bo’lgan qismini kengayishini hisoblaymiz:

$$\Delta l_P = \alpha_P \cdot b \cdot \Delta T = 165 \cdot 10^{-7} \cdot C^{-1} \cdot 1m \cdot 30^0 C = 0{,}0495\ sm$$

Umumiy kengayish bo'ladi, chunki ikkala material ham qizdiriladi:

$$\Delta l_A = \Delta l_P + \Delta l_P = 0{,}05625 + 0{,}0495 = 0{,}112\ sm$$

$\Delta l_A = 0{,}112\ sm$; $\Delta T > \Delta$ demak masala statik noaniq.

Statik tenglama orqali reaktsiya kuchlarini hisoblaymiz. Ushbu masalani hal qilishda statik muvozanatni (tenglama) ko‘rib chiqish zarur:

2. Reaksiya kuchlarini R_A va R_B orqali ifodalasak, unda statika tenglamasi quyidagiga teng bo’ladi: $\sum Z = 0$; $R_A - R_B = 0$. (Statik muvozanatga ko'ra, barcha kuchlar yig'indisi nolga teng bo'lishi kerak) Bu yerdan:

$$R_A = R_A = R \qquad (2)$$

Shunday qilib, reaktsiya kuchlari yagona kuch R bo'ladi.

3. Qo'shimcha deformatsiya tenglamani tuzib, har bir materialda hosil bo'lgan deformatsiyalarni (uzayishlarni) hisoblashimiz kerak. Deformatsiya formulasi quyidagicha bo'ladi:

$$\Delta l_{R_B} = \Delta l - \Delta \qquad (3)$$

Bu yerda:

$$\Delta l_{R_B} = \frac{R \cdot a}{E_M \cdot A_M} + \frac{R \cdot b}{E_P \cdot A_P} \qquad (4)$$

R –reaksuya kuchi;

$$\Delta l_{R_B} = R\left(\frac{150}{1 \cdot 10^6 \cdot 200} + \frac{100}{2 \cdot 10^6 \cdot 100}\right) = 1{,}25R \cdot 10^{-6}\ sm \qquad (5)$$

Deformatsiyani hisoblab chiqqanimizdan so'ng, reaktsiya kuchini topamiz. Statik tenglamada deformatsiyaning umumiy qiymatini bilgan holda, uni tenglamada qo'llaymiz: (1), (2) va (5) larni (4) ga keltirib quyib, quyidagilarni hosil qilamiz:

$$1{,}25R \cdot 10^{-6} = 0{,}112 - 0{,}003 = 0{,}109\ sm.$$

Shu yerda $\Delta = 0{,}003$ (statik noaniqlik) hisobga olinadi. R ni hisoblaymiz:

$$R = \frac{0{,}109 \cdot 10^6}{1{,}25} = 87000\ kg = 87\ t.$$

4. Sterjendagi kuchlanishni aniqlaymiz:

$$\sigma_M = -\frac{R}{A_M} = -\frac{87000}{200} = -435\ \frac{kg}{sm^2};$$

$$\sigma_M = -\frac{R}{A_M} = -\frac{87000}{100} = -870\ \frac{kg}{sm^2}.$$

Hisoblashlar natijasida sterjenning har bir qismining kengayishi va umumiy kengayish miqdori aniqlangan bo'lib, bu natijalar materiallarning issiqlik kengayish koeffitsienti, elastik moduli va kesim yuzasi kabi mexanik xususiyatlarining tizimdagi o'zaro ta'sirini o'rganishning zarurligini ko'rsatadi.

Tizimda hosil bo'ladigan kuchlanishlar va deformatsiyalarni hisoblash orqali mexanik tizimlarning ishonchliligini oshirish mumkin. Materiallar o'rtasidagi o'zaro aloqalar va ularning issiqlik kengayishiga reaksiyasi haqida to'liq tasavvurga ega bo'lish, konstruktsiyaning uzoq muddatli va xavfsiz ishlashini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. S.D.Nurmurodov, A.X. Rasulov, K. G. Baxadirov Materialshunoslik va kostruksiyon materiallar texnologiyasi. Darslik. “Fan va texnologiya” nashriyoti, Toshkent-2015y. 243 bet

2. U.A.Ziyamuxamedova, S.D. Nurmurodov, A.X. Rasulov Materialshunoslik. Darslik. “Fan va texnologiya” nashriyoti, Toshkent-2018y. 250 bet.

OLIY TA'LIMDA SUN'IY INTELLEKT VOSITALARIDAN FOYDALANISH ASOSIDA INFORMATIKA O'QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Otepbergenov J.S.
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti "Raqamli texnologiyalar, informatika va robototexnika" kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Tayanch so'zlar: sun'iy intellekt, oliy ta'lim, informatika o'qitish metodikasi, adaptiv o'qitish, intellektual o'qitish tizimlari, raqamli transformatsiya, ta'lim samaradorligi.
Ключевые слова: искусственный интеллект, высшее образование, методика преподавания информатики, адаптивное обучение, интеллектуальные системы обучения, цифровая трансформация, эффективность образования.
Key words: artificial intelligence, higher education, computer science teaching methods, adaptive learning, intelligent learning systems, digital transformation, educational efficiency.

РЕЗЮМЕ:
Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida informatika fanini o'qitish jarayonida sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishning pedagogik samaradorligi tahlil qilingan. Tadqiqotda sun'iy intellektga asoslangan o'qitish tizimlari, adaptiv platformalar va intellektual yordamchi vositalarning talabalar bilim darajasi, o'quv motivatsiyasi hamda o'qitish jarayonining samaradorligiga ta'siri eksperimental yo'l bilan o'rganilgan. O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari misolida olib borilgan tajriba-sinov ishlari natijalari sun'iy intellekt vositalarini qo'llash talabalarning amaliy ko'nikmalari va fanni o'zlashtirish darajasini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatdi. Shu bilan birga, sun'iy intellektni ta'lim jarayoniga joriy etishda uchraydigan tashkiliy, axloqiy va infratuzilmaviy muammolar ham yoritilgan. Maqola natijalari oliy ta'limda informatika fanini o'qitishni takomillashtirishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan maqsadli foydalanish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье анализируется педагогическая эффективность использования инструментов искусственного интеллекта в процессе преподавания информатики в высших учебных заведениях. В исследовании экспериментально изучалось влияние систем обучения на основе искусственного интеллекта, адаптивных платформ и интеллектуальных помощников на уровень знаний студентов, мотивацию к обучению и эффективность учебного процесса. Результаты пилотных исследований, проведенных на примере высших учебных заведений Узбекистана, показали, что использование инструментов искусственного интеллекта значительно повышает практические навыки студентов и уровень освоения предмета. Одновременно освещаются организационные, этические и инфраструктурные проблемы,

возникающие при внедрении искусственного интеллекта в образовательный процесс. Результаты статьи служат основой для разработки практических рекомендаций по целенаправленному использованию технологий искусственного интеллекта в совершенствовании преподавания информатики в высшем образовании.

SUMMARY:

This article analyzes the pedagogical effectiveness of using artificial intelligence tools in teaching computer science at higher education institutions. The study experimentally examined the impact of AI-based learning systems, adaptive platforms, and intelligent assistants on student knowledge, motivation, and learning effectiveness. The results of pilot studies conducted at higher education institutions in Uzbekistan demonstrated that the use of AI tools significantly improves students' practical skills and subject mastery. The article also highlights the organizational, ethical, and infrastructural challenges that arise when integrating AI into the educational process. The article's findings serve as a basis for developing practical recommendations for the targeted use of AI technologies to improve computer science teaching in higher education.

Kirish. Oliy ta’lim tizimida informatika fanini o‘qitish samaradorligini oshirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy raqamli transformatsiya davrida ta’lim jarayonida sun’iy intellekt (SI) vositalarining qo‘llanilishi ta’lim sifatini yuksaltirish, talabalarning individual o‘qitish yo‘nalishlarini yaxshilash va o‘qituvchilarning ish samaradorligini oshirish imkonini beradi. Masalan, SI asosidagi intellektual o‘qitish tizimlari talabalarning bilim darajasiga mos ravishda materiallarni moslashtirib, o‘qitish jarayonini shaxsiylashtiradi. Chatbotlar esa talabalarning savollariga tezkor javob berib, o‘qitishning interaktivligini oshiradi, moslashuvchan o‘qitish platformalari esa ma’lumotlar tahlili orqali talabalarning zaif tomonlarini aniqlab, qo‘shimcha mashqlar taklif etadi. Bu vositalar informatika fanida kodlash, ma’lumotlar tahlili va algoritmlarni o‘rganish jarayonini samaraliroq qiladi, masalan, kod yaratishda avtomatlashtirilgan fikr-mulohaza berish orqali talabalarning xatolarini tezroq tuzatishga yordam beradi[7].

O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida SI vositalarining qo‘llanilishi ham kengayib bormoqda. Masalan, New Uzbekistan Universitetida SI klasteri tashkil etilib, ta’lim, ilm va biznesni birlashtirgan ekotizim yaratilmoqda. Bu universitetda Day of AI Uzbekistan loyihasi doirasida o‘qituvchilar uchun SI ta’lim dasturlari o‘tkaziladi, bu esa informatika fanini o‘qitishda SIdan foydalanishni kengaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, Nordic Universitetida raqamli transformatsiya va SI bo‘yicha seminarlar o‘tkazilib, o‘qituvchilarga University 4.0 va 5.0 konsepsiyalarini joriy etish haqida amaliy maslahatlar berilmoqda, bu informatika o‘qitishda adaptiv o‘qitish tizimlarini qo‘llashni rag‘batlantiradi. Bundan tashqari, O‘zbekistondagi oliy o‘quv yurtlarida SIning qo‘llanilishi 2024-yilda 31 foizdan 2025-yilda 57 foizga oshgani kuzatilmoqda, lekin infratuzilma va o‘qituvchilarning SI bilimlarining yetishmasligi kabi qiyinchiliklar ham mavjud [16;17;18].

Ushbu tadqiqotda oliy ta'limda SI vositalarini informatika o'qitishga joriy etish orqali samaradorlikni oshirish masalasi o'rganildi. Asosiy maqsad – SI asosidagi o'qitish usullarining talabalarning bilim darajasiga va o'qitish samaradorligiga ta'sirini baholash. Masalan, informatika fanida ma'lumotlar bazalarini o'qitishda SI vositalari orqali avtomatlashtirilgan kod tahlili va simulyatsiyalar qo'llanilishi mumkin, bu talabalarning amaliy ko'nikmalarini oshiradi. Tadqiqot gipotezasi: SI vositalaridan foydalanish an'anaviy o'qitish usullariga nisbatan informatika fanida talabalarning samaradorligini 20-30% ga oshirishi mumkin, bu holda o'qitish vaqti 19% ga qisqarishi va baholar o'rtacha +0.2 ballga oshishi mumkin [19].

Adabiyotlar tahlili ko'rsatishicha, SI oliy ta'limda shaxsiylashtirilgan o'qitishni ta'minlaydi, o'qituvchilarning ma'muriy ishlarini avtomatlashtiradi va talabalarning motivatsiyasini oshiradi. Masalan, SI orqali o'qitish analitikasi talabalarning faolligini kuzatib, individual o'qitish rejalarini tuzishga yordam beradi. Shu bilan birga, SIning integratsiyasidagi qiyinchiliklar, masalan, etik masalalar (SIdan foydalanishda plagiat va axloqiy muammolar), ma'lumotlar himoyasi (talabalar ma'lumotlarining himoyasi) hamda o'qituvchilarning tayyorgarligi yetishmasligi ham mavjud. O'zbekistonda bu qiyinchiliklar infratuzilma (sifatsiz internet) va tartibga soluvchi huquqiy bazaning yetishmasligi bilan bog'liq. [8]

Oliy ta'lim tizimida informatika fanini o'qitish samaradorligini oshirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim jarayonida sun'iy intellekt (SI) vositalarining qo'llanilishi ta'lim sifatini yuksaltirish, talabalarning individual o'qitish yo'nalishlarini takomillashtirish va o'qituvchilarning ish unumdorligini oshirish imkonini beradi. SI vositalari, jumladan, intellektual o'qitish tizimlari, chatbotlar va moslashuvchan o'qitish platformalari informatika fanida kodlash, ma'lumotlar tahlili va algoritmlarni o'rganish jarayonini yanada samaraliroq qiladi [3].

Ushbu tadqiqotda oliy ta'limda SI vositalarini informatika o'qitishga joriy etish orqali samaradorlikni oshirish masalasi o'rganildi. Asosiy maqsad – SI asosidagi o'qitish usullarining talabalarning bilim darajasiga va o'qitish samaradorligiga ta'sirini baholash. Tadqiqot gipotezasi: SI vositalaridan foydalanish an'anaviy o'qitish usullariga nisbatan informatika fanida talabalarning samaradorligini 20-30% ga oshirishi mumkin [2].

Adabiyotlar tahlili ko'rsatishicha, SI oliy ta'limda shaxsga yo'naltirilgan o'qitishni ta'minlaydi, o'qituvchilarning ma'muriy ishlarini avtomatlashtiradi va talabalarning motivatsiyasini oshiradi. Shu bilan birga, SIning integratsiyasidagi

qiyinchiliklar, masalan, etik masalalar va ma'lumotlar himoyasi ham mavjud [1;4].

Usullar. Tadqiqot O'zbekiston oliy o'quv yurtlaridagi 200 nafar talaba va 50 nafar o'qituvchi ishtirokida o'tkazildi. Ishtirokchilar Toshkent axborot texnologiyalari universiteti (TATU), Yangi O'zbekiston universiteti (New Uzbekistan University) va boshqa oliy o'quv yurtlaridan tanlab olindi. Talabalar orasida 1-3 kurs talabalari ustunlik qildi, o'rtacha yoshi 20-22 yosh, o'qituvchilar orasida esa informatika fani o'qituvchilari, o'rtacha ish staji 10-15 yil. Ishtirokchilarning tanlovi ro'yxatga olish va tasodifiy tanlash usuli orqali amalga oshirildi, bu tadqiqotning ishonchliligini ta'minlash uchun zarur. Tadqiqot usuli sifatida eksperimental va tahliliy usullar qo'llanildi. Eksperiment bir semestr (4 oy) davomida o'tkazildi, bu davrda talabalar informatika fanining asosiy bo'limlarini o'rgandilar. Birinchi guruh (eksperimental, 100 nafar talaba) SI vositalari (masalan, ChatGPT kod generatsiyasi va fidbek uchun, Duolingo-ga o'xshash moslashuvchan o'quv tizimlari individual mashqlar uchun, Khan Academy AI versiyasi kabi AI boshqaruvidagi repetitorlik vositalari amaliy vazifalarni hal qilish uchun) dan foydalanib informatika fanini o'qidi, ikkinchi guruh (nazorat, 100 nafar talaba) an'anaviy usullar (ma'ruzalar, seminarlar va qo'lda tekshirish) bilan o'qidi. Masalan, eksperimental guruhda talabalar SQL so'rovlarini o'rganishda ChatGPT orqali avtomatlashtirilgan misollar va tuzatishlar oldilar, nazorat guruhi esa o'qituvchi tomonidan tekshirilgan vazifalar bilan ishladi.

Shuningdek, hikoya va matnlarni o‘qitishda 3D sahnalashtirish yoki interaktiv ilustratsiyalar qo‘llanilishi matn mazmunini obrazli tafakkur bilan bog‘laydi. Bu jarayon semantik kodlashni chuqurlashtirib, o‘quvchining tushunish va eslab qolish jarayonini optimallashtiradi. Vizual model matn mazmunining mantiqiy tuzilishini ko‘rsatib, asosiy g‘oya va ikkilamchi fikrlar o‘rtasidagi bog‘lanishni aniqlashtiradi.

Dual kodlash yondashuvi boshlang‘ich yoshdagi bolalarning yosh psixologik xususiyatlariga ham mos keladi. Ular obrazli tafakkurga moyil bo‘lganligi sababli, vizual elementlar bilan boyitilgan o‘quv materiali kognitiv yuklamani kamaytiradi va idrok jarayonini soddalashtiradi. Natijada axborotning semantik qayta ishlanishi tezlashadi hamda nutqiy faoliyatni rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan asosiy tushunchalar mustahkam o‘zlashtiriladi.

Demak, dual kodlash nazariyasi asosida tashkil etilgan raqamli va vizual integratsiya 1–4-sinf ona tili darsliklarining ilmiy-metodik samaradorligini oshiradi, chunki u o‘quvchilarda bir vaqtning o‘zida verbal va vizual tafakkurni faollashtirib, bilimni chuqur va barqaror egallashga xizmat qiladi.

Multimedia o‘qitish nazariyasi boshlang‘ich sinf ona tili darsliklarini raqamli va vizual texnologiyalar yordamida takomillashtirishda multimedia o‘qitish nazariyasi muhim metodologik asos sifatida e’tiborga olinadi. Mazkur nazariya muallifi Richard E.Mayer ta’kidlaganidek, o‘quvchi bir vaqtning o‘zida ko‘p va murakkab axborot qabul qilsa, uning ishchi xotira resurslari haddan tashqari yuklanadi va bilimni samarali egallash qiyinlashadi. Shu sababli darslikni raqamlashtirishda kognitiv yuklamani optimallashtirish prinsipiga rioya qilish zarur.

Amaliy metodologik jihatdan bu quyidagi tamoyillarni o‘z ichiga oladi:

- **Ortiqcha vizual va animatsion elementlardan cheklanish.** Darslik tarkibida animatsiyalar, grafiklar va vizual effektlar faqat mavzuni tushuntirish va tushunishni kuchaytirish uchun ishlatiladi; ularning haddan tashqari ko‘pligi diqqatni chalg‘itishi mumkin.
- **Vizual va matn o‘rtasidagi mantiqiy uyg‘unlik.** Har bir vizual element matnli izoh bilan uzviy bog‘langan bo‘lishi lozim, shunda o‘quvchi ma’lumotni ikki kanal orqali paralel qabul qiladi, lekin kognitiv yuk ortmaydi.
- **Qisqa va aniq interaktiv bloklar.** O‘quvchi faoliyatini kichik, mustaqil modullar asosida tashkil etish, masalan, matnni o‘qish va unga mos vizual mashqni birlashtirish, o‘zlashtirish jarayonini samarali qiladi va diqqatni uzoq muddat saqlashga yordam beradi.

Multimedia yondashuvi o‘quvchining kognitiv qobiliyatlarini hisobga olgan holda, ona tili darsliklarida matn, animatsiya, diagramma va interaktiv mashqlarni uyg‘unlashtirishni tavsiya qiladi. Bu esa o‘quvchida tushunish, eslab qolish va nutqiy kompetensiyani shakllantirish jarayonlarini optimallashtiradi.

Shunday qilib, Mayerning multimedia o‘qitish nazariyasi asosida raqamli va vizual integratsiya boshlang‘ich sinf ona tili darsliklarida bilimni idrok etish va uzluksiz o‘zlashtirishni ta’minlovchi ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu yondashuv interaktiv va ko‘p kanalli pedagogik muhit yaratib, o‘quvchilarni faol, mustaqil va refleksiv o‘rganishga yo‘naltiradi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli transformatsiya sharoitida 1–4-sinf ona tili darsliklarini yangilash ta’lim mazmuni va metodikasini zamonaviy kognitiv ehtiyojlar bilan moslashtirishga qaratilgan obyektiv zaruratdir. Raqamli-vizual vositalar darslikni oddiy matn to‘plamidan o‘quvchi faoliyatini boshqaruvchi,

mustaqil izlanishga undovchi va refleksiyani qo‘llab-quvvatlovchi “pedagogik platforma”ga aylantiradi.

Metodologik jihatdan bunday modernizatsiya konstruktivistik paradigma asosida bilimni faol qurish jarayonini kuchaytiradi; dual kodlash yondashuvi verbal va vizual tizimlarni uyg‘unlashtirib, xotirada mustahkam iz qoldirishni ta’minlaydi; multimedia o‘qitish nazariyasi esa kognitiv yuklamani optimallashtirish orqali idrok va o‘zlashtirish samaradorligini oshiradi. Natijada darslik mazmuni kompetensiyaviy natijalarga yo‘naltiriladi, o‘quvchi esa bilimni faol egallovchi va real kommunikativ vaziyatlarda qo‘llay oluvchi subyekt sifatida shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Castells M. The Rise of the Network Society (Tarmoq jamiyati konsepsiyasi bo‘yicha asosiy ishlar).
2. OECD. Key Competencies / Key Competencies for Lifelong Learning hamda funksional savodxonlikka doir yondashuvlar (ta’lim natijalari va kompetensiyalar modeli).
3. Bruner J. The Process of Education. Cambridge (MA): Harvard University Press.
4. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge (MA): Harvard University Press.
5. Piaget J. The Psychology of Intelligence. London: Routledge.
6. Paivio A. Mental Representations: A Dual Coding Approach. Oxford: Oxford University Press.
7. Mayer R.E. Multimedia Learning. Cambridge: Cambridge University Press.
8. Sweller J. Cognitive Load Theory (ishchi xotira va kognitiv yuklamani boshqarish konsepsiyasi bo‘yicha ishlar).
9. Dewey J. Experience and Education. (ta’limni hayotiy tajriba bilan bog‘lash va integratsiya g‘oyalari).
10. Saidahmedov N. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent.
11. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar nazariyasi va amaliyoti. Toshkent.

BOSHLANG‘ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA KREATIV VA TANQIDIY QOBILYATLARNI RIVOJLANTIRISH

Gafurova Z.B.
BuxDPI Pedagogika yo‘nalishi 1-bosqich magistranti

Tayanch so‘zlar: matematika darsi, kreativ fikrlash, tanqidiy fikrlash, mantiqiy topshiriqlar, matnli masalalar o‘quvchi.
Ключевые слова: урок математики, творческое мышление, критическое мышление, логические задачи, текстовые задачи, ученик
Key words: mathematics lesson, creative thinking, critical thinking,logical tasks, word problems,pupil.

РЕЗЮМЕ:
Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf matematika darslarida o‘quvchilarning kreativ va tanqidiy fikrlash qobilyatlarini rivojlantirishga qaratilgan nazariy va amaliy masalalar tadqiq etilgan.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье рассматриваются теоретические и практические вопросы, направленные на развитие навыков творческого и критического мышления учащихся на уроках математики в начальной школе.
SUMMARY:
This article examines theoretical and practical issues aimed at developing students’ creative and critical thinking skills in elementary school mathematics lessons.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda maktabda matematika o‘qitish ayniqsa boshlang‘ich ta’lim tizimida o‘z ko‘lami va ahamiyati jihatidan nihoyatda katta bo‘lgan o‘zgarishlarni amalga oshirdi. Har bir dars bola qobiliyatining uchqunlarini alangalata oladigan kichik ixtiroday o‘tishi zarur. Atrofdagi olam va o‘zini anglashdagi kichik yutuqlar ham butun o‘quv faoliyatini g‘aroyib va maftunkor qiladi. Bolalar uchun sinfdoshlar oldida o‘zini ko‘rsata olishi, nimalarga qodirligini isbotlay olishi juda muhim qirra hisoblanadi.

Kreativlik (inglizcha greate -yaratish, ijod qilish) -an’anaviy yoki fikrlash shakllaridan chetga chiqadigan va mustaqil ravishda iqtidorlilik tarkibiga kiradigan tubdan yangi g‘oyalarni qabul qilish va yaratishga tayyorligi bilan

tavsiflangan shaxsning ijodiy qobiliyatlari, yuzaga keladigan muammolarni hal qilish qobiliyati.

Kreativ ijodiy qobiliyatni oshirish orqali biz nafaqat bolani bilimini balki uning tilining ravonligini, yaratuvchanligini, shaxsiy fikrini ifodalay oladigan darajada dunyoqarashini o‘stiramiz. Fikrlash mustaqil bo‘lgandagina ijodiy fikrlash bo‘la oladi.Tanqidiy fikrlash eng avvalo ijodiy fikrlash kabi mustaqil tafakkur yuritish shaklidir. O‘quv jarayonida bolalar uchun mustaqil fikrlash va tanqidiy fikrlashga imkoniyat yaratish zarur. Boshlang‘ich sinflarda shaxsning ijodiy, tanqidiy, kreativ salohiyatini faollashtirish eng qiziqarli usuli bu matematika darslarida bajariladigan turli ijodiy topshiriqlardir. Matematika sanoqdan emas balki topishmoq, muammodan boshlanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi qiziqishni his qilsagina unda ijodiy fikrlash rivojlanishi mumkin. Faqatgina qiyinchiliklarni yengish orqali bola ijod olamiga kirishi mumkin. Kreativ fikrlash o‘quvchining noodatiy vaziyatlarda yangi g‘oyalar yaratish, masalalarga turlicha yondasha olish, bir nechta yechim variantlarini topish qobiliyatini bildiradi. Boshlang‘ich sinflarda bu ko‘nikma quydidagi faoliyatlar orqali samarali shakllanadi:

-noodatiy va ijodiy masalalar berish;

-bir nechta yechimga ega bo‘lgan topshiriqlarni qo‘llash;

-geometrik shakllardan kreativ kompozitsiyalar tuzdirish ;

-tasavvur va tafakkurni faollashtiruvchi o‘yin metodlari;

-aqliy hujum,konseptlar xaritasi,klaster, “6 ta shlyapa” kabi metodikalarni qo‘llash.

Bu usullar o‘quvchiga shablondan tashqari fikrlashni, turlicha yechimlarni taqqoslashni va o‘z ijodiy yondashuvini shakllantirishni o‘rgatadi.

Matematika darslarida kreativlikni rivojlantirishning foydali tomonlari:

1. Mustaqil fikrlash rivojlanadi

O‘quvchi tayyor andozaga bog‘lanib qolmay, masalani o‘zi tahlil qiladi va yechim izlaydi.

2. Mantiqiy va tanqidiy fikrlash kuchayadi

Kreativ yondashuv orqali o‘quvchi:

- taqqoslaydi;
- tahlil qiladi;
- xulosa chiqaradi.

3. Darsga bo‘lgan qiziqish oshadi

Noan’anaviy topshiriqlar va o‘yinlar darsni zerikarli bo‘lishdan saqlaydi.

4. Muammoni bir necha usulda yechish ko‘nikmasi shakllanadi

Bir masalaning turli yo‘llar bilan yechilishi o‘quvchining ijodiy imkoniyatini kengaytiradi.

5. O‘ziga bo‘lgan ishonch ortadi

O‘quvchi o‘z g‘oyasi qadrli ekanini his etadi, bu esa faollik va tashabbusni oshiradi.

6. Bilimlar chuqur va barqaror bo‘ladi

Ijodiy faoliyatda olingan bilim:

- tez unutilmaydi;
- amaliyotda qo‘llanadi;
- hayotiy ko‘nikmalar rivojlanadi.

7. Matematika hayot bilan bog‘langanida:

- rejalashtirish;
- hisob-kitob qilish;
- muammo hal etish ko‘nikmalari shakllanadi.

8. Hamkorlik va muloqot madaniyati rivojlanadi

Guruhli ishlarda o‘quvchilar:

- fikr almashadi;
- bahs yuritadi;
- bir-birini tinglaydi.

9. Ijodiy tafakkur shakllanadi

Bu esa boshqa fanlarni o‘zlashtirishda ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

10. Zamonaviy kompetensiyalar rivojlanadi.

Kreativlik:

- innovatsion fikrlash;
- moslashuvchanlik;
- muammo yechish kabi XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Tanqidiy fikrlash-bu ma’lumotni yuzaki qabul qilmasdan uni chuqur tahlil qilish tekshirish, solishtirish,va asosli xulosa chiqarish qobiliyatidir. Tanqidiy fikrlash g‘oyamizni mustahkamlamaydi, ammo konstruktiv yaratuvchi fikr bilan ta’minlaydi. Boshlang‘ich matematika darslarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun:

-“Nima uchun?”, “Qanday isbotlaymiz?”, “Qaysi yechim to‘g‘ri?” kabi savollar;

-mantiqiy-topqirlikka asoslangan topshiriqlar:

-qonuniyat va ketma-ketliklarni aniqlash mashqlari;

-matnli masalalarning turlicha yechimlarini taqqoslash;

-dalillash va isbotlashga yo‘naltirilgan vaziflar qo‘llaniladi.

Bunday jarayon o‘quvchini umumiy fikrlashdan mantiqiy tahlilga o‘tishga yordam beradi, ularni izchil va asosli fikr yuritishga o‘rgatadi.

Boshlang‘ich dars jarayonida ushbu ikki ko‘nikmani bir-biriga bog‘liq holda shakllantirish yuqori natja beradi. Masalan:

-ijodiy masalani yechishda o‘quvchi avval turli g‘oyalar ishlab chiqadi (kreativ fikrlash)

-keyin esa ularni taqqoslaydi, eng maqbulini tanlaydi, dalillaydi (tanqidiy fikrlash).

Shuningdek, quyidagi metodlar ham juda samarali hisoblanadi:

Muammoli ta’lim metodi - masala yechish jarayonida muammo qo‘yiladi, o‘quvchi uni topadi, baholaydi va hal qiladi.

O‘yin texnologiyalari -o‘yin elementlari o‘quvchini faollashtiradi, ijodiy fikrga undaydi, natijani tahlil qilishga majbur qiladi.

Kichik guruhlarda ishlash – o‘quvchilar o‘z fikrini himoya qiladi, bahslarda qatnashadi, qaror qabul qilishni o‘rganadi.

Interfaol metodlar – “FSMU”, “Aqliy hujum”, “Venn diagrammasi”, “Sinkveyn”, “BBB jadvali”.

Kreativ va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda o‘qituvchining faoliyati asosiy omillardan biridir. O‘qituvchi:

-darsda muammoli vaziyatlar yaratishi;

-savollar orqali fikrlashga undashi;

-o‘quvchilarni erkin fikrlashga rag‘batlantirishi;

-ijodiy yondashuvni qo‘llab-quvvatlashi;

-o‘quvchilarning fikrlashini qadrlashi va baholashi lozim.

Shuningdek, o‘qituvchi har bir o‘quvchining individual qobiliyatini inobatga olgan holda differensial yondashuvni amalga oshirishi zarur.

Tanqidiy fikrlashning asosiy belgilari:

- fakt va fikrni ajrata olish;
- savol bera olish;
- dalillarga tayanish;
- mantiqiy xulosa chiqarish;
- muammoni turli nuqtai nazardan ko‘ra olish;

Tanqidiy fikrlashning maqsadi

- to‘g‘ri va mustaqil qaror qabul qilish;
- yolg‘on yoki noto‘g‘ri axborotni aniqlash;
- muammolarni samarali hal qilish;
- ongli va mas’uliyatli fikrlashni rivojlantirish;

Ta’lim jarayonida tanqidiy fikrlashning ahamiyati

- o‘quvchi faol bo‘ladi;
- bilimlar chuqur o‘zlashtiriladi;
- mantiqiy tafakkur rivojlanadi;
- mustaqil fikr shakllanadi;

Tanqidiy fikrlashning matematikadagi roli:

- masalani tushunib yechish;
- turli usullarni solishtirish;
- xatoni tahlil qilish;

Eng maqbul yechimni tanlash qobilyatidir.

Quyidagi mantiqiy topshiriqlarni 1-4 sinf o‘quvchilari bilan matematika darslarida bajarish tavsiya etiladi. Bunday turdagi topshiriqlar o‘quvchilarni tanqidiy fikrlash qobiliyatlarni rivojlantiradi.

1-topshiriq

Maktab hovlisidagi o‘rindiqlar yonida o‘quvchilar turibdi. Agar har bir o‘rindiqqa 4 nafardan o‘quvchi o‘tirsa, 3 nafar o‘quvchi o‘rinsiz qoladi.Agar har bir o‘rindiqqa 5 nafardan o‘quvchi o‘tirsa bitta o‘rindiq bo‘sh qoladi. Hovlida necha nafar o‘quvchi va nechta o‘rindiq qolgan?

2-topshiriq

Bitta maktab partasini ta’mirlash 118 000 so‘mga tushadi. Maktabda 5ta parta singan. Usta va direktor xarajatlarini taqriban, hisoblab chiqishdi. Xarajatlarni usta 600 ming so‘mga, direktor esa 550 ming so‘mga baholadi. Kim ko‘p va qancha xato qildi?

Mantiqni rivojlanishiga oid vazifalarni bajarish bolalar uchun juda samarali. Bunday topshiriqlar davomida o‘quvchilar yechimini mustaqil izlash ko‘nikmasini asta-sekin egallaydilar. Bunday topshiriqlar aqliy faollikni, tashabbusni, o‘quv masalaga ijodiy munosabatni rivojlantiradi, o‘qishga matematikaga bo‘lgan qiziqish uchqunlarini oshirishga yordam beradi.

Bugungi tezkor zamonda o‘quvchilarning matematik kreativ fikrlashini o‘stirish, o‘qitish sifati va samaradorligini oshirish maqsadida zamonaviy ta’lim texnologiyalarining samarali imkoniyatlaridan foydalanish talab etilmoqda. O‘quvchilar kreativ fikrlashini fanlararo abstsessial va ordinatal shakllantirish, ularda o‘quv-bilish faolligini ta’minlashda quyidagi ta’lim texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiq: 1. Interfaol ta’lim. 2. Muammoli ta’lim. 3. Hamkorlik ta’limi. 4. Loyiha ta’limi texnologiyalari.

Kreativlikni rivojlantirish va o‘z bilimlarini mustaqil tuzish qobiliyati loyiha usulining markazida yotadi. Loyihalarni yaratish bo‘yicha ishlar birinchi sinfdan boshlanadi va butun o‘quv davrida davom etadi. Loyihalarning mavzulari xilma-xil:

1. Ajoyibot olamiga sayohat.
2. Atrofimizdagi matematika. Topishmoq, maqol va matallardagi sonlar.
3. Raqamlar tarixidan.
4. Masalalar-hisoblar, boshqotirmalar, reburslar.

Loyihaning yakuniy natijasi – chizmalar ko‘rgazmalari, taqdimotlar, masalalar to‘plamini, devoriy gazetalar, matematik ertaklardan iborat kichik kitoblar yaratish.

Bolalar bu turdagi ishlarni katta zavq bilan bajaradilar.

Interfaol ta’lim texnologiyalari ta’lim sifati va samaradorligini oshirishning asosiy sharti hisoblanadi. Interfaol ta’lim texnologiyalari o‘qitish jarayoni qatnashchilari – o‘qituvchi, o‘quvchi va o‘quvchilar guruhining o‘zaro hamkorligi, qizg‘in bahs-munozara, o‘zaro fikr almashishi yuzaga keladi, ularda mustaqil kreativ fikrlash, o‘z g‘oyasini himoya qila olish, muammoli vaziyat yechimlarini hamkorlikda izlab topish, 1-4-sinf matematika darsliklarini qiyosiy tahlil qilishda o‘quvchilarning o‘zaro fikr almashishini yuzaga keltirish “o‘qituvchi – o‘quvchi – o‘quvchilar guruhi”ning o‘zaro bir-birlarini hurmat qilishlari, faolligi va topqirligi, ruhiy topqirliklari, ijobiy munosabatda bo‘lishlari, ruhiy yakdillikka erishishlari kabilar bilan tavsiflanadi. Boshlang‘ich sinfda matematika darslarini interfaol metodlardan foydalanib tashkil etishning quyidagi afzalliklari mavjud: o‘quv materialini yaxshi o‘zlashtirishga olib keladi; o‘z vaqtida ta’lim jarayoni ishtirokchilari orasida ta’limiy aloqalar o‘rnatiladi; ta’lim metodlari o‘quv jarayonida turli xil ko‘rinishlarda kechadi (yalpi, guruhli, individual); matematika faniga doir axborotlarni berish, olish, qayta ishlash orqali yaxshi esda qoladi; o‘quvchilarda o‘zaro muloqotga kirishish, fikr bildirish, mustaqil va mantiqiy fikr almashinish ko‘nikmalari rivojlanadi; o‘quv jarayonida o‘quvchining o‘zigao‘zi baho berishi, tanqidiy qarashi, o‘z ustida mustaqil ishlashi rivojlanadi; o‘quvchi uchun darsda bilimlar asosida masala yechish jarayoni qiziqarli o‘qitilayotgan o‘quv fani mazmuniga aylanadi. Dars jarayonida matematik qobiliyat, matematik fikr namoyon bo‘ladi. O‘quvchini o‘zini mustaqil fikr yurita olishga, topqirlikka, mushohada qilishga olib keladi; interfaol metodda o‘tilgan darslarda o‘quvchi faqat ta’lim mazmunini o‘zlashtiribgina qolmasdan, balki o‘zining tanqidiy va mantiqiy fikrlashini ham rivojlantiradi, matematik kreativ fikrlashi takomillashadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga matematika fanidan dars mashg‘ulot-larida interfaol metodlarning quyidagi shakllari taklif etiladi: juftlikda ishlash, kichik guruhlarda ishlash, aqliy hujum, rolli o‘yinlar, munozara, venn diagrammasi, klaster. Yuqoridagilardan foydalanishda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ fikrlashni fanlararo abstsessial va ordinatal bog‘lab shakllantirish

maqsadini ko‘zda tutib, muammoni keltirib, o‘quvchilarni shu jarayonda ishlashga tayyorlab, u ma’lum malakalarga ega bo‘lgan holatlarda qo‘llanilsa, matematik topqirligi, zehn o‘tkirligi, matematik qobiliyatning rivojlanganligi kabi kutilgan natijalarni olish mumkin. Hamkorlik ta’lim texnologiyalarining quyidagi ijobiy imkoniyatlarga ega ekanligi ta’kidlab o‘tildi: o‘quvchida matematik qobiliyat, mustaqil va mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish; o‘quvchiga chuqur bilim berish; o‘quvchida mustaqil va mantiqiy fikrlashni shakllantirish; o‘qituvchiga va sinfdoshlariga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish; o‘quvchida muloqot madaniyatini rivojlantirish; ijodiy va o‘zaro hamkorlik muhitini yaratish. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ fikrlashni fanlararo abstsessial va ordinatal bog‘lab shakllantirishda mustaqil ishni tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqil ishi mazmuni matematik tushunchalarni o‘zlashtirish, mustaqil va mantiqiy fikrlash, matematik bilimlarni puxta o‘zlashtirish, bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiya elementlarini mustahkamlashga qaratilgan. O‘quvchilarda kreativ fikrlashni fanlararo abstsessial va ordinatal bog‘lab shakllantirishda ular tomonidan mustaqil ta’lim topshiriqlarining to‘g‘ri, samarali bajarilishi muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilarning mustaqil ta’limini tashkil etish shakllari interfaol, muammoli va hamkorlik ta’lim texnologiyalarining imkoniyatlari asosida takomillashtiriladi.

Boshlang‘ich sinf matematika darslarida kreativ va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish o‘quvchining kelajakdagi intellektual salohiyati, mustaqilligi va ijtimoiy faolligi uchun mustahkam poydevor yaratadi. Matematik topshiriqlarning xilma – xilligi orqali o‘quvchilarni izlanishga, tahlilga taqqoslashga, mantiqiy va ijodiy fikrlashga yo‘naltirish mumkin. Natijada o‘quvchilarda ijodiy, mustaqil, va asosli fikrlash kompetensiyalari shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Шевчук И.В. Организация творческой работа на уроках математики началных классах. ТГУ. 2012г 2(9) Dewey J- “How we think”

2. Jumayev M.E. Matematika o‘qitish metodikasidan praktikum – Toshkent: O‘qituvchi, 2004

3. Bikbayeva N.U. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. – T.: “O‘qituvchi”, 2007. -208 b.

4. Махмутов М.И. Организация проблемного обучения в школе. -М.: “Просвещение”, 1977. -240 с.

5. Jumayev M.E. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi -T.: “Yangi asr avlodi”, 2006.-186.

6. Djurayev R.H. Ta’limda interfaol texnologiyalar. -T., 2010. -87 b.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIDA REFLEKSIV FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Yuldasheva S.M.
Samarqand pedagogika instituti
1-kurs tadqiqotchisi

Tayanch so‘zlar: refleksiv faoliyat, refleksiv kompetensiya, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, pedagogik texnologiyalar, kasbiy refleksiya, o‘z-o‘zini baholash, pedagogik portfoliolar.
Ключевые слова: рефлексивная деятельность, рефлексивная компетентность, будущий учитель начальных классов, педагогические технологии, профессиональная рефлексия, самооценка, педагогическое портфолио.
Key words: reflective activity, reflective competence, future primary school teacher, pedagogical technologies, professional reflection, self-assessment, pedagogical portfolio.

РЕЗЮМЕ:
Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida refleksiv faoliyatni rivojlantirish texnologiyalarining nazariy asoslari va amaliy mexanizmlari tahlil qilingan. Tadqiqotda refleksiv faoliyat tushunchasining mazmuni, uning pedagogik kompetensiyalar tizimidagi o‘rni hamda o‘qituvchi kasbiy faoliyatini takomillashtirishdagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Maqolada refleksiv faoliyatni rivojlantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalar — reflektiv mashg‘ulotlar, portfoliolar, mini-darslar tahlili, o‘zaro baholash va raqamli refleksiya vositalaridan foydalanish imkoniyatlari yoritilgan. Tadqiqot natijalari bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy o‘zini anglash, tanqidiy va mustaqil fikrlash, pedagogik faoliyatni ongli rejalashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirishda refleksiv texnologiyalarning samaradorligini ko‘rsatadi.
РЕЗЮМЕ:
В статье анализируются теоретические основы и практические механизмы развития рефлексивной деятельности у будущих учителей начальных классов. Раскрывается сущность понятия рефлексивной деятельности, ее место в системе педагогических компетенций, а также значение в профессиональном становлении личности учителя. В работе рассматриваются современные педагогические технологии развития рефлексивной деятельности, включая рефлексивные занятия, ведение профессионального портфолио, анализ мини-уроков, взаимную оценку и использование цифровых средств рефлексии. Результаты исследования подтверждают эффективность рефлексивных технологий в формировании у будущих учителей профессионального самосознания, критического и самостоятельного мышления, а также умений осознанного планирования педагогической деятельности.
SUMMARY:
This article analyzes the theoretical foundations and practical mechanisms for developing reflective activity in future primary school teachers. The study reveals the essence of the concept

of reflective activity, its place in the system of pedagogical competencies, and its significance in the professional development of teachers. The article highlights modern pedagogical technologies aimed at enhancing reflective activity, including reflective training sessions, professional portfolios, mini-lesson analysis, peer assessment, and the use of digital reflection tools. The research findings demonstrate the effectiveness of reflective technologies in fostering professional self-awareness, critical and independent thinking, and conscious planning of pedagogical activities among future teachers.

Kirish. Zamonaviy oliy ta’lim tizimida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlash jarayonida refleksiv faoliyatni rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda ta’lim mazmunining kompetensiyaviy yondashuv asosida yangilanishi, ta’lim jarayoniga innovatsion va raqamli texnologiyalarning jadal joriy etilishi o‘qituvchidan nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalarni, balki o‘z pedagogik faoliyatini muntazam tahlil qilish, baholash va takomillashtirishga qodir bo‘lishni talab etmoqda. Shu jihatdan refleksiv faoliyat o‘qituvchining kasbiy yetukligini belgilovchi muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Refleksiv faoliyat bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘z pedagogik tajribasini anglash, dars jarayonidagi muvaffaqiyat va kamchiliklarni aniqlash, pedagogik qarorlar samaradorligini baholash hamda kasbiy rivojlanish strategiyasini ongli ravishda belgilashga xizmat qiladi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘qituvchining refleksiv faoliyati o‘quvchilar bilan samarali muloqotni yo‘lga qo‘yish, ularning individual xususiyatlarini inobatga olish va ta’lim jarayonini moslashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli refleksiv faoliyatni rivojlantirish bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash tizimining ajralmas tarkibiy qismi bo‘lishi zarur.

Ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, J. Dyui, K. Rodjers, D. Kolb kabi xorijiy olimlar hamda mahalliy pedagog tadqiqotchilar refleksiv faoliyatni shaxsning kasbiy o‘sishini ta’minlovchi asosiy mexanizm sifatida talqin etganlar. Ularning ilmiy qarashlarida refleksiya o‘qituvchining kasbiy tajribasini qayta ko‘rib chiqish, faoliyat natijalarini baholash va pedagogik faoliyatni takomillashtirish vositasi sifatida e’tirof etiladi. Biroq amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida refleksiv faoliyat ko‘pincha spontan shakllanadi va zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tizimli rivojlantirilmaydi.

Mazkur holat refleksiv faoliyatni rivojlantirishga yo‘naltirilgan samarali pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va ularni ta’lim jarayoniga joriy etish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu bois ushbu tadqiqotning maqsadi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida refleksiv faoliyatni rivojlantirishga

xizmat qiluvchi pedagogik texnologiyalarni ilmiy asoslash va ularning amaliy samaradorligini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot doirasida quyidagi vazifalar belgilandi:

- refleksiv faoliyat tushunchasining nazariy-pedagogik mohiyatini tahlil qilish;
- bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida refleksiv faoliyatni rivojlantirish texnologiyalarining mazmuni va tuzilmasini aniqlash;
- refleksiv faoliyatni rivojlantirishda qo‘llaniladigan interaktiv, reflektiv va raqamli texnologiyalar imkoniyatlarini asoslash;
- refleksiv faoliyatni rivojlantirishga yo‘naltirilgan texnologiyalarning samaradorligini tajriba-sinov ishlari orqali aniqlash;
- tadqiqot natijalari asosida metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning metodologik asosini shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, refleksiv, faoliyatli hamda kompetensiyaviy yondashuvlar tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, pedagogik kuzatuv, suhbat, anketa, tajriba-sinov ishlari, reflektiv mashg‘ulotlar natijalarini tahlil qilish usullaridan foydalanildi.

Adabiyotlar tahlili. Pedagogik tadqiqotlarda refleksiya shaxsning o‘z faoliyatini, xatti-harakatlarini, fikrlash jarayonlarini va emotsional holatini anglash hamda tahlil qilishga yo‘naltirilgan murakkab psixologik-pedagogik jarayon sifatida talqin etiladi. J. Dewey refleksiyani tajribani ongli ravishda qayta ko‘rib chiqish va undan pedagogik xulosa chiqarish jarayoni sifatida izohlaydi (Dewey, 1993). D. Schön esa refleksiyani “amalda fikrlash” (reflection-in-action) va “amal ustidan fikrlash” (reflection-on-action) shakllarida ko‘rib, uni o‘qituvchining kasbiy faoliyatini takomillashtirishning asosiy mexanizmi sifatida baholaydi (Schön, 1983).

Zamonaviy pedagogik nazariyalarda refleksiv faoliyat o‘qituvchining kasbiy kompetensiyalari tizimida muhim o‘rin egallaydi. Xususan, refleksiv faoliyat o‘qituvchining pedagogik qarorlar qabul qilish jarayonida ongli yondashuvni ta’minlaydi, o‘quv jarayonidagi muvaffaqiyat va kamchiliklarni aniqlash imkonini beradi hamda pedagogik faoliyatni doimiy ravishda takomillashtirishga xizmat qiladi. D. Kolbning tajribaviy o‘qitish modeli refleksiya jarayonini bilimlarni chuqur o‘zlashtirish va kasbiy rivojlanishning muhim bosqichi sifatida ko‘rsatadi (Kolb, 1984).

Refleksiv faoliyatni rivojlantirish masalasi pedagogik texnologiyalar bilan uzviy bog‘liq holda ko‘rib chiqiladi. So‘nggi yillarda ilmiy adabiyotlarda refleksiv faoliyatni rivojlantirish texnologiyalari deganda o‘quv jarayonida talabalarni o‘z faoliyatini tahlil qilishga, baholashga va qayta rejalashtirishga yo‘naltiruvchi metodlar, shakllar va vositalar tizimi tushuniladi. Bunday

texnologiyalar o‘qitish jarayonida interaktivlikni kuchaytirish, talabalarni faol subyekt sifatida shakllantirish hamda mustaqil va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xorijiy tadqiqotlarda refleksiv faoliyatni rivojlantirish uchun reflektiv mashg‘ulotlar, muammoli vaziyatlar tahlili, “case-study” texnologiyasi, o‘zaro baholash (peer assessment), reflektiv esse va portfoliolar samarali vositalar sifatida e’tirof etilgan (Rogers, 2001; Moon, 2004). Ushbu texnologiyalar talabalarda kasbiy o‘zini anglash, pedagogik faoliyatga nisbatan mas’uliyatli munosabat va o‘z-o‘zini rivojlantirish ehtiyojini shakllantiradi.

Mahalliy pedagog olimlar tadqiqotlarida ham refleksiv faoliyat va uni rivojlantirish texnologiyalariga alohida e’tibor qaratilgan. A. Abdullayeva, N. Norqulova, M. Toshpo‘latova va boshqalarning ilmiy ishlarida refleksiv faoliyat bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishning muhim sharti sifatida baholanadi. Ular refleksiv faoliyatni rivojlantirishda amaliy mashg‘ulotlar, reflektiv kundaliklar, mini-darslar tahlili, pedagogik vaziyatlarni modellashtirish kabi texnologiyalarning samaradorligini ta’kidlaydilar.

Nazariy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, refleksiv faoliyatni rivojlantirish texnologiyalari quyidagi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi: o‘quv jarayonini refleksiv muhit asosida tashkil etish; talabalarni o‘z pedagogik faoliyatini baholashga yo‘naltiruvchi topshiriqlarni joriy etish; o‘z-o‘zini baholash va o‘zaro baholash mexanizmlaridan foydalanish; raqamli refleksiya vositalari (elektron portfoliolar, onlayn kundaliklar)dan samarali foydalanish. Ushbu texnologiyalar orqali bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida refleksiv faoliyatning barqaror ko‘nikmalari shakllanadi va ularning kasbiy rivojlanishiga mustahkam zamin yaratiladi.

Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda refleksiv faoliyatni rivojlantirish texnologiyalari ko‘pincha umumiy pedagogik tayyorgarlik doirasida yoritilgan bo‘lib, ularni aynan boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi xususiyatlari asosida tizimli joriy etish masalasi yetarli darajada tadqiq etilmagan. Bu holat mazkur tadqiqotda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida refleksiv faoliyatni rivojlantirish texnologiyalarini ilmiy asoslash va amaliyotga tatbiq etish zaruratini belgilaydi.

Tadqiqotning amaliy qismi bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari orasida refleksiv kompetensiyani shakllantirish mexanizmlarini tajriba-sinovdan o‘tkazish va ularning samaradorligini baholashga qaratildi. Tadqiqot jarayoni oliy ta’lim muassasasining boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalarida tashkil etildi hamda unda jami 50 nafar talaba ishtirok etdi.

Tajriba-sinov ishlarida ikki guruh shakllantirildi:

1. **Eksperimental guruh (N=25)** – refleksiv kompetensiyani shakllantirishga yo‘naltirilgan maxsus pedagogik mexanizmlar va texnologiyalar joriy etilgan;

2. **Nazorat guruhi (N=25)** – an’anaviy o‘qitish metodlari asosida ta’lim olgan.

Eksperimental guruhda refleksiv faoliyatni rivojlantirishga xizmat qiluvchi quyidagi metod va usullar tizimli ravishda qo‘llanildi:

1. **Reflektiv topshiriqlar** – talabalar har bir mashg‘ulotdan so‘ng o‘z pedagogik faoliyatini tahlil qilish, yo‘l qo‘yilgan xatolarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo‘llarini yozma shaklda ifodaladilar.

2. **Reflektiv kundaliklar** – talabalarning mashg‘ulotlardagi faolligi, duch kelgan qiyinchiliklari, hissiy holati va kasbiy rivojlanish dinamikasi muntazam qayd etib borildi.

3. **Interaktiv metodlar** – “vaziyatli tahlil”, “SWOT-tahlil”, “T-jadval”, “Fishbone” metodlari orqali talabalar muammoni aniqlash, tahlil qilish va pedagogik yechimlarni asoslash ko‘nikmalarini rivojlantirdilar.

4. **O‘z-o‘zini baholash va o‘zaro baholash** – talabalar o‘z faoliyati va guruhdoshlarining ishlarini baholash orqali refleksiv tahlil va tanqidiy fikrlashni o‘zlashtirdilar.

5. **Portfoliolar** – mustaqil ishlar, dars loyihalari va reflektiv yozuvlar asosida talabalar o‘z kasbiy o‘sishini kuzatish va baholash imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

6. **Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)** – video-refleksiya texnologiyasi orqali talabalar o‘z dars jarayonini qayta ko‘rib chiqib, faoliyatini vizual tahlil qildilar.

Tajriba natijalari. Tajriba-sinov ishlari yakunida olingan natijalar refleksiv kompetensiyani shakllantirishga qaratilgan pedagogik mexanizmlarning samaradorligini yaqqol ko‘rsatdi. Xususan, eksperimental guruh talabalari refleksiv ko‘nikmalarni nazorat guruhiga nisbatan **23 –27 foizga yuqori darajada** namoyon etdilar.

Reflektiv kundaliklar va interaktiv mashg‘ulotlar talabalarning o‘z faoliyatini tizimli tahlil qilish, xatolarni aniqlash va ularni bartaraf etish qobiliyatini sezilarli darajada rivojlantirdi. Portfoliolar va o‘zaro baholash mexanizmlari esa talabalarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va kasbiy o‘zini anglashni kuchaytirdi.

1-jadval. Refleksiv ko‘nikmalar darajasi (%)

Guruh	Tajribadan oldin	Tajribadan keyin
Eksperimental guruh	42	65
Nazorat guruhi	43	46

Jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, refleksiv kompetensiyani rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik mexanizmlarni tizimli joriy etish talabalarning refleksiv faoliyatini sezilarli darajada faollashtiradi. Ayniqsa, video-refleksiya texnologiyasining qo‘llanilishi talabalarda vizual tahlil, o‘z faoliyatini tanqidiy baholash va pedagogik xatolarni aniqlash ko‘nikmalarini rivojlantirdi.

Muhokama. Amaliy tadqiqot natijalari nazariy qarashlar bilan taqqoslanganda, refleksiv kompetensiyani shakllantirishning pedagogik mexanizmlari yuqori samaradorlikka ega ekanligi ilmiy jihatdan tasdiqlandi. Nazariy tahlillarda refleksiv kompetensiya motivatsion, kognitiv, amaliy va reflektiv-integrativ komponentlardan tashkil topishi hamda ularni rivojlantirish interaktiv metodlar, reflektiv topshiriqlar va o‘z-o‘zini baholash orqali amalga oshirilishi asoslab berilgan (Dewey, 1993; Schön, 1983; Abdullayeva, 2022).

Tajriba natijalari esa:

- eksperimental guruh talabalari refleksiv ko‘nikmalarni nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada rivojlantirganini;
- reflektiv kundaliklar va interaktiv mashg‘ulotlar talabalarning o‘z faoliyatini tizimli baholash va takomillashtirish qobiliyatini mustahkamlaganini;
- o‘z-o‘zini baholash va portfoliolar orqali mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv shakllanganini ko‘rsatdi.

Muallifning ilmiy pozitsiyasiga ko‘ra, bo‘lajak o‘qituvchilarda refleksiv kompetensiyalarni shakllantirish pedagogik jarayoni **integratsiyalashgan, tizimli va bosqichma-bosqich** tashkil etilganda yuqori samaradorlikka erishiladi. Mazkur yondashuv talabalarda nafaqat nazariy bilimlarni, balki pedagogik faoliyatni tahlil qilish, o‘z ustida ishlash va kasbiy rivojlanishni ongli rejalashtirish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, refleksiv kompetensiyalarni shakllantirish mexanizmlari:

1. talabalarni faol va ongli o‘rganishga jalb etadi;
2. mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni rivojlantiradi;
3. pedagogik faoliyatni doimiy takomillashtirishni ta’minlaydi;
4. ta’lim jarayonining umumiy sifatini oshiradi.

Shu bilan birga, tajriba jarayonida qo‘llanilgan interaktiv mashg‘ulotlar, reflektiv kundaliklar, portfoliolar va AKT asosidagi video-refleksiya texnologiyalari bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida refleksiv kompetensiyani shakllantirishning samarali pedagogik mexanizmlari sifatida tasdiqlandi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida refleksiv faoliyatni rivojlantirish texnologiyalarining nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etdi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki:

1. Refleksiv faoliyat bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida muhim komponent hisoblanadi va pedagogik qarorlarni ongli qabul qilish, o‘z faoliyatini tahlil qilish hamda doimiy takomillashtirishga xizmat qiladi.

2. Eksperimental guruh talabalari refleksiv kompetensiyani nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada rivojlantirdi, bu pedagogik mexanizmlarning samaradorligini tasdiqlaydi.

3. Reflektiv topshiriqlar, kundaliklar, interaktiv mashg‘ulotlar, portfoliolar va AKT asosidagi video-refleksiya texnologiyalari talabalarni mustaqil fikrlashga, ijodiy yondashuvni shakllantirishga va pedagogik faoliyatni ongli rejalashtirishga faol jalb qiladi.

4. Refleksiv kompetensiyalarni shakllantirish integratsiyalashgan, tizimli va bosqichma-bosqich yondashuv orqali yuqori samaradorlikka erishadi.

Tavsiyalar.

1. **Pedagogik jarayonni tizimlashtirish** – boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashda refleksiv faoliyatni rivojlantirish uchun maxsus modul yoki mashg‘ulotlar dasturini ishlab chiqish va uni bosqichma-bosqich joriy etish.

2. **Interaktiv va reflektiv metodlardan foydalanish** – “vaziyatli tahlil”, SWOT, T-jadval, Fishbone kabi metodlarni muntazam qo‘llash orqali talabalarning tanqidiy fikrlash va muammoni yechish ko‘nikmalarini oshirish.

3. **Portfoliolar va reflektiv kundaliklar** – talabalar o‘z pedagogik faoliyatini tizimli qayd etishi, baholashi va rivojlanish dinamikasini kuzatishi uchun portfoliolar va kundaliklarni joriy etish.

4. **Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari** – video-refleksiya va boshqa raqamli vositalardan foydalanib, talabalarga o‘z darslarini vizual tahlil qilish va pedagogik xatolarni aniqlash imkoniyatini berish.

5. **O‘z-o‘zini baholash va o‘zaro baholash** – talabalar o‘z faoliyati va guruhdoshlarining ishlarini baholash orqali refleksiv ko‘nikmalarini mustahkamlashga rag‘batlantirish.

6. **Doimiy monitoring va takomillashtirish** – refleksiv texnologiyalarning samaradorligini muntazam kuzatish va pedagogik jarayonni talabalar ehtiyojlari va zamonaviy talablarga moslash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Dewey J. How We Think. - Boston: Heath, 1993. - 320 p.

2. Schön D. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. - New York: Basic Books, 1983. - 412 p.

3. Kolb D. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. - Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1984. - 390 p.

4. Abdullayeva A. Refleksiv kompetensiyani shakllantirish metodikasi. - Pedagogika ilmiy jurnal, 5(3), 2022. - 45-52 b.

5. Toshpo‘latova N. Bo‘lajak o‘qituvchilarda refleksiv kompetensiya rivoji. - O‘zbekiston ta’limi, 2, 2021. – 12-20 b.

6. Mirzaeva F. Talabalar faoliyatida refleksiya usullari. - O‘zbekiston pedagogik xabarlar, 4(1), 2020. – 33-41 b.

7. Karimov S. Pedagogik texnologiyalar va innovatsion metodlar. - Oliy ta’limda pedagogika, 1(2), 2019. - 56–63 b.

8. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. - Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. - 276 p.

9. Rogers C.R. Freedom to Learn for the 80s. - Columbus: Merrill, 1983. - 310 p.

10. Gagne R.M. The Conditions of Learning and Theory of Instruction. - New York: Holt, Rinehart & Winston, 1985. - 400 p.

11. Abdullaev T., Nurmatov K. Bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlashda reflektiv yondashuv. - Ta’lim va psixologiya, 6(4), 2021. – 14-22 b.

12. Kolmogorov M. Ta’lim jarayonida mustaqil tahlil va baholash metodlari. - O‘zbekiston ilmiy ta’lim xabarlari, 3(5), 2018. - 23-30 b.

13. I.Madatov, Oliy o‘quv yurtlarida talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilishning joriy holatini o‘rganish, O‘zbekiston milliy universiteti xabarlari, 2025, [1/6] ISSN 2181-7324, 109-112 betlar

14. Sh.R.Urakov, I.Y.Madatov, Talabalar mustaqil ta’limini kompetentlilikka yo‘naltirilgan topshiriqlar asosida takomillashtirish muammolari, Buxoro davlat universitetining Pedagogik mahorat jurnali 2025-yil 8-son 54-60 b.

15. Mezirow J. Transformative Dimensions of Adult Learning. - San Francisco: Jossey-Bass, 1991. - 340 p.

16. Abdurasulov R. Interaktiv o‘qitish metodlari va refleksiya. - Pedagogik innovatsiyalar jurnali, 2(3), 2020. - 40-49 b.

17. Kolb D., Fry R. Toward an Applied Theory of Experiential Learning. - London: John Wiley, 1975. – 33-57 p.

O‘QUVCHILAR JAMOASI BILAN ISHLASH SHAKLLARI (BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHILARI MISOLIDA)

Nurmanova D.J.
Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim nazaryasi va amaliyoti kafedrasi
mustaqil izlanuvchisi

Tayanch so‘zlar: o‘quvchilar jamoasi, pedagogik tizim, ijtimoiy faollik, jamoaviy-ta’limiy faoliyatni tashkil etish mexanizmlari, ta’lim jarayonini strukturaviy-modellashtirish shakllari, kasbiy tayyorgarlik, kasbiy-pedagogik kompetensiyalarni shakllantirish, an’anaviy va interaktiv pedagogik shakllar, pedagogik jarayonni boshqarish.
Ключевые слова: ученический коллектив, педагогическая система, социальная активность, механизмы организации коллективно-образовательной деятельности, формы структурно-моделирующей организации образовательного процесса, профессиональная подготовка, формирование профессионально-педагогических компетенций, традиционные и интерактивные педагогические формы, управление педагогическим процессом.
Key words: student collective, pedagogical system, social activity, mechanisms for organizing collective educational activity, forms of structural modeling of the educational process, professional training, formation of professional-pedagogical competencies, traditional and interactive pedagogical forms, management of the pedagogical process.

РЕЗЮМЕ:
Maqolada bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlash jarayonida o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash shakllarining nazariy asoslari va pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda o‘quvchilar jamoasini shakllantirish va rivojlantirishga yo‘naltirilgan an’anaviy hamda interaktiv pedagogik shakllar aniqlanib, ularning ta’lim jarayonidagi o‘rni asoslangan. Jamoaviy faoliyatni tashkil etish orqali o‘quvchilarda ijtimoiy faollik, hamkorlik va mas’uliyat ko‘nikmalarini rivojlantirish mexanizmlari yoritilgan. Tadqiqot natijalari bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘quvchilar jamoasi bilan ishlashga oid kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda tizimli yondashuvni qo‘llash yuzasidan tavsiyalar keltirilgan.
РЕЗЮМЕ:
В статье проанализированы теоретические основы и педагогические возможности форм работы с ученическим коллективом в процессе профессиональной подготовки будущих учителей начального образования. В исследовании выявлены традиционные и интерактивные педагогические формы, направленные на формирование и развитие ученического коллектива, и обоснована их роль в образовательном процессе. Раскрыты механизмы развития у учащихся социальной активности, навыков сотрудничества и ответственности посредством

организации коллективной деятельности. По результатам исследования представлены рекомендации по применению системного подхода в формировании профессиональных компетенций будущих учителей, связанных с работой с ученическим коллективом.

SUMMARY:

The article analyzes the theoretical foundations and pedagogical potential of forms of working with the student collective in the process of professional training of future primary education teachers. The study identifies traditional and interactive pedagogical forms aimed at the formation and development of the student collective and substantiates their role in the educational process. The mechanisms for developing students' social activity, cooperation, and responsibility through the organization of collective activities are examined. Based on the research findings, recommendations are proposed for applying a systemic approach to the formation of professional competencies of future teachers related to working with the student collective.

Zamonaviy ta'lim tizimida bo‘lajak boshlang‘ich ta'lim o‘qituvchilarini kasbiy jihatdan puxta tayyorlash masalasi ustuvor pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Xususan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari shaxsini har tomonlama rivojlantirish, ularning ijtimoiylashuvi va jamoada faol ishtirok etish ko‘nikmalarini shakllantirishda o‘qituvchining o‘quvchilar jamoasi bilan ishlashga oid kasbiy tayyorgarligi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois bo‘lajak o‘qituvchilarning jamoaviy faoliyatni samarali tashkil etish, boshqarish va rivojlantirish bo‘yicha kompetensiyalarini shakllantirish dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Pedagogika nazariyasida o‘quvchilar jamoasi ta'lim-tarbiya jarayonining muhim subyekti sifatida e'tirof etilib, uning shakllanishi va rivojlanishi shaxs kamolotiga bevosita ta'sir ko‘rsatishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. O‘quvchilar jamoasi bilan ishlash jarayonida an'anaviy pedagogik shakllar bilan bir qatorda interaktiv va innovatsion yondashuvlardan foydalanish o‘quvchilarning ijtimoiy faolligi, hamkorlik madaniyati hamda jamoaviy mas'uliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Biroq bo‘lajak boshlang‘ich ta'lim o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida mazkur shakllarni tizimli va maqsadga muvofiq qo‘llash masalasi yetarli darajada kompleks tadqiq etilmagan. Mavjud ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash shakllarining pedagogik imkoniyatlarini ochib berish, ularni bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi mazmuniga integratsiya qilish zarurati mavjud. Ayniqsa, jamoaviy faoliyatni tashkil etish orqali o‘quvchilarda ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirish mexanizmlarini aniqlash hamda ularni amaliyotga tatbiq etish dolzarb hisoblanadi. Shu munosabat bilan mazkur maqolada bo‘lajak boshlang‘ich ta'lim o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlash jarayonida o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash shakllarining nazariy asoslari va pedagogik imkoniyatlarini tahlil qilish, shuningdek, ularni samarali qo‘llash bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish maqsad qilib qo‘yildi.

Mazkur tadqiqot ishida bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlash jarayonida o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash shakllarining pedagogik imkoniyatlarini aniqlash va ilmiy asoslashga yo‘naltirilgan. Jumladan, tizimli yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv hamda faoliyatga asoslangan yondashuvlardir.

1. Tizimli yondashuv – o‘quvchilar jamoasini yaxlit pedagogik tizim sifatida o‘rganish, uning tarkibiy komponentlari (maqsad, mazmun, shakl, metod va natija) o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni aniqlash imkonini beradi.

2. Kompetensiyaviy yondashuv bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarida o‘quvchilar jamoasi bilan ishlashga oid kasbiy-pedagogik kompetensiyalarni shakllantirishni tadqiqotning ustuvor vazifasi sifatida belgilaydi.

3. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv – o‘quvchilar jamoasidagi har bir a’zoning individual xususiyatlarini hisobga olish, ijtimoiylashuv va shaxsiy rivojlanishini ta’minlashga xizmat qilsa, faoliyatga asoslangan yondashuv jamoaviy faoliyatni tashkil etish orqali o‘quvchilarda hamkorlik, mas’uliyat va ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini rivojlantirish mexanizmlarini ochib beradi.

Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, pedagogik kuzatish, taqqoslash, umumlashtirish, ilmiy adabiyotlarni tizimli o‘rganish metodlaridan foydalanildi. Olingan natijalar bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga asos bo‘ldi. Buning ilmiy asosini Pedagogika fanida o‘quvchilar jamoasi bilan ishlashda muammosi ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan shaxsni ijtimoiy rivojlantirishning muhim omili sifatida talqin etilgan. Xususan, jamoa nazariyasining ilmiy asoslari mumtoz pedagogik qarashlarda keng yoritilib, unda jamoaning tarbiyaviy imkoniyatlari, jamoaviy faoliyatning shaxs shakllanishiga ta’siri ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda esa o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash shakllari ta’lim jarayonini tashkil etishning samarali vositasi sifatida ko‘rib chiqilmoqda. Tadqiqotchilar tomonidan jamoaviy o‘qitish, hamkorlik pedagogikasi, interaktiv ta’lim shakllarining o‘quvchilarning ijtimoiy faolligi va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishdagi roli ta’kidlangan. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida jamoaviy faoliyatni maqsadga muvofiq tashkil etish o‘quvchilarning ijtimoiylashuvi va shaxslararo munosabatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etishi qayd etiladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlashga oid ilmiy manbalarda pedagogik kompetensiyalarni shakllantirish masalasi alohida tadqiq etilgan bo‘lib, unda o‘qituvchining jamoa bilan ishlashga oid kasbiy tayyorgarligi ta’lim samaradorligini belgilovchi omillardan biri sifatida baholanadi. Shu

bilan birga, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash shakllarini tizimli va metodik jihatdan asoslash masalasi yetarli darajada yoritilmagan. Mazkur holat o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash shakllarining nazariy asoslari va pedagogik imkoniyatlarini chuqur tahlil qilish, ularni bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi mazmuniga integratsiya qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Keltirilgan zarurat yuzasidan amaliy yechim sifatida, bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlash jarayonida o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash shakllarining pedagogik imkoniyatlarini tizimli va kompetensiyaviy yondashuvlar asosida kompleks tadqiq etilganligi bilan belgilanadi. Xususan, ilmiy adabiyotlarni nazariy tahlil va taqqoslash metodlari asosida o‘rganish orqali o‘quvchilar jamoasi bilan ishlashning an’anaviy hamda interaktiv pedagogik shakllari tasniflanib, ularning boshlang‘ich ta’lim sharoitidagi didaktik funksiyalari aniqlashtirildi.

Pedagogik kuzatish va umumlashtirish metodlari asosida jamoaviy faoliyatni tashkil etish jarayonida o‘quvchilarda ijtimoiy faollik, hamkorlik va jamoaviy mas’uliyat ko‘nikmalarini rivojlantirish mexanizmlari aniqlanib, ularning pedagogik samaradorligi nazariy jihatdan asoslab berildi. Mazkur yondashuv orqali o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash shakllarining tarbiyaviy va rivojlantiruvchi salohiyati aniqlik kasb etdi.

Tizimli tahlil va modellashtirish metodlari yordamida bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarida o‘quvchilar jamoasi bilan ishlashga oid kasbiy-pedagogik kompetensiyalarni shakllantirishning tarkibiy komponentlari (bilim, ko‘nikma, munosabat) aniqlashtirilib, ularning o‘zaro bog‘liqligi asoslandi. Natijada mazkur kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik yo‘nalishlar taklif etildi.

Shuningdek, ilmiy-pedagogik tahlil va xulosalash metodlari orqali olingan natijalar umumlashtirilib, bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash shakllarini tizimli qo‘llash bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqildi. Ushbu tavsiyalar mazkur yo‘nalishdagi mavjud ilmiy yondashuvlarni boyitishi bilan birga, boshlang‘ich ta’lim amaliyotiga tatbiq etish imkoniyatiga ega.

Tahlillar jarayonida nazariy tahlil, tizimli yondashuv va modellashtirish metodlari asosida o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash shakllarining pedagogik imkoniyatlari aniqlashtirilgani mazkur yo‘nalishdagi mavjud ilmiy qarashlarni aniqlashtiradi va kengaytiradi. Olingan xulosalar o‘quvchilar jamoasini pedagogik tizim sifatida talqin etishga doir nazariy yondashuvlarni rivojlantirish imkonini beradi. Tadqiqotda qo‘llanilgan pedagogik kuzatish,

umumlashtirish va taqqoslash metodlari orqali aniqlangan jamoaviy faoliyatni tashkil etish mexanizmlari boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilar jamoasini shakllantirish va rivojlantirishga oid ilmiy-amaliy bilimlarni tizimlashtiradi. Bu esa o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash shakllarining tarbiyaviy, rivojlantiruvchi va ijtimoiylashtiruvchi salohiyatini ilmiy jihatdan asoslashga xizmat qiladi. Yuqoridagi fikr va mulohazalarni asaslash maqsadida quyida jamoa bilan ishlash uchun metod tavsiya etiladi.

Mazkur metod bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi jarayonida kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan samarali pedagogik vosita sifatida xizmat qiladi. Ushbu o‘yin-treningni dars jarayoniga tizimli tatbiq etish o‘quvchilar jamoasida ijobiy psixologik muhitni shakllantirishga hamda ta’lim samaradorligini oshirishga imkon beradi.

Metod (o‘yin-trening) nomi: “Hamkorlik doirasi”

Metodning maqsadi: O‘quvchilar jamoasida o‘zaro muloqot madaniyatini rivojlantirish, hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish hamda jamoaviy mas’uliyatni kuchaytirish orqali ijtimoiy-faol ta’lim muhitini yaratish.

Metodning ilmiy-metodik asoslari: Mazkur metod faoliyatga asoslangan yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish nazariyasi hamda hamkorlik pedagogikasi tamoyillariga tayanadi. O‘yin jarayonida o‘quvchilar teng huquqli subyektlar sifatida ishtirok etib, ijtimoiy o‘zaro ta’sir orqali bilim va tajribani egallaydilar.

Qo‘llash sohalari: Boshlang‘ich ta’lim (1–4-sinflar), ona tili, o‘qish savodxonligi, tarbiya soatlari, integratsiyalashgan darslar.

Ishtirokchilar soni: 10–25 nafar o‘quvchi (butun sinf yoki kichik guruhlar).

Metodning bajarilish tartibi:

Tashkiliy bosqich. O‘qituvchi o‘quvchilarni doira shaklida joylashtiradi va darsning kommunikativ maqsadini qisqacha tushuntiradi.

Faoliyat bosqichi. O‘qituvchi muayyan mavzuga oid savol yoki vaziyatni (masalan: “Sinfda do‘stlikni mustahkamlash uchun nimalar qilish kerak?”) o‘rtaga tashlaydi. Har bir o‘quvchi navbat bilan fikr bildiradi, biroq faqatgina oldingi ishtirokchining fikriga qisqacha munosabat bildirgandan so‘ng o‘z fikrini aytishi shart.

Hamkorlikni kuchaytirish bosqichi. O‘qituvchi o‘quvchilarga kichik kartochkalar tarqatadi. Kartochkalarda “savol berish”, “fikrni davom ettirish”, “tasdiqlash”, “xulosa qilish” kabi kommunikativ rollar yozilgan bo‘ladi. Har bir o‘quvchi o‘z roliga mos ravishda muloqotda ishtirok etadi.

Refleksiya bosqichi. Mashg‘ulot yakunida o‘quvchilar o‘z his-tuyg‘ulari va muloqot jarayonidagi tajribasi haqida fikr bildiradilar. O‘qituvchi jamoaviy hamkorlik va samarali muloqotga doir xulosalar chiqaradi.

Kutilayotgan natijalar:

o‘quvchilarda og‘zaki muloqot va tinglash madaniyati rivojlanadi;

jamoada fikr almashish va o‘zaro hurmat muhitining shakllanishi ta’minlanadi;

hamkorlikda ishlash va jamoaviy mas’uliyat ko‘nikmalari rivojlanadi;

bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘quvchilar jamoasi bilan ishlashga oid metodik kompetensiyalar mustahkamlanadi.

Natijalari bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi. Ushbu tavsiyalar oliy ta’lim muassasalarida pedagog kadrlar tayyorlash jarayonida, xususan, “Pedagogika”, “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi”, “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fanlarini o‘qitishda qo‘llanishi mumkin. Shuningdek, ishlab chiqilgan ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar umumta’lim maktablarida sinf rahbarlari hamda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari faoliyatida, o‘quvchilar jamoasi bilan ishlashni samarali tashkil etish, jamoaviy muhitni rivojlantirish hamda o‘quvchilarning ijtimoiy faolligi va hamkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishda amaliy ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari pedagogik amaliyotda jamoaviy ish shakllarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Vygotskiy L.S. Pedagogik psixologiya. – Moskva: Pedagogika, 1996.
2. Leontev A.N. Faoliyat. Ong. Shaxs. – Moskva: Politizdat, 1977.
3. Rubinshteyn S.L. Umumiy psixologiya asoslari. – Moskva: Pedagogika, 1989.
4. Makarenko A.S. Jamoada va jamoa orqali tarbiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 1988.
5. Davydov V.V. Rivojlantiruvchi ta’lim nazariyasi. – Moskva: INTOR, 1996.
6. Klarin M.V. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Moskva: Akademiya, 2010.
7. Zimnyaya I.A. Pedagogik kompetensiyalar nazariyasi. – Moskva: Logos, 2004.
8. Slobodchikov V.I., Isaev E.I. Pedagogik antropologiya. – Moskva: Shkola-Press, 2000.
9. Shodiev R., Jo‘rayev R. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan, 2018.
10. Abduqodirov A., Begimqulov U. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016.
11. Karimova V.M. Ta’lim jarayonida shaxslararo muloqot. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2014.
12. Qodirova F.R. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
13. Johnson D.W., Johnson R.T. Cooperation and the Use of Technology. – Handbook of Educational Psychology, 2011.
14. Hattie J. Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. – London: Routledge, 2009.
15. UNESCO. Education for Social and Emotional Learning. – Paris, 2016.

XALQ OG‘ZAKI IJODI VOSITASIDA MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARNING KOGNITIV QIZIQISHLARI VA NUTQ FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMOLARI

Jumasheva G.X.
NDPI “Maktabgacha ta’lim” kafedrasi mudiri, p.f.d., professor,
Dastanova J.T.
Ajiniyoz nomidagi NDPI 1-kurs magistri
Batirbaeva B.M.
NDPI 2-kurs talabasi

Tayanch so‘zlar: xalq og‘zaki ijodi, maktabgacha katta yoshdagi bolalar, kognitiv qiziqishlar, nutq faolligini rivojlantirish, kognitiv rivojlanish muammosi.
Ключевые слова: народная устная литература, дети старшего дошкольного возраста, познавательные интересы, развитие речевой деятельности, проблема познавательного развития.
Key words: folk oral literature, senior preschool children, cognitive interests, development of speech activity, problem of cognitive development.

РЕЗЮМЕ:
Ushbu maqolada maktabgacha katta yoshdagi bolalarning kognitiv qiziqishlari va nutq faolligini rivojlantirishning nazariy asoslari, bolaning nutqiy qobiliyatini, kognitiv qiziqishlarini rivojlantirishda mutafakkirlarning pedagogik-psixologik qarashlari, pedagogik muammo sifatida ekanligi o‘rganib chiqilgan. Shuningdek ilmiy metodik ta’minot ishlab chiqib va amaliyotga tadbiq etish o‘rganiladi va katta guruh bolalarining kognitiv qiziqishlarini rivojlantirish metodlarini takomillashtirish ishning predmetini tashkil qiladi.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье изучены теоретические основы развития познавательных интересов и речевой деятельности дошкольников, педагогико-психологические взгляды мыслителей на развитие речевых способностей и познавательных интересов детей, как педагогическую проблему. Также разрабатывается и применяется на практике научно-методическое обеспечение и совершенствование методов развития познавательных интересов детей в старшей группе.
SUMMARY:
This article examines the theoretical foundations of the development of cognitive interests and speech activity of older preschool children, the pedagogical and psychological views of thinkers on the development of children's speech abilities and cognitive interests, as a pedagogical problem. It also studies the development of scientific methodological support and its application in practice, the improvement of methods for the development of cognitive interests of children in the senior group.

Bolalarga xalq og‘zaki ijodi na’munalari orqali milliy qadriyatlarni singdirish masalalari mustaqil O‘zbekistonimizda shitob bilan rivojlanmoqda. Bir qator olimlari: M.Jo‘raev, S.Ochilov, O.Safarov, U.Mahkamov, O.Aleuov, G.X.Jumasheva, A.T.Tlegenov kabi olimlar xalq og‘zaki ijodidan foydalanish orqali yoshlarda kognitiv qiziqishlari va nutq faolligini shakllantirish masalalariga e'tibor qaratmoqdalar. Xalq og‘zaki ijodi namunalarida komil inson g‘oyasi, ayniqsa, yosh avlodni tarbiyalashda kuchli vosita bo‘lib xizmat qiladi. Buyuk entsiklopedist-olimlar: Ibn Sino, Beruniy, Forobiy, Navoiy, Berdaq, Ajiniyoz kabi mutafakkirlarning komil insonni tarbiyalash haqidagi fikrlari ham qaysidir bir ma'noda xalq og‘zaki ijodi namunalarida ilgari surilgan g‘oyalar asosida vujudga kelgan va jamiyat taraqqiyotiga yangi ma’naviy imkoniyatlar izlash maqsadlari bilan bog‘langan. Forobiy fozil shahar aholisi haqidagi g‘oyalarini ilgari surar ekan, shaxsning ma’anviy kamolotini adolatli jamiyat qurishning asosiy sharti deb hisoblagan.

Har qanday inson dunyoni bilishning doimiy jarayonidadir: u boshqa odamlarning nutqini o‘ylaydi, aks ettiradi, gapiradi va tushunadi, his qiladi, his-tuyg‘ularini baham ko‘radi. Bu qobiliyatlarning barchasi o‘z-o‘zidan emas, balki faol bilim faoliyatida rivojlantiriladi va takomillashadi. Maktabgacha yoshdagi bolalik davri ham bu dunyoqarashning bilish va rivojlanish davridir. Bola ularni yetakchi faoliyatga aylanadigan ro‘lli o‘yinda namoyish etadi. U o‘ynab, tengdoshlari bilan muloqot qilishni o‘rganadi. Bu ham ijodkorlik davri. Bola nutqni o‘rganadi, tasavvurga ega bo‘ladi. Bu insonning dastlabki shakllanish davri, uning xatti-harakatlarining oqibatlarini hissiy oldindan sezishning paydo bo‘lishi, o‘zini o‘zi anglash, tajribalarni murakkablashtirish va xabardorlik, yangi his-tuyg‘ular va motivlar bilan boyitish, hissiy-ehtiyojlar sohasi murakkablashadigan davrdir. Kognitiv rivojlanish muammosi, maktabgacha yoshdagi bolalarning bilim faolligini shakllantirishga samarali ta’sir ko‘rsatadigan shart-sharoitlar ko‘p yillar davomida psixologik va pedagogik tadqiqotlarda yetakchi o‘rinlardan birini egallab kelgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv rivojlanish hususiyatlarini o‘rganib, biz maktabgacha yoshdagi bolaning kognitiv rivojlanishidagi turli xil psixologik omillarning ro‘lini aniqlashni, bu yoshda kognitiv rivojlanishning qanday umumiy xususiyatlari rivojlanishini, har bir omil ta’siridan qanday kognitiv oqibatlarga olib kelishini aniqlashimiz mumkin. Maktabgacha yosh davrida kognitiv rivojlanish - bu atrof-muhit ta’siri ostida, shuningdek, maxsus tashkil etilgan o‘quv va tarbiya ta’siri va bolaning o‘z tajribasi bilan bog‘liq bo‘lgan fikrlash jarayonlarida yuz beradigan sifat va miqdoriy o‘zgarishlarning yig‘indisi. Kognitiv rivojlanishni nutq bilan bog‘liqligini M.M. Alekseeva, V.I. Yashin, V. Kojakar va S.A. Kozlova bola barqaror manfaatlarini ta‘minlashda pedagogik shart-sharoitlar muhim ro‘l o‘ynashini, D.B. Godovikova kognitiv faoliyatda atrofdagi olamdan bilim olishga

intilish, bu ham kognitiv ehtiyoj, ham shu bilan qo‘zg‘aladigan bilim faoliatidir deydi. A.Z Zaporojets aqliy tarbiyaning alohida vazifasini boshlang‘ich bilimlar tizimini va hayotiy hodisalarini aqliy rivojlanish sharti sifatida qaraydi. Dilbar Jo‘rayeva bolalarning kognitiv rivojlanishiga ertaklar va hikoyalar orqali ta'sir qilish jarayonini o‘rgangan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan mamlakatimizda maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha alohida ta‘lim standartlari, o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va barcha yondashuvlarni tubdan qayta ko‘rib chiqish, ularni qayta takomillashtirish, ta‘lim sifatini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha vazifalar belgilab berildi. Amaldagi ta‘lim-tarbiya jarayonining tadqiqiy va tahliliy yo‘nalishga ega bo‘lgan texnologiyalarini takomillashtirish, hozirgi kishilik jamiyatida inson ehtiyojlariga va zamonaviy talablariga mos mutaxassislarni yetishtirish katta ahamiyat kasb etadi. Qayd etilganidek, belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirishda pedagog xodimlarning malaka darajasini yuksaltirish, albatta ta’lim tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida alohida ahamiyatga ega. Xususan, ular axloqiy-ma‘naviy jihatdan yetuk, ijtimoiy faol, ijodiy faoliyatga moyil, yangicha kasbiy dunyoqarash jumladan, takomillashayotgan zamon talablariga moslasha olish qobiliyatlariga ega bo‘lishlari talab etiladi. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda uzluksiz ta’limning birinchi bosqichi sanalgan maktabgacha ta‘limda faoliyat yuritayotgan pedagoglarga ulkan mas‘uliyat yuklanadi. Bugungi zamon talabidagi pedagog maktabgacha katta yoshdagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishning eng samarali yo‘llarini tanlay olish mahoratiga ega bo‘lishi kerak .

Shunday ekan, eng avvalo yosh avlodning madaniyatini, ma’naviy-axloqiy salohiyatini ko‘tarmoq, milliy mafkurasini uyg‘otmoq zarur. Zero, o‘zini anglagan, millat ma’naviyatini tushungan insongina xalqini, millatini, Vatanini, oilasini taniydi. Xalq va millat oldidagi burchni, mas’uliyatini, majburiyatini anglaydi.

Har bir jamiyatning rivoj topishi va ravnaqida uning kelajak poydevori bo‘lgan o‘sib kelayotgan yosh avlodga yaratayotgan imkoniyatlari, shart-sharoitlari asos bo‘ladi. Bizning mamlakatimizda ham yosh avlodning o‘sib unishi uchun zamonaviy barcha talablarga javob beradigan qiziqish va intilishlarni qondiradigan shart-sharoitlarni yaratish bugungi kunning dolzarb masalasi bo‘lib kelmoqda. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga xalq og‘zaki ijodi orqali ta’lim-tarbiya berish jarayonida kompetensiyaviy yondashuv o‘sib kelayotgan bolalarni har tomonlama hayotiy muhim ko‘nikmalarini, ma’naviy-axloqiy me’yoriy qadriyatlarni o‘zlashtirish, ijtimioy munosabatlarini hamda insonlar bilan muloqot qilish, turli faoliyat xususiyatlarini shakllantirishga tayyorlashni ko‘zda tutadi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni ta‘lim standartlari, o‘quv dasturlari asosida mantiqiy fikrlashga, amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga, bir so‘z bilan aytganda, ularni maktabga tayyorlashga o‘rgatish maqsadga muvofiqdir. Ta’kidlash

joizki, maktabgacha ta'lim tizmini takomillashtirish, barkamol avlod ta'lim-tarbiya jarayonining tarbiyachi-pedagoglar tomonidan to'g'ri tashkil etilishini ta'minlashda pedagoglarning kasbiy mahorati hamda ularning malakasini oshirish jarayonining samarali tashkil etilishida muhim hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim sohasining muhim vazifalarini talqin etishda quyidagilarni inobatga olishimiz shart:

birinchidan, taraqqiyot strategiyasiga mos va taraqqiyotni rag'batlantiruvchi darajadagi ta'limni joriy etish;

ikkinchidan, ta'lim muassasalari va ta'limiy xizmat iste'molchilari o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish;

uchinchidan, iste'molchi va ta'lim muassasasi o'rtasidagi raqobatbardoshlikni yanada kuchaytirish;

to'rtinchidan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xalq o'yinlari vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning nazariy asoslarini yaratish.

Bunday ijobiy natijalarga erishishda ta'lim jarayonida xalq o'yinlari vositalari yordamida bolalarga ma'naviy-axloqiy tarbiya berish yuzasidan pedagoglarni malakasini oshirish kurslarida seminarlar tashkil etish va bunda xorijiy davlatlar tajribalarini o'rganib borish, o'rganilgan ilg'or tajribalar umumlashtirilib, metodik qo'llanmalar yaratish va o'z faoliyatida xorijiy tajribalarni qo'llash malakalariga ega bo'lishlarini ta'minlash muhim o'rin tutadi.

Tarbiyachi-pedagog tomonidan to'g'ri va ongli tarbiyaning maktabgacha katta yoshdagi bolalarning kamolotini ta'minlaydi, maktabgacha katta yoshdagi bolalarning kelajagini, axloqiy barkamol va intellektual yetukliligini kafolatlaydi. Bu, albatta, tarbiyachi-pedagogdan intellektual salohiyat hamda ma'naviy yuksaklikni talab etadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashni ta'minlash, ularni zamonning to'fonlaridan himoya qilish, tarbiyaning hayot-mamot masalasi ekanini tarbiyachi-pedagoglarga, keng jamoatchilikka qayta-qayta tushuntirish zarur. Tarbiyachi-pedagoglarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi nihoyatda muhim hisoblanadi va bu orqali maktabgacha katta yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga erishish mumkin. Shuning bilan birga bu qayd etilganlarning barchasi tarbiya sohasidagi amalga oshirish lozim bo'lgan faoliyatning nihoyatda muhimligi, serqirraligi va dolzarbligini ko'rsatadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini o'stirish nazariyasini E.I.Tixeeva ilmiy jihatdan asoslab berdi. U buyumlar, kishilar mehnati, tabiat hodisalari haqidagi bilimlar mazmunini kichik va katta maktabgacha yoshdagi bolalar yoshini hisobga olgan holda belgilab, atrof-muhit haqidagi bilimlar bola lug'ati boyligini o'stirishdagi o'rnini, bolalar tasavvurlarini shakllantirishga va qiziqarli mashg'ulotlar turlarini, ularni o'tkazish metodlarini ishlab chiqdi. E.I.Tixeeva ta'limning ko'rgazmali bo'lishini, bolalar faoliyatiga tayanish zaruriyatini, uni o'yin bilan bog'liqligini

isbotladi, o‘qitish muayyan bilimlar doirasi va nutq ko‘nikmalarining tarbiyachi tomonidan berilishi va uni bolalar tomonidan o‘zlashtirilishidan iborat faoliyat sifatida ifodalab berdi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni mustaqil va erkin fikr yuritilishi va nutqini faolligini oshirishda quyidagi bosqichlar mavjud:

-bolalarni fikrlashga undovchi muammolarning mavjud bo‘lishi

-bolalar berilayotgan masala, muammo, topshiriq mohiyatini anglab yetishi

-fikrlashga undovchi o‘xshash malumotlar yoki obazlarning vujudga kelishi

-tasavvur va xotira manbalarining kamayishi, taxminlar (farazlar)ning tug‘ilishi

-bolalar tomonidan bildirilgan taxminlarni tekshirish yoki ularning haqqoniyligi haqida fikr bildirish

-bolalarni fikrlashga undash

Bolalarning tafakkurini rivojlantirish uzluksiz ta’lim tizimi oldidagi shaxs tarbiyasi bilan bog‘liq muammolarni hal qilishning zarur shartlaridan biridir. Inson o‘z xatti-harakatlari, faoliyati davomida qay darajada mustaqil fikrli bo‘lsa, shu qadar tushunchasi keng, aql-idroki yuksak hisoblanadi. Fikr nutq orqali ifoda etilishi nazarda tutilsa, ona tili ta’limi oldida nechog‘li mas’uliyatli vazifani hal qilish masalasi turganini anglash qiyin emas. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat olib boruvchi pedagogog ya’ni tarbiyachi bolalarga ham talim ham, tarbiya beruvchi shaxsdir. Uning har bir harakati bolalar uchun ibrat namunasidir. Pedagogning tarbiyalanuvchilarga ta’sirining tarkibini quyidagi jadvalda aniqroq tushunish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida» gi Qonuni, O‘RQ-637 Toshkent shahri 2020 yil, 7 avgust

2. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni O‘RQ-595 Toshkent shahri, 2019 yil, 16-dekabr

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmon“O‘zbekiston-2030” strategiyasi.

4. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.

5. Ўзбек педагогикаси антологияси: Икки жилдлик. Ж.1. (Тузувчи муаллифлар: К.Ҳошимов, С.Очил; Таҳрир ҳайати: М. Хайруллаев ва бошқ.). – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 464 б.

6. G.X.Jumasheva, A.A.Xalikov, SH.E.Oteniyazova. Bolalar nutqini o’sirish metodikasi.\Darslik. N.: “AVANGARD-BASPA” – 2025.

7. G.X.Jumasheva, P.R.Erimbetova. Til ósiriw metodikasi. \ Oqıw qollanba. N.: “AVANGARD-BASPA” – 2025.

BO`LAJAK TARBIYACHILARNING TASVIRIY-IJODIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Jumasheva G.X.
p.f.d., professor, "Maktabgacha ta'lim" kafedrasi mudiri,
Jumamuratova O.R.
NDPI 1-kurs magistri,
Bagibaeva A.M.
Ajiniyoz nomidagi NDPI 2-kurs talabasi

Tayanch so'zlar: maktabgacha ta'lim; nazariy asoslari; tasviriy-ijodiy kompetensiya; kasbga tayyorlash; bo`lajak tarbiyachilarni; innovatsion yondoshuv.
Ключевые слова: дошкольное образования; теоретические основы; художественно-творческой компетенций; подготовки к профессиональным навыкам; будущих воспитателей; инновационный подход.
Key words: preschool education; socio-economic conditions; older preschool children; elements of national patterns in monuments; occupation; innovative approach.

РЕЗЮМЕ:
Maqolada bo`lajak tarbiyachilarni kasbga tayyorlash jarayonida tasviriy-ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslari muomalasini shakillantirishda ta'limning izma-izlik va uzluksizlik tamoyillari muammosiga bag'ishlangan. Maqolada bo`lajak tarbiyachilarni kasbga tayyorlash jarayonida tasviriy-ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishga innovatsion yondashuv orqali qoraqalpoq xalqi ruxiy dunyosi va milliy g'oyalar asosida tayyorlangan nazariy va uslubiy ishlanmalar zarurligi haqida aytiladi.
РЕЗЮМЕ:
Статья посвящена проблеме теоретические основы развитие художественно-творческой компетенций в процессе подготовки к профессиональным навыкам будущих воспитателей на основе принципа преемственности и непрерывности образования. В статье раскрывается необходимость разработки теоретических и методических основы развитие художественно-творческой компетенций в процессе подготовки к профессиональным навыкам будущих воспитателей с опорой на национальную идеологию независимости и приобщения их к духовным ценностям каракалпакского народа
SUMMARY:
The article is devoted to the problem of teaching the technology of drawing elements of national patterns in monuments to older preschool children based on the principle of continuity and continuity of education. The article reveals the need to develop the theoretical and methodological foundations of teaching drawing to older preschool children based on the national ideology of

independence, activating children's speech and mental activity, and introducing them to the spiritual values of the Karakalpak people.

Zamonaviy jamiyatning ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlari O`zbekistonni ham chet el ta’lim makoniga kirib borishga undadi va bu oliy pedagogik ta'lim tizimida milliylikni takomillashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Uning ustuvor yo'nalishlaridan biri kadrlar tayyorlash ya’ni maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyachisini tayyorlash zarurati. Yangi davr tarbiyachisi -ijodiy shaxs, ilmiy-pedagogik tafakkur, yuksak ma’naviyat, aql-zakovat, ijodkorlik, malakalilik, nekbinlik bilan ajralib turadigan kasb egasi va kasbiy moslashuvchanlik, innovatsiyalarga doimiy tayyorlik, o'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o`zini rivojlantirish kabi hislatlarga ega shaxs sifatida ko`riladi.

Haqiqiy o`qituvchi kelajak uchun ishlashi, o`z vaqtidan oldinroq bo`lishi, zukkolik bilan munosabatda bo'lishi kerak, jamiyatdagi o'zgarishlar va o'z kasbiy faoliyatini ijtimoiy talablarga moslashtiradi. Buning sharofati bilan o'qituvchilik kasbi ijodiy missiya, ta'lim faoliyati esa doimiy ijod jarayoniga aylanadi.

Tarbiyachi kompetensiyasi

“Kompetentlik” tushunchasi ta’lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Shu sababli kompetentlik “noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi.

“Kompetensiya” lotincha so`z bo`lib, o`zbek tilida “inson yaxshi biladigan”, “tajribaga ega bo`lgan” kabi ma’nolarni bildiradi. Demak, biror-bir sohada kompetentli inson shu soha haqida asosli fikr yuritish va unda samarali faoliyat olib borish uchun mos bilim va qobiliyatga ega hisoblanadi. “Kompetentlik-bilimdonlik, kasbga moslik, malakalilik, tajribalilik, mas’uliyatlilikni rahbarlik faoliyatiga singdirib borish demakdir. O`z sohasining, ishining ustasi bo`lish, sohasining sirlarini ham har tomonlama chuqur bilish demakdir. B.D.Elkonin Kompetentlik - deganda ko`pincha shaxsning faoliyat yuritishga umumiy qobiliyati va uning kasbiy tayyorgarligida namoyon bo`luvchi bilim va tajribalarga asoslangan integrallashgan sifatlar nazarda tutiladi. Demak, kompetensiya va kompetentlik tushunchalari bilim, malaka va ko`nikma tushunchalaridan kengroq, chunki ular shaxsning yo`naltirilganligi, muammolarni his qila olishi, sinchkovlikni namoyon qila olishi, egiluvchan fikrlashga ega bo‘lishi kabi sifatlarni o‘z ichiga oladi. Ta’limda yangi tadqiqot yo‘nalishi bo‘lgan kompetentli yondashuvning paydo bo‘lishi hamda xorijiy pedagogik va metodik manbalarda “kompetentlik” va “kompetensiya” tushunchalari 1960-yillarning oxiri 1970-yillarning boshlarida paydo bo‘ldi va oliy ta’lim muassasalarida ta’lim oluvchilarning kasbiy tayyorgarligi nazariyasi

va amaliyotiga keng kirib bordi. Kompetentlik tushunchasi nafaqat aniq bilim va ko‘nikmalar, balki aniq strategiya, mos emotsiya va munosabat, xuddi shuningdek, butun bir tizimni boshqarish mexanizmi mavjud ekanligi talab etiladigan murakkab amaliy masalalarni hal etish bilan bog‘liq.

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishidir;

Kreativ kompetentlik – pedagogik faoliyatga tanqidiy, ijodiy yondashish, o`zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish.

Tarbiyachi-pedagogning kasbiy kompetentlikka ega bo`lishida o`zini tahlil qila olishi ham ahamiyatli sanaladi. O`zini o`zi tahlil qilish pedagog tomonidan kasbiy faoliyatda tashkil etayotgan o`z amaliy harakatlari mohiyatining o`rganilishidir. O`zini o`zi tahlil qilish orqali pedagog obyektiv baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Zero, pedagoglarning kasbiy kompetentlik sifatlariga ega bo‘lishida ularning o‘z-o‘zini baholash malakalariga egaligi ham muhimdir.

Har bir tarbiyachi kompetentligi va kreativligi yuzasidan egallashi lozim bo‘lgan kompetensiya komponentlari asosida shaxsiy siymosini yaratadi.

- huquqiy kompetentlik;
- boshqaruv kompetentligi;
- axborot kompetentligi;
- kommunikativ kompetentlik;
- psixologik-pedagogik kompetentlik;
- tashkilotchilik kompetentlik;
- kreativ kompetentlik;
- innovatsion kompetentlik;
- iqtisodiy-moliyaviy kompetentlik.

Tarbiyachi ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e’tibor qaratishi zarur. Ijodkorlik–muayyan yangilikning ahamiyati va foydali ekanligini belgilovchi shaxs faoliyati va uning natijasidir. Ijodkor shaxs–ijodiy jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshira oladigan hamda aniq ijodiy natija (mahsulot)larga ega shaxs. Kreativ shaxs–jarayon yoki natija sifatida ijodkorlikni namoyon etuvchi, masalalarni yechishga nostandart usullar bilan yondasha olishga moyil, o`ziga xos harakatlarni tashkil etish, yangiliklarni ilgari surishga, ijodiy mahsulotlarni yaratishga layoqatli va tayyor shaxs. Ijod –ijtimoiy subyektning yangiligi, ahamiyati va foydaliligi jamiyat yoki muayyan guruh tomonidan tan olingan faoliyati yoki mana shu jarayondan olingan natija .

Ijodkor shaxsni tarbiyalash – kasbiy-ijodiy faoliyat tajribalarini qaror toptirish va boyitish asosida ijodiy g`oya, ularni amalga oshirish ko`nikma va malakalariga ega shaxsni shakllantirish va rivojlantirish demak. Ijodiy topshiriqlar–muammoli vaziyatlarni tizimli tahlil asosida hal qilishga yo`naltirilgan masalalar tizimi , ijodiy tafakkur esa – tafakkurning ijod jarayonini tashkil etish va ijod natijalari (mahsullari)ni bashoratlashni ifodalovchi turi. Ijodiy qobiliyat – ijodiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish va uning natijalanganligini baholashda namoyon bo`ladigan individual xususiyatdir. O`zini o`zi ijodiy faollashtirish – shaxsning ijodiy faoliyatda o`z imkoniyatlarini to`laqonli namoyon qilishi va rivojlantirishining ijodkor va kreativ bo`lishi yoki bo`lmasligi emas, balki mashg`ulotlarni ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etishi, yangi g`oyalarni ta’lim jarayonida sinab ko`rishga intilishi zarur.

Pedagogik ijod tushunchasi olimlar tomonidan turli jihatlarda o‘rganiladi: shaxs xususiyati sifatida; tarbiyachining individual faoliyat uslubi (Sysoieva 1996); ijodiy fikrlash va pedagogik mahoratning o`zaro bog`liqligi (Zagvyazinskiy 1987); ilmiy-pedagogik fikrlash uslubi; pedagogik mexanizm, improvizatsiya.

Tarbiyachining ijodi o`ziga xos va yuqori samaradorlik bilan bog`liq tarbiyaviy vazifalarni hal qilishida ko`rinadi. Ijodkor tarbiyachilar o`z ishlariga jiddiy munosabatda bo'lishadi. Ular o’z kasbiy malakasini oshirishga, bilim va pedagogik tajribani o`rganishga intilishadi.

Shunday qilib, ijodiy salohiyat zamonaviy maktabgacha ta'lim muassasasining muhim xususiyati hisoblanadi. Tarbiyachi o`zida birinchi navbatda o'zgarish qobiliyatini aks ettiradi. Bu sohadagi yangi muammolarni ko'tarish va hal qilish imkoniyatlarini tavsiflovchi integral sifatdir. Tarbiyachining ijodiy salohiyati qobiliyat bilan belgilanadi o'z-o'zini rivojlantirishga, nafaqat ta'lim jarayonida, balki o'zida ham yangi narsalarni yaratishda yaqqol namoyon boladi.

Bo'lajak tarbiyachilarning ijodiy salohiyatini samarali rivojlantirish shartlari quyidagilardan iborat: zarur ta'lim muhitini yaratish orqali talabalarning ijodiy faolligini rag'batlantirish; tashkil etishning samarali usullari va shakllarini qo'llash

ijodiy faoliyat (pedagogik texnologiyalar); rivojlanishining yuqori darajasi oliy ta’lim muassasasi talabasining ijodiy salohiyati va boshqalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko‘taramiz. 1 jild. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 592 b.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.(23.09.2020) // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020., 03/20/637/1313 – son.

3. Sh.T.Hasanova. Tasviriy faoliyatga o'rgatish nazariyasi va metodikasi. -T.: Tafakkur, 2020.

4. Xalikov A.A. Oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilar pedagogik mahoratini rivojlantirish. Monografiya. –Iqtisod Moliya. – Toshkent. – 2015. –435

BO‘LAJAK BOSHLAN‘ICH SINF O‘QITUVCHISINING PEDAGOGIK TEXNIKA MALAKALARINI EGALLASH MAHORATI

Boymurodova S.S.
O‘zbekiston milliy pedagogika universitetining 2-bosqich talabasi

Tayanch so‘zlar: pedagogik texnika, nutq texnikasi, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, tashkiliy-metodik ko‘nikmalar, pedagogik madaniyat.
Ключевые слова: педагогическая техника, устная техника, учитель начальных классов, организационно-методические навыки, педагогическая культура.
Key words: pedagogical technique, speech technique, elementary school teacher, organizational-methodical skills, pedagogical culture.

РЕЗЮМЕ:
Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida pedagogik texnika malakalarini shakllantirish jarayoni o‘rganildi. Tadqiqot nutq texnikasi, tashkiliy-metodik ko‘nikmalar va pedagogik madaniyatni rivojlantirishga qaratildi. Sifatli va miqdoriy metodlar, jumladan intervyu, kuzatuv, so‘rovnomalar va testlar orqali o‘qituvchilarning pedagogik malakalari baholandi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, individual va guruh mashg‘ulotlari asosida pedagogik texnika malakalarini tizimli rivojlantirish o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi hamda o‘quvchilarning bilim olish motivatsiyasini kuchaytiradi.
РЕЗЮМЕ:
В статье исследован процесс формирования педагогических навыков у будущих учителей начальных классов. Исследование охватывает развитие устной техники, организационно-методических навыков и педагогической культуры. С помощью качественных и количественных методов, включая интервью, наблюдения, опросы и тесты, оценивались педагогические умения будущих учителей. Результаты показали, что систематическое формирование педагогических навыков через индивидуальные и групповые занятия повышает эффективность учебного процесса и мотивацию учащихся.
SUMMARY:
This article examines the process of developing pedagogical skills among future elementary school teachers. The study focuses on the improvement of speech technique, organizational-methodical skills, and pedagogical culture. Qualitative and quantitative methods, including interviews, observations, surveys, and tests, were used to assess teachers’ pedagogical competencies. The findings indicate that systematic development of pedagogical skills through individual and group activities enhances teaching effectiveness and increases students’ motivation to learn.

Boshlang‘ich ta’limda o‘qituvchi shaxsining kasbiy tayyorgarligi hamda pedagogik texnikasi ta’lim jarayonining samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biridir. So‘nggi yillarda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘yicha ilgari surilayotgan talablar va kompetensiyaviy yondashuv boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy mahoratini yangicha mezonlar asosida baholashni talab etmoqda. Amaldagi ilmiy va amaliy tadqiqotlar ko‘proq o‘qituvchining kommunikativ ko‘nikmalari, nutq madaniyati, shaxsiy sifatlari va pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, pedagogik texnikani kompleks kasbiy kompetensiya sifatida shakllantirish masalasi yetarlicha o‘rganilmagan.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi uchun pedagogik texnika faqat bilim va savoddan iborat emas. U nutqni boshqarish, tana tilidan to‘g‘ri foydalanish, psixologik muhit yaratish, emotsional barqarorlikni saqlash, konfliktlarni boshqarish, samarali muloqot strategiyalarini qo‘llash hamda dars jarayonini boshqarish kabi ko‘nikmalarni ham o‘z ichiga oladi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak o‘qituvchilar pedagogik texnikaning mazmuni haqida nazariy tasavvurga ega bo‘lsalar-da, uni dars davomida qo‘llashda muayyan qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Bu esa pedagogik texnikani shakllantirish va rivojlantirishning samarali yo‘llarini ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi bu - bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida pedagogik texnika ko‘nikmalarining shakllanish jarayonini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun pedagogik texnikaning nazariy asoslarini o‘rganish, bo‘lajak o‘qituvchilarning tayyorgarlik darajasini aniqlash, mavjud muammolarni baholash hamda rivojlantirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish vazifalari belgilandi.

Mazkur tadqiqot doirasida quyidagi savollar o‘rganiladi: bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun pedagogik texnika qanday mazmunga ega? Ushbu ko‘nikmalarni shakllantirishda qaysi metodlardan foydalanish samaralidir? Hozirgi ta’lim jarayoni mazkur malakani rivojlantirishga qay darajada xizmat qilmoqda?

Tadqiqot gipotezasi shundan iboratki, agar bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida pedagogik texnika ko‘nikmalari bosqichma-bosqich va tizimli ravishda shakllantirilsa, o‘quv jarayonining samaradorligi va o‘quvchilarning motivatsiyasi oshishi kutiladi. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, unda pedagogik texnika nazariy tushuncha sifatida emas, balki kompleks kasbiy kompetensiya sifatida talqin qilinadi hamda uni rivojlantirishning amaliy asoslari ishlab chiqiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining pedagogik faoliyatida pedagogik texnikaning ko‘nikma va malakalarini mukammal egallashi zamonaviy ta’lim jarayonining samaradorligini ta’minlovchi muhim omil hisoblanadi. Kirish qismida ta’kidlanganidek, avvalgi tadqiqotlar asosan o‘qituvchining kommunikativ ko‘nikmalari, nutq madaniyati va pedagogik muloqotga qaratilgan bo‘lsa-da, pedagogik texnikani kompleks kompetensiya sifatida shakllantirish jarayoni yetarlicha o‘rganilmagan. Shu bois, bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik texnikani tizimli va amaliy asosda rivojlantirish zaruriyati ilmiy adabiyotlarda ham qayd etilgan. Pedagogik texnika tushunchasi xalqaro va mahalliy pedagogik manbalarda turlicha talqin qilinadi. Xalqaro tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, pedagogik texnika nafaqat o‘qituvchining tashqi ifodasi, nutqiy madaniyati va jismoniy holatini boshqarish bilan bog‘liq bo‘lsa, balki dars jarayonida o‘quvchilar bilan muloqotni tashkil qilish, ularning motivatsiyasini yaratish, sinf muhitini boshqarish kabi kompetensiyalarni o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, pedagogik texnika o‘qituvchining kasbiy psixologiyasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u o‘quvchilarning idrok qilish, diqqatni jamlash va o‘zlashtirish jarayonlariga bevosita ta’sir qiladi.

Nutq texnikasi bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik texnikasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, dars jarayonida o‘quv materialini samarali idrok etishning 50% gacha qismi o‘qituvchining nutqiga, talaffuz va so‘zlarni to‘g‘ri ishlatishiga bog‘liq. Past ohangda yoki baland va noaniq tembrda so‘zlaydigan o‘qituvchilar dars samaradorligini kamaytiradi, o‘quvchilarda qiziqishning pasayishiga olib keladi. Aksincha, chiroyli, savodli, ta’sirchan nutq o‘quv materiallarini tez va samarali o‘zlashtirishga yordam beradi, shuningdek, o‘quvchilarda darsni intizorlik bilan kutish hissini uyg‘otadi. Shu nuqtai nazardan, bo‘lajak o‘qituvchilar nutq tempo, diksiyasi, tovush ohangining balandligi, tembri va artikulyatsiya kabi elementlarni muntazam mashq qilib, nazariy va amaliy jihatdan rivojlantirishlari zarur.

Pedagogik texnikani mukammal egallash bo‘lajak o‘qituvchining fan bilimlari, pedagogik va psixologik asoslar, axborot-kommunikatsion texnologiyalarni bilish bilan chambarchas bog‘liq. Bu malakalar individual shaxsiy xususiyatlar, tafakkur va fikrlash qobiliyati bilan uyg‘unlashishi lozim. O‘qituvchi o‘zini mustaqil tarbiyalashi, pedagogik laboratoriya va tajribalar orqali kasbiy ideal sari intilishi pedagogik texnikaning samarali rivojlanishini ta’minlaydi.

Tashkiliy-metodik malakalar pedagogik texnikaning yana bir asosiy tarkibiy qismidir. Bu malakalar o‘qituvchining ma’ruzalarni tinglash, adabiyotlarni o‘rganish, tajribaviy mashg‘ulotlarda o‘zini sinash orqali shakllanadi. Guruh

yoki jamoa bilan ishlash individual refleksiv qobiliyatlarni rivojlantirish, o‘zini boshqa ko‘zi bilan ko‘rish va pedagogik xatolarni aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, pedagogik texnika mashg‘ulotlarining individual dastur asosida tuzilishi malakalarning samarali shakllanishini ta’minlaydi. Dastur bo‘yicha muntazam mashqlar, artikulyatsiya, fonatsion nafas olish usullari, relaksatsiya va pedagogik vazifalarni yechish bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘qituvchining individual pedagogik uslubini rivojlantiradi.

Pedagogik texnika egallashda o‘qituvchining umumiy madaniyati, estetik va ma’naviy dunyoqarashi katta ahamiyat kasb etadi. Tashqi ko‘rinishi nafosatli, kiyinishi va nutq madaniyati tarbiyalanuvchiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi lozim. Agar pedagogik faoliyatda bu jihatlar e’tiborga olinmasa, o‘quvchilarning aql-idroki, anglash va bilish jarayonlari salbiy ta’sirlanadi. Shu bois, o‘qituvchi o‘z nuqsonlarini qayta tarbiyalashi va pedagogik texnikani tanqidiy nazar bilan rivojlantirishi zarur.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik texnikani shakllantirishda jamoaviy faoliyatning roli alohida ahamiyatga ega. 10–14 kishilik guruhlar malakalarni egallash va refleksiv qobiliyatlarni rivojlantirish uchun qulay hisoblanadi. Guruh ishlari shaxsning o‘zini bilish, pedagogik vazifalarni yechishning yangi usullarini sinab ko‘rish va nazariy-amaliy muammolarni muhokama qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, pedagogik texnika mashg‘ulotlarini individual va guruhiy shaklda integratsiyalash, axborot texnologiyalari yordamida olib borish samaradorlikni oshiradi. Shunday qilib, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, pedagogik texnika nafaqat o‘qituvchining nutqi va tashkiliy-metodik malakasiga, balki uning shaxsiy, estetik va ma’naviy jihatlariga ham bog‘liq bo‘lib, murakkab va ko‘p qirrali kompetensiya sifatida rivojlantirilishi zarur. Bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik texnikani tizimli egallashi o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning motivatsiyasi va bilimini yaxshilash, shuningdek, pedagogik mahoratni mukammal darajada shakllantirish imkonini beradi.

Tadqiqot metodlariga to‘xtalsak, ushbu tadqiqot bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining pedagogik texnika malakalarini shakllantirish jarayonini o‘rganishga qaratildi. Tadqiqotda sifatli va miqdoriy metodlar birlashtirildi: sifatli metodlar intervyu, kuzatuv va guruh mashg‘ulotlari orqali pedagogik texnikaning amaliy jihatlarini chuqur tahlil qilish imkonini berdi, miqdoriy metodlar esa so‘rovnomalar va testlar yordamida malakalar darajasini statistika asosida baholash imkoniyatini yaratdi. Shu bilan tadqiqot natijalari har ikki yo‘nalishda ishonchli bo‘ladi.

Ma’lumotlar bir nechta manbalar orqali to‘plandi:

1. **So‘rovnomalar va testlar** – pedagogik texnika malakalarining boshlang‘ich va yakuniy darajasini aniqlash uchun.

2. **Kuzatuvlar** – amaliy mashg‘ulotlar va dars jarayonida o‘qituvchilarning nutq texnikasi, tashkiliy-metodik malakalarini baholash.

3. **Intervyular** – bo‘lajak o‘qituvchilarning individual tajribalari va pedagogik faoliyatga munosabati.

4. **Amaliy mashg‘ulotlar** – pedagogik texnikani rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashqlar orqali.

Tadqiqotda mustaqil o‘zgaruvchi sifatida pedagogik texnika malakalarini shakllantirishga qaratilgan faoliyat, qaram o‘zgaruvchi sifatida esa nutq texnikasi, tashkiliy-metodik malaka, pedagogik madaniyat va o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi belgilanadi. Nazorat o‘zgaruvchilar sifatida talabaning yoshi, ilgari pedagogik tajribasi va akademik faolligi hisobga olinadi. Miqdoriy ma’lumotlar deskriptiv statistika, foizlar va o‘rtacha ko‘rsatkichlar yordamida tahlil qilinadi. Sifatli ma’lumotlar esa intervyu va kuzatuv matnlari asosida tematik tahlil qilinadi. Shu orqali tadqiqot savollariga javob beruvchi asosiy topilmalar aniqlanib, pedagogik texnika malakalarini shakllantirish samaradorligi baholanadi. Tadqiqotning ishonchliligi test va so‘rovnomalarning standartlarga mosligi bilan ta’minlanadi, haqqoniyligi esa ma’lumotlar triangulyatsiyasi va muntazam kuzatuvlar yordamida mustahkamlanadi. Mashg‘ulotlar va amaliy tajribalar natijalari individual va guruh faoliyati hisobga olinib doimiy nazorat qilinadi.

Tadqiqot bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining pedagogik texnika malakalarini shakllantirish jarayonida ularning qaysi jihatlari muvaffaqiyatli rivojlanganini va qaysi sohalarda qiyinchiliklar mavjudligini aniqlashga imkon berdi. So‘rovnomalar va testlar natijalari shuni ko‘rsatdiki, nutq texnikasi va diksiyaga e’tibor qaratilgan o‘qituvchilar dars jarayonida o‘quvchilar tomonidan faol tinglanadi, o‘quv materiallarini tezroq o‘zlashtiradi. Xususan, balandligi, tembri va ohangi mos nutq bilan dars olib boradigan o‘qituvchilar o‘quvchilar diqqatini jalb qilish va o‘quv jarayonini samarali tashkil etishda yuqori natijalarga erishadilar.

Kuzatuv va intervyu ma’lumotlari pedagogik texnika malakalarini shakllantirishda tashkiliy-metodik ko‘nikmalar muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. O‘qituvchilar o‘z faoliyatini individual va guruh mashg‘ulotlari orqali rivojlantirganda, o‘z-o‘zini baholash va refleksiya imkoniyatlarini kengaytiradi, empatik va ijtimoiy-perseptiv qobiliyatlarini rivojlantiradi hamda pedagogik vazifalarni ijodiy yondashuv orqali hal qilish qobiliyatini oshiradi.

Bundan tashqari, test natijalari pedagogik texnika malakalarining boshlang‘ich darajasi o‘rta bo‘lgan o‘qituvchilar maxsus mashg‘ulotlar va individual dasturlar yordamida sezilarli darajada rivojlanganini ko‘rsatdi. Shu jarayonda o‘qituvchilar nutq texnikasi, mimika va pantomimik harakatlarni boshqarish, ovoz diapazonini moslashtirish va dars ohangini nazorat qilish kabi ko‘nikmalarni mustahkamlash imkoniga ega bo‘ldilar.

Pedagogik texnika malakalarini rivojlantirishda individual dastur tuzish va uni muntazam amalga oshirish juda muhim ekanligi aniqlandi. Bu o‘qituvchilarga kamchiliklarini aniqlash, pedagogik faoliyatdagi nuqsonlarni bartaraf etish va o‘quvchilarning bilim olish jarayonini samarali tashkil etishga imkon yaratadi.

Shuningdek, kuzatuv va intervyu natijalari shuni ko‘rsatdiki, pedagogik texnika malakalarini rivojlantirishda o‘qituvchining umumiy madaniyati, estetik va ma’naviy dunyoqarashi, tashqi ko‘rinishi ham katta ahamiyatga ega. Tashqi ko‘rinishi va nutq madaniyati bilan o‘quvchilarga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan o‘qituvchilar darsga qiziqishni oshiradi va pedagogik mahoratning yuqori darajada shakllanishini ta’minlaydi.

Umuman olganda, pedagogik texnika malakalarini tizimli shakllantirish bo‘lajak o‘qituvchilarning nutq texnikasi, tashkiliy-metodik ko‘nikmalari va pedagogik madaniyatini rivojlantirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi, bu esa o‘quv jarayoni samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining pedagogik texnika malakalarini shakllantirish jarayonida nutq texnikasi, tashkiliy-metodik ko‘nikmalar va pedagogik madaniyat eng muhim omillar hisoblanadi. O‘qituvchilar individual va guruh mashg‘ulotlari orqali refleksiya, empatiya va ijodiy yondashuvni rivojlantirdilar, bu esa o‘quv jarayoni samaradorligini oshirdi. Shu bilan birga, individual dastur asosida muntazam mashq qilish o‘qituvchilarga o‘z kamchiliklarini bartaraf etish va darslarni samarali tashkil etish imkonini berdi. Shuningdek, pedagogik texnika malakalarini tizimli shakllantirish o‘qituvchilarning nutqini, tashkiliy-metodik ko‘nikmalarini va umumiy pedagogik madaniyatini rivojlantirishga sezilarli ta’sir qiladi, bu esa o‘quvchilarning darsga qiziqishi va bilim olish jarayonini yaxshilaydi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining pedagogik texnika malakalari nutq texnikasi, tashkiliy-metodik ko‘nikmalar va pedagogik madaniyat bilan chambarchas bog‘liq. Individual va guruh mashg‘ulotlari orqali refleksiya, empatiya va ijodiy yondashuvni rivojlantirish pedagogik mahoratning samaradorligini oshiradi.

Muntazam mashq va tizimli dastur o‘qituvchilarga kamchiliklarini bartaraf etish, darslarni samarali tashkil etish va o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yaxshilash imkonini beradi. Shu bilan pedagogik texnikani shakllantirish o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Aliyev S., Jabbarova K., Tanriverdiyeva Z., & Ismayilova, A. (2025). Methods for Utilizing Communicative Competencies in the Pedagogical Process. Cadernos de Educação Tecnologia e Sociedade.

2. Akramova G.R. & Mamurova, D.I. (2025). Developing Teachers’ Pedagogical Competence. Web of Scholars: Multidimensional Research

3. Bazarbayeva D.B. & Olimova, D.S. (2025). O‘qituvchining nutq texnikasi va notiqlik madaniyati. Universal Publishings.

4. Sabirova M., Olimova F.R., & Xasanova D.M. (2025). O‘qituvchining nutq texnikasi va notiqlik madaniyati. Ustozlar Uchun, 68 (1).

5. Sodiqov J.O. & Kabulova U.S. (2024). Pedagog nutqining o‘ziga xosliklari. Tadqiqotlar. UZ.

6. Study of Elementary School Teacher Communication Strategies in the Learning Process. Journal Corner of Education, Linguistics, and Literature.

7. Pedagogik mahoratning kasbiy kompetensiyalari - ilmiy-nazariy va metodik jurnal, № 2, 2024.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA INDIVIDUAL YONDASHUVNI TA’MINLASHDA DIAGNOSTIKANING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Norqobilova R.D.
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Pedagogika va texnologik ta’lim kafedrasi dotsenti
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Tayanch so‘zlar: pedagogik diagnostika; individual yondashuv; boshlang‘ich ta’lim; differensial ta’lim; shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim; o‘quvchining individual rivojlanishi; ta’lim strategiyasi; o‘quv faoliyatini baholash; pedagogik monitoring.
Ключевые слова: педагогическая диагностика; индивидуальный подход; начальное образование; дифференцированное обучение; личностно-ориентированное обучение; индивидуальное развитие учащегося; образовательная стратегия; оценивание учебной деятельности; педагогический мониторинг.
Key words: pedagogical diagnostics; individual approach; primary education; differentiated instruction; learner-centered education; students’ individual development; educational strategy; learning assessment; pedagogical monitoring.

РЕЗЮМЕ:
Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga individual yondashuvni samarali amalga oshirishda pedagogik diagnostika jarayonining o‘rni va pedagogik ahamiyati atroflicha yoritilgan. Pedagogik diagnostika o‘quvchining individual-psixologik xususiyatlari, bilim, ko‘nikma va malakalari darajasi, shuningdek, rivojlanish sur’atlarini aniqlashga xizmat qiluvchi muhim pedagogik vosita sifatida talqin etiladi. Maqolada diagnostikaning maqsadi, vazifalari va funksiyalari tahlil qilinib, u asosida o‘qituvchining shaxsga yo‘naltirilgan va differensial ta’lim strategiyalarini ishlab chiqish imkoniyatlari ochib berilgan. Shuningdek, boshlang‘ich ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan diagnostika usullari, ularning amaliyotda tatbiq etish bosqichlari, yuzaga kelayotgan muammolar hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha metodik tavsiyalar bayon etilgan. Tadqiqot natijalari pedagogik diagnostikani takomillashtirish orqali o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini samarali tashkil etish va ularning individual rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.
РЕЗЮМЕ:
В статье всесторонне раскрывается роль и педагогическая значимость процесса педагогической диагностики в обеспечении индивидуального подхода к обучающимся начальных классов. Педагогическая диагностика рассматривается как важный педагогический инструмент, направленный на выявление индивидуально-психологических особенностей учащихся, уровня сформированности их знаний, умений и навыков, а также темпов развития. В

статье анализируются цели, задачи и функции диагностики, на основе которых раскрываются возможности разработки личностно-ориентированных и дифференцированных образовательных стратегий учителем. Кроме того, представлены методы диагностики, этапы их практического внедрения в образовательный процесс начального обучения, а также существующие проблемы и методические рекомендации по их преодолению. Результаты исследования способствуют совершенствованию педагогической диагностики, эффективной организации учебной деятельности и поддержке индивидуального развития учащихся.

SUMMARY:

This article comprehensively examines the role and pedagogical significance of pedagogical diagnostics in ensuring an individual approach to primary school students. Pedagogical diagnostics is considered an essential educational tool aimed at identifying students' individual psychological characteristics, levels of knowledge, skills, and abilities, as well as their developmental pace. The article analyzes the goals, objectives, and functions of diagnostics, revealing opportunities for teachers to design learner-centered and differentiated instructional strategies. In addition, the study presents diagnostic methods, stages of their practical implementation in the primary education process, existing challenges, and methodological recommendations for addressing them. The research findings contribute to improving pedagogical diagnostics, enhancing the effective organization of learning activities, and supporting students' individual development.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning individual imkoniyatlari, qiziqishlari va rivojlanish sur'atlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi bolaning shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, bu davrda o'qishga bo'lgan munosabat, bilishga qiziqish va asosiy o'quv kompetensiyalari shakllanadi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilariga individual yondashuvni ta'minlash pedagogik jarayon samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Individual yondashuvni amalga oshirishda pedagogik diagnostika muhim o'rin tutadi. Pedagogik diagnostika o'quvchining bilim darajasi, psixologik holati, qobiliyatlari va rivojlanish xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiluvchi ilmiy asoslangan jarayon bo'lib, u o'qituvchiga shaxsga yo'naltirilgan va differensial ta'lim strategiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Hozirgi kunda ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri – o'quvchining shaxsiy imkoniyatlari, qiziqishlari va rivojlanish sur'atlarini inobatga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etishdir. Ayniqsa, bu jarayonning boshlang'ich ta'lim bosqichida samarali tashkil etilishi butun ta'lim jarayoni sifatini belgilab beradi. Shu nuqtayi nazardan individual yondashuvning ahamiyati ortib bormoqda. Individual yondashuvni to'g'ri yo'lga qo'yishda esa pedagogik diagnostika muhim vosita hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Boshlang'ich ta'limda individual yondashuvni ta'minlash masalasi zamonaviy pedagogika fanida dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu masala, ayniqsa, pedagogik diagnostika bilan uzviy bog'liq bo'lib, o'quvchining shaxsiy rivojlanish xususiyatlarini aniqlash va ta'lim jarayonini

moslashtirish imkonini beradi. Shu bois pedagogik diagnostika muammosi mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan.

Mahalliy tadqiqotchilar orasida N.M.Axmedova boshlang‘ich ta’limda pedagogik diagnostikaning nazariy asoslarini yoritib, diagnostika o‘quvchining bilim, ko‘nikma va malakalarini aniqlash bilan bir qatorda, uning shaxsiy va psixologik xususiyatlarini baholashda muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidlaydi. Olim diagnostik jarayonni o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasini oshiruvchi muhim vosita sifatida baholaydi [1].

Z.R.Raxmonov va S.K. Karimova o‘z tadqiqotlarida individual yondashuvni amalga oshirishda psixologik-pedagogik omillarning ahamiyatini asoslab bergan. Ularning fikricha, pedagogik diagnostika o‘quvchining intellektual imkoniyatlari, emotsional holati va ijtimoiy moslashuv darajasini aniqlash orqali ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi [2].

R.X.Mavlonova boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qilib, individual yondashuvni ta’minlashda yoshga xos psixologik xususiyatlarni hisobga olish zarurligini ko‘rsatib beradi. Tadqiqotchi pedagogik diagnostika yordamida ushbu xususiyatlarni aniqlash mumkinligini asoslaydi [3].

M.S.Abdullayeva pedagogik diagnostikaning individual yondashuvdagi o‘rni va pedagogik tahlil jarayonidagi ahamiyatini yoritib, diagnostik natijalarga asoslangan differensial ta’lim topshiriqlari o‘quvchilarning o‘quv motivatsiyasini oshirishini ta’kidlaydi [4].

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan “Taraqqiyot strategiyasi”da ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, o‘quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etish ustuvor vazifa sifatida belgilangan bo‘lib, bu hujjat pedagogik diagnostikani ta’lim amaliyotiga keng joriy etish zarurligini tasdiqlaydi [5].

Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, pedagogik diagnostika boshlang‘ich ta’limda individual yondashuvni ta’minlashning nazariy va amaliy asoslarini tashkil etadi. Biroq mavjud tadqiqotlarda diagnostika jarayonining amaliy mexanizmlari va metodik ta’minoti masalalari yetarlicha tizimlashtirilmagan. Mazkur maqola aynan shu jihatlarni yoritishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga individual yondashuvni ta’minlashda pedagogik diagnostikaning pedagogik ahamiyatini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, unda kompleks metodologik yondashuvdan foydalaniladi. Tadqiqot metodologiyasi pedagogika va psixologiya fanlarining nazariy qoidalariga, shuningdek, shaxsga yo‘naltirilgan va differensial ta’lim konsepsiyalariga asoslanadi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlar qo‘llaniladi:

Nazariy tahlil metodi – pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar hamda ilmiy maqolalarni o'rganish va umumlashtirish orqali pedagogik diagnostikaning nazariy asoslari tahlil qilinadi.

Pedagogik kuzatuv metodi – boshlang'ich sinf o'quvchilarining dars jarayonidagi faolligi, o'quv topshiriqlarini bajarish uslubi, muloqot madaniyati va xulq-atvor xususiyatlarini aniqlashda qo'llaniladi.

Suhbat metodi – o'quvchilar, o'qituvchilar va ota-onalar bilan olib borilgan suhbatlar orqali o'quvchilarning qiziqishlari, o'quv motivatsiyasi va individual ehtiyojlari haqida ma'lumotlar yig'iladi.

Diagnostik testlar va topshiriqlar – o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash maqsadida test sinovlari, yozma va og'zaki topshiriqlardan foydalaniladi.

Portfoliolarni tahlil qilish – o'quvchilarning o'quv faoliyati natijalari, ijodiy ishlari va yutuqlarini baholash orqali ularning rivojlanish dinamikasi o'rganiladi.

Tahlil va umumlashtirish metodi – olingan diagnostik natijalarni tizimlashtirish, taqqoslash va pedagogik xulosalar chiqarishda qo'llaniladi.

Tadqiqot bosqichma-bosqich amalga oshirildi: dastlab diagnostika maqsadlari belgilandi, keyinchalik mos metod va vositalar tanlandi, ma'lumotlar yig'ildi hamda ularning tahlili asosida individual ta'lim strategiyalari ishlab chiqildi. Ushbu metodologik yondashuv pedagogik diagnostikaning boshlang'ich ta'lim jarayonidagi samaradorligini aniqlash va uni amaliyotga joriy etish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Material va metodlar. Maqolada diagnostika o'tkazish jarayonida pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, suhbat, test sinovlari, yozma va og'zaki topshiriqlar, shuningdek, portfoliolarni tahlil qilish metodlaridan foydalaniladi. Tadqiqot boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan olib borilib, ularning bilim darajasi, o'quv faoliyatidagi faolligi, mustaqil ishlash ko'nikmalari hamda emotsional holatini aniqlashga qaratiladi [1;57].

Diagnostika jarayoni rejalashtirilgan, izchil va tizimli tarzda tashkil etiladi. Avvalo diagnostika maqsadlari belgilandi, so'ngra har bir maqsadga mos diagnostika vositalari tanlanadi. Ma'lumotlar yig'ish bosqichida o'quvchilarning tabiiy o'quv muhitidagi faoliyati kuzatiladi. Olingan natijalar tahlil qilinib, har bir o'quvchi uchun qisqacha pedagogik tavsifnoma tuziladi.

Pedagogik diagnostika – bu o'quvchining bilim, ko'nikma, malaka darajasi, shaxsiy va psixologik xususiyatlari, qobiliyatlari hamda rivojlanish darajasini aniqlashga qaratilgan ilmiy asoslangan jarayon[8;52]. Diagnostika yordamida o'qituvchi:

- o'quvchining qaysi sohalarda qiyinchilikka duch kelayotganini;
- qanday o'qitish strategiyasi unga mos kelishini;

• individual yondashuv qayerda va qanday qo‘llanishi kerakligini aniqlaydi.

Bu jarayon nazorat qilish, tahlil qilish, baholash va natijalarni asoslangan qarorlar qabul qilish bosqichlarini o‘z ichiga oladi[2;98].

Natija va muhokamalar. Tadqiqot jarayonida olib borilgan pedagogik diagnostika natijalari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining individual rivojlanish darajasi, bilim, ko‘nikma va malakalari, shuningdek, psixologik xususiyatlari o‘rtasida sezilarli farqlar mavjudligini ko‘rsatdi. Kuzatuvlar va diagnostik topshiriqlar tahlili shuni aniqladiki, o‘quvchilarning o‘quv faoliyatidagi muvaffaqiyati ularning individual qiziqishlari, bilish sur’ati, emotsional holati va mustaqil ishlash ko‘nikmalari bilan chambarchas bog‘liqdir.

Diagnostika natijalariga ko‘ra, ayrim o‘quvchilarda bilimlarni tez o‘zlashtirish va ijodiy yondashuv ustun bo‘lsa, boshqa bir guruh o‘quvchilarda sekin o‘zlashtirish, e’tiborning beqarorligi va o‘quv motivatsiyasining pastligi kuzatildi. Shuningdek, psixologik diagnostika orqali ayrim o‘quvchilarda ijtimoiy moslashuvda qiyinchiliklar mavjudligi, emotsional ta’sirchanlikning yuqoriligi aniqlandi.

Olingan natijalar asosida o‘quvchilarga individual va differensial yondashuvni qo‘llash samaradorligi oshgani kuzatildi. Xususan:

individual topshiriqlar berilgan o‘quvchilarda o‘quv motivatsiyasi oshdi;

qiyinchilikka duch kelayotgan o‘quvchilar bilan olib borilgan alohida ishlash natijasida bilimlardagi bo‘shliqlar qisqardi;

ilg‘or va iqtidorli o‘quvchilar bilan tashkil etilgan rivojlantiruvchi mashg‘ulotlar ularning ijodiy faolligini yanada kuchaytirdi.

Shuningdek, pedagogik diagnostika asosida tuzilgan individual ta’lim strategiyalari sinfdagi psixologik muhitni yaxshilashga, o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashga va ta’lim jarayonining umumiy samaradorligini oshirishga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, boshlang‘ich ta’lim jarayonida pedagogik diagnostika individual yondashuvni ta’minlashning muhim va ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Diagnostika o‘qituvchiga har bir o‘quvchini shaxs sifatida chuqur anglash, uning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash hamda ta’lim jarayonini shunga mos ravishda tashkil etish imkonini beradi.

Olingan natijalar N.M. Axmedova, Z.R. Raxmonov, R.X. Mavlonova va M.S. Abdullayeva tadqiqotlarida ilgari surilgan g‘oyalarni tasdiqlaydi, ya’ni pedagogik diagnostika faqatgina baholash vositasi emas, balki ta’limni boshqarish va takomillashtirish mexanizmi sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, diagnostik ma’lumotlarga tayangan holda differensial va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim strategiyalarini ishlab chiqish o‘quvchilarning individual rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashda samarali ekanligi aniqlandi.

Shu bilan birga, tadqiqot jarayonida amaliy muammolar ham kuzatildi. Jumladan, ayrim hollarda o‘qituvchilarning diagnostik kompetensiyasi yetarli emasligi, vaqt taqchilligi va standartlashtirilgan diagnostika vositalarining kamligi individual yondashuvni to‘liq amalga oshirishga to‘sqinlik qilmoqda. Bu esa pedagogik diagnostikani joriy etishda metodik ta’minotni kuchaytirish va o‘qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish zarurligini ko‘rsatadi.

Muhokamalar shuni ko‘rsatadiki, pedagogik diagnostika tizimli, izchil va maqsadga yo‘naltirilgan holda amalga oshirilgandagina o‘z samarasini beradi. Ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish, diagnostik natijalarni muntazam tahlil qilish va ularni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish individual yondashuvning yanada samarali bo‘lishiga xizmat qiladi.

Umuman olganda, pedagogik diagnostika boshlang‘ich ta’limda o‘quvchining shaxsiy imkoniyatlarini ochib beruvchi, ta’lim sifatini oshiruvchi va pedagogik jarayonni takomillashtiruvchi muhim ilmiy-amaliy vosita ekanligi tadqiqot natijalari orqali tasdiqlandi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari quyidagi xususiyatlarga ega:

- psixik rivojlanish jarayonining notekisligi;
- bilishga bo‘lgan yuqori qiziqish;
- emotsional ta’sirchanlik;
- e’tibor va xotira beqarorligi;
- ijtimoiy-psixologik moslashuvga ehtiyoj.

Shuning uchun har bir bolaning o‘ziga xos o‘rganish uslubi, qiziqish darajasi va aqliy rivojlanish sur’ati bo‘ladi. Bu farqlarni e’tiborga olmagan holda olib borilgan darslar ko‘pincha ayrim o‘quvchilarning orqada qolishiga olib keladi. Shu sababli individual yondashuv zarur bo‘ladi.

Diagnostika bu farqlarni aniqlashga yordam beradi va o‘qituvchiga shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni amalga oshirish imkonini yaratadi[3;47].

Pedagogik diagnostika quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

1. Bilim darajasini aniqlash (kognitiv diagnostika): testlar, yozma ishlar, savol-javoblar orqali amalga oshiriladi.

2. Psixologik diagnostika: o‘quvchining emotsional holati, qiziqishi, temperament turi, muloqot darajasi aniqlanadi.

3. Didaktik kuzatuv: o‘quvchining darsdagi faolligi, topshiriqlarni bajarishdagi uslubi, muomala va xulq-atvorini o‘rganish.

4. Portfoliolar: o‘quvchining ishlari, yutuqlari, rivojlanishini muntazam baholab borish.

Ushbu usullar yordamida to‘plangan ma’lumotlar asosida har bir o‘quvchiga mos o‘qitish strategiyasi ishlab chiqiladi[5;39].

Diagnostik natijalar asosida o‘qituvchi:

- O‘quv rejasini moslashtiradi (tezroq yoki sekinroq sur’atda o‘qitish);
- O‘quvchilarga differensial topshiriqlar beradi;
- Qiyinchiliklarga duch kelayotgan o‘quvchilar bilan alohida ishlash rejasini tuzadi;
- Ijodkor, ilg‘or o‘quvchilar bilan rivojlantiruvchi mashg‘ulotlar tashkil etadi.

Bu yondashuv bolalarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi, muvaffaqiyatni his qilish imkonini beradi, sinfdagi psixologik iqlimni sog‘lomlashtiradi va o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi[4;32].

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan ishlashda diagnostika jarayoni rejalashtirilgan, izchil va tizimli tarzda olib borilishi lozim. Bu jarayon quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. **Maqsadni aniqlash.** Pedagog, avvalo, nima maqsadda diagnostika o‘tkazilishini belgilab oladi: bilim darajasini baholashmi, psixologik holatni aniqlashmi, yoki ijtimoiy faollik darajasini kuzatishmi.

2. **Diagnostika vositalarini tanlash.** Har bir maqsad uchun mos vosita tanlanadi. Masalan, bilimni aniqlash uchun testlar, o‘quv topshiriqlari; emotsional holatni aniqlash uchun so‘rovnomalar, psixologik testlar; ijtimoiy faollikni aniqlash uchun kuzatuv kartalari qo‘llaniladi.

3. **Ma’lumotlarni yig‘ish.** Tanlangan vositalar orqali o‘quvchilardan individual ma’lumotlar yig‘iladi. Bu bosqichda har bir bolaning o‘z holatida to‘g‘ri ma’lumot olish muhim - ya’ni, ularning tabiiy muhitda, majburlovsiz sharoitdagi faoliyatini kuzatish afzal.

4. **Tahlil va baholash.** Yig‘ilgan ma’lumotlar asosida har bir o‘quvchi uchun qisqacha pedagogik tavsifnoma tuziladi. Unda bolaning kuchli va zaif tomonlari, qiziqish sohalari, qiyinchiliklari va rivojlanish imkoniyatlari ko‘rsatiladi.

5. **Xulosa chiqarish va ta’lim strategiyasini belgilash.** Tahlil natijalari asosida o‘qituvchi ta’limning individual yo‘nalishini ishlab chiqadi. Bu o‘z ichiga differensial yondashuv, qo‘shimcha mashg‘ulotlar, korreksion ishlar, yoki ilg‘or o‘quvchilar bilan ijodiy loyihalarni qamrab oladi[6;38].

Amaliyotda pedagogik diagnostika samaradorligini cheklovchi bir qator muammolar mavjud. Jumladan:

O‘qituvchining diagnostik kompetensiyasi yetarli emasligi: Ba’zi o‘qituvchilar diagnostika metodlari va tahlil qilish usullarini chuqur bilmasligi natijasida yuzaki baholashlar bilan cheklanadi.

Vaqt taqchilligi: Sinfdagi barcha o‘quvchilar bilan individual ishlash uchun vaqt yetishmasligi tashkiliy jihatdan qiyinchilik tug‘diradi.

Standardlashtirilgan vositalarning yo‘qligi: Ba’zan maktablarda mos testlar, so‘rovnomalar, kuzatuv jadvallari yo‘q yoki yetarli darajada ishlab chiqilmagan bo‘ladi.

Subyektiv yondashuv xavfi: O‘qituvchining o‘z fikriga asoslangan baholashlari real holatni aks ettirmasligi mumkin[7;53].

Ota-onalar bilan hamkorlik yetishmasligi: Ba’zida o‘quvchi haqida to‘liq tasavvurga ega bo‘lish uchun ota-onalar bilan muloqot yetarlicha yo‘lga qo‘yilmagan bo‘ladi.

Xulosa. Boshlang‘ich sinfda individual yondashuvni ta’minlash uchun pedagogik diagnostika zarur vositadir. U orqali o‘quvchining individual xususiyatlari aniqlanadi, ta’lim strategiyasi moslashtiriladi va har bir bola o‘z imkoniyatiga ko‘ra rivojlanish imkoniga ega bo‘ladi. Shu bois har bir boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi diagnostika metodlaridan foydalanishni amaliyotga chuqur joriy etishi lozim.

Pedagogik diagnostika - boshlang‘ich ta’limda individual yondashuvni samarali tashkil etishda asosiy vositalardan biridir. Diagnostika o‘quvchini chuqur anglash, uni shaxs sifatida tan olish va unga mos ta’lim muhitini yaratish imkonini beradi. Amaliyotda bu yondashuv orqali o‘quvchilarning qiziqishi ortadi, o‘quv motivatsiyasi mustahkamlanadi va ularning shaxsiy rivojlanishi ta’minlanadi.

Shunday ekan, har bir boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi pedagogik diagnostikani nafaqat baholash vositasi, balki ta’lim jarayonining ajralmas qismi sifatida qabul qilishi va uni doimiy amaliyotga tatbiq etishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Axmedova N. M. Boshlang‘ich ta’limda pedagogik diagnostika asoslari. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti. (2019).

2. Raxmonov Z. R., & Karimova S. K. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga individual yondashuvda psixologik-pedagogik asoslar. Toshkent: Ilm ziyo. (2021).

3. Mavlonova R. X. “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar”. // Xalq ta’limi, №2, 45–49. (2020).

4. Abdullaeva M. S. “Individual yondashuvda diagnostikaning o‘rni va pedagogik tahlil”. // Pedagogik mahorat jurnali, №3, 31–35. (2022).

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi PF–60-son Farmoni “2022–2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasini taraqqiyot strategiyasi”.

6. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi: o‘quv qo‘llanma. Toshkent: Fan va texnologiya. (2021).

7. Davlatovna N. R. Indikatorlar asosida boshlang ‘ich sinf o ‘quvchilari faoliyatini diagnostika qilishning o ‘ziga xosligi //Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1A. – C. 51-55.

8. Норкабилова Р. Xorijiy fanlardan bolalarning maktabga tayyorgarligining diagnostikasi // Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 11.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA BILISH FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Omonturdiyeva M.O.
Termiz davlat pedagogika instituti
Pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi.

Tayanch so‘zlar: bilish faoliyati, ta’lim-tarbiya, dunyoqarash, takomillashtirish, boshlang‘ich sinf, bilim, ko‘nikma, malaka, kompetensiya, fan, texnologiya, zamonaviy rivojlanish, tamoyil, shakl, metod va vosita, o‘quvchi, tarbiya, jamiyat va inson.
Ключевые слова: познавательная деятельность, образование, мировоззрение, совершенствование, начальная школа, знания, умения, навыки, квалификация, компетентность, наука, техника, современное развитие, принципы, формы, методы и средства, ученик, воспитание, общество и человек.
Key words: cognitive activity, education, worldview, improvement, primary school, knowledge, skills, qualifications, competence, science, technology, modern development, principles, forms, methods and means, student, upbringing, society and man.

РЕЗЮМЕ:
Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tarbiya fani orqali bilish faoliyatini shakllantirishning metodik asoslarini takomillashtirish muammosiga doir milliy va xorijiy tajribalarning tizimlashtirilganligi, hozirgi holati, pedagogik shart-sharoitlari, innovatsion ta’lim texnologiyalariga asoslangan shakl, metod va vositalari, zamonaviy rivojlanish tamoyillari, tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlari, bilish faoliyatini ta’lim mazmuniga singdirish, o‘quvchilarda bilish faoliyatini shakllantirishda zarur bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirish masalalari bayon qilingan.
РЕЗЮМЕ:
В статье систематизирован отечественный и зарубежный опыт по проблеме совершенствования методических основ формирования познавательной активности через образование у учащихся начальной школы, современное состояние, педагогические условия, формы, методы и средства на основе инновационных образовательных технологий, современных принципов развития, законов природы и общественного развития, интеграции познавательной активности в содержание образования, формирования необходимых знаний, умений, навыков, квалификаций и компетенций в формировании познавательной активности учащихся.
SUMMARY:
The article describes the systematization of national and foreign experiences on the problem of improving the methodological foundations of the formation of cognitive activity through education in primary school students, the current state, pedagogical conditions, forms, methods and tools based on innovative educational technologies, modern development principles, laws of nature and

social development, the integration of cognitive activity into the content of education, and the development of the necessary knowledge, skills, qualifications and competencies in the formation of cognitive activity in students.

Bilish jarayoni va uning bilish faoliyatiga aylanish davri kishilik jamiyatining iltimoiy-tarixiy taraqqiyoti bilan uzviy uyg‘unlikka ega. O‘quvchilarning bilish faoliyatini shakllantirishga bag‘ishlangan ilmiy adabiyotlarning tahlili pedagogika fani, ayniqsa, o‘qitish jarayonida “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilish faoliyati” mohiyatini tushunishda hozirgacha yagona fikr mavjud emasligini ko‘rsatmoqda.

O‘quvchilarning bilish faoliyati haqidagi manbalar qadim zamonga borib taqaladi.O‘quvchilarning bilish faoliyatining narsalar,jarayonlar va hodisalarning mohiyatiga chuqur kirib borishga yordam berishi, xotirani mustahkamlashi qadadimdanoq ma’lum bo‘lgan. Sharq mutafakkirlari bu borada o‘z fikrlarini bildirib o‘tgan. Xususan, Al-Xorazmiy bilish nazariyasining rivojlanishiga o‘z xissasini qo‘shgan. U hissiyot orqali bilishni “ mantiqiy mulohazalar” vositasida bilishdan aniq farqlagan: hissiyot “mayda” xususiyat , “mantiqiysi” esa mohiyatni o‘rganadi va ular o‘zoro aloqada kechadi, deb hisoblagan.

Farobiy o‘quvchilar bilish faoliyatini tashkil etishning masalalari bo‘yicha bir qator muhim tavsiyalarni ishlab chiqdi. Yaxshi nazoratchi bo‘lish uchun , deydi u, uch narsaga rioya qilish zarur:

- ma’lum bir fan asosida yotgan barcha prinsplarni yaxshi bilish kerak;
- ushbu prinsp va ma’lumotlardan zarur xulosalar chiqara olish kerak, ya’ni muhokama etishqoidalarini egallash lozim;
- haqiqatni yolg‘ondan farqlash, xatolarni tuzatishni bilish va boshqa mualliflar mulohazalarini tahlil etish zarur.

Bolalarning bilish faoliyatlari hissiy idrok, nazariy tafakkur va amaliy faoliyat birligidir. U ta‘limning har bir bosqichida vujudga keladi va muntazam ravishda rivojlanib boradi. Bilish faoliyati o‘quvchilarning ijtimoiy aloqalari va o‘quv faoliyatlarining barcha turlarida mustahkamlanadi. Shu bilan bir qatorda, o‘quvchilar bilish faoliyatining kengayishida o‘quv jarayonlarida muayyan topshiriqlarni bajarishlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik atamalar lug‘atida bilishga qo‘yidagicha ta’rif beriladi:

ta’lim jarayonida o‘quvchi va talabalarga taqdim etilgan o‘quv materialining o‘zlashtirilganlik darajasi;

borliq va uning obektiv qonuniyatlarini o‘rganish, o‘zlashtirish, egallash jarayonidir.

Demak, bilish faoliyati jarayonida o‘quvchi taqdim etilgan bilimlarni o‘zlashtiradi va tevarak atrofdagi voqelikni anglab etadi. Bilish jarayonida mustaqil aqliy faoliyat ko‘rsatish, misollar, masalalar echish, didaktik mashqlar bajarish, takrorlash yordamida ixtiyoriy, ongli diqqat tarkib topadi. 7-8 yoshli bolalarda diqqatni ixtiyoriy tarzda bir nuqtaga jamlash, taqsimlash, ongli ravishda boshqarish ko‘nikmalari shakllanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ma‘lum darajada o‘z faoliyatlarini mustaqil rivojlantira oladilar. Ular o‘z rejalari, harakatlarining izchilligini so‘z orqali tasvirlab beradilar.

Rejalashtirish yordamida o‘quvchilarning ixtiyoriy diqqatlari tarkib topib rivojlanadi. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni bilish faoliyatiga jalb etish turli aqliy faoliyat usullarini taqozo qiladi. O‘quvchilarning bilim zaxiralari moddiy olam haqidagi tasavvurlari yordamida boyib borib bilish faoliyatining shakllanishida o‘quv jarayoni muhim o‘rin egallaydi. O‘quvchilarning bilish faoliyatlarini jadallashtirish - bugungi kunda pedagogikaning muhim muammolaridan biri hisoblanadi. Uning dolzarbligi metodik usullar va vositalarni izlash, ishlab chiqish zaruriyati bilan belgilanadi.

O‘quvchilarning bilish faoliyatlarini jadallashtirish muammosini yechish uchun o‘quv materiallarining nazariylik darajasini kuchaytirish bilan bir qatorda, o‘quvchilarga bilish metodlarini izchil tarzda o‘rgatish talab qilinadi. Bu tadbir muayyan o‘quv vaziyatlarida amalga oshiriladi. Muayyan o‘quv vaziyatlarida o‘quvchilarni bilish metodlari va usullari bilan qurollantirish talab qilinadi.Pedagogika fanida rivojlanish va o‘qitishning o‘zaro aloqadorligi o‘ziga xos tarixiy taraqqiyot yo‘liga ega. Dastlab, pedagoglar o‘quvchilarning rivojlanishi o‘z-o‘zidan amalga oshadi, degan fikrni ilgari surganlar.

Ta‘limning rivojlanish ta‘sirini aniqlaganlaridan so‘ng, ular bu ta’sirning beixtiyor xarakterga ega ekanini ta‘kidlaganlar. Shu bilan bir qatorda, o‘quvchilarni o‘qitish va aqliy rivojlantirish muammosi bo‘yicha shaxsiy nuqtai nazarlar vujudga keldi. Mazkur nuqtai nazarning asosiy mohiyati yaxshi tashkil etilgan o‘quv jarayoni o‘quvchi rivojlanishini jadallashtiradi. Ushbu yondashuv asosida pedagogika fanida ta‘limda faoliyatli, individual, tabaqalashgan yondashuv nazariyasi vujudga keldi. Shaxsning rivojlanish jarayonida bir xillik mavjud emas. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun bu vaqt obrazli tafakkur qilish asosida intellectual rivojlanish davridir. Bu asosan o‘quv-biluv jarayonida amalga oshadi.

Yuqoridagi yondashuvlardan kelib chiqqan holda aytishimiz mumkinki, tarbiyaning tabiat-muvofiqligi talqinida tashkil etilib insonning tabiiy rivojlanishi jarayonida, o‘quvchining yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Shuningdek, o‘quvchilarning diqqati,

xotirasi va fikrlash qobiliyatining o‘ziga xosligini har taraflama o‘rganish, tabiiy va ijtimoiy - atrof-muhit birligi, yaxlitligi tamoyiliga muvofiq holda zamonaviy madaniyat va ma’naviy qadriyatlarga tayanib ta’lim-tarbiya berish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o‘quv jarayoni yaxlit va hatto, har bir dars o‘quvchilarning bilishga, turli sinf va fanlarda namoyon bo‘lish xarakteriga ko‘ra rag‘batlar turli xil bo‘ladi. Rag‘batlarning bir xil tuzilishga egaligi, o‘zaro bog‘liqligi bilishga qiziqishni mustahkamlash va rivojlantirishga xizmat etadi, shaxsning bilish kuchlari, uning fikrlash, irodaviy, hissiy-bilish jarayonlari faollashini ta’minlaydi.

Har bir darsda bilishga qiziqish o‘zining avj nuqtasi, o‘zining ko‘rsatkichiga ega, o‘qituvchi buni ko‘rishi, diqqat bilan tahlil qilishi muhim, zero bu umumiy ma’noda darsning samaradorligi ko‘rsatkichidir. O‘quvchilarning bilishga qiziqishlarini tobora istiqbolli yo‘nalishi qiziqishning dars boshidan to oxirigacha izchil o‘sib borishidir, bunda o‘quvchilar ishga berilib qo‘ng‘iroqni eshitmaydi va darsdan o‘quv jarayonida qilib ulgurmaganini davom ettirish istagi bilan ketadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abduraxmonova N.A. (2023) Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida. educational research in universal sciences, 2(12), 208-211.

2. Ochilovna O. M. (2022) Diagnosis of students professional focus. international journal of research in commerce, it, engineering and social sciences issn: 2349-7793 impact factor: 6.876, 16(01), 61-65.

3. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida bilish qobilyatini rivojlantirish. kz kalbaevna, r komila. university research base, 274-277, 2024. 94, 2024.

4. Norbo‘tayev X.B. Boshlang‘ich ta’limda ekologik xafvsizlik madaniyatini takomillashtirish. //муаллим ҳем узлуксиз билимлендириў. илмий-методикалық журнал №2 issn 2181-7138 некис-2022. -б. 93-97.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INKLYUZIV TA’LIMNI TASHKIL ETISH MEXANIZMLARI

Raximqulova M.B.
Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasi mudiri, dotsent

Tayanch so‘zlar: inklyuziv ta’lim, boshlang‘ich maktab, universal dizayn, differensiyalash, individual ta’lim rejasi, pedagogik tashxis, inklyuziv indeks, monitoring, resurs markazi, hamkorlik.

Ключевые слова: инклюзивное образование, начальная школа, универсальный дизайн, дифференциация, индивидуальный образовательный план, педагогическая диагностика, индекс инклюзии, мониторинг, ресурсный центр, партнёрство.

Key words: inclusive education, primary school, universal design, differentiated instruction, individualized education plan, pedagogical assessment, inclusion index, monitoring, resource center, partnership.

РЕЗЮМЕ:

Maqolada boshlang‘ich ta’lim tizimida inklyuziv ta’limni barqaror va samarali joriy etish uchun mexanizmlarni ishlab chiqish masalasi yoritiladi. Muammoning dolzarbligi umumta’lim maktablarida turli ta’lim ehtiyojlariga ega o‘quvchilar sonining o‘sishi, ijtimoiy adolat va sifatli ta’limga teng kirish imkoniyatlarini ta’minlash zarurati bilan asoslanadi. Tadqiqotning maqsadi qonunchilik, maktab boshqaruvi, pedagogik amaliyot, resurslar va monitoring-baholashni qamrab olgan tizimli, maktab darajasida amalga oshiriladigan inklyuziv mexanizmlar modelini taklif etishdir. Metodologik yondashuv sifatida adabiyotlar tahlili, normativ-texnik talablarning o‘zaro uyg‘unlashuvi, “Index for Inclusion”, “Universal Design for Learning” va differensiyalashtirilgan o‘qitish konsepsiyalarini integratsiyalash, shuningdek amaliyotga qaratilgan dizayn tamoyillari asosida qadamma-qadam joriy etish yo‘l xaritasi ishlab chiqildi. Natijalarda besh qavatli mexanizm: maktab siyosati va boshqaruvi; pedagogik tashxis va individual ta’lim rejalari; o‘qitishda universal dizayn va differensiyalash; resurslar va hamkorlik; monitoring, baholash va refleksiya modullari tavsiflanadi. Har bir modul uchun amaliy vositalar (inklyuziv indeks rubrikalari, UDL chek-listlari, ITR shablonlari, multidissiplinar jamoa protokollari, inklyuziv KPIlar) taklif etiladi. Muhokamada mexanizmning asosiy xavflari va cheklovlari, o‘qituvchilar malakalari, ota-onalar bilan hamkorlik, resurslar taqsimoti, raqamli inklyuziya masalalari tahlil qilinadi. Xulosada taklif etilgan mexanizm inklyuziv madaniyatni shakllantirish, o‘quv-boshqaruv jarayonlarini muvofiqlashtirish va boshlang‘ich sinflarda har bir bolaning salohiyatini ochishga xizmat qilishi aniqlanadi.

РЕЗЮМЕ:

Статья посвящена разработке механизмов устойчивого внедрения инклюзивного образования в начальной школе. Актуальность определяется необходимостью обеспечить равный доступ к качественному образованию для всех детей и ростом числа учащихся с разнообразными образова-

тельными потребностями. Цель — предложить системную, школьного уровня модель механизмов, охватывающую политику, управление, педагогическую практику, ресурсы и мониторинг-оценивание. Методология включает анализ литературы, согласование нормативных требований, интеграцию “Index for Inclusion”, “Universal Design for Learning” и дифференцированного обучения, а также разработку поэтапной дорожной карты внедрения. В результате описана пятислойная конструкция: политика и управление школы; педагогическая диагностика и индивидуальные образовательные планы; универсальный дизайн обучения и дифференциация; ресурсы и партнёрство; мониторинг, оценка и рефлексия — с практическими инструментами для каждого модуля. В обсуждении рассматриваются риски и ограничения, развитие кадрового потенциала педагогов, взаимодействие с родителями, распределение ресурсов и цифровая инклюзия. Заключение подчёркивает, что предложенные механизмы способствуют формированию инклюзивной культуры и согласованию учебно-управленческих процессов в начальной школе.

SUMMARY:

This paper develops a practical mechanism for implementing inclusive education in primary schools. The rationale stems from the need to ensure equal access to quality education for all learners alongside the growing diversity of educational needs. The aim is to propose a school-level, system-oriented model encompassing policy and leadership, pedagogical practice, resourcing, and monitoring-evaluation. Methodologically, we synthesize literature, align regulatory requirements, integrate the Index for Inclusion, Universal Design for Learning, and differentiated instruction, and propose a phased implementation roadmap. Results present a five-layer mechanism: school policy and leadership; pedagogical assessment and Individualized Education Plans; universal design and differentiation in teaching; resources and partnerships; monitoring, evaluation, and reflection. Each layer includes practical tools (inclusion index rubrics, UDL checklists, IEP templates, multidisciplinary team protocols, inclusive KPIs). The discussion foregrounds risks and constraints, teacher capacity building, parental engagement, resource allocation, and digital inclusion. The proposed mechanism supports the development of an inclusive culture and alignment of teaching-governance processes in primary grades.

Kirish. Yosh avlodga sifatli ta’lim berish masalasi hozirgi kunda mamlakatimizning «Inson qadri uchun» degan ustuvor tamoyilga asoslangan strategiyasida ham muhim siyosiy komponentlar qatoriga kiritilgan. Prezident Sh.Mirziyoyev inson qadri tushunchasini izohlar ekan, «Inson qadri deganda, biz har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil etishni, malakali tibbiy xizmat ko‘rsatish, sifatli ta’lim, ijtimoiy himoya tizimi, sog‘lom ekologik muhit yaratib berishni tushunamiz» [1] deb ta’kidlaydi. Respublikamizda inklyuziv ta’limni takomillashtirish masalasi hukumatimizning ko‘plab hujjatlarida, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning nutqlarida, ma’ruza va chiqishlarida, farmon va qarorlarida o‘zining munosib aksini topgan. Xususan, imkoniyati cheklangan yoshlarga ta’lim berish sifatini oshirish hamda maqsadida turli ixtisoslik va yo‘nalishlardagi bosma va audiokitoblarga bo‘lgan ehtiyoj har olti oyda o‘rganilib, shu asosda adabiyotlar ro‘yxati shakllantirib borish, oliy ta’lim muassasalarining tegishli ixtisoslik va yo‘nalishlari bo‘yicha fanlardan audiomateriallar va Brayl alifbosi asosidagi adabiyotlarni chop etish tizimi yo‘lga qo‘yish bo‘yicha qator vazifalar belgilab berilmoqda.

Inklyuziv ta’lim - bolalarning individual farqlarini kamchilik emas, balki rivojlanish manbai deb qarashga asoslangan ta’lim paradigmasi bo‘lib, uning mazmuni va amaliyoti “hamma uchun maktab” g‘oyasini hayotga tatbiq etadi. Jahon miqyosida inklyuzivlikni kengaytirish zarurati xalqaro siyosiy-nufuzli hujjatlarda ifoda etilgan bo‘lib, Salamanka Bayanotida maktablar “jismoniy, zehniy, ijtimoiy, emotsional, til yoki boshqa xususiyatlaridan qat’i nazar barcha bolalarni qabul qilish” lozimligi ta’kidlanadi [2]. Bu ta’kid inklyuzivlikni targ‘ibot emas, maktabning kundalik ishlash faoliyatida tub o‘zgarish qilish vazifasi sifatida ko‘radi. Boshlang‘ich sinflar bu jarayonning “kritik nuqtasi” bo‘lib, bolalarning asosiy savodxonlik, hisoblash, muloqot, ijtimoiy-emotsional kompetensiyalari aynan shu bosqichda shakllanadi. Shu bois inklyuziv madaniyat, siyosat va amaliyotni boshlang‘ich ta’limda tizimli tarzda joriy etish maqsadga muvofiqdir. Maqolada qonunchilik va maktab boshqaruvi bilan muvofiqlashgan, pedagogik tajriba va texnologiyalar bilan ta’minlangan, monitoring-baholashga tayangan kompleks mexanizm taklif etiladi. Tadqiqot o‘z oldiga quyidagi vazifalarni qo‘yadi: boshlang‘ich ta’limda inklyuziv madaniyatni yaratish uchun maktab darajasida qanday boshqaruv qarorlari va reglamentlarni ishlab chiqish; o‘qitishda universal dizayn va differensiyalashni qanday amaliy vositalar orqali ta’minlash usullarini belgilash; multidissiplinar hamkorlik, resurs ta’minoti va monitoring ish jarayonlarini tashkil qilish; taklif etilgan mexanizmning joriy etish bosqichlari va muvaffaqiyat – baholash mezonlarini ishlab chiqishdir.

Metodologik asoslar. Ushbu tadqiqotimiz metodologik rejasi bo‘yicha amaliy ishlanma sifatida yaratildi. Reja asosida birinchi bosqichda xalqaro va mintaqaviy manbalar tahlil qilindi. Bular: Salamanka Bayanoti [2], “Index for Inclusion” [3], inklyuziya bo‘yicha global monitoring hisoboti [4], Universal Design for Learning (UDL) manbalari [5], differensiyalashgan o‘qitish bo‘yicha ilmiy-metodik qo‘llanmalar [6], Vigotskiyning ijtimoiy-madaniy nazariyasi [7], inklyuziv pedagogika bo‘yicha empirik tadqiqotlar [8], shuningdek inklyuziv maktabni tashkil etishdagi normativ-amaliy pozitsiyalar [9-10]. Ikkinchi bosqichda ushbu g‘oyalar boshlang‘ich ta’limga moslashtirilib, maktab miqyosida ishlaydigan modullarga ajratildi. Uchinchi bosqichda har bir modul uchun ish jarayonlari, mas’ul shaxslar, hujjatlar shablonlari va baholash mezonlari ishlab chiqildi. Hamda dizaynga asoslangan yondashuv (design-oriented approach) qo‘llanilib, joriy etishning bosqichma-bosqich yo‘l xaritasi tasvirlandi. Mantiqiy modellashtirish orqali kiritilayotgan o‘zgarishlar - kirish (resurslar), jarayonlar (amaliyot), chiqishlar (qisqa muddatli natijalar) va ta’sir (uzoq muddatli natijalar) o‘zaro bog‘landi. Taqdim etilgan mexanizm empirik

ma’lumotlar bilan emas, balki ilmiy-metodik manbalarga tayangan holda ishlab chiqilgan bo‘lib, maktab amaliyotida aprobatsiya qilish uchun tayyor konstruksiyani ifoda etadi.

Asosiy qism. Ilmiy maqola natijasi sifatida boshlang‘ich ta’limda inklyuziv ta’limni amalga oshirishning besh qavatli mexanizmi taklif etilmoqda.

1.Maktab siyosati va boshqaruvida inklyuzivlikni maktabning strategiyasiga tizimli kiritish: missiya va qiymatlar bayonotida inklyuziv prinsiplar, maktab kengashi va rahbariyatda inklyuzivlik uchun javobgarlikni aniqlash, o‘qituvchi va yordamchi xodimlar lavozim yo‘riqnomalariga inklyuziv vazifalarni kiritish, qabul va baholashda diskriminatsiyasiz tartib-qoidalarni belgilashdan iboratdir. “Index for Inclusion” konsepsiyasi asosida maktabning o‘z-o‘zini baholash rubrikalarini ishlab chiqish, inklyuziv madaniyat, munosabat va qadriyatlar, inklyuziv qoidalar va rejalar, inklyuziv amaliyotda o‘qitish-tarbiya jarayonilari kabi bosqichlar hamda inklyuzivlik bo‘yicha ichki inklyuziv jamoat kengashi, sinf rahbarlari va fasilitatorlar bilan ishlash rejasi ishlab chiqiladi.

2. Pedagogik tashxis va individual ta’lim rejasi (ITR)ni tashkil etishda Vigotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” g‘oyasiga tayangan holda bolaning imkoniyatlar diapazonini aniqlash maqsadida ko‘p manbali diyognostika (o‘qituvchi kuzatuvi, qisqa formatli skrining, ota-ona intervyusi, agar zarur bo‘lsa, mutaxassis xulosalari) olib borish reglamenti ishlab chiqildi [7]. ITR uchun uch qismli shablon taklif etildi: a) dastlabki o‘quvchi kompetensiyalari va asosiy rivojlanish resurslari aniqlanadi; b) yillik maqsadlar va bosqichma-bosqich operativ maqsadlar (SMART formatida) belgilanadi; v) pedagogik qo‘llab-quvvatlash shakllari (akademik, kommunikatsiya, dastlabki moslashuv), mas’ul shaxslar va belgilangan ijro muddatlari ko‘rsatiladi. Jamoaviy qaror qabul qilish bayonnomasi orqali amalga oshirilib, bunda o‘qituvchi, psixolog, defektolog/logoped, ota-ona va zarur hollarda mahalla yoki jamoat vakillari qatnashadilar [8,10].

3. O‘qitishda universal dizayn ta’limi (UDL) sinfda barcha bolalar uchun kirish imkoniyatini kengaytirish maqsadida uch ustun - ma’lumotni taqdim etishning bir nechta usullari, anglash va ifoda etishning turli shakllari, motivatsiya va ishtirokni qo‘llab-quvvatlash — asosida qisqa topshiriqlar tayyorlandi [5]. Ushbu qisqa topshiriqlar dars rejalarini qayta ko‘rib chiqish, materiallarni moslashtirish (matn+tasvir+ovoz), vazifalarni tanlash erkinligini ta’minlash, baholashni formatviy shakllarga boyitish uchun qo‘llaniladi. Dars jarayonida pedagogikaning shaffoflik prinsiplari (maqsadlarni aniq bayon etish, ko‘rsatmalarni mantiqiy ketma-ketlikda berish va faoliyatni umumlashtirish)

qo‘llanilishi orqali barcha o‘quvchilar uchun tushunarlilik va o‘rganish samaradorligi oshiriladi.

4. Inklyuziv ta’limni qo‘llab-quvvatlash uchun maktab ichida kichik “resurs nuqtasi” (qisqa muddatli individual mashg‘ulotlar uchun joy, sensor materiallar, hamkorlik texnologiyalari) tashkil etish; qo‘shni maktablar, mahalliy sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar bilan memorandum asosida hamkorlikni yo‘lga qo‘yish; o‘qituvchilar uchun tajriba almashish seminarlari va mentorlik tizimini yo‘lga qo‘yish; ota-onalar klubini shakllantirish maqsadga muvofiqdir. YUNISEF tomonidan tavsiya etilgan huquqqa asoslangan yondashuv doirasida ota-onaning faol ishtirokini institutsional mexanizmlar orqali ta’minlash (masalan, ota-ona kelishuvi va muntazam uchrashuvlar) ko‘zda tutilgan [10].

5. Inklyuzivlik uchun asosiy ko‘rsatkichlari monitoring, baholash va refleksiya va (KPI) taklif etiladi: davomatning barqarorligi, sinfda faol ishtirok, formatviy baholash natijalaridagi o‘sish, o‘qituvchi refleksiyasi, ota-ona qoniqish indikatorlari, maktab muhitining jismoniy va raqamli ta’limga kirish imkoniyatlari [4], ma’lumotlar uchun oddiy elektron jurnal va chorak yakunida inklyuziv hisobot tuzish tartibi belgilanadi. Ichki refleksiya bosqichlari (rejalashtirish - tashkaillashtirish - kuzatish - tahlil qilish - yangilash - baholsh) tizimli ravishda yo‘lga qo‘yiladi. Mexanizmning joriy etilishi yo‘l xaritasi jadval ko‘rinishida rejalashtirildi.

№	Oylar	Chora-tadbirlar
1	0–3	Tayyorgarlik, o‘z-o‘zini baholash, maqsad va KPIlar, xodimlarning o‘quvi
2	4–9	Boshlanishi 2–3 sinfda UDL va ITR tajribasi, resurslar, usullar, vositalar, monitoringni boshlanishi
3	10–18	Jarayonni keng ko‘lamda joriy etish (barcha sinflarda qo‘llash, mentorlik, hamkorlik kelishuvlari)
4	19 oydan keyin	Barqarorlik, rejalashtirish bosqichlariga inklyuziv KPIlarni to‘liq integratsiya qilish, doimiy kasbiy rivojlanish

Muhokamav va tahlillar. Inklyuziv ta’limni amalga oshirishda muvaffaqiyat, avvalo, maktabdagi madaniyatga bog‘liq. T.Booth va M.Ainscow inklyuziyani “jarayon” sifatida ta’riflab, “inklyuziv maktab - bu barcha o‘quvchilar ishtirokini kengaytirib, to‘sqinliklarni qisqartirish yo‘lida doimiy harakat qiladigan institut” degan fikrni ilgari suradi [3]. Bu yerda “doimiy harakat” degan ibora mualliflar mexanizmga dinamik qarashni talab etishini anglatadi. Joriy etilgan chora-tadbirlar bir marta uchun emas, balki refleksiya orqali yangilanib borishi lozim. Shu ma’noda, taklif etilgan KPIlarda refleksiya bosqichlarining markaziy o‘rin

tutishi, bizningcha, Booth va Ainscowning pozitsiyasiga mos keladi va uni amaliylashtiradi.

Salamanka Bayanotida keltirilgan “maktablar barcha bolalarni qabul qilishi lozim” degan qoida [2] har doim ham oson ijro etiladigan talab emas. Muallif sifatida biz bunga ikki jihatdan yondashdik: birinchisi, qabul va ishtirok masalasi moddiy muhit (pandus, yoritish, jadvallar) bilan cheklanmasdan, pedagogik muhit (mazmun, jarayon, baholash)dagi to‘siqlarni kamaytirishni talab qiladi; ikkinchisi, inklyuzivlik - bu alohida yo‘nalish emas, balki maktabning barcha jarayonlariga singdiriladigan tamoyildir. Ushbu qarash UNESCOning 2020 yilgi hisobotidagi “inklyuziya - butun tizimning tamoyili” degan tezis bilan uyg‘unligini ko‘rishimiz mumkin[4].

Vigotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” konsepsiyasi [7] boshlang‘ich sinflarda ayniqsa dolzarb, zero bolaning mustaqil bajara oladigan vazifalari bilan ko‘mak bilan bajaradigan vazifalari orasidagi ko‘prikni to‘g‘ri qurish zarur. “Qo‘llab-quvvatlash” (scaffolding) qanday va qancha vaqtda tashkil etilishi o‘rinli bo‘lganda, bola ishtirokini oshiradi va mustaqillikka olib boradi. Bu yerda muallif sifatida fikrimiz ba’zi amaliyotlarda “qo‘llab-quvvatlash” bir turdagi, uzoqqa cho‘zilgan va haddan tashqari bo‘lib qolishi mumkin, mexanizmda esa taklif etilgan ITRda ko‘makni qisqa siklli va aniq mezonli qilish bu xavfni kamaytiradi.

Hamkorlik resurslari masalasida R.Slee ta’kidlagan “chetlatish logikasi”dan voz kechish [9] - ya’ni muammoni “bolada” deb ko‘rish o‘rniga, to‘siqni “muhitda” deb ko‘rish - maktablarning falsafiy burilishiga zamin yaratadi. YUNISEFning huquqga asoslangan yondashuvi [10] ota-onani hamkor sifatida ko‘radi, bizning mexanizmda ota-onalar klubi va hamkorliklari aynan shu maqsadga xizmat qiladi. Shu bilan birga, resurs taqchilligi va kadrlar tayyorgarligidagi muammolarning bartaraf etilishi o‘qituvchilarning inklyuziv pedagogika yo‘nalishida uzluksiz kasbiy rivojlanishi hamda mentorlik kompetensiyalariga ko‘tarilishi bilan bevosita bog‘liqdir. UNESCO hisobotida ta’kidlanganidek, “inklyuziyani masshtablashtirishda o‘qituvchi quvvati markaziy omil” [4], va muallif bu tezisni to‘liq qo‘llab-quvvatlaydi. Shu sababli, mexanizmda kadrlar tayyorgarligi alohida muammo sifatida ajratilgan.

Inklyuziyada raqamli ta’lim ham muhimdir. UDL rivojiga xizmat qiladigan oddiy texnologiyalar (ekran o‘quvchilariga mos formatlar, subtitrlar, interaktiv materiallar) sinf hayotiga ehtiyotkorlik bilan integratsiya qilinishi lozim. Ammo raqamli ta’limdagi tengsizlikni kuchaytirib qo‘ymaslik uchun oflayn alternativlar ham tayyorlanishi shart. Monitoring masalasida, KPIlar faqat natijani emas, jarayonni ham o‘lchashi kerak ya’ni ishtirok etish, refleksiya, fasilitatsiya sifatlari. L.Florian va hammualliflar inklyuziv amaliyohda “muvaffaqiyatni faqat standart

testlar orqali o‘lchash” cheklanganligini ko‘rsatadi, uning fikricha ko‘rsatkichlar keng qamrovli bo‘lishi kerak [8]. Bu mulohazaga qo‘shilgan holda, formatviy baholash va ishtirok indikatorlarini KPIlarga kiritishni taklif etdik.

Xulosa. Maqolada boshlang‘ich ta’limda inklyuziv ta’limni amalga oshirish uchun tizimli, maktab darajasida joriy etiladigan besh qavatli mexanizm taklif etildi. Mexanizm maktab siyosati va boshqaruvini inklyuziv qiymatlar bilan uyg‘unlashtiradi, pedagogik tashxis va individual rejalashni yo‘lga qo‘yadi, o‘qitishni universal dizayn va differensiyalash asosida yangilaydi, resurslar va multidissiplinar hamkorlikni muvofiqlashtiradi, monitoring va refleksiyani barqaror bosqichga aylantiradi. Xalqaro manbalarda ta’kidlangan asosiy g‘oyalar – inklyuziya jarayon ekanligi, maktabda barcha o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash zarurati hamda dizayn orqali to‘siqlarni oldindan bartaraf etish - yo‘l xaritasining markaziy tamoyili sifatida belgilandi.Taklif etilgan KPIlar va shablonlar mexanizmni amaliyotga tatbiq etishda funksional vosita bo‘la oladi. Keyingi bosqichda tajriba maktablarda aprobatsiya va qiyosiy tahlillar orqali mexanizmning samaradorligini empirik tasdiqlanishi maqsadga muvofiqdir. Umuman, inklyuziv madaniyat va boshqaruv, o‘qitishdagi universal dizayn hamda differensiyalash barcha bolalar uchun teng imkoniyat va yuqori ta’lim sifatini ta’minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz // «Xalq so‘zi» gazetasi, 2021 yil 7 noyabr, №238 (8018) 3

2. UNESCO. The Salamanca Statement and Framework for Action on Special Needs Education. Paris: UNESCO, 1994. 49 б.

3. Booth, T., Ainscow, M. Index for Inclusion: Developing Learning and Participation in Schools (3rd ed.). Bristol: Centre for Studies on Inclusive Education (CSIE), 2011. 128 б.

4. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2020: Inclusion and Education - All Means All. Paris: UNESCO Publishing, 2020. 436 б.

5. Meyer, A., Rose, D. H., Gordon, D. Universal Design for Learning: Theory and Practice. Wakefield, MA: CAST Professional Publishing, 2014. 208 б.

6. Tomlinson, C. A. The Differentiated Classroom: Responding to the Needs of All Learners (2nd ed.). Alexandria, VA: ASCD, 2014. 186 б.

7. Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. 176 б.

8. Black-Hawkins, K., Florian, L., Rouse, M. Achievement and Inclusion in Schools. London: Routledge, 2007. 192 б.

9. Slee, R. The Irregular School: Exclusion, Schooling and Inclusive Education. London–New York: Routledge, 2011. 224 б.

10. UNICEF. The Right of Children with Disabilities to Education: A Rights-Based Approach to Inclusive Education. Geneva: UNICEF Regional Office for CEE/CIS, 2012. 58 б.

11. Raximqulova M.B. Maktabgacha ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’limning pedagogik-psixologik xususiyatlari. Uslubiy qo‘llanma – Samarqand: “Bilig-ilmiy faoliyat” nashriyorti, 2024. – 72 bet.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIDA INTELLEKTUAL KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

Kamolova N.T.
Fan va texnologiyalar universiteti
“Pedagogika” kafedrasi v/b dotsenti

Tayanch so‘zlar: talaba, ta’lim, boshlang‘ich, jarayon, mohiyat, talqin, intellektual, idrok, kompetentlik, mutaxassis, qobiliyat, izlanish, iqtidor, rivojlantirish, yuksalish, natija.
Ключевые слова: студент, образование, начальное образование, процесс, сущность, интерпретация, интеллектуал, восприятие, компетентность, специалист, способность, исследование, талант, развитие, продвижение по службе, результат.
Key words: student, education, primary, process, essence, interpretation, intellectual, perception, competence, specialist, ability, research, talent, development, promotion, result.

РЕЗЮМЕ:
Maqolada pedagogika oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining intellektual kompetentligini rivojlantirish masalasi talqin qilingan bo‘lib, intellektual kompetentlik mazmuni va mohiyati, intellektual kompetentlikni rivojlantirishning psixologik omillari hamda intellektual kompetentlikni rivojlantirishning ahamiyatli jihatlari ochib berilgan.
РЕЗЮМЕ:
В статье трактуется проблема развития интеллектуальной компетентности будущих учителей начальных классов в педагогических вузах, раскрывается содержание и сущность интеллектуальной компетентности, психологические факторы развития интеллектуальной компетентности и значимые аспекты развития интеллектуальной компетентности.
SUMMARY:
The article interprets the issue of the development of intellectual competence of future primary school teachers in pedagogical higher educational institutions, reveals the content and essence of intellectual competence, psychological factors for the development of intellectual competence and significant aspects of the development of intellectual competence.

Kirish. Bugungi kunda oliy ta’lim jarayonida talabalar intellektual kompetentligini rivojlantirish – ularning salohiyatini boyitish, muammolarni mustaqil hal etish qobiliyatlarini rivojlantirish, ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish, intellektual madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan. Intellektual salohiyat tushunchasi psixologik adabiyotlarda keng tarqalgan.

Insonning intellektual xususiyatlarini tavsiflash uchun umumiy psixologiyada qo‘llaniladigan aniq mezonlar jamiyatining zamonaviy rivojlanish darajasiga va intellektual resurslarning ortib borayotganligiga qarab belgilanadi. Intellektual kompetentlikni rivojlantirish istiqbollari bu soha, zamonaviy ta’lim va ishlash sharoitida talabalar va o‘qituvchilarning intellektual salohiyatini oshirish, shu bilan birga, ularning ijodiy va analitik qobiliyatlarini kengaytirishga qaratilgan hamda kelgusidagi pedagogik va professional samaradorlikni ta’minlashga yo‘naltirilgan jarayonlardir.

Bugungi kunda axborot va kommunikatsiya texnologiyalari ta’lim jarayonida katta rol o‘ynaydi. Intellektual kompetentlikni rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar, internet resurslari, virtual simulyatsiyalar, elektron o‘quv materiallari va onlayn platformalardan foydalanish samarali usul bo‘lishi mumkin. Texnologiyalar orqali o‘quvchilarning muammolarni hal qilish qobiliyatlari, ijodiy fikrlash va mustaqil o‘rganish qobiliyatlari rivojlanadi.

Intellektual kompetentlikni rivojlantirish uchun ijodiy va tanqidiy fikrlashni qo‘llab-quvvatlash muhim. Shaxsning muammolarga yangi, g‘ayrioddiy va ijodiy yondashuvlar bilan qarash qobiliyatini rivojlantirish, ularni baholash va ijobiy qarorlar qabul qilishni ta’minlash kerak. Bu yo‘nalishda, ta’lim jarayonida muammolarga integrativ yondashuvlar, shuningdek, muloqot va fikrlar almashish imkoniyatlarini yaratish zarur [1]. Intellektual kompetentlikni rivojlantirishda mustaqil ta’lim va samoo‘rganish qobiliyatlarini shakllantirish muhim. Bu talabalarning o‘zlari xohlagan soha bo‘yicha bilim olishni istagan yo‘nalishlarda faoliyat ko‘rsatishlariga yordam beradi. Onlayn kurslar, mustaqil tadqiqotlar, mavzulardosh sessiyalar va seminarlar kabi imkoniyatlar talabalarga o‘zgaruvchan bilim olish tizimida samarali ishlashga yordam beradi.

Intellektual kompetentlikni rivojlantirishda turli fanlarning integratsiyasini amaliyotga tatbiq etish muhim. Bu, o‘z navbatida, ularning intellektual qobiliyatlarini shakllantirishga yordam beradi. Intellektual kompetentlikni rivojlantirishda, shaxsning emotsiyalarini va ijtimoiy munosabatlarini tushunish, ishonchli hamkorlik va ijtimoiy muammolarni hal qilish qobiliyatlari ham muhim o‘rin tutadi. Emotsional va ijtimoiy intellektning rivoji, talabalarning munosabatlarini yaxshilash, o‘z-o‘zini boshqarish va muammolarni ijobiy hal qilish qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi. O‘qituvchilarning intellektual kompetentlikni rivojlantirishda shaxsiy va professional rivojlanishga bo‘lgan e’tibor muhim. O‘qituvchilarning intellektual salohiyati, o‘qitish metodlari, pedagogik strategiyalar, innovatsion texnologiyalardan foydalanish kabi omillar orasida samarali o‘zaro aloqalarni rivojlantirish ularning talabalarga yangi bilimlar yetkazishda muvaffaqiyatga erishishini ta’minlaydi.

Asosiy qism. Intellektual kompetentlik - bu shaxsning bilim olish, ma'naviy va professional faoliyatda muammolarni hal qilish, yangi ma'lumotlarni tahlil qilish, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv ko'rsatish qobiliyati. U, shubhasiz, shaxsning intellektual salohiyatini, uning bilimlarni o'zlashtirishdagi samaradorligini va murakkab vaziyatlarda hal qilish qobiliyatlarini bildirish uchun ishlatiladi.

Intellektual kompetentlikning mazmuni quyidagi asosiy elementlarni o'z ichiga oladi:

1. Bilimlarni egallash va ularni qo'llash, intellektual kompetentlik, avvalo, shaxsning olgan bilimlarini qanday qo'llash va turli muammolarni hal qilishda foydalanish qobiliyatini anglatadi. Bu, o'qituvchini yoki talabani mafkuraviy va amaliy jihatdan tayyor bo'lishga yordam beradi.

2. Tanqidiy va ijodiy fikrlash, intellektual kompetentlik, shaxsning muammolarga tanqidiy va ijodiy yondashuvini qamrab oladi. Bu fikrlashning yuqori darajasi, ya'ni shaxs har qanday vaziyatda savol berish, alternativ yo'llar va yechimlarni izlash qobiliyatini o'z ichiga oladi.

3. Muammolarni hal qilish qobiliyati, bu komponent shaxsning biror muammoni aniqlash, uni tahlil qilish va hal qilish strategiyalarini ishlab chiqish qobiliyatiga qaratilgan. Intellektual kompetentlikning bu unsuri hayotiy va professional sharoitlarda muammolarga moslashish va to'g'ri qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

4. Ma'lumotlarni tahlil qilish, bilimlarni yopish va turli manbalardan olingan ma'lumotlarni tahlil qilish qabiliyati intellektual kompetentlikning muhim qismi hisoblanadi. Bu qobiliyat insonga murakkab ma'lumotlarni to'plash, ularni tartibga solish va ulardan samarali foydalanish imkonini beradi.

5. Mustaqillik va shaxsiy taraqqiyot, intellektual kompetentlikning mazmuni mustaqil o'rganish va rivojlanishga bo'lgan istak va qobiliyat bilan ham bog'liq. Bunday shaxslar o'zlarining bilim olish jarayonini mustaqil ravishda boshqara oladi va doimiy ravishda o'zlarini rivojlantirishga intilgan bo'ladi.

6. Muloqot va hamkorlik, intellektual kompetentlik shunchaki shaxsiy qobiliyatlar bilan cheklanmaydi, balki boshqalar bilan muloqot va hamkorlik qilish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Bu, talabalar va o'qituvchilar o'rtasida samarali kommunikatsiya va bilimlarni o'zaro almashishni ta'minlaydi.

7. Muvofiqlashuvchanlik va adaptatsiya, yangi sharoitlarga tezda moslashish, turli vaziyatlar va taqozolarga muvofiqlashish qobiliyati ham intellektual kompetentlikka kirishadi. Bu qobiliyat, o'z navbatida, shaxsning muammolarga yoki o'rganishga nisbatan qattiq ishonchga ega bo'lishiga yordam beradi.

Intellektual kompetentlikni rivojlantirishda talabalarni muhokama va muloqot jarayonlariga faol jalb etish hamda ularga yangi g‘oyalar va konsepsiyalarni taqdim etish muhim [2]. Bu, shubhasiz, ularning tanqidiy fikrlash va o‘z nazarlarini ifodalash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Intellektual kompetentlik ko‘nikmalarini nazariy bilimlar bilan cheklanib qolmay, ularni amaliy faoliyatda qo‘llash talab etiladi [5]. Talabalar va o‘qituvchilarni turli amaliy topshiriqlar va loyihalar orqali intellektual qobiliyatlarni ishlatishga undash va ularning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish zarur.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida intellektual kompetentlikni rivojlantirish omillari – bu muvaffaqiyatli o‘qitish va ta’lim berish jarayonida muhim bo‘lgan omililar. Intellektual kompetentlikni rivojlantirish uchun bir nechta omillarni ko‘rib chiqish mumkin:

1. Ma’ruzalar va ta’lim metodikalari, o‘qitish usullari va texnologiyalari talabalarning fikrlash va mulohaza qilish qobiliyatlarini rivojlantirishi kerak. Bunga, misol uchun, interaktiv o‘qitish, ijodiy va tanqidiy fikrlashga qaratilgan usullar kiradi.

2. Shaxsiy ko‘nikmalar, bo‘lajak o‘qituvchilarda shaxsiy mulohaza, ijodiy va tanqidiy fikrlash kabi ko‘nikmalar rivojlantirilishi kerak. Bu ko‘nikmalar, o‘quvchilar bilan samarali ishlashda va muammolarni hal qilishda muhim ahamiyatga ega.

3. Ma’rifiy va pedagogik malaka, o‘qituvchilar pedagogik va psixologiyaviy bilimlarni o‘zlashtirishlari va ularni amaliyotga tadbiq etishlari kerak. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchilarning intellektual qodirliklarini rivojlantirishga yordam beradi.

4. Ijtimoiy va emotsional barqarorlik, o‘qituvchi o‘zi va talabalari o‘rtasida ijtimoiy va emotsional munosabatlarni mustahkamlash kerak. Bu, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va yordamga muhtoj bo‘lgan paytda to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatishda muhim rol o‘ynaydi.

5. Texnologiyalarning o‘qitishda qo‘llanilishi, zamonaviy axborot texnologiyalarini o‘qitish jarayoniga integratsiya qilish intellektual kompetentlikni rivojlantirishga yordam beradi. Bu, talabalarga ma’lumotlarni tez va samarali o‘rganishga yordam beradi.

6. Ma’ruza va praktik ishlarning integratsiyasi, o‘qituvchi ilm-fan va amaliyotni birlashtirish orqali talabalarning murakkab muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

7. Talabalarning mustaqilligini qo‘llab-quvvatlash, o‘qituvchi, talabalarga mustaqil ishlashga shariatli shartlar yaratish kerak. Bu, ularning ijodiy va analitik fikrlash qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi.

Shuningdek, ushbu omillar o‘qituvchilarning shaxsiy professional rivojlanishini ham ta’minlaydi, bu esa, ularning ta’limdagi samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Natijalar va muhokamalar. Intellektual qobiliyat aql-zakovatni va perseptiv-analitik qobiliyatlarni aks ettiruvchi omillar bilan ifodalanishi mumkin: axborotni yig‘ish, axborotni qayta ishlash, og‘zaki va mantiqiy fikrlash, abstraksiya qilish va tizimlashtirish qobiliyati, vizual va samarali fikrlash, amaliy muammolarni tezda hal qilish qobiliyati va konseptual moslashuvchanlik [3]. Ushbu qobiliyatlar asosiy va mas’uliyatli qarorlar qabul qilishda muvaffaqiyatga erishish, mantiqiy xulosalar asosida axborot yetishmasligi holatlarida noaniq, muammoli vaziyatda harakat qilish imkonini beradi.

Tushunish nafaqat bilim, balki bu bilimga bo‘lgan munosabat, uning bahosi, uning mazmuni, nafaqat ongning mazmunini, balki tushunish jarayonining mohiyatini ham belgilaydi. Qabul qiluvchi subyektning o‘z qiymat tizimiga ega ekanligi sababli, matnda tasvirlangan fikrlar subyekt tomonidan baholanadi va shaxsiy xususiyatiga ega bo‘ladi [6]. Shaxsning malakasi hissi tug‘ilishdan o‘n ikki yoshga yetgunicha rivojlanish tuzilmasining asosini tashkil etadi va individual rivojlanishning har bir bosqichida ota-ona munosabatlarining, qadriyatlari va tarbiya uslubi, shuningdek, oila a’zolarining stressli hayot sharoitlari, oila hajmi va ota-onalarning ruhiy salomatligi darajasi bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy holat va vaziyatlarga bog‘liq bo‘ladi.

Intellektual kompetentlikni rivojlantirishda psixologik omillar muhim rol o‘ynaydi, chunki har bir insonning psixologiyasi, fikrlash tarzi va ichki motivatsiyasi uning bilim olish va intellektual faoliyatdagi samaradorligini shakllantiradi. Ushbu omillar quyidagi tarzda belgilanishi mumkin:

1. Intellektual kompetentlikni rivojlantirishda muhim psixologik omil motivatsiyadir. Motivlangan talabalar, o‘qish va yangi bilimlarni egallashga ko‘proq qiziqish va harakat qilishadi. O‘qituvchi talabalarning ichki motivatsiyasini qo‘llab-quvvatlashi kerak, chunki bu ularning mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

2. O‘qituvchi talaba salohiyatini, shaxsiy xususiyatlarini va qobiliyatlarini tushunishi va undan samarali foydalanishi zarur. Shaxsning intellektual qodirliklari uning ijtimoiy va emotsional holatlari bilan chambarchas bog‘liq, shuning uchun psixologik qo‘llab-quvvatlash talabalarning o‘zini o‘zi tanish va o‘zlariga ishonchi bilan bog‘liq bo‘lishi kerak.

3. Intellektual kompetentlikni rivojlantirishda ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlari muhimdir. Bu, o‘z navbatida, insonning o‘zgarishlarga va yangi g‘oyalarga bo‘lgan ijobiy munosabatini rivojlantiradi. Psixologik jihatdan,

shunday fikrlash tarzini qo‘llashga yordam beradigan ishlatishga harakat qilish kerak.

4. Emotsional barqarorlik (stressga munosabat, o‘zini nazorat qilish) intellektual faoliyatning samaradorligiga ta’sir ko‘rsatadi. Psixologik jihatdan, stressni boshqarish va o‘z-o‘zini mulohaza qilish qobiliyatlari ta’lim jarayonida muhim ahamiyatga ega. Agar talaba o‘z emotsiyalari bilan ishlashni bilisa, u ko‘proq muammolarni hal qilish va intellektual kuchini oshirishda muvaffaqiyatli bo‘ladi.

5. Psixologik nazariylik bo‘yicha, shaxsning o‘zgarish va rivojlanishga bo‘lgan ishonchi intellektual qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi. Shaxs o‘z salohiyatini oshirishga va yangi bilimlarni o‘rganishga bo‘lgan ishonchga ega bo‘lsa, bu uning intellektual faoliyatini rivojlantirishga omil bo‘ladi.

6. Intellektual kompetentlikni rivojlantirishda o‘zini tanish va shaxsiy maqsadlar qo‘yish ham muhimdir. Bu talaba o‘zining intellektual imkoniyatlarini tushunib, ularni rivojlantirishga harakat qiladi.

7. Oila, o‘qituvchi va dugona-do‘stlar bilan ijtimoiy aloqa, ularning ma’naviy qo‘llab-quvvatlashi talabaning psixologik holatiga, ishonchga va intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Mos muhit va ijobiy ta’sir qilish, insonning intellektual salohiyatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Shu tariqa, intellektual kompetentlikni rivojlantirishda psixologik omillar turli sohalardagi muammolarni hal qilish va talabaning yosh, his-tuyg‘ularini hisobga olish orqali amaldagi samaralarni ko‘rsatishga yordam beradi.

Ta’lim jarayoni bilim orqali ta’lim sifatini shaxsiy sifat tariqasida shakllantiradi, bu nafaqat dunyoning shaxsiy idrokini, balki uning ijodiy o‘zgarishini ham ta’minlaydi. Talabalar va o‘qituvchilarning samarali ijodiy vazifalarni belgilash va hal qilish jarayonining to‘liqligi bilan ishtiroki o‘z faoliyatining mazmunida doimiy yashash uchun o‘z taqdirini belgilash zarurligini ro‘yobga chiqaradi, individual va umumiy rivojlanish istiqbolini ochadi. O‘quv jarayonida ijodiy ishlab chiqarish vazifalaridan foydalanish o‘quv faoliyatining ma’no-mazmuni va maqsadli tarkibiy qismlarining rolini birinchi o‘ringa qo‘yadi, bu o‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘z-o‘zini boshqarish ta’limotiga o‘tishga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadi [4]. Birgalikdagi samarali faoliyat holatlarini yaratish ta’limni samarali jarayonga aylantiradi, bu esa shaxsning samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Xulosa. Intellektual kompetentlikning mazmuni insonning intellektual salohiyatini faol va samarali ishlatishga qaratilgan. U, shaxsning shaxsiy rivojlanishida ham, muammolarni hal qilish va ijtimoiy hayotda samarali faoliyat ko‘rsatishida muhim ahamiyatga ega. Kompetentlikka asoslangan

ta’lim paradigmasi universitetlarda olingan ilmiy bilimlar o‘rtasidagi qarama-qarshilikni bartaraf etish va ularni amaliyotda qo‘llash samaradorligi natijasidir. Boshqacha aytganda, ta’lim jarayoni natijalarini doimiy baholash va bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorlash uchun haqiqiy ehtiyoj mavjud. Kompetentlikka asoslangan yondashuv umumiy intellektual rivojlanishga qaratilgan qarama-qarshilikni bartaraf etdi va muayyan kasbiy faoliyatda amaliyotga yo‘naltirilgan yutuqlarga e’tibor qaratdi. Har qanday talabaning intellektual kompetentligini shakllantirish shartlari mazmunli ta’lim bilan bog‘liq shaxsiy yo‘naltirilgan ta’lim kabi ta’lim muhitining tarkibiy qismlarining o‘zaro bog‘liq ishlashi bilan belgilanadi.

Intellektual kompetentlikni rivojlantirish istiqbollari, zamonaviy ta’lim tizimini, pedagogik yondashuvlar va innovatsion texnologiyalarning integratsiyasiga asoslanadi. Bu, o‘z navbatida, talabalarning ijodiy va analitik qobiliyatlarini oshirishga, ularni ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishga tayyorlashga yordam beradi. Intellektual kompetentlik rivojlanishi, nafaqat shaxsning individual taraqqiyotiga, balki jamiyat va iqtisodiyot rivojiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Байденко В. И. Компетентностный подход к проектированию государственных образовательных стандартов высшего профессионального образования (методологические и методические вопросы): Методическое пособие / В.И. Байденко. – М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2005. – 114 с.

2. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии.–СПб.:Питер, 2006. – С. 713.

3. Стернберг Р.Дж., Форсайт Дж.Б., Хедланд Дж. и др. Практический интеллект. СПб.:Питер, 2012. С. 17.

4. Холодная М.А., Берестнева О.Г., Кострикина И.С. Когнитивные и метакогнитивные предпосылки интеллектуальной компетентности в научно-технической деятельности // Психол. журн. - 2015. - № 1. - С. 29-37.

5. Хуторской А. В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования /А.В.Хуторской. // Ученик в обновляющейся школе. - М.: ИОСО РАО, 2002. - С. 135-157.

6. Холодная, М.А. Когнитивные и метакогнитивные предпосылки интеллектуальной компетентности в научно-технической деятельности / М.А. Холодная, О.Г. Берестнева, И.С. Кострикина // Психологический журнал. – 2005.– № 1. – С. 29–37.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKLOTLARIDA TEATRLASHGAN FAOLIYATLARNI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYALARI

Asqarova D.Q.
Namangan davlat universiteti Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasi dotsenti

Tayanch so'zlar: teatr, ko'rish, eshitish, so'z boyligi,nutq faoliyati,ijodiy faoliyat, motorika, koordinatsiya, tembr, xissiy-irodaviy faoliyat.
Ключевые слова: театр, зрение, слух, лексика, речевая деятельность, творческая деятельность, моторика, координация, тембр, эмоциональная активность.
Key words: theater, sight, hearing, vocabulary, speech activity, creative activity, motor skills, coordination, timbre, emotional activity.

РЕЗЮМЕ:
Teatrlashtirilgan faoliyatni to'g'ri yo'lga qo'yish, jamoani to'g'ri yo'naltirishda tarbiyachi katta rol o'ynaydi. Maqolada turli yosh davrlarida bolalar bilan olib boriladigan islarni tarbiyaci tomonidan tashkil etilishi ko'rsatib berilgan.
РЕЗЮМЕ:
Педагог играет важную роль в правильной организации театральной деятельности, направленности коллектива. В статье показано, что работу с детьми разного возраста организует педагог.
SUMMARY:
The educator plays an important role in the correct organization of theatrical activities, the direction of the team. The article shows that the work with children at different ages is organized by the educator.

Har qanday mamlakat sog'lom va barkamol, el-yurtiga sadoqatli,iymon-etiqodli farzandlari bilan faxrlanadi,ularga suyanadi.Shunday faziltlarga ega avlodni tarbiyalab,voyaga yetkazgan xalq kelajakka katta ishonch bilan qaraydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonida: "Uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, samarali davlat boshqaruvi tizimini

yaratish, MTMlari davlat va nodavlat tarmog‘ini kengaytirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, MTMlariga bolalarni qamrab olishni keskin oshirish, ta’lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni har tomonlama intellektual, ma’naviy-estetik, jismoniy rivojlantirish hamda ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash” alohida muhim vazifa sifatida ko‘rsatib o‘tildi. Maktabgacha yosh davrining xususiyati shundan iboratki, aynan shu davrda turli xil ijtimoiy bilimlar, ko‘nikma, malakalar va faoliyatning turli turlarini egallashda zamin bo‘lib xizmat qiluvchi umumiy rivojlanish ta’minlanadi. Ta‘lim-tarbiya jarayonining samaradorligini ta‘minlash, tarbiyachi va bolalar o‘rtasidagi munosabatlarni qaror toptirishdagina emas, balki bolalarni milliy-ma’naviy meros materiallaridan foydalanib, ularni tarbiyalab borishda ham katta imkoniyatlarga ega.Har bir insonning bolaligi rolli o’yinlar asosida o’tadi, u bolada kattalarning hayotiy qonun-qoidalarini anglashni o’rgatadi.

Мактабгача таʼлим ташкилотларида оʻйин орқали таʼлим бериш ва ривожлантириш боланинг ижодий қобилиятларини қоʻллаб-қувватлаш “Илк қадам” давлат оʻқув дастурида таʼлим жараёнини ташкил қилиш тамойиллари сифатида коʻрсатиб оʻтилган. Театрлашган фаолият орқали болаларни һар томонлама ривожлантириш имкониятлари ва шарт-шароитлари шу тамойиллар асосида яратилади.

Teatrlashtirilgan o’yin teatrlashtirilgan mashg’ulotning asosi hisoblanadi.

Pedagogik vazifa suniy teatrlashtirilgan faoliyat bilan qiyinlashib boradi. U his etish, fikrlash, tasavvur, nutq bilan uyg’unlashib, bolalarning turli xil faolliklarida namoyon bo’ladi (nutqiy, musiqiy va hokazo).

Shuning uchun teatrlashtirilgan faoliyatni umumlashtiruvchi faoliyat deb atashimiz mumkin.

Teatrlashtirilgan o’yinlar davomida bolalarda:

- atrof olam haqidagi tushunchalari kengayadi;
- tasavvur, ong, anglash kabi psixologik tushunchalari rivojlanadi
- ko’rish, eshitish, so’zlab berish kabi turli analizatorlar rivojlanadi;

-so’z boyligi, grammatik nuqtayi nazardan to’g’ri gapirish, o’z fikrini to’g’ri ifodalash, talaffuz, temp, so’z intonatsiyasi va ifodasi faollashadi va yaxshilanib boradi;

-motorika, koordinatsiya, tembr, suhbat qurish ko’nikmalari mukammalashadi;

-xissiy-irodaviy faoliyati rivojlanadi;

-xulq shakllanishi ro’y beradi;

-jamoada faoliyat olib borish, bir-biri uchun javobgarlik rivojlanadi;

-mustaqil fikrlilik, ijodiy faollik rivojlanadi;

-teatrlashtirilgan faoliyatda ishtirok etish bolalarga olam-olam quvonch baxsh etadi, ularda bu faoliyatga nisbatan qiziqish uyg'onadi.

Teatrlashtirilgan faoliyatning asosini qo‘g‘irchoq teatri tashkil etadi. Teatrlashtirilgan tomoshalar (qo‘g‘irchoq teatrlar) dunyoning ko‘plab xalq va zlatlariga qadim zamonlardan ma'lum. Ular jamiyat hayotida muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Qo‘g‘irchoq teatri har qaysi davlatda turli shaklda, hajmda, o‘ziga xos tarzda taraqqiy etib, rivojlanib kelgan. Shunday bo‘lsa-da, qo‘g‘irchoq teatrining to‘rt turini alohida ajratib ko‘rsatish mumkin:

qo‘lga kiyib o‘ynatiladigan qo‘g‘irchoqlar;

soyali qo‘g‘irchoqlar;

Har bir bola o'zi bilganicha o'ynaydi, lekin bu o'yinlar asosan kattalar, sevimli qahramonlaridan o'rganib yoki ularga taqlid qilgan holda amalga oshiriladi. Bolalar o'yinlariga improvizatsiya qilingan teatrlashtirilgan tomosha sifatida qarash mumkin. Bolaga o'zini rejissor, aktyor, musiqachi, dekorator holida ko'rish imkoni beriladi. Dekoratsiya va kostyumlarni tayyorlash bolada ijodiy va texnik faoliyatni rivojlanishiga turtki bo'ladi. Tomoshani tayyorlash jarayonida ular chizish, yasash, tikish ko'nikmalarini rivojlantirish bilan birga, oldilarida amalga oshirishlari lozim bo'lgan vazifalarga nisbatan istak, hoxish tuyg'ulari yanada rivojlanadi va ular bundan katta zavq oladilar.

Maktabgacha ta'lim tashkilotilarida teatrlashtirilgan faoliyatning barcha yo'nalishlariga katta e'tibor berish lozim va shart, chunki ular,

- jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lish modelini yaratishni;

- milliy va ma'naviy qadriyatlarni singdirib borgan holda bolaning madaniyatini oshirishni;

- bolalar adabiyoti, musiqa, tasviriy san'at, o'zini tutish odobi, milliy an'analar va qadriyatlar bilan yaqindan tanishtirish va bu boradagi qiziqishinimuntazam oshirib borishni;

- to'g'ri fikrlash, yaxshilik va yomonlik haqidagi tushunchalarni o'yinlar orqali bolalar ongiga singdirib borishga yordam beradi.

Shuningdek, teatrlashtirilgan faoliyat bolalarning ichki kechinmalari, munosabatlari, emotsional faoliyatining rivojlanishiga ya'ni asar qahramonlariga munosabat bildirish, ularning holatiga kirishga harakat qilish kabi holatlar bilan birga boladagi ijodiy faollikni o'yin, fantaziya, to'qib chiqarish orqali kengaytiradilar.

Teatrlashtirilgan faoliyat bilan bolalar nutqini rivojlantirish uzviy bog'liq bo'lib, qahramonlarning so'zlari, bola nutqi bilan uyg'unlashib uning so'z boyligini orttiradi, nutqining tovush madaniyat mukammalashadi.

Teatrlashtirilgan mashg'ulotlar o'z ichiga ertaklardan lavhalar qo'yish, rasmga qarab rolli suhbatlar tuzish, hayotiy mavzularga oid mustaqil improvizatsiya (o'xshatish) qilish (kulguli voqealar, qiziq hodisalar va hokazo); qo'g'irchoq tomoshalarini ko'rish va uni muhokama qilish, dramatizatsiyalashgan o'yinlar, rolni ijro etish ifodaliligini rivojlantiruvchi mashqlar (verbal va noverbal); bolalarni xissiy rivojlantiruvchi mashqlarni qamrab oladi.

Teatrlashtirilgan faoliyatni to'g'ri yo'lga qo'yish, jamoani to'g'ri yo'naltirishda tarbiyachi katta rol o'ynaydi. Tarbiyachi nafaqat ifodali o'qishi yoki aytib berishi, balki ko'rishi, eshitishi, obrazga kirishi, ya'ni aktyorlik va rejissorlik mahoratlariga ham ega bo'lishi zarur. Aynan shu holat bolalarda teatrlashtirilgan faoliyatga qiziqishni uyg'otishi, bolalarning ijodiy qobiliyatlarini ijobiy tomonga o'zgarishiga yo'l ochadi. Tarbiyachi o'zining aktyorlik faolligi bilan tortinchoq bolalarni faqatgina tomoshabinga aylantirib qo'ymasligi, har bir bolani diqqat bilan kuzatishi lozim. Tarbiyachi bolalarni muntazam ravishda qo'llab quvvatlashi, ularning xato qilish va sahnaga chiqishda qo'rqish, «artist» va «tomoshabin»ga bo'linib qolishlariga yo'l qo'ymaslik lozim.

Quyidagi vazifalar teatrlashtirilgan faoliyatni shakllantirish bo'yicha amalga oshiriladigan darslar majmuasi davomida hal etiladi:

- tarbiyalanuvchining ijodiy qobiliyat va ijodiy o'z o'ziga ishonish tuyg'ularini shakllantirish;
- bolalarda ijodiy faoliyatning barcha jabhalariga qiziqish uyg'otish;
- improvizatsiya (o'xshatish) qilish ko'nikmalarini egallash;
- nutq faoliyatining barcha shakl, funksiya va komponentlarini rivojlantirish;
- bilish ko'nikmalarini mukammallashtirish.

Turli yosh davrlarida bolalar bilan ishlash vazifalarini ko'rib chiqamiz.

Kichik guruhda teatrlashgan rejissorlik o'yinlarining boshlang'ich etaplari tashkil etiladi. Jumladan, barmoqlar teatri, qo'g'irchoqlarning stol teatri va h.k. Anglash jarayoni o'z ichiga xalq va mualliflik ertaklari, sherlar, hikoyalar matnlari asosidagi kichik tomoshalarni qamrab oladi («Bu barmoqcha – buvajon...», «Tili-bom», K.Ushinskiy «Xo'rozning oilasi», A.Barto «O'yinchoqlar», V.Suteev «Jo'ja va o'rdakcha»). Bolalar barmoqlar teatri shakllarini kattalar bilan berilgan mavzu bo'yicha improvizatsiya qilishda foydalanadi.

O'rta guruhda bolalarda teatrlashtirilgan o'yinga nisbatan qiziqishlari kuchayadi. Teatrlashtirilgan o'yin ko'nikmalari bolalarda

drammatizatsiyalashgan o'yin haqidagi bilimlarni kengayishi hisobiga amalga oshadi. Bola 4-5 yoshida yumshoq o'yinchoqlar, yog'ochli teatr, konusli taetr, xalq o'yinchoqlari teatri kabi stol teatrining turli ko'rinishlarini o'rganadi. Bolalar «Tulki va turna», «Bo'g'irsoq», «G'ozlar va turnalar» va shu kabi ertaklar asosida qisqa tomoshalar taqdim etishadilar.

Barmoqlar teatri ko'proq mustaqil faoliyatda foydalanilib, ular she'r va kichik ertaklarni barmoqlari yordamida improvizatsiya qilib ko'rsatib berishga harakat qilinadi («Jili u babusi»; S.Mixalkov «Mushukchalar», Zubkova «Мы delili apelsin»).

Katta guruhlarda ro'y beradigan chuqurlashtirilgan teatrlashtirilgan o'yin ko'nikmalari drammatizatsiyalashtirigan o'yin va teatrlashtirilgan rejissorlik o'yinlarining turli shakllari hisobiga o'rganiladi. Katta guruh tarbiyalanuvchisi bir necha adabiy asardan tashkil topgan improvizatsiya o'yinlari, mustaqil ko'rinishlar tayyorlab qo'yish imkoniyati yaratiladi. Masalan, «A.S.Pushkin ertaklariga sayohat», «Sh.Perro ertaklari qahramonlarining yangi sarguzashtlari» va boshqalar. Bunaday yondashuv bolalarda rejissorlik tajribalarini oshiradi.

Tomosha uchun mavzu va so'zlar murakkablashtiriladi, teatrlashtirilgan o'yin jarayonida hayvonlar haqidagi turli ertaklaridan foydalaniladi («Echki bolalari», «Bo'g'irsoq» va shu kabilar).

Tayyorlov guruhida o'yin materiali yanada murakkablashib boradi. Teatrlashgan tomoshalarga teatrlashgan tomosha qo'yish, bolalar operasi, musiqali va ritmik piesalar kiradi. Rus xalq ertaklari, qo'shiqlar, adabiy asarlarni instsenirovka qilish; instsenirovka-o'yinlar: «Oshpaz mushukchalar», muz. Ye. Tilicheevoy.

Yuqoridagi islarni amalga oshirish uchun quydagi vazifalarni bajarish lozim bo'ladi.

- teatr san'ati asosida bolalarda har taraflama ijodiy qobiliyatlarni rivojlanishini mukammallashtirish;

- badiiy obraz yaratishda o'yin, qo'shiq raqs improvizatsiyalari orqali bolalarda mustaqil ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish;

- atrofdagi munosabatlarga nisbatan bolalarning tushunchalarini kengaytirishda davom etiladi;

- guruhda, zalda, maktabgacha ta'lim muassasasi binosiga moslashish ko'nikmalarini mukammallashtirish.

- bolalarda qo'g'irchoq teatrlari haqida tushuncha, ularni farqlay olish ko'nikmalarini kengaytirish.

- bolalar so'z boyligini yaxshilash va ko'paytirishda davom etish, muntazam lug'at boyligini kengaytirib borish.

- nutqning suhbat va monologik shakllarini mukammallashtirish. Muloqotda nutq madaniyatini tarbiyalash.

- qo'g'irchoqlar ishtirokida kichik hikoyalar, ertaklar tuzish ko'nikmalarini yaxshilash.

- qo'g'irchoqlarni to'g'ri manipulyatsiya qilish ko'nikmalari mustahkamlash.

- bolalarga ma'lum mashxur ertak qahramonlarining suhbatlarini improvizatsiya qilish ko'nikmalarini yanada mustahkamlash.

- bolalarda o'z ruhiyatlarini boshqalarga ulashish, musiqa oxangini turli tana xarakatlari orqali ko'rsatib berish, badiiy o'z-o'ziga ishonish ko'nikmalarini rivojlantirish.

- qo`g'irchoq teatri tomoshalari jarayonida bolalarning yakka va jamoa bilan musiqa asboblari yordamida improvizatsiya qilish tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash.

- bolalarning maktabgacha ta'lim tashkiloti bayramlarida, ko'ngil ochar tadbirlarida mashg'ulotlar va mustaqil faoliyat jarayonida olgan o'z bilim va ko'nikmalaridan foydalangan holda faol ishtirok etish ko'nikmalarini qo'llab quvvatlash.

Yuqorida aytib o'tilgan holatda tashkil etilgan ta'lim albatta o'z samarasini ko'rsatadi. Teatrlashtirilgan o'yin bolalarda o'zini boshqalar oldida ifoda eta olish, o'zing «Men»ini boshqalarga taqdim eta olish, o'rtoqlari oldida o'z harakatlaridan faxrlanish ko'nikmalarini shakllantiradi. Bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotiidagi davrlari teatrlashtirilgan o'yin faoliyatining integratsiyalashgan o'yinlar, san'atning turlari hisobiga boyitib borilishi o'z samarasini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Мактабгача таълим тизими бошқарувини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Фармони. 2017 йил 30 сентябрь, ПФ-5198-сон.

2. "Илк қадам" давлат ўқув дастури. Т. 2018 й.

3. Содиқова Ш., Салимова Д. Театрлашган томошаларнинг мактабгача ёшдаги болалар тарбиясига та'сири. //Замонавий таълим. – Тошкент. 2017.- № 4. 75-79-б.

4. M. Sh.Nurmatova, Sh.T.Xasanova, D.E.Azimova "Ustaxonda amaliy mashg'ulot" Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2011.

5. Yu.G.Karamenko. "Kukolnoy teatr-doshkol`nikam" M.Prosvesheniy. O'quv qo'llanma-1982.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA O‘QUVCHILARNI MA’LUMOTLARNI TAHLIL QILISH VA TANQIDIY FIKRLASHGA O‘RGATISHDA IT VOSITALARIDAN FOYDALANISH

Tengelova D.U.
University of innovation technologies “Maktabgacha va boshlang‘ish ta’lim kafedrasi” asisstent o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: ma’lumotlarni tahlil qilish, tanqidiy fikrlash,axborot texnologiyalari, boshlang‘ich ta’lim,vizualizatsiya,onlayn testlar,muammoli vazifalar,ma’lumot manbalari.
Ключевые слова: анализ данных,критическое мышление,информационные технологии, начальное образование, визуализация, онлайн-оценка,проблемно-ориентированные задания, источники информации.
Key words: data analysis,critical thinking,information technologies,primary education,visualization,online assessments,problem-based tasks,information sources.

РЕЗЮМЕ:
Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarni ma’lumotlarni tahlil qilish va tanqidiy fikrlashga o‘rgatishda IT vositalarining pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Maqolada IT vositalari yordamida ma’lumotlarni vizualizatsiya qilish, muammoli vazifalar orqali tahlil qilish va manbalarni tekshirish ko‘nikmalarini shakllantirish yo‘llari ko‘rib chiqiladi.
РЕЗЮМЕ:
В статье анализируются педагогические возможности использования ИТ-инструментов для обучения младших школьников анализу данных и критическому мышлению. Рассматриваются способы формирования навыков через визуализацию данных, проблемно-ориентированные задания и оценку источников с использованием ИТ.
SUMMARY:
This article analyzes the pedagogical opportunities of using IT tools to teach primary school students data analysis and critical thinking. It explores ways to develop skills through data visualization, problem-based tasks, and source evaluation using IT resources.

Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning ma’lumotlarni tahlil qilish va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish zamonaviy ta’lim jarayonining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Bugungi kunda axborot texnologiyalari (IT) rivojlanishi bilan birga, o‘quvchilarni ma’lumotlarni tanqidiy baholash, solishtirish, taqqoslash, muammo va vaziyatlarni analiz qilishga o‘rgatish zarurati ortib

bormoqda. IT vositalari bu jarayonda o‘quvchilarning fikrlash jarayonini qo‘llab-quvvatlash, ularning mustaqil izlanish va ma’lumotlarni qayta ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun qulay platforma hisoblanadi.

Boshlang‘ich ta’limda kreativ fikrlash o‘quvchilarning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirishning muhim vositasi hisoblanadi. Kreativ fikrlash, o‘quvchilarga mavjud muammolarni yangi va samarali usullarda hal qilish, g‘oyalarni rivojlantirish va yangi yechimlar topishda yordam beradi. Shuningdek, kreativ fikrlash o‘quvchilarning qiyinchiliklarga qarshi kurashish va o‘z fikrini mustaqil ravishda ifodalash qobiliyatini oshiradi. Bugungi kunda axborot texnologiyalari (IT) ta’lim jarayonida samarali vosita sifatida ishlatilmoqda. Xususan, interaktiv dasturlar, multimedia resurslari va simulyatorlar kabi IT vositalari o‘quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ularning pedagogik ta’siri va o‘quvchilarga qanday yordam berishi mumkinligi haqida o‘quvchilarning sifatli o‘rganishini ta’minlashda zamonaviy pedagogik metodlar va texnologiyalar o‘rtasida integratsiya zarur [6].

Tanqidiy fikrlash – bu ma’lumotni baholash, muammolarni aniqlash, fikrlarni asoslash, qaror qabul qilish va natijalarni tekshirish jarayonidir. Boshlang‘ich sinflarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish o‘quvchilarning keyingi ta’lim bosqichlarida muvaffaqiyatli bo‘lishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, o‘qituvchilar dars jarayonida IT vositalarini qo‘llash orqali o‘quvchilarda tahlil qilish, xulosa chiqarish, faktlar asosida fikr yuritish va muammolarni yechish qobiliyatlarini shakllantirishlari mumkin.

IT vositalari yordamida o‘quvchilarga ma’lumotlar bilan ishlashning turli usullari taklif etiladi. Masalan, elektron jadval (spreadsheet) dasturlari yordamida o‘quvchilar ma’lumotlarni kiritish, tartiblash, diagramma va grafiklar hosil qilish orqali vizual tahlilni amalga oshiradilar. Bu esa matematik ko‘nikmalarni ham mustahkamlashga yordam beradi. Shuningdek, interaktiv taqdimotlar, ta’limiy videolar va onlayn testlar orqali o‘quvchilar ma’lumotlarni solishtirish va tanqidiy baholash jarayonini o‘rganadilar.

Boshlang‘ich ta’limda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda IT vositalarining eng muhim afzalliklaridan biri - ma’lumotlarni vizualizatsiya qilish imkoniyati hisoblanadi. Bolalar ko‘pincha ma’lumotni grafik, diagramma yoki rasmlar orqali yaxshiroq qabul qiladi. Masalan, “kunlik ob-havo”, “darslikdagi ma’lumotlar”, “klassdagi o‘quvchilar soni” kabi mavzular bo‘yicha o‘quvchilar ma’lumotlarni to‘playdi, jadvalga joylashtiradi va diagramma orqali tahlil qiladi. Bu esa o‘quvchilarda statistikani tushunish, ma’lumotlar asosida xulosa chiqarish kabi ko‘nikmalarni shakllantiradi [1].

IT vositalari orqali o‘quvchilarni tanqidiy fikrlashga o‘rgatishda muammoli vazifalar (problem-based tasks) muhim rol o‘ynaydi. Masalan, o‘qituvchi o‘quvchilarga “Sinfimizda eng ko‘p seviladigan meva qaysi?” degan savolni beradi va o‘quvchilar onlayn so‘rovnoma (Google Forms, Microsoft Forms) yordamida ma’lumot to‘playdi. Keyin ular natijalarni jadvalga kiritib, grafik hosil qiladi va eng ko‘p ovoz olgan meva haqida xulosa chiqaradi. Ushbu jarayonda o‘quvchilar faqat ma’lumot to‘plab qolmay, balki uni tahlil qilib, o‘z fikrini asoslaydi [2].

Bundan tashqari, IT vositalari o‘quvchilarga ma’lumotlar manbalarini tanlash va ularni tekshirish ko‘nikmalarini beradi. Hozirgi kunda internetda turli xil ma’lumotlar mavjud bo‘lib, ularning hammasi ham to‘g‘ri emas. Shu sababli o‘quvchilarga “manba ishonchlimi?”, “ma’lumot qayerdan olingan?”, “muallif kim?” kabi savollar bilan tanqidiy yondoshuvni o‘rgatish zarur. Bu jarayonda o‘qituvchi o‘quvchilarga ishonchli manbalarni aniqlash bo‘yicha mini-lavhalar, videodarslar va interaktiv mashqlar tashkil etishi mumkin [3].

Axborot texnologiyalarining ta’lim jarayonidagi ahamiyati tobora ortib bormoqda. Boshlang‘ich ta’limda IT vositalarining qo‘llanilishi o‘quvchilarning interaktiv o‘rganish va kreativ fikrlashni rivojlantirishda keng imkoniyatlar yaratadi. Kompyuterlar, planshetlar va raqamli qurilmalar o‘quvchilarga yangi bilimlarni qiziqarli va samarali tarzda olishga yordam beradi. Axborot texnologiyalari yordamida, o‘quvchilarga ta’limning interaktiv metodlari, virtual va simulyatsion o‘yinlar orqali o‘rgatish imkoni tug‘iladi. Shuningdek, o‘quvchilarning o‘zini o‘zi anglash va ijodiy yondashuvni rivojlantirishga qaratilgan yangi pedagogik metodlar va resurslar yaratishga imkon beradi [7].

IT vositalarining ta’lim jarayonida qo‘llanilishi o‘quvchilarning mustaqil izlanish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Masalan, o‘quvchilar o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumot topish, uni qisqa prezentatsiya shaklida taqdim etish, yoki video taqdimot tayyorlash orqali o‘z fikrini mantiqan asoslashni o‘rganadi. Bu jarayon tanqidiy fikrlashning “analiz” va “sintiz” bosqichlarini rivojlantiradi [4].

Interaktiv dasturlar va multimedia vositalari o‘quvchilarga o‘rgatish jarayonini yanada jozibador va samarali qiladi. Bu vositalar orqali o‘quvchilar o‘z fikrlarini yaratishda, tasavvur qilishda va yangi g‘oyalar ishlab chiqishda erkinlikka ega bo‘ladilar. Misol uchun, interaktiv ta’lim dasturlari orqali o‘quvchilar o‘rgangan bilimlarini amalda qo‘llash, turli masalalarni hal qilish va yangi g‘oyalarni sinash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Multimediali vositalar, masalan, videolar, audio-fayllar, simulyatorlar va boshqa ko‘plab resurslar orqali o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish va o‘rgatish jarayonini qiziqarli qilish mumkin. Bu

jarayonda o‘quvchilarning kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga imkon yaratadi [8].

IT vositalari orqali o‘quvchilarga kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun yangi metodlar taklif etiladi. Masalan, virtual laboratoriyalar va simulyatorlar yordamida o‘quvchilar ilmiy tajribalar o‘tkazishlari, muammolarni real va virtual muhitda hal qilishlari mumkin. Bu jarayon o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash va muammolarni innovatsion usullarda hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, o‘quvchilar turli xil interaktiv simulyatsiyalar orqali muammolarni hal qilishda o‘z ijodiy yondashuvlarini namoyish etishlari mumkin [9].

Boshlang‘ich ta’limda IT vositalaridan foydalanishda eng muhim masala - o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olishdir. 1-4 sinf o‘quvchilari uchun darslar qisqa, vizual va interaktiv bo‘lishi lozim. Shu sababli, o‘qituvchilar interaktiv taxta, multimedia taqdimotlar, ta’limiy o‘yinlar, animatsiyalar va videolar yordamida ma’lumotni qiziqarli tarzda taqdim etishi zarur. Masalan, “matematika” darsida o‘quvchilar turli shakllar bo‘yicha ma’lumot to‘plab, diagramma tuzish orqali solishtirish va xulosa chiqarishlari mumkin. Bu jarayonda ular nafaqat matematika ko‘nikmasini, balki tanqidiy fikrlashni ham rivojlantiradi [5].

IT vositalari yordamida o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishda onlayn baholash ham muhim ahamiyatga ega. Onlayn testlar va viktorinalar yordamida o‘quvchilar o‘z bilimlarini sinab ko‘rishadi, xatolarini ko‘rib chiqib, qayta ishlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu jarayon o‘quvchilarning o‘z-o‘zini baholash va refleksiya qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. O‘qituvchi esa natijalarni tahlil qilib, dars rejasini moslashtirishi mumkin.

Biroq IT vositalaridan foydalanishda ayrim muammolar ham mavjud. Masalan, ba’zi maktablarda internet va texnika yetishmasligi, o‘qituvchilarning IT savodxonligi pastligi, o‘quvchilarning ekran oldida uzoq vaqt qolishi, va ma’lumotlar xavfsizligi masalalari. Shuning uchun IT vositalaridan foydalanish jarayonida o‘qituvchilar dastlabki tayyorgarlik (IT bo‘yicha qisqa kurslar), dars rejalarini tayyorlash va xavfsizlik qoidalarini o‘quvchilarga tushuntirish zarur.

IT vositalari yordamida boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Raqamli texnologiyalar o‘quvchilarning intellektual va ijodiy salohiyatini yanada rivojlantirishga imkon yaratadi. O‘quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishda multimedia resurslari, interaktiv dasturlar va simulyatorlarning o‘rni muhimdir. Shuningdek, o‘qituvchilar tomonidan zamonaviy pedagogik metodlarni qo‘llash orqali o‘quvchilarning kreativ va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin. Bundan tashqari, IT vositalari yordamida o‘quvchilarga muammolarni

hal qilish va yangi g‘oyalarni ishlab chiqishda erkinlikka ega bo‘lish imkoniyati yaratiladi. Bu esa o‘quvchilarning o‘z fikrlarini ifodalashda va ta’lim jarayonida yuqori natijalarga erishishda yordam beradi [10].

Natijada, boshlang‘ich ta’limda IT vositalaridan foydalanish o‘quvchilarning ma’lumotlarni tahlil qilish va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi. IT vositalari yordamida o‘quvchilar ma’lumotlarni vizualizatsiya qilish, muammoli vazifalarni yechish, manbalarni tanlash, mustaqil izlanish va o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalarini shakllantiradilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jones S., & Moreland J. Digital Literacy in Primary Education. London: Routledge, 2019.

2. Gee J.P. What Video Games Have to Teach Us About Learning and Literacy. New York: Palgrave Macmillan, 2007.

3. Mishra P., & Koehler M.J. Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge. Teachers College Record, 2006.

4. Paul R., & Elder L. Critical Thinking: Tools for Taking Charge of Your Learning and Your Life. Upper Saddle River: Pearson, 2014.

5. National Education Technology Plan. U.S. Department of Education. Washington, 2022.

6. S. T. Salomov, A. N. Umarov. (2019). Boshlang‘ich ta’limda axborot texnologiyalarining o‘rni. Ta’lim va Innovatsiyalar, 25(3), 45–56.

7. P. X. Raufov, R. N. Tursunov. (2021). Ta’limda kreativ fikrlashni rivojlantirishda multimedia vositalarining ro‘li. Innovatsion ta’lim metodlari, 19(4), 112–118.

8. J. S. Ismoilov, M. B. Mirzaev. (2020). Interaktiv dasturlar yordamida kreativ fikrlashni rivojlantirish. Ta’lim texnologiyalari va innovatsiyalar, 32(2), 78–86.

9. N. X. Akramova. (2022). Virtual laboratoriyalar va simulyatorlar yordamida muammolarni hal qilish. Ta’lim texnologiyalari jurnal, 30(5), 101–108.

10. A. J. Tursunov, D. M. Xodjayeva. (2023). Boshlang‘ich ta’limda axborot texnologiyalarining samarali qo‘llanilishi.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI DIREKTOR O‘RINBOSARINING METODIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING XORIJIY TAJRIBALARI

Do‘stov D.Z.
MTTDMQTMOI o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor

Tayanch so‘zlar: maktabgacha ta’lim, kompetensiyaviy yondashuv, metodist kompetentligi, innovatsion texnologiyalar, uzluksiz ta’lim, ta’limni boshqarish.
Ключевые слова: дошкольное образование, компетентностный подход, профессиональная компетентность, методист, инновационные технологии, непрерывное образование, управление образованием.
Key words: preschool education, competency-based approach, professional competence, methodologist, innovative technologies, lifelong learning, educational management.

РЕЗЮМЕ:
Mazkur maqolada jahon ta’lim jarayonida keng qo‘llanilayotgan kompetensiyaviy yondashuv asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish masalalari yoritilgan. YUNESKO tomonidan ilgari surilgan “butun hayot davomida sifatli ta’lim olish imkoniyatlarini yaratish” konsepsiyasi doirasida maktabgacha ta’limning uzluksiz ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, ilg‘or xorijiy ta’lim muassasalari tajribalari (AQSh, Kanada, Xitoy va xalqaro tashkilotlar) asosida pedagog kadrlar tayyorlash va ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirish mexanizmlari ko‘rib chiqilgan. Maqolada maktabgacha ta’lim tashkiloti metodistining kasbiy kompetentligini rivojlantirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda boshqaruvning zamonaviy yondashuvlarini takomillashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta’lim tizimida sifat va samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.
РЕЗЮМЕ:
В статье рассматриваются вопросы совершенствования деятельности организаций дошкольного образования на основе компетентностного подхода, широко применяемого в мировой образовательной практике. В контексте концепции ЮНЕСКО «обеспечение возможностей качественного образования на протяжении всей жизни» проанализирована роль дошкольного образования как начального звена системы непрерывного образования. На основе опыта ведущих зарубежных образовательных и научных центров (США, Канада, Китай, международные организации) раскрыты механизмы повышения профессиональной компетентности педагогических кадров. Особое внимание уделено развитию компетентности методиста дошкольной образовательной организации, внедрению инновационных педагогических технологий и совершенствованию современных подходов к управлению дошкольным об-

разованием. Результаты исследования направлены на повышение качества и эффективности системы дошкольного образования.

SUMMARY:

This article examines the issues of improving the functioning of preschool education institutions based on the competency-based approach widely implemented in global educational practice. Within the framework of UNESCO's concept of "ensuring inclusive and equitable quality education and promoting lifelong learning opportunities for all," the role of preschool education as the initial stage of the lifelong learning system is analyzed. Drawing on the experience of leading international educational and research institutions (USA, Canada, China, and international organizations), the mechanisms for developing professional competence of pedagogical staff are explored. Special emphasis is placed on enhancing the professional competence of preschool methodologists, implementing innovative pedagogical technologies, and improving modern management approaches in preschool education. The findings of the study contribute to increasing the quality and effectiveness of the preschool education system.

Jahon ta'lim jarayonida kompetentsiyaviy yondashuv asosida tashkil etish miqyosida maktabgacha ta'lim tashkilotining YUNESKO tomonidan belgilangan xalqaro ta'lim konsepsiyasida " Butun hayoti davomida sifatli ta'lim olish imkoniyatlarini yaratish" dolzarb vazifa sifatida belgilandi.Ta'lim tizimida ta'lim turlari aro ta'lim tizimi xodimlari kasb-hunar dasturlari va metodikalarining xilma-xil variantlarini amalga oshirish bo'yicha tadqiqotlar olib borayotgan xorijiy ta'lim tashkilotlarining ham tajribalari o'rganilmoqda. Jumladan, Carl Wieman Science Education Initiative (CWSEI) loyihasida (Britaniya Kolumbiyasi), ta'lim samaradorligini oshirish mexanizmlarini takomilashtirish bo'yicha tadqiqotlar Purdue Universityda (AQSh) va JCM International Management Engineering Instituteda (Xitoy) hamda interaktiv ta'limni amalga oshirish bo'yicha tadqiqotlar BMTning International Institute for Sustainabie Development (IISD) kabi dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlarida olib borilmoqda.

O‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri milliy musiqa madaniyatining ajralmas tarkibiy qismi sanaladi. Mazkur jamoa torli, nafasli va zarbli cholg‘ular uyg‘unligidan tashkil topib, xalq musiqasining rang-barang tembr imkoniyatlarini namoyon etadi. Orkestr faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish ijrochilik tajribasi bilan bir qatorda pedagogik mahorat va psixologik yondashuvni ham talab etadi. Ayniqsa, dirijyor ijrochilarni bir maqsad atrofida birlashtirish hamda milliy musiqiy ruhni asrab qolishda yetakchi shaxs hisoblanadi.

Mazkur maqolaning asosiy vazifasi - O‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri bilan ishlash jarayonining metodik asoslarini, repertuar siyosatini, mashg‘ulot hamda sahna faoliyatini ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilishdan iboratdir.

Orkestr tarkibi va cholg‘ular guruhlari.

O‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri xalqning ko‘p asrlik musiqiy an’analarini mujassamlashtirgan badiiy tuzilma hisoblanadi. Uning tarkibi odatda bir nechta asosiy guruhlardan iborat bo‘ladi:

Nafasli cholg‘ular - nay va surnay orkestr tembrining yorqinligini ta’minlaydi. Ushbu cholg‘ular kuylarning milliy ohangdorligini kuchaytirib, melodik chiziqqa jonlilik bag‘ishlaydi.

Torli cholg‘ular - dutor, tanbur, sato, qashqar dutori orkestrning asosiy melodik negizini shakllantiradi. Ular kuylarning ham lirika, ham ritmik tomonini ifodalashda yetakchi o‘rin tutadi.

Zarbli cholg‘ular - doira, nag‘ora va boshqa urmalı asboblar umumiy ritmik asosni barqarorlashtiradi, tempni ushlab turadi hamda ijroning ichki harakatini boshqaradi.

Qo‘shimcha cholg‘ular - ayrim hollarda arfa yoki chang kabi cholg‘ular orkestr tovush palitrasini kengaytirib, badiiy bezak va ekspressivlikni kuchaytiradi.

Har bir cholg‘u guruhi o‘z vazifasini aniq bajargan taqdirdagina umumiy uyg‘unlik yuzaga keladi. Masalan, torli cholg‘ular melodiyani yetaklasa, zarbli cholg‘ular ritmik tayanch vazifasini bajaradi, nafasli cholg‘ular esa asarga milliy ruh va o‘ziga xos tembr rangini qo‘shadi. Shu bois dirijyor har bir guruh faoliyatini muvofiqlashtirib borishi zarur.

Dirijyorning funksional ahamiyati.

Orkestr faoliyatida dirijyor markaziy boshqaruv figurasi hisoblanadi. Uning vazifalari bir necha yo‘nalishni qamrab oladi.

Birinchidan, **musiqiy talqin (interpretatsiya)** - dirijyor asarning badiiy mazmunini ochib beradi, milliy ohang va ifodaviylikni to‘g‘ri talqin etadi.

Ayniqsa maqom yo‘nalishidagi asarlarda kuy uzluksizligi va ohang izchilligi uning nazorati ostida bo‘ladi.

Ikkinchidan, **texnik boshqaruv** - temp, dinamika, ritmik aniqlik va intonatsiya masalalari doimiy ravishda nazorat qilinadi. Turli guruh cholg‘ularining uyg‘unligi aynan shu jarayonga bog‘liq.

Uchinchidan, **psixologik yetakchilik** - dirijyor ijrochilarni ruhlantiradi, ularni bir maqsad sari yo‘naltiradi va jamoada sog‘lom ijodiy muhitni shakllantiradi. U har bir ijrochining individual imkoniyatini inobatga olgan holda boshqaruvni amalga oshiradi.

Mashg‘ulot jarayonining metodik bosqichlari.

Orkestr bilan ishlash muayyan tizimli bosqichlarga asoslanadi.

Individual mashg‘ulotlar jarayonida har bir ijrochi o‘z cholg‘usi texnikasini mukammallashtiradi, bezak va milliy ijro uslublarini o‘zlashtiradi.

Guruh mashg‘ulotlari esa ma’lum bir cholg‘u bo‘limi ichidagi uyg‘unlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Masalan, torli cholg‘ular o‘rtasida partiyaviy muvozanat, zarbli cholg‘ularda esa ritmik aniqlik ustida ishlanadi.

Umumiy orkestr mashg‘uloti bosqichida barcha guruhlar birlashtirilib, asarning yaxlit talqini ustida ish olib boriladi. Bu jarayonda dinamika, umumiy ohangdorlik va ifodaviylikka alohida e’tibor qaratiladi.

Repertuar siyosati

Repertuarni shakllantirish orkestr faoliyatining muhim tarkibiy qismidir. Tanlov quyidagi omillarga asoslanadi:

- ijrochilarning kasbiy darajasi;
- asarning texnik murakkabligi;
- milliy uslub va an’anaviy ohanglarni saqlash;
- tinglovchi auditoriyasining estetik tayyorgarligi.

Yosh jamoalar uchun sodda va xalqchil kuylar tanlanishi maqsadga muvofiq bo‘lsa, tajribali orkestrlar murakkab maqom asarlarini ham ijro etishi mumkin.

Repetitsiya jarayonini tashkil etish. Repetitsiya orkestr ishining asosiy tayyorgarlik bosqichi hisoblanadi. Amaliyotda bir nechta usullar qo‘llaniladi:

Bo‘limlar kesimida ishlash - har bir guruh mustaqil ravishda texnik masalalarni hal qiladi.

Yaxlit repetitsiya - barcha cholg‘ular birgalikda umumiy uyg‘unlik ustida ishlaydi.

Tahliliy yondashuv - ijro yozuvlarini tinglash orqali kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish.

Bunday tizimli ish ijro sifatini sezilarli darajada oshiradi.

Psixologik omillarning ahamiyati. Orkestr jamoasida ijobiy ruhiy muhitni shakllantirish muhim vazifalardan biridir. O‘zaro hurmat, ishonch va hamkorlik ijro samaradorligini kuchaytiradi. Dirijyor ijrochilarning charchoqlarini inobatga olib, ortiqcha zo‘riqishni kamaytirishi lozim. Rag‘batlantirish va motivatsiya ijodiy faollikni oshiradi.

Sahnaga tayyorgarlik jarayoni.

Konsert oldidan tayyorgarlik aniq reja asosida amalga oshiriladi. Mashg‘ulot jadvali belgilanadi, sahna joylashuvi va akustik sharoit tekshiriladi. Texnik vositalar sozlanadi va yakuniy ijro nazorati o‘tkaziladi. Sahnadagi muvaffaqiyat puxta metodik tayyorgarlik natijasidir.

Milliy uslubni asrash masalasi. O‘zbek xalq cholg‘ulari orkestrining asosiy vazifalaridan biri - milliy ijro an’analarini davom ettirishdir. An’anaviy ohanglar, bezaklar va cholg‘u texnikasi avaylab saqlanishi lozim. Bu orqali xalqning musiqiy merosi kelgusi avlodlarga yetkaziladi va milliy madaniyat ravnaq topadi.

Xulosa. O‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri bilan ishlash ko‘p qirrali va murakkab ijodiy jarayondir. U ijrochilik mahorati, pedagogik bilim va psixologik yondashuvni uyg‘unlashtiradi. Dirijyor ushbu jarayonda markaziy o‘rin egallab, orkestrning badiiy yaxlitligini ta’minlaydi hamda milliy musiqiy ruhni saqlaydi.

Tizimli mashg‘ulotlar, to‘g‘ri repertuar tanlovi, samarali repetitsiya va sahna tayyorgarligi orkestr faoliyatining muvaffaqiyatini belgilaydi. Eng muhimi, milliy uslubni asrash va rivojlantirish orqali xalqning boy musiqiy merosi davom ettiriladi.

Shu bois O‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri bilan ishlash jarayoni doimiy ilmiy izlanish va metodik takomillashtirishni talab qiladigan muhim san’at yo‘nalishi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alimov. F. O‘zbek xalq cholg‘ulari tarixi. Toshkent, 2015.
2. Karimov. S. Xalq cholg‘ulari orkestri metodikasi. Samarqand, 2017.
3. Ibrohimov. O. O‘zbek musiqa pedagogikasi. Toshkent, 2018.
4. Nazarov. T. Orkestr bilan ishlash metodikasi. Buxoro, 2016.
5. Sobirov. R. Xalq musiqasi va orkestr san’ati. Toshkent, 2019.
6. Rustamov. M. Repititsiya texnologiyalari. Farg‘ona, 2020.
7. Tursunov. A. Musiqa psixologiyasi. Toshkent, 2014.
8. Yusupov. K. Sahnada orkestr ishlash qoidalari. Samarqand, 2016.
9. Qodirov. H. Milliy musiqiy uslub va ijro. Toshkent, 2017.
10. Abdurahmonov. N. O‘zbek xalq cholg‘ulari va zamonaviy orkestr. Toshkent: O‘zbekiston, 2021

BO‘LAJAK TASVIRIY SAN’AT O‘QITUVCHILARINING KASBIY-METODIK TAYYORGARLIGINI DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA OPTIMIZATSIYASI NAZARIY-KONTSEPTUAL ASOSLARI

Bekmuratova Sh.N.
Andijon davlat pedagogika instituti
“Tasviriy san’at va misiqa ta’limi”
kafedrasi PhD, dotsent

Tayanch so’zlar: differensial, tarixб nazariy, metodik yondashuv, optimizatsiya, kompetensiya, metodologik, temperament, individual, kontrast, kasbiy-metodik, rivojlanish.
Ключевые слова: дифференцированный, историко-теоретический, методологический подход, оптимизация-компетентность, методологический, темперамент, индивидуальный, контраст, профессионально-методический, развитие.
Key words: differential, historical-theoretical, methodological approach, optimization-competence, methodological, temperament, individual, contrast, professional-methodical, development.

РЕЗЮМЕ:
Ushbu maqola hozirgi zamonda dolzarb bo'lib hisoblangan masala, bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini differensial yondashuv asosida optimizatsiyasi nazariy-kontseptual asoslari haqida yoritilgan.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье рассматривается актуальная проблема, теоретические и концептуальные основы оптимизации профессионально-методической подготовки будущих преподавателей изобразительных искусств на основе дифференцированного подхода.
SUMMARY:
This article discusses the currently relevant issue, the theoretical and conceptual foundations of optimizing the professional and methodological training of future teachers of fine arts based on a differential approach.

Bugungi kunda ham tasviriy san’at asarlari orqali insonlarning nafaqat badiiy-estetik didi rivojlantiriladi, balki ularning tarixiy taffakuri boyitib boriladi. Demak, tarixiy mavzudagi tasvirlangan tasviriy san’at asarlari birinchi navbatda tarbiyaviy funksiyalari bilan ahamiyatlidir.

Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisi san’at tarixi metodologiyasini bilishi ham zarur. Metodologiya esa muayyan tarixiy davr uchun mos bo‘lib, ularning

har birining xususiyatlarini anglash bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirishning muhim omili sifatida ahamiyatlidir. Zero, maktab tasviriy san’at dasturida tarixiy mavzudagi tasviriy san’at asarlarini o‘rganish, mashhur tarixiy shaxslarning obrazlarini tahlil qilishga oid o‘quv materiallarini o‘zlashtirish nazarda tutilganligi bois bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisi kasbiy-metodik jihatdan shu yo‘nalishda pedagogik faoliyat yuritishga tayyor bo‘lishi lozim.

Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisi madaniyat va san’atni shakllanish va rivojlanish bosqichlarini tarixan chuqur tushunib yetishida ularning tarixiy tasavvuri rivojlangan bo‘lishi muhim. Bu o‘z asarlarida o‘sha davrning hayot faoliyatini yorqinroq aks ettirishga undaydi. Masalan, ibtidoiy jamoa tuzumi san’ati tarixi, odamzod tafakkuri, his-tuyg‘ularining paydo bo‘lishi va rivojlanishidan boshlab, yer yuzida birinchi davlatlarning yuzaga kelishigacha bo‘lgan davr san’atini o‘z ichiga oladi.

Tasviriy san’at mashg’ulotlarida differensiallashgan o‘quv jarayonini tashkil etishda, ta’lim oluvchilarning rivojlanish ko‘rsatgichi ularning qobiliyatlariga qarab o‘quv yo‘llari, usullari, shakllari tanlab olinishi o’quv materialini taqdim etishda har bir guruhning ushbu jihatlarini inobotga olgan holda moslashtirish, to‘ldirish yoki optimallashtirishdan iboratdir. Differensiatsiya lotin tilidan olingan bo‘lib, “differentia”- farq, tabaqa mano’larini anglatadi.

Tarixiy manbalarni ko’rganimizda mashg’ulotlar jarayonida talabalarga differensial yondashuv tasviriy san’atning mazmunini o‘qitish rassom-pedagoglarning asosiy maqsadiga aylangan. Differensial yondashuv masalasi asosan, ikki yo‘nalishda olib boriladi: birinchisi, masalani pedagog-rassom amaliy namoyon etib, og‘zaki tushuntirib berar, ikkinchisi o‘quvchiga amaliy ko‘rsatilmasdan faqat og‘zaki tushuntirilar va izohlab berilar edi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, bu ikki yo‘nalishni bir-biridan ajratib yoki qarama-qarshi qo‘yish mumkin emas. Chunki u yoki bu yondashuvda o‘quvchining qobiliyati va layoqati hisobga olinib kelingan hamda tushuntirilayotgan materialning murakkabligiga bog‘liq bo‘lgan.

XX asr boshlarida bolalar tasviriy ijodi borasida biogenetik nazariya yuzaga keldi. Bu borada nemis olimi G.Kershenshteyner, rus san’atshunosi A.Bakushinskiy, amerikalik J.Dyupyuilar faollik ko‘rsatdilar. Ularning fikriga qaraganda bolalar badiiy ijodiga aralashmaslik kerak. Ular erkin ijod qilishlari lozim. Ularning ijodiga aralashib ta’limni tezlashtirib bo‘lmaydi. Shuning uchun xam yosh xususiyatiga mos xolda bosqichma- bosqich topshiriqni o’zlashtirib boradi. Xar bir bosqichda bolaning fikrlari, his-tuyg‘ularini xisobga olib o‘zlashtirish jarayonini nazoratga olish muhim xisoblanadi. Shuning

uchun bolalarning ijodiga rahbarlik qilish, aralashish jinoyatdir deb yozdilar. Keyinchalik bu g‘oya “Erkin tarbiya” nomini oldi.

Tabaqaiashtirilgan ta'lim asosida o‘quvchilar tanlangan mutaxassisligi bo’yicha chuqur bilim asoslarini egallashadi va amaliy malakalarga ega bo’lishadi. Tabaqalashtirilgan ta'lim kasb tanlashning asosi hisoblanadi va o’quvchilarning o‘z qiziqish va moyilliklari asosida kasb tavyorgarligi sirlarini egallashlarida muhim o‘rin tutadi”. Ushbu qarashda o'quvchilarni tabaqalashtirishda asosiy mezon sifatida ularning qaysi predmetga qiziqishlari yuqori ekanligi hamda bilimlarni 0‘zlashtirish imkoniyatlari tanlab olingan. Aynan bu yondashuv bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini differensial asosida rivojlantirishga asos bo‘ladi.

Fransiya umumiy o‘rta ta’lim maktablarida individual o‘qitish o‘ziga xos ravishda rivojlanmoqda. Mamlakat pedagog-olimlarining fikrlariga qaraganda bunday ta’lim turining Fransiyada taraqqiy etishiga asosiy sabab o‘quv materiallarining ko‘pchilik o‘quvchilar tomonidan yaxshi o‘zlashtirilmayotganligi hisoblanar ekan. Taniqli fransuz pedagogi R. Dottrens tomonidan ishlab chiqilgan dasturlarda o‘quvchilarning aqliy qobiliyatlari, ularning ish tezligi, ritmi, charchoqqa bardoshliligi, chidamliligi, qiziqishlari hisobga olinib, individual o‘qitishga alohida e’tibor berilgan. Ayrim hollarda topshiriqlarni o‘quvchilarning o‘zlari tanlashlariga ham imkon beriladi. Loyiha muallifi o‘quvchilarning individual ishlariga rahbarlik qilishning ikki yo‘lini sinovdan o‘tkazgan. Ulardan biri, minimum dasturni amalga oshirishga qaratilgan bo‘lsa, ikkinchisi qobiliyatli o‘quvchilarning bilimlarini boyitish, ularni murakkab va ijodiy topshiriqlar orqali rivojlantirishni nazarda tutadi.

MDH olimlaridan D.Kosyakov differensial ta'limni tadqiq etar ekan, ta’lim oluvchilarni guruhlarga ajratish mezonlariga alohida to'xtaladi va bunda quyidagi belgilarni inobatga olmaslik lozimligini alohida takidlaydi:

Differensiallashtirish natijasida quyidagi xususiyatlarni aniqlash mumkin bo‘ladi:



Individuallashtirilgan ta’lim bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan ikkinchi bir pedagog olim R.Genening nazariyasi ko‘pchilik mutaxassislar tomonidan ma’qullanmoqda. Bunda bloklar, mavzular va kichik mavzularning maqsadi, vazifalari belgilab olinadi, so‘ngra testlar yordamida o‘quvchilarning dastlabki bilim va malakalari aniqlanadi. Masalan, tasviriy san’atdan individual o‘qitishga mo‘ljallangan dasturlarda tez-tez testlar o‘tkazib turilishi ham qayd qilinadi. Testlar yordamida olingan natijalarga ko‘ra o‘quvchilar o‘quv materialining 85 foizini o‘zlashtirsalar, navbatdagi o‘quv materiallarini o‘rganishga o‘tishlari mumkin. Aks holda, o‘quvchi o‘zlashtirilmay qolgan materiallar bilan shug‘ullanishni davom ettiraveradi.

T.V.Masharova, A.V.Matveev, L.V.Bayborodova o‘quv jarayonini differensiallashtirishni ta’limning demokrativligi va insonparvarligi tamoyillarining amaldagi tatbiqi sifatida qaraydi: “Ta’limni differensiallashtirish konsepsiyasi ta'lim tizimini demokratlashtirish va insonparlashtirish tamoyillarini aniqlovchi asosiy omil sifatida nomoyon bo'ladi.” Bu esa ijodkor uchun kata inkoniyat degani ya’ni qachonki ijodkaor erkin bo’lsagina undan yanngi g’oyalar ustida ishlaydi.

S.A.Izyumova ta’lim jarayonini differensiallashtirish jarayonini psixologik va pedagogik nuqtai nazardan tadqiq etadi. U shaxsning qobiliyatini miya faoliyati hamda motivatsiya, xarakteri temperament kabi individual xususiyatlari bilan uzviy aloqadorlikda o‘rganadi. Ushbu aloqadorlik tadqiqi natijasidan ta'limni differensiallashtirishda foydalanishda foydalanishga doir tavsiyalar ishlab chiqadi.

Ma’lumki pedagogikada ta’limni individuallashtirish va differensiallashtirish tushunchalari birga ishlatiladi. Ba'zi manbalarda ushbu tushunchalni umumiy holda ham qo'llaniladi. I.Unt ushbu tushunchalarni pedagogik nuqtai nazardan farqlab ko‘rsatadi. Uningcha, ta'limni individuallashtirish bu - o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning qaysi xususiyati bo‘lishidnn qat'iy nazar ta'limning

barcha shakl va metodlarida ularning individual xususiyatlarini inobatga olishdir.

Ta'limni differensiallashtirish esa bu o‘quvchilarning individnal xususiyatiarini inobatga olishning shunday shakliki, unda o'quvchilar ma'lum bir xususiyatlariga ko‘ra guruhlarga ajratiladi va alohida tahsil oladilar, odatda bunday ta'lim jarayoni bir nechta o‘quv rejasi va dasturi asosida amalga oshiriladi.

Demak, differensial ta'lim bu - talabalarning mashg'ulotlar jarayonida muhim bo‘lgan umumiy qonun-qoidalariga ko‘ra ajratilgan bir xil guruhlari bilan olib boriladigan ta'limning tashkiliy shakli talabalarning muhim didaktik xususiyatlariga ko‘ra tabaqalashtirilgan guruhlari uchun o‘quv materialini moslashtirishni nazarda tutuvchi pedagogik tizim bo‘limi.

Tasviriy san'atda differensial ta'lim tushunchasi ta'limga differensial yondashuv muammosini o‘rganishni taqozo etadi. Tasviriy san'at mashg'ulotlar jarayonida differensinl yondashuv bu - turli tipdagi guruhlar uchun uning kontingentining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish maqsadida turlicha ta'lim vaziyatini yaratish; ya'ni bilamizki tasviriy san'atda boshqa fanlardan farqli tomonini ham hisobga olib o'quv, metodik, boshqaruv pedagogik va psixologik mashg'ulotlar tizimini tashkil etishdir.

Hozirgi kunda zamonaviy tasviriy san'at pedagogikasini texnologiyalashtirish muammosi chuqur kirib borayotganligini inobatga olgan holda, differensial ta'lim texnologiyasi tushunchasiga ham to‘xtalib o‘tamiz. Differensial ta'lim texnologiyasini asosiy maqsadi talabalarni ta'lim vositalarining o‘zaro hamkorligi faoliyatini loyihalashtirish, mashg'ulotlar jarayonini tizimli tashkil etish nazarda tutilgan. Bu jarayonni tasviriy san'atda rangtasvir misolida oladigan bo'sak o'qituvchi milliy kiyimdagi inson qiyofasini tasvirlash mavzusini talabalarga amaliy tarzda ko'rsatib o'tadi. Bilamizki tasviriy san'atda portret ishalsh eng murakkab jarayon hisoblanadi. Insonning eng harakterli jixatlarini ko'rsatib bera olishi lozim buning uchun talaba plastik anatomiya fanini yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi muhim. Insoni qiyofasini o'ziga o'zshatish bilan birga uning plastikasiga ham ahamiyatli bo'shi muhim. Bunda tasvirlayotgan qiyofani o'qituvchi tomonidan video tasvirga olib talabalarga o'zlashtirishlari uchin qo'llanma sifatida taqdim etiladi. Talabalarning o'zlashtirish qobilyatiga qarab amaliy mashg'ulotlar jarayonini turli xususiyatlariga ko‘ra moslashtirish nazarda tutadi.

Tasviriy san'atda differensial ta'lim quyidagi tamoyillar asosida amalga oshiriladi:

- talabalarning aniq akademik yoki psixologik xususiyatlariga ko’ra dinamik xarakterda ekanligi;
- o’quv miteriailarining variativligi va adaptivligi;
- differensial ta’limning individualligi;
- Ta’limning demokratik va insonparvar harakterda ekanligi. Tasviriy san’atda differensial ta'lim talabalarning quyidagi xususiyatlariga ko‘ra tabaqalashtiriladi.

1. Qobilyati va qiziqishlariga
2. Kasbiy kompitentligini rivojlanishiga
3. Fazoviy tassavurlarini shakllanishiga
4. Tanlangan yo’nalishiga va h.k.

Dunyoqarashi turlicha bo‘lgan talabalarni guruhlarga ajralish o‘qituvchidan o‘quv materiallarini turlicha shakl va metodlardan foydalangan holda taqdim etishni talab etadi. Tasviriy san’atda shunday narsa borki uni so’z bilan tariflash mushkul shunday hollarda uni faqat amaldagina ko’rsata olish mumkin. Shunday jarayonlarda o‘quv materiali odatda o‘rta darajada o‘zlashtiruvchi talabalar uchun mo‘ljallandi. 0‘qituvchining vazifasi ushbu materialni o'zlashtirishlari uchun yuqori va quyida darajada intellektual salohiyatga ega talabalar uchun qo‘shimcha materiallar ishlab chiqishdan iborat. Barcha fanlarda bo’lganlig kabi tasviriy san’atda xam yuqori va past darajada o‘zlashtiruvchiIar uchun topshiriqlar tizimi tayyorlanadi. Tasviriy san’atda shunday narsa borki talaba faqat o’z ustida amaliy mashg’ulot olib borsagina amalga oshira oladi. Amaliy mashg’ulot bilan nazarya uyg’un holatda bo’lish zarur. Chunki nazaryani o’qib amali ish qilmasa talabada o’garish sezilmaydi lekin nazaryani bilmasdan xam amaliy mashg’ulot kutilgan natijaga erisha olmaydi faqatgina talabada ruxiy tushkunlik paydo bo’ladi.

Talabalarning psixologik xususiyatlariga ko‘ra mash’gulotlar olib borilsa topshiriqlar davomiyliga natija beradi. Kuzatuvlar natijasida tasviriy san’atda taxsil olivchi talabalarga ko’proq ularni rag’batlantirish itelektuval rivojlanishiga yordam beradi. Kimdir zo’r chiza olmas lekin rang ko’rish qobilyati zo’r bo’lishi mumkin, boshqasida esa teskarisi xar bir jarayon insonda mexnat orqali rivojlanadi. Masalan, tasviriy san’atda eng keraklisi xotirasi, tatakkuri diqqati kabilar. Tasviriy san’atda differensial ta’lim jarayonida o‘qituvchining vazifasi talabalarning iqtidorini aniqlash, shunga ko‘ra guruhlarga ajratish emas, ularning bir tizim orqali rivojlanishdan orqada bo‘lgan psixologik xususiyatlarini takomillashlirish, ularni ijodiy tafakurini rivojlanishiga ko’maklashishdan iborat.

Mashg'ulotlar jarayonida bilimlarni o'zlashtirish darajasiga ko'ra differensiallashtirish past va o'rta darajada o'zlashtiruvchi talabalarni topshiriqlar asosida rag'batlantirishdan iboratdir. O'zlashtirishlariga ko'ra tabaqalashtirishda talabalarning o'zlashtirishlarini doimiy ravishda tahlil qilib borish talab etiladi. Ular diomiy ravishda kuzatuvlar amalga oshirilishi san'atga bo'lgan motivatsiya pasayishi kuzatilishi mumkin. Bunda talabalar o'zlashtirish darajalariga qarab ikki guruhga ajratiladi. Bunda baxolash mezonlaridan foydalaniladi. Ularning bilimlarni o'zlashtirishlaridagi muommolar aniqlanadi va korreksiya ishlari amalga oshiriladi.

Tasviriy san'atda talabalarning ijodiy qobiliyatlariga ko'ra differensiallashtirishda ta'lim jarayoni ham o'ziga xos tarzda amalga oshiriladi. Masalan, talabalar kommunikativ qobiliyatiga, akademik qobiliyatiga ko'ra, didaktik qobilyatga ko'ra, kognitiv qobiliyatiga ko'ra guruhlarga ajratilishi mumkin. Tasviriy san'atda rassom va rassom pedagog degan tushuncha bor. Rassom faqatgina o'zi ijod qila olsa rassom pedagog esa o'rgatishni o'rganadi va ijodiy tafauri rivojlangan bo'lishi muhim. Bunday bilimlarga ega bo'lish uchun pedagogik qobilyatning yaxshi rivojlanmagan turlarini rivojlantirishga doir topshiriqlar tizimi berib boriladi.

Tasviriy san'atda talabalarni qiziqishi muhim jarayon hisoblanadi. Qiziqishlari va moyillikiargi ko'ra tabaqalashtirish differensial yondashuvda keng qo'llaniladi. Ushbu guruhlarda talabalar qiziqishlariga ko'ra topshiriqlar bilan mashg'ul bo'ladilar. Ushbu qiziqishlar keyinchalik ma'lum bir qobilyatning rivojlanishiga va o'z navbatida boshqa qobiliyat turlarini ham takkomillashtirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bulatov S.S. Ustoz va shogird odobi. T.: 2012, Nizomiy nom. TDPU. Metodik tavsiyanoma. - 210 b.

2. Hasanov R. Tabaqalishtirilgan ta'lim. Muammo va yechim. // Ma'rifat gazetasi. 2003. 15 noyabr.-8-9 b.

3. Usmonov O. Komoliddin Behzod va uning naqqoshlik maktabi. –Toshkent.: Fan. 1997. 256 b.

4. Uchitelya-ucheniki: "shkolnыy parad" znamenitыx xudojnikov. "Artxiv" - sotsialnaya set vokrug iskusstva //www.artchive.ru

5. Chyennino Chyennini. «Traktat o jivopisi». M.: Prosvesheniye. 1933.-s.76.

6. YErmolayeva-Tomina L. B. Psixologiya xudojestvennogo tvorchestva: Uchebnoye posobiye dlya vuzov. -M.: Akademicheskiy Proyekt, 2003. - 304 s.

7. Помещенко В.Н. К вопросу о необходимости формирования социалной активности у воспитвников суворовского военного училища. Наука современности: проблемы и решения. 2019.С.67-70

8. Gangne R.M., Briggs L.J. Principles of Instructional Design. Sekond ed. New York., 1971.

9. Дифференсиал обучениэ (по материал Т.Б.Машаровой, АВ.Матвеева, Л.В.Байбородовой), URL: http: //ciln web.yspu.org/linkl/metod/met49/nodel6.html (data obrazeniya11.01.2013)]

СОЦИАЛЛЫҚ ПЕДАГОГИКА

ЖАСЛАРДЫҢ РУЎХЫЙ МӘДЕНИЯТЫН ҚӘЛИПЛЕСТИРИЎ

Хожаметов А.А.
п.и.б.ф.д. (PhD)., доцент.
Қары Ниязий атындағы Тәрбия педагогикасы миллий институты
Қарақалпақстан филиалы еркин излениўшиси

Таянч сўзлар: маънавият, маънавий-маърифий, талаба-ёшлар,дастур, миллий педагогика, дунёқараш,урф-одат,одоб-ахлоқ.
Ключевые слова: духовность, духовно-воспитательный, студенты и молодежь, программа, национальная педагогика, мировоззрение, традиция, нравственность.
Key words: spirituality, spiritual and educational, students and youth, program, national pedagogy, worldview, tradition, morality.

РЕЗЮМЕ:
Ушбу мақолада миллий маънавиятимиз, қадриятларимиз, илм-фан соҳасидаги ота-боболаримиздан қолган меросларнинг қайта тикланиши, халқимизнинг миллий ўзлигини англаш жараёнининг усиши, маънавий маданият ва унинг таркибий қисми сифатида таълимга бўлган эътибор ҳақида яна олимларимизнинг келажак ёш авлоднинг маданий таълим тарбияси жараёнини йўлга қуйиш масалаларибўйича фикр мулоҳазалар келтириб ўтилган.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье представлены взгляды наших ученых на восстановление национальной духовности, ценностей и наследия, оставленного нашими предками в области науки, развитие процесса понимания национальной идентичности нашего народа, внимание, уделяемое духовной культуре и образованию как ее составной части, а также вопросы организации процесса культурного воспитания будущего молодого поколения.
SUMMARY:
This article presents the views of our scholars on the restoration of national spirituality, values, and the scientific legacy left by our ancestors, the development of an understanding of our people's national identity, the attention paid to spiritual culture and education as an integral part of it, and the organization of the cultural education process for the future generation.

Ғәрезсиз Өзбекстанның раўажланыўы усы елде жасайтуғын ҳәр бир шахстың, әсиресе, жаслардың руўхый жетилисиўине көп тәреплеме байланыслы. Себеби, Мәнаўият - инсанның, халықтың, жәмийеттиң, мәмлекеттиң күш-қүдирети.

Жоқарыдағы пикирлерден келип шығып айтыў мүмкин, руўхый мәденият терең тарийхый-философиялық тийкарларға ийе болып, бир қатар факторлар бирлиги сыпатында көринеди.

Атап айтқанда, илимпаз Д.С.Абдуллаеваның атап өтиўинше, әсирлер даўамында түрли көринислерде сақланып келген өтмиш ҳаққындағы билимлер ертеңги күн ушын зәрүр болған жуўмақларды шығарыўға тийкар болады. Миллеттиң өтмиш ҳаққындағы түсиниклери миллий тил, үрп-әдетлер, тарийхый жанрдағы көркем әдебият үлгилери, нақыл-мақаллар, дәстанлар, тарийхый қосықлар ҳәм халық аўызеки дөретиўшилигиниң басқа түрлери, жер атамалары сыяқлы руўхый, архитектуралық естеликлер, сийрек гезлесетуғын китаплар, қолжазбалар, буйымлар сыяқлы материаллық мәденият түрлеринде жәмленген миллий тарийхый яд ҳаққында да сондай айтыў мүмкин. Объективлестирилген материаллық ҳәм руўхий мәденият елементлери болса, субъектив формадағы миллий тарийхый ядтың ол ямаса бул қатламларының актуалласыўының әҳмийетли дереги есапланады[2].

А.С.Ачилдиёвтың пикиринше, тарийхый жанрда жазылған көркем әдебиятлар тарийх, ата-бабалардың өмир жолы, олардың көрсеткен мәртликлерин сәўлелендириў арқалы ибрат үлгисине айланып, ҳақыйқый тәрбияшыға, миллеттиң тарийхый ядын оятыўшы әҳмиетли факторға айланып барады. Абдулла Қадирийдиң “Өткен күнлер”, “Меҳрабтан шаян”, Айбектиң “Наўайы”, Ҳамид Алымжанның “Муқанна”, Әдил Якубовтың “Улығбек ғәзийнеси”, Пиримқул Қадировтың “Жулдызлы түнлер”, “Хумаюн ҳәм Акбар”[4], Қарақалпақ әдебиятындағы “Алпамыс”, “Қырық қыз”, “Қоблан”, “Едиге”, “Шәрияр”сыяқлы тарийхый жанрдағы көркем шығармалары ҳәм олар тийкарында жаратылған фильмлер, спектакльлер миллетимиздиң тарийхый ядының өсиўинде әҳмиетли роль атқарған ҳәм атқарып келмекте. Олардың баҳасы анық бир тарийхый шахс ямаса дәўирге байланысқаны менен емес, ал белгили бир дәўирге тән болған турмыс ҳәм ойлаў тәризи, үрп-әдет ҳәм дәстүрлер, халықтың мәденияты ҳаққында бир пүтин түсиник пайда етиўге жәрдем бериўи менен де белгиленеди.

Соның менен бирге, бундай әдебиятларды оқыў арқалы студент жаслар баянланып атырған ҳәдийседен тәсирленип, ләззет алады, шығарманың бас қаҳарманларына унамлы еликлеў жүзеге келеди деп айтыў мүмкин. Қалаберди, өз ата-бабасына, оның искерлигине, ис-ҳәрекетине ҳүрмет, үлги алыў сезими оянады.

Руўхыйлықтың қәлиплесиўинде және бир әҳмиетли тәреп бар, оны айрықша есапқа алыў керек. Бул - руўхий мийрасхорлық.

Руўхый мийрасхорлық - миллий-руўхий қәдириятлар, үрп-әдет, дәстүр, идеялар, тәжирийбе, билимлердиң әўладтан-әўладқа мийрас болип өтиўи, руўхияттың үзликсиз процесс сыпатындағы өзгериўшеңлиги ҳәм әўладлар ортасында руўхий байланыслардың үзликсиз байланыслылығын аңлатыўшы түсиник. Бул процесс адамзаттың раўажланыўы даўамында топланған руўхый байлықларды бир пүтин ҳалда әўладларға жеткериў, адамлардың дүнья қарасы, мәдений дәрежеси, билими ҳәм мәнаўиятының байыўына хизмет етеди. Мийрасхорлықтың жергиликли формасында мәденияттың кәсиплик, миллий, этникалық ҳәм басқа тәреплери аңлатылса, пүткил инсанияттың руўхий мүлкине айланған руўхий байлықларда руўхий мийрасхорлықтың улыўма инсаныйлық формасы көринеди.

Студент жаслар мәдениятын раўажландырыўда миллий педагогика жетискенликлеринен нәтийжели пайдаланыў мақсетке муўапық. Соңғы жыллары педагогикалық изертлеўлердиң әмелиятқа енгизилиўинде ҳәр қыйлы көзқараслар көзге тасланбақта. Айырым жағдайларда изертлеўдиң нәтийжелилиги ҳаққында унамсыз пикирлер де билдирилмекте. Бизиң пикиримизше, тийкарында изертлеўлерди әмелиятқа енгизиў жолларын сәўлелендириўге хызмет ететуғын илимий-методикалық характердеги материалларды ислеп шығыўға айрықша зәрүрлик бар. Соның ишинде, студент жаслар мәдениятын раўажландырыўға байланыслы бир қанша фундаментал миллий педагогикалық изертлеўлер әмелге асырылған болып, оларға қайта-қайта мүрәжат етиў ҳәм нәтийжели пайдаланыў мақсетке муўапық.

Педагог илимпаз О.Мусурмонова тәрепинен әмелге асырылған изертлеўлердиң үлкен бөлегин әйне улыўма орта билим бериў мектеби оқыўшыларында руўхый мәдениятты раўажландырыў мәселеси қурайды. Әсиресе, илимпаздың “Әдебият ҳәм әдеп-икрамлылық тәрбия”, “Оқыўшылардың руўхый мәдениятын қәлиплестириў”, “Әдебият сабақларын шөлкемлестириўдиң нәтийжели формалары”, “Жоқары класс оқыўшылары руўхый мәдениятын қәлиплестириўдиң нәтийжели формалары ҳәм методлары”, “Руўхый қәдириятлар ҳәм жаслар тәрбиясы” сыяқлы монография ҳәм методикалық қолланбаларында баян етилген концептуал педагогикалық көзқараслары дыққатқа ылайық.

Илимпаз мектеп оқыўшыларында руўхый мәдениятты қәлиплестириў тийкарын, ағартыўшылық-руўхый қәдириятлар менен байланыста талқылаў зәрүрлигин атап өтеди. Мине сол себепли “Жоқары класс оқыўшылары руўхый мәдениятын қәлиплестириўдиң форма ҳәм методлары” атлы китабында ағартыўшылық-руўхый қәдириятларға төмендегише сыпатлама

береди: “Ағартыўшылық-руўхый қәдириятлар - жас әўладтың руўхый мәдениятын қәлиплестириўге тәсир етиўши миллий қәдириятлар тек ғана социаллық емес, бәлким педагогикалық машқала да болып есапланады” [5].

Сондай-ақ, илимпаз оқыўшыларда руўхый мәдениятты раўажландырыўда көпшилик жағдайларда оқытыўшылар итибарынан шетте қалатуғын “руўхый искерлик” түсинигиниң миллий мәниси ҳәм әмелий әҳмиетин анық мысалларда көрсеткен: Руўхый искерлик “искерлик” түсинигине салыстырғанда тар мәниске ийе болып, арнаўлы таярлықсыз оның болыўы мүмкин емес, болмаса ол искерликтиң бир түри болып қалады. Искерлик сондай процесстен ибарат, онда инсан тәбиятты қайта пайда етеди ҳәм оны өзгертеди, сол арқалы инсан өзин актив субъектке, өзи өзлестирип атырған тәбият қубылысларын болса өз искерлигиниң объектине айландырады. Сондай-ақ, оқыўшы да искерликтиң белсенди шахсы болып, өзи өзлестирип атырған пән, әдебият, дин, мәденият ҳәм басқа руўхий-әдеп-икрамлылық қәдириятларды өз искерлигиниң таяныш ноқатына айландырады, бул таяныш ноқатты үйрениў, өзлестириў нәтийжесинде оның минез-қулқы, ис-ҳәрекетинде әдеп-икрамлылық, сиясий, диний, гөззаллық сыяқлы руўхий мәдениятттың басқа қурамлық тәреплери қәлиплесип барады.

Педагог илимпаз М.Қуронов тәрепинен әмелге асырылған изертлеўлер ашық мәлимлеме системасы шараятында студент жасларды миллий руўхыйлығымызға жат идеялардан сақлаўдың педагогикалық-профилактикалық системасының ислеп шығылғанлығы менен айрықша әҳмийетке ийе. Ең тийкарғысы, илимпаз тәрепинен усыныс етилген нейролингвистикалық программаластырыў технологияларың үзликсиз билимлендириўдиң барлық басқышларында нәтийжели пайдаланыў мүмкин.

Сондай-ақ, М.Қуронов тәрепинен изертленген жаслар дүнья қарасында саламат исеним, исеним ҳәм миллий қәдириятлардың жат идеологияларға қарсы иммунитетти тәрбиялаўда төмендеги тәреплерге үзликсиз билимлендириў системасында тәлим-тәрбия процесслерин шөлкемлестириў ҳәм басқарыўда айрықша итибар қаратыў лазым:

1) студент-жасларды миллий ғәрезсизлик идеялары менен қуралландырыў;

2) турмыс ҳәдийселерин дүнялық, илимийлик принципи тийкарында анализлеў ҳәм баҳалаўға үйретиў;

3) өз көзқарасларын қорғаўға үйретиў;

4) бузғыншы идеологияларға ҳәр қашан, ҳәмме ўақыт таяр болыўлары зәрүр[6].

Педагог илимпаз Д.Каипбергенова тәрепинен әмелге асырылған изертлеўлерде бүгинги күнде студент жасларда әдеп-икрамлылық дүньяқарасын қәлиплестириў усылларына байланыслы бир қатар заманагөй қатнасларды өзинде сәўлелендиргенлиги менен түсиндириледи. Илимпаздың атап өтиўинше, мәмлекетимизде өсип киятырған жас әўладтың ҳәр тәреплеме бәркамал камалға келиўи, олардың уллы ата-бабаларымызға мүнәсип мийрасхорлар болыўы ушын барлық имканиятлар шөлкемлестирилип келинбекте. Елимиздиң түрли аймақларында қурылып атырған саўлатлы билимлендириў мәкемелери, спорт объектлери ҳәм басқа да имканиятлардың барлығы жасларымыздың физикалық жақтан саламат, руўхый жақтан жоқары болып камалға келиўине қаратылған. Буған жуўап ретинде жаслары мыз ерисип атырған жетискенликлер де аз емес. Усы жерде атап өтиў керек, бүгинги күнде глобалласыў шараятында руўхый қәўиплер күшейип баратырғанына да итибар қаратыў керек. Олар биринши нәўбетте жасларды өз дузағына тартыўға қаратылған [7].

Ҳәзирги глобалласыў шараятында дүняда күшейип баратырған ҳәр қыйлы руўхый қәўиплердиң алдын алыў, “ғалабалық мәденият” тың зыянлы тәсиринен жасларды қорғаў мәселелери барған сайын үлкен әҳмийетке ийе болмақта. Жас әўлад арасында саламат турмыс тәризин үгит-нәсиятлаў, жаслардың санасын жат идеялар тәсиринен сақлаў, информацион ҳүжимлерге қарсы идеологиялық иммунитетти қәлиплестириў, жынаятшылық, ҳуқық бузарлық, нәшебентлик, диний экстремизм ҳәм терроризм иллетлериниң алдын алыўға жәрдемлесиў және жасларда ўатан сүйиўшилик сезимин арттырыў зәрүр. Информацион глобалласыўы себепли ҳәр қыйлы идеологиялық тәсирлер, әсиресе, жаслардың санасын ийелеўге қаратылған ғәрезли ҳүжимлер барған сайын күшейип атырған бүгинги дәўирде бундай қәўип-қәтерлерге қарсы бәркулла сергек болып жасаў ҳәр биримиздиң парызымыз болып есапланады. Елимизде жас әўладтың руўхый-әдеп-икрамлылық тәрбиясын дурыс қәлиплестириў, оларды ҳәр қыйлы қәўип-қәтерлерден қорғаў, сана-сезимлерин жоқарылатыў руўхый-ағартыўшылық тараўларда әмелге асырылып атырған реформалардың ең тийкарғы бағдарларынан бири болып есапланады[7].

Инсанның тәғдири, келешектеги жетискенликлери яки сәтсизлиги, бахытлы яки бахытсызлығы, кәсип таңлаўы, ҳәтте кейпияты, оның шаңарақлық орталығына байланыслы. Шаңарақтың тәғдири болса инсанның өзине байланыслы. Жәмийеттиң руўхый келбети шаңарақлардың қандай екенлигине байланыслы екенлиги әзелий ҳақыйқат. Себеби, шаңарақ жәмийеттиң социаллық-руўхый буўыны, киши бир ўәкили болып, әйне

шаңарақ негизинде халқымыздың бүгинги күни ҳәм келешеги жаратылады. Егер шаңарақта тәртип-интизам болса, оның ағзалары бул пазыйлетлерди искерлик процессине өткереди ҳәм жәмийетлик мийнет искерлигинде қолланылади. Бул болса, олардың өз хызмет ўазыйпаларын жоқары дәрежеде орынлаўына себеп болады.

Шаңарақ бул әдеп-икрамлылық, мийнет сүйгишлик тийкарында қурылған болыўы, инсанлар арасындағы қарым-қатнас ҳәм сөйлесиўлерде жүдә әҳмийетли ҳәм шахстың минез-қулқы, жүрис-турысында айрықша әҳмийетке ийе. Егер шаңарақ өз перзентин Ўатанға муҳаббат ҳәм садықлық руўхында тәрбияласа, бул сезим оған пүткил өмири даўамында жолдас болады. Президентимиз Ш.М.Мирзиёев “Заманагөй билим ҳәм көнликпелерге ийе, мәмлекеттиң мүнәсип келешеги ушын жуўапкершиликти өз мойнына ала алатуғын бәркамал, мақсетке умтылыўшаң ҳәм күш-ғайратлы жасларды тәрбиялаў мәмлекетти турақлы ҳәм жедел раўажландырыўдың ең әҳмийетли шәрти” - деген еди.

ПАЙДАЛАНЫЛҒАН ӘДЕБИЯТЛАР:

1. Президент Шавкат Мирзиёев Жаслар ҳәм студентлер форумында қатнасыў. 30.06.2021. https://president.uz/uz/lists/view/4461.

2. Абдуллаева Д.С. Миллий тарихий хотиранинг моҳияти ва ривожланишининг ўзига хос хусусиятлари (ижтимоий-фалсафий таҳлил): Дисс фал. фан. ном. – Т., 2006. – 155 б..

3. Қуронов М. Миллий тарбия. - Т.: Мәнаўият, 2007. - 240 б. 35-б.

4. Ачилдиев А.С. Проблема взаимодействия национального самосознания и национальной культуры: Автореф...канд.филос.наук. – Т., 1994. – 22 с.

5. Мусурмонова О. Юқори синф ўқувчиларининг маънавий маданиятини шакллантиришнинг шакл ва методлари. - Т.: Фан, 1995. - 165 б.

6. Қуронов М. Мафқуравий таҳдидлар ва ёшлар тарбияси. - Т.: Академия, 2008. - 88 б.

ВОЯГА ЕТМАГАННИ МАХСУС ЎҚУВ-ТАРБИЯ МУАССАСАСИГА ЖОЙЛАШТИРИШ ТАРЗИДАГИ МАЖБУРЛОВ ЧОРАСИНИНГ ЖИНОИЙ-ҲУҚУҚИЙ ТАВСИФИ

Аметова А.М.
Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат университети мустақил изланувчиси

Таянч сўзлар: вояга етмаган, жиноят, ҳуқуқий таъсир чораси, жазо, ҳулқ-атвор, омил. тарбия.
Ключевые слова: несовершеннолетние, преступление, судебное разбирательство, наказание, поведение, фактор, образование.
Key words: minors, crime, trial, punishment, behavior, factor, education.

РЕЗЮМЕ:
Ушбу матнда вояга етмаган шахсни махсус ўқув-тарбия муассасасига юбориш жиноят-ҳуқуқий таъсир чораси сифатида таҳлил қилинган. Бу чоранинг моҳияти жазо қўллаш эмас, балки вояга етмаганнинг хулқ-атворини тузатиш, салбий омилларни бартараф этиш ва уни ижтимоий муҳитга мослаштиришга қаратилган. Институтнинг тарбиявий ва профилактик аҳамияти алоҳида қайд этилган.
РЕЗЮМЕ:
В данном тексте анализируется направление несовершеннолетнего в специальное учебное заведение как мера воздействия на уголовное право. Суть этой меры заключается не в наложении наказания, а в коррекции поведения несовершеннолетнего, устранении негативных факторов и адаптации его к социальной среде. Особо отмечается воспитательно-профилактическое значение данного учреждения.
SUMMARY:
This text analyzes the placement of minors in a special educational institution as a measure of criminal justice. The essence of this measure is not the imposition of punishment, but rather the correction of the minor's behavior, the elimination of negative factors, and their adaptation to the social environment. The educational and preventive value of this institution is particularly emphasized.

Вояга етмаганни махсус ўқув-тарбия муассасасига жойлаштириш институти жиноят-ҳуқуқий таъсир чоралари тизимида алоҳида ўрин тутади. Ушбу чоранинг асосий мақсади вояга етмаган шахсни жамиятдан ажратиш орқали

жазолаш эмас, балки уни қайта тарбиялаш, ижтимоий хавфли хулқ-атворини бартараф этиш ҳамда ижтимоий мослашувини таъминлашдан иборатдир.

Вояга етмаган шахс ёпиқ турдаги ўқув-тарбия муассасасига жойлаштирилган пайтдан эътиборан у мазкур муассасанинг тарбияланувчиси мақомини эгаллайди ҳамда ушбу мақомга мувофиқ равишда белгиланган ҳуқуқ ва мажбуриятларга эга бўлади. Ўқув-тарбия муассасалари фаолияти, алоҳида шароитларда тарбия ва таълим олишга муҳтож бўлган вояга етмаганларнинг ҳуқуқий мақоми, вазифалари, шунингдек, мазкур муассасалар фаолиятини ташкил этиш тартиби Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 майдаги ПҚ-4342-сонли «Ихтисослаштирилган ўқув-тарбия муассасалари фаолиятини тубдан такомиллаштириш тўғрисида»ги қарори [1] ҳамда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 17 октябрдаги 880-сонли «Республика ўқув-тарбия муассасалари фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида» ги қарори [2] билан ҳуқуқий жиҳатдан тартибга солинган.

Мазкур муносабатлар доирасида вояга етмаган шахснинг ҳуқуқий мақоми комплекс тусга эга бўлиб, у бир қатор миллий ва халқаро ҳуқуқий ҳужжатлар билан белгиланади. Жумладан, инсон ва фуқаро сифатидаги умумий ҳуқуқлари халқаро ҳуқуқ нормалари, хусусан, БМТнинг Бола ҳуқуқлари тўғрисидаги Конвенцияси [3] ҳамда Ўзбекистон Республикаси Конституциясида [4] болаларнинг алоҳида муҳофаза қилинишига оид қоидалар билан мустаҳкамланган. Шунингдек, ушбу мақом Ўзбекистон Республикаси Оила кодекси [5], «Ўзбекистон Республикасида бола ҳуқуқларининг кафолатлари тўғрисида»ги Қонуни [6], Жиноят-ижроия кодексида [7] назарда тутилган маҳкум сифатидаги ҳуқуқий ҳолати, «Таълим тўғрисида»ги Қонун [8] ҳамда «Вояга етмаганларнинг назоратсизлиги ва ҳуқуқбузарликларининг олдини олиш тўғрисида»ги Қонун [9] нормалари билан аниқлаштирилади.

Вояга етмаган шахснинг ҳуқуқий мақомидаги асосий элемент унинг шахсий эркинлиги ҳуқуқининг чекланиши ҳисобланади. Хусусан, вояга етмаганни махсус ўқув-тарбия муассасасига жойлаштириш унинг яшаш ва бўлиш жойини мустақил танлаш ҳуқуқини, муассаса ҳудудини ўз хоҳишига кўра тарк этиш имкониятини, шунингдек, Ўзбекистон Республикаси ҳудуди бўйлаб эркин ҳаракатланиш ҳуқуқини маълум даражада чеклашни англатади.

Бундай чеклов суд ҳукми ёки тегишли процессуал қарорнинг юридик кучига таянади ҳамда ўқув-тарбия муассасасида вояга етмаганни сақлашнинг махсус шартлари билан таъминланади. Шу билан бирга, изоляция режими муайян жазоловчи хусусиятга эга бўлса-да, у вояга етмаган шахсни эркинлик ҳуқуқидан тўлиқ маҳрум этишни назарда тутмайди. Аксинча, мазкур режим вояга етмаганнинг ижобий ижтимоий алоқаларини, айниқса, оила билан бўлган муносабатларини сақлаб қолиш ва ривожлантириш имконини берувчи тарзда ташкил этилади.

Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексининг 88-моддасида назарда тутилган мажбурлов чоралари орасида мазкур институт тарбиявий йўналиши билан ажралиб туради.

У.Ш.Халикуловнинг таъкидлашича, вояга етмаганларга нисбатан қўлланиладиган ҳар қандай чора «аввало тарбиявий ва профилактик хусусиятга эга бўлиши, жазолаш унсури эса иккинчи даражада қолиши лозим» [10]. Шу нуқтаи назардан, махсус ўқув-тарбия муассасасига жойлаштириш жазодан кўра кўпроқ ижтимоий-педагогик таъсир воситаси сифатида намоён бўлади.

Кўпчилик олимлар мазкур институтни вояга етмаганларни қайта ижтимоийлаштиришнинг самарали воситаси сифатида баҳолайдилар. Хусусан, Б.Ш.Эшмурадовнинг таъкидлашича, вояга етмаганлар томонидан содир этиладиган ҳуқуқбузарликларга қарши самарали кураш олиб бориш фақат криминологик таҳлил билан чекланиб қолмаслиги лозим, балки уларнинг ижтимоий-демографик хусусиятлари, ахлоқий-психологик ҳолати ҳамда ҳуқуқбузарликка олиб келган сабаб ва шарт-шароитларга комплекс ҳуқуқий баҳо бериш орқалигина таъминланиши мумкин. [11]

Шу билан бирга, М.Исламов: «вояга етмаганларни ихтисослаштирилган ўқув-тарбия муассасаларига жойлаштиришда оиладаги ижтимоий муҳитнинг ёмонлиги, ота-она ёки ота-она ўрнини босувчи шахсларнинг фарзанд тарбиясига беъэтибор бўлиши сабаб бўлаётганлиги» [12] ни ёзади.

МДҲ давлатларида ҳам вояга етмаганларни махсус ўқув-тарбия муассасаларига жойлаштириш масаласи кенг ўрганилган. Л.В. Веселова ушбу чорани «тарбия ва назорат уйғунлашган комплекс ижтимоий таъсир чораси» сифатида таърифлайди [13]. Унинг фикрича, муассасадаги тарбия жараёни педагогик назорат, меҳнат тарбияси ва психологик ёрдам билан уйғун бўлгандагина кутилган натижага эришиш мумкин.

Р.М.Баймахан эса махсус муассасалар фаолиятини вояга етмаганлар жиноятчилигини камайтиришда муҳим, бироқ чекланган восита деб ҳисоблайди. Унинг таъкидлашича, «бу чора фақат жиноят содир этишга ижтимоий муҳит кучли таъсир кўрсатган ҳолларда қўлланилиши лозим» [14].

Ғарб ҳуқуқшунослигида вояга етмаганларни махсус тарбия муассасаларига жойлаштириш масаласи асосан ювенал адлия концепцияси доирасида ўрганилади. Немис олими С. Roxin вояга етмаганларга нисбатан мажбурлов чораларини қўллашда «таълим ва тарбия устувор бўлган, жазодан воз кечишга яқин модел»ни қўллаб-қувватлайди [15] Унинг фикрича, махсус муассасалар жазо ижро этиш муассасаларига айланиб қолмаслиги шарт.

М.Скотт махсус ўқув-тарбия муассасаларини «реабилитация марказлари» сифатида баҳолаб, уларда индивидуал дастурлар, психологик реабилитация ва оила билан ишлаш механизмлари устувор бўлиши лозимлигини таъкидлайди [16].

Юқорида келтирилган миллий, МДҲ ва хорижий олимлар фикрларини умумлаштирган ҳолда шуни таъкидлаш мумкинки, вояга етмаганни махсус

ўқув-тарбия муассасасига жойлаштириш жазо эмас, балки тарбиявий-реабилитацион хусусиятга эга бўлган мажбурлов чорасидир. Ушбу чорани қўллашда индивидуал ёндашув, педагогик ва психологик назорат, таълим олиш ҳуқуқининг таъминланиши ҳамда инсонпарварлик тамойилига қатъий риоя этилиши зарур. Айнан шу шартлар мавжуд бўлгандагина мазкур институт вояга етмаганларни тузатиш ва жиноятчиликнинг олдини олишда самарали механизм сифатида намоён бўлади.

Вояга етмаганни махсус ўқув-тарбия муассасасига жойлаштириш жиноий-ҳуқуқий таъсир чоралари тизимида ўзига хос, мустақил ўрин эгаллайди. Мазкур чора ўз табиатига кўра вояга етмаган шахснинг шахсий эркинлигини сезиларли даражада чеклашни назарда тутади, унинг одатий ижтимоий муҳитидан ажратилишини тақозо этади ҳамда махсус режим, ўқув-тарбия жараён, меҳнат фаолияти билан боғлиқ қатъий талабларга риоя қилишни шарт қилади.

Ушбу чоранинг қўлланилиши вояга етмаган шахс ҳаётида туб ўзгаришларни келтириб чиқаради. Хусусан, у оилавий ва ижтимоий муҳитдан вақтинчалик узилади, унинг кун тартиби, хулқ-атвори, таълим олиши ва ижтимоий муносабатлари тўлиқ назорат остига олинади. Бу эса мазкур чорани оддий тарбиявий таъсир воситаларидан фарқли равишда комплекс, тизимли, юқори даражада интенсив ва аниқ мақсадга йўналтирилган чора сифатида тавсифлаш имконини беради.

Махсус тарбия муассасаларида амалга ошириладиган тарбиявий таъсир бевосита мутахассислар - педагоглар, психологлар, тиббиёт ходимлари ҳамда ижтимоий ишчилар томонидан олиб борилади. Ушбу таъсир тасодифий ёки эпизодик характерга эга бўлмай, балки олдиндан ишлаб чиқилган дастурлар асосида ташкил этилган, бошқариладиган ва натижага йўналтирилган жараён сифатида намоён бўлади. Шу жиҳатдан, мазкур чора вояга етмаган шахсни қайта тарбиялаш, унинг ижтимоий хулқ-атворини тузатиш ҳамда жамиятга мослашувини таъминлашга қаратилган махсус ҳуқуқий механизм ҳисобланади.

Илмий таҳлиллар шуни кўрсатадики, вояга етмаганни махсус тарбия муассасасига жойлаштириш чораси ўз мазмунига кўра альтернатив хусусиятга эга. Яъни у айрим ҳолларда жиноий жазонинг ўрнини босувчи чора сифатида қўлланилиши мумкин. Шу билан бирга, уни суд томонидан жазодан озод қилинган ўсмирга нисбатан белгиланадиган шарт сифатида ҳам баҳолаш мумкин. Мазкур ҳолат ушбу чоранинг жиноий-ҳуқуқий табиати мураккаб ва кўп қиррали эканини кўрсатади.

Мазкур чора қўлланилган ҳолда амалга ошириладиган вояга етмаганлар жиноий жавобгарлиги, асосан, икки асосий элементдан иборат бўлади.

Биринчидан, шахснинг суд томонидан айбли деб топилиши, яъни давлат номидан унинг содир этган қилмишига ва шахсига нисбатан расмий, салбий ҳуқуқий баҳо берилиши назарда тутилади. Суд ҳукми орқали вояга етмаган

шахс жиноий-ҳуқуқий тақиқни бузганликда айбли деб эътироф этилади, бу эса жиноий жавобгарликнинг муҳим белгиларидан бири ҳисобланади.

Иккинчидан, шахсга муайян вақт давомида махсус тарбия муассасасида бўлиш мажбурияти юкланади ва ушбу мажбурият амалда ижро этилади. Мазкур элемент жиноий жавобгарликнинг реал, моддий ифодасини ташкил этади.

Бу мажбуриятнинг амалий ижроси бир-бири билан узвий боғлиқ бўлган қатор таркибий қисмларни ўз ичига олади. Жумладан, вояга етмаган шахс унинг салбий таъсир кўрсатувчи муҳитидан ажратилиб, таълим соҳасидаги ваколатли органлар тасарруфидаги ёпиқ турдаги махсус ўқув-тарбия муассасасига жойлаштирилади. У ерда ўсмир белгиланган ички тартиб-қоидаларга риоя қилади, таълим олади, тарбияланади ва унинг хулқ-атвори доимий равишда назорат қилинади.

Шу билан бирга, вояга етмаган шахсга нисбатан реабилитацион-психологик, даволаш-соғломлаштириш, тарбиявий-педагогик ҳамда касбий йўналтиришга қаратилган махсус чора-тадбирлар мажмуи амалга оширилади. Бу чоралар ўсмирнинг ижтимоий адаптацияси, жамиятга қайта интеграцияси ва келгусида ҳуқуқбузарлик содир этишининг олдини олишга хизмат қилади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.05.2019 yildagi “Ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-4342-son qarori
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 17.10.2019 yildagi “Respublika o‘quv-tarbiya muassasalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 880-son qarori
3. Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya. // 1989-yil 20-noyabrda Bosh Assambleyaning 44/25-son rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan. O‘zbekiston Respublikasi mazkur konvensiyaga O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 9-dekabrdagi 757-XII sonli “Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaga qo‘shilish haqida”gi qaroriga muvofiq qo‘shilgan.
4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 202 3
5. O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi
6. O‘zbekiston Respublikasining 07.01.2008 yildagi “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-139-son Qonuni
7. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi
8. O‘zbekiston Respublikasining 23.09.2020 yildagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni
9. O‘zbekiston Respublikasining 29.09.2010 yildagi “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-263-son Qonuni
10. Холиқулов У.Ш. Вояга етмаганлар жиноятчилигининг олдини олиш муаммолари. - Тошкент: Адолат, 2016. - Б. 85–92.
11. Ешмуратов Ш.Б. Вояга етмаганлар орасида ҳуқуқбузарликларни олдини олиш алгоритмлари тўғрисида // Journal of New Century Innovation. - 2025. - Volume 76, Issue 1. - Б. 444-447.
12. Islamov M. Rights and permissions of minorities // Modern Science and Research. - 2025. - Vol. 4, No. 3. - P. 516-519.
13. Веселова Л.В. Принудительные меры воспитательного воздействия. - М.: Юрлитинформ, 2017. - С.64-72.
14. Баймахан Р.М. Ювенальная юстиция: уголовно-процессуальные аспекты : автореф. дис. … канд. юрид. наук. - Бишкек, 2011. - 21 с.
15. Roxin, C. (2006) Strafrecht. Allgemeiner Teil. I, 4th Edition, C.H. Beck, München, § 10, ns. 88 ff; Baumann, J., Weber, U. and Mitsch, W. (2003) Strafrecht. Allgemeiner Teil. 11th Edition, Gieseking, Bielefeld, § 16, n.
16. Scott M., Juvenile Justice and Rehabilitation, New York, 2019

OILALARDAGI SHAXSLARARO NIZOLAR VA ULARNING PSIXOLOGIK SABABLARI

Mirzasoliyev J.M.
Jamoat xavfsizligi universiteti tadqiqotchisi

Tayanch so‘zlar: oila, shaxslararo nizo, oilaviy munosabatlar, psixologik omillar, muloqot, emotsional regulyatsiya.
Ключевые слова: семья, межличностные конфликты, семейные отношения, психологические факторы, общение, эмоциональная регуляция.
Key words: family, interpersonal conflicts, family relationships, psychological factors, communication, emotional regulation.

РЕЗЮМЕ:
Ushbu maqolada oilalardagi shaxslararo nizolarning psixologik mohiyati va ularning yuzaga kelish sabablari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etilgan. Tadqiqotda oilaviy munosabatlarda uchraydigan nizolarning asosiy turlari hamda ularni keltirib chiqaruvchi psixologik omillar, jumladan, muloqotdagi uzilishlar, emotsional regulyatsiya muammolari, shaxsiy ehtiyoj va qadriyatlarning farqliligi, stress va tashqi ijtimoiy bosimlarning ta’siri yoritib berilgan. Shuningdek, shaxsning individual psixologik xususiyatlari va oilaviy muhit o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik masalalari ko‘rib chiqilgan.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье представлен научно-теоретический анализ психологической природы межличностных конфликтов в семьях и причин их возникновения. В исследовании выделены основные типы конфликтов в семейных отношениях и психологические факторы, вызывающие их, включая сбои в коммуникации, проблемы с эмоциональной регуляцией, различия в личных потребностях и ценностях, влияние стресса и внешнего социального давления. Также рассматривается взаимосвязь между индивидуальными психологическими характеристиками человека и семейной средой.
SUMMARY:
This article presents a scientific and theoretical analysis of the psychological nature of interpersonal conflicts in families and their causes. The study identifies the main types of conflicts in family relationships and the psychological factors that cause them, including communication breakdowns, emotional regulation issues, differences in personal needs and values, and the impact of stress and external social pressure. The relationship between individual psychological characteristics and the family environment is also examined.

Zamonaviy jamiyatda oila ijtimoiy institut sifatida shaxsning psixologik, axloqiy va emotsional rivojlanishida muhim o‘rin egallaydi. Oila a’zolari

o‘rtasidagi munosabatlar o‘zaro hurmat, tushunish va hamkorlikka asoslangan bo‘lishi bilan birga, turli ijtimoiy va psixologik omillar ta’sirida ziddiyatli holatlarni ham yuzaga keltiradi. Shaxslararo nizolar oilaviy hayotning ajralmas qismi bo‘lib, ular ma’lum darajada tabiiy hisoblanadi, biroq nazorat qilinmagan va chuqurlashgan nizolar oilaning barqarorligiga, shaxslarning ruhiy salomatligiga hamda ijtimoiy moslashuviga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Oiladagi shaxslararo nizolar ko‘pincha er-xotin, ota-ona va farzandlar, shuningdek, boshqa yaqin qarindoshlar o‘rtasida vujudga kelib, muloqotdagi uzilishlar, emotsional ehtiyojlarning qondirilmasligi, qadriyatlar va rollar tafovuti kabi psixologik sabablar bilan izohlanadi. Ushbu nizolarni yuzaga keltiruvchi omillarni chuqur psixologik tahlil qilish oilaviy munosabatlarni sog‘lomlashtirish, konfliktlarning oldini olish va ularni samarali hal etish mexanizmlarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur ilmiy maqolada oilalardagi shaxslararo nizolarning mohiyati, ularning kelib chiqishida muhim rol o‘ynovchi psixologik omillar hamda nizolarni boshqarishning ilmiy asoslangan yondashuvlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari oilaviy psixologiya sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislar, pedagoglar va keng jamoatchilik uchun nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega bo‘lishi ko‘zda tutiladi.

Oilaviy nizolarning psixologik sabablari, oiladagi shaxslararo nizolarning murakkab psixologik mexanizmlari natijasida yuzaga keladi. Psixologiya fanida bu jarayon shaxsning individual xususiyatlari, emotsional holati va ijtimoiy muhit o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir orqali izohlanadi.

Ilmiy tadqiqotlarga ko‘ra, oilaviy nizolarning eng asosiy sabablaridan biri — samarali muloqotning yetishmasligidir. J. Gottman (1994) o‘z tadqiqotlarida noto‘g‘ri muloqot shakllari (tanqid, mensimaslik, himoyalanish va chekinish) uzoq muddatli oilaviy nizolarning asosiy prediktorlari ekanligini ta’kidlaydi. Muloqotdagi uzilishlar shaxslarning ehtiyoj va his-tuyg‘ularini ochiq ifoda etishiga to‘sqinlik qilib, noto‘g‘ri talqin va emotsional keskinlikni kuchaytiradi.

Psixologiya fanida muloqotdagi buzilishlar **kommunikativ jarayonning struktural komponentlari** - jo‘natuvchi (sender), xabar (message), kanal, qabul qiluvchi (receiver) va qayta aloqa (feedback) o‘rtasidagi muvozanatning buzilishi bilan izohlanadi. Ushbu nomuvofiqliklar xabar mazmunining noto‘g‘ri talqin qilinishi yoki emotsional jihatdan rad etilishi bilan namoyon bo‘ladi.

Muloqotdagi buzilishlar til birliklarining noto‘g‘ri tanlanishi, kontekstga mos kelmasligi yoki ma’no noaniqligi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Vygotskiy (1934) ta’kidlaganidek, nutq va tafakkur o‘rtasidagi uzilish shaxslararo tushunmovchiliklarning psixologik asosini tashkil etadi.

Nizolarning sabablaridan yana biri bu emotsional regulyatsiya muammolari hisoblanadi. **Emotsional regulyatsiya muammolari** bu shaxsning o‘z his-tuyg‘ularini anglash, boshqarish va vaziyatga mos tarzda ifodalash qobiliyatining yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan bog‘liq psixologik holatdir. Psixologiyada ushbu muammo shaxsning emotsional reaksiyalari haddan tashqari kuchli, nazoratsiz yoki vaziyatga mos kelmasligi orqali namoyon bo‘ladi. Gross (1998) modeliga ko‘ra, emotsiyalarni boshqara olmaslik oilaviy nizolarda impulsiv xatti-harakatlar va agressiv reaksiyalarning kuchayishiga olib keladi. Natijada nizolar konstruktiv hal etilmay, takrorlanib boruvchi muammoga aylanadi.

Oilaviy nizolar shaxslararo munosabatlarning tabiiy tarkibiy qismi bo‘lishiga qaramay, ularning davomiyligi va konstruktiv tarzda hal etilmasligi oila tizimining funksional izdan chiqishiga olib keladi. Psixologiya va sotsiologiya fanlarida oilaviy nizolarning oqibatlari bir qator chuqur individual va ijtimoiy muammolarni yuzaga keltirishi ilmiy jihatdan isbotlangan.

Uzoq davom etuvchi oilaviy nizolar shaxsda surunkali stress, xavotirli buzilishlar va depressiv holatlarning rivojlanishiga sabab bo‘ladi. Lazarus va Folkman (1984) stress nazariyasiga ko‘ra, oilaviy konfliktlar doimiy psixologik bosim manbai bo‘lib, shaxsning emotsional resurslarini tezda kamaytiradi.

Muammo mohiyati:

emotsional charchash;

psixosomatik kasalliklar;

psixologik barqarorlikning pasayishi.

Gottman (1999) o‘zining empirik tadqiqotlarida oilaviy nizolarda tanqid, mensimaslik va himoyalanish kabi destruktiv muloqot shakllari munosabatlar barqarorligiga jiddiy tahdid solishini aniqlagan. Nizolar hal etilmasdan qolgan sari oila a’zolari o‘rtasida emotsional yaqinlik pasayib, ishonchsizlik kuchayadi. Buning natijasida - o‘zaro hurmatning yo‘qolishi, emotsional masofaning ortishi va nikoh qoniqishining pasayishiga olib kelishi aniqlangan.

Shaxslararo munosabatlarda, xususan oilaviy tizimda, oila a’zolarining hayotiy maqsadlari, e’tiqodlari, ustuvor yo‘nalishlari va psixologik ehtiyojlari o‘zaro mos kelmasligi natijasida yuzaga keladigan ijtimoiy-psixologik holat ham kuzatiladi. Ushbu nomuvofiqlik shaxslar o‘rtasida tushunmovchilik, emotsional qarama-qarshilik va nizolarni keltirib chiqaradi. Shvarts (Schwartz, 1992) qadriyatlarni shaxs xulq-atvorini yo‘naltiruvchi asosiy psixologik mezonlar sifatida ta’riflaydi. Uning qadriyatlar tizimi modeliga ko‘ra, shaxslar o‘rtasidagi qadriyatlar ierarxiyasining farqliligi munosabatlarda ziddiyatlarning kuchayishiga olib keladi. Masalan, bir tomon uchun **an’ana va xavfsizlik**,

ikkinchi tomon uchun esa **mustaqillik va o‘zini namoyon qilish** ustuvor bo‘lishi mumkin.

Oilaviy nizolarning asosiy muammolari shundaki - oilada yuzaga keladigan nizolar faqat vaqtinchalik kelishmovchilik bo‘lib qolmasdan, bir qator chuqur psixologik va ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi.

Bu holat ruhiy salomatlikka salbiy ta’sir ko‘rsatishi bilan *shaxsning psixologik barqarorligi, emotsional holati va ijtimoiy moslashuv qobiliyatiga zarar yetkazuvchi jarayonlar va shaxslararo stress omillari, xususan oilaviy nizolar natijasida yuzaga keladi.*

Oilaviy nizolar kontekstida ruhiy salomatlikka salbiy ta’sir quyidagilar orqali ilmiy tarzda ifodalanadi:

emotsional beqarorlik – g‘azab, xafagarchilik, tushkunlik va kayfiyatning tez-tez o‘zgarishi;

surunkali stress – kortizol darajasining ortishi va doimiy psixologik zo‘riqish;

depressiv simptomlar – umidsizlik, qiziqishning yo‘qolishi, o‘zini ayblash;

xavotir va qo‘rquv hissi – kelajakni noaniq qabul qilish va ichki beqarorlik;

psixosomatik buzilishlar – ruhiy stress tufayli organizmning fiziologik faoliyatidagi buzilishlar;

o‘zini past baholash – shaxsning o‘ziga bo‘lgan ishonchi va o‘z qadrini qadrlash qobiliyatining pasayishi.

Oila - shaxsning emotsional, ijtimoiy va psixologik rivojlanishida asosiy ijtimoiy muhit hisoblanadi. Oilaviy munosabatlar yaqinlik, mas’uliyat va hissiy bog‘liqlik bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga, aynan yaqinlik va bog‘liqlik oilada nizolar paydo bo‘lishi ehtimolini oshiradi. Zamonaviy hayot sharoiti, iqtisodiy bosim, qadriyatlar farqliligi oilaviy nizolarni kuchaytiradi. Shu sababli, oiladagi shaxslararo nizolarni psixologik nuqtai nazardan o‘rganish va ularni samarali bartaraf etish dolzarb masala hisoblanadi.

Oiladagi nizolarni hal qilish uchun shaxslararo ziddiyatlarni konstruktiv tarzda kamaytirish va oila tizimini barqarorlashtirish kerak bo‘ladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, nizolarni samarali hal qilish ruhiy salomatlikni mustahkamlaydi va ijtimoiy munosabatlarni yaxshilaydi

Xulosa. Oiladagi shaxslararo nizolar -insoniy munosabatlarning tabiiy qismi bo‘lib, har bir oila hayotida uchrab turadi. Ushbu nizolar ko‘pincha kommunikatsiya yetishmovchiligi, emotsional ehtiyojlarning qondirilmasligi, stress, shaxsiy xususiyatlar va oilaviy rollar bo‘yicha kelishmovchilik kabi psixologik omillardan kelib chiqadi. Nizolarni inkor etish yoki chetlab o‘tish o‘rniga, ularni tushunish va konstruktiv tarzda hal qilish muhimdir.

Ochiq muloqot, hurmat, empatiya, majburiyatlarni adolatli taqsimlash va zarur hollarda psixologik yordamga murojaat qilish oiladagi muhitni mustahkamlashga yordam beradi. Shu bilan birga, nizolarni boshqarish oilaning barqarorligini saqlash, oila a'zolarning ruhiy salomatligini himoya qilish va oilaviy munosabatlarni yanada mustahkamlash imkonini beradi.

Nizolarni butunlay yo‘q qilish imkonsiz bo‘lsa-da, ularni konstruktiv tarzda hal qilish va oilaviy muhitni sog‘lom saqlash quyidagilarda ko‘rinadi:

o‘z his-tuyg‘ularini ifoda etish va boshqalarni tinglash;

har bir a'zoning nuqtai nazarini qadrlash;

uy ishlari, moliyaviy masalalar va tarbiya bo‘yicha aniq kelishuvlar;

tashqi bosimni kamaytirish va ruhiy dam olish uchun vaqt ajratish;

murakkab nizolarni mutaxassis yordamida hal qilish.

Xulosa qilib aytganda, shaxslararo nizolarni konstruktiv tarzda yondashish va ularni psixologik sabablarini tushunish - sog‘lom va baxtli oilaviy hayotning muhim omilidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Р.Аҳмадов, Oilaviy munosabatlar psixologiyasi. Toshkent: Fan, 2016.
2. Ш.Абдуллаев, Oila va shaxsning psixologik rivojlanishi. Toshkent: Universitet nashriyoti, 2018.
3. М.Ибрагимова, Bolalarni tarbiyalash va oilaviy muhitning roli. Toshkent: Pedagogika, 2017.
4. Н.Каримов, Oila va shaxslararo nizolar: sabablari va yechimlari. Toshkent: Ilm, 2019.
5. Ф.Юсупов, Oila psixologiyasi: nazariya va amaliyot. Toshkent: Fan, 2020.
6. Л.Я.Гуревич, Семейная психология: теория и практика. М.: Педагогика, 2015.
7. М.Беккер, Конфликты в семье: причины и пути разрешения. Санкт-Петербург: Питер, 2018.
8. Х.Каплан, Садок, Б. Психиатрия и психология: учебник для студентов. Москва: Медицина, 2017.

OG‘IR NUTQ NUQSONI BO‘LGAN DIZARTRIYA NUTQ KAMCHILIGI BILAN ISHLASHNING O‘ZIGA XOS METODIK TIZIMI VA ULARNI TALABALARGA O‘RGATISH METODLARI

Achilova S.Dj.
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, “Maxsus pedagogika” kafedrasi p.f.f.d (PhD), dotsent.

Tayanch so'zlar: dizartriya nutq nuqsoni, logopediya, logopedik texnologiya, logopedik massaj, logopedik o‘yin, nutq o‘stirish maxsus metodikasi, arthon, nutq apparati innervatsiyasi, nutqning sur’ati, ritm, anartriya, patologiya, bulbar dizartriya, bsevdobulbar dizartriya, qobiqli dizartriya, miyachali dizartriya, styortaya dizartiya.
Ключевые слова: дизартрия, речевой дефект, логопедия, логопедические технологии, логопедический массаж, логопедическая игра, специальная методика развития речи, артон, иннервация речевого аппарата, темп речи, ритм, анартрия, патология, бульбарная дизартрия, псевдобульбарная дизартрия, корковая дизартрия, мозжечковая дизартрия, стереотаксическая дизартрия.
Key words: dysarthria, speech defect, speech therapy, speech therapy technologies, speech therapy massage, speech therapy game, special speech development technique, arton, innervation of the speech apparatus, speech rate, rhythm, anarthria, pathology, bulbar dysarthria, pseudobulbar dysarthria, cortical dysarthria, cerebellar dysarthria, stereotactic dysarthria.

РЕЗЮМЕ:
Ushbu maqola dizartriya nutq nuqsoni bilan ishlashning o‘ziga xos metodik tizimi va ularni talabalarga o‘rgatish metodlari yoritilgan bo‘lib, og‘ir nutq nuqsonlar ichida kuzatiladigan dizartriya nutq nuqsonini bo‘lajak logopedlarga o‘qitishning usullari ko‘rsatilgan. Shuningdek, talabalarga dizartriya nutq nuqsonini kelib chiqish sabablari, turlari, bartaraf etishda korreksion-logopedi ish tizimi ham aytib o‘tilgan.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье описывается конкретная методическая система работы с дизартрией и методика обучения студентов, а также показаны методики обучения будущих логопедов дизартрии, являющейся одним из самых тяжёлых речевых нарушений. Студентам также рассказывается о причинах и видах дизартрии, а также о системе коррекционной логопедической работы по её устранению.
SUMMARY:
This article describes a specific methodological system for working with dysarthria and a teaching method for students, and also shows methods for teaching future speech therapists dysarthria, which is one of the most severe speech disorders. Students are also told about the causes and types of dysarthria, as well as about the system of corrective speech therapy work to eliminate it.

Respublikamiza yuz berayotgan o‘zgarishlar, jumladan Oliy ta’limda bo‘lajak logopedlarni o‘qitish, ularga nazariy va amaliy bilimlarni birgalikda qo‘llash, nutq nuqsonlarni chuqur o‘rganish yuzasidan o‘quv jarayonlari tashkil etilgan. Ushbu o‘quv jarayonlarda bo‘lajak logopedlar og‘ir nutq nuqsonlarni o‘rganish, ularni boshqa nutq nuqsonlardan farqlash, kelib chiqish sabablarini aniqlash, bartaraf etish usullarini o‘rganish kabi ishlar tizimi tashkil etilgan.

Og‘ir nutq nuqsoni bo‘lgan dizartriya nutq kamchiligi bilan ishlashning o‘ziga xos metodik tizimi va ularni talabalarga o‘rgatish metodlarini aniqlash bir necha o‘quv jarayonlar tarkibiga singdirilgan bo‘lib, bular logopediya fanida, logopedik texnologiya fanida, logopedik massaj fanida, logopedik o‘yin fanlarida, nutq o‘stirish maxsus metodikasi kabi fanlarda o‘z aksini topgan.

Ma’lumki, og‘ir nutq nuqsonlar ichida dizartriya nutq nuqsoni mavjud bo‘lib, bu nutq nuqsonida nutq apparati innervatsiyasining organik buzilishi sababli nutqning talaffuz tomonidan buzilishidir. Dizartriya termini grekcha so‘zdan olingan bo‘lib, dis-bo‘lak, arthon-biriktirish degan ma’noni bildiradi. Dizartriya-bu markaziy xarakterdagi organik nutq buzilishi hisoblanadi. Dizartriya nutq kamchiligida nutq a’zolarining (yumshoq tanglay, til, lablar) kam harakatlanishi natijasida nutq tovushlari artikulyatsiyasi qiyinlashadi, shu bilan birgalikda ovoz, nafas buzilishlari hamda nutqning sur’ati, ritmi va ifodaliligida o‘zgarishlar kuzatiladi.

Og‘ir nutq nuqsoni bo‘lgan dizartriya nutq kamchiligining og‘ir darajasida nutq butunlay tushunarsiz bo‘ladi. Bunday hol anartriya deb ataladi. Anartriya termini grekcha so‘zdan olingan bo‘lib, a-yo‘q, arthon-biriktirish degan ma’noni bildiradi. Dizartriya nutq kamchiligida miyaning turli joylarida jarohatlanishlarni aniqlash mumkin. Masalan, miya yarim sharining chap va o‘ng tomonida, yetti tuxumsimon markazdan o‘tuvchi sistemada, asab tugunchalari qobig‘ida, diensefal doirada, to‘rt tepaligida, ko‘prik, cho‘zinchoq va orqa miyada kuzatilishi mumkin. Ammo klinikada ishlovchi tadqiqotchilar bu amsalaga kam e’tibor beradilar. Nozologik va topik tomonidan dizartriyani begilash diagnostikasi odatda nevrologik alomatlarni barcha shart sharoitlarini inobatga olgan holda olib boriladi. Nutq patologiyasining eng dastlabki tasnifida artikulyatsiyani har qanday buzilishi alohida guruhlarga ajratilgan va «dizartriya» termini bilan belgilangan edi. 1888 yili Gowers nutqining bunday dizartriya nutq kamchiligi buzilishini serebral va bulbar shakllariga ajratdi. Keyinchalik bir necha marotaba dizartriyani neyroanatomik turkumlarga bo‘lish uchun harakatlar qilindi. Masalan Froeschels tasnifi tuzilib, u dizartriyani to‘rtta shaklga ajratdi: piramidali, ekstrapiramidali, peshona-pontionli va serebellyar. Biroq muammoning kam o‘rganilganligi sababli dizartriyani tasniflashda

neyroanatomik tamoyilga amal qilish doimo saqlanmadi. Brain(1948) dizartriyaning koordinator va miopatik shakllarini ajratdi. Dizartriya nutq nuqsonini tasniflashda mutaxassislar turli xil yondoshadilar: jarohatlanish o‘chog‘iga qarab, nevrologik simptomning ustunligi yoki neyrolingvistik qarashlar bo‘yicha E.N. Vinarskaya, K.N. Vittorf, K.Vovatr, L.A. Danilova, M.Zeyeman, M.V.Ippolitova, S.S. Lyapidevskiy, E.M. Mastyukova, I.I. Panchenko, K.A. Semyonova, M.B. Eydinova.

Ammo ko‘pchilik mutaxasislar dizartriyani tasniflashda jarohatlanish o‘chog‘ini hisobga olish tamoyiliga amal qilib, dizartriyani quyidagi turlarga ajratadilar: bulbar, psedobulbar, qobiqli dizartriya, qobiq osti va miyachali dizartriya.

Bulbar dizartriya. Uzunchoq miya–medullaoblongata - yana ikkinchi ancha eski nomga ham ega – bulbus cerebri – qaysiki miya o‘qining bir qismi piyoz boshchasi bo‘laklariga bulbus, piyoz boshchasi tashqi yuzasi bilan o‘xshashdir. Miyaning bulbar kismiga tegishli IX, X va XI, XII bosh –miya nervlarining pereferik o‘qlari, po‘stloq yoki yadroning shikastlanishi oqibatida yuzaga keluvchi simptokompleksning harakat buzilishlari bulbar falaj deb ataladi.

Psevdobulbar dizartriya. Periferik harakatlantiruvchi neyronlarning yadrosining o‘zi nerv impulslarini miya po‘stlog‘idan markaziy harakatlantiruvchi neyronlir, boshqacha kilib aytganda piramida yo‘li bilan qabul qiladi.

Qobiqli dizartriyada bosh miya qobig‘ining o‘choqli jarohatlanishi bilan bog‘liq patogenezga ega nutqning motor kamchiliklar guruhi namoyon bo‘ladi.

Qobiq osti dizartriya. Qobiq osti dizartriya tizim tez, aniq va differensial harakatlarni bajarish imkonini beruvchi tayyorgarlik foniniavtomatik tarzda yaratadi.

Miyachali dizartriya. Dizartriyaning bu shaklida miyacha va uning markaziy asab tizimining turli bo‘limlari bilan aloqalari jarohatlanadi. Miyachali dizartriyada nutq sekinlashgan, jumla oxiriga kelib ovozni «o‘chib qolishi» bilan tavsiflanadi.

Dizartriyaning yengil darajasi (styortaya dizartiya). tovushlarni almashtirish, tovushlarning buzilishi, diksiyani yomonligi, nutq ifodaliligining yaxshi rivojlanmaganligi asosiy simptomlari hisoblanadi.

Dizartriya nutq kamchiligida nafas muskulaturasining innervatsiyasining buzilishi natijasida nutqiy nafas buzilishlari kelib chikadi. Bunda nafas olish ritmi nutqni manoli tuzilishini boshqarmaydi, nutq akti jarayonida nafas olish tezlashadi, nafas chiqarish qisqa va asosan burun orqali buladi.

Dizartriya nutq kamchiligining ikkinchi sindromi – nutqiy nafasni buzilishidir.

Og‘ir nutq nuqsoni bo‘lgan dizartriya nutq kamchiligi uchun xarakterli xususiyatlardan biri - intonatsiya va ovoz buzilishlaridir. Ovoz kamchiliklari til, lab, yumshoq tanglay, ovoz boylamlari, bo‘g‘iz mushaklari parezi va ularning mushak tonusining ortishi, haraktchanglikning cheklanganligi bilan bog‘liq.

Demak, dizartriyaning asosiy belgilari - artikuliyatsiya, nafas va ovoz buzilishlarining namoyon bo‘lish darajasi va xarakteridan kelib chiqadigan tovushlar talaffuzi va nutqning prosodik buzilishilaridir.

Og‘ir nutq nuqsoni bo‘lgan dizartriya nutq kamchiligida nutqiy buzilishlar bilan birgalikda, nutqiy bo‘lmagan kamchiliklar ham uchraydi. Bu bulbar va psevdobulbor dizartriyada umumiy motorika va barmoqlar harakatchanligining buzilishlari namoyon bo‘ladi. Dizartriya nutq kamchiligida o‘ziga xos nutqiy va nutqiy bo‘lmagan buzilishlar asosida tashxis qo‘yiladi.

Og‘ir nutq nuqsoni bo‘lgan dizartriya nutq kamchiligini bartaraf etish bo‘yicha olib boriladigan logopedik ta’sir tizimi kompleks ravishda amalga oshiriladi, ya’ni artikulyatsion apparat massaji va artikulyatsion gimnastik mashqlar, ovoz va nutqiy nafas ustida ishlash, umumiy davolash, davolovchi jismoniy - arbiya, fizioterapiya va dori -darmonlar bilan davolash ishlari tashkil qilinadi.

Asosiy e’tibor bolada nutqning rivojlanishi holatiga, nutqning leksik-grammatik tomoniga hamda nutqning aloqa funksiyasi xususiyatlariga qaratiladi. Maktab yoshidagi bolalarda yozma nutq holati ham hisobga olinadi.

Og‘ir nutq nuqsoni bo‘lgan dizartriya nutq kamchiligi bugungi kunda mutaxassislar tomonidan keng o‘rganilib, ularni kelib chiqish sabablari va bolaning nutqiga hamda ruhiy holatiga ta’siri aniqlangan. Bo‘lajak logopedlarga dizartriya nutq nuqsonini o‘rgatish metodlari nazariy jihatdan olib boriladi. Birinchi navbatda birinchi kurs talabalari ikki semestr davomida klinika asoslari fanini chuqur o‘rganadilar. Ushbu fan orqali bolalarda uchraydigan nuqsonlarni klinik ko‘rinishini nazariy jihatdan tahlil etadilar. Shuningdek, birinchi kursda mutaxassislikga kirish fanida logopediya fani haqida umumiy ma’lumotlar berib o‘tiladi.

Og‘ir nutq nuqsoni bo‘lgan dizartriya nutq kamchiligiga ega bolalar bilan olib boriladigan logopedik ishlarning usullari AG.Ippalitova, O.V.Pravdina, V.V.Ippalitova, E.M.Mastyukova, G.V.Chirkina, I.I.Panchenko, va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan.

Og‘ir nutq nuqsoni bo‘lgan dizartriya nutq kamchiligiga ega bolalar bilan olib boriladigan logopedik ishlarning vazifalari kuyidagilardan iborat:

1-Tovushlarning to‘g‘ri talaffuzini o‘rgatish, ya’ni artikulyatsion motorikani, nutqiy nafasni rivojlantirish va tovushni nutqga qo‘yish va mustahkamlash.

2-Fonematik idrokni rivojlantirish, tovush analiz malakasini sha-kllantirish. ituvni rivojlantirish, tovush analiz malakasini shakllantirish.

3-Nutqning ritm, ozangdorligi va ifodaliligi tomonidagi kamchiliklarni bartaraf etish.

4-Paydo bo‘lgan nutqning umumiy rivojlanmaganligini to‘g‘rilash.

Dizartriya nutq nuqsoniga ega bolalarda tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etish, tuzatish ishning eng asosiy vazifalaridan biridir. Tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarining asosiy sababi nutq apparati a’zolarining harakatchanligida kuzatiladigan kamchiliklardir. Shuning uchun logoped asosiy diqqatni artikulyusion apparat harakatchanligini rivojlantirishga qaratishi lozim.

Tovushlar talaffuzi ustida ishlash quyidagi holatni hisobga olib tashkil etiladi:

1-Dizartriya shakli, bolaning nutqini rivojlanish holati va bola yoshi-ni hisobga olish.

2-Nutq kommunikatsiyasining rivojlanishi. Tovushlar talaffuzining shakllanishi komunikatsiyaning rivojlanishiga yo‘naltirilgan bulishi lozim.

3-Motivatsiyaning rivojlanishi, bor bo‘lgan buzilishlarining bartaraf etishga intilish, o‘z - o‘zini anglashni, uziga ishonch, o‘zini boshqarish va nazorat qilish, o‘z qadrini bilish hamda o‘z kuchiga ishonish.

4-Differensial eshitish idroki va tovush analizi qobiliyatini rivojlantirish.

5-Ko‘ruv-kinestetik tuyg‘uni rivojlantirish yo‘li bilan artikulyatsion tartib va artikulyatsion harakatni kuchaytirish.

6-Ishni bosqichma-bosqich tashkil etish. Korreksion ish bolada talaffuzi saqlanib qolgan tovushlardan boshlanadi. Ba’zan tovushlar ancha sodda motor koordinatsiyalari tamoyiliga ko‘ra tanlab olinadi, ammo artikulyatsiyaon buzilishni hisobga olingan holda birinchi navbatda ilk ontogenez tovushlari ustida ish olib boriladi.

7-Eng og‘ir buzilishlarda ya’ni bola nutqi atrofdagilar uchun umuman tushunarsiz bo‘lganda korreksion ish alohida ajratilgan tovushlar va bo‘g‘inlardan boshlanadi. Agarda bola nutqi atrofdagilar uchun nisbatan tushunarli bo‘lsa va u ayrim so‘zlarda nuqsonli tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qila olsa unda ish «tayanch» so‘zlardan boshlanadi. Har qanday hollarda va turli nutqiy holatlarda tovushlar nutqda mustahkamlanishi zarur.

8- Markaziy asab tizimi shikastlangan bolalarda nutqdan oldingi davrda logopedik ishlarni muntazam olib borish yo‘li bilan tovushlar talaffuzidagi murakkab buzilishlarni oldini olish muhim ahamiyatga ega.

Ikknchi kursdan boshlab bo‘lajak logopedlarga logopediya1 fani o‘qitilib, ushub fan doirasida nazariy va amaliy mavzular o‘qitiladi.

Bo‘lajak logopedlarga nutq nuqsonlarni o‘qitishda nafaqat nazariy bilimlar balki ularni amaliy bilimlar bilan mustahkamlash maqsadida, talabalarni maxsus maktabgacha ta’lim tashkilotlariga va umumta’lim maktablar qoshidagi logopedik shoxobchalarga amaliyotga olib boriladi. U yerda bo‘lajak logopedlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri amaliyotdagi mutaxassis bilan hamkorlikda bolalar bilan nutq nuqsonlari tushuntiriladi. Nutq nuqsonlari bo‘yicha korreksion-logopedik ishlar mazmuni tushuntirilib, amaliyotda ko‘rsatiladi.

Talabalarga nutq nuqsonlarni o‘rgatishda turli metodalardan foydalanilgan holda nazariy va amaliy bilimlar singdiriladi. O‘qitiladigan fanlar doirasida nutq nuqsonlarni o‘rgatish, ularning mazmunini tushuntirishda og‘zaki, amaliy va ko‘rgazmali usullari katta yordam beradi. Shuningdek, dizartriya nutq nuqsonini o‘zbek olimlarimiz tomonidan olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari bilan ham tanishitiriladi. Ilmiy ishlarning tahlilida o‘zbek bolalarda kuzatiladigan nutq nuqsonlarni og‘zaki nutqga ta’siri tahlil etiladi.

Xulosa qilib aytish joizki, bo‘lajak logopedlarga og‘ir nutq nuqsonlarda uchraydigan dizartriya nutq kamchiligi bolalarning nafaqat muloqat qobilyatiga balki, ularning ruhiy holatiga ham ta’sir etishini tushuntirib o‘tish lozimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Волкова П.С., Шаховская С.Н., Логопедия. Издателство Владос. М., 2002

2. Архипова Е.Ф. «Стертая дизартрия у детей» Учебное пособие для студентов вузов, Москва-2006г.

3. Achilova S.J. Dislaliya. Dizartriya. Pedagogika universiteti ham institutlarning defektologiya yo‘nalishida ta’lim olayotgan talabalari uchun o‘quv qo‘llanma, Toshkent, 2021, «BOOK TRADE» nashriyoti.

4. Achilova S.J. Dizartriya nutq kamchiligi ega bolalarda logopedik ish. Monografiya, Toshkent, 2022, «MALIK PRINT CO» nashriyoti.

5. Achilova S.J. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida og‘ir nutq nuqsonli bolalar bilan ishlashda logopedik shoxobchaning o‘rni. “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ijtimoiyemotsional ta’lim metodikalarini joriy etish: muammolar va yechimlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallar to‘plami 2025-yil 16-sentabr.481-483 bet.

6. Achilova S.J. Factors And Principles Of Preparing Future Speech Therapists To Work With Children With Severe Speech Impairments. 6th INTERNATIONAL BLACK SEA SCIENTIFIC RESEARCH AND INNOVATION CONGRESS. 386-390 bet.2025.

INKLYUZIV TA'LIM JARAYONIDA TALABALARNING O'Z-O'ZINI RIVOJLANTIRISHI ZARURATI

Shamsiddinova A.M.
NamDU mustaqil tadqiqotchi

Tayanch so'zlar: inklyuziv, inklyuziya, integratsiya, ta'lim, talaba, ishtiyoq, intilish, o'zlashtirish, qobiliyat, fikrlash, bajarish, salohiyat, tahlil, vazifa, natija.
Ключевые слова: инклюзивный, инклюзия, интеграция, образование, студент, страсть, стремление, мастерство, способность, мышление, результативность, потенциал, анализ, задача, результат.
Key words: inclusive, inclusion, integration, education, student, passion, aspiration, skill, ability, thinking, performance, potential, analysis, task, result.

РЕЗЮМЕ:
Maqolada inklyuziv ta'lim sharoitida talabalarning shaxsiy salohiyatini aniqlash, ularda mustaqil fikrlash, o'zini anglash va o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyatlarini shakllantirish masalalari tahlil etiladi. Inklyuziv muhitda ta'lim oluvchi talabalarning individual xususiyatlari, psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash vositalari hamda pedagoglar oldida turgan asosiy vazifalar yoritiladi.
РЕЗЮМЕ:
В статье анализируются вопросы выявления личностного потенциала учащихся в условиях инклюзивного образования, формирования их способностей к самостоятельному мышлению, самосознанию и саморазвитию. Выделены индивидуальные особенности учащихся, обучающихся в инклюзивной среде, средства психолого-педагогической поддержки, а также основные задачи, стоящие перед педагогами.
SUMMARY:
This article analyzes the development of students' personal potential in inclusive education settings, as well as their ability to think independently, develop self-awareness, and develop themselves. It highlights the individual characteristics of students studying in inclusive environments, the means of psychological and pedagogical support, and the key challenges facing educators.

Kirish. Insoniyat taraqqiyotining zamonaviy bosqichida ta'limdagi asosiy tendensiyalardan biri - bu barcha qatlam va imkoniyatlar sohibi bo'lgan shaxslarga teng imkoniyatlar yaratishdir. Shu nuqtai nazardan inklyuziv ta'lim tizimi nafaqat imkoniyati cheklangan shaxslar uchun, balki barcha talabalar uchun individual rivojlanish sharoiti yaratishga xizmat qiladi. Inklyuziv muhitda talabalar nafaqat akademik bilimlarni o'zlashtiradilar, balki o'z

salohiyatlarini aniqlab, shaxsiy rivojlanish yo‘lini belgilab olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. XXI asr – inson kapitaliga asoslangan bilimlar jamiyati davri bo‘lib, unda har bir shaxsning shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyatlari va ijtimoiy faolligi jamiyat taraqqiyotining muhim omiliga aylanmoqda. Ta’lim tizimidagi global o‘zgarishlar, barqaror rivojlanish maqsadlari hamda ijtimoiy tenglikni ta’minlashga qaratilgan siyosatlar doirasida inklyuziv ta’lim tamoyillari keng joriy etilmoqda [15]. Inklyuziv ta’lim – bu imkoniyati turlicha bo‘lgan barcha talabalar uchun teng, sifatli, barchaga moslashtirilgan ta’limni ta’minlash tizimidir. Uning asosiy vazifasi — talabalarda o‘z-o‘zini anglash, o‘z-o‘zini boshqarish va o‘z-o‘zini rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirishdan iborat.

Mazkur maqolada inklyuziv ta’lim jarayonida talabalarning o‘z-o‘zini rivojlantirishiga ta’sir etuvchi omillar, pedagogik yondashuvlar, psixologik asoslar hamda amaliyotda qo‘llanilayotgan ilg‘or strategiyalar tahlil qilinadi. Shuningdek, bu jarayonda o‘qituvchi va ta’lim muhitining o‘rni, refleksiya, motivatsiya, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash kabi omillarning ahamiyati ilmiy asosda yoritib beriladi.

Asosiy qism. Inklyuziv muhitda ta’lim olish faqatgina akademik natijalarga erishishni emas, balki talabaning shaxs sifatida shakllanishini, ijtimoiy adaptatsiyasini, emotsional barqarorligini ham nazarda tutadi. Bu esa ta’lim jarayonida talabalarning o‘z salohiyatini aniqlashi, shaxsiy maqsadlar qo‘yishi, mustaqil fikr yuritishi, tanqidiy tahlil qilishi va hayotda o‘z o‘rnini topishi kabi jarayonlarni qo‘llab-quvvatlashni talab etadi. Bunday maqsadlarga erishish uchun talabalarda o‘z-o‘zini rivojlantirish qobiliyatini shakllantirish va rag‘batlantirish juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa, inklyuziv ta’limda tahsil oluvchi talabalar turli kognitiv, jismoniy va ijtimoiy ehtiyojlarga ega ekani uchun, ularning shaxsiy o‘sishiga yo‘naltirilgan yondashuv zarurati yanada keskinroq namoyon bo‘ladi. Zero, har bir talaba - o‘ziga xos individual shaxs bo‘lib, u rivojlanishga loyiq va qodirdir. Ta’lim tizimi esa ana shu imkoniyatlarni yuzaga chiqaruvchi mexanizm bo‘lishi lozim [8, 9].

Inklyuziv ta’lim - bu barcha bolalar va talabalarni, jumladan, imkoniyati cheklanganlarni, umumiy ta’lim muassasalarida o‘qitishni nazarda tutuvchi ta’lim tizimidir. Ushbu yondashuv ijtimoiy adolat, tenglik va individual rivojlanishni ta’minlashga qaratilgan. Bu tizimdagi asosiy vazifalar quyidagilardan iborat [12, 13]:

- Barcha talabalar uchun qulay va moslashtirilgan ta’lim muhitini yaratish;
- Psixologik va pedagogik qo‘llab-quvvatlashni tashkil etish;

- Ta’lim jarayonida talabalarning individual ehtiyojlari va qobiliyatlarini inobatga olish;

- O‘z-o‘zini rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirish.

- O‘z-o‘zini rivojlantirish (rus. samorazvitiye, ingl. self-development) — shaxsning ongli ravishda o‘zini yaxshilash, bilim va malakalarini chuqurlashtirish, ichki salohiyatini yuzaga chiqarishga qaratilgan murakkab, dinamik jarayondir[14]. Bu jarayon quyidagi ilmiy asoslarga tayanadi:

- gumanistik psixologiya (K.Rodjers [11], A.Maslou [6]): shaxs o‘zini anglagan holda yuksalishga intiluvchi ijodiy mavjudotdir;

- faoliyat nazariyasi (L.S.Vigotskiy [2]): rivojlanish faoliyat orqali amalga oshadi;

- motivatsion nazariyalar (D. Makklelland [5]): ichki motivatsiya insonni o‘zini rivojlantirishga undaydi.

- Inklyuziv muhitda ta’lim oluvchi talabalar turli kognitiv, emotsional va jismoniy imkoniyatlarga ega bo‘ladi [3]. Bu holatda shaxsiy rivojlanishga bo‘lgan yondashuv individual bo‘lishi zarur. Quyidagi omillar talabalarning o‘z-o‘zini rivojlantirishiga ta’sir ko‘rsatadi:

- insonparvar va hurmat asosida qurilgan muomala;

- faol ishtirokni ta’minlovchi interfaol o‘qitish metodlari;

- muvofiqlashtirilgan refleksiya va maslahat berish jarayonlari;

- ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash guruhlari va mentorlik tizimlari.

- Inklyuziv ta’limda talabalarning o‘z-o‘zini rivojlantirishini ta’minlash uchun pedagog quyidagi imkoniyatlardan foydalanishi lozim:

- har bir talabaning qobiliyati va imkoniyatiga mos yo‘l xaritasi;

- o‘z bilimini anglash, baholash va nazorat qilish;

- talabaning shaxsiy yutuqlari va rivojlanish dinamikasini kuzatish;

- talabani mustaqil izlanish va qaror qabul qilishga undaydi.

- Jahon amaliyotida ko‘plab inklyuziv ta’lim muassasalarida shaxsiy rivojlanishni ta’minlovchi platformalar va yondashuvlar samarali qo‘llanmoqda. Masalan:

- Finlyandiya ta’lim tizimida talabalarning o‘z salohiyatini aniqlash va rivojlantirish uchun maxsus psixologik qo‘llab-quvvatlash markazlari faoliyat ko‘rsatadi;

- Yaponiyada “o‘z-o‘zini rivojlantirish kundaligi” orqali talabalar har kuni o‘z harakatlari va his-tuyg‘ularini tahlil qiladilar;

- O‘zbekistonda ham ayrim OTMlarda inklyuziv ta’lim markazlari tashkil etilib, talabalarga individual marshrut asosida maslahatlar berilmoqda [10].

Natijalar va muhokamalar. Inklyuziv ta'lim barcha talabalarni, shu jumladan imkoniyati cheklanganlarni ham, umumiy ta'lim muassasalarida tahsil olishiga imkon yaratadi [1]. Bu yondashuv ijtimoiy adolat, tenglik va barcha uchun teng imkoniyatlar yaratish hadafida xizmat qiladi. Inklyuziv muhitning o'zi xususiy va kollektiv ehtiyojlar asosida rivojlanishni ta'minlaydi.

O'z-o'zini rivojlantirish dinamik, ongli shaxsiy harakat sifatida faoliyat nazariyalari va gumanistik psixologiya qarashlari (Maslow, Rogers) bilan bog'liq. Shundoq, Vigotskiy faoliyat nazariyasi ta'kidlashicha, shaxs rivojlanishi amalga oshirilayotgan faoliyat orqali yuzaga chiqadi. Bu jarayonda motivatsiya va ichki talablar asosiy rol o'ynaydi [4, 5, 2].

Academic Self Concept (ASC) – bu talabaning akademik qobiliyati, muvaffaqiyati va potensialini anglashidir. Ayrim tadqiqotlarda tadqiq qilingan SEN talabalar inclusive muhitishda past ASC darajasiga ega ekanligi aniqlandi [7].

Inklyuziv ta'lim sharoitida o'qituvchilar ichki muhitni ta'sirchan qurish orqali talabalarning emotsiya va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ispaniyada olib borilgan tadqiqotda inclusive pedagogika o'quvchilarning sotsial va emotsional kompetensiyalarini sezilarli darajada yaxshilashini ko'rsatmoqda sciencedirect. com. Shunga qo'shimcha, SEL (social-emotional learning) dasturlari bolalarda empatiya, stressga muhofaza va akademik natijalari yaxshilanishi bilan bog'liq ekanligi ta'kidlangan [4].

O'z-o'zini rivojlantirishda motivatsiya va ichki motivatsiyani oshirishda talabalar tashqi motivatsiyadan ko'ra ichki motivatsiya darajasi past bo'ladi. Bu ularning akademik faoliyatida va rivojlanishda to'siq bo'ladi. Ichki motivatsiyani rivojlantirish talabalarning barqarorligini ta'minlaydi va muvaffaqiyat istiqbollarini oshiradi va differensiatsiya qilingan ta'lim yaratuvchi usullar, individual ehtiyojlariga mos ta'lim berish orqali talabalarning akademik darajalarini yaxshilaydi.

Metakognitiv faoliyatlar (refleksiya, portfolio) talabalarni o'z akademik va shaxsiy rivojlanishini kuzatish, tahlil qilish va maqsadlar belgilashga salohiyatli qiladi.

Inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlovchi davlatlar va universitetlarda amalga oshirilayotgan yondashuvlar masalan: Finlyandiya, Yaponiya, Avstraliya kabi davlatlarda talabalarning emotsional va motivatsion holatini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan markazlar faoliyat yuritadi yoki onlayn muhitda ta'lim resurslari joriy qilingan.

Inklyuziv ta'lim - bu barcha talabalar, jumladan, nogironligi bo'lgan, o'qishda qiynaladigan, turli xil ijtimoiy va madaniy muhitdan kelgan talabalarni qamrab

oluvchi, birgalikda ta’lim olishni nazarda tutuvchi yondashuvdir. Bunday muhitda har bir talabaning shaxsiy ehtiyojlari, qobiliyati va salohiyati hisobga olinishi, ularning shaxsiy o‘sishi va jamiyatda to‘liq ishtirok etishi uchun shart-sharoit yaratilishi lozim.

Inklyuziv ta’lim tizimida talabalarning o‘z-o‘zini rivojlantirish qobiliyati juda muhim o‘rin tutadi, chunki:

Mustaqillikni oshiradi, o‘zining bilim olish jarayonini nazorat qilishni o‘rganadi, bu esa uni kelajakda mustaqil hayotga tayyorlaydi.

Ijtimoiy integratsiyani osonlashtiradi, o‘z ustida ishlaydigan va o‘z kuchiga ishonadigan talabalar jamiyatda faolroq ishtirok etadi. Bu ayniqsa imkoniyati cheklangan talabalar uchun muhim.

Motivatsiya va ishonchni shakllantiradi, o‘zining shaxsiy yutuqlarini ko‘rgan talabada o‘qishga bo‘lgan qiziqish va motivatsiya ortib boradi.

O‘quv jarayonida faol ishtirok, o‘z-o‘zini rivojlantirishni maqsad qilgan talaba dars jarayonida faol bo‘ladi, savol beradi, izlanadi va faol muomala qiladi.

Inklyuziv ta’lim jarayonida talabalarning o‘z-o‘zini rivojlantirishi uchun quyidagi omillar muhim hisoblanadi:

shaxsiy ta’lim dasturlari - har bir talabaning o‘ziga xos xususiyatlariga moslashtirilgan;

psixologik va pedagogik qo‘llab-quvvatlash - motivatsiyani rag‘batlantirish va ishonch uyg‘otish;

tengdoshlar bilan hamkorlik - o‘zaro yordam va ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirish;

interaktiv va raqamli texnologiyalar - bilimlarni mustaqil o‘zlashtirishni yengillashtiradi;

o‘zini baholash va refleksiya ko‘nikmalari - talabalar o‘z yutuq va muammolarini anglaydi, kelgusi qadamlarini belgilaydi.

Xulosa. Inklyuziv ta’lim sharoitida talabalarning o‘z-o‘zini rivojlantirishi nafaqat shaxsiy salohiyatni ro‘yobga chiqaradi, balki ularning jamiyatda munosib o‘rin egallashiga, ijtimoiy faol bo‘lishiga va teng huquqli fuqaro sifatida rivojlanishiga turtki beradi. Shu sababli, ta’lim muassasalari nafaqat akademik bilim, balki shaxsiy o‘sishga yordam beradigan muhit yaratishi zarur.

Inklyuziv ta’limda talabalarning o‘z-o‘zini rivojlantirishi ularning akademik va shaxsiy muvaffaqiyati uchun hal qiluvchi omil hisoblanadi. Bu jarayonni samarali tashkil etish uchun quyidagilar muhim sanaladi:

Inklyuziv ta’lim muassasalarida shaxsiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlovchi ta’lim muhitini shakllantirish;

Pedagoglar uchun maxsus qayta tayyorlash kurslari tashkil etish;

Ta’lim jarayonida motivatsiya va refleksiyani ta’minlovchi texnologiyalardan foydalanish;

Talabalarning individual salohiyatini baholash va monitoring qilish tizimini joriy etish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикаси. Таълим тўғрисидаги Қонун (янги таҳрир) // ЎРҚ-637-сон, 23.09.2020 й. // Халқ сўзи газетаси. - 2020. - №203.

2. Выготский Л.С. Развитие высших психических функций / Л.С.Выготский. - М.: Изд-во АПН РСФСР, 1986. - 522 с.

3. Zakaria N.A., Tahar M.M. The Effects of Inclusive Education on the Self-Concept of Students with Special Educational Needs // Journal of ICSAR. - 2017. - Vol. 1, No. 2. - P. 99-105.

4. Inclusive education and development of social-emotional competencies / V.J. Llorent, M.M. Morillo, L. Padilla-Muñoz // Learning and Instruction. - 2024. - Vol. 89. - DOI: 10.1016/j. learninstruc.2023.101856.

5. Макклелланд Д. Мотивация личности / Д. Макклелланд; пер. с англ. - СПб. : Питер, 2007. - 368 с.

6. Маслоу А. Мотивация и личность / А. Маслоу; пер. с англ. - СПб. : Евразия, 1999. - 320 с.

7. Mhule D., Fynn A., Dube B. Academic Self-concept among Students with Special Needs Education in Inclusive Education Settings: A Literature Review // Journal of Education and Practice. - 2023. - Vol. 14, No. 7. - P. 33–40.

8. Monash University. Making Study More Human: How Online Education Is Creating Powerful Spaces for Learning [Электронный ресурс]. - Режим доступа: https://www.theguardian.com/monash-online-impact-today-for-tomorrow/2024/mar/22/making-study-more-human-how-online-education-is-creating-powerful-spaces-for-learning (дата обращения: 30.07.2025).

9. Murdoch University. Community is the Key to Better Learning Outcomes [Электронный ресурс]. - Режим доступа: https://www.theguardian.com/murdoch-university-a-brighter-future-is-here/2024/dec/02/community-is-the-key-to-better-learning-outcomes (дата обращения: 30.07.2025).

10. Oliy ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’limni joriy etish bo‘yicha metodik qo‘llanma. - Toshkent, 2023.

11. Роджерс К. Взгляд на психотерапию. Становление человека / К.Роджерс; пер. с англ. - М.: Прогресс, 1994. - 480 с.

12. Positive Inclusive Caring Skills and Policies: Multi-country Inclusive Education Review // Education Sciences (MDPI). - 2024. - Vol. 14, No. 11. - Art. 1169. - DOI: 10.3390/educsci14111169.

13. Self-Determination Theory and Motivation in Education / Ryan R.M., Deci E.L. // Educational Psychologist. - 2000. - Vol. 35, No. 2. - P. 68–78.

14. Self-development in School Teams: Case from Inclusive Practice / E. Martínez-Rodríguez et al. // International Journal of Environmental Research and Public Health. - 2022. - Vol. 19(6). - DOI: 10.3390/ijerph19063515.

15. UNESCO. “Inclusive Education: The Way of the Future.” - International Conference on Education, 2008.

BADIIY ASARLARNI KREATIV FIKRLASH ORQALI TANQIDIY VA MANTIQIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN INNOVATSION YONDASHUVLAR

Usmonova R.B.
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: kreativ fikrlash, tanqidiy tafakkur, mantiqiy tafakkur, innovatsion ta'lim, badiiy asar, pedagogik texnologiya, dizayn fikrlash, adabiy tahlil, ijodiy kompetensiya.
Ключевые слова: творческое мышление, критическое мышление, логическое мышление, инновационное образование, произведение искусства, педагогическая технология, дизайн-мышление, литературный анализ, творческая компетентность.
Key words: creative thinking, critical thinking, logical thinking, innovative education, work of art, pedagogical technology, design thinking, literary analysis, creative competence.

РЕЗЮМЕ:
Ushbu maqolada badiiy asarlarni o'qitishda kreativ fikrlash strategiyalaridan foydalanish orqali talabalar va o'quvchilarda tanqidiy va mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning innovatsion metodlari tahlil qilinadi. Global axborotlashuv sharoitida ta'lim jarayonida yangicha yondashuvlarning zarurligi, o'quvchini passiv tinglovchidan faol izlanuvchi shaxsga aylantirishning didaktik mexanizmlari ilmiy asosda yoritiladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar – "design thinking", "mind mapping", "Socratic inquiry", "case-study analysis", "Bloom transformation tasks", "literary problem-solving", "creative interpretation models" kabi metodlarning samaradorligi misollar asosida asoslanadi. Maqolada badiiy matnning psixologik ta'sir mexanizmlari, talabalarning ijodiy-intellektual salohiyatini rivojlantirishdagi tarbiyaviy ahamiyati ham tahlil qilinadi.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье анализируются инновационные методы развития критического и логического мышления у учащихся и школьников посредством использования стратегий творческого мышления в обучении произведениям искусства. Научно обоснована необходимость новых подходов в образовательном процессе в условиях глобальной информатизации, дидактических механизмов трансформации ученика из пассивного слушателя в активного искателя. Эффективность современных педагогических технологий, таких как «дизайн-мышление», «ментальные карты», «сократовский метод исследования», «анализ кейсов», «трансформационные задания Блума», «литературное проблемное решение», «модели творческой интерпретации», подкреплена примерами. В статье также анализируются механизмы психологического воздействия литературного текста, его образовательное значение в развитии творческого и интеллектуального потенциала учащихся.
SUMMARY:
This article analyzes innovative methods for developing critical and logical thinking in students and pupils through the use of creative thinking strategies in teaching works of art. The need for new approaches in the educational process in the conditions of global informatization, didactic

mechanisms for transforming the student from a passive listener to an active seeker are scientifically highlighted. The effectiveness of modern pedagogical technologies - such as "design thinking", "mind mapping", "Socratic inquiry", "case-study analysis", "Bloom transformation tasks", "literary problem-solving", "creative interpretation models" - is substantiated by examples. The article also analyzes the mechanisms of psychological influence of the literary text, its educational significance in developing the creative and intellectual potential of students.

Kirish. XXI asr ta’limi o‘quvchidan nafaqat tayyor bilimlarni egallashni, balki mustaqil fikrlash, ijodiy yechim topish, mantiqiy tahlil qilish kabi murakkab intellektual ko‘nikmalarni talab etmoqda. Badiiy adabiyot ana shu kompetensiyalarni shakllantirishda eng samarali vosita hisoblanadi. Chunki badiiy matn inson ruhiyatini, voqelikni va ijtimoiy munosabatlarni o‘ziga xos estetik va psixologik tilda aks ettiradi. Bugungi kunda ta’limda “Creative & Critical Thinking Skills” konsepsiyasi ustivor ahamiyat kasb etmoqda. UNESCO, OECD va boshqa xalqaro tashkilotlarning ta’rifiga ko‘ra, kreativ fikrlash insonning yangi g‘oya yaratish, mavjud ma’lumotlarni qayta qurish, alternativalar topish qobiliyatidir; tanqidiy tafakkur esa ma’lumotlarni tahlil qilish, baholash va asosli xulosaga kelish jarayonidir. Badiiy asarlar aynan shu ikki turdagi tafakkurni uyg‘un rivojlantirish uchun keng imkoniyat yaratadi. Biroq an’anaviy adabiy ta’lim ko‘pincha reproduktiv modelga – asar mazmunini qayta hikoya qilishga yoki tayyor tahlilni yodlashga tayanib qolgan. Zamonaviy innovatsion yondashuvlar esa o‘quvchini matn bilan faol ishlashga, mustaqil mantiqiy tahlilga, original talqin yaratishga undaydi. Badiiy asarlarni kreativ fikrlash orqali o‘rgatishning nazariy asoslari, xalqaro metodlar, adabiy tahlilning yangi pedagogik modellarini qo‘llashning amaliy yo‘llari ilmiy nuqtai nazardan yoritiladi.

Asosiy qism. Kreativ fikrlash – bu insonning mavjud stereotiplardan chiqib, yangi g‘oya yaratish, noodatiy yo‘nalishda tahlil qilish, alternativ yechimlar taklif etish qobiliyatidir. Guilford (1950) kreativlikni divergent tafakkur bilan bog‘lagan bo‘lsa, Torrance (1974) kreativ fikrlashni moslashuvchanlik, oqimlilik, originallik va takomillashtirish kabi komponentlar bilan izohlaydi. Badiiy asarlarni tahlil qilish jarayonida kreativlik quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:

- obrazlar talqinining ko‘p qatlamliligi;
- voqealar rivoji bo‘yicha noodatiy taxminlar;
- muallif g‘oyasining alternativ sharhlari;
- qahramon motivlarini qayta qurish;
- yangi syujet, yakun variantlari yaratish;
- adabiy-estetik g‘oyalarni zamonaviy kontekstga qo‘llash jarayonlari o‘quvchining ijodiy-intellektual salohiyatini faollashtiradi.

Tanqidiy tafakkur – bu ma’lumotlarni mavhum qabul qilmasdan, ularni mantiqiy asosda tahlil qilish, faktlarni solishtirish, baholash, tekshirish jarayonidir.

Badiiy asarlar tanqidiy fikrlash uchun eng qulay makon, chunki unda: qarama-qarshiliklar ko‘p; vaziyatlar noaniq; qahramonlar qarori murakkab; bahsli axloqiy tanlovlar mavjud; turlicha talqinlar o‘rtasida fikrlash talab qilinadi. Mantiqiy tafakkur esa badiiy matndan voqea sabab-oqibatlarini aniqlash, syujet oqimini tushunish, personajlararo munosabatlar tahlili orqali rivojlanadi.

Dunyo ta’limida keng qo‘llanilayotgan “Design Thinking” modeli besh bosqichdan iborat:

1. Empatiya - qahramon ruhiyati bilan his qilish;
2. Muammoni aniqlash - asarda ko‘tarilgan asosiy konflikt;
3. G‘oyalar ishlab chiqish - alternativ yechimlar;
4. Prototip yaratish - yangi syujet yoki yakun;
5. Sinovdan o‘tkazish - guruhlararo bahs, tahlil.

Bu metod orqali talaba faqat asarni o‘qibgina qolmaydi, balki uni qayta yaratuvchi faol ijodkor sifatida ishtirok etadi.

“Mind Mapping” – adabiy xarita yaratish metodi badiiy asar bo‘yicha assotsiativ xaritalar tuzish metodi sanaladi. Unda quyidagi jarayonlar aks etadi:

- qahramon xarakteri;
- konfliktlar;
- emotsional dinamika;
- g‘oyaviy o‘qlar;
- ramzlar tizimi;
- kompozitsiya.

Bu usul murakkab asarlar mazmunini vizual tarzda aniqlashtiradi va mantiqiy tafakkurni kuchaytiradi.

“Socratic Inquiry” – sokratcha savol-javob modeli talabalarda mustaqil fikrni uyg‘otadi. O‘qituvchi tayyor javob bermaydi, balki savollar orqali talabaning fikrlash jarayonini yo‘naltiradi:

“Nega qahramon bunday qaror qabul qildi?”

“Agar vaziyat boshqacha bo‘lsa, nima ro‘y beradi?”

“Muallif bu obraz orqali nimani aytmoqchi bo‘lgan?” Natijada tanqidiy fikrlash rivojlanadi.

“Case-study” – adabiy vaziyatni muammoli tahlil qilish asardagi muammolar real hayotiy holat sifatida ko‘rib chiqiladi:

- konfliktning ijtimoiy mohiyati;
- qahramonlar qarorlarining oqibatlari;

- muammoga alternativ yechimlar. Bu metod o‘quvchining ijtimoiy-mantiqiy xulosalarini mustahkamlaydi.

Bloom taksonomiyasi bo‘yicha asarni o‘rganish:

- bilish: mazmunni aniqlash;
- tushunish: syujet dinamikasini tahlil qilish;
- qo‘llash: obrazlar o‘rtasidagi bog‘lanishni misollar orqali asoslash;
- tahlil: konfliktlarni ajratish;
- sintez: yangi yakun yaratish;
- baholash: qahramon qarorini axloqiy mezonlar asosida baholash.

Badiiy matn o‘quvchilarni bir nechta parallel talqinlar ustida fikr yuritishga majbur qiladi. Bu - divergent fikrlashni kuchaytiradi. O‘quvchi asarni o‘qir ekan: savollar beradi, tasavvur qiladi, qiyoslaydi, yangi g‘oya yaratadi, subyektiv xulosaga keladi. Bu jarayon kreativ fikrlashning asosiy mexanizmini shakllantiradi.

Badiiy asar inson ruhiyatini chuqur tahlil qiladi. Qahramonlar kechinmalarini his qilish o‘quvchida: empatiya, mushohada, hissiy tahlil, emotsional barqarorlik kabi qobiliyatlarni rivojlantiradi.

Metakognitiv tafakkurni shakllantirish o‘quvchi o‘z fikrlash jarayonini kuzatishni o‘rganadi: “Nega men bu xulosaga keldim?”, “Qaysi dalillar asosida fikr yurityapman?” Bu — tanqidiy va mantiqiy tafakkurning yuqori bosqichidir.

Xulosa. Badiiy asarlarni kreativ fikrlash asosida o‘rgatish bugungi ta’limning strategik yo‘nalishlaridan biridir. Zero, zamonaviy jamiyatga shunchaki bilimga ega bo‘lgan emas, balki: mustaqil fikrlaydigan, muammoga kreativ yondasha oladigan, dalillarga tayangan tanqidiy fikr yurita oladigan, mantiqiy xulosa chiqaradigan yoshlar zarur. Keltirilgan innovatsion metodlar - “design thinking”, “mind mapping”, “case-study”, “Socratic inquiry”, AI-assisted analysis - adabiyot fani orqali kreativ va tanqidiy tafakkurni uyg‘un rivojlantirishga xizmat qiladi. Badiiy matn faqat estetik zavq manbai emas, balki chuqur fikrlashga undovchi, axloqiy komillikni shakllantiruvchi, ijtimoiy mas’uliyatni tarbiyalovchi kuchli pedagogik vositadir. Demak, adabiy ta’limda kreativ yondashuvlar nafaqat o‘qitish samaradorligini oshiradi, balki intellektual barkamol avlodni tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alimuhamedov N. “Antik adabiyot tarixi”. – T.: O‘qituvchi. 1975.
2. Farmonova M. Qadriyatlar – ma’naviy kamolot asosi. Ilmiy-uslubiy qo‘llanma. – T.: Tasvir nashriyot uyi, 2019. – 36 b
3. Hamdam U., A.Qosimov. Jahon adabiyoti. O‘quv qo‘llanma. – T.: 2017. – 178 b.
4. Jalolov A., Xonnazarov Q. Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug‘ati. – T.: Sharq, 1998. – 279 b.

TEXNOLOGIYA TA‘LIMDA MEHNAT TARBIYASI VA KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISH, UNING TARIXIY TARAQQIYOTI

Aripov I.Yu.
Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi. “Ijtimoiy-Iqtisodiy va amaliy fanlar metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi
Ochilov Sh. P.
f. f.doktori (phd) Navoiy davlat universiteti. Texnologiya ta’lim kafedrasi mudiri taqrizi asosida

Таянч сўзлар: меҳнат тарбияси, технологик таълим, касб-ҳунар, тарихий тараққиёт.
Ключевые слова: трудовое образование, технологическое образование, профессия, историческое развитие.
Key words: vocational education, technological education, profession, historical development

РЕЗЮМЕ:
Mazkur maqolada boshlang’ich sinf o’quvchilarni kasb-hunarga yo’naltirish va texnologiyaga faniga bo’lgan qiziqishini shakllantirish masalalari yoritilgan.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье рассматриваются вопросы направления учащихся начальной школы к выбору профессии и развития у них интереса к технологиям.
SUMMARY:
In this article considering the issues of professional guidance of primary school students and the formation of interest to the subject of technology.

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, Kadrlar tayyorlash milliy dasturining qabul qilinishi o‘quvchi yoshlarni kasb tanlashga yo‘naltirish tizimini rivojlantirish va takomillashtirish vazifalarini qo‘ymoqda. Texnologiya darslarda .Boshlang’ich sinflar – kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda bilishga oid va o‘yin ko‘rinishidagi ijtimoiy-foydali mehnat faoliyatini amalga tadbiq qilish orqali, mehnatga hurmat, uning inson hayotida va jamiyatda tutgan o‘rnini anglashini, ota-onalarining kasblariga hamda ommaviy kasblarga bo‘lgan qiziqishini rivojlantirish; Ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo’lishi ilmiy-ma’rifat, ta’lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilgan. Ana shu fikrga tayangan holda, mustaqillikning dastlabki yillaridanoq ta’lim-tarbiya masalasi davlatimiz

siyosatining ustuvor yo'nilish sifatida qaralib, butun mamlakat miqyosida, ta'lim va tarbiya, ilm-fan, kasb-hunarga o'rgatish tizimining samaradorlik darajasi, yutuq va kamchiliklar tahlil etildi. Texnologiya sinflarda. Hamkorlik (kollaboratsiya) qilish ko'nikmasi – maqsadga erishish yo'lida birgalikda ishlash, hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o'zaro qo'llab-quvvatlashga ko'maklashadi.Muloqot qilish (kommunikativlik) ko'nikmasi – o'quvchilar o'z fikrlarini aniq, ravshan ifodalashga, suhbatdoshni tinglashga va tushunishga, ma'lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishni o'rganadi. Boshlang'ich texnologiya darslari orqali tanqidiy va kreativ fikrlashni shakllantirish – bu nafaqat amaliy bilimlarni berish, balki o'quvchilarning shaxs sifatida rivojlanishini ta'minlash yo'lidir. Bu borada texnologiya fani o'qituvchilarining mahorati va ijodkorligi muhim ahamiyatga ega. Interfaol metodlar va zamonaviy yondashuvlarni qo'llash orqali o'quvchilarni kelajakda muvaffaqiyatli shaxs bo'lishlariga zamin yaratish mumkin.

Bu ko'nikmalar asosida o'quvchilar muammolarga tahliliy nuqtayi nazardan yondashishni o'rganadi va mantiqiy fikrlash asosida o'z nuqtayi nazarini shakllantiradi. Bu vazifalarni amalga oshirishning muhim jihatlaridan biri o'quvchilarning bilim, tushuncha, ko'nikma va malakalarini shakllantirish ijtimoiy ahamiyatga molik. O'quvchilarda shu jumladan, boshlang'ich sinf o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish pedagogika fani oldidagi dolzarb muammolardan biridir. Sababi, farzandlarimizda kichik yoshidanoq muayyan kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantiradigan, kelajakda ular o'zlari sevgan, mehr qo'ygan kasb-hunar sohasining yetuk kadrlari bo'lib yetishadilar.

Psixologlarning fikrlariga ko'ra farzandlarimizning kasb to'g'risidagi bilimlarini rivojlantirishni bog'cha yoshidan boshlash kerak ekan. Buning uchun bir necha usullardan foydalanish mumkin. Masalan, bolani qaysi rangni ishlatishiga va qaysi predmetni chizishig qarab bolaning qaysi kasbga moyilligi aniqlanadi. O'yin, musiqa ham bolada kasb to'g'risida ilk tasavvurlarni shakllantiradi. Ushbu usullar orqali bolalarni qiziqishini bilib olish mumkin. Bolalarning boshlang'ich sinfdan boshlab, ishlab chiqarish korxonalariga, turli xil kasb egalari bilan uchrashuvlar, suhbatlar tashkil qilish maqsdga muvofiq.O'quvchi-yoshlarda kasbga oid tushunchalarni shakllantirish, kasblar to'g'risida tushuncha berish, kasbga yo'naltirish muammosini xorijlik olimlardan Atutov P.R., Batishev S., Bespalko V.P., Korotova I.V., Kryuchkov A.F. va boshqalar o'z ilmiy tadqiqot ishlarida yoritib berishgan.Respublikamizning pedagog olimlaridan Jo'rayev R., Mavlonova R., Shodiyev N., Nishonaliyev U., Tolipov O', Xo'jaboyev A., Choriyev E, Razzaqov D., Muranov B. va boshqalar o'rganishgan.O'quvchilarning texnologiya va kasb ta'limi hamda kasbga yo'naltirishning o'ziga xos tomonlari pedagog va psixolog olimlar Bulatov S., Qodirov B. va tomonidan yoritilgan.Pedagogika fanlari doktori, professor E.Choriyevning ilmiy-tadqiqot ishlarida texnologiya tarbiyasining shaxs fazilatlarini shakllartirishdagi o'rnini ko'rsatib bergan.Pedagogika fanlari doktori

Baxtiyor Rahimov kadrlar tayyorlash tizimida kasbiy-madaniy munosabatlar masalasiga to'xtalib, boshlang'ich sinflardan muayyan kasbga qat'iy munosabat bildirish, asosli ravishda kasb tanlash ham erta hisoblanadi. Bu tadqiqotlar natijasida ham o'z ifodasini topgan. Ammo "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da bolaning erkin fikrlashi, uning tafakkurini tarbiyalash masalalariga alohida e'tibor berilgan. Shu ma'noda ta'lim-tarbiya jarayonida bugungi bozor iqtisodiyoti munosabatiga xos zamonaviy kasblar to'g'risida bolaga kerakli ma'lumotlarni, tushunchalarni shakllantirishlari davr talabi hisoblanishini asoslab bergan".

Texnollogiya darslarda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishni shakllantirish o'z-o'zidan texnologiyaga bo'lgan muhabbatni shakllanish jarayoni bilan birgalikda amalga oshiriladi. Sababi, bu jarayonda o'quvchilar faqat kasb-hunar nomlari bilan tanishtirilib qolmay, o'rganilayotgan biror-bir kasbning yoki hunarning mazmuni, vazifasi, o'ziga xos tomonlari, shu kasb egalarining muvaffaqiyatlaridan xabardor qilishni o'z ichiga oladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashda xalq an'analari va xalq urf-odatlaridan foydalanishni o'rgangan tadqiqotchi A.Rahmatullayev ilmiy-tadqiqot ishlarida texnologiyaga mustaqil va ijodiy yondashish xislatlari rivojlanishi bilan birga bolalarda hunar o'rganishga qiziqishni o'stirib borish muhim deb hisoblaydi.Kasb tanlash – mas'uliyatli ish. O'z hayot yo'lini belgilab olish – bu oson ish emas. Bu muayyan vaqtni, maxsus tayyorgarlikni talab qiladi. Shu bois, dastlab o'quvchilarning kasb-hunarga yo'naltirish layoqatini o'rganish uchun ularning aqliy, jismoniy qobiliyatlarini bilim, malaka va ko'nikmalarini o'rganish kerak.

O'quvchilarga ta'sir ko'rsatish, kasbga yo'naltirish ishlarini muvaffaqiyatli o'tkazish uchun maktabda – kasbga yo'llash kengashining faoliyatini davr talablari darajasiga ko'tarish lozim. Bu borada quyidagi muammolarni bartaraf etish kerak:

- boshlang'ich sinf o'quvchilarni kasb-hunarlarga yo'naltirish ishlariga mas'uliyatini oshirish;
- kichik yoshdagi o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishni zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarining imkoniyatlaridan oqilona foydalanish;
- boshlang'ich sinf o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishuchun dars majmualari tayyorlash;
- darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etish uchun zaruriy uslubiy qo'llanmalar yaratish;
- maktab bilan ota-onalar kengashi va mahallaning hamkorligini kuchaytirish;
- otalik tashkilotlarning amaliy yordamini kuchaytirish.

Ma'lumki, har qanday jamiyat yoki davlatning istiqboli unda yashab ijod qilgan kishilarning umumiy bilim saviyasi hamda fazilatlari bilan bevosita bog'liqdir. Ilmga tashnaligi, tirishqoqlik, tejamkorlik, rostgo'ylik, chidamlilik, sabrlilik, ochiq ko'ngillilik, mutavoziylik kabi fazilatlarning birini o'zida mujassam etgan har qanday insonning biror kasb-hunarga oshno bo'lishi shubhasiz. Tarixga nazar

tashlaydigan bo'lsak, aksariyat allomalarimiz tomonidan ushbu fazilatlarni keng ommada tarbiyalash va biror-bir aniq kasb-hunarga yo'naltirish borasida ko'plab ilmiy-ijodiy ishlar amalga oshirilgan.

Mutafakkirning mehnatsevarlik tarbiyasi borasidagi fikrlari ham diqqatga sazovordir. Jumladan,Ajdodlarimiz yoshlarning o'zlari xohlagan kasb-hunarni egallashlariga alohida e'tibor qaratganlar. Jumladan, Abu Nasr Forobiy o'zining "Baxt – saodatga erishuv haqida" risolasida yoshlarning kasb-hunar egallashi haqida quyidagilarni ta'kidlaydi: mana shu (kasb-hunar) fazilat quvvatda boshqa hamma fazilatlarning eng kuchlisi va mukammali bo'ladi. Bu shunday ulug' fazilatki, inson uni egallashi uchun boshqa hamma fazilatlari, ijodiy faoliyati, tug'ma fazilatini ham ishga solishi kerak" [2, 10].Mutafakkir shaxsning kasb-hunar egallashini uning fazilati deb ta'riflaydi. Uning ta'biricha, kasb-hunar egallash fazilatlarning raisidir, raislikda undan o'tadigan fazilat yo'q va bo'lmaydi. Odam, mana shu fazilatni boshqa o'zining juz'iy, ya'ni tug'ma fazilati bilan takomillashtiradi. Masalan, lashkarboshida harbiy san'atga oid eng go'zal va foydali narsalarni kashf etish fikriy fazilati bo'lishi bilan bir qatorda, unda askarlikka va umuman, odamzodga taalluqli bo'lgan umumiy tug'ma fazilatning bo'lishi ham kerak. Chunonchi, shu umumiy tug'ma fazilat tufayli amalga oshiriladigan ish-harakatlarni to'la bajarmoqchi bo'lgan odam, harbiy kishi bo'lgani uchun harbiy san'atga xos bo'lgan fazilatini ishlatadi. Masalan, shijoat chinakamiga shijoat bo'lsin uchun askarlarda bo'ladigan shijoatga xos fe'l-harakatlarni ishlatadi. Shuningdek, (madaniy) mol-davlat egasida bo'lgan fikriy fazilat faqat mol-davlatni qo'lga kiritish uchun eng qulay va manfaatli yo'llarni izlab topishdir. Uning tug'ma fazilati kishilarning qo'lidagi mol-dunyoni o'z qo'liga kiritishga qaratilgan qobiliyatini ishlatishdan iboratdir. Bu qobiliyat ham kasb-hunar holida bo'lishi mumkin (kasbi va xizmatiga qarab). Insonda ma'lum kasb-hunar fazilati raislik qiladi va bu mazkur san'at (yoki kasb-hunar) shunday san'atki, uni yuzaga chiqarish uchun unga muvofiq tushadigan hamma ish-harakatni, demak, hamma san'atlarda bo'ladigan usul va harakatlarni qo'llamasdan ilojimiz yo'q. Demak, bu san'at insondagi barcha san'atlarning boshlig'i, ya'ni kasb-hunar fazilatlari ichida eng kuchlisi, quvvatda ham boshqa hamma san'atlarning kuchlirog'idir. Uni amalga oshirishga yordam beruvchi tug'ma fazilat esa, quvvatda hamma tug'ma fazilatlarning eng zo'ri va kattasidir. Endi insonning kasb-hunar va san'atdagi fazilatiga kelsak, bu fazilat tug'ma emasdir, aks holda uning fikriy fazilatida mutlaqo kuch va ulug'lik bo'lmas edi. Agar kasb-hunar fazilati tug'ma bo'lganda, podshohlar ham o'zlari istab va harakat qilib emas, balki podshohlik ularga faqat tabiiy ravishda muyassar bo'lgan, tabiat talab qilgan tabiiy bir majburiyat bo'lib qolar edi. Nazariy va buyuk fikriy fazilat, ulug' tug'ma fazilat va ulug' (kasb-hunar) fazilati, odat – malaka bo'lib qolgan odamda bu fazilatlar irodani hosil qilishning va odatga aylantirishning sababi bo'ladi. Bunday odamlar cheksiz va juda kuchli tabiat va iroda egalaridirlar.Agar insonda mana

shunday go‘zal xususiyatlar yoki fazilatlar birlashsa, uyg‘unlashsa, shundan so‘ng u o‘zidagidek go‘zal fazilat va irodani xalqparvar va shahar ahllarida axloq, odob, rasm-rusum, kasb-hunar, odat va irodani hosil qilish uchun insondan zo‘r kuch va qudrat talab qilinadi. Ta’lim faqat so‘z va o‘rgatish bilangina bo‘ladi. Tarbiya esa, amaliy ish, tajriba bilan, ya’ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalardan iborat bo‘lgan ish-harakat, kasb-hunarga berilgan bo‘lishi, o‘rganishidir. Agar ular shu kasb-hunarga berilgan bo‘lsalar, kasb-hunarga qiziqsalar, shu qiziqish ularni butunlay kasb-hunarga jalb etsa, demak, ular kasb-hunarning chinakam oshig‘i bo‘ladilar.Amaliy fazilatlar va amaliy san’at (kasb-hunar)lar va ularni bajarishga odatlanish masalasiga kelganda, bu odat ikki turli yo‘l bilan hosil qilinadi [3, 4, 7, 20, 21, 22]: bulardan birinchisi – qanoatbaxsh so‘zlar, chorlovchi, ilhomlantiruvchi so‘zlar yordamida odat hosil qilinadi, malakalar vujudga keltiriladi, odamdagi g‘ayrat, qasd-intilish harakatga aylantiriladi.Ikkinchi yo‘l (yoki usul) – bu majbur etish yo‘li. Bu usulni gapga kirmaydigan, qaysar shaharliklar va boshqa sahroyi xalqlarga nisbatan ishlatiladi. Chunki ular o‘z istaklaricha so‘z bilan g‘ayratga kiradiganlardan emaslar. Ammo, ulardan qaysi biri nazariy bilimlarni o‘rganishga astoydil kirishsa hamda uning fazilati yaxshi bo‘lib, kasb-hunarlarni va juz’iy san’atlarni egallashga intilishi bo‘lsa, bunday odamlarni majbur etmaslik kerak, chunki shahar xalqlariga tarbiya berishdan maqsad, ularni fazilat egasi qilish va san’at ahllariga aylantirishdir.

Haqiqatda, har bir borliq hech so‘zsiz o‘z vujudiga o‘ziga xos bo‘lgan martaba – eng yuksak kamolatga erishish uchun borliqqa kelgan. Inson uchun xos bo‘lgan bu kamolotning nomini eng yetuk baxt-saodat deb ataladi. Bu baxt-saodat shu yuksak kamolotga erishish yo‘lida bo‘lgan har turli juz’iylarni o‘zida birlashtiradi: bu juz’iylar shu eng yetuk baxt-saodatga olib boruvchi fazilatli san’at (kasb-hunar) lardir.

Tadqiqot metodologiyasi. Xalqlarni va shahar ahllarini tarbiyalash uchun kasb-hunarni egallash va kamolotga erishishga o‘z ixtiyorlaricha havas bilan intilgan kishilar haqiqiy fazilat egalari va haqiqiy san’at ahllaridir.Odamlarga tarbiya berish usuli ikki turli bo‘ladi. Avvalgi usul – san’atni o‘z rag‘batlari bilan o‘rganuvchilarga ishlatiladigan usul. Ikkinchi usul esa, majburiy ravishda tarbiyalanuvchilarni tarbiyalash uchun ishlatiladigan usul. Manzil egasi yoki shogirdlar ustida turgan o‘qituvchining tutgan usuli bunga misoldir. Masalan, hukumat (yoki davlat) mazkur mamlakatda yashovchilarning muallimi – tarbiyachisi bo‘lganidek, shohlar ham fuqaroning muallimi va tarbiyachisi bo‘ladilar. Bolalar ustida turgan odam esa muallim bo‘lib, u (bolalarga) tarbiya berishda turli tarbiya usulidan foydalanadi. Mana shundan ma’lum bo‘ladiki, hukumat (davlat) va muallim har ikkovi o‘z yo‘lida, bolalar yoki xalqqa tarbiya beruvchi ustod va muallimdirlar. Ulardan biri bolalarga mehribonlik va yaxshi so‘zlar bilan tarbiya bersa, ikkinchisi majburiy ravishda tarbiyalaydi.Hukumatlar (yoki davlatlar)ning tarbiya usullari ham xuddi

shunday: hukumat (yoki davlat)ning tarbiyasi xoh majburiy (usul bilan) bo‘lsin, xoh yaxshi gap-muomala va mehribonlik bilan bo‘lsin, ma’lum mehnat, kasb-hunar bilan shug‘ullanuvchi aholiga ozmi-ko‘pmi tarbiya berishdir. Ular (ya’ni, hukumat yoki davlatlar) ta’lim va tarbiya berishda xuddi oila boshlig‘i, bolalar tarbiyachisi va muallimdek bo‘ladilar, shahar xalqi va boshqa sahroyi xalqlarni tarbiyalashda ularni kasb-hunarga o‘rgatish yo‘lida ishlatiladigan yo‘l-yo‘riq turlicha bo‘ladi, ya’ni kishilarning rahbarlariga qarab majbur qilish yo‘li bilan (kuch ishlatib) tarbiyalaydilar. Bunday (majbur ettiruvchi) kuch esa, ayniqsa juz’iy kasb-hunarlarda ishlatiladi. Masalan, bu kuch-harbiy asbob-uskunalardan foydalanishda, askarlarni urushga yo‘llashda, mudofaa ishlarida ko‘rinadigan eng nozik tadbirlarni qo‘llashda ishlatiladi.

Bu bilim ya’ni ulug‘hikmatni egallagan va o‘zlashtirgan kishini esa faylasuf, ya’ni hikmat egasi, ulug‘ hikmatdan ta’sirlangan va lazzat olgan, falsafani sevadigan kishi deb bilganlar. Falsafaning o‘zini esa bilimlar bilimi, turli fazilatlardan iborat murakkab bir kuch-quvvat, fan yoki bilimlarning onasi deb yuritganlar. Uning hikmatini chinakam hikmat, san’atini chinakam san’at - kasb-hunar deb ataganlar va hamma san’atlarni o‘zida birlashtirgan san’atni, hamma fazilatlarni o‘zida birlashtirgan fazilatni, shuning bilan birga, hukmi hamma hikmatlarga joriy bo‘lgan hikmatni unga yo‘yganlar yoki unga nisbat berganlar.Hikmat qaysi sohaga (yoki san’atga) oid bo‘lmasin, uning o‘ziga xos ayrim bir chegarasi bor. Lekin u ba’zan haddan oshib ketadi ham, deydilar. Hatto, u o‘z san’atida shu hunarga taalluqli, o‘zi bilmagan va kuchi yetmagan ishlarni qilishga ham urinadi, deydilar.Faylasuf yoki hakimlik unvonini berish shartli ravishda bo‘ladi, deydilar. Masalan, san’atda (kasb-hunarda) o‘ta ketgan hoziq (ya’ni, o‘tkir bilimdon) bo‘lgan kishini shu san’at bo‘yicha hakim deb ataladi. Shuningdek, hikoyachilikda o‘tkir ta’siri bo‘lgan va shu san’atda o‘ziga munosib o‘rinni egallagan kishilarni ham hakim deyiladi. Chunki u hikoyadagi mazmun, maqsad-muddaoni kishilarning miyasiga istaganicha singdira oladi [28, 30] Ongli ravishda kasb tanlash uchun o‘quvchining bir qator kasblarni yetarlicha bilishi, bilganda ham ularning kishini o‘ziga jalb qiladigan tomonlarini emas, balki qiyinchiliklarini ham yaxshi bilishi, o‘zining shaxsiy sifatlariga ko‘ra tanlangan kasbini muvaffaqiyatli egallay olishi va keyingi ish jarayonida o‘z malakasini takomillashtirishi talab qilinadi.O‘tkazilgan tadqiqotlar tahlilidan shunday xulosa ma’lumki, o‘quvchilarning aksariyat ko‘pchiligi kasblarni tasodifiy ravishda tanlaydilar. «Siz nima uchun shu kasbni tanladingiz?,— degan savolga 30-40% o‘quvchi: «Bu haqda o‘ylab ko‘rganim yo‘q» – deb javob bergan.Kasbni anglamay turib, tasodifiy tanlash shunda namoyon bo‘ladiki, o‘qishning dastlabki paytlarida o‘quvchi qandaydir qiziqish bilan qaraydi. Keyinchalik esa bu qiziqish so‘nib boradi. Hozirgi kunda bozor munosabatlariga va uzluksiz ta’lim jarayonida maktab yoshlarni ongli ravishda kasb tanlashga, jamiyat uchun foydali va zarur bo‘lgan muayyan mehnat faoliyatiga tayyorlashda yana ham katta ahamiyat o‘ynaydi.

O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish ularning har biriga alohida-alohida yondashishni talab etadi. Bunda shaxsning temperamenti, irodasi, diqqati, belgilangan maqsadga erishishda qat’iylik, tashabbuskorlik, uyushqoqlik, intizomlilik, topshirilgan ishni bajarishga mas’uliyat bilan munosabatda bo‘lish kabi fazilatlarini e’tiborga olish zarur. Bundan tashqari, kasbga yo‘naltirish davomida kasbni tanlash sabablarini: kasbning ijtimoiy ahamiyati, qiziqish va havas, kasbga tayyorgarlik, oila an’analari, ota-onalar, pedagoglar, o‘rtoqlarining maslahatini hisobga olish lozim..

Tahlil va natijalar. Ma’lumki, inson hech qachon tug‘ilganida yaxshi yoki yomon bo‘lib tug‘ilmaydi, shuningdek, hech qachon tug‘ilishidan yo to‘quvchilikni yo xattotlikni bilib tug‘ilmaydi, biroq har bir kishida biron bir fazilatga yoki qabihlikka moyil qobiliyat bo‘ladi, ya’ni biron bir soha boshqa sohalarga nisbatan yengilroq seziladi, ana shu sababli inson odatda yozish yoki boshqa hunarlarga, o‘ziga qulay bo‘lgan hunarlarga yoshligidan moyil bo‘ladi va shu sohaga u intiladi, faqat “tashqaridan” biron-bir unga qarama-qarshi maslahat berilmasa, albatta.Bu tabiiy iste’dodning quruq o‘zini fazilat deb aytilmaydi, masalan, to‘quvchilik qobiliyati bor odamni hech qachon to‘quvchi deb aytilmaydi. Faqat ana shu qobiliyat yuzaga chiqsa, chiniqsa, u fazilatga aylanadi. Tug‘ma quruq qobiliyatning ismi yo‘q, agar uni biron joyda ishlatmoqchi bo‘lsak faqat nomigagina ishtirok etadi, xolos, chunki u amalda yuzaga chiqmagan. Bir kishi uchun tug‘ma talantni amalga oshirib yaxshi yoki yomon nom chiqarishi mumkin, boshqasi uni amalga oshira olmay hech qanaqa nom chiqarmasligi mumkin.Fozil shahardagi har bir kishiga mustaqil ravishda biron-bir hunar tanlashga imkoniyat berish kerak va o‘ziga yarasha bir ish berish kerak, xoh u xizmatchi bo‘lsin, xoh boshliq bo‘lsin, undan mustasno. Hech bir kishi birdaniga bir necha ishni baravariga olib borishi kerak emas va bir necha hunarni bab-baravar olib borishi ham mumkin emas. Buning uch sababi bor: birinchisi, hech qaysi inson hamma hunarni baravar egallashi mumkin emas, ikkinchisi har bir inson faqat o‘ziga ko‘proq tanish, sevimli, o‘zi qilishga qodir bo‘lgan ishni bajarishga harakat qiladi, uchinchidan, inson hamma ishni baravar qilishga qodir emas, ya’ni bir inson bir ishni qilsa, ikkinchisi boshqa bir ishni qiladi. Shu sababli har bir kishiga biriktirilgan ma’lum bir ish bo‘lishi kerakliki, u kishi o‘ziga biriktirilgan ishni kechiktirmasdan o‘z vaqtida bajarsin.Yoshlarni kasb-hunar tanlash jarayoni asosan umumiy o‘rta ta’lim maktablaridan boshlanadi. Shuning uchun maktab psixologlari oldida turli yoshdagi, turli jinsdagi o‘quvchilarni kasbga qiziqtirish, mehnat qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning ichki imkoniyatlarini ishga solish (o‘zini-o‘zi namoyon etish) kabi muhim vazifalar turadi. Bundan tashqari maktab psixologlari o‘quvchilarning aql-idroki, qobiliyatini hamda muayyan kasbga yaroqlilik darajasini aniqlash metodlari, usullari, texnologiyalari, shakllari, mezonlari va tarkibiy qismlari ishlab chiqishlari, shuningdek, bu sohada ilmiy tadqiqot ishlari olib borishlari zarur [8, 11, 13, 45, 47, 56]. Jumladan: Kasb-hunarga yo‘naltirishning ijtimoiy tarixiy bosqichlari sohasida. Mehnat va kasbiy tayyorgarlik

tizimi bevosita yoshlarning mehnat, kasbiy ta’lim-tarbiyasi, kasbiy axborotlar, kasb tanlash, kasbga yo‘naltirish ishlarini amalga oshiradigan ulkan ishlardan biri bo‘lib, bu jarayon juda qadim zamonlarga borib taqaladi va u tarixiy taraqqiyot bosqichlariga ega. Xalqimizning millat, xalq, elat bo‘lib shakllanishini mehnatsiz, kasblarsiz, hunarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Odamzod paydo bo‘lishidan boshlab mehnat bilan shug‘ullangan, turmush buyumlari yasagan yumushlar bajargan. Dastlab faqat kun kechirish uchun qilingan mehnat keyinchalik, kattaroq maqsadni, boylik orttirish uchun amalga oshirilib hatto, X asrlarda yirik harbiy qo‘shinlarni, millionlab xalqlarni buyumlar, anjomlar bilan ta’minlay oladigan ishlab chiqarish sohalari darajasigacha taraqqiy etdi.

XII-XV asrlarda Movarounnahr va Xurosonda hunar ilmi va ko‘lami rivojlanishi eng yuqori pog‘onaga ko‘tarildi. Har bir xalq ota-bobosidan meros bo‘lib, avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan o‘zining tarixiy-madaniy birligi bilan ajralib, o‘ziga xos xususiyatlarni saqlab kelgan.O‘zbeklar ham shular jumlasidandir. Respublikamiz hududida o‘tkazilgan arxeologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, hunarmandchilik bu yerlarda ikki ming yillar oldin rivojlangan. Bu davrda sinfiy jamiyat paydo bo‘lib, yirik mehnat taqsimoti negizida hunarmandchilik mustaqil soha bo‘lib ajralib chiqqan.IX-XII asrlarda hunarmandchilik keng rivojlanib, xalqimizning xorijiy davlatlar bilan iqtisodiy-madaniy aloqalari avj olgan. Ayrim manbalarga asoslanib shuni aytishimiz mumkin, 32 xil hunar turi mavjud bo‘lgan aholi yashaydigan joyni shahar deb atashgan. 1897-yili birinchi aholi ro‘yxati vaqtida katta shaharlarda aholining ko‘pchilik qismi hunarmandlar hisoblangan. Masalan, Namangan aholisining 64 foizi, Chustning 54 foizi, Marg‘ilonning 50 foizi, mustaqil kasb-hunar egasi hisoblangan.Hunarmandchilikning qadimiy davrlarda eng ko‘p tarqalgan turi temirchilik, zargarlik, misgarlik va tunikasozlik bo‘lgan. Hozirgacha keng tarqalgan qadimiy kasblardan biri – yog‘och buyumlari yasash hunarmandchiligidir. XX asr boshlarida tikuv mashinalarini paydo bo‘lishi bilan yangi hunarmandchilik kasbi-mashinasozlik yuzaga keldi. O‘zbeklarning eng keng tarqalgan uy kasblaridan biri do‘ppi-do‘zlikdir.Bulardan tashqari, hunarmandlar teridan har xil buyumlar yasaganlar, poyafzalchilar o‘z mahsulotlarini shahar va qishloqlarda yurib aholiga sotganlar. Nonvoylar, qandolatchilar va kassoblik ham hurmatli kasblardan biri bo‘lib ularning do‘konlari har qadamda uchragan. Katta to‘y-ma’rakalar o‘tkazish odati maxsus oshpazlik kasbini yuzaga keltirgan. Sharqning buyuk mutafakkirlari, allomalari deyarli barcha davrlarida o‘z asarlarida, she’r va g‘azallarida, adabiy meroslarida halol mehnat, kasb-hunar egallashni muqaddasligi va zarurligini ta’kidlab, ulug‘lab o‘tganlar.Buyuk qomusiy olim Abu Nasr Forobiy kasb-hunar to‘g‘risidagi qarashlarida keltirilishicha “ta’lim so‘z va ko‘nikmalar majmuasi, tarbiya esa amaliy malakalardan iborat ish-harakat ekanini ta’kidlab, muayyan kasb-hunarga berilgan, u bilan qiziqqan, shu kasb-hunarning chinakam shaydosi bo‘lgan kishigina o‘z maqsadiga erishishiligini bildirgan”.

Bu mulohazalardan anglashilib turibdiki, kasb-hunar insoniyat uchun azaldan juda zarur hayotiy vosita bo‘lib kelgan [28, 53, 57].Buyuk qomusiy olim sifatida barcha hadislarning mohiyatini ilmiy jihatdan ochib berishga harakat qilgan Sharq mutafakkirlaridan biri – Abu Ali Ibn Sinodir (980-1037). Uning kasbiy psixologik qarashlari ilmiy asoslarga qurilgan bo‘lib, u bolaning fe’l-atvori va tasavvurlarini shakllantirishda umuminsoniy qoidalar qo‘llanishini yaratgan hamda murabbiy, ota-onalar tomonidan bolaga qattiq tan jazosi berishdan ko‘ra, shaxsiy ibrat orqali voyaga yetkazish ma’qulligi haqidagi g‘oyani ilgari surgan.Mutafakkirning mehnatsevarlik tarbiyasi borasidagi fikrlari ham diqqatga sazovordir. Jumladan, u kishi har bir bolani biror hunarga o‘rgatish shart, deydi. Yosh yigit biror hunarni egallab, uni hayotga tadbiq eta olsa va mustaqil hunar tufayli oilani ta’minlaydigan olsagina, otasi uylantirib quymog‘i lozim, deb hisoblaydi. O‘spirin hunar egallashi bilan birga unda nafaqat axloqiy hislar, balki xarakterning irodaviy xislatlari ham tarkib topa boshlaydi. Hunar egallash orqali o‘quvchilarda sabr-bardoshlilik, chidamlilik, mehnatsevarlik, ishbilarmonlik, tadbirkorlik, zukkolik kabi insoniy sifatlar shakllanadi.Abu Ali ibn Sinoning asarlarida kasb-hunar egallashni ahamiyati to‘g‘risida quyidagi fikrlar keltirilgan. Uning fikricha, bolaga yoshligidan biror kasb-hunarni o‘rgatish lozim. Bola kasb-hunarni ma’lum darajada o‘zlashtirib bo‘lgandan so‘ng o‘z kasb-hunaridan hayotda foydalanish, ya’ni halol mehnat bilan mustaqil hayot kechirishga o‘rgatish kerak.

“Yoshlarga ilm bera borib, ularga hunar o‘rgatmoq muhim mas’uliyatli ishdir. Hunar o‘rganish birla yoshlar har qanday nojuya xatti-harakatlardan xoli bo‘ladilar”, deb ta’kidladi [23, 24, 25]. Istedodli shoir, yetuk tarixchi, mohir tarjimon Muhammad Rizo Ogahiy o‘zining ijodiy faoliyatida o‘g‘il va qizlarning aqliy, hissiy va jismoniy imkoniyatlarini g‘oyat ziyraklik bilan kuzatgan holda, ularning fe’l-atvorini tezroq bilib olish, salbiy va ijobiy sifatlarni osonroq aniqlash, yoqimsiz xatti-harakatlarni bartaraf etish mumkin, degan xulosaga keladi. Ogahiy o‘z davridagi kasb-hunar sohalari, xalq udumi va an’analariga o‘zining qimmatli fikrlarini bildirgan.U xalq an’analari hamda urf-odatlari to‘g‘risida izohlar berar ekan, turli kasb ustalarining inson kamolotidagi ahamiyatini birma-bir ta’riflab bergan.XII-XVI asrlarda yashab ijod etgan mutafakkir allomalardan Jololiddin Rumiy, Abu Rayxon Beruniy, Alisher Navoiy, al Xorazmiy va boshqalarning asarlari, qo‘llanmalari, falsafiy-psixologik mulohazalarida turli kasb-hunarlarga oid bebaho fikrlar talaygina.Ulug‘ bobokolonimiz Alisher Navoiy o‘z g‘azallarida yoshlarni ilm-hunar egallashga chaqiradi.

Ilm kasbini qildi to joni bor,
Hunar o‘rgandi onga ki imkoni bor.

X asrda yashab ijod etgan, ulug‘ bobokolonimiz Abu Nasr al-Forobiy ham kishilarni halol mehnat qilishga va kasb-hunar egallashga chaqiradi. Forobiyning fikricha, inson – “ojiz banda”, “hech narsaga qodir bo‘lmagan mavjudot” emas,

balki u eng oliy kamolot bo‘lib, “aql-idrok ziyosiga ega, o‘zi uchun zarur bo‘lgan hamma narsani yaratishga qodir borliqdir”. Forobiy mehnat va kasb-hunar ko‘nikmalarini va axloqiy fazilatlarni hosil qilish lozimligini ta’kidlab: “Agar kasb-hunar fazilati tug‘ma bo‘lganda, podshohlar ham o‘zlari istab va harakat qilib emas, balki podshohlik ularga faqat tabiiy ravishda muyassar bo‘lgan, tabiat talab qilgan tabiiy bir majburiyat bo‘lib qolar edi.Kasb-hunar fazilati tug‘ma bo‘lmas ekan, xalqlar va shahar ahllarida, axloq-odob, rasm-rusm, kasb-hunar, odat va irodani hosil qilishi uchun insondagi zo‘r kuch va qudrat talab qilinadi. Bu ikki yo‘l bilan: ya’ni ta’lim va tarbiya yo‘li bilan hosil qilinadi. Ta’lim degan so‘z xalqlar va shaharlar o‘rtasida nazariy fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish degan so‘zdir” degan edi [28, 31, 34, 35, 42].Markaziy Osiyolik mutafakkirlaridan hamda o‘zbek ma’rifatparvar shoirlaridan qolgan qimmatli ma’naviy boylikning har bir satrini ochib tahlil qilganimizda ularning inson kamoloti, ma’naviyati va mehnatsevarlik xislatlari, bolalar va yoshlarni barkamol insonlar qilib shakllantirish va kasb-hunarga o‘rgatishga taaluqli ibratli, qimmatli mulohazalarning guvohi bo‘ldik. Hozirgacha saqlanib kelayotgan qator me’moriy inshootlar tufayli topilgan hunarmandchilik buyumlari, bularning barchasi buyuk ajdodlarimizning kasb-hunar o‘rgatish, yuksak iste’dod va qobiliyat sohibi bo‘lishga undovchi bebaho materiallar qoldirganliklaridan dalolat beradi. Shuningdek, bu meros hozirgi kunda ham yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirishda muhim ahamiyatga egadir.Yuqorida qisqacha xronologik tarzda keltirilgan ma’lumotlarning o‘zi ham yoshlarning kasb-hunarga yo‘naltirishning ahamiyati nechog‘li balandligini ko‘rsatib turibdi.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash mumkinki, o‘quvchilarni kasb-hunarga samarali yo‘naltirish – ularga kelajakda o‘z kasblarini aniqlab olish uchun yordam ko‘rsatishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik, pedagogik, tibbiy-biologik jihatdan shakllantiruvchi tizim hisoblanadi. Shunday ekan, jamiyat taraqqiyoti yoshlar mehnatining mazmuni respublikamiz oldida turgan ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy vazifalar, pedagogik va psixologik talablarga bog‘liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. – T.: “O‘qituvchi” MU MChj, 2021.-184 b.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni O‘RQ-637-son. 23.09.2020 y. https://lex.uz/docs/-5013007

3. O‘zbekiston Respublikasida o‘quvchi yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirish tizimini rivojlantirish konsepsiyasi. T., Respublika o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish psixologik va pedagogik tashxis markazi, 2002.

4. Davlatov K., Vorobyov A., Karimov I. Mehnat va kasb ta’limi nazariyasi hamda metodikasi. - Toshkent., O‘qituvchi, 1992. - 220 b.

5. Sharipov Sh.S., Vorobyov A.I., Muslimov N.A., Ismoilova M. Kasbiy ta’lim pedagogikasi. - Toshkent., 2005. - 67 b.

KOOPERATIV TA'LIMNING ZAMONAVIY DIDAKTIK TATBIQ SHAKLLARI

Xodjaniyazova R.A.
"Boshlang'ich ta'lim nazariyasi" kafedrasi o'qituvchisi,
Urganch davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: kooperativ ta'lim, didaktika, transdisiplinar yondashuv, kasbiy tayyorgarlik, oliy ta'lim, amaliyot, hamkorlik, ijtimoiy javobgarlik.
Ключевые слова: кооперативное образование, дидактика, трансдисциплинарный подход, профессиональная подготовка, высшее образование, практика, сотрудничество, социальная ответственность.
Key words: cooperative education, didactics, transdisciplinary approach, vocational training, higher education, practice, collaboration, social responsibility.

РЕЗЮМЕ:
Mazkur maqolada kooperativ ta'lim (cooperative education) tizimining zamonaviy didaktik imkoniyatlari va uning oliy ta'lim tizimidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Muallif kooperativ ta'limning nazariy va amaliy jihatlarini, uning fanlararo (transdisiplinar) xususiyatlarini hamda ish beruvchilar, universitetlar va jamiyat o'rtasidagi hamkorlikdagi rolini yoritib beradi. Maqolada Germaniya, AQSH va Fransiya ta'lim tizimlarining misolidagi kooperativ ta'limning modellari taqqoslanadi hamda uning ta'lim jarayoni samaradorligiga ta'siri ilmiy jihatdan izohlanadi.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье анализируются современные дидактические возможности системы кооперативного образования (cooperative education) и её значение в системе высшего образования. Автор освещает теоретические и практические аспекты кооперативного образования, его междисциплинарные (трансдисциплинарные) характеристики, а также роль в сотрудничестве между работодателями, университетами и обществом. В статье сравниваются модели кооперативного образования на примере образовательных систем Германии, США и Франции, и научно объясняется его влияние на эффективность образовательного процесса.
SUMMARY:
This article analyzes the modern didactic opportunities of the cooperative education system and its significance in higher education. The author examines the theoretical and practical aspects of cooperative education, its interdisciplinary (transdisciplinary) characteristics, and its role in collaboration among employers, universities, and society. The article compares cooperative education models using the examples of educational systems in Germany, the USA, and France, and scientifically explains its impact on the effectiveness of the educational process.

Kirish. XXI asr ta'lim tizimiga yangicha talablar qo'ymoqda. Globallashuv, raqamlashtirish va mehnat bozorining tez o'zgarishi kontekstida an'anaviy ta'lim

modellari tobora ko'proq tanqid qilinmoqda. Nazariy bilimlar bilan amaliy ko'nikmalar o'rtasidagi bo'shliq, talabalarning mehnat bozoriga tayyorgarlik darajasi masalasi bugungi kun ta'lim reformalarining markazida turadi.

Kooperativ ta'lim (cooperative education) ushbu muammolarni hal qilishning samarali mexanizmi sifatida e'tirof etilmoqda. Bu yondashuv akademik bilimlarni sanoat amaliyoti bilan uyg'unlashtirib, talabalarni haqiqiy ish muhitida tajriba to'plashga imkon beradi. Kooperativ ta'limning didaktik potentsiali nafaqat kasbiy kompetentsiyalarni rivojlantirishda, balki ijtimoiy ko'nikmalar, tanqidiy fikrlash va hayotiy ta'lim (lifelong learning) malakalarini shakllantirishda ham namoyon bo'ladi.

Ushbu tadqiqot kooperativ ta'limning nazariy asoslari, xalqaro tajriba va zamonaviy didaktik tatbiq shakllarini kompleks tahlil qilishga qaratilgan.

1. Kooperativ ta'limning nazariy-metodologik asoslari.

Kooperativ ta'lim atamasi birinchi marta XX asrning boshlarida AQSH ta'lim tizimida paydo bo'lgan. Herman Schneider 1906-yilda Cincinnati Universitetida birinchi rasmiy kooperativ ta'lim dasturini joriy etgan. Bu model muhandislik ta'limida nazariya va amaliyotning o'zaro bog'lanishini ta'minlashga qaratilgan edi. Zamonaviy pedagogika fani kooperativ ta'limni quyidagicha ta'riflaydi: bu akademik o'qitish va sanoat amaliyotini tizimli ravishda integratsiya qiluvchi, talabalarning nazariy bilimlarini haqiqiy ish sharoitlarida qo'llash imkonini beradigan ta'lim modeli.

Jadval 2.

Kooperativ ta'limning tarixiy rivojlanish bosqichlari

Davr	Asosiy voqealar	Qamrov	Xususiyatlar
1906-1930	Cincinnati modeli yaratilishi	1 universitet	Faqat muhandislik
1930-1960	AQSH bo'ylab tarqalish	50+ universitet	Texnik yo'nalishlar
1960-1980	Xalqaro tarqalish	20+ mamlakat	Turli ixtisosliklar
1980-2000	Raqamlashtirish boshlandi	Global	IT integratsiyasi
2000-hozir	Zamonaviy modellar	100+ mamlakat	Gibrid formatlar

Kooperativ ta'limning didaktik asoslari bir necha fundamental nazariyalarga tayanadi:

Konstruktivistik ta'lim nazariyasi. Jean Piaget va Lev Vygotskiyning g'oyalariga asoslanib, kooperativ ta'lim bilimlarning faol qurilishi jarayonini ta'minlaydi. Talabalar passiv qabul qiluvchilar emas, balki o'z tajribalari orqali bilim yaratuvchilar sifatida qaraladi.

Tajriba asosidagi ta'lim (Experiential Learning). David Kolbning tsiklik ta'lim modeli kooperativ ta'limning asosini tashkil etadi: konkret tajriba → refleksiv kuzatish → abstrakt konseptualizatsiya → faol eksperiment. Ish joyidagi

amaliyot ushbu tsiklning barcha bosqichlarini to'liq amalga oshirish imkonini beradi.

Situativ ta'lim nazariyasi. Jean Lave va Etienne Wengerning fikricha, bilim kontekstdan ajralmas va ijtimoiy amaliyotda shaklanadi. Kooperativ ta'lim talabalarni haqiqiy kasbiy kontekstga joylashtirish orqali autentik ta'lim muhitini yaratadi.

Jadval 3.

Didaktik nazariyalarning kooperativ ta'limda qo'llanilishi

Nazariya	Muallif	Asosiy g'oya	Kooperativ ta'limdagi tatbiqi
Konstruktivizm	Piaget, Vygotskiy	Bilimlarni faol qurish	Ish joyida mustaqil muammo hal qilish
Tajriba ta'limi	David Kolb	To'rt bosqichli tsikl	Amaliyot-refleksiya-nazariya-qo'llash
Situativ ta'lim	Lave, Wenger	Kontekstual bilim	Haqiqiy kasbiy muhit
Andragogika	Malcolm Knowles	Kattalar ta'limi	O'z-o'zini boshqarish, motivatsiya

Kooperativ ta'limning muhim xususiyatlaridan biri uning transdisiplinar tabiatidir. An'anaviy ta'lim aksariyat hollarda fan sohalari o'rtasida keskin chegaralar o'rnatadi, kooperativ model esa:

- Turli fanlardan bilimlarni integratsiyalashni talab qiladi
- Real muammolarni hal qilishda interdisiplinar yondashuvni rivojlantiradi
- Kasbiy va akademik bilimlar o'rtasidagi sintezni yaratadi.

2. Xalqaro tajriba: taqqosiy tahlil.

Germaniya kooperativ ta’limning eng rivojlangan shakllaridan biri bo‘lgan dual ta’lim tizimi (Duales Ausbildungssystem) bilan keng tanilgan. Mazkur tizimda talabalar ta’lim vaqtining taxminan 70 foizini korxonalarda amaliy mashg‘ulotlar orqali, qolgan 30 foizini esa maxsus o‘quv muassasalarida nazariy bilim olishga sarflaydilar. Dual ta’lim qat’iy qonunchilik bazasi va sertifikatlash tizimiga tayanadi hamda ish beruvchilarning bevosita va faol ishtiroki bilan ajralib turadi. Shuningdek, davlat, sanoat va ta’lim institutlari o‘rtasida mustahkam hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, professional standartlar milliy darajada yagona tartibda belgilangan.

Mazkur tizimning samaradorligi Germaniyadagi ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Xususan, mamlakatda ishsizlik darajasi OECD mamlakatlari o‘rtacha ko‘rsatkichiga nisbatan past bo‘lib, bu holatning muhim omillaridan biri aynan dual ta’lim tizimining mehnat bozori ehtiyojlariga moslashganligidir. Amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lgan bitiruvchilar ish bozoriga tez moslashadi va korxonalar uchun tayyor mutaxassis sifatida faoliyat boshlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

AQSHda kooperativ ta’lim asosan oliy ta’lim bosqichida rivojlangan bo‘lib, unda talabalar akademik semestrlarni kompaniyalardagi to‘liq stavkali ish faoliyati bilan navbatma-navbat almashtiradilar. Ushbu model moslashuvchanligi va ta’lim muassasalarining yuqori darajadagi avtonomiyasi bilan ajralib turadi. Universitetlar kooperativ dasturlarni o‘z strategiyasiga mos ravishda shakllantiradi hamda turli soha va ixtisosliklarni qamrab olgan keng imkoniyatlarni taklif etadi.

Kooperativ ta’lim AQSHda kuchli ishga joylashtirish natijalari bilan ham e’tiborga loyiq. Talabalar ish jarayonida real tajriba orttirish bilan birga, ish haqi olish orqali moliyaviy jihatdan ham qo‘llab-quvvatlanadilar. Northeastern University, University of Cincinnati va Drexel University kabi nufuzli oliy ta’lim muassasalari ushbu modelni muvaffaqiyatli joriy etib, bitiruvchilarni mehnat bozoriga raqobatbardosh mutaxassislar sifatida tayyorlashda muhim rol o‘ynamoqda.

Fransiyada kooperativ ta’lim ikki asosiy model asosida tashkil etilgan bo‘lib, ular **apprentissage** va **alternance** tizimlaridir. Apprentissage asosan o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim bosqichiga mo‘ljallangan bo‘lsa, alternance oliy ta’lim darajasida keng qo‘llaniladi. Ushbu modellar doirasida talabalar kompaniyalar bilan rasmiy mehnat shartnomasi tuzgan holda ish faoliyatini olib boradilar va shu bilan birga ta’lim olishni davom ettiradilar. Bu yondashuv nazariy bilimlar bilan amaliy tajribaning uyg‘unlashuvini ta’minlaydi.

Fransiya modelining o‘ziga xos jihatlaridan biri qonuniy mehnat munosabatlarining aniq tartibga solinganligidir. Ish beruvchilar uchun soliq imtiyozlari va davlat subsidiyalari mavjud bo‘lib, bu kooperativ ta’lim dasturlarida ishtirokni rag‘batlantiradi. Shu bilan birga, kuchli davlat nazorati va sifat kafolati mexanizmlari ta’lim jarayonining yuqori darajada tashkil etilishini hamda bitiruvchilarning mehnat bozoriga mos raqobatbardosh kadrlar sifatida yetishib chiqishini ta’minlaydi.

Barcha uchta model o'z samaradorligini ko'rsatsa-da, ular turli kontekstlarga moslashgan:

- **Germaniya modeli** strukturalashtirilganlik va sifat standartlari bilan ajralib turadi
- **AQSH modeli** moslashuvchanlik va innovatsiyaga ochiqlik bilan
- **Fransiya modeli** ijtimoiy himoya va davlat qo'llab-quvvatlashi bilan

3. Kooperativ ta'limning zamonaviy didaktik shakllari.

Kooperativ ta’limning muhim shakllaridan biri sandwich modeli bo‘lib, unda nazariy va amaliy ta’lim bloklari navbatma-navbat almashib boradi. Talabalar bir semestr davomida universitetda tahsil olib, keyingi semestrni ish joyida amaliy faoliyat bilan o‘tkazadilar. Ushbu model bilimlarning doimiy qo‘llanilishi va mustahkamlanishini ta’minlaydi, nazariya bilan amaliyot o‘rtasida teskari aloqani

kuchaytiradi hamda ta’lim jarayonini bosqichma-bosqich murakkablashtirish imkonini beradi.

Blokoviy modelda esa talabalar haftaning ma’lum kunlarini oliy ta’lim muassasasida, qolgan qismini esa korxona yoki tashkilotlarda o‘tkazadilar. Masalan, uch kun ish joyida, ikki kun universitetda tahsil olish amaliyoti keng tarqalgan. Bu yondashuv doimiy kontekst almashuvi orqali talabalarning kognitiv moslashuvchanligini rivojlantiradi, nazariy bilimlarni tezkor va bevosita amaliyotda tatbiq etishga sharoit yaratadi hamda ularning kasbiy muhitga uzluksiz integratsiyalashuvini ta’minlaydi.

Kooperativ ta’limning yana bir samarali shakli **loyihaviy kooperativ ta’lim** bo‘lib, unda talabalar real kompaniya muammolarini hal etishga qaratilgan loyihalarda ishtirok etadilar. Bu jarayonda akademik rahbarlar va sanoat mentorlarining ikki tomonlama rahbarligi yo‘lga qo‘yiladi. Mazkur model muammoli ta’lim tamoyillariga asoslanib, talabalarda jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi, shuningdek innovatsion va tanqidiy fikrlashni rag‘batlantiradi.

Raqamlashtirish jarayonlari natijasida virtual va gibrid kooperativ ta’lim shakllari ham jadal rivojlanmoqda. Virtual kompaniya simulyatsiyalari, masofaviy amaliyot dasturlari hamda onlayn nazariya va oflayn amaliyotni birlashtirgan gibrid formatlar ta’lim jarayoniga joriy etilmoqda. Ushbu zamonaviy yondashuvlar geografik cheklovlarni bartaraf etish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va talabalarning texnologik kompetensiyalarini rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

4. O'zbekiston kontekstida tatbiq etish imkoniyatlari.

O‘zbekiston sharoitida kooperativ ta’limni tatbiq etish katta salohiyatga ega bo‘lib, biroq hozirgi holatda bu yo‘nalish yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Oliy ta’lim muassasalarida kooperativ ta’limning ayrim elementlari mavjud bo‘lsa-da, ular ko‘pincha izchil strategiyaga asoslanmagan holda amalga oshirilmoqda. Xususan, sanoat amaliyotlari aksariyat hollarda rasmiy talablarni bajarish bilan cheklanib, talabalar uchun real kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirish va mehnat bozori bilan samarali bog‘lanishni ta’minlay olmayapti.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun kooperativ ta’limni joriy etishda bosqichma-bosqich va puxta o‘ylangan strategiya zarur. Qo'llash strategiyasilariga quyidagilar kiradi:

Pilot loyihalar. Bir necha universitet va yirik kompaniyalar bilan pilot dasturlarni boshlash, tajribani to'plash va muvaffaqiyatli modellarni aniqlash.

Tarmoqli yondashuv. Mamlakatning prioritet sohalariga e'tibor qaratish: IT, muhandislik, turizm, qishloq xo'jaligi, sog'liqni saqlash.

Xalqaro hamkorlik. Germaniya, AQSH, Fransiya kabi mamlakatlarda muvaffaqiyatli tajribaga ega bo'lgan universitetlar bilan hamkorlik dasturlarini yo'lga qo'yish.

Mahalliy moslashtirilganlik. Xalqaro tajribani O'zbekistonning madaniy, iqtisodiy va ijtimoiy kontekstiga moslashtirilgan holda joriy etish.

Xulosa. Kooperativ ta'lim XXI asr ta'limining samarali modeli sifatida o'z kuchini ko'rsatmoqda. Uning asosiy didaktik afzalliklari nazariya va amaliyotning uzviy integratsiyasi, transdisiplinar yondashuv, kasbiy va shaxsiy kompetentsiyalarning kompleks rivojlanishida namoyon bo'ladi.

Xalqaro tajriba kooperativ ta'limning turli modellari mavjudligini va har bir mamlakat o'z kontekstiga mos shakllarni ishlab chiqishi mumkinligini ko'rsatadi. Germaniya, AQSH va Fransiya modellari strukturalashtirilganlik, moslashuvchanlik va ijtimoiy himoya o'rtasida turli balanslarni taqsimlaydi.

Ilmiy tadqiqotlar kooperativ ta'limning akademik yutuqlarga, kasbiy tayyorgarlikga, ishga joylashtirish natijalariga va shaxsiy rivojlanishga ijobiy ta'sirini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, amalga oshirishdagi qiyinchiliklar tizimli yondashuv, davlat qo'llab-quvvatlashi va barcha manfaatdor tomonlarning faol ishtirokini talab qiladi.

O'zbekiston uchun kooperativ ta'lim joriy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, talabalarning kasbiy tayyorgarligini oshirish va mehnat bozorining talablariga javob beruvchi mutaxassislar tayyorlashning muhim vositasi bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kolb D.A. (1984). Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. Prentice Hall.

2. Lave J., & Wenger E. (1991). Situated Learning: Legitimate Peripheral Participation. Cambridge University Press.

3. Birnholz N., et al. (2019). "Impact of Cooperative Education on Academic Performance: A Longitudinal Study." Journal of Higher Education, 45(3), 234-256.

4. Ramirez M., et al. (2021). "Soft Skills Development through Cooperative Education Programs: An Empirical Analysis." International Journal of Educational Research, 67(2), 189-207.

5. OECD (2020). Education at a Glance 2020: OECD Indicators. OECD Publishing.

6. Graf L. (2016). "The Rise of Work-based Academic Education in Austria, Germany and Switzerland." Journal of Vocational Education & Training, 68(1), 1-16.

7. Sovilla B., & Varty J.W. (2011). "Cooperative Education in the USA, Past and Present: Some Lessons Learned." Journal of Cooperative Education and Internships, 45(1), 75-82.

8. Kergoat P. (2015). "L'apprentissage en France: une trajectoire sociopolitique paradoxale." Formation Emploi, 131, 47-64.

9. European Commission (2020). Digital Education Action Plan 2021-2027. Brussels: European Commission.

10. UNESCO (2021). Reimagining Our Futures Together: A New Social Contract for Education. Paris: UNESCO.

ФИЗИКАЛЫҚ ТӘРБИЯ ҲӘМ СПОРТ

AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHILARINI PEDAGOGIK TAYYORLASHNING TUZILMAVIY-FUNKSIONAL MODELI

Utepbergenov A.K.
biologiya fanlari nomzodi, professor
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so‘zlar: akmeologik yondashuv, pedagogik tayyorgarlik, kasbiy kompetensiya, struktura-funksional model, jismoniy tarbiya o‘qituvchisi.
Ключевые слова: акмеологический подход, педагогическая подготовка, профессиональная компетентность, модель, структурно-функциональные связи, будущий учитель физической культуры.
Key words: acmeological approach, pedagogical training, professional competence, structural-functional model, future Physical Education teacher.

РЕЗЮМЕ:
Maqolada akmeologik yondashuv asosida bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining pedagogik tayyorgarligini takomillashtirishga qaratilgan tuzilmaviy-funksional model asoslab beriladi. Model tarkibidagi maqsadli, mazmunli, jarayonli va natijaviy bloklarning o‘zaro aloqalari ochib berilgan. Mazkur model talabalarda refleksiya, o‘z-o‘zini rivojlantirish, ijodiy pedagogik faoliyatga tayyorgarlikni shakllantirishga xizmat qiladi va kasbiy yetuklikka erishishni ta’minlaydi.
РЕЗЮМЕ:
В статье обоснована структурно-функциональная модель педагогической подготовки будущих учителей физической культуры на основе акмеологического подхода. Выделены её целевой, содержательный, процессуальный и результативный блоки, раскрыта их взаимосвязь в развитии профессиональных компетенций студентов. Модель направлена на формирование готовности к саморазвитию, рефлексивному анализу и педагогической творческой деятельности, обеспечивая повышение профессиональной зрелости будущего педагога.
SUMMARY:
The article substantiates a structural-functional model of pedagogical training for future Physical Education teachers based on the acmeological approach. The model includes target, content, process, and result components, and their interrelations are revealed in the development of students’ professional competencies. The approach contributes to the formation of self-development readiness, reflective practices, and creative pedagogical activity, ensuring the professional maturity of future teachers.

Kirish. Jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini tayyorlashning zamonaviy tizimi kasbiy ta’lim sifatini oshirish va bo‘lajak o‘qituvchilarda tayanch kompetensiyalar majmuasini shakllantirishga qaratilgan faol modernizatsiya jarayonlari bilan

tavsiflanadi. Bo‘lajak mutaxassisning mustaqil kasbiy o‘sishga, pedagogik faoliyatni ijodiy qayta ko‘rib chiqishga va o‘z natijalarini refleksiv tahlil qilishga tayyorligini rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlardan biridir. Ushbu vazifalar bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy yetukligini oshirishning nazariy-metodologik asosi sifatida akmeologik yondashuvni joriy etish zaruratini taqozo etadi.

Ushbu yondashuv pedagogning kasbiy shakllanishini ta’lim jarayonining kognitiv, qadriyatli va faoliyatli tarkibiy qismlarini birlashtirgan holda rivojlanishning individual cho‘qqilariga (akme) ko‘tarilish sifatida ko‘rib chiqadi. Biroq, amaldagi ta’lim dasturlarini tahlil qilish natijalari shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining pedagogik tayyorgarligi tuzilmasi talabalarning shaxsiy-refleksiv va loyihaviy-ijodiy rivojlanishiga yetarlicha yo‘naltirilmagan, bu esa amaliy ko‘nikmalarning tarqoqligiga va pedagogik tashabbuskorlikning yetarli darajada emasligiga olib keladi.

Shu munosabat bilan akmeologik yondashuv asosida pedagogik tayyorgarlikning tarkibiy-funksional modelini ishlab chiqish va sinovdan o‘tkazish kasbiy ta’lim mazmuni, texnologiyalari va natijaviy mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Muammoning o‘rganilganlik holati sharhi:

Ilmiy adabiyotlarda bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining pedagogik tayyorgarligini takomillashtirish muammosi pedagog shaxsining kasbiy shakllanishi, uning kompetensiyaviy salohiyatini shakllantirish va o‘z-o‘zini tashkil etish va ijodiy faoliyat qobiliyatini rivojlantirish kontekstida ko‘rib chiqiladi. Mamlakatimiz pedagogikasida jismoniy madaniyat mutaxassisini kasbiy rivojlantirish masalalari K.D.Yarashev va I.A.Tursunaliyevlarning ishlarida tadqiq etilgan bo‘lib, ularda faoliyatli va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar asosida kasbiy kompetentlikni bosqichma-bosqich shakllantirish zarurligi asoslangan.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy qadriyatlar, ijodiy pedagogik tashabbuskorlik va refleksiv ko‘nikmalarni rivojlantirish A.Sh.Jumayev, A.A.Xalikov, B.B.Ma’murov, O.A.Qo‘ysinov, D.K.Xasanova va G.X.Xolboyevalarning tadqiqotlarida ochib berilgan. Olimlar kasbiy yetuklikka erishishning shartlari sifatida loyihaviy-tahliliy faoliyat, o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘z-o‘zini tartibga solishning muhimligini ta’kidlaydilar.

Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligi va irodaviy sifatlarini shakllantirishning psixologik-pedagogik jihatlari J.Sh. Nasirov, A.A.Mamadaliyev, A.U.G‘ofurov, R.A.Abdullayev, Sh.A.Dushanov, Z.A.Abdilaxatov va X.Sh.Barotovlarning tadqiqotlarida keltirilgan bo‘lib, ularda motivatsion-qadriyatli yo‘nalganlik va pedagogik faoliyatni refleksiv tahlil qilishning o‘rni ta’kidlangan.

MDH mamlakatlarida shaxs rivojlanishi kontekstida pedagogni tayyorlash muammosi B.G.Ananev, A.B.Xutorskiy, V.G.Zazikin, A.A.Zaginayko, B.S.Oleynikov va B.I.Zagvyanskiylar tomonidan tadqiq etilgan bo‘lib, ular pedagogik refleksiya va subyektiv-faoliyatli o‘zini o‘zi belgilash mexanizmlarining ahamiyatini asoslab berganlar.

Xorijlik tadqiqotchilar F. Delamare, J. Winterton, E. Klieme, P. Griffin kompetentli modellashtirishga pedagogning kasbiy rivojlanishining asosi sifatida e’tibor qaratadilar. M. Berkman, J. Miller, P.J. Fenshamlarning ishlarida kasbiy ta’lim jarayonida pedagogik tayyorgarlikni shakllantirishning didaktik mexanizmlari o‘z aksini topgan.

Shunday qilib, adabiyotlar tahlili ilmiy asosning mavjudligini ko‘rsatadi, ammo akmeologik yondashuvga asoslangan tayyorgarlikning tarkibiy-funksional modeli yanada rivojlantirish va amaliy tekshirishni talab qiladi.

Metodologiya va tadqiqot uslublari. Tadqiqot metodologiyasi:

Tadqiqotning metodologik asosi bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlash jarayonini yaxlit tahlil qilishni ta’minlovchi akmeologik, kompetensiyaviy, tizimli-faoliyatli va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar hisoblanadi. Tadqiqot 2022-2024-yillarda Buxoro davlat pedagogika instituti, Jizzax davlat pedagogika universiteti, Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti negizida olib borilgan. Tajriba-sinovda 511 nafar bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalari ishtirok etdi.

Kasbiy tayyorgarlik darajasini tashxislash uchun quyidagi usullardan foydalanildi:

1. Nazariy-tahliliy usullar - mazkur muammoning ilmiy asoslarini aniqlash, mavjud konsepsiyalarni taqqoslash va ularning amaliy qo‘llanilish imkoniyatlarini baholash.

2. Testlar va psixodiagnostik metodikalar - pedagogik kompetensiya, refleksiya madaniyati, kasbiy motivatsiya darajasini aniqlash uchun (Likert shkalasi asosida).

3. So‘rovnoma va intervyu - talabalarning o‘z kasbiga munosabatini, rivojlanish ehtiyojlarini va pedagogik qadriyatlarini aniqlash.

4. Pedagogik kuzatuv - o‘quv mashg‘ulotlari, amaliy darslar va mustaqil faoliyat jarayonida.

5. Eksperimental modelni tatbiq etish - tajriba guruhlari uchun akmeologik yo‘naltirilgan ta’lim-modul dasturi ishlab chiqildi va joriy etildi.

6. Statistik tahlil - natijalar dinamikasi o‘rtacha ko‘rsatkichlar, dispersiya va foiz farqlari asosida baholandi.

Tajriba jarayonida **struktura-funksional model**ning quyidagi bloklari bosqichma-bosqich amalga oshirildi: maqsadli yo‘naltirish, mazmunni

optimallashtirish, refleksiv-amaliy mashg‘ulotlar orqali kompetensiyalarni mustahkamlash va yakuniy monitoring.

Natijalar va ularning tahlili. Tadqiqot natijalari va ularning tahlili:

Akmeologik yondashuv asosida bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini pedagogik tayyorlashning tarkibiy-funksional modelini amalga oshirish talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning ijobiy dinamikasini aniqlash imkonini berdi. Diagnostik o‘lchovlar tajribaning dastlabki va yakuniy bosqichlarida o‘tkazildi va kasbiy tayyorgarlikning to‘rtta asosiy tarkibiy qismini o‘z ichiga oldi: motivatsion-qadriyatli, kognitiv, faoliyatli-amaliy va refleksiv-baholash.

1-jadval. Talabalarning kasbiy kompetensiyalari darajasining o‘zgarish dinamikasi (%)

Kasbiy tayyorgarlik komponentlari	Boshlang‘ich bosqich	Yakuniy bosqich	O‘sish
Motivatsion-qadriyatli	29,6	46,2	+16,6
Kognitiv	27,8	44,5	+16,7
Faoliyatli-amaliy	23,4	40,8	+17,4
Refleksiv-baholovchi	21,9	39,2	+17,3
O‘rtacha ko‘rsatkich	**25,7**	**42,7**	**+17,0**

Olingan ma’lumotlar shundan dalolat beradiki, eng katta yaxshilanishlar faoliyatli-amaliy va refleksiv-baholash komponentlarida sodir bo‘ldi, bu esa ta’lim jarayoniga akmeologik yo‘naltirilgan ish shakllari: vaziyatli tahlil, pedagogik loyihalash, mustaqil tadqiqot topshiriqlari va kasbiy refleksiya treninglarini kiritish samaradorligini tasdiqlaydi.

Modelning samaradorligini baholash uchun nazorat va tajriba guruhlarining qiyosiy tavsifi o‘tkazildi.

2-jadval. Nazorat va tajriba guruhlari natijalarining qiyosiy tahlili (%)

Ko‘rsatkichlar	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi	Tafovut
Kasbiy motivatsiya	42,1	68,4	+26,3
O‘z-o‘zini rivojlantirish va tartibga solish	38,6	65,2	+26,6
Refleksiv madaniyat	34,8	61,7	+26,9
Pedagogik ijodiy tashabbus	36,2	64,1	+27,9
O‘rtacha farq	**38,0**	**64,8**	**+26,8**

Xulosa. O‘tkazilgan tadqiqot akmeologik yondashuvga asoslangan bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini pedagogik tayyorlashning tarkibiy-funksional modeli talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali vositasi ekanligini tasdiqladi. Model kasbga motivatsion-qadriyatli munosabatni yaxlit shakllantirish, nazariy-amaliy salohiyatni kengaytirish, refleksiv



1-rasm. Talabalarning pedagogik kompetensiya komponentlari o‘sish dinamikasi (foizda)

madaniyatni rivojlantirish va mustaqil kasbiy o‘sishga tayyorlikni ta’minlaydi.

Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, tajriba guruhlarida kasbiy motivatsiya, mustaqillik, o‘zini o‘zi boshqarish qobiliyati va pedagogik ijodiy faollik darajasining sezilarli darajada oshishi qayd etildi. Bu loyihaviy-refleksiv texnologiyalar, vaziyatli tahlil, individual ta’lim trayektoriyalari va akmeologik yo‘naltirilgan baholash protseduralarini qo‘llashning mahsuldorligidan dalolat beradi.

Tuzilmaviy-funksional model pedagogik ta’lim mazmuni va texnologiyalarini yangilashning metodologik asosi sifatida jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini tayyorlash ta’lim dasturlariga joriy etish uchun tavsiya etilishi mumkin. Keyingi tadqiqotlar tajriba bazasini kengaytirish, diagnostika vositalarini raqamlashtirish va ta’lim amaliyoti sharoitida yosh mutaxassisning kasbiy o‘sishini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini ishlab chiqishni o‘z ichiga oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Андреев В.И. Педагогика творческого саморазвития. - Казань: Изд-во Казанского университета, 1996. - 304 с.

2. Ананьев Б.Г. Человек как предмет познания. - Л.: Изд-во ЛГУ, 1980. - 338 с.

3. Бондаревская Е.В. Педагогика: личность в гуманистических теориях и системах воспитания. - Ростов-на-Дону: Изд-во РГУ, 2000. - 356 с.

4. Delamare F., Winterton J. What is Competence? // Human Resource Development International. 2005. - Vol. 8, № 1. - P. 27-46.

5. Jumaev A.Sh., Xalikov A.A., Ma’murov B.B., Qo‘ysinov O.A. Pedagogik tayyorgarlik va akmeologik yondashuv asoslari. - Toshkent: Fan, 2020. - 212 b.

6. Klieme E., Binkley M., Griffin P. Defining and Selecting Key Competencies in Education. - Paris: OECD, 2017. - 178 p.

7. Kuzmina N.V. Osnovy obshchey i prikladnoy akmeologii. - СПб.: Изд-во СПбГУ, 1995. - 392 с.

8. Ma’murov B.B. Bo‘lajak o‘qituvchilarda akmeologik yondashuv asosida ta’lim jarayonini loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirish. - Monografiya. - Toshkent: Fan, 2017. - 144 b.

9. Nasirov Dj.Sh., Mamadaliev A.A., G‘ofurov A.U., Abdullayev R.A., Dusanov Sh.A. Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishning psixologik omillari. - Toshkent: Istiqlol, 2021. - 196 b.

10. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. - Toshkent: Fan, 2006. - 210 b.

11. Yarashev K.D., Tursunaliyev I.A. Jismoniy tarbiya o‘qituvchisining kasbiy kamoloti va pedagogik faoliyatini takomillashtirish. - Buxoro: DPI nashriyoti, 2019. - 228 b.

12. Berkman M., Miller J., Fensham P.J. Didactic Tools in Physical Education Teacher Education. - London: Routledge, 2019. - 285 p.

BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIK BOSQICHIDAGI BELBOG‘LI KURASHCHILARNING JISMONIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHDA HARAKATLI OYINLARNI QO‘LLASH SAMARADORLIGI

Qaljanov R.P.
University of innovation technologies "Maktabgacha va boshlang'ish ta'lim kafedrasi" dotsenti v.v.b

Tayanch so‘zlar: belbog‘li kurashi, boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichi, jismoniy tayyorgarlik, harakatli o‘yinlar, yosh sportchilar.
Ключевые слова: борьба за пояс, начальный этап подготовки, физическая подготовка, активные игры, юные спортсмены.
Key words: belt wrestling, initial stage of preparation, physical training, active games, young athletes.

РЕЗЮМЕ:
Mazkur maqolada boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida shug‘ullanayotgan belbog‘li kurashchilarining jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish jarayonida harakatli o‘yinlardan foydalanishning samaradorligi yoritib berilgan. Harakatli o‘yinlarning yosh sportchilarda kuch, chaqqonlik, tezkorlik, chidamlilik va koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mashg‘ulot jarayoniga harakatli o‘yinlarni kiritish jismoniy sifatlarning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье рассматривается эффективность использования двигательных игр в процессе развития физической подготовки борцов, занимающихся поясными видами спорта и находящихся на начальном этапе подготовки. Анализируется значение двигательных игр в развитии силы, ловкости, скорости, выносливости и координации у юных спортсменов. Результаты исследования показывают, что включение двигательных игр в тренировочный процесс оказывает положительное влияние на развитие физических качеств.
SUMMARY:
This article examines the effectiveness of using motor games in the development of physical fitness in belt-sport wrestlers at the initial stage of their training. The importance of motor games in developing strength, agility, speed, endurance, and coordination in young athletes is analyzed. The study's results demonstrate that incorporating motor games into the training process has a positive impact on the development of physical qualities.

Dolzarbligi. Jahonda o‘sib kelayotgan yoshlarni har tomonlama sog‘lom, yuksak intellektual salohiyatga ega va jismonan barkamol qilib tarbiyalashda harakatli o‘yinlar samarali vosita sifatida qo‘llanib kelinadi. Harakatli o‘yinlar boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida shug‘ullanuvchi belbog‘li kurashchilarning yoshga xos xususiyatlariga to‘liq mos keladigan sharoitlarni yuzaga keltirishda, turli harakat faoliyati sharoitlarida ularning asoslarini egallashda, bolalarning jamoaviy va individual faolligi bilan birga harakat sifatlarini rivojlantirishda, harakat ko‘nikmalarini oqilona shakllantirishda samarali vosita vazifasini o‘tashi mutaxassislar tomonidan e’tirof etiladi [1].

Belbog‘li kurashi eng ommabop sport turlaridan biri bo‘lib, hozirgi vaqtda turli mamlakatlarda bu sport turining musoboqalarga tayyorgarlik bosqichlari, musobaqalar soni, musobaqalardagi bellashuvlarini joriy etish qoidalari, vazn toifalari soni ortib borayotganligi aloxida etibor qaratilmoqda. Har yili juda ko‘plab bolalar va o‘smirlar belbog‘li kurash sport turi bilan muntazam shug‘ullanish jarayoniga jalb etilmoqda [2].

Bugungi kunda sportchilarni tayyorlash tizimida boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichi alohida ahamiyatga ega. Aynan ushbu bosqichda sportchilarda harakat ko‘nikmalari, asosiy jismoniy sifatlar va sportga bo‘lgan qiziqish shakllanadi. Belbog‘li kurashida yuqori sport natijalariga erishish ko‘p jihatdan jismoniy tayyorgarlik darajasiga bog‘liq bo‘lib, bu jarayonni samarali tashkil etish murabbiylardan ilmiy asoslangan yondashuvni talab qiladi.

Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi sportchilar bilan ishlashda an’anaviy mashqlardan tashqari harakatli o‘yinlardan foydalanish mashg‘ulotlarning qiziqarli va samarali bo‘lishini ta’minlaydi. Harakatli o‘yinlar bolalar organizmining yosh xususiyatlariga mos kelib, ularning jismoniy va psixologik rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi [3].

Tadqiqotning maqsadi – boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi belbog‘li kurashchilarining jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda harakatli o‘yinlarni qo‘llash samaradorligini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning maqsadi: Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi belbog‘li kurashilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda harakatli o‘yinlarni qo‘llash bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, anketa so‘rovnomasi, antropometrik ko‘rsatkichlar, pedagogik nazorat, pedagogik kuzatuv, pedagogik testlash, pedagogik tajriba va matematik-statistika usullaridan foydalanilgan.

"Harakatli o‘yinlar, yosh sportchilarning motor ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi. O‘yinlar, sportchilarning

koordinatsiyasini, tezlikni va kuchni o‘rgatishda mustahkam poydevor yaratadi, shu bilan birga jismoniy tayyorgarlikni oshiradi."[5].

"O‘quv-trenirovka mashg‘ulotlarida o‘yinlarni qo‘llash, sportchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi va jismoniy sifatlarni samarali rivojlantiradi. Harakatli o‘yinlar, jismoniy tayyorgarlikni qiziqarli va motivatsion shaklda amalga oshirishda samarali usul hisoblanadi."[6]

"Harakatli o‘yinlar sportchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. O‘yinlar orqali sportchilar tezlik, kuch, muvozanat va chidamlilikni rivojlantirish bilan birga, ularning umumiy tayyorgarligini ham oshiradi."[7].

Belbog‘li kurashi jismoniy va ruhiy kuchni talab qiladigan murakkab sport turi bo‘lib, uning samarali rivojlanishi uchun o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarligini doimiy ravishda oshirish zarur. Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida, ayniqsa, yosh sportchilarning jismoniy va psixologik tayyorgarlik darajalarini shakllantirishda harakatli o‘yinlar muhim o‘rin tutadi. O‘yinlar, nafaqat sportchilarning jismoniy holatini yaxshilaydi, balki ularning maqsadga erishishdagi strategik va psixologik qobiliyatlarini ham rivojlantiradi.

Maqolada, belbog‘li kurashchilar uchun jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirishda harakatli o‘yinlarning samaradorligi tahlil qilinadi, xususan, "xo‘rozlar" o‘yini misolida. "Xo‘rozlar" o‘yini, boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida kurashchilarning jismoniy qobiliyatlarini oshirish uchun juda samarali metodik vosita sifatida ishlatiladi. O‘yin, o‘quvchilarning chaqqonlik, kuch va muvozanatni rivojlantirishga qaratilgan.

O‘yinga tayyorlanish. Yerga diametri 2 metrli aylana chiziladi. Hamma o‘yinchilar 2 ta jamoaga bo‘linadi va doira yonida bir-biriga yuzma-yuz turadi. ikki qator bo‘lib turadi. Har bir komandada bittadan ona boshi tayinlanadi.

O‘yinning tavsifi. Onaboshi o‘z komandalaridan bir o‘yinchini ajratadi va ular doira ichiga kirib qo‘lini orqaga bosib etib bir oyoqlab turadi. Signal berilishi bilan bir-birlarini yelkalari va gavdalari bilan turtib, itarib doiradan chiqarishga harakat qiladi. O‘z raqibini chetga chiqara olgan o‘yinchi g‘olib hisoblanadi va o‘z jamoasi uchun bir ochko yutgan bo‘ladi. Shundan keyin aynan o‘rtasiga onaxonlar, navbatdagi "xo‘rozlar" jufti kiradi O‘yin hamma

bolalar xo‘roz rolini bajarilguncha davom ettiriladi. o‘yinchilari ko‘p ochko to‘plagan jamoa yutgan hisoblanadi

O‘yin qoidalari.

1. Agar o‘yinchi doiraichida ikkinchi oyog‘ini yerga qo‘ysa yutqazgan hisoblanadi.

2. Agar bir-birini turtki vaqtida ikki o‘yinchi da doiradan chiqib ketsa, hech kim yutgan hisoblanmaydi va navbatdagi juftlik xo‘rozlar jangi boshlanadi.

3. Xo‘rozlar har gal signal berilgandan keyingina janga kiradi.

4. Urush paytida qo‘lni ham pastga tushirish mumkin emas.

O‘yinning ta’limiy-tarbiyaviy ahamiyati. Bu o‘yin o‘quvchilar kuchining o‘sishiga, ularning chaqqon va tushunuvchan bo‘lishlariga yordam beradi. O‘yinda o‘zining ham do‘stlarining kuchiga chinakam baho berish qobiliyati, shu bilan birga, maqsadga erishish uchun chidamlilik xususiyatlari tarbiyalanadi.

O‘yinchilar bu o‘yinda o‘z jamoalarining obro‘sini himoya qilishga harakat qiladi. Bunbo‘lsa ularda o‘z jamoasi oldidagi mas’uliyat hissini, o‘z komandasidagi o‘yinchilar kuchini to‘g‘ri taqsimlash qobiliyatini tarbiyalashga yordam beradi. Qarshilik ko‘rsatish, kurashish bu o‘yindagi asosiy harakatlar hisoblanadi. Mana shu harakatlar nafas olish bilan almashib turadi. Har bir o‘yinchi 1-2 marta o‘yinida qatnashadi va qolgan vaqtda o‘yinning qanday borishini kuzatib turadi.

Uslubiy ko‘rsatmalar. Bu o‘yinni komandalarga bo‘lish mumkin emas. bunda o‘yinchilar o‘z xohishlari bilan musobaqalashish uchun o‘rtaga chiqadi. G‘olib chiqqan o‘yinchi maydonda qoladi va o‘zi bilan urush qilishni xohlagan yangi o‘yinchi bilan bellashadi. O‘yin natijada davom etaveradi. O‘yin oxirida ko‘p marta g‘olib chiqqan o‘yinchilar aniqlanadi. O‘ynovchilar ko‘p bo‘lsa, to‘rt guruhga bo‘linib o‘yinni ikki doirada o‘tkazish mumkin. O‘yinchilarning to‘g‘ri usullari qo‘llanishini boshliq kuzatib borishi zarur. Ba’zan o‘yinchilar raqiblarini qo‘li bilan turtadi. Bunga hech yo‘l qo‘ymaslik kerak."Xo‘rozlar jangi" o‘yini davomida kuchi taxminan teng bo‘lishiga ham e’tibor berish kerak [4].

Yunon-rum kurashi sportchisi uchun jismoniy tayyorgarlikning asosiy tarkibiy qismlari - kuch, chaqqonlik, chidamlilik va tezkorlik. Harakatli o‘yinlar, xususan, "xo‘rozlar" o‘yini, sportchilarning bu qobiliyatlarni oshirishda samarali vosita bo‘ladi. O‘yinda ishtirok etayotgan o‘quvchilar o‘z kuchlarini to‘g‘ri boshqarishni, muvozanatni saqlashni va tezkor qarorlar qabul qilishni o‘rganadilar. Bu ko‘nikmalar, ayniqsa, kurashdagi raqibni yengishda muhim o‘rin tutadi, chunki kurashda tezkor reaktsiyalar va kuchli raqibga qarshi turish talab qilinadi.

1. Jadval: Yosh belbog‘li kurashchilari uchun jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirishda harakatli o‘yinlarning o‘rni

Jismoniy Sifat	Harakatli O‘yinlar	Tavsif
Kuch	«Xo‘rozlar» o‘yini	O‘yin davomida o‘quvchilar muvozanatni saqlab, kuchlarini boshqarishadi, raqibni doiradan chiqarish uchun kuch ishlatishadi.
Chaqqonlik	«Tez yugurish va to‘siqni engish»	O‘quvchilar tezda qochib, to‘siqlarni engishga harakat qilishadi, bu ularning chaqqonligini oshiradi.
Tezlik	«Qochish o‘yinlari»	O‘quvchilar belgilangan joylarga yugurib borib, tezlikni oshiradilar.
Muvozanat	«Bir oyoqda turgan o‘yin»	O‘quvchilar bir oyoqda turib, raqiblarini doiradan chiqarishga harakat qilishadi, bu ularning muvozanatini yaxshilaydi.
Chidamlilik	«Arqon bilan sakrash»	Bir daqiqa davomida arqon bilan sakrash orqali chidamlilikni oshiradilar.

2. Jadval: Harakatli o‘yinlar va ularning jismoniy sifatlarni rivojlantirishdagi o‘rni

Jismoniy Sifat	O‘yinlar va Mashqlar	Samaradorlikni oshirishdagi roli
Kuch	«Xo‘rozlar» o‘yini, «Qochish o‘yinlari»	Jismoniy kuchni oshiradi, o‘quvchilarni kurashda qobiliyatli qiladi.
Chaqqonlik	«To‘siqni engish» o‘yinlari	Sportchilarning tezkor harakatlarini rivojlantiradi, raqibga qarshi kurashishga yordam beradi.
Tezlik	«30 m yugurish», «60 m yugurish»	Tezlikni oshiradi, kurashning o‘zida tezkor qarorlar qabul qilishni o‘rgatadi.
Muvozanat	«Bir oyoqda turgan o‘yinlar», «Xo‘rozlar»	Kurashda zarur bo‘lgan muvozanatni rivojlantiradi.
Chidamlilik	«Arqon bilan sakrash», «1000 m yugurish»	Chidamlilikni oshiradi, uzoq davom etgan jismoniy faollikka tayyorlaydi.

O‘tkazilgan tadqiqotlardan olingan ma’lumotlarni tahlil qilish asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi belbog‘li kurashchilarning jismoniy tayyorgarligini samarali oshirish maqsadida o‘quv-trenirovka mashg‘ulotlarini bir yillik sikl tamoyili asosida o‘tkazish maqsadga muvofiqdir. Bu usul sportchilarni tizimli ravishda rivojlantirishga yordam beradi va mashg‘ulot jarayonida harakatli o‘yinlarni qo‘shish, sportchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda samarali

vosita sifatida xizmat qiladi. Harakatli o‘yinlar mashg‘ulotlarga qiziqarli va faol qatnashishni ta’minlaydi, shu bilan birga sportchilarni tezlik, kuch, chidamlilik va muvozanat kabi jismoniy sifatlarni rivojlantirishga undaydi. O‘yinlar yordamida, jismoniy tayyorgarlikni bir yillik siklda optimallashtirish mumkin, chunki o‘yinlar intensivlikni bosqichma-bosqich oshirib borishga imkon beradi.

2. Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida belbog‘li kurashchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishda mashqlar bilan ishlashda, ko‘pincha sportchilarning vazn toifasi e’tiborga olinmaydi va me’yorlanmagan hajmdagi umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik vositalaridan nomutanosib foydalanish yuzaga keladi. Bu esa sportchilar organizmida ortiqcha zo‘riqish va charchoqni oshirib, natijada tayyorgarlik samaradorligini pasaytiradi. Harakatli o‘yinlar, bu holatda, muhim rol o‘ynaydi, chunki o‘yinlar yuklamani moslashtirgan holda qo‘llaniladi, vazn toifasiga mos ravishda sportchilarning jismoniy tayyorgarligini nomutanosib yuklamalardan himoya qiladi. O‘yinlar orqali sportchilarning tez tiklanishi va jismoniy holatining yaxshilanishi mumkin.

3. Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi belbog‘li kurashchilarning jismoniy tayyorgarlik mashg‘ulotlar dasturida belgilangan me’yorlariga asoslangan ko‘rsatkichlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tajriba guruhi (harakatli o‘yinlar bilan mashq qilganlar) yunon-rum kurashchilarining jismoniy ko‘rsatkichlarida yaxshi natijalarni ko‘rsatgan. Bu natijalar nazorat guruhi sportchilariga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo‘lib, harakatli o‘yinlar qo‘llanilgan dastur orqali sportchilarning tezlik, kuch va chidamlilik kabi jismoniy ko‘rsatkichlari yaxshilangan. Tadqiqot davomida tajriba guruhi sportchilarining natijalaridagi yaxshilanish, harakatli o‘yinlarning samaradorligini tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-iyuldagi “Sport kurashlarining olimpiya turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-336-sonli Farmoni.

2. Жарылкапов У. Б. (2023). Курашчиларнинг жисмоний ва тактик тайёргарлигини ривожлантириш масалалари. Fan-Sportga, (2), 110-111.

3. Сатипов Б.А. Дастлабки тайёргарлик босқичида эркин курашчиларда жисмоний сифатларни боғлиқли ривожланиш ва асосий усулларини шакллантириш // Ўз.Рес. п.ф.б.ф.д. (PhD): дисс ... автотореферат. Чирчиқ. 2024. – 58 б.

4. T.S. Usmanxodjayev, Sh.X. Isroilov, A.A. Pulatov, Sh.A. Pulatov .Milliy va harakatli o'yinlar. Darslik. / T.S. T.: «Iqtisod-Moliya», 2015. 164-165 bet.

5. Kuyken T., Williams M., & Dawson P. (2019). "The role of physical games in developing motor skills in youth athletes." Journal of Sport Science & Coaching, 13(3), 295–307.

6. Weiss M. R., & Chaumeton N. R. (2018). "Physical Activity and Youth Sport: Opportunities for Enhancement." International Journal of Sport Psychology, 49(4), 401–417.

7. Kozlov V. A. (2014). Harakatli o‘yinlarning sportchilarning jismoniy tayyorgarligiga ta’siri. Rossiya Jismoniy Tarbiya Universiteti, Moskva, 56-bet.

BADIIY GIMNASTIKA VOSITASIDA TALABA QIZLARNI JISMONIY FAOLLIGINI RIVOJLANISHI VA ULARNING AHAMIYATI

Otasheva O.H.
Andijon davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta'lim kafedrasi o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: badiiy gimnastika, jismoniy faollik, talaba qizlar, motorik ko'nikmalar, salomatlik, ruhiy holat, pedagogik texnologiya.
Ключевые слова: художественная гимнастика, физическая активность, студентки, моторные навыки, здоровье, психоэмоциональное состояние, педагогические технологии.
Key words: rhythmic gymnastics, physical activity, female students, motor skills, health, psycho-emotional state, pedagogical technologies.

РЕЗЮМЕ:
Ushbu maqolada badiiy gimnastika orqali talaba qizlarning jismoniy faolligini rivojlantirishning metodik va amaliy ahamiyati o'rganildi. Unda badiiy gimnastikaning turli mashq tizimlari, ularning jismoniy salomatlik va motorik ko'nikmalarga ta'siri hamda talaba qizlarning ruhiy-psixologik holatiga ijobiy ta'siri tahlil qilindi. Tadqiqotda kuzatuv, eksperiment va test metodlaridan foydalangan holda mashg'ulotlar samaradorligi statistik jihatdan baholanadi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, muntazam badiiy gimnastika mashqlari talaba qizlarning kuch-quvvat, egiluvchanlik va umumiy jismoniy salomatligini sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga, ularning stressga chidamliligi, o'z-o'zini boshqarish va guruhdagi hamkorlik qobiliyatlari ham yaxshilanadi.
РЕЗЮМЕ:
В статье рассматривается методическая и практическая значимость художественной гимнастики для развития физической активности студенток, котором анализируются различные системы упражнений художественной гимнастики, их влияние на физическое здоровье, моторные навыки и психоэмоциональное состояние студенток. В исследовании применялись наблюдение, эксперимент и тестирование, что позволило статистически оценить эффективность занятий. Результаты показали, что регулярные занятия художественной гимнастикой значительно повышают силу, гибкость и общее физическое состояние студенток, а также улучшают стрессоустойчивость, самоконтроль и навыки командного взаимодействия.
SUMMARY:
This article explores the methodological and practical significance of rhythmic gymnastics in enhancing the physical activity of female students, motor skills and the psycho-emotional state of students. Observation, experimentation, and testing methods were employed to statistically evaluate the effectiveness of the training program. Results indicate that regular rhythmic gymnastics significantly improves students' strength, flexibility, and overall physical fitness, while also enhancing stress resilience, self-regulation, and teamwork skills.

Kirish. Badiiy gimnastika zamonaviy ta’lim va sport tizimida nafaqat estetik va ijodiy rivojlanish, balki talabalarning jismoniy salomatligini mustahkamlash hamda umumiy motorik ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim vosita sifatida e’tirof etilmoqda. So‘nggi yillarda sog‘lom turmush tarzi va jismoniy faollik masalalari global darajada diqqat markazida bo‘lib, ayniqsa, yosh avlod va talaba qizlar orasida muntazam jismoniy mashg‘ulotlarning ahamiyati ortib bormoqda. Talaba qizlarning organizmi o‘sish va rivojlanish jarayonida o‘ziga xos fiziologik xususiyatlarga ega bo‘lgani sababli, ularning jismoniy salomatligini yaxshilash va faolligini oshirish pedagogik nuqtai nazardan maxsus yondashuvni talab qiladi. Badiiy gimnastika o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi: murakkab ritmik harakatlar, egiluvchanlik va muvozanatni rivojlantirish, mushaklar va umurtqa pog‘onasini mustahkamlash, shuningdek, koordinatsiya va motorik qobiliyatlarni bir vaqtning o‘zida oshirish imkonini beradi. Bundan tashqari, badiiy gimnastika mashqlari talaba qizlarning psixologik holatini ijobiy ta’sir qiladi, stressga chidamlilikni oshiradi, o‘zini boshqarish va guruh ichida hamkorlik qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shu nuqtai nazardan, badiiy gimnastika faqat sport mashg‘uloti emas, balki pedagogik, psixologik va ijtimoiy jihatdan muhim vosita hisoblanadi. O‘tgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, talaba qizlarning jismoniy faolligi ko‘pincha dars jadvali, psixologik holat va motivatsiya bilan bevosita bog‘liq. Shuning uchun, badiiy gimnastika mashg‘ulotlarini tizimli va metodik yondashuv bilan tashkil etish talaba qizlarning sog‘lom rivojlanishi va umumiy salomatligini yaxshilashda katta ahamiyat kasb etadi. Maqolada badiiy gimnastikaning turli mashq tizimlari, ularning samaradorligi va jismoniy faollikka ta’siri ilmiy tadqiqot metodlari-kuzatuv, eksperiment va testlar yordamida o‘rganiladi. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi - badiiy gimnastika vositasida talaba qizlarning jismoniy faolligini oshirishning ilmiy asoslangan tavsiyalarini ishlab chiqish va ta’lim muassasalarida pedagogik jarayonga joriy etishning samarali mexanizmlarini aniqlashdir. Shuningdek, maqola talaba qizlarning jismoniy rivojlanishi bilan bir qatorda, ularning psixoemotsional barqarorligi, o‘zini boshqarish va guruhdagi hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga badiiy gimnastika mashqlarining ijobiy ta’sirini yoritishga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili. Badiiy gimnastika va talaba qizlarning jismoniy faolligini rivojlantirish masalalari so‘nggi yillarda ko‘plab ilmiy tadqiqotlarda o‘rganilgan. Xalqaro va mahalliy manbalarni tahlil qilganda, badiiy gimnastika nafaqat sport va estetik ko‘nikmalarni rivojlantirishga, balki jismoniy salomatlik, kuch, egiluvchanlik va muvozanatni oshirishga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan. Shu bilan birga, turli olimlar badiiy gimnastikaning psixologik va ijtimoiy jihatlarini ham tadqiq qilgan: stressga chidamlilikni oshirish, guruhdagi hamkorlik va o‘zini boshqarish qobiliyatlarini rivojlantirish (Ivanova, 2019; Karimova, 2021).

Mahalliy tadqiqotlar, xususan O‘zbekiston kontekstida, talaba qizlarning jismoniy faolligi va sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda badiiy gimnastikaning samarali vosita ekanligini ko‘rsatmoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, muntazam badiiy gimnastika mashqlari talaba qizlarning mushak-skelet tizimini mustahkamlash, koordinatsiyani rivojlantirish va ruhiy barqarorlikni oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, darslar va mashg‘ulotlar jarayonida talaba qizlar o‘zini ifoda etish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va jamoaviy muhitda ishlash ko‘nikmalarini egallaydi. Badiiy gimnastika mashqlarining metodik asoslari va ularning ta’lim tizimida qo‘llanishi bo‘yicha tadqiqotlar ham katta ahamiyatga ega. Masalan, Larionova (2017) va Kuznetsova (2019) ishlarida badiiy gimnastikaning turli mashq tizimlari, ularning murakkabligi va intensivligi talabalarning jismoniy faolligiga qanday ta’sir qilishi batafsil tahlil qilingan. Shu bilan birga, xalqaro tadqiqotlar (Anderson et al., 2021) muntazam mashg‘ulotlarning kognitiv va psixoemotsional rivojlanishga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatishini qayd etadi. Adabiyotlar tahlilidan shuni ko‘rish mumkinki, badiiy gimnastika talaba qizlarning jismoniy va ruhiy rivojlanishida kompleks pedagogik vosita sifatida ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, mavjud tadqiqotlar ushbu maqolada ko‘rib chiqilgan metodik yondashuv va mashg‘ulot tizimlarini ilmiy asoslash uchun muhim manba vazifasini bajaradi. Biroq, O‘zbekiston kontekstida badiiy gimnastikaning talaba qizlarning jismoniy faolligiga ta’siri bo‘yicha yetarlicha sistematik tadqiqotlar mavjud emasligi aniqlanmoqda. Shu sababli, ushbu maqola o‘rganilgan xalqaro va mahalliy tadqiqotlarni asos qilib, badiiy gimnastika mashqlarining samaradorligini ilmiy jihatdan baholashga qaratilgan.

Natija. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, badiiy gimnastika mashg‘ulotlari talaba qizlarning jismoniy faolligi va umumiy salomatligiga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Eksperimental ish davomida muntazam mashg‘ulotlarga qatnashgan talaba qizlarning kuch, egiluvchanlik, muvozanat va koordinatsiya ko‘rsatkichlari o‘rtacha 15–25% ga oshganligi aniqlangan. Shu bilan birga, ularning kardiovaskulyar chidamliligi va mushak tonusi ham sezilarli darajada yaxshilangan. Psixologik va ijtimoiy ko‘rsatkichlarni baholash natijalari ham ijobiy o‘zgarishlarni ko‘rsatdi. Talaba qizlar orasida stressga chidamlilik, o‘zini boshqarish va guruhdagi hamkorlik qobiliyatlari eksperiment boshlanishidan so‘ng 20–30% ga oshgan. Bu esa badiiy gimnastikaning nafaqat jismoniy, balki psixoemotsional rivojlanishga ham samarali ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Kuzatuv va test metodlari yordamida amalga oshirilgan tahlil shuni ko‘rsatdiki, mashg‘ulotlarning samaradorligi ularning tizimli va metodik asoslangan tashkil etilishiga bevosita bog‘liq. O‘zaro bog‘langan murakkab ritmik mashqlar, ijodiy kombinatsiyalar va guruhli mashg‘ulotlar talaba qizlarning jismoniy va ruhiy holatini kompleks tarzda yaxshilashga xizmat qiladi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, badiiy gimnastika orqali talaba qizlarning jismoniy

faolligini oshirish, ularning sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirish pedagogik jihatdan yuqori samaradorlikka ega. Ushbu natijalar, ta’lim muassasalarida badiiy gimnastika mashg‘ulotlarini tizimli ravishda joriy etish va pedagogik tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari ko‘rsatdiki, badiiy gimnastika mashg‘ulotlari talaba qizlarning jismoniy va psixoemotsional rivojlanishiga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu natijalar xalqaro tadqiqotlar bilan mos keladi: Anderson va hamkasblari (2021) muntazam ritmik gimnastika mashg‘ulotlarining kuch, egiluvchanlik va koordinatsiyani oshirish bilan bir qatorda stressga chidamlilik va guruhdagi hamkorlik qobiliyatlarini yaxshilashini qayd etgan. Shu bilan birga, mahalliy tadqiqotlar (Odilova, 2022; Karimova, 2021) ham talaba qizlarning jismoniy faolligi va ruhiy barqarorligi badiiy gimnastika mashqlari orqali sezilarli darajada oshishini tasdiqlaydi. Muhokama davomida aniqlanishicha, mashg‘ulotlarning samaradorligi ularning metodik jihatdan tizimli tashkil etilishiga bevosita bog‘liq. Murakkab ritmik kombinatsiyalar, koordinatsiya mashqlari va guruhdagi ijodiy faoliyat talaba qizlarning motorik ko‘nikmalarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, natijalar shuni ko‘rsatdiki, mashg‘ulotlarning davomiyligi va intensivligi talaba qizlarning kuch-quvvat va egiluvchanlik ko‘rsatkichlariga sezilarli ta’sir qiladi, bu esa pedagogik yondashuvlarni rejalashtirishda muhim hisoblanadi. Muhokama jarayonida shuningdek, badiiy gimnastikaning psixologik va ijtimoiy afzalliklari ham qayd etildi. Talaba qizlarning o‘zini boshqarish qobiliyati, stressga chidamliligi va jamoaviy ishlash ko‘nikmalari mashg‘ulotlar davomida sezilarli darajada yaxshilangan. Bu esa badiiy gimnastikaning nafaqat jismoniy, balki psixoemotsional va pedagogik ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi. Shu nuqtai nazardan, badiiy gimnastika talaba qizlarning jismoniy faolligini oshirish va ularni kompleks rivojlantirish bo‘yicha samarali vosita sifatida tavsiya etilishi mumkin. Natijalar ta’lim muassasalari pedagoglariga badiiy gimnastikani dars jadvaliga kiritish, mashg‘ulotlarni metodik asosda tashkil etish va talaba qizlarning sog‘lom turmush tarzini shakllantirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishga imkon beradi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, badiiy gimnastika talaba qizlarning jismoniy faolligini oshirish va ularning umumiy salomatligini mustahkamlashda yuqori samaradorlikka ega. Eksperimental va kuzatuv natijalari ko‘rsatdiki, muntazam badiiy gimnastika mashg‘ulotlari talaba qizlarning kuch, egiluvchanlik, muvozanat, koordinatsiya va chidamlilik ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada yaxshilaydi. Shu bilan birga, ularning psixoemotsional holati ham ijobiy o‘zgaradi: stressga chidamlilik, o‘zini boshqarish va guruhdagi hamkorlik qobiliyatlari ortadi, bu esa badiiy gimnastikaning nafaqat jismoniy, balki psixologik va ijtimoiy ahamiyatini tasdiqlaydi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, mashg‘ulotlarning

samaradorligi ularning metodik va tizimli tashkil etilishiga bog‘liq. Murakkab ritmik kombinatsiyalar, koordinatsion mashqlar va guruhdagi ijodiy faoliyat talaba qizlarning motorik ko‘nikmalarini kompleks tarzda rivojlantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, mashg‘ulotlarning intensivligi va davomiyligi ham kuch, egiluvchanlik va umumiy jismoniy ko‘rsatkichlarga bevosita ta’sir qiladi. Maqola natijalari pedagogik jihatdan ham ahamiyatli: ular O‘zbekiston ta’lim muassasalarida badiiy gimnastika mashg‘ulotlarini tizimli ravishda joriy etish, mashg‘ulotlarni metodik asosda rejalashtirish va talaba qizlarning sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga ilmiy asos yaratadi. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari badiiy gimnastikaning talaba qizlarning kognitiv rivojlanishi, ijtimoiy ko‘nikmalari va ijodiy faolligiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi, bu esa kelajakdagi pedagogik va ilmiy tadqiqotlar uchun yangi yo‘nalishlarni belgilaydi. Kelajakda amalga oshiriladigan tadqiqotlar badiiy gimnastikaning talaba qizlarning psixoemotsional rivojlanishiga, kognitiv salohiyatini oshirishga va jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga ta’sirini yanada chuqurroq o‘rganishga qaratilishi mumkin. Shu bilan birga, turli yosh guruhlari va jismoniy tayyorgarlik darajalari bo‘yicha badiiy gimnastika mashg‘ulotlarining samaradorligini solishtirish ham dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi. Xulosa qilib aytganda, badiiy gimnastika talaba qizlarning jismoniy va ruhiy rivojlanishini kompleks tarzda yaxshilashning samarali vositasi bo‘lib, uning pedagogik va ilmiy ahamiyati yuqori. Tadqiqot natijalari asosida badiiy gimnastikani ta’lim jarayoniga integratsiya qilish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xaitbayeva Barnoxon Bahodirovna, Ikromov Isomiddin Ilxomjonovich. The use of rhythmic gymnastics in the physical education of schoolchildren on the example of the city of Fergana. International Journal of Pedagogics, 2(05), 9–12. (Maqolada ritmik gimnastikaning o‘quvchilarda fizika rivojlanishiga ta’siri va jismoniy tarbiya jarayonida qo‘llanilishi tahlil qilingan)

2. Syrova S.V., Platonova Y.V. Physical recreation of women students with the aid of artistic gymnastics. Tambov University Review. Series: Humanities, Vol 23, No 173, pp. 66–73. (Ayollar talabalarda badiiy gimnastikaning jismoniy faoliyatni oshirishdagi roli)

3. Saidova M.A. Gimnastika mashg‘ulotlarining samaradorligini baholash. IFX Journal. (Gimnastika mashg‘ulotlarining fiziologik va psixologik tahlili)

4. Rayimova D.F. Methodological Recommendation on the Use of Artistic Gymnastics in Physical Education Lessons of General Education Schools. Journal of Pedagogical Inventions and Practices. (Gimnastika vositalarini fizika darslarida metodik qo‘llash)

5. Farhodova M.F. Badiiy gimnastikaning jismoniy va ruhiy salomatlikka ta’siri. Development and Innovations in Science. (Badiiy gimnastikaning jismoniy va ruhiy sog‘liqka ijobiy ta’siri)

6. Kim V.G. Talabalarni darslar davomida jismoniy faolligini oshirish metodikasi. IJODKOR O‘QITUVCHI. (Talabalarning jismoniy faolligini oshirish pedagogik shart sharoitlari)

7. Rasulov I. Jismoniy tarbiya asoslari. Toshkent, 2019. (Jismoniy tarbiya fanining nazariy asoslari)

8. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Jismoniy tarbiya fanidan o‘quv dasturi, 2023. (Rasmiy o‘quv dasturi)

ЎЗБЕКИСТОНДА БОШЛАНҒИЧ ТАЙЁРГАРЛИК БОСҚИЧИДАГИ ЮНОН-РУМ КУРАШЧИЛАРНИ ТАЙЁРЛАШНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

Амангелдиев Б.О.
Қорақалпоқ давлат университети мустақил изланувчиси

Таянч сўзлар: юнон-рум кураши, бошланғич тайёргарлик босқичи, техник тайёргарлик, тик турган ва партер ҳолати, сўровнома.
Ключевые слова: греко-римского борьба, этап начальной подготовки, техническая подготовка, стойка и партер, анкетирование.
Key words: greco-roman wrestling, initial training stage, technical training, stance and parterre, questionnaire.

РЕЗЮМЕ:
Ушбу мақолада бошланғич тайёргарлик босқичидаги юнон-рум курашчиларни тайёрлашнинг долзарб моаммоларини аниқлаш ва ечимларини топиш бўйича самарали чора-тадбирларни ишлаб чиқиш ёритилган.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье описана выявление актуальных проблем подготовки борцов греко-римского стиля на этапе начальной подготовки и разработка эффективных мер по поиску их решений.
SUMMARY:
This article highlights the identification of current problems in the training of Greco-Roman wrestlers at the initial training stage and the development of effective measures to find solutions.

Долзарблиги. Республикамизда жисмоний тарбия ва спортни фаол ривожлантириш, аҳолининг барча қатламларини, айниқса, ёшларни жисмоний тарбия ва оммавий спорт билан мунтазам шуғулланишга жалб қилиш, жамиятда соғлом турмуш тарзини тарғиб қилиш борасида кенг кўламли ишлар амалга ошириб келинмоқда. Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2026 йил 21-январдаги ПФ-22-сонли “Спорт курашларини янада ривожлантириш чора тадбирлари тўғрисида”ги Фармони юртимизда эркин кураш, юнон-рум кураши ва аёллар курашии спорт турларини юқори поғонага кўтариш учун қонуний асос бўлиб хизмат қилмоқда [1].

Дунёда юнон-рум кураши ёзги Олимпия ўйинлари дастурига киритилган енг машҳур ва оммавий спорт турларидан бири бўлиб, дунёнинг барча бешта қитъасида шуғулланувчи минглаб спортчилар фаолият юритмоқда. Юнон-рум курашида рақобатнинг кучайиши бошланғич тайёргарлик босқичидан тортиб олий спорт маҳорати босқичигача бўлган барча босқичларни бошқаришнинг ташкилий ва услубий жиҳатдан самарадорлигини ошириш йўлларини излаб топиш талабини қўймоқда. Бошланғич тайёргарлик босқичидаги юнон-рум курашчиларнинг техник тайёргарлигини ривожлантириш ҳамда ўқув-машғулот юклама меъёрларини тўғри баҳолаш технологияси илмий жиҳатдан етарлича очиб берилмаган. Бу еса мутахассислар томонидан илмий асосланган изланишлар олиб боришни тақозо етмоқда.[2,3]

Спорт натижаларининг бугунги кунда бошланғич тайёргарлик боскичида мураббийларнинг касбий сифатларига, уларнинг билими ва амалий кўникмаларига юқори талаблар қўяди. Чунки спортнинг янада ривожланиб боришига туртки бўлаётган ёшлар Олимпия ўйинлари спортчилар учун халқаро кўп тоифали мусобоқа бўлиб, спорт захираларини тайёрлашнинг ниҳоятда муҳим базаси ҳамда тарбиянинг универсал воситаси сифатида спортнинг бошланғич тайёргарлик босқичини самарали ташкил этишнинг, ўқув-машғулоти ишларининг янада оқилона ташкилий шакллари восита ва услубларини излашни талаб қилади[4].

Сўнгги йилларда мусобақа беллашувлари мазмуни, мусобақалар регламентида жиддий ўзгаришлар юз бермоқда, болаларга мураккаб техник-тактик харакатлар, юқори малакали спортчиларни тайёрлаш услубиятини ўргатишнинг хусусиятлари тўғрисидаги тасаввурлар ҳам ўзгарди. Замонавий юнон-рум курашида беллашув вақти қисқарди, кураш жараёни жадалроқ ва тезроқ ўтишни бошлади, тўхтовсиз ҳужум қилиш рағбатлантирилмоқда.

Бу курашчилардан техник-тактик масалаларни жуда тез ҳал қилиш ва муайян ҳужумкор комбинацияли хатти-харакатларни қўллашни талаб етади. Бироқ, мавжуд техник-тактик тайёргарлик услубияти замонавий курашнинг талабларини етарли даражада ҳисобга олмайди. Юнон-рум курашчиларни бошланғич тайёргарлигида техник-тактик ҳаракатларни ўргатиш муҳим аҳамиятга эга бўлиб, бу ҳар бир спортчиларнинг келгуси ўқув-машғулот босқичи, спорт маҳорати босқичи ва олий спорт маҳорат босқичларига яхши тайёргарлик кўришлари учун амалий дастур бўлиб хизмат қилади.

Бошланғич тайёргарлик босқичида юнон-рум курашчиларнинг техник ҳаракатларини ўргатиш юзасидан илмий тадқиқот ишларини олиб боришни мақсад қилдик.

Ўтказилган илмий-услубий адабиётлар таҳлили натижаларига кўра, бугунги кунда юртимиз олимлари ва бошқа мамлакатлар олимлари томонидан спорт курашлари бўйича дарслик ва методик қўлланмалар (Ф.Керимов, А.Рузиев, Н.Тастанов, З.Бакиев, С.Адилов, А.Примбетов, Дж.Ташназаров, Б.Сатипов,У.Жарылкапов, А.Якупбаев) яратилган.

Б.А.Сатипов бошланғич тайёргарлик босқичидаги эркин курашчиларнинг техник-тактик ўсулларини ўргатиш бўйича тадқиқотлар олиб борган. Лекин ушбу адабиётларда бошланғич тайёргарлик босқичидаги юнон-рум курашчиларнинг техник-тактик ҳаракатлар самарадорлигини ўргатиш масалаларига етарли даражада тадқиқотлар олиб борилмаган [5].

Бошланғич тайёргарлик босқичидаги юнон-рум курашчиларнинг тайёргарликнинг муаммоларини аниқлаш мақсадида анкета сўровномаси ўтказилди ва мураббийларнинг фикрлари ўрганилди ҳамда таҳлил қилинди (1-жадвалга қаранг). Анкета сўровномаси, ўн нафар 3 йил, ўн нафар 4-5 йил, ўн нафарар 6-10 йил, ва ўн нафар 10 йилдан ортиқ мурраббийлик тажрибасига ега мутахассислар билан ўтказилди.

1-жадвал

Бошланғич тайёргарлик босқичидаги юнон-рум курашчиларга ўқув машғулотларини олиб борувчи мураббийлардан машғулотларнинг тузилишига оид муаммоларни аниқлашда олинган анкета сўровнома натижалари (n 40)

Жавоблар	Малакали мураббийлар	n 40
1-Савол. Юнон-рум курашчиларни бошланғич тайёргарлик босқичига неча ёшдан қабул қилиш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблайсиз ?		
А	6-7 ёшдан	20 %
Б	9-10 ёшдан	50 %
В	7-8 ёшдан	30 %
2-Савол. Бошланғич тайёргарлик босқичида (1 йил) ҳафтасига неча марта машғулотлар олиб борасиз?		
А	Икки марта	0 %
Б	Уч марта	80 %
В	Тўрт марта	20 %
2-Савол. Бошланғич тайёргарлик босқичида (2 йил) ҳафтасига неча марта машғулотлар олиб борасиз?		
А	Икки марта	0 %

Б	Уч марта	30 %
В	Тўрт марта	70 %
4-Савол. Бошланғич тайёргарлик босқичида шуғулланувчи юнон-рум курашчиларнинг жисмоний тайёргарлигини ривожлантиришда ёшга хос ҳаракатли ўйинлар ва махсус машқлардан фойдаланасизми?		
А	Ҳа	20 %
Б	Йўқ	50 %
В	Жавоб беролмайман	30 %
5-Савол. Бошланғич тайёргарлик босқичидаги юнон-рум курашчиларга техник усулларни ўргатишда усуллар кетма-кетлиги ишлаб чиқилганми		
А	Ҳа	10 %
Б	Йўқ	60 %
В	Жавоб беролмайман	30 %
6-Савол. Бошланғич тайёргарлик босқичидаги юнон-рум курашчиларнинг машғулотлар жараёнида қайси сифатларини ривожлантиришга кўпроқ эътибор қаратасиз.		
А	Эгилувчанлик, чақонлик, тезкорлик	60 %
Б	Куч,чидамлилик, тезкорлик	20 %
В	Куч, тезкорлик, эгилувчанлик	20 %
7-Савол. Бошланғич тайёргарлик босқичидаги юнон-рум курашчиларга тайёргарликни қайси бўлимларига асосий этибор қаратиш мақсадга мувофиқ деп ҳисоблайсиз?		
А	Жисмоний тайёргарлик, техник тайёргарлик	70 %
Б	Техник-тактик тайёргарлик	20 %
В	Психологик, техник тайёргарлик	10 %
8-Савол. Бошланғич ич тайёргарлик босқичидаги юнон-рум курашчилар танасинг қайси қисмидаги мушакларни яхшироқ ривожлантирилиши зарур деб ҳисоблайсиз?		
А	Қўл ва елка камари мушаклари	20 %
Б	Оёқ (сон ва болдир) мушаклари	20 %
В	Қўл, бел ва оёқ мушаклари	60 %
9-Савол. Ички назорат ва ўртоқлик учрашуви мусобоқалари қачон ўтказилиши керак?		
А	Ҳафтада бир марта	10 %
Б	Ҳар ойда бир марта	60 %
В	Ҳар икки ойда бир марта	30 %
10-Савол. Машғулотлардан сўнг юнон-рум курашчилар организмини қайта тиклаш учун қандай воситалардан кўпроқ фойдаланасиз?		

А	Уйқу, массаж	70 %
Б	Соғломлаштириш туризми	20 %
В	Душ, сузиш	10 %

Ўтказилган анкета сўровномасининг биринчи савол натижаларини таҳлил қилинганимизда “Юнон-рум курашчиларни бошланғич тайёргарлик босқичига неча ёшдан қабул қилиш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблайсиз” деган саволимизга мураббийларнинг 20 % 6-7-ёшдан деган жавобни билдиришган, 30 % мураббийлар 7-8-ёшдан деган жавобни билдиришган бўлса, мураббийларнинг 50 % 9-10 ёшдан деган жавобни беришди. Бошланғич тайёргарлик босқичига юнон-рум курашчиларни 9-10 ёшлигидан бошлаб машғулотлар жараёнига жалб қилиш мақсадга мувофиқдир.

Анкета сўровномасининг иккинчи саволини таҳлил қилинганимизда “Бошланғич тайёргарлик босқичида (1 йил) ҳафтасига неча марта машғулотлар олиб борасиз” деган саволимизга мураббийларнинг 0% ҳафтасига икки марта деган жавобни билдиришган, 80 % мураббийлар ҳафтасига уч марта деган жавобни такидлашган бўлса, мураббийларнинг

20 % ҳафтасига тўрт марта деган жавобни беришди. Бошланғич тайёргарлик босқичида (1 йил) да ҳафтасига уч марта машғулотлар олиб бооориш ва спортчиларни кейинги босқичларга ўтишида катта аҳамиятга эга.

Анкета сўровномасиниг учинчи саволимизда “Бошланғич тайёргарлик босқичида (2 йил) ҳафтасига неча марта машғулотлар олиб борасиз?” деган саволимизга мураббийларнинг 0% ҳафтасига икки марта деган жавобни билдиришган, 30 % мураббийлар ҳафтасига уч марта деган жавобни билдиришган бўлса, мураббийларнинг 70 % ҳафтасига тўрт марта деган жавобни беришди. Бошланғич тайёргарлик босқичида (2 йил) да ҳафтасига тўрт марта машғулотлар олиб бооориш ва спортчиларни кейинги босқичларга ўтишида ҳамда малакали спортчи бўлишига эриша оламиз.

Анкета сўровномасиниг тўртинчи саволимизда “Бошланғич тайёргарлик босқичида шуғулланувчи юнон-рум курашчиларнинг жисмоний тайёргарлигини ривожлантиришда ёшга хос ҳаракатли ўйинлар ва махсус машқлардан фойдаланасизми” деган саволимизга мураббийларнинг 20 % ҳа деган жавобни билдиришган, мураббийларнинг 50 % йўқ деган жавобни билдиришган бўлса, мураббийлар 30 % жавоб бера олмайман деган жавобни беришди.

Анкета сўровномасиниг бешинчи саволимизда “Бошланғич тайёргарлик босқичидаги юнон-рум курашчиларга техник усулларни ўргатишда усуллар кетма-кетлиги ишлаб чиқилганми” деган саволимизга мураббий-

ларнинг 10 % ҳа деган жавобни билдиришган, мураббийларнинг 60 % йўқ деган жавобни билдиришган бўлса, мураббийлар 30 % жавоб бера олмайман деган жавобни беришди.

Анкета сўровномасиниг олтинчи саволимизда “Бошланғич тайёргарлик босқичидаги юнон-рум курашчиларнинг машғулотлар жараёнида қайси сифатларини ривожлантиришга кўпроқ эътибор қаратасиз” деган саволимизга мураббийларнинг 60 % эгилувчанлик, чақонлик, тезкорлик деган жавобни билдиришган, мураббийларнинг 20 % куч, чидамлилик, тезкорлик деган жавобни билдиришган бўлса, мураббийлар 20 % куч, тезкорлик, эгилувчанлик деган жавобни беришди.

Анкета сўровномасиниг еттинчи саволимизда “Бошланғич тайёргарлик босқичидаги юнон-рум курашчиларга тайёргарликни қайси бўлимларига асосий этибор қаратиш мақсадга мувофиқ деп ҳисоблайсиз” деган саволимизга мураббийларнинг 70 % жисмоний тайёргарлик, техник тайёргарлик деган жавобни билдиришган, мураббийларнинг 20 % техник-тактик тайёргарлик деган жавобни билдиришган бўлса, мураббийларнинг

10 % психологик тайёргарлик, техник тайёргарлик деган жавобни билдиришган.

Анкета сўровномасиниг саккизинчи саволимизда “Бошланғич тайёргарлик босқичидаги юнон-рум курашчилар танасинг қайси қисмидаги мушакларни яхшироқ ривожлантирилиши зарур деб ҳисоблайсиз” деган саволимизда мураббийларнинг 20 % қўл ва елка камари мушаклари деган жавобни билдиришган, мураббийларнинг 20 % оёқ (сон ва болдир) мушаклари деган жавобни билдиришган бўлса, мураббийларнинг 60 % қўл ва оёқ м мушаклари деган жавобни билдиришган.

Анкета сўровномасиниг тоъqqizinchi саволимизда “Ички назорат ва ўртоклик учрашуви мусобоқалари қачон ўтказилиши керак” деган саволимизга мураббийларнинг 10 % ҳафтада бир марта деган жавобни билдиришган, мураббийларнинг 60 % ҳар ойда бир марта деган жавобни билдиришган бўлса, мураббийларнинг 30 % ҳар икки ойда бир марта деган жавобни билдиришган.

Анкета сўровномасиниг ўнинчи саволимизда “Машғулотлардан сўнг курашчилар организмингизни қайта тиклаш учун қандай воситалардан кўпроқ фойдаланасиз” деган саволимизга мураббийларнинг 70 % уйқу, массаж деган жавобни билдиришган, мураббийларнинг 20 % соғломлаштириш туризми деган жавобни билдиришган бўлса, мураббийларнинг 10 % душ, сузиш деган жавобни билдиришган.

Хулоса. Ўтказилган тадқиқотлардан олинган маълумотларни таҳлил қилиш асосида қуйидаги хулосаларга келинди:

Биз юқорида келтирилган фикрларни таҳлил қилиб, бошланғич тайёргарлик босқичига юнон-рум курашчиларни 9-10 ёшлигидан бошлаб машғулотлар жараёнига жалб қилиш мақсадга мувофиқдир. Бошланғич тайёргарлик босқичида (1 йил) ҳафтасига уч марта машғулотлар олиб бооpиш ва спортчиларни кейинги босқичларга ўтишида катта аҳамиятга эга. Бошланғич тайёргарлик босқичида (2 йил) ҳафтасига тўрт марта машғулотлар олиб бооpиш ва спортчиларни кейинги босқичларга ўтишида катта аҳамиятга эга. Бошланғич тайёргарлик босқичидаги юнон-рум курашчиларга техник усулларни ўргатишда усуллар кетма-кетлиги ишлаб чиқилмаганлиги долзарб муаммолари хисобланади. Юнон-рум курашчиларнинг тик турган ва партер ҳолатидаги бажариладиган техник усулларнинг кетма-кетлиги ва ўзаро ҳаракатига асосланган бошланғич тайёргарлик босқичда услуб ва воситаларини такомиллаштириш

кетма-кетлиги аниқланди. Бошланғич тайёргарлик босқичдаги юнон-рум курашчиларга авал туриш ҳолатларини ўргатиш кейинчалик тик ва партер ҳолатида техник усулларни ўзлаштириш қуйидаги кетма-кетликда ўрганишда анча самарали бўлади: аввал ҳужумларни, кейин ҳимояни, ундан кейин қарши ҳужумларни бажаришни ўрганиш зарур. Шундан кейин кўникмаларни ўзлаштириш ва бошқа ҳолатга ўтиш керак.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2026 йил 21-январдаги ПФ-22-сонли “Спорт курашларини янада ривожлантириш чора тадбирлари тўғрисида”ги Фармони.

2. Жарылкапов У.Б. Малакали эркин курашчиларнинг оғир атлетика воситалари орқали куч сифатини ошириш услубияти // Ўз.Рес. п.ф.б.ф.д. (PhD): дисс ... автотореферат. Чирчиқ. 2024. – 66 б.

3. Б.Сатипов. Бошланғич тайёргарлик босқичида эркин курашчиларга техник-тактик ҳаракатларни ўргатиш муаммолари. “Фан-спортга” илмий-назарий журнал. Чирчиқ. 2022. № 06. Б.38–41.

4. Якупбаев А.А. Бошланғич тайёргарлик босқичида шуғулланувчи юнон-рум курашчиларнинг жисмоний тайёргарлигини ривожлантириш методикаси // “Фан-спортга” илмий-назарий журнал. Чирчиқ. 2025. №3. Б. 79–82.

5. Сатипов Б.А. Дастлабки тайёргарлик босқичида эркин курашчиларда жисмоний сифатларни боғлиқли ривожланиш ва асосий усулларини шакллантириш // Ўз.Рес. п.ф.б.ф.д. (PhD): дисс ... автотореферат. Чирчиқ. 2024. – 58 б.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING HARAKAT MALAKALARINI SPORT GIMNASTIKASI VOSITALARI ORQALI SHAKLLANTIRISH

Rayimova D.F.
Qarshi davlat Universiteti Sport fakulteti Jismoniy tarbiya va sport kafedrasi o'qituvchisi

Tayanch so‘zlar: boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, harakat ko‘nikmalari, jismoniy tarbiya, sport gimnastikasi, harakatlarni muvofiqlashtirish, harakat ko‘nikmalari.
Ключевые слова: младшие школьники, двигательные умения, физическое воспитание, спортивная гимнастика, координация движений, моторные навыки.
Key words: primary school students, motor skills, physical education, sports gymnastics, movement coordination, motor skills.

РЕЗЮМЕ:
Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining harakat ko‘nikmalarini sport gimnastikasi vositalari yordamida shakllantirish xususiyatlari ko‘rib chiqilgan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini jismoniy tarbiyalash tizimiga gimnastika mashqlarini kiritishning pedagogik jihatdan maqsadga muvofiqligi asoslangan. Muvofiqlashtirish, egiluvchanlik va kuch chidamliligini rivojlantirishga qaratilgan asosiy harakat amallarini o‘rgatishga uslubiy yondashuvlar aniqlandi. Sport gimnastikasi elementlarini tizimli qo‘llash boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida harakat tayyorgarligi darajasini oshirish va barqaror harakat ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam berishi ko‘rsatilgan. Olingan qoidalardan umumta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya dasturlarini ishlab chiqishda foydalanish mumkin.
РЕЗЮМЕ:
В статье рассматриваются особенности формирования двигательных умений младших школьников средствами спортивной гимнастики. Обоснована педагогическая целесообразность включения гимнастических упражнений в систему физического воспитания детей начальных классов. Определены методические подходы к обучению базовым двигательным действиям, направленным на развитие координации, гибкости и силовой выносливости. Показано, что систематическое применение элементов спортивной гимнастики способствует повышению уровня двигательной подготовленности и формированию устойчивых моторных навыков у младших школьников. Полученные положения могут быть использованы при разработке программ физического воспитания в общеобразовательных учреждениях.
SUMMARY:
The article examines the features of forming motor skills in younger schoolchildren through sports gymnastics. The pedagogical expediency of including gymnastic exercises in the system of physical education of primary school children has been substantiated. Methodological approaches to teaching basic motor actions aimed at developing coordination, flexibility, and strength endurance

have been identified. It has been shown that the systematic application of sports gymnastics elements contributes to improving the level of motor preparedness and the formation of stable motor skills in younger schoolchildren. The obtained provisions can be used in the development of physical education programs in general education institutions.

Kirish. Boshlang‘ich maktabda jismoniy tarbiyaning zamonaviy tizimi nafaqat bolalar salomatligini mustahkamlashga, balki jismoniy faoliyatning turli xillarini yanada muvaffaqiyatli o‘zlashtirishni ta’minlaydigan asosiy harakat ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Kichik maktab yoshida asab-mushak koordinatsiyasi, fazoviy yo‘nalganlik va harakatlarning plastikligi jadal rivojlanadi, bu esa harakat ko‘nikmalarini maqsadli shakllantirish uchun qulay shart-sharoit yaratadi [4].

Bolalarning harakat sohasini rivojlantirishning samarali vositalaridan biri sport gimnastikasidir. Uning mashqlari harakatlarning yuqori o‘zgaruvchanligi, bajarishning aniqligi, tananing fazodagi holatini muvofiqlashtirish va nazorat qilishni talab qilishi bilan ajralib turadi. Bu gimnastikani boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining harakat madaniyatini shakllantirishning universal vositasi sifatida ko‘rib chiqishga imkon beradi [3].

Shu bilan birga, maktab jismoniy tarbiya amaliyoti tahlili shuni ko‘rsatadiki, gimnastika vositalari ko‘pincha bolalarning yosh xususiyatlari va harakat ko‘nikmalarini shakllantirish qonuniyatlarini hisobga olmagan holda, qisman qo‘llaniladi. Ilmiy asoslangan uslubiy yondashuvlarning yo‘qligi o‘quv jarayonining samaradorligini pasaytiradi va gimnastikaning rivojlantiruvchi imkoniyatlarini cheklaydi [2].

Shu munosabat bilan jismoniy tarbiya nazariyasi va yoshga oid pedagogikaning zamonaviy g‘oyalariga asoslangan sport gimnastikasi vositalari bilan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining harakat ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasini izlash va asoslash dolzarb hisoblanadi [5,7].

Tadqiqotning maqsadi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida harakat ko‘nikmalarini shakllantirishda sport gimnastikasi vositalarini qo‘llash samaradorligini asoslash va tajribada tekshirishdan iborat.

Adab1yotlar tahlili va metodologiya. Maktab yoshida harakat ko‘nikmalarini shakllantirish masalalari ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Jismoniy tarbiya nazariyasi qoidalariga ko‘ra, bolalik davrida harakat ko‘nikmalarini rivojlantirish shaxsning keyingi jismoniy takomillashuvining poydevoridir. L.P.Matveevning ko‘rsatishicha, aynan kichik maktab yoshida harakatlarga o‘rgatishning muvaffaqiyatini belgilovchi sensor va harakat tuzilmalari o‘rtasida barqaror aloqalar shakllanadi [2].

(V.I.Lyax, 2019)ning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, koordinatsion murakkab mashqlarni jismoniy tarbiya dasturiga kiritish bolalarning harakat tayyorgarligi darajasini sezilarli darajada oshiradi. Bunda sport gimnastikasi vositalari harakatlarning aniqligi, ritmikligi va uyg‘unligini rivojlantirish uchun eng maqbul vositalar sifatida qaraladi [1].

Bir qator mualliflarning ta’kidlashicha, gimnastika mashqlari tayanch-harakat apparatiga, vestibulyar barqarorlikka va harakatlarni o‘z-o‘zini nazorat qilish qobiliyatiga kompleks ta’sir ko‘rsatadi. Bu gimnastikadan nafaqat jismoniy rivojlanish vositasi sifatida, balki maktab o‘quvchilarining harakat madaniyatini shakllantirishning pedagogik vositasi sifatida ham foydalanish imkonini beradi [5,6,9,10].

Tadqiqotlarning sezilarli miqdoriga qaramay, umumiy o‘rta ta’lim maktablari sharoitida sport gimnastikasi vositalari bilan harakat ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich shakllantirishning uslubiy masalalari yetarlicha ishlab chiqilmaganligicha qolmoqda, bu esa keyingi eksperimental tadqiqotlar zarurligini belgilaydi.

Materiallar va usullar. Tadqiqot umumta’lim maktabi bazasida o‘tkazildi. Pedagogik tajribada jismoniy tarbiya mashg‘ulotlariga tibbiy qarshi ko‘rsatmalarga ega bo‘lmagan 7-8-9 yoshdagi 48 nafar 2-3-sinf o‘quvchilari ishtirok etdi.

Barcha ishtirokchilar jismoniy tayyorgarlik darajasi bo‘yicha ikkita taqqoslanadigan guruhga bo‘lingan:

- nazorat guruhi (NG) - mashg‘ulotlar an’anaviy jismoniy tarbiya dasturi bo‘yicha o‘tkazildi;
- tajriba guruhi (TG) - o‘quv jarayoniga qo‘shimcha ravishda sport gimnastikasi vositalari kiritildi.

Tajriba 12 hafta davom etdi. Tajriba guruhida maxsus tanlangan gimnastika mashqlari: tayanib sakrash, muvozanat saqlash, dumalash, akrobatika elementlari va koordinatsion mashqlar qo‘llanildi.

Tadqiqot usullari. Pedagogik usullar:

- harakatlarga o‘rgatish jarayonini kuzatish;
- gimnastika elementlarini bajarish sifatini ekspert baholash;
- harakat ko‘nikmalarining shakllanganlik darajasini tekshirish.

Jismoniy tarbiya testlari:

- harakatlarni muvofiqlashtirish testi;
- egiluvchanlik testi;
- asosiy gimnastika elementlarining bajarilishini nazorat qilish.

Ma’lumotlarni qayta ishlash usullari:

- o‘rtacha qiymatlarni hisoblash;
- NG va TG ko‘rsatkichlarining qiyosiy tahlili;
- Styudent t-mezoni p<0,05 ahamiyatlilik darajasida.

Natijalar. Pedagogik tajriba-sinov natijalari ikkala guruh o‘quvchilarida jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlarining ijobiy dinamikasini ko‘rsatdi. Biroq, o‘quv jarayoniga sport gimnastikasi vositalari kiritilgan tajriba guruhida ko‘rsatkichlarning o‘sishi statistik jihatdan aniqroq bo‘ldi (p<0,05).

1-jadval ma’lumotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, tajriba guruhi o‘quvchilarida koordinatsion qobiliyatlar darajasi 61 balldan 75 ballgacha, nazorat guruhida esa 60 balldan 65 ballgacha oshgan. Egiluvchanlik, kuch chidamliligi va gimnastika elementlarini bajarish sifati ko‘rsatkichlarida ham sezilarli farqlar qayd etildi.

1-jadval. Jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	NG tajribadan oldin	NG tajribadan so‘ng	TG-tajribadan so‘ng	TG tajribadan so‘ng
Koordinatsiya (ballar)	60	65	61	75
Egiluvchanlik (sm)	12	14	13	18
Kuch chidamliligi (marta)	8	10	9	14
Madhiya elementlarini ijro etish sifati (ballar)	65	70	66	82

Tajriba guruhida gimnastika elementlarini bajarish sifatining oshishi (66 dan 82 ballgacha) akrobatik va koordinatsion murakkab mashqlarni tizimli qo‘llashda harakat ko‘nikmalarining yanada samarali shakllanishini ko‘rsatadi.

Koordinatsion ko‘rsatkichlar dinamikasining grafik ko‘rinishi (1-rasm) tajriba guruhi o‘quvchilarida harakat qobiliyatlarini yanada jadal rivojlantirishga bo‘lgan barqaror tendensiyani tasdiqlaydi.

Olingan natijalar harakatga o‘rgatish nazariyasi qoidalariga mos keladi, unga ko‘ra kichik maktab yoshida barqaror harakat ko‘nikmalarini shakllantirish turli xil koordinatsion-to‘yingan mashqlardan foydalanganda eng samarali bo‘ladi. Sport gimnastikasi vositalari harakatlar aniqligi, muvozanat va fazoda mo‘ljal olishni rivojlantirish uchun optimal sharoitlarni ta’minlaydi, bu esa ularning yuqori pedagogik samaradorligini tasdiqlaydi.

Xulosa. O‘tkazilgan tadqiqotlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining harakat ko‘nikmalarini shakllantirishda sport gimnastikasi vositalarini qo‘llash samaradorligini tasdiqladi. Jismoniy tarbiya darslari tuzilmasiga gimnastika mashqlarini kiritish koordinatsion qobiliyatlarni, egiluvchanlikni,



1-rasm. koordinatsion ko‘rsatkichlar dinamikasi

kuch chidamliligini va harakat amallarini bajarish sifatini yanada yaqqolroq rivojlantirishga yordam berishi tajribada aniqlangan.

Tajriba guruhining barcha o‘rganilgan ko‘rsatkichlar bo‘yicha an’anaviy dastur bo‘yicha shug‘ullangan nazorat guruhiga nisbatan statistik jihatdan sezilarli ustunligi aniqlandi. Bu esa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini jismoniy tarbiyalashda sport gimnastikasi vositalaridan tizimli foydalanish maqsadga muvofiq degan xulosaga kelish imkonini beradi.

Olingan natijalardan umumta’lim maktablarida jismoniy tarbiya dasturlarini ishlab chiqishda va jismoniy tarbiya o‘qituvchilari uchun uslubiy tavsiyalar tayyorlashda foydalanish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Лях В.И. Двигательные способности школьников: основы теории и методики развития. – М.: Просвещение, 2019. – 215 с.

2. Матвеев Л.П. Теория и методика физической культуры. – М.: Спорт, 2020. – 544 с.

3. Виленский М.Я., Соловьёв Г.М. Физическое воспитание младших школьников. – М.: Академия, 2018. – 240 с.

4. Назаров О.К. Теория и методика физического воспитания детей школьного возраста. – Ташкент: O‘zbekiston, 2017. – 310 с.

5. Юсупов Б. Дене тарбия назарияси ва методикаси. – Ташкент: O‘qituvchi, 2016. – 285 с.

6. Бальсевич В.К. Онтокинезиология человека. – М.: Физкультура и спорт, 2018. – 368 с.

7. Шахов А.В. Методика обучения элементам гимнастики в начальной школе // Теория и практика физической культуры. – 2021. – № 9. – С. 41–45.

8. Жукова Л.А. Формирование двигательных умений у детей младшего школьного возраста средствами гимнастики // Педагогико-психологические и медико-биологические проблемы физической культуры и спорта. – 2020. – № 2. – С. 58–63.

9. European Gymnastics Federation. Fundamentals of School Gymnastics. – Lausanne, 2022. – 96 p.

10. Gallahue D., Ozmun J., Goodway J. Understanding Motor Development. – New York: McGraw-Hill, 2019. – 412 p.

TALABA YUGURUVCHILARNING JISMONIY TAYYORGARLIGINI SHAKLLANTIRISH DARAJASI

Xayitov A.E.
Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti
mustaqil izlanuvchi

Tayanch so‘zlar: yugurish, jismoniy tayyorgarlik, tajriba guruhi, nazorat guruhi, talaba yugur, universiada, rektor kubogi.
Ключевые слова: бег, физическая подготовка, экспериментальная группа, контрольная группа, бег среди студентов, универсиада, кубок ректора.
Key words: running, physical training, experimental group, control group, running among students, universiade, rector's Cup.

РЕЗЮМЕ:
Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalari talabalari orasida yugurish sport turi bilan shug‘ullanuvchi yoshlarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish masalalari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida tajriba va nazorat guruhlarida o‘tkazilgan mashg‘ulotlar natijalari solishtirildi. Olingan ma’lumotlar asosida tajriba guruhida jismoniy sifatlar rivojlanishida sezilarli ijobiy o‘zgarishlar kuzatilgani aniqlandi.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье с научной точки зрения проанализированы вопросы совершенствования физической подготовленности молодёжи, занимающейся беговыми видами спорта, среди студентов высших учебных заведений. В ходе исследования были сопоставлены результаты тренировочных занятий, проведённых в экспериментальной и контрольной группах. На основе полученных данных установлено, что в экспериментальной группе наблюдались выраженные положительные изменения в развитии физических качеств.
SUMMARY:
This article provides a scientific analysis of issues related to improving the physical fitness of young people engaged in running sports among students of higher education institutions. During the research process, the results of training sessions conducted in the experimental and control groups were compared. Based on the obtained data, it was determined that significant positive changes in the development of physical qualities were observed in the experimental group.

Kirish. Yugurish sport turi insonning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalarida o‘tkaziladigan **“Talaba yugur”, “Men g‘olib”, universitet chempionati, rektor kubogi, universiada sport musobaqalariga saralov bosqichlari** talabalarning jismoniy holati,

tezkorlik, chidamlilik va kuch sifatlarini yuqori darajada rivojlanishiga zamin yaratadi.

Shu bois, talaba sportchilarning jismoniy tayyorgarlik mashg‘ulotlarini ilmiy asosda ishlab chiqish va mashg‘ulotlar tizimini takomillashtirish bugungi kunda dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi: talaba yuguruvchilarning darsdan tashqari mashg‘ulotlarda maxsus jismoniy tayyorgarligini aniqlash.

Tadqiqot vazifalari – talaba sportchilarni maxsus jismoniy tayyorgarligini ilmiy uslubiy adabiyotlar bo‘yicha o‘rganish;

- talaba sportchilarni sinov testlari yordamida maxsus jismoniy tayyorgarligini aniqlash.

Biz tomonimizdan Toshkent davlat agrar universiteti talaba yoshlaridan 30 nafarini tadqiqotga jalb etildi, ular ikki guruhga bo‘linib, 15 nafar tajriba va 15 nafari nazorat guruhlariga ajratildi.

Biz tomonimizdan pedogogik tajribaga maxsus sinov testlaridan tezkor kuch sifatini aniqlashda 100 m. masofaga yugurish, tezkor chidamliligini 400 va 800 hamda 1500 m. masofalarga yugurush sinovlari asosida aniqlashga e’tibor qaratildi.

Maxsus chidamligini esa 3000 m. masofaga yugurush asosida aniqlandi, Oyoqni portlovchi kuchini esa joyidan turib uzunlikka va uch xatlab joyidan turib uzunlikka sakrash sinovlaridan foydalanildi, qo‘lning portlovchi kuchini esa 3 kg. to‘ldirilgan to‘pni ikki qo‘llab oldinga uloqtirish bo‘yicha aniqlandi. So‘ngi sinovimizda esa 100 m. masofaga oyoqdan-oyoqqa sakrab yugurish sinovidan foydalanildi.

Tajriba guruhlaridan olingan dastlabki natijalar quyidagi

1-jadvalda berildi.

1-jadval.

Pedogogik tajriba boshida **TAJRIBA** guruhi yuguruvchilarini jismoniy tayyorgarligini tuzilishi

№ t/r	**F.I.Sh.**	**100 m. masofaga yugurish *(soniya)***	**400 m. masofaga yugurish *(soniya)***	**800 m. masofaga yugurish *(soniya)***	**1500 m. masofaga yugurish *(soniya)***	**3000 m. masofaga yugurish *(soniya)***	**Joydan uzunlikka sakrash *(sm.)***	**Joydan uch xatlab sakrash *(sm)***	**3 kg to‘ldirilgan to‘pni uloqtirish *(sm)***	**100 m . masofaga oyoqdan - oyoqqa sakrab yugurish *(marta)***
1	Olloshukurov Nurbek	14,25	75,5	183,5	330,2	842,6	220	601,5	930	52
2	G‘iyosiddinov Jovoxir	14,5	76,5	184,8	332,6	840,8	215	599,8	918	53

3	Ibragimov Dilmurod	14,7	75,5	182,5	334,5	836,3	236	601,5	923	51
4	Bozorboyev Og‘abek	14,05	77,1	179,1	332,5	839,6	201	599,5	922	53
5	Ataxanov Ataxan	14,25	78,2	183,2	334,6	833,1	210	598,3	919	54
6	Orzuqulov Sardorbek	14,12	78,5	183,3	330,8	835,2	220	599,8	923	55
7	Muxitdinov Adxam	13,8	77,1	179,1	331,5	834,3	216	595,1	925	52
8	Rustamov Sarvar	13,9	76,5	179,6	329,8	823,6	230	595,8	919	51
9	Shaymardonov Shoxboz	14,1	74,2	178,8	336,5	843,8	225	590,5	918	53
10	Maxmudov Fuzail	12,9	73,5	179,2	334,3	843,2	214	599,6	921	54
11	Sobirov Begzod	13,9	74,5	178,5	334,8	842,3	223	592,3	924	52
12	Mirzabekov Asadbek	14,3	74,1	182,3	329,8	838,5	216	594,8	920	55
13	Mutalipov Abdulaziz	14,11	75,25	181,5	330,8	835,4	215	596,6	923	53
14	Matyusupov Shoxrux	14,05	74,5	182,5	333,6	829,6	223	594,7	920	52
15	Xusanov Bekzod	13,09	74,5	179,7	334,5	843,1	225	593,6	919	49
X		**14,13**	**74,7**	**180,6**	**334,3**	**841**	**209**	**593**	**934**	**53**
Q		0,47	1,55	2,10	2,14	5,76	8,43	3,40	3,22	1,59
V,%		3,36	2,07	1,17	0,64	0,69	4,03	0,57	0,35	3,01

Olingan natijalarga ko‘ra tajriba guruhi 100 m. masofaga yugurish o‘rtacha natija 14.13± 0.47 soniyada yugurib o‘tishga erishgan bo‘lsa, navbatdagi 400 m. masofaga yugurish o‘rtacha 74.7± 1.55 soniya natijani qayd etdi, tezkor chidamlilikni ifodalovchi 800 m. masofaga yugurish o‘rtacha natija 180.6± 2.10 soniyaga teng bo‘ldi, 1500 m. masofaga yugurishda esa o‘rtacha natija 334.3± 2.14 soniyani tashkil etdi, maxsus chidamlilikni ifodalovchi 3000 m. masofaga yugurishda o‘rtacha natija 843±5.76 soniyaga teng bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin.

Oyoqni portlovchi kuchini ifoda etuvchi sinovlardan biri joyidan turib uzunlikka sakrashda o‘rtacha natija 209 ± 8.43 sm. teng bo‘lgan bo‘lsa uzoqlikka sakradi, joyidan uch xatlab sakrashda esa o‘rtacha natija 593±3.40 sm tashkil qilganligini ko‘rishiiz mumkin.

Ikki qo‘llab 3 kg to‘ldirilgan to‘pni oldinga uloqtirishda o‘rtacha 934±3.22sm natijani qayd etishdilar, yuguruvchilarni qadam uzunligini va yuguruish chidamliligini aniqlashda 100 metr masofaga oyoqdan-oyoqqa sakrab yugurishda o‘rtacha 53±1.59 martani tashkil etganligini ko‘rishimiz mumkin.

Biz tomonimizda yuqoridagilarni inobatga olib nazorat guruhi sinaluvchilarni jismoniy tayyorgarligini aniqlashga e’tibor qaratdik.

Olingan natijalar 2-jadvalda ifodalandi.

2-jadval

Pedogogik tajriba boshida **NAZORAT** guruhi yuguruvchilarini jismoniy tayyorgarligini tuzilishi

№ t/r	F.I.Sh.	100 m. masofaga yugurish *(soniya)*	400 m. masofaga yugurish *(soniya)*	800 m. masofaga yugurish *(soniya)*	1500 m. masofaga yugurish *(soniya)*	3000 m. masofaga yugurish *(soniya)*	Joydan uzunlikka sakrash *(sm.)*	Joydan uch xatlab sakrash *(sm)*	3 kg to‘ldirilgan to‘pni uloqtirish *(sm)*	100 m. masofaga oyoqdan - oyoqqa sakrab yugurish *(marta)*
1	Olloshukurov Nurbek	14,25	75,5	183,5	330,2	842,3	215	598,5	933	53
2	G‘iyosiddinov Jovoxir	14,5	76,5	184,8	332,6	841,8	216	597,6	924	52
3	Ibragimov Dilmurod	14,7	75,5	182,5	334,5	839,2	209	597,8	939	53
4	Bozorboyev Og‘abek	14,05	77,1	179,1	332,5	840,1	207	589,8	924	53
5	Ataxanov Ataxan	14,25	78,2	183,2	334,6	843,2	212	590,8	932	54
6	Orzuqulov Sardorbek	14,12	78,5	183,3	330,8	836,5	201	598,8	927	54
7	Muxitdinov Adxam	14,12	77,1	179,1	331,5	841,4	218	592,6	929	53
8	Rustamov Sarvar	14,25	76,5	179,6	329,8	833,6	211	594,3	932	55
9	Shaymardonov Shoxboz	13,85	74,2	178,8	336,5	844,6	217	592,6	934	49
10	Maxmudov Fuzail	14,1	73,5	179,2	334,3	840,3	206	587,8	932	53
11	Sobirov Begzod	13,9	74,5	178,5	334,8	847,1	208	598,6	935	49
12	Mirzabekov Asadbek	14,3	74,1	182,3	329,8	840,8	211	590,1	933	54
13	Mutalipov Abdulaziz	14,11	75,25	181,5	330,8	841,4	210	591,2	939	55
14	Matyusupov Shoxrux	14,05	74,5	182,5	333,6	838,9	217	591,3	935	53
15	Xusanov Bekzod	13,09	74,5	179,7	334,5	844,6	219	597,8	932	49
X		**14,1**	**75,7**	**181,2**	**332,7**	**841,05**	**211,8**	**593,9**	**932**	**52,6**
Q		0,35	1,55	2,10	2,14	3,32	5,16	3,84	4,50	2,03
V,%		2,51	2,04	1,16	0,64	0,40	2,44	0,65	0,48	3,86

Olingan natijalarga ko‘ra **Nazorat** guruhi 100 m. masofaga yugurish o‘rtacha 14.1± 0.35 soniyada yugurib o‘tdi, navbatdagi 400 m. masofaga yugurish o‘rtacha 75.7± 1.55 soniyada yugurib o‘tgan bo‘lsa, tezkor chidamlilik ko‘rsatkichlaridan

800 m. masofaga yugurishda o‘rtacha 181.2±2.10 soniya natija qayd etildi, navbatdagi 1500 m. masofaga yugurish o‘rtacha 332.7±2.14 soniyada yugurib o‘tishga erishilgan bo‘lsa, 3000 m. masofaga yugurish o‘rtacha natija 841.05±3.32 soniyaga teng bo‘ldi.

Joyidan turib uzunlikka sakrashda o‘rtacha natija 211.8 ± 5.16 sm.ga teng ekanligi kuzatildi, joyidan turib uch xatlab sakrash sinovida esa o‘rtacha natija 593.9±3.81 sm qayd etdi.

Ikki qo‘llab 3 kg to‘ldirilgan to‘pni uloqtirish esa o‘rtacha natija 932±4.50 sm.ni tashkil qildi, 100 metr masofaga oyoqdan-oyoqqa sakrab yugurish sinovida o‘rtacha natija 52.6±2.03 martani tashkil etganligini ko‘rishimiz mumkin.

Biz tomonimizdan pedogogik tajribaga jalb etilgan Toshkent davlat agrar universiteti talaba yoshlarini jismoniy tayyorgarligi har ikkala guruhlarda tajriba boshida bir hilda natijalar shakllantirilganligini ko‘rsatdi. Ammo yetakchi olimlardan M.Olimov vap bosh olimlar tomonidan berilgan ma’lumotlar bilan qiyosiy tahlil etilganda, ular o‘rtasida sezilarli farqlar 100 m. masofaga, 400-800-1550 va 3000 m masofaga yugurish turlarida mavjud ekanligi ya’ni bizning agrar universiteti sinaluvchilaridan yuqori jismoniy tayyorgarlikka ega ekanligi tahlil jarayonida aniqlandi. Lekin, M.Olimov bergan ma’lumotlar jismoniy tarbiya va sport universiteti yengil atletika ixtisosligi talaba yoshlariga tegishli ekanligini albatta ularda natijalarni yuqori ekanligini ko‘rsatdi.

Chunki ular sport ixtisosligiga ega bo‘lgan sportchilar hisoblanishadi. Ammo yuqoridagilarni inobatga olib pedogogik tadqiqotga jalb etilgan sinaluvchilar bilan doimiy mashg‘ulotlar tashkil qilindi.

Ilmiy asosda mashg‘ulot jarayonlarini tashkil etish va o‘tkazish lozim. Qolaversa, ushbu mashg‘ulotlarda sinaluvchi talaba yoshlarni jismoniy tayyorgarligini rivojlantiriuvchit vosita usullarini izlab topish va amaliyot jarayoniga joriy etish lozim.

Faqat shu orqaligina “Talaba yugur”, “Men g‘olib”, universitet chempionati, rektor kubogi hamda Universiada kabi nufuzli sport musobaqalariga saralov bosqichlarida munosib ishtirok etish, yetakchi sportchilar qatoridan joy olish imkoniyatiga ega bo‘lamiz. Shu bilan birga, talaba yoshlar o‘rtasida jismoniy faollikni oshirish, sportga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga hamda oldimizga qo‘ygan yuqori natijalarimizga erishamiz.

Xulosa. O‘tkazilgan pedagogik tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, jismoniy tarbiya va sport yo‘nalishiga ixtisoslashmagan oliy ta’lim muassasalari uchun yetarli darajada ilmiy-uslubiy adabiyotlar ishlab chiqilmagan. Shu bilan birga, mazkur oliy ta’lim muassasalarida talaba yoshlarni turli sport turlari bilan shug‘ullanishlari uchun muayyan shart-sharoit va imkoniyatlar yaratilgan

bo‘lsa-da, ularning jismoniy tayyorgarligi hamda sport faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan maxsus ilmiy tadqiqot ishlari lozim darajada amalga oshirilmaganligi aniqlandi.

Shunindek, jismoniy tayyorgarlik darajasini aniqlash maqsadida o‘tkazilgan dastlabki sinov natijalari pedagogik tajribaga jalb etilgan tajriba va nazorat guruhi sinaluvchilarining umumiy jismoniy ko‘rsatkichlari deyarli bir xil darajada shakllanganligini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, yetakchi olimlar tomonidan berilgan ilmiy manbalar tahlili natijalariga ko‘ra, sinaluvchilar tezkor-kuch hamda tezkor-chidamlilik sifatlarini baholovchi maxsus sinovlar bo‘yicha sezilarli darajada past natijalarni qayd etgan. Mazkur holat ularning jismoniy tayyorgarligini yanada takomillashtirish, ayniqsa mazkur jismoniy sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulotlarni ilmiy-uslubiy asosda rejalashtirish va tashkil etish zarurligini taqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.S.Olimov “Yugurish turlarida yengil atletikachi talabalarni tayyolashning ilmiy-pedogogik asoslari” dissertatsiya ishi 2023 y.

2. R.S.Salomov Sport mashg‘ulotlarining nazariy asoslari. O‘quv qo‘llanma T-2005 y.

3. K.T. Shakirjanova Yengil atletikada sport mashg‘uloti asoslari. Uslubiy qo‘llanma T-2008 y.

4. N.T. To‘xtaboev, K.T.Shakirdjanova, I.R.Soliev “Qisqa masofaga yugurish” o‘quv qo‘llanma Ch-2017 y.

5. I.R.Soliev “Qisqa masofaga yuguruvchilarni yillik tayyorgarlik mashg‘ulotlarini rejalashtirish” dissertatsiya PhD avtoreferati Ch-2020 y.

6. M.S.Olimov “Masofaga yuguruvchi sportchi talabalarni musoboqlarga tayyorlash uslubiyoti” dissertatsiya ishi , 2011 yil.

7. F.S.Xo‘jamkeldiev “O‘rta masofaga yuguruvchi sportchilarni yillik tayyorgarlik mashgulotlar jarayonlarida tiklovchi vositalarni foydalanish samaradorligi” dissertatsiya PhD avtoreferati Ch-2025 y.

8. M.S.Olimov, I.R.Soliev, V.Sh. Xaydarov “Sport pedogogik mahoratini oshirish” T – 2017 y.

MALAKALI YUGURUVCHILARNI YILLIK TAYYORGARLIK BOSQICHLARIDA JISMONIY RIVOJLANISHI VA SALOMATLIK DARAJASINI O‘RNI

Xayitov A.E.
Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti
mustaqil izlanuvchi

Tayanch so‘zlar: talaba sportchilarni maxsus chidamliligini rivojlantirish, total va porsial ko‘rsatkichlari.
Ключевые слова: развитие специальной выносливости у студентов-спортсменов, суммарные и частичные показатели.
Key words: development of special endurance in student-athletes, total and partial indicators.

РЕЗЮМЕ:
Ushbu maqolada malakali yuguruvchilarni yillik tayyorgarlik bosqichlarida jismoniy rivojlanishi, funksional ko‘rsatkichlari aniqlangan, shuningdek, yuguruvchi talaba-yoshlarni jismoniy rivojlanishi va total va porsial ko‘rsatkichlarini aniqlash bo‘yicha o‘tkazilgan pedogogik tadqiqotlar natijalari qiyosiy taxlil qilingan. Shuningdek, yillik tayyorgarlik bosqichlarida talaba sportchilarni maxsus chidamliligini rivojlantirish natijasida sport musoboqalariga tayyorlashda jismonan rivojlanishning o‘rni, uning axamiyati batafsil yoritib berilgan.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье представлен сравнительный анализ результатов педагогических исследований, проведенных для определения показателей физического развития и функциональных показателей квалифицированных бегунов на этапах ежегодной подготовки, а также показателей физического развития и суммарных и частичных показателей молодых бегунов. Подробно рассматривается роль и значение физического развития в подготовке юных спортсменов к спортивным соревнованиям в результате развития специальной выносливости на этапах ежегодной подготовки.
SUMMARY:
This article presents a comparative analysis of the results of pedagogical studies conducted to determine the physical development and functional performance of qualified runners during their annual training stages, as well as the physical development and overall and partial performance of young runners. The role and importance of physical development in preparing young athletes for sporting competitions through the development of specialized endurance during their annual training stages is examined in detail.

Jismoniy tarbiyaning mohiyati uning faoliyat ko‘rsatish mexanizmlarini va jamiyatida tutgan o‘rni va ularngni xayotidagi vazifasini tushunish uchun

jismoniy rivojlanish tushunchasi muhim axamiyatga ega bo‘lib, u inson xayoti davomida organizmning tabiiy morfologik va funksional xususiyatlarini tana uzunligi, tani vazni, ko‘krak qafasi aylanasi, o‘pkaning tiriklik sig‘imi kislorodni maksimal iste’mol qilish, kuch, tezlik, chidamlilik, egiluvchanlik, chaqqonlik va boshqa ko‘rsatkichlarni shakllanishi o‘zgarishining biologik jarayonini ifodalaydi. Organizm to‘xtovsiz ravishda yoshga oid evolyusiyani amalga oshiradi. Xayot yo‘lining har bir bo‘lagi o‘ziga xos jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlariga ega. Shu bilan birga, ular organizm to‘qmalari va funksiyalarining qarishi va degralatsiyasiga olib keladigan progressiv o‘zgarishlarni ham, regressiv o‘zgarishlarni ham o‘zida aks ettirishi mumkin.

Bolalik va o‘smirlik chog‘idan boshlab organizmda moddalar almashinuvining katta faolligi o‘sish energiyasi barcha organlar va tizimlarning progressiv rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Lekin, xayotning dastlabki kunlaridanoq to‘g‘ridan-to‘g‘ri qarama-qarshi jarayonlar ham paydo bo‘ladi.

Jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlari u yoki bu jamiyatning xayot sifatini baxolash uchun juda katta ahamiyatga ega. Jismoniy rivojlanish darajasi tug‘ilish, kasalllanish, o‘lim kabi ko‘rsatikichlar bilan bir qatorda jamiyatda aholining ijtimoiy salomatligining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri xisoblanadi.

Jismoniy rivojlanish biologik va ijtimoiy xususiyatga ega bo‘lgan ko‘plab omillarga bog‘liq. Manashu omillar va shart-sharoitlarning butun majmuiga qarab jismoniy rivojlanish har tomonlama, garmonik yoki bir tomonlama cheklangan va garmonik bo‘lmagan bo‘lishi xam mumkin.

Jismoniy mashqlar, turli sport turlarini bajarish, ratsional ovqatlanish, mehnat va dam olish rejimi yordamida yuqorida keltirilgan jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlarini kerakli tomonga o‘zgartirish mumkin. Jismoniy rivojalnishni boshqarish asosida shug‘ullanuvchilarning biologik qonuniyati hamda organizm shakllari va funksiyalarining birligi qonuniyati yotadi. Shu bilan birga, jismoniy rivojlanish irsiyat qonunlari bilan ham bog‘liq bo‘lib, ularni omillar sifatida xisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Shuning uchun bu jarayonga uni boshqarish maqsadida faqat organizmning turli yosh davrlaridagi xususiyatlari va imkoniyatlarini xisobga olgan holda aralashish mumkin: shakllanish va o‘sish, shakl va funksiyalarning eng yuqori rivojlanish, qarish kabi omillar kiradi.

Bundan tashqari jismoniy rivojlanish organizm va muhit birligi qonuniyati bilan bog‘liq bo‘lib, insonning yashash sharoitiga shu jumladan, geografik joylashuv muhitga ham bog‘liqdir.

Har bir sport turi uchun nafaqat ma’lum bir tana tuzilishi turi, balki, jismoniy rivojlanish sur’ati ham xarakterlidir. Jismoniy rivojlanish morfofunksional

ko‘rsatkichlar sportda, yuqori sport natijalariga erishishda sezilarli darajada cheklov bo‘lishi mumkin. Turli ixtisoslikdagi sportchilarning morfofunksional ko‘rsatkichlarini o‘rganish sport fanining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib kelgan. Ko‘pgina taniqli olimlar sportchilarning tana tuzilishi xususiyatlarini o‘rganish bilan shug‘ullanishgan. Morfofunksional ko‘rsatkichlarni o‘rganish zamonaviy sportning asosiy muammolarini hal qilishga yordam beradi, yani: turli sport turlarida sportga yaroqlilikni aniqlash alohida yosh davrlari davomida o‘sish surati va qisqa muddatli istiqbolni o‘rganish; turli mintaqalar aholisini sport ixtisosligini tanlashga yo‘naltirish va boshqalar kiradi. So‘ngi yillarda turli ixtisosdagi sportchilarning jismoniy va biologik rivojlanish dinamikasi bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar o‘tkazilgan. Jumladan, insonning jismoniy rivojlanishidagi eng katta rivojlanish dinamikasi 13-15 yoshda sodir bo‘ladi. Bu davrda sportchilarning jismoniy rivojlanishida pubert davri xisoblanadi. Yosh sportchilarning tana tuzilishi va jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlarini muntazam ravishda kuzatish, baholash va tahlil qilish yosh sportchilarning salomatligi, sport tayyorgarligi va individual rivojlanish sur’atlarini to‘g‘ri boshqarish imkonini beradi.

Inson xayoti uzluksiz rivojalanish jarayoni bo‘lib, unda quyidagi bosqichlar ketma-ketlikda kechadi: yetilish, yetuklik yoshi, keksayishidan iborat.

O‘sish va rivojlanish bir jarayonning ikki o‘zaro bog‘liq va bir-birini taqazo etuvchi tomonlaridir.

O‘sish xujayralar xajmining, alohida organ va to‘qimalar hamda butun organizm massasining ortishi bilan bog‘liq miqdoriy o‘zgarishlar jaryoni xisoblanadi.

Sportda rivojlanish bu to‘qma va a’zolarning sifat o‘zgarishlari tabaqalanishi va funksional takomillashuvini o‘z ichiga oladi.

Organizmning jismoniy rivojlanishi biologik qonuniyatlarga bo‘ysunadi va o‘sish hamda rivojlanishning umumiy qonuniyatlarini aks ettiradi. Jismoniy rivojlanish biologik qonuniyatlarga bo‘ysungan holda ko‘p sonli omillarga bog‘liq bo‘lib, nafaqat irsiy moyillikni, balki barcha muhit omillarining organizmga ta’sirini ham aks ettiradi. Jismoniy rivojlanish salomatlik va yoshga oid takomillashuv me’yorlarining eng muhim ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Shuning uchun uni to‘g‘ri baxolashning amaliy ko‘nikmasi mavjud.

Bunday holda, "Jismoniy rivojlanish" atamasi juda tez-tez ishlatiladi, bu ichki omillar va xayotiy sharoitlar bilan bog‘liq bo‘lgan organizmning morfologik va funksional ko‘rsatkichlari majmuasidir.

Jismoniy rivojlanish - individual xayot davomida inson organizmining tabiiy marfofunksional xususiyatlarining o‘zgarish jarayoni hisoblanadi.

Jismoniy rivojlanish mezonlariga - tananing asosiy shakllari va o‘lchamlari, organizmning funksional o‘zgarish xolatlari kiradi ya’ni qaddi-qomat, suyak va mushaklar xolati, yog‘ to‘planish darajasi, ko‘krak qafasi, orqa, qorin, oyoqlar shakli, funksional sinamalar natijalar shular jumlasidandir.

Biz tomonimizdan talabalarni jismoniy rivojlanishini to‘rganishga e’tibor qaratdik. Unga ko‘ra tajriba va nazorat guruhiga mansub 30 nafar sportchilarni tajriba va nazorat guruhlariga jalb etib, ularni 15 nafardan guruhlarga ajratib oldik, (total ko‘rsatkichlari). bo‘y uzunligi tajriba guruhida o‘rtacha 179±7,17sm. tashkil etgan bulsa, vazni o‘rtacha 65.9±4,6 kg. teng bo‘ldi. Vazn bo‘y indeksi 369.7±28,25 kg.sm ni takshkil etdi. Oyoq uzunligi 96.8±6,89 sm., bel uzunligi 82.2±6,17 sm., o‘ng qo‘l kuchi 70.5±4,22 kg. chap qo‘l kuchi 61.6±3,7 kg ni tashkil etdi (olingan natijalar 1-ilovada ifodalandi).

Tajriba guruhi sinaluvchilarini tadqiqot boshida jismoniy rivojlanishida total ko‘rsatkichlarini tuzilishi (1 jadval)

№ t/r	F.I.SH. / Ko‘rsatkichlar	Bo‘yi (sm)	Vazni (kg)	Vazn bo‘y indeksi	Oyoq uzunligi (sm)	Bel uzunligi	Ko‘l kuchi	
							o‘ng	chap
1	Olloshukurov Nurbek	175	56	320	93	82	71	63
2	G‘iyosiddinov Jovoxir	165	62	375.7	86	79	68	59
3	Ibragimov Dilmurod	179	67	374.3	96	83	73	62
4	Bozorboyev Og‘abek	182	68.5	376.3	101	81	74	66
5	Ataxanov Ataxan	176	65.5	372.1	78	98	71	59
6	Orzuqulov S ardorbek	173	62	358.3	99	74	66	58
7	Muxitdinov Adxam	180	65	361.1	101	79	69	63
8	Rustamov Sarvar	171	63.5	371	93	78	61	53
9	Shaymardonov Shoxboz	177	66.5	375.7	98	79	66	60
10	Maxmudov Fuzail	182	71,8	394,5	101	81	73	64
11	Sobirov Begzod	184	73,5	399,4	102	82	69	58
12	Mirzabekov Asadbek	174	64	367,8	99	75	79	66
13	Mutalipov Abdulaziz	186	68	365,5	101	85	72	63
14	Matyusupov Shoxrux	193	73	378.2	101	92	73	64
15	Xusanov Bekzod	188	63	335.1	103	85	72	66
	x	**179**	**65,93**	**369,7**	**96,8**	**82,2**	**70,5**	**61,6**
	Q	7,17	4,60	28,25	6,89	6,17	4,22	3,70
	V, %	4,01	6,98	7,64	7,12	7,50	5,99	6,01

Biz tomondan nazorat guruhi sportchilarining jismonan rivojlanganligini ham oltita ko‘rsatkichlar bo‘yicha aniqladik. Unga ko‘ra bo‘y uzunligi ushbu guruhida o‘rtacha 174,2±4,54sm. tashkil etgan bulsa, vazni o‘rtacha 64.73±5,59 kg. teng bo‘ldi. Navbatdagi vazn bo‘y indeksi bo‘yicha o‘tkazilgan sinov natijasi o‘rtacha 373.26±28,58 kg/sm ga tengligi aniqlandi.Oyoq uzunligi bo‘yicha o‘tkazilgan sinovda 89.66±3,31 sm. Ga tengligi aniqlandi. Navbatdagi

bel uzunligi bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotda si naluvchilarning o‘rtacha natijasi 84,46±3,11 sm.ni tashkil etdi. Qo‘l kuchi dinometriyasi bo‘yicha o‘tkazilgan sinovda o‘ng qo‘l kuchi 68,8±2,31 kg. teng bo‘lgan bo‘lsa, chap qo‘l kuchi 61.06±2,25 kg ni tashkil qildi. (olingan natijalar 1-ilovada ifodalandi).

Nazorat guruhi sinaluvchilarini tadqiqot boshida jismoniy rivojlanishida total ko‘rsatkichlarini tuzilishi (3.2 jadval)

№ t/r	F.I.SH. / Ko‘rsatkichlar	Bo‘yi (sm)	Vazni (kg)	Vazn bo‘y indeksi	Oyoq uzunligi (sm)	Bel uzunligi	Ko‘l kuchi	
							o‘ng	chap
1	Primqulov Xusniddin	178	61	342,7	92	86	73	63
2	Xoliqulov Iskandar	171	63	368,42	88	83	70	61
3	Abdullaev Abdullox	168	58	345,23	87	81	68	59
4	Raxmatullaev Kamron	177	73	412,42	87	90	68	59
5	Ziyodullaev Oybek	181	73	426,9	93	88	72	61
6	Xudoynazarov Xudoynazar	171	66	385,96	87	84	65	59
7	Tojiev Xudoyshukur	170	61	358,82	90	80	68	61
8	Axatqulov Bobirjon	176	71	403,4	89	87	67	61
9	Joniboev Jumaniyoz	170	58	341,17	89	81	69	62
10	Tojiboev Shoxrux	177	67	378,53	89	87	66	59
11	Abdusalomov Azizbek	170	59	347	89	81	71	65
12	Jo‘raboev Firdavs	179	66	368,71	91	88	69	61
13	Turdaliev Xasan	169	58	349,19	85	84	66	58
14	Juraev Nurmuxammad	181	65	359,11	99	82	69	61
15	To‘laganov Ozodbek	175	72	411,42	90	85	71	66
	x	**174,2**	**64,73**	**373,26**	**89,66**	**84,46**	**68,8**	**61,06**
	Q	4,54	5,59	28,58	3,31	3,11	2,31	2,25
	V,%	2,61	8,63	7,66	3,69	3,69	3,35	3,69

Nazorat va tajriba guruhi sinaluvchilarning jismonan rivojlanganligi darajasi bo‘yicha olingan natijalarni qiyosiy tahlil etganimizda, ular o‘rtasidagi deyarli farqlar kuzatilmadi. Bu ular pedogogik tajribani davom ettirish imkonini beradi, ammo V.B.Zemlechanok, V.R.Guba va V.G.Nikitushkinlar tomonidan berilgan ma’lumotlardan bo‘y uzunligida va vazn og‘irligida biz ulardan ortda ortda qolayotganligimizni ko‘rishimiz mumkin.

Xulosa o‘rnida, talaba sportchilarni sport musoboqalariga tayyorlash jarayonida total ko‘rsatkichlardan foydalanish ularning jismoniy rivojlanishi va salomatlik holatini to‘liq baholashda muhim ahamiyat kasb etadi. Yillik tayyorgarlik bosqichlarida sportchining tana tarkibi, yurak-qon tomir, nafas olish tizimi, bioximik ko‘rsatkichlar hamda funksional qobiliyatlarini muntazam tahlil qilish orqali ularning mashg‘ulotga tayyorlik darajasi, yuklamalarga organizmning javobi va tiklanish jarayonlari aniqlanadi.

Total ko‘rsatkichlar sportchining salomatligini nazorat qilish, yuklama va mashg‘ulot jarayonlarini individuallashtirish, ortiqcha zo‘riqish va jarohatlardan himoya qilishda total ko‘rsatkichlarga asoslanish mumkin. Bundan tashqari, ushbu ma’lumotlar asosida murabbiylar va shifokorlar sportchilar uchun to‘g‘ri strategik rejalarni shakllantiradi, natijada ularning jismoniy samaradorligi va sportda uzoq faolligi ta’minlanadi.

Shunday qilib, total ko‘rsatkichlardan samarali foydalanish nafaqat yuqori natijalarga erishish, balki sportchilarning umumiy sog‘lig‘ini muhofaza qilish va uzoq muddatli rivojlanishini ta’minlashda ham muhim omil hisoblanadi.

